

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MUQIMJON QIRG'IZBOYEV

S O T S I O L O G I Y A

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
o'quv qo'llanma*

Toshkent
«Navro'z» nashriyoti
2017

KBK: 80.(50'zb)

Q50

UO'K: 81(30+24)

Qirg'izboyev, Muqimjon

Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma/
M.Qirg'izboyev — Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2017 y. 456 b.

Taqrizchilar:

A.XOLBEKOV, sotsiologiya fanlari doktori, professor;

A.UMAROV, sotsiologiya fanlari doktori, professor.

O'quv qo'llanmada hozirgi davr sotsiologiya faniga doir bilimlar va masalalar — sotsial hodisalar va muammolar, shuningdek zamonaviy nazariy va empirik tadqiqotlar mujassamlashgan. Unda jamiyatni o'rganishning sotsiologik yondashuvlari va jahon sotsiologik fanlarida yuz bergan o'zgarishlar mazmun-mohiyati ochib berilgan, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlariga oid nazariyalar tahlil etilgan va ular milliy amaliyot bilan o'zaro aloqadorlikda taqqoslangan.

O'quv qo'llanmada sotsiologiyaning fan sifatidagi asosiy nazariy asoslari, sotsiologik bilimlarning rivojlanish qonuniyatlari, muammolari va ilmiy tadqiqot metodlari tavsiflanadi, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida paydo bo'ladigan sotsial muammolar yechimlarini topishga e'tibor qaratiladi.

O'quv qo'llanma mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari talabalari va professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma Andijon davlat universiteti Kengashining qaroriga (2017-yil 2-mart, 6-yig'ilish bayonnomasi) binoan nashrga tavsiya qilindi.

ISBN 978-9943-381-87-2

© M.Qirg'izboyev, 2017 y.

© «Navro'z» nashriyoti, 2017 y.

Mundarija

Kirish.....	4
1-mavzu. Sotsiologiya fan sifatida.....	7
2-mavzu. Sotsiologiya strukturasi	40
3-mavzu: Jamiyat yaxlit tizim sifatida.....	57
4-mavzu: Sotsial guruhlar va birliklar.....	104
5-mavzu: Sotsial institutlar.....	132
6-mavzu: Shaxs sotsiologiyasi.....	175
7-mavzu: Deviant xulq-atvor.....	204
8-mavzu: Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikatsiyaviy jarayonlar....	264
9-mavzu: Sotsial munosabatlar.....	296
10-mavzu: Sotsial taraqqiyot sotsiologiyasi.....	338
11-mavzu: Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari.....	384
Glossariy.....	423
Foydalanilgan xorijiy adabiyotlar ro'yxati.....	448

KIRISH

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi talabalarni sotsiologiya fanining muhim masalalarini o'rganishlari uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Talabalarning hozirgi zamonga xos dunyoqarashga ega bo'lishi, ularning o'z atrofidagi sotsial hodisalarni mustaqil ravishda baholay olishi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok eta olish qobiliyatini rivojlantirishga oid ko'nikma va malakalarni egallashlarida sotsiologiya fanini chuqur o'rganishga zarurat sezishi tabiiy bir holdir. Shu bilan birga, mamlakatda tobora chuqurlashib borayotgan fuqarolik jamiyati qurish islohotlari jahondagi rivojlangan mamlakatlarda yuz berayotgan sotsial o'zgarishlar, sotsial taraqqiyot, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir tajribalar va zamonaviy nazariy asoslarni chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Shu bilan bir vaqtda, hozirgi davr kelajakda o'z ajdodlari hayotini davom ettiradigan, jahondagi va xalqaro munosabatlardagi voqeliklar va hodisalarni chuqur anglaydigan, islohotlar jarayonida shaxsan faol ishtirok etadigan yosh avlodni shakllantirishni talab qilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmani yozishda talabalarning mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonlarining taboro chuqurlashib borishi, mustaqillik tufayli yangi sotsial munosabatlar, sotsial birliklar, institutlar, axborot-kommunikatsiya vositalarini ildamlilik bilan rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish islohotlariga oid zamonaviy bilimlarni egallashlariga, shuningdek ularning sotsiologiya fani nazariyalari va tushunchalarini o'zlashtirishlariga yordam beradigan nazariy tahlillar tavsiflarini shakllantirishga muhim e'tibor berildi.

Mamlakatda sotsiologiya mustaqil fan sifatida sobiq ittifoq davrida hukm surgan yakkahokim mafkura aqidalari bilan sug'orilgan ijtimoiy-siyosiy fanlarni o'qitishga barham berilganidan keyin — mustaqillikning ilk davridan boshlab yangi milliy demokratik davlat va jamiyat ruhiga monand ravishda shakllanib bordi. U Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar qatorida bizning Vatanimiz oliy o'quv yurtlarida ham o'qitila boshlandi. O'tgan 26 yildan ortiqroq davr ichida mazkur fanni o'qitishga doir o'ziga xos milliy tajribalar va ta'lim berish salohiyati shakllandi. Sotsial hayot va sotsial munosabatlar bir joyda qotib turmaganidek, sotsiologiya fani ham doimiy ravishda rivojlanishga moyillik sezadigan fandır. Shuning uchun ham bu sohaga doir barcha darslik va o'quv qo'llanmalarni muttasil ravishda yangilab berish — hozirgi davrning dolzarb muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi paytda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy fanlarga doir o'quv qo'llanmalarni yaratishda Prezident Sh.M.Miziyoyevning quyidagi fikrlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir: «O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. ...Bu, avvalambor, ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini biz yaxshi anglaymiz»¹. Ana shu ulug'vor maqsadlardan kelib chiqib «ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish» maqsadi qo'yildi².

Zero, sotsiologiyaning jamiyat to'g'risidagi (lot. soci(etas) jamiyat + logiya, ya'ni ta'limot) fan ekanligini, shuningdek hozirgi davrda mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilinganligini e'tiborga olsak, bu fanni talabalar dunyoqarashiga singdirishning nechog'liq dolzarb vazifa ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Sotsiologiya sotsial voqelik va uning o'zgarishi to'g'risidagi bilimlarni shakllanishiga imkoniyat yaratadi, sotsial rivojlanish jarayonlari mantig'ini ochib beradi, insonga o'zining jamiyatdagi o'rnini, o'z hayotiy yo'lini topishi va hayotiy istiqbolarini aniqlab olishga yordamlashadi, sotsial ziddiyatlarni hal etishda shaxsiy intilishlar his-tuyg'ularini kuchaytiradi. Sotsiologiya bizning hayotimizga doimiy ravishda hayotiy ta'sirlar o'tkazib boradi. Sotsiologik tafakkurlash va tadqiqotlarning siyosat va sotsial islohotlarga qo'shadigan hissasi bir necha yo'llarda amalga oshiriladi. Ularning ichida eng asosiy to'g'ridan-to'g'ri yo'l — bu sotsial vaziyatlarni aniq va ravshan yoki ishonchli tarzda tushunishdir.

Sotsiologiya ijtimoiy fanlar ichida muhim va jamiyat doimiy ravishda ehtiyoj sezadigan fandır. U jamiyatning tarixiy rivojlanishning obyektiv va subyektiv omillari o'zaro aloqalari natijasi o'laroq yaxlit sotsial organizm sifatida yashashi to'g'risida bilimlar beradi. Demak, u inson, olimlar, hokimiyat strukturalari kabilarga o'z faoliyatlarida yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar oqibatlarini oldindan anglagan tarzda

¹ Мирзиёев Ш.М. Ислом ҳамкорлик ташкилоти ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқ //Халқ сўзи,2016,19 октябрь.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.,6-son,70-modda.

xatti-harakat qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. Sotsiologiya individlarga nisbatan ham o'z e'tiborini qaratsada, uning tadqiqotlari markaziy obyektlari — bu sotsial guruhlar, shuningdek sotsial jarayonlar hisoblanadi. Sotsiologiya sotsial qadriyatlar modellaridan tashqari yana sotsial o'zgarishlar, me'yorlardan og'ishga moyil xulqlar, diniy xulq va oilaviy hayot kabilarni o'rganadi va ularni tavsiflab beradi. Sotsiologiya sotsial sinflar, siyosiy hamda professional guruhlar va boshqa sotsial birlashmalar o'rtalaridagi o'zaro farqlanishlarni tadqiq etadi.

Albatta, o'quv qo'llanma butunlay yangi nazariy ishlanmalardan iborat emas. Unda so'nggi o'n yilliklarda sotsiologiya fanini shakllantirishga hissa qo'shgan taniqli olimlarning asarlariga nisbatan hozirgi davr nuqtai nazaridan murojaat qilindi, klassik sotsiolog olimlarning asarlari yana bir bor yangi va zamonaviy talablar asosida o'rganib chiqildi. Sotsial tushunchalarni talqin etishga fuqarolik jamiyati qurish talablaridan kelib chiqib yondashildi. O'quv qo'llanmaning sezilarli qismini tashkil etgan masalalar va muammolar va ularning echimlari muallif tomonidan mustaqil ravishda tahlil etildi. Muhimi, o'quv qo'llanmalarga nisbatan davlat standartlari asosida qo'yilgan talablar, hozirgi rivojlanish davri talabasi ehtiyojlari va uning mazkur fanni o'zlashtirish qobiliyati darajasining nechog'lik ekanligi doimo muallifning diqqat markazida turdi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan mustaqillik davrida nashr etilgan, rivojlangan mamlakatlar sotsiologlari tomonidan yaratilgan «Sotsiologiya» o'quv qo'llanmalari va darsliklari sinchiklab o'rganildi, ulardan tegishli ravishda xulosalar chiqarildi.

Umuman, o'quv qo'llanmani yozishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2011-yil 17-sentyabrdagi 392-sonli buyruq bilan tasdiqlangan «Sotsiologiya» fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo'nalishi uchun) asos qilib olindi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning keyingi nashrlarini yanada mukammal va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida respublika oliy o'quv yurtlari, turli ilmiy-tekshirish muassasalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, talabalar, shuningdek o'quv qo'llanmaga qiziqish bildirgan kitobxonlardan qo'llanmaga doir o'z taklif va mulohazalarini bildiradi, degan umiddamiz.

1-mavzu. SOTSILOGIYA FAN SIFATIDA

- 1.1.Sotsiologiyaning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi.**
- 1.2.Ogyust Kont — pozitiv sotsiologiya asoschisi.**
- 1.3.Sotsiologiyaning obyekti va predmeti.**
- 1.4.Sotsiologiyaning qonunlari.**
- 1.5.Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari.**

Tayanch tushunchalar: sotsial, sotsiallik, sotsiologiya, pozitiv sotsiologiya, empirik sotsiologiya, jamiyat, davlat, jamiyatning strukturasi, ijtimoiy, sotsial hodisa, sotsial voqelik, sotsial reallik, sotsiologiyaning obyekti, sotsiologiyaning predmeti, sotsial munosabatlar, sotsial harakat, insoniy birlik, ijtimoiy shartnoma, subyekt, maqom, rol, sotsiologiya qonunlari, sotsial institut, gumanitar fanlar.

1.1. Sotsiologiyaning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi

Qadim zamonlardan boshlab odamlar jamoa yoki urug'larga birlashib hayot kechirishlari odatga va turmush tarziga aylandi. Dastlabki insoniy birliklarni paydo bo'lishiga asosiy sabab — bu har bir insonni tirik qolish, yashash, hayot kechirish vositalarini qo'lga kiritish uchun birlashishga majbur ekanligi edi. Lekin, shu bilan birga, har bir insonning o'zini o'zi anglagan davrdan boshlab jamoadan ayro holda o'z erkin hayotiga ega bo'lishiga intililish his-tuyg'ulari ham rivojlanib bordi. Jamoaga birlashish hayotiy zaruratdan kelib chiqib, busiz har qanday inson hayot kechirishdan mahrum bo'lish xavfiga duchor bo'lar edi.

Shu bilan birga, odamlar urug'larga, qabilalarga va davlatga uyushib, ma'lum bir chegaralar doirasida yashashga o'tishlari ham insoniy hayot zarurati bilan uzviy ravishda bog'liq edi. Chunki, yashash uchun zarur bo'lgan hayotiy va boshqa resurslar o'ta chegaralangan edi. Mehnat qurollari, ishlab chiqarish vositalari, ijtimoiy ongni rivojlanib borishi, xususiy mulkchilikning shakllanishi, mulkiy tengsizlikning kelib chiqishi natijasida odamlar o'zlarining biron-bir jamiyatsiz yoki davlatsiz yashay olmasliklarini anglay boshladi.

Insoniyat tarixida jamiyatning paydo bo'lishi natijasida rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi. Chunki, faqat insoniy jamiyatgina odamlarning ezgu maqsadlari va manfaatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi mumkin edi. O'z o'rnida, jamiyatning paydo bo'lishi barobarida sotsial (ijtimoiy, jamiyatga oid) tushunchalar va munosabatlar

ham shakllana boshladi. Shu tariqa, jamiyatni paydo bo'lishi uni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy (sotsial) fikrlar va qarashlarni rivojlantirishni taqozo etdi. Sotsiologiya fanining kelib chiqishiga zamin tayyorlagan sotsial bilimlar shakllana boshladi: jamiyat to'g'risida tasavvurlar, ijtimoiylik va sotsial voqelikka (reallikka) doir tushunchalar shakllandi. Ayniqsa, XIX asrning o'rtasiga kelib sotsial voqeliklarni tadqiq etish va bilish jarayonlari nazariy jihatdan o'z takomiliga yetdi.

Tarixiy rivojlanish oqibatlari o'laroq sotsial voqelik tushunchasi va nazariyasining shakllanishi natijasida dunyo madaniy makonining ma'lum bir nuqtaslarida jamiyatga doir g'oyalar odamlar ongini shu darajada egalladiki, u endi birinchi darajali ahamiyat kasb etadigan voqelik sifatida o'zini namoyon qila boshladi. Jamiyatni anglash va unga amaliy ta'sir qilishning yangi va o'ziga xos vositalarini shakllantirish zarurati bu sohada yangi rivojlanish vazifasini hayot kun tartibiga qo'ydi. Sotsial reallikning «kashf etilishi» va bu sohadagi izlanishlar yangi tadqiqot obyekti sifatidagi fanni shakllanayotganligini anglata boshladi. Ilgarilari jamiyatning bir qismi, yoki uning ba'zi jihatlari, masalan, oila, davlat, huquq, etnos kabilar bir butun jamiyat sifatida anglangan edi. Lekin, taraqqiyotning yangi bosqichlarida takomillashib borayotgan jamiyatga doir tasavvurlar hali to'liq emasligi ham o'zini ko'rsata boshladi. Mashaqqatli, ba'zida fojiali izlanishlar natijasi o'laroq jamiyatga doir yangi g'oyalar o'ziga yo'l ochib boshladi. Bu jarayonlar natijasida sotsiologiya fanini yaratishga nisbatan ehtiyojlarni kelib sabab bo'ldi.

Antik davrda jamiyatning kelib chiqishi va sotsiallikning mohiyatini talqin qilishga doir ikkita an'anaviy qarashlar shakllangan edi. Ularning birinchisiga muvofiq jamiyat — bu tabiiy ravishda paydo bo'lgan insoniy birlik; ikkinchisiga muvofiq, inson — o'z tabiatiga binoan va boshdan boshlab sotsial mavjudotdir va altruizmga³ berilgan zotdir; u asalari va chumoli kabi jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Inson shakllanishining ijtimoiy bosqichigacha bo'lgan davri mavjud emas. Yoki, bu davr bir vaqtning o'zida insonni kelib chiqishigacha bo'lgan davrning o'zini ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, ma'lum bir aholini ma'lum bir hududda birlashtirib turuvchi, huquqiy me'yorlar va siyosiy hokimiyatga asoslangan davlat faqat tabiati sotsial bo'lgan inson holatining davom etishi, rivojlanishi va mustahkamlanishini ifodalaydi, xolos.

³ Altruizm — [fr. altruisme <lot. alter o'zga, boshqa] — o'zgalari uchun g'amxo'rlik qiladigan, boshqalar uchun o'z manfaatlaridan kechishga tayyor bo'lgan odamning fazilati (hudbinlikning aksi va teskarisi).

Ikkinchi an'anaviy qarashga muvofiq, jamiyat — bu sun'iy ravishdagi birikma; inson — o'z tabiatiga binoan va boshdan boshlab antisotsial (g'ayrisotsial) va hudbin mavjudotdir; insonning tabiiy holati — ijtimoiylikdan tashqaridadir va u ijtimoiylikkacha bo'lgan davrga taalluqlidir. Jamiyat — bu individlarning farovonligiga erishish uchun insonlar tomonidan qurilgan sun'iy mexanizmdir. Odamlar irodasi va kuchiga tayangan davlat ana shu mexanizm sifatida, yoki uni mustahkam va samarali uyushtirishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi: pirovard natijada davlat o'z fuqarolarini o'ziga ularning ixtiyori asosida va ularning shaxsiy farovon bo'lishlari maqsadlaridan kelib chiqib bo'ysundiradi. Lekin, bu qayd etilgan ikki an'anaviy qarashlar o'rtasida yana ko'plab oraliq nuqtai nazarlar ham shakllandi.

Birinchi an'anaviy qarashlar asoschisi, antik dunyoda ilk sotsiologik unsurlarni tadqiq etgan Aristotelning (er.il. 384-322) fikricha, inson asalarilar va turli podalarga uyushib yashaydigan jonzotlarga nisbatan o'zida ko'proq ijtimoiylikni kasb etadi. Buning isboti shundaki, barcha tirik jonzotlar ichida faqat insonga so'zlash qobiliyati ato etilgan⁴. Aristotel jamiyatni nimalardir bilan o'zaro bog'langan odamlarning har qanday birlashmasi sifatida talqin etdi. U eng sodda va birlamchi ijtimoiy birlashma sifatida oila va uy xo'jaligini misol keltiradi. Bu birlashma tabiiy munosabatlarga asoslangan: er — xotin va xo'jayin — qul.

Bu birlamchi birlashmalar yig'indisi qishloqni tashkil etadi. O'z navbatida, qishloqlarning qo'shilmasi ijtimoiy mavjudlikning oliy shakli - davlatni (yunon shaklida — polis, shahar-davlat) tashkil etadi. Aristotel fikricha, davlat — jamiyatning bir turi. Shuning uchun ham u tabiiy birikmadir. Shu bilan birga, u ma'lum darajada inson tomonidan qurilgan mexanizmdir. Davlat oila va alohida olingan qishloqqa nisbatan birlamchidir, umuman olganda esa ularning o'tmishdoshidir va ular ustida — balandda turadi. Aristotelning ko'rsatishicha, jamiyat inson mavjud bo'lishining mutlaq zaruriy shartidir. Kimdir o'zining tabiati oqibatida (tasodifiy holatlardan tashqari) davlatdan tashqarida yashayotgan bo'lsa, u ma'naviy jihatdan hali etilmagan va noraso, yoki, g'ayritabiiy odamdir⁵.

Antik davr mutafakkirlarining jamiyatga doir qator nazariy qarashlari paydo bo'lishiga qaramasdan Qadimgi Yunonistonda ham, Qadimgi Rimda ham jamiyatni tabiiy rivojlanish natijasi o'laroq paydo bo'lishiga doir qarashlar ustuvorlik kasb etmadi. Asosan, jamiyat — «sun'iy birikma, u odamlarning kashfiyotlari va maqsad sari intilishlari natijasidir:

⁴ Аристотель. Политика // Аристотель. Соч.: В 4 т. - М., 1983. Т.4. - С.378-379.

⁵ O'sha joyda. - В.378.

monarxlar, qonun chiqaruvchilar yoki ma'lum bir jamiyat a'zolari faoliyati natijasidir» qabilidagi fikrlar jamiyatda ustunlik qilaverdi. Bu kabi fikrlar Platon, Epikur va uning izdoshlari (masalan, Lukretsiy), Karnead, Rim huquqshunoslari Gay va Ulpian asarlarida uchraydi. Lekin, bu an'anaviy qarash vakillari jamiyatni «kishilar kashfiyoti», deb qarasalarda, uni kishilarning asosiy ehtiyojlariga asoslanadi va jamiyat kishilar hayotining muhim funksiyalarini bajaradi, degan fikrlari muhim ahamiyatga ega edi.

Jamiyatni antik davrdagi tushunchalari keyingi davrda paydo bo'lgan tasavvurlarga nisbatan tor bo'lishiga qaramay muayyan va aniq ravishda ahamiyat kasb etar edi. Bu tushunchalar o'zaro munosabatlarning birlik, ittifoq va hamkorlikdagi faoliyati kabi ochiq-oydin ko'zga tashlanib turgan shakllarini ifoda etdi. Bu avvalambor, mustahkam his-tuyg'ularga, huquqiy shartnomalarga va aniq amaliy maqsadlarga asoslangan oila va mulkiy birliklarni o'zida ifoda etdi⁶. Bu davrda hali jamiyat to'g'risida to'liq tasavvurlar shakllanmagan edi. Jamiyat, go'yoki, ma'lum bir odamlarning maqsadlari uchun tuzilgan, deb faraz qilindi. Shuning uchun ham Aristotel jamiyatni ko'rib chiqishni dastlab oiladan boshlagan edi. Qadimgi Rimda ham oila shartnomaga asoslanib tuzilishi sababli ham unga nisbatan jamiyat sifatida qaraldi. Oilaviy muhabbat «ijtimoiy» muhabbat sifatida talqin etildi, er va xotin o'zaro munosabatlari esa «ijtimoiy» munosabatlari qabilida tushunildi.

Oilaviy ittifoqlardan tashqari «jamiyat» deganda, do'stlar davrasi, kommunalar, qardoshlik kabilar tushunildi. Lekin, asosan «jamiyat» deganda qandaydir mulkiy maqsadlar uchun tuziladigan ittifoqlar anglanildi. Bu tushuncha shartnomaviy-huquqiy xarakter kasb etdi. «Jamiyat» tushunchasining bu nuqtai nazariga binoan jamiyat — bu tamoman muayyan va mulkiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ko'zlangan, ongli ravishda alohida odamlar tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida birlashishni anglatdi. Inson shartnomalarni tuzar ekan, boshqacha aytganda, har bir inson jamiyatga kirar ekan, unga o'zining mulkiy yoki boshqa shakldagi hissasini qo'shadi⁷. Bu hissani qo'shish majburiy bo'lishi shart, aks holda, ijtimoiy bo'lmagan — hadya qilishga asoslangan xayriya munosabatlari ro'y beradi. Modomiki, jamiyat — bu ma'lum odamlar tomonidan ma'lum maqsadlar uchun shakllantiriladigan birlashmadir, u umrbod muddatga tuzilmaydi: uning yashash muddati ishtirokchilar irodasiga muvofiq davom etadi yoki tugatiladi.

⁶ Спекторский Е. Понятие общества в античном мире. Этюд по семантике обществоведения. — Варшава, 1911. — С. 11.

⁷ O'sha joyda. — B. 15.

Har bir odam jamiyatga a'zo bo'lar ekan, nafaqat o'zi uchun, balki o'zining vorislari uchun ham majburiyatlar oladi. Shuning uchun ham qadimgi yunonlar va rimliklar davlatda jamiyat tushunchasini qo'llaganlarida bu tushuncha voqelikni to'la ifodalagan, u faqat intilish, xohish va idealni aks ettirgan⁸.

Sotsiologiya fanining rivojlanishiga Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (870-950) ham katta hissa qo'shdi. Ma'lumki, bu davrda adolatli davlat, fozil jamiyat va ideal hukmdorning sifatlari haqida tadqiqotlar olib borib, davlat va jamiyat to'g'risidagi konseptual ta'limotga yirik hissa qo'shgan mutafakkirlar — Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Bayja, Ibn Rushd va Ibn Xaldunlar sotsiologiya fanining u yoki bu unsurlari to'g'risidagi kashfiyotlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, ularning ichida sotsiologik omillarga muhim ahamiyat bergan mutafakkirlar Forobiy va Ibn Xaldun edi.

Forobiy X asrdayoq insoniy jamiyatning kelib chiqishi to'g'risida quyidagi fikrni bildirgan edi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. Uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lishda kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson ko'paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada *inson jamoasi* vujudga keldi»⁹.

Ko'rinib turibdiki, Forobiy antik davr faylasuflaridan keyin birinchi bo'lib jamiyatni kelib chiqishini sotsiologik omillar asosida tasavvur eta oldi. Mutafakkir inson to'g'risida quyidagi fikrni ilgari surdi: Inson — ijtimoiy mavjudotdir. Chunki, insonning o'z «faoliyatida zaruriy narsalarga va eng yuqori mukammallikka erishishi faqat bir yashash joyda yashayotgan odamlarning birlashuvi natijasidagina ro'y beradi»¹⁰.

Arab mutafakkiri Abdurahmon Abu Zayd Validdin Ibn Xaldun (1332-1406) haqli ravishda Yevropa olimlari tomonidan «sotsiologiyaning otasi» degan nomni berilishiga sazovor bo'ldi. U 1332-yilda Tunisda tug'ildi.

⁸ O'sha joyda.-B.16.

⁹ Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри.-Т.:А.Қодирий ном. халқ мероси нашриёти, 1993.-Б.186.

¹⁰ Аль-Фараби. Социально-этические трактаты.-Алма-Ата:Наука, 1973.-С.108.

Ibn Xaldun taniqli oilada tarbiya topgan bo'lib, yoshligidayoq ilohiyotshunoslik, falsafa va matematika fanlarini qunt bilan o'rgandi. Deyarli 26 yil shimoliy Afrikaning bir necha davlatlarida siyosiy arbob sifatida tanildi. 1364-yilda Andalusiyaga ketdi. U yerda islom madaniyatiga doir chuqur tadqiqotlar olib bordi. 1375-1378-yillarda «Al-Muqaddima» («Tarixga kirish») asari unga katta shuhrat keltirdi. 1382-yilda u Misrga kelib, mamlakat bosh qozisi mansabida faoliyat yurita boshladi.

Mashhur tarixchi Arnold Toynbi Ibn Xaldunning ijtimoiy fanlar sohasidagi o'rnini yuksak baholagan edi: «U o'zining o'tmishdoshlaridan birortasini ham takrorlamadi. Uning zamondoshlaridan birortasi ham undan o'zib keta olmadi. U hattoki, o'z izdoshlarida unchalik ilhom uyg'otmagan bo'lsada, jahon tarixi arafasida tarix falsafasini yaratdi. Bu, hech bir shubhasiz, betakror va ulug'vor mehnatdir»¹¹.

Ibn Xaldun dastlab insonning mohiyatini aniqlab berishga harakat qildi. Uningcha, inson hayvonot dunyosidan farq qilib, fikrlash qobiliyatiga egadir. Inson — ijtimoiy mavjudot. U o'zini himoya qiladigan «birdamlikdagi hayot» va o'zaro yordamdan foydalanadi. Inson o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib tabiatni o'zlashtiradi, madaniyat olamini yaratadi, o'zini madaniyat odami («umron») sifatida yuksaltiradi.

Ibn Xaldun «Al-Muqaddima» asarining kirish qismida asosan jamiyatning paydo bo'lishi haqida fikr yuritadi: «har bir odam o'zini himoya qilish uchun boshqalarning yordamiga muhtojdir. Barcha tirik jonzotlarga tabiiy sifatlar baxsh etilgan, ular o'rtasida kuch-quvvat ham taqsimlangan. Parvardigori olam odamga qaraganda hayvonlarga ko'proq kuch ulashgan. Misol uchun, ot odamdan kuchli; eshak, buqa, sher yoki fil kuchlilik jihatidan odamdan bir necha marta ustun turadi. Demak, tajovuzkorlik tirik jonzotlar uchun tabiiy xususiyatdir. Yaratgan ularning har biriga tashqi hujumlardan himoyalaniishi uchun alohida-alohida organlar bergan. Uning o'rniga u insonga fikrlash va qo'llar ato qildi. Qo'llar fikrga xizmat qilib, hunarga imkon yaratadi, hunar esa boshqa jonzotlardagi organlar o'rnini bosadigan himoyalaniish qurolini yaratadi»¹².

Busiz odam oziq-ovqat topolmaydi va hayot kechira olmaydi. Demak, Olloh uni hayot kechirish uchun oziq-ovqatga muhtoj qilib yaratgan. U yakka holda qurolga ega bo'la olmasligi tufayli o'zini himoya qila olmay jonzotlar o'ljasiga aylanadi. Uning hayoti qisqa vaqtda tugaydi, inson zoti ham tezda yo'qolib ketadi. Odam hamkorlik natijasidagina

¹¹ Субхи А.М.Философия истории.-Александрия:Аль-Сакафа аль-Джамия,1975.-С.28.

¹² O'sha joyda.-B.29.

yashash uchun oziq-ovqat topadi, o'zini himoya qilish uchun qurolga ega bo'ladi, Yaratgan amr qilganidek, u yashaydi va uning zoti saqlanadi. Mana shuning uchun barchaning umumhayoti (*jamiyati*) inson zoti uchun zarurdir. Siz odamlar mavjud bo'lmaydi, Yaratganning ularga buyurgan dunyoni qurish xohishi amalga oshmaydi»¹³.

Ibn Xaldun ishlab chiqarish vositalari, ularni taqsimlash va iste'mol qilish sifatlaridan kelib chiqib insoniy birlashmalar rivojlanishining ikki turi yoki ikki davrini bir-biridan ajratib ko'rsatib berdi. Birinchi davr — bu «badava», dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq hayot; keyingi davr — «xadara», shahar hayoti. Ishlab chiqarishning birinchi turida cheklangan sodda mehnat qurollari vositasida jam'ada o'rtasida teng miqdorda taqsimlanadigan, tirikchilik uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Lekin, bir qadar ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish tenglikni buzadi, teng bo'lmagan turli guruhlar va tabaqalar paydo bo'ladi. Ortiqcha mahsulotlarning ko'payishi ishlab chiqarishning ikkinchi turiga o'tish bilan bog'liq — savdo-hunarmandchilik, unga tegishli ravishda shahar hayotiga o'tish. Mehnat tobora murakkablashib boradi, unda ko'plab odamlar ishtirok etishiga zarurat tug'iladi, boylik va zeb-ziyatga imkon yaratadigan va unga intilishga undovchi mahsulotning yangi qo'shimcha qiymati paydo bo'ladi, shuningdek aholini yanada o'sishi uchun moddiy ta'minot manbai shakllanadi¹⁴.

Bu jarayonning yana bir boshqa jihati «asabiya»dan¹⁵ «mulk»ka o'tish bo'lib, unda urug'chilik munosabatlaridan hokimiyatga oid - mulkka egalik, qo'lida boylikni to'plagan hokimiyat egasi va uning yaqinlari belgilab beradigan munosabatlarga o'tiladi. Vaqt o'tishi bilan hokimiyat alohida tuzilma holida ajralib chiqadi, natijada davlat (davla) — hokimiyatga ega bo'lgan odamlar guruhi, uning vositasida endi elat yordamida emas, balki yollanma kuch bilan o'zini himoya qiladigan birlik paydo bo'ladi. Lekin, boylikni yanada o'sishi, hokimiyat-davlatni kuchayishi soliqlarni o'sishiga, raiyatni talashga olib keladi. Uning oqibati o'laroq iqtisodiyot tushkunlikka uchraydi, axloq buzila boshlaydi, va

¹³ Ибн Халдун. Ал-Мукаддима. Состав. и пер. с араб. А. В. Смирнова. // Историко-философский ежегодник, 2007. - М.: Наука, 2008. - С. 192-193.

¹⁴ Араби Б. Ибн-Хальдун - основоположник арабской социологии // <http://www.sunna.kz/ru/post/view?id=408>.

¹⁵ Asabiya — bu tushunchani turli olimlar har xil talqin qiladi: “jamoaviy birdamlik”, “jangovar birlik”, “ma’naviy kuch”, “yuksak his-tuyg’uli energiya” va hokazo. Eski arab tilidan tarjima qilganda u “mustahkam birlik”, “qabilalar birdamlik ruhi”, “guruh his-tuyg’usi” va “umum ishida ishtirok” ma’nolarini ham beradi.

nihoyat, sivilizatsiya halokatga yuz tutadi¹⁶. Shu tariqa, sivilizatsiya tabiiy, qonuniyatli yo'lni — gullab-yashnashdan halokatga yuz tutish yo'lini bosib o'tadi, endi uning o'rniga «asabiya» bosqichida turgan boshqa sivilizatsiya kirib keladi.

Ko'rinib turibdiki, Ibn Xaldun sotsiologiyani muhim tadqiqot obyektlari — jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlari, sivilizatsiya va davlatning rivojlanishi, yashashi, almashinib turishiga doir nazariyalarni yaratdi, bu masalalarni yanada rivojlantirishga dunyodagi olimlar diqqat-e'tiborini jalb etdi. Jamiyatni iqtisodiy rivojlanishi bilan boylik va zeb-ziynat tufayli ma'naviy tanazzullik o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar Ibn Xaldungacha o'rganilgan bo'lsada, bu davrda undan boshqa birorta olim *jamiyatning yashovchanlik mezonini birdamlik* ekanligiga doir nazariyani ilgari surmagan edi. Shuning uchun ham Ibn Xaldun dastlabki sotsiologik bilimlar unsurlarini yaratgan olim sifatida e'tirof etiladi.

O'rta asrlar Yevropasida jamiyat tushunchasi avvalambor konfessial xarakter kasb eta boshladi. U asosan katolik cherkovi va uning tarafdorlariga taalluqli bo'ldi. Undan tashqari, qishloq jamoasi, shahar kommunasi, sexlar va korporatsiyalar ham jamiyat sifatida talqin etildi. Shu tariqa, jamiyat millatdan yuqorida va tashqarida turgan birlik sifatida anglandi.

Faqat XVII asrga kelib millatning shakllanishi va rivojlanishiga bog'liq holda jamiyat tushunchasini millat va milliy davlatga aynanlashtirish boshlandi. Fransuz faylasufi va tarixchisi Bossyue (1627-1704) Muqaddas Kitobdagi «inson jamiyatda yashash uchun yaratilgan», degan prinsip asosida quyidagi fikrni ilgari surdi: «Insoniy jamiyatga ikki xil usulda qarash mumkin. U barcha inson zotini katta oila kabi o'ziga qamrab oladi. Yoki u har biri o'z huquqlariga ega bo'lgan ko'plab alohida-alohida oilalardan iborat bo'lgan millatlar yoki xalqlar bilan chegaralanadi. Keyingi ma'nodagi ko'rilayotgan jamiyat *fuqarolik jamiyati*, deb ataladi. Uni yuqorida aytilganidek, bir hukumat va alohida qonunlar hokimiyati ostida birlashgan odamlar jamiyati sifatiga muvofiq ravishda ta'riflash mumkin»¹⁷.

Yevropada XVII-XVIII asrlarga kelib insonning tabiiy holati va ijtimoiy shartnoma nazariyalarining keng tarqalishi kuzatildi. Bu nazariyalarning ildizi antik davrga taalluqli bo'lib, ular insonning tabiiy holati (*status naturalis*) va fuqarolik holati (*status civilis*) o'zaro farqlanishlariga doir tasavvurlaridan iborat edi. Ular ijtimoiy shartnomani

¹⁶ Розов Н.С. Закон Ибн Халдуна. К чему может привести рост коррупции и силового принуждения в России // Политический класс. №16, 2006. - С.61.

¹⁷ O'sha joyda. - B.62.

odamlar o'rtasidagi o'ziga xos farazlar yoki nazarda tutilgan shartnoma sifatida talqin etib, uning vositasida insonning tabiiy holatdan fuqarolik holatiga o'tishiga e'tibor qaratdilar.

Ijtimoiy shartnoma davlatning ilohiy kelib chiqqanligi o'rniga, yoki, bu eski qarashni to'ldirgan holda davlat hokimiyatining legitimligini asoslash vositasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Shu bilan birga, haqiqiy ijtimoiy holat davlat bilan aynanlashtirildi, haqiqiy jamiyat — bu davlatdir, degan aqida ilgari surildi.

Grotsiy va Voltergacha ijtimoiylikning tabiiy holat kasb etishini fransuz siyosiy mutafakkiri Jan Boden (1530—1596) tadqiq etgan edi. Bu kabi qarashlar ingliz faylasufi Richard Kamberlend (1631—1718), italiyalik faylasuf Djambattista Viko (1668—1744), fransuz faylasuflari G. Reynal (1713—1796) va Kondorse (1743—1794) kabilar asarlarida ham ilgari surildi.

Sotsiologiya fanining yirik o'tmishdoshlaridan biri — mashhur faylasuf Sharl Monteske (1689—1755) insonning tabiiy holatini inson hayotining ijtimoiy bosqichgacha bo'lgan davri ekanligini e'tirof etdi. Shu bilan birga, u jamiyatda tinchlikda, totuvlikda va keng ko'lamda yashashga intilish insonga xos bo'lgan dastlabki tabiiy tamoyildir, degan tezisni ilgari surdi. U o'zining «Qonunlar ruhi haqida» (1748) nomli asarida quyidagi qonunlarni ilgari surdi: inson to'rtta asosiy «tabiiy qonun»ga asoslanadi: 1) boshqalar bilan tinchlikda yashashga intilish; 2) o'ziga oziq-ovqat topishga intilish; 3) bir odamning ikkinchisiga qaratilgan murojaati; 4) jamiyatda yashash orzusi¹⁸. Monteske individlar o'zaro aloqadorligi va xatti-harakatining ijtimoiylik belgisi ekanligini ochib berib, uni quyidagi qoidada mujassamlashtirdi: «Jamiyat — bu odamlarning o'zi emas, balki ularning ittifoqidir»¹⁹.

XVII—XVIII asrlarda Yevropa mutafakkirlari ijtimoiy shartnomani jamiyat (davlat) tuzishning aniq va faraz qilingan akti sifatida talqin etdi. Shu bilan birga, *jamiyat* o'z jonini saqlash va farovonlikka intilishiga qaratilgan ixtiyoriy yoki majbur bo'lish asosida tuziladigan shartnoma bilan birlashadigan individlarning yig'indisidir. Bunday talqinda jamiyat mohirona ustalik bilan tuzilgan mashinadir. Bu fikr ingliz mutafakkiri Jon Lokk (1632-1704), fransuz va nemis faylasuflari S.Pufendorf va X.Volf (1679—1754) asarlarida qayd etildi.

Jamiyatga doir yangicha noyob qarashlar ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588—1679) va ingliz mutafakkiri Jan-Jak Russo (1712—1778) tomonidan

¹⁸Монтескье Ш. О духе законов // Монтескье Ш. Избр. произведения.-М.,1955.-С.166.

¹⁹O'sha joyda.

ilgari surildi. Gobbs qarashlariga binoan, «odamlarning jamiyatga birlashgunga qadar tabiiy holati urushdan iborat bo'lgan. Bu urush oddiy urush bo'lmay, balki hammaning hammaga qarshi urushi bo'lgan»²⁰. Modomiki, insonlar tabiiy holatda o'zaro teng ekanlar, bu urush hech kimning g'alabasi bilan tugamaydi. «Hammaga hamma narsa mumkin»²¹ kabi holat inson uchun manfaat keltirmaydi. Shuning uchun u o'z jonini saqlashga intilib, yana «tabiiy» zaruratdan kelib chiqib o'zaro dushmanlikni to'xtatish va tinchlikni o'rnatishdan manfaatdordir. Lekin unga qanday qilib erishiladi? Gobbsning e'tirof etishicha, inson o'z tabiatiga binoan jamiyatda yashashga intiladi. Lekin, bu u jamiyatda yashashga qobil tug'iladi, degani emas: «Negaki, intilish — boshqa ish, qobil bo'lish - boshqa ish»²². Odanning jamiyatda yashash qobiliyati tabiatan shakllanmaydi, balki jamiyatning foydali ekanligi, unda ishtirok etishning zarurligi haqidagi bilimlardan paydo bo'ladi. Ustiga-ustak, go'dak va nodon (birinchisi hamma odamlarga, ikkinchisi ko'pchilikka taalluqli) ijtimoiy holatning mag'zini tushunmaydi.

Jan-Jak Russo o'zining «Odamlar o'zaro notengligi dalillari va kelib chiqishi haqida mulohazalar» (1755), «Ijtimoiy shartnoma haqida» (1762) va boshqa asarlarida odamlarning tabiiy holatda tengligi tasavvurlaridan kelib chiqib, jamiyatni davlatga aynanligi ijtimoiy shartnomaning natijasi ekanligiga muhim e'tibor berdi. Lekin, u Gobbsdan farqli o'laroq, odam tabiatan bir-biriga dushman ekanligini eslamaydi, balki insonning o'z tabiatiga binoan ezgulikka va farovonlikka intiluvchan, erkin ekanligi g'oyasini ilgari suradi; u faqat boshqa odamlarga zarurat sezmaydi. Lekin, shunday paytlar keladiki, odamlar endi «tabiiy» sabablarga ko'ra tabiiy holatda qola olmaydi, inson zoti halokatga uchrash tahdidlari ostida ijtimoiy shartnomalar tuzish yo'li bilan fuqarolik holatiga o'tadilar²³.

Russo jamiyatga ijtimoiy shartnoma mahsuli sifatida qaraydi, shu bilan birga, shartnoma natijasi o'laroq paydo bo'lgan jamiyat o'zining xususiy hayoti va qonuni bilan yashaydi, degan fikrni ilgari surdi. Bu fikr «umumiy iroda»²⁴, «umumiy manfaat», «jamoaviy vujud» ma'nosini beruvchi «suveren»²⁵, siyosiy hokimiyatning manbai va oliy mohiyat sifatidagi «xalq» kabi tushunchalarda ifodalandi. Bu tushunchalar kuchli

²⁰Гоббс Т.О. гражданинне // Гоббс Т.Соч.:в 2 т.-М.,1989.Т.1.-С.291.

²¹O'sha joyda.-B.292.

²²O'sha joyda.-B.285.

²³Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре // Руссо Ж.-Ж. Трактаты. -М.,1969. -С.160.

²⁴O'sha joyda.-B.170.

²⁵O'sha joyda.-B.168.

ijtimoiy tamoyillarni va ularning nazariyalarini aks ettira boshladi. Ular yana «siyosiy organizm» va «ijtimoiy organizm» tushunchalarida, shuningdek jamiyat bilan insoniy organizmdagi o'xshashliklarda namoyon bo'ldi²⁶.

XVIII–XIX asrlar oralig'ida Yevropa ijtimoiy fikrida ijtimoiy nominalizm²⁷ va individualizmga qarshi qarashlar shakllandi; bu bir vaqtning o'zida oldin hukmron bo'lgan — jamiyat insonning sun'iy irodasi va zakovati hosili, degan tasavvurlarlarga qarshi aks-sado edi. Insoniy yoki ilohiy iroda ishtirokisiz paydo bo'lgan «tabiiylik» va «sun'iylik» o'rtasidagi farqlanishlar endi ochiqroq namoyon bo'la boshladi. Shu bilan birga, davlat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro farqlanishlar o'zini ko'rsata boshladi: ular endi nafaqat aynanlashtirilmadi, balki bir-biriga o'zaro ziddiyatda ekanligi e'tirof etildi.

Bu paytda davlatning «sun'iy» ekanligiga doir ba'zi unsurlar tan olinmoqda edi. Chunki, davlat ochiq-oydin ravishda shakllanadi va odamlar tomonidan boshqariladi. Lekin, jamiyatda hali ko'proq anglanmagan va lekin yuzaki bo'lmagan, o'z-o'zidan rivojlanayotgan, o'zining xususiy qonunlari asosida yashayotgan «tabiiy» birikmalar ko'zga tashlanadi. Jamiyat yashirin, davlat «ortida», uning asosida turadigan, unchalik ko'zga ko'rinmaydigan mohiyat sifatida talqin etish boshlandi. Yangi qarashlarga binoan, davlat va uning institutlari qachonki ana shu «yashirin poydevor»ga (ya'ni, jamiyatga) muvofiq kelsa va unga tayansa, u o'sha paytda yaxshi ishlaydi va samara beradi.

Nemis klassik falsafasi asoschilaridan biri — G.Gegel (1770-1831) «xalq ruhi» tushunchasini sotsial institutlarning individuallikdanda yuqori va uning qudratli asosi ekanligi g'oyasini ilgari surdi. U jamiyatni sotsial borliq ruhida talqin etib, jamiyatning o'z a'zolaridan mustaqilligini, o'z xususiy qonunlari asosida rivojlanishini alohida ta'kidlab ko'rsatib berdi. Gegel inson erkinligining rivojlanish bosqichlari sifatida uchta sotsial birikmalarni bir-biridan ajratib ko'rsatdi: oila, fuqarolik jamiyati va davlat. U davlatni tabiiy shakllanadigan «organizm» sifatida tushunib, uning barcha uchta qismi yagona bir butunlikni tashkil etishini va u bir butunlik uchun yashashini ochib berdi²⁸. Fuqarolik jamiyati esa — bu organizm emas, u faqat «ehtiyotlar tizimi» mehnati tufayli bevosita ifodalanadi,

²⁶Руссо Ж.-Ж. О политической экономии // Руссо Ж.-Ж. Трактаты.-М.,1969.-С.113.

²⁷Nominalizm - [lot. nomina nom, ism] - umumiy tushunchalar faqat ayrim predmetlarning nomlaridir, degan aqida ostida buyumlarning birlamchi, tushunchalar esa ikkilamchi degan g'oyani ilgari surgan falsafadagi oqim.

²⁸Гегель Г.В.Ф.Философия права.-М.,1990.-С.293–294.

o'zining o'tmishdoshi bo'lgan davlat vositasida o'zining muayyan qiyofasiga ega bo'ladi. Gegelning fikricha, fuqarolik jamiyati burjua tuzumi qaror topishi barobarida shakllanib, xususiy mulkning va odamlarning rasman tengligining hukmronligiga asoslanadi²⁹.

Gegel radikal ratsionalist bo'lishiga qaramay o'zidan oldingi ikki asr ichida o'tgan faylasuflardan farqli o'laroq jamiyatni odamlarning idrok asosidagi faoliyati mahsuli, deb bildi. U bir tomondan, odamlarning maqsadlari va intilishlari o'rtasida, ikkinchi tomondan esa, ular faoliyatining sotsial natijalari o'rtasida ancha tafovutlar mavjud ekanligini qayd etgan edi.

XIX asrning boshidan jamiyat va sotsiallikka doir g'oyalar turli shakllarda namoyon bo'la boshladi. «Sotsial» qo'shimcha tushuncha sifatida benihoya ommalashdi. Turli ko'rinishlardagi «sotsial harakatlar» (siyosiy, huquqiy, diniy, mistik, falsafiy, ilmiy, utopik va boshq.) faollik bilan bog'liq holda shakllana boshladi. Ular o'zlarini individualizm, alohida shaxslar, millatlar va hukmron sinflar xudbinligiga (egoizmiga) qarshi qo'yib, konservator-an'anachilardan farqli o'laroq ma'rifatchilar va fransuz inqilobi tomonidan e'lon qilingan «Erkinlik», «Tenglik» va «Birodarlik» shiorlarini o'z dasturiy hujjatlarida ifoda eta boshladi. Va nihoyat, tenglik qadriyatlarini e'tirof etish tufayli sotsial notenglik va uning adolatsizligini his etish odat tusiga kirdi. Jamoatchilikning diqqat markazi ijtimoiy masalalarga qaratila boshlandi, hayotdagi ijtimoiy-iqtisodiy notenglik masalalarini ko'tarish taomilga aylandi.

XIX asrning 30-40-yillarida Anri de Sen-Simon (1760—1825), uning izdoshlari Sharl Fure (1772—1837) va Robert Ouen (1771—1858) kabi sotsial islohotchilar tomonidan jamiyatga doir nazariy qarashlar yanada boyitildi. Ularning ta'limotlarida jamiyat va sotsiallik markaziy o'rinda turdi. Fure «sotsial fanlar» asosida yangi «sotsietar dunyo» qurish orzusi bilan yashadi. Ouen esa 1813-yilda o'zining «Jamiyatga yangicha qarashlar» nomli asarini yozdi.

Sen-Simonning ilmiy faoliyati sotsiologiya fanini shakllanishiga turtki bo'ldi. U sotsiologiyani sotsial borliq ruhi asosida tushundi. U 1813-yilda shunday deb yozgan edi: «...Jamiyat mutlaqo xatti-harakatlari har qanday so'nggi maqsaddan yiroqda bo'lgan, faqat alohida individlarning o'zboshimchaliklari hukm suradigan, birdan-bir natija — tezlik bilan o'tib ketadigan ahamiyatsiz tasodifiy hodisalar yuz beradigan muhitda yashaydigan tirik jonlarning oddiy to'planishi emas; aksincha, jamiyat — bu avvalambor, haqiqiy bir tartibda yo'lga qo'yilgan mashina bo'lib,

²⁹O'sha joyda.-B.223.

qaysiki, uning barcha qismlari bir butunlik harakatiga erishish uchun turlicha shakllardagi imkoniyatlarni yaratadi. Odamlarning birlashuvi haqiqiy ma'no-mazmun bahsh etadi. Uning mustahkamligi yoki o'zligi jamiyat organlarining o'ziga topshirilgan funksiyalarini qanchalik muntazam bajarayotganligiga bog'liqdir³⁰.

Dastlab Sen-Simon maktabida sotsial harakat va sotsiologiyaga doir g'oyalarning unsurlari yaratildi. Bu so'zlarning yagona ildizi (lotincha «socius» so'zi sherik, ittifoqchi, uyushma va jamiyat ma'nolarini beradi) shundan guvohlik beradiki, jamiyat g'oyasi bu islohotchi va intellektual yo'nalishdagi maktabning eng muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'ldi. Sotsiologiya fanining nomi ham Sen-simon maktabi muhitida kashf etildi: «Sotsiologiya» tushunchasi ilk bor sen-simonchi Ogyust Kont tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi.

XIX asrning yarmidan boshlab sotsiologiya sotsializm g'oyalaridan butunlay ajraldi: sotsializm turli kommunistik va jamoachilik tamoyillariga qo'shilib ketdi, turli islohotchilik, inqilobiy va utopik qarashlarni o'z g'oyasi bilan uyg'unlashtira boshladi. Sotsiologiya esa ko'proq fan sohasida o'zini namoyon qila boshladi. Sotsiologiya jamiyat va uning rivojlanish tamoyillari haqidagi fanga aylana boshladi.

1.2. Ogyust Kont — pozitiv sotsiologiya asoschisi

Fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798-1857) tarixda sotsologiya fanining asoschisi sifatida o'z nomini qoldirdi. Fransiya inqiloblari oqibatlari va yangi burjua jamiyati sharoitida Kont o'z mamlakati fuqarolari uchun o'zining yangi falsafasini yaratish maqsadini qo'ygan edi. U eski, ilohiyotshunoslikka asoslangan metafizik konsepsiyalarga qarama-qarshi o'laroq ilmiy bilish vositasida ochib beriladigan dalillar va qonuniyatlarga oid bir butun ijobiy bilimlar tizimini ishlab chiqdi. Ana shu falsafa asosida u jamiyat to'g'risida haqiqiy fanni yaratishga harakat qildi. Bu bilan u odamlarga ikkita asosiy ehtiyojlar — tartib va taraqqiyotga muvofiq oqilona faoliyat yuritishlari uchun yordam berishni ko'zda tutdi. U dastlab bu fanni «sotsial fizika», keyinroq esa «sotsiologiya» deb atadi.

Ogyust Kont 1822-yilning aprel oyida o'zining ustozlari Sen-Simon topshirig'i bilan uning uchun tadqiqotlarning uchinchi daftari — «Sanoatchilar katekxizisi»ni³¹ tayyorlab, uni «Jamiyatni yangidan qurish

³⁰ Saint-Simon C.H. La Physiologie sociale. Oeuvres choisies. -P., 1965. -P.57.

³¹ Katekxizis — [yunon. katekhsis og'zaki yo'l-yo'riq] — ta'limotga doir qisqacha savol va javoblar tariqasidagi bayonnoma.

uchun zaruriy bo'lgan ilmiy ishlar rejasi» deb nomladi. Unda o'z ijodiy va hayotiy yo'lini tugatyotgan ustoz bilan shogird o'rtasida prinsipial farqlar mavjud ekanligi ochilib qoldi. Kont o'zining asosiy vazifasi sifatida tirik bo'lmagan tabiat haqida, umumlashtirilganda esa «fizika» deb ataladigan, aniq dalillar bilan bog'liq, obyektiv qonunlarni ochib beradigan, kuzatuvlarga asoslanadigan jamiyat haqida pozitiv³² fanni yaratishni ko'zlagan edi. U jamiyat haqidagi fanni fiziologiyaning bir qismi, yoki organizmlar haqida umumiy fan deb qaraydigan Sen-Simondan farqli o'laroq, yangi sotsial organizmlar haqidagi fanni alohida sohaga ajratdi va unga «sotsial fizika» («physique sociale») deb nom berdi. Yosh Kont bir ildizga ega bo'lgan uch sohaga doir fanlarni bir dastaga bog'langan ifodasini shakllantirdi: fizika (yunon. physis, tirik bo'lmagan tabiat haqidagi fan) — fiziologiya (tabiiy organizmlar haqidagi fan) — sotsial fizika (sotsial organizmlar haqidagi fan). Ularning obyektlari tezlik bilan o'zaro chalkashib bordi. Sotsial fizika kam o'rganilgan va juda ham murakkab obyektlarni o'rganishi lozim edi. Bu fan boshqalarga nisbatan yuqorida turdi. Shuning uchun dastlab bu fanni yaratishga kirishildi.

1826-yilda Kont Parijdagi Politehnika maktabida pozitiv falsafa kursini o'qitdi. 1830-1842-yillarda esa bu kursni 60 ta ma'ruzadan iborat holda 6 jildli kitob sifatida e'lon qildi. Sotsial fizika uning ikkinchi yarmi — 4, 5 va 6-jildlarini tashkil etdi. Kursning 3-jildida Kont «fiziologiya»ni «biologiya» atamasi bilan almashtirdi, bu bilan tabiiy organizmlarga doir fanlar majmuini to'laroq ifodalamoqchi bo'ldi. Shu vaqtda ba'zi olimlar Kontga qarshi «taniqli Belgiya statistika sohasi olimi A.Ketle tomonidan 1835-yilda yozilgan «Inson, uning qobiliyatini rivojlantirish, yoki sotsial fizika tajribasi» kitobidan «sotsial fizika» so'zini o'zlashtirgan», degan ta'na toshlarini otgan edi. Lekin, Kont ishlatgan bu so'zning talqini Ketle talqinidan tubdan farq qilar edi. U o'zini qat'iyat bilan himoya qildi, o'zining nuqtai nazari to'g'ri ekanligini isbotladi. Shu bilan birga, oldingi ishlarini rivojlantirib, yangi tushuncha — *sotsiologiya* fanini ilgari surdi.

U o'zining 47-ma'ruzasi — «Sotsial fanni yaratishga asosiy falsafiy urinishning qisqacha bahosi» matnining taxminan o'rtasida ilk bor «sotsiologiya» tushunchasini qo'lladi va unga quyidagi sharhni ilova qildi: «Monteskedan keyin bugungi kungacha sotsiologiyaning asosiy konsepsiyasi sari bosilgan yo'lda birdan-bir muhim qadamni qo'ygan taniqli va sho'rlik Kondorse va uning «Inson idroki taraqqiyotining tarixiy manzaralari ocherklari» nomli ajoyib asari oldida, albatta, qarzdormiz. Adolat haqqi-

³²Pozitiv — [lot. positivus ijobiy] — ijobiy, ma'qullaydigan, ma'qullangan.

hurmati, hech bir shak-shubhasiz shuni aytish mumkinki, Kondorse fikrlarini shakllanishida insonni takomillashtirishga doir qimmatli va sodda fikrlar bergan, uning taniqli do'sti va oqil inson Tyurgoning ham muhim ishtirokini unutmaslik kerak».

Kont o'z oldiga pozitiv falsafa asosida o'zining xususiy qonunlariga ega bo'lgan yangi jamiyat nazariyasini yaratishni maqsad qilib qo'yan edi. Mohiyatan, bilimlarning ikkita yangi sohasi — «sotsial fizika» va «sotsiologiya» fanlarini legitimlashtirish³³ asnosida ilk bor ikkita metodologik yondashuvlarning o'zaro qarama-qarshiligi namoyon bo'ldi: sotsiologik realizm (Kont) va sotsiologik nominalizm. «Sotsiologiya» tushunchasi sotsiologik realizm mohiyatiga to'liq mos kelar edi: u juda ham aniq mavjud voqelik — tabiat kabi obykti jamiyat bo'lgan pozitiv fanni o'zida ifoda etar edi; sotsiologiyaning obykti ham xuddi biologiyaning obykti aniq tirik tabiat bo'lganidek juda hani aniq va ravshan edi. Lekin, Kont sotsiologiyani yangi konseptual mazmun bilan to'ldirishi, bu tushunchaning xususiy konseptual sohasini ochib berishi lozim edi.

Kont o'zining keyingi 48-ma'ruzasida («Sotsial hodisalarni ratsional o'rganishda pozitiv metodning asosiy xususiyatlari») «sotsiologiya» tushunchasi yordamida bir necha sotsiologiyaga mansub bo'lgan tushunchalarni yaratdi: sotsiologik fan, pozitiv sotsiologiya, umumiy sotsiologiya, sotsiologik qonun, sotsiologik tadqiqot, statik sotsiologiya, sotsial statika, dinamik sotsiologiya, sotsial dinamika, sotsial rivojlanish. Shuningdek, sotsiologiyaning quyidagi ilmiy metodlarini shakllantirdi: oddiy kuzatuv; sotsiologik kuzatuv; tajriba bilan asoslash; sotsiologik namoyonlikning ilmiy kuchi; qiyoslash; sotsiologik qiyoslash; sotsiologiyada tarixiy metod; sotsiologik tahlil va hokazo³⁴.

Kontning talqinicha, jamiyat «o'z ichki turtkisi»ga muvofiq harakat qilyapti, deb o'ylaydigan, alohida va mustaqil ravishda mavjudlikka ega bo'lgan individlardan tarkib topadi. Darhaqiqat, individlar o'zlari o'ylamagan holda muntazam ravishda umumiy rivojlanishda ishtirok etadi. Ashaddiy ravishda sotsial borliqni o'rganishga kirishgan Kont jamiyatning individdan ustunligini doimo ta'kidlagani holda achchiq ifodalarni ham ishlatdi: ba'zan «shaxs» va «shaxsiy» so'zlarini kamsitilgan holda qo'lladi.

Kont birinchilardan bo'lib jamiyatni namunasi biologik organizm bo'lgan tizim, degan yondashuvni ishlab chiqdi. U doimiy ravishda uning

³³Legitim - [legitimatsiya lot. legittimus qonuniy] – qandaydir huquq va vakolatlarni e'tirof etish yoki tasdiqlash.

³⁴Qarang:Лапин Н.И. Эмпирическая социология в Западной Европе.Учебное пособие.-М.:Изд. дом ГУ ВШЭ,2004.-С.25-28.

bir butunligini, bo'linmasligini, uning qismlarining o'zaro bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlab, quyidagi fikrlarni yozdi: «Sotsial tizimning har qanday turlicha qismlari muntazam ravishda bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir ko'rsatib turadi». Barcha tizimlar birdamlik xususiyatiga egadir. Ammo, tirik jonlar (individlar) bilan bog'liq tizimlar, ayniqsa, sotsial tizimga nisbatan *birdamlik* oliy darajada xosdir. Kontning fikricha, jamiyat mustahkam *konsensusga* (o'zaro kelishuvlarga) va izchillikka asoslanadi; bu — xususan, birinchi xolatda — makon, ikkinchi holatda — zamon jihatlariga binoan olinadigan sifatlardir.

Kont jamiyat bilan insoniyatni bir-biridan ajratib bo'lmaydigan sotsial voqelik sifatida ta'riflaydi. U jamiyatni insoniyatning kichraytirilgan ko'rinishi, insoniyat esa — behad kattalashtirilgan jamiyat, deb talqin etdi. Shu bilan birga, insoniyat haqiqiy, oliy va eng «aniq borliq»ni ifodalovchi voqelikdir. Jamiyatning tuzilmasi va rivojlanishi oxir-oqibatda «insoniy tabiatning asosiy qonunlari» bilan belgilanadi, sotsiologiya esa «inson tabiati pozitiv nazariyasi»ni o'ziga qamrab oladi³⁵.

O.Kontning fikricha, yangi «pozitiv» davrning mohiyati fikrlash yo'nalishini tubdan o'zgartirishga (intellektual inqilobni amalga oshirish) qaratilgan. Buning uchun jamiyatga ilohiyotshunoslik (teologiya) va metafizikadan (falsafadan) erkin bo'lgan, ilmiy (ya'ni pozitiv) bilimlar chegarasida shakllanadigan yangi mafkura zarur. Buning uchun quyidagilarga ehtiyoj seziladi:

1. Anglanadigan tabiat (jamiyat) olami — bu empirik³⁶ qayd qilinadigan obyektlar (dalillar) olamidir.

2. Ular bilan anglovchi subyekt o'rtasida muloqotning yagona doirasi mavjud — ular qayd qiladigan, sezilgan ma'lumotlar, ya'ni tajribaviy (muammoli bo'lmagan) bilimlardir.

3. U «yashirin mexanizmlar» va «dastlabki sabablar»ga doir savollar berilmaydigan tajribaviy-sinov usullari yordamida kuzatiladigan hodisalarning «tavsiflarini umumlashtirish va dalillash»dan iboratdir.

4. Bunday «pozitiv» bilimlarni o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan fanlar — tabiiy fanlar (jumladan, sotsiologiya) beradi.

5. Bilimlarning boshqa miqdori subyektning o'zi tomonidan shakllantirilgandir, uning fikrlashi esa mulohaza va e'tiqoddan iboratdir.

³⁵Гофман А. Б. Семь лекций по истории социологии: Учебное пособие для вузов. 5-е изд. - М.: Книжный дом "Университет", 2001. - С. 45-46.

³⁶Empirizm - [yunon. empeir] tajriba] - sotsiologiyada tajribaga asoslanganlik ma'nosini beradi.

Jamiyatning evolyutsiyaviy rivojlanishi tarafdori bo'lgan O.Kont uni «sotsial garmoniya» («sotsial monandlik») qonuniga bo'ysundirilgan, deb hisoblaydi. Shu tariqa, bu qonunga nima xilof bo'lsa (masalan, sinfiy inqiloblar va kurashlar), ular qonuniy emas va bema'nilikdir. O.Kontning fikricha, sotsiologiyaning eng muhim vazifasi tartibotni, ya'ni mavjud ijtimoiy tuzumni mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. «Muhabbat prinsipdir, tartibot asosdir, taraqqiyot esa maqsaddir». Bu O.Kontning ijtimoiy hodisalarni baholashi asosida yotgan asosiy prinsiplari edi³⁷.

XIX-XX asrlarda sotsiologiya fanida chuqur va tub o'zgarishlar yuz berdi. Lekin, Ogyust Kontning dastlab «sotsiologiya» tushunchasini ilmiy muomalaga olib kirganligi, bu fanning insoniyat uchun o'ta zarurligini isbotlab bera olganligi, «pozitiv sotsiologiyaning asoschisi» degan nomni olishga sazovor bo'lganligi bir umrga tarixda muhrlanib qoldi. Shuning uchun ham zamonaviy sotsiologiya fanini o'rganishda dastlab O.Kont ilmiy merosiga murojaat qilish an'anaga aylandi.

1.3. Sotsiologiyaning obykti va predmeti

Inson hayot tashvishlari bilan yashar ekan, u o'z atrofida kechayotgan voqealar girdobiga nisbatan nafaqat befarq qaray olmaydi, balki u o'ziga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda ular bilan har tomonlama munosabatlarga kirishadi. U o'zining hayot kechirish tashvishlari, atrofni anglashga intilishi, o'z xavfsizligini ta'minlash, juda bo'lmaganda, kundalik tirikchilik ehtiyojlaridan kelib chiqib ertangi hayoti, uzoq kelajagi, umrguzaronlik muammolari bosimida hali o'zining ko'zi tushmagan, aqliga bog'liq bo'lmagan, hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni qanday kechishiga qiziqishi tabiiy bir holdir. Albatta, hozirgi davrda sotsiologiyadan boshqa birorta fan yoki fan sohasi inson va jamiyat sotsial hayoti bilan bog'liq umumlashmalar yoki bashoratlarni haqiqiy holatlarga yaqin tarzda ifodalab berolmaydi.

Hayotning kundalik ehtiyojlari insonni doimiy ravishda bo'lmasada, ah'yon-ah'yonda jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga doir voqealarning umumlashgan xulosalarini bilishga undaydi. Axir, har qanday odam uchun aholining u yoki bu qatlami, turli ijtimoiy guruhlar atrofidagi voqeliklarga qandaydir

³⁷Леорова О. В.История классической социологии: учебно-методическое пособие.-Астрахань: Изд.дом "Астраханский университет",2012.-С.18-19.

munosabat bildirishi — bu uning tafakkurlash jarayoni qanday manbalardan oziqlanayotganligini bildirmaydimi? Qolaversa, inson o'z hayot tarzi, dunyoqarashini boyitishi, dunyoni yanada to'liqroq anglash, jamiyatning umumiy yashash qonunlariga moslashib borishi uchun axborot oqimini anglashga intiladi. Albatta, insonni bu jarayonlarga oid bilimlar va axborotlar bilan sotsiologiya fani ta'minlab turadi. Undan tashqari, sotsiologiya “qanday kiyimlar zamonaviy?”, “qaysi kasb-korlarda faoliyat ko'rsatish foydali yoki samarali?”, “oilaviy ixtiloflarga qanday muammolar sabab bo'ladi?”, “boshqaruvni yaxshilashga nimalar to'siq bo'lmoqda?” kabi hayotiy dolzarb savollarga ham javob bera olishi bilan hayotiy zaruratga aylandi va ommalashdi. Shu bilan birga, sotsiologiyaning boshqa gumanitar fanlarga o'xshamaydigan xususiyatlari ham borki, unga e'tibor bermasdan sotsiologiya fanining ilmiy yoki amaliy xulosalaridan samarali tarzda foydalanib bo'lmaydi. Ayniqsa, sotsiologiyaning ilmiy maqomi, predmeti, obyekti, funksiyalari, strukturasi, o'rganish metodlari, xulosa chiqarish yo'l-yo'riqlari to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lmasdan turib bu fan yutuqlaridan bahramand bo'lish mumkin emas.

«Sotsiologiya» tushunchasi (lot. *societas* — *jamiyat*, yunon. *logos* — so'z, *ta'limot*), yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ilk bor fransuz olimi Ogyust Kont (1798-1857) tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Umumiy tarzda aytganda, *sotsiologiya* — bu jamiyat haqidagi fandır. Sodda qilib aytganda, jamiyat odamlar jamlanmasi yoki odamlarning uyushgan guruhlaridan iborat insoniy birlikdir. Lekin, sotsiologiya nuqtai nazaridan qaraganda, bu tushuncha murakkab va serqirra ilmiy obyekt sifatida namoyon bo'ladi: «*jamiyat* — bu odamlarning o'zaro aloqalari, birdamlikdagi hayoti natijasi sifatida shakllanadigan, o'z a'zolarining fikrlashlari va xulqlariga ta'sir ko'rsatadigan, tarixan shakllangan sotsial uyushish turiga xos bo'lgan (shuningdek, sotsial shartlangan) hodisa va jarayonlardir»³⁸. Sotsiologiya fanining *tadqiqot obyekti* xuddi ana shu jamiyatdir.

Sotsiologiya fani odamlarning o'zaro aloqalarini kuzatadi, yanada muhimi, sotsial hodisalar va jarayonlarni tadqiq etadi. Lekin, jamiyat iqtisodiyot, sotsial psixologiya, ekologiya, demografiya, etnografiya, etnologiya, tarix kabi fanlarning ham obyekti hisoblanadi. Shuning uchun ham bu fanlar gumanitar-ijtimoiy fanlar, deb ataladi. Lekin, bu fanlarning har birining o'z predmeti mavjud. Har bir fanning mazmun-mohiyatini asosan uning obyekti emas, balki predmeti belgilab beradi.

³⁸ Нурышев Г.Н., Бразевич Д.С. Социология: Учеб. пособие. -СПб.:СПб ГУН и ПТ, 2010. -С.11-12.

Hozirgi davr sotsiologiyasining ilmiy salohiyati uning predmetida o'z aksini topadi. Ma'lumki, har bir fanning empirik metodlar (kuzatishlar, eksperimentlar) yordamida amalga oshiradigan tadqiqotlarining o'z manfaatlari va nuqtai nazarlari mavjud bo'lib, ular nazariy tushunchalar vositasida tavsiflanadi. Muayyan fan tadqiqot metodlari mo'ljalga olgan, obyektiv borliqning qandaydir qismini tavsiflaydigan, mantiqan o'zaro aloqadorlikda bo'lgan va ichdan ziddiyatda bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimi *fan predmeti* deyiladi. Eksperiment vositasida o'rganilayotgan, tabiiylikka oid (fizikaviy) tushunchalar vositasida tavsiflanayotgan obyektiv borliqning bir qismi *tabiiy borliq* deyiladi. Anketalar so'rovi (shuningdek, boshqa usullar bilan ham) o'rganilayotgan va sotsiologik tushunchalar bilan tavsiflanayotgan voqelikning bir qismi *sotsial reallik* deyiladi. Fan predmeti deb ataladigan tushunchalar yig'indisi alohida olingan dalillarni muntazamlilik tusini oladigan va takrorlanib turuvchi hodisalar sifatida uyushtiradi va tartibga solib turadi. Sotsiologiyani favqulodda yoki qandaydir noyob natijalar emas, balki qonuniyatli va aniq ravishda namoyon bo'ladigan dalillar qiziqtiraadi. *Fan predmeti* — bu ro'y berayotgan hodisaning tarxini tavsiflayotgan, unga umumiy ko'rinish berayotgan joyning xaritasidir. Shuning uchun ham aytish mumkinki, *sotsiologiyaning predmeti* — bu asosiy xususiyati va unsurlari muayyan tizimga keltirilgan va mantiqan bir-birovini keltirib chiqaradigan sotsial voqelikning konseptual tarxidir (sxemasidir).

Sotsiologiya predmetining poydevori sifatida ikkita tushuncha — *maqom* (status) va *rol* namoyon bo'ladi. Maqom predmetning statistik, rol esa o'zgarish va o'sish (dinamik) tavsifini anglatadi. Insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi vaziyati va holati *maqom* deyiladi. Kichik guruhlarda, masalan, do'stlar davrasida yetakchi yoki autsayder³⁹ bo'lish norasmiy yoki shaxsiy maqomni anglatadi. Masalan, konstruktor, erkak yoki ayol, ingliz, katolik, liberal, tadbirkor bo'lish rasmiy (sotsial) maqomni egallash demakdir. Maqom rol orqali ro'yobga chiqadi. «Xotin» maqomiga ega bo'lish xotin rolini bajarishni anglatadi. Har bir maqom, shuningdek har qanday maqom huquqlar va burchlar yig'indisidan iborat bo'lib, mazkur holatni ular jamiyat an'alariga muvofiq tarzda mustahkamlaydi. O'qituvchi o'quvchilarga bilimlar berish, ularning bilimlarini baholash, intizomni ta'minlash kabi ishlarni, ya'ni ma'lum rollarni majburiyat (burch) sifatida bajarishi lozim. Lekin, bir odam o'z majburiyatini mas'ullik bilan bajaradi, ikkinchisi esa unday emas. Bir o'qituvchi

³⁹Autsayder - [ingl. outsider] - musobaqalarda oxirgi o'rinni olgan sportchi yoki sportchilar komandasi.

o'quvchilar bilan o'zaro ishonchli aloqalar o'rnatadi, ikkinchisi o'rtada masofa saqlashga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, odamlar bir xil vaziyatda o'zlarini har xil tarzda tutadi, ya'ni xulqning (rolning) turli modellarida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, bitta odamning ko'plab maqomlari bo'lishi mumkin: erkak, katolik, talaba, o'zbek va hokazo. *Rol* — maqomning o'sib boruvchi tasnifi hisoblanadi. Maqomning ichi bo'sh bo'lishi mumkin, rolda esa bu kabi holat kuzatilmaydi. Ichi bo'sh bo'lgan, ya'ni odamlar tomonidan to'ldirilmagan maqomlar yig'indisi (yoki majmui) *jamiyat sotsial strukturasi*ni hosil qiladi. Jamiyatning sotsial strukturasi ga kategoriya deb ataladigan «sotsial guruhlar» va «sotsial institutlar» kabi turli tuzilmalar kiradi. Hozirgi davr jamiyatida faqat kasbiy maqom va guruhlarning o'zi 40 ming, oilaviy va qon-qardoshlik maqomlari esa 200 dan ortiqni tashkil etadi. Yer yuzida 3000 dan ortiq turli tillar mavjud bo'lib, ularning har birining ortida turli xalqlar, elatlar, millatlar va qabilalar yashaydi.

Demak, xulosa qilib aytganda, sotsiologiya predmetining *asosiy poydevori* — maqomlar va rollar jamiyatning statik va o'sib-o'zgarib boruvchi manzaralarini beradi. Maqomlar majmui individlarning o'zaro ta'siri va ularning sotsiallasuvi (jamiyat madaniyatiga singib borishi) ro'y beradigan jamiyatning sotsial strukturasi ni tasvirlaydi. Shuningdek, sotsial maqomlar sotsial aloqalar, shaxsiy maqomlar esa shaxslararo aloqalar bilan o'zaro bog'liqlikdadir. Jamiyat sotsial aloqalarning bahaybat tarmoqlari bilan o'zaro chirmashib-chatishib ketgan. Uning ostida, quyi qavatida boshqa tarmoqlar — shaxslararo aloqalar joylashgan. Sotsiologiya uchun odamlarning qanday shaxsiy aloqalarga kirishishi emas, balki ularning o'rtasida asosiyroq va zaruriyroq bo'lgani — *sotsial munosabatlar* muhimdir.

Sotsiolog olimlarning ismi sharifi	Sotsiologiya predmeti
O. Kont	Sotsiologiyaning predmeti insoniyat bilan aynanlashtirilgan jamiyatdir; jamiyat unda yashayotgan odamlarga nisbatan mavjudlik sifatida namoyon bo'ladigan oliy darajadagi mavjudlikdir. Shu bilan birga, jamiyatni «sotsial statika» (ijtimoiy organizm anatomiyasi kabi ijtimoiy strukturalarning barcha unsurlarining alohida harakatlari va qarshi harakatlari o'rganish) va «sotsial dinamika» rivojlanish yo'li sifatida o'rganishi darkor. Sotsiologiya ijtimoiy borliqning umumiy qonunlarini o'rganadi.

Sotsiolog olimlarining ismi sharifi	Sotsiologiya predmeti
G. Spenser	Sotsiologiyaning predmeti — barcha umuminsoniyat uchun tabiatan xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar, sotsial guruhlarning ma'lum bir irqqa tegishli ekanligi va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holdagi odamlar o'zaro ta'sirlari mahsuli sifatidagi tuzilmalashuvi, rivojlanishi, strukturasi va funksiyalaridir. Asosiy prinsip — qismlarning o'zaro farqlanuvchi xususiyatlari bir butunning xossalarini belgilab berishidir.
M. Veber	Sotsiologiyaning predmeti — «sotsial harakat» deb tushuniladigan odamlarning sotsial xulqidir, ya'ni boshqaga nisbatan subyektiv mazmun va mo'ljal (yo'nalganlik) kasb etishdir. Sababiyat nuqtai nazaridan sotsial harakatni tushunishga intilishlarni, shu bilan birga, bu harakatni borishini va natijalarini tushuntirib va izohlab beradigan fan sotsiologiya deyiladi.
E. Dyurkgeym	Sotsiologiya asosan sotsial dalillar va ularni tushuntirishdir. Sotsiologiyaning predmeti alohida va faqat uning o'zigagina xos sifatga ega bo'lgan sotsial voqelikdan iborat bo'lgan obyektiv fanga taalluqli holda yashashi mumkin. Bu sotsial voqelik unsurlari — jamiyatni tashkil etadigan sotsial dalillar yig'indisidan iboratdir. Bu dalillar sotsiologiya predmetidir. Sotsial dalillar nima? Ular individga tashqi majburlashni namoyon qiladigan ta'sirga beriladigan yoki berilmaydigan har qanday xatti-harakat usulidir; yoki boshqacharoq aytganda: muayyan jamiyatning barcha ko'lamiga tarqalgan, shu bilan bir vaqtda uning individual ko'rinishidan mustaqil ravishda o'zining xususiy mavjudligiga ega bo'lishlikdir.
G. Zimmel	Sotsiologiya insonlararo aloqalardagi rasmiylikni abstraksiya yo'li bilan uning sotsial mazmunidan, ya'ni faoliyati va maqsadlaridan ajratib olib o'rganishi darkor.
J. Gurvich	Sotsiologiya yaxlit holda va favqulodda tarzda uchraydigan sotsial hodisalar haqidagi fan bo'lib, u individual ongga olib bormaydigan, asosi ongning jamoaviy holatida turgan sotsial hayotni jipslashgan holdagi birikuvini turli darajalarini o'rganadi.

Sotsiolog olimlar-ning ismi sharifi	Sotsiologiya predmeti
P. Sorokin	Sotsiologiya «organikaning ustini» yoki umumiylikning «sotsiomadaniy» qismini o'rganadi. Bu soha insonning mental va fikrlash faoliyatida (til, fan, din, etika, urf-odat va boshq. sohalarida) namoyon bo'ladigan favqulodda sotsial hodisalarni o'rganadi. Sotsiologiya barcha darajadagi favqulodda sotsial hodisalar, ularning aloqalari va o'zaro munosabatlari haqidagi umumiy fandır.
T. Parsons	Sotsiologiya — «madaniy namunalar, maqomlar, qoidalarni vositalashtirishga asoslanadigan, strukturalarda mustahkamlangan, ijtimoiy ierarxiyaga qaratilgan o'zaro harakatlar — xulqlar va kutilgan rollarning o'zaro ta'sirlaridan iborat sotsial tizimni o'rganadigan» fandır.
X. Garfinkel	Sotsiologiya odamlarning kundalik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan holda kundalik hayotni va favqulodda hodisalarning barcha jihatlarini o'rganishi lozim. Bu ma'lum bir madaniyat uchun xos bo'lgan, odamlar u yoki bu faoliyatini amalga oshira borib sotsial tartibotni yaratishdan iborat bo'lgan odatdagi kundalik metodlarni o'rganish demakdir.
A. Shyus	Sotsiologiya hayotiy olam, kundalik bilim va faoliyat olami bilan mavhum tushunchalar aloqalarini tiklashi darkor; u boshqa turli tuman o'zaro ta'sir aloqalari bilan bog'langan, odamlarning odatdagi kundalik ongida kutilgan, obyektlar va sotsiomadaniy olam hodisalari yig'indisi bo'lgan sotsial borliq haqida yig'iq bilimlar olishi lozim.
P. Burde	Sotsial borliq bir-biriga o'zaro munosabatlarda tashqi vaziyatda turishdan hosil bo'lgan — yonma-yon yaqinlashgan yoki uzoqlashgan — shuningdek, kenglikda bir-biriga nisbatan o'zaro nisbatda joylashgan — yuqorida yoki pastda, oraliqda yoki o'rtalikdagi ko'zga ko'rinmas aloqalar tarmog'ini o'zida ifodalaydi. Sotsiologiya — bu sotsial topologiya ⁴⁰ , ya'ni nisbiy vaziyatlarni va ular o'rtasidagi relyatsion ⁴¹ aloqalarni tahlil qilish demakdir.

⁴⁰ Topologiya - [yunon. topos joy, logos ta'limot] - joylarni o'rganishga doir ilmiy yo'nalish.

⁴¹ Relyasiya - [lot. relatio xabarnoma, ma'ruza] - ma'lumot, xabar; harbiy harakatlarning borishi to'g'risida xabar va hokazo.

Korxonada boshliq ishchilarga nisbatan katta hurmat bilan munosabatda bo'lishi mumkin. Ular o'rtasida shaxslararo aloqalar yaxshi tarzda yo'lga qo'yilgan. Lekin, ishchilardan biri yoki bir guruhi o'zining kasbiy rolini eplay olmayotgan, o'zining maqomiga muvofiq kelmayotgan bo'lsa, ular ishdan bo'shatiladi. Boshliq va bo'ysunish — sotsial rollarni bajarishdir. Funksiya va aloqalar go'yoki sement kabi sotsial strukturani biriktirib turadigan qorishmadir. O'z sotsial rollarini bajarayotgan individlar o'zaro sotsial munosabatlarga kirishadi.

Bu muntazam va takrorlanib turuvchi jarayondir. Faqat muntazam ravishda takrorlanib turadigan sotsial aloqalar sotsial munosabatlar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchilik — doimiy funksiya (jamiyatdagi sotsial vaziyat), shuningdek, ta'lim ham muntazam o'zaro aloqalarda bo'lish demakdir. Ana shunday holatlar tufayli sotsiallik shakllanishi mumkin. O'zaro ta'sir, harakat, xulq, rol — ular *sotsiologiya predmetiga* kiruvchi tushunchalardir.

Biz bir umr davomida sotsial rollarni to'g'ri bajarish, yo'l-yo'riq me'yorlarini va burchlarimizga amal qilishni o'rganib boramiz. Ana shu mashaqqatli, butun umr davom etadigan o'rganish jarayoni *sotsiialashuv* deyiladi. Uning natijasi — sotsial yetuk shaxs bo'lish demakdir. Ko'rinib turibdiki, madaniyatsiz shaxsning o'zi bo'lmaydi. *Madaniyat* — hozir yashayotganlar uchun zarur bo'lgan va ertaga yashaydiganlarga beriladigan xulqni boshqarib va tartibga solib turuvchi an'analar, urf-odatlar, sotsial me'yorlar va qoidalar yig'indisidir.

Madaniyatning vorisiyligiga sotsiialashuv vositasida erishiladi. Sotsial-lashuvning borishi yoki izdan chiqishi alohida mexanizm — muassasa tomonidan nazorat qilinadi. Bu holat *sotsial nazorat* deyiladi. Nazorat jamiyatning barcha jabhalarida turli shakl va ko'rinishlarda (jamoatchilik fikri, senzura, qidiruv-tekshiruv va hokazo) uchrab turadi, u bor-yo'g'i ikkita unsurdan iborat bo'ladi: *sotsial me'yor* (nima qilish lozimligini belgilab beruvchi ko'rsatma va yo'l-yo'riqlar) va *sanksiyalar* (ko'rsatmalarga rioya qilishni rag'batlantiradigan mukofotlash va jazolash). *Sotsial nazorat* individ va guruhlarining me'yor va sanksiyalarni o'z ichiga olgan xulqini tartibga solish mexanizmidir. Agar jamiyatda me'yor va qonunlar bo'lmasa, tartibsizlik yoki anomiya⁴² doimiy holatga aylanadi. Agar alohida

⁴² Anomiya - [fran.anomic] — u “me'yorsiz” degan ma'noni berib, bu tushuncha sotsiologiyaga E.Dyurgeym tomonidan kiritilgan. Bu tushuncha jamiyat yoki shaxsning jamiyatga nisbatan holatini ifoda etib, jamoaviy yoki individual hayotni muvofiqlashtiruvchi me'yoriy va axloqiy sifatning samarasini kamayib ketganligini, konsensusning kuchsizlanib ketishini anglatadi.

olingan odam me'yorlardan chetga chiqsa, yoki ularni buzsa, uning xulqi *deviant*⁴³ deb ataladi.

Agar ichi bo'sh xujayralar (yacheykalar) — maqomlar — odamlar bilan to'ldirilsa, u holda har bir xujayrada katta sotsial guruhlar namoyon bo'ladi: barcha nafaqadorlar, barcha nemislar, barcha o'qituvchilar. Shu tariqa, barcha maqomlar ortida sotsial guruhlar turadi. Katta sotsial guruhlarning yig'indisi (jamlanmasi) *aholining sotsial tarkibi* (ba'zan u statistik yoki sotsial kategoriyalar) deyiladi. Har bir odamda *ehtiyojlar* mavjud. Muhim yoki asosiy ehtiyojlar barchada deyarli bir xil, ikkinchi darajali ehtiyojlar esa har xil bo'ladi. Birinchisi universal bo'lib, u barcha aholi uchun tegishli, bir butun jamiyat uchun xosdir. Jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan muassasalar *sotsial institutlar* deb ataladi. Oila, ishlab chiqarish, din, ta'lim, davlat — ular qadimiy davrdan hozirgacha yashayotgan insoniy jamiyatning asosiy institutlaridir.

Sotsial institut — juda ham murakkab muassasa hisoblanib, muhimi — u aniq voqelikka xos bo'lgan hodisadir. Sotsial institutlarning jamlanmasi jamiyatning *sotsial tizimi* deyiladi. U nafaqat institutlar bilan, balki sotsial tuzilish, o'zaro sotsial ta'sir qilish, sotsial rollar bilan ham o'zaro bog'liqdir.

Sotsiologiyaga doir xulosalarning yakuni sifatida shuni aytish mumkinki, maqomlar, rollar, sotsial guruhlar o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi. Ular jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida shakllanadi. Bu kabi qondirish mexanizmi sifatida asosiy (oila, ishlab chiqarish, davlat, ta'lim va din) va asosiy bo'lmagan (ular ancha ko'p), *sotsial tajribalar* deb ataladigan va qismlarga bo'lingan sotsial institutlar faoliyat yuritadi. Jamiyat sotsiologik tushunchalar vositasida tavsiflanganda uning bir butun tasviri ana shunday qiyofada namoyon bo'ladi. Bu tasvirning ikki tomoni mavjud — strukturalar bilan tavsiflanadigan statistik va tizim bilan tavsiflanadigan dinamik (o'zgarish va o'sishga moyillik). Mazkur tasvirlangan «bino»ning dastlabki asosi — bu maqom va roldir. Jamiyatni to'liq tasvirlash uchun yana ikkita tushunchaga ehtiyoj seziladi. Ular sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillikdir (harkatchanlikdir)⁴⁴.

Sotsial stratifikatsiya — «strata» deb ataladigan, sotsial notenglik mezonlari bo'yicha ierarxiyali ravishda joylashgan yirik sotsial guruhlarning jamlanmasidir. Noteng bir stratadan ikkinchisiga o'tish (masalan,

⁴³Deviatsiya - [fran. deviation] - biron-bir narsani sotsial ma'noda jamiyat uchun o'z me'yorida yoki sotsial jihatdan yaroqli deb hisoblovchilardan chetga chiquvchilar, ularni rad qiluvchilar; to'g'ri yo'ldan chiqib ketish yoki og'ish ma'nosida ham ishlatiladi.

⁴⁴ Mobillik - [fran. mobile] - tez harakat qilishga qobil bo'lgan chaqqonlik; turli vaziyatda tez mo'ljal olishga qodir, vazifalarni tezlik bilan bajarish qobiliyati.

kambag'alidan boyrog'iga), yoki teng bo'lgan ikkita stratadan bir-biriga o'tish (masalan, avtomobil haydovchiligidan traktorhilikka) *sotsial mobillik* (harakatchanlik) tushunchasi sifatida tavsiflanadi⁴⁵.

Sotsiologiya obyekti — jamiyatni barqarorlik darajasini oshirish uchun maxsus metodlar vositasida o'rganilayotgan sotsial voqelikdir. Sotsiologiya predmeti esa — bu sotsial voqelik (harakatlanayotgan rollar va maqomlar, guruhlar va institutlar, sotsial aloqalar va madaniyatlar turlari nuqtai nazaridan) tadqiq etiladigan o'ziga xos kichraytirilgan tasvirlardir.

1.4. Sotsiologiyaning qonunlari

Sotsiologiyaning ham boshqa fanlarda bo'lganidek, sotsial hodisalar va jarayonlarning, avvalambor, odamlar faoliyatidagi sotsial aloqalar yoki ularning xususiy sotsial xatti-harakatlari uchun umumiy, muhim va zaruriy bo'lgan ifodalari — o'zining qonunlari mavjuddir. Ular umumiy va o'ziga xos bo'lgan qonunlar sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiologiyaning umumiy qonunlari — falsafaning o'rganish predmetidir. Sotsiologiyaning o'ziga xos qonunlarini faqat uning o'zi o'rganadi va u sotsiologiyaning metodologik asosi hisoblanadi.

Ko'pincha sotsiologiyada quyidagi beshta sotsial qonunlar alohida ajratib ko'rsatiladi:

-alohida sotsial hodisalarni birgalikda mavjud bo'lishi yoki yashashini qayd etuvchi qonunlar. Bu qonunlarga muvofiq, agar A hodisa mavjud bo'lsa, unda B hodisa ham bo'lishi lozim. Darhaqiqat, jamiyadagi industrilashtirish va urbanlashtirish⁴⁶ qishloq aholisining kamayib ketishiga olib keladi;

-sotsial obyekt strukturasi o'zgarishini, bir o'zaro aloqalar tartibidan ikkinchisiga o'tishini taqozo qiladigan rivojlanish tamoyillarini o'rnatuvchi qonunlar. Masalan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zgarishi ishlab chiqarish aloqalarining o'zgarishini taqozo etadi;

-sotsial hodisalarning o'zaro aloqalarini o'rnatuvchi (funktional) qonunlar. Ular sotsial obyektlarning asosiy unsurlari o'zaro aloqalarini ifodalab, uning ishlab turishi yoki mavjudligi xarakterini belgilaydi;

-sotsial hodisalar o'zaro sababli aloqalarini qayd etuvchi qonunlar. Odamlarning bir butun jamiyatga sotsial integratsiyalashning muhim va

⁴⁵Qarang: Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей / Под ред. В.А. Михайлова.-Ульяновск: УлГТУ, 2004.-С.6-9.

⁴⁶Urbanizatsiya - [lot. urbanus shaharga oid] - sanoat va aholini yirik shaharlarda to'planishi, jamiyatni rivojlanishida shaharlarni (qishloqqa nisbatan) rolini oshib ketishi.

zaruriy sharti — ularning ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarini oqilona tarzda uyg'unlashtirishdir;

-sotsial hodisalar o'zaro aloqalarining imkoniyati yoki ro'y berishi ehtimoli mavjudligini tasdiqlovchi qonunlar. Masalan, ba'zi mamlakatlarda er-xotinlarning ajralishi oshib borishi mumkin va bu jarayon iqtisodiy sikllar bilan birgalikda tebranib turadi⁴⁷.

1.5.Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari

Hozirgi davr ta'lim tizimida sotsiologiya fani sotsial-gumanitar fanlar tarkibida o'qitiladi. Albatta, gumanitar va sotsial fanlar o'rtasida farqlanishlar majud. Gumanitar fanlarga tarix, falsafa, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsial fanlarga esa psixologiya, sotsial psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, antropologiya, etnografiya kabi fanlar kiradi. Gumanitar fanlar tafsilotlari uncha aniq bo'lmagan modellar, baholash fikr-mulohazalari va sifatlash usullari asosida faoliyat yuritadi; sotsial fanlar esa aniq shakllarga ega modellar, matematik hisoblarga tayangan holda ishlaydi, ko'proq miqdoriy ko'rsatkichga ega bo'lgan bilimlarga tayanadi. Shuningdek, sotsiologiya empirik metodlarga suyanadi. Demak, sotsiologiya birdaniga ikki xil maqomga ega bo'lgan fandir: u ham sotsial, ham gumanitar fanlarga taalluqlidir. Shu bilan bir vaqtda, sotsiologiya insonning sotsiomadaniy mohiyatini, odamlar xulqini yirik sotsial guruhlar vakillari sifatida o'rganadi, shuningdek sotsial strukturalarning amal qilishini, uning tarkibidagi sotsial institutlarni tadqiq etadi. Umuman olganda, sotsiologiya barcha gumanitar va sotsial fanlarga nisbatan qandaydir birlashtiruvchilik xususiyatiga ham egadir⁴⁸.

Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida o'zida ko'proq umumiylikni kasb etgan fan hisoblanadi. Turli sotsial aloqalar natijasida paydo bo'ladigan qonuniyatlar va umumiy sifatlar, shuningdek boshqa sohalar va obyektlarni tadqiq etish zaruriyati paydo bo'lgani uchun sotsiologiya alohida fan sifatida shakllandi. Masalan, *pedagogika* tarbiya va ta'lim bilan bog'liq hodisalarni tadqiq etadi; *iqtisodiyot* xo'jalik mexanizmlarini o'rganadi, *davlat to'g'risida ta'limot* fani siyosiy voqealar va qonuniyatlarni, *psixologiya* esa ruhiy his-tuyg'ularni tadqiq etadi. Lekin,


⁴⁷Qarang: Социология: учебник для студентов вузов / под. ред. В.К. Батурина. 4-е изд., и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. - С.56-57.

⁴⁸Елсуков А.Н. Социология. Краткий курс / А.Н.Елсуков. - Минск: Тетра Системс, 2009. - С.45.

ularning hammasining ortida sotsiologiya fani shug'ullanadigan sotsial aloqalar va munosabatlar yotadi⁴⁹.

Sotsiologiya inson xulqining barcha qirralarini o'ziga qamrab olgan holda tadqiq etadigan birdan-bir fan emas. Bu kabi fanlarga *falsafa*, *tarix* va *antropologiya* fanlarini kiritish mumkin. Sotsiologiya bu fanlar bilan mustahkam aloqada bo'lib, ular to'plagan bilimlardan o'z maqsadlarida keng foydalanadi. Sotsiologiya *falsafa* va *tarix* fanlaridan ajralib chiqib, mustaqil fan sifatida qaror topdi. Hozirgi davrga qadar sotsiologiya o'zining ana shu ildizlaridan aloqasini uzmay kelayotir.

Sotsiologiya *falsafa* bilan mustahkam ravishda bog'langan. Hozirgi davr falsafasi sotsiologiyaga nisbatan umumiy nazariy asos sifatidagi o'rini saqlab kelmoqda. Ayniqsa, sotsial falsafa sotsiologiyaga juda ham yaqin turadi. *Sotsial falsafa* sotsiologiyaning mantiqiy asosi bo'lgan sotsial borliqning umumiy prinsiplarini, ularning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini ishlab chiqadi. Sotsiologiya esa jamiyatning rivojlanish manzaralarini yaratishga intiladi, uni sotsial falsafadek mushohada qilmaydi, balki empirik ma'lumotlar asosida tavsiflaydi⁵⁰.



1.1-rasm. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari sxemasi*

⁴⁹Асп Э. Введение в социологию. Перевод с финск. яз. СПб.:Издательство: "АЛТЕЙЯ", 1998.-С.22.

⁵⁰Екадумова И.И. Социология. Ответы на экзаменационные вопросы / И.И. Екадумова, М.Н. Мазаник.- Минск: ТетраСистемс, 2010.-С.8.

**Manba*: Park Robert E., Ernest W. Burgess. Introduction to the science of sociology. The University of Chicago Press. Third edition. Chicago, 1969.-R.21.

Tarix fani ham sotsiologiya kabi jamiyatni o'rganadi. Har ikkala fan o'rtasidagi eng umumiy bo'lgan farqlanish shundaki, tarix jamiyatning o'tmishini o'rganadi, sotsiologiya esa o'zining asosiy diqqat-e'tiborini hozirgi davr jamiyatini, uning tuzilishini va amal qilishini o'rganishga qaratadi.

Sotsiologiyaga ko'proq yaqin keladigan yana bir fan — bu *antropologiyadir*. Ayniqsa, uning «*sotsial antropologiya*» deb ataladigan sohasi unga juda ham yaqin keladi. *Umumiy antropologiya* insonni jismoniy mavjudot sifatida o'rganib, uning rivojlanish jarayonida biologik o'zgarishlarga uchrashiga, individlarning jismoniy hamjihatlikda yashashining turli tomonlariga muhim ahamiyat beradi. Uning bu jihatlari sotsiologik tadqiqotlarga juda ham yaqin turadi. *Sotsial antropologiyaning* predmeti — insoniy madaniyatning turli jihatlari belgilab bergan insonning mental⁵¹ imkoniyatlari hisoblanadi; shu bilan birga, inson turli birliklar va guruhlarining a'zosi sifatida ham o'rganiladi. Huddi shu joyda sotsial antropologiya va sotsiologiya bir yerdan chiqadi, bir-biriga o'xshab ketadi.

Bu o'xshashlikda metodologik xatoliklar yoki bir-birini inkor qilishliklar aslo uchramaydi. Bu holatda so'z o'zaro qo'shni bo'lgan yoki yonma-yon yashayotgan fanlar to'g'risida ketmoqda. Masalan, inson psixik tizimi ham *psixologiya*, ham *psixiatriya* fanlari tomonidan o'rganiladi. Yuqorida ham shu kabi holat to'g'risida so'z ketmoqda. Bu kabi holat faqat o'xshashlik yoki yonma-yonlikni ifodalaydi. Bunda bir-birini takrorlash umuman kuzatilmaydi. Har ikkala fanning ilmiy tizimlari bitta obyektning turlicha bo'lgan ilmiy va amaliy tomonlariga alohida-alohida urg'u bergan holda tadqiq etadi. Yonma-yon yoki o'xshash fanlar bir-birlarini yanada to'ldirib va boyitib boradi⁵².

Berilgan rasmda (*1.1-rasm*) sotsiologiyaning tarixiy ildizlari, uning asosi va u yaqin bo'lgan fanlar, bu fanlar bilan o'zaro aloqalari ifodalangan. Unda ko'rsatilgan *etnologiya* (etnografiya) *sotsial* yoki *madaniy antropologiyaga* mos keladi. Etnologiyaga xalq an'analari va xalq madaniyatini o'rganadigan *folkloristika* ham yaqin keladi. Shuningdek, madaniyatni *arxeologiya* va *sotsiologiya* fanlari ham tadqiq etadi. Arxeologiya predmeti — bu o'tmishdagi ma'naviy va moddiy madaniyat hisoblanadi. Sotsiologiyaning mikroobyektlaridan biri — bu hozirgi davr jamiyatining ma'naviy madaniyatidir.

⁵¹Mental (mentalitet) -[lot.mens yoki mentis - qalb, ruh (qisqa ma'noda - aql)] - aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar yig'indisi, sotsial yoki etnik guruh, millat va xalqqa mansublikning qadriyatli mo'ljallari va maqsadli yo'nalganlik belgisi.

⁵²Асп Э. Введение в социологию. Перевод с финск. яз.-СПб.:Издательство: "АЛТЕЙЯ", 1998.-С.23.

Rasmda misol tariqasida sotsiologiyadan tashqari sotsial xulqning muhim sohalarini ko'proq o'rganadigan aniq va maxsus fanlar keltirilgan. Bu fanlarning tadqiqot predmetlari bir xillikdan iborat bo'lsada, har bir fan bu predmetlarga turlicha boshlang'ich nuqtalardan kelib chiqqan holda va har xil nuqtai nazarlardan yondashadi. Lekin, shunga qaramasdan, bu fanlar o'rtasida aniq chegaralar o'tkazish o'ta mushkul ish hisoblanadi. Biroq, sotsiologiya fani bu predmetlarga nisbatan boshqa fanlarga qaraganda ancha kengroq nuqtai nazar bilan yondashadi.

Sotsial aloqalar va sotsial birliklarga nisbatan «ijtimoiy (jamiyatga oid) va sotsial fanlar» deb ataladigan umumiy atama sotsiologiya kengroq fan bo'lgani uchun ham unga bir yoqlamalik tarzida qo'llanilishini ifodalaydi. Biroq, sotsiologiya to'la-to'kis fan bo'lishiga qaramay, u faqat ijtimoiy fanlarning biri hisoblanadi⁵³.


Iqtisodiyot ishlab chiqarish, moddiy boyliklar, resurslar taqsimoti, tovarlar iste'moli va xizmat ko'rsatish, talab va taklif, umuman insonning iqtisodiy xulqi, pul va kapitaldan foydalanish kabilarni o'rganadi. O'z navbatida, *sotsiologiya* insonlar hayotiga ta'sir etuvchi iqtisodiy kuchlarni tadqiq etadi, turli guruhlarning iqtisodiy xulqi modelini ishlab chiqadi. Sotsiologiya iqtisodiyotga ishsizlik, inflyasiya, iste'molchilar xulqi kabilarni o'rganishiga ko'maklashadi. Shu tariqa, sotsiologiya, avvalambor, insonning turli iqtisodiy xatti-harakatlardagi sotsial xulqiga asosiy diqqat-e'tiborini qaratadi. Sotsiologiyaning bu maxsus sohasi *iqtisodiy sotsiologiya* deb ataladi. Shu bilan bir vaqtda, iqtisodiyot jamiyatning tarkibiy qismlaridan biri — uning tizim ostini tashkil etganligi uchun ham u sotsiologiyaning o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi.

Siyosatshunoslik va davlat to'g'risida ta'limot fanlari o'zlarining obykti va predmetidan kelib chiqib, insonning siyosiy xulqi, ijtimoiy va siyosiy boshqaruv, hokimiyatning tabiati kabilarni o'rganadi. Bu predmetlar sotsial aloqalar ifodasi bo'lganligi uchun sotsiologiyaga ham taalluqlidir. Sotsiologiya jamiyatning barcha sohalarini o'rganadi. *Siyosiy fanlar* o'z tadqiqotlarida sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan va uning maxsus metodlaridan (masalan, so'rov metodi) keng foydalanadi. *Siyosiy sotsiologiya* ko'proq siyosiy munosabatlar va harakatlar, siyosiy hayotning turli qirralarini, odamlarning saylovlardagi xulqini tadqiq etadi.

Psixologiya — insonning ruhiyati va ichki dunyosini o'rganadigan fan hisoblanadi. Psixologiya insonni uning bevosita atrof-muhiti bilan yaxlitlikda tavsiflaydi, sotsiologiya esa insonni sotsial guruh, sotsial birlik tushunchalari vositasida o'rganadi. Sotsiologiya o'zining asosiy diqqatini

⁵³O'sha joyda.-B.23.

yirik insoniy ommalar xulqini tavsiflashga qaratib, insonning ichki dunyosiga kam e'tibor beradi. Sotsiologiya va psixologiya fanlari o'zaro tutash tuguni sifatida *sotsial psixologiya* fani tug'ildi. Bu fan kichik sotsial guruhlardagi odamlarning xulqi va bir-birlariga o'zaro ta'sirini o'rganadi. Aksariyat olimlarning fikricha, jamiyat insonga kichik sotsial guruhlar (uning yaqin atrofida gilari, do'stlari, qarindosh-urug'lari) orqali ta'sir qiladi. Ana shu kabi ta'sir va o'zaro ta'sirlar sotsial psixologiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Sotsiologiya esa jamiyatni uning hamma tomonlarini birlashtirgan holda tasvirlashga harakat qiladi. Lekin, sotsial psixologik tadqiqotlar jamiyat manzarasini yanada boyitishga xizmat qiladi⁵⁴.



1.2-rasm. Falsafaning boshqa fanlar bilan aloqalarida sotsiologiyaning o'rni*

Yuqorida (1.2-rasm) *falsafa* fani sanoq boshida turgan holatdagi sotsiologiyaning o'rni ko'rsatilgan. Jadvalda matematika, tarix va geografiya boshqa fanlarni tadqiq etishda zarur bo'lgan umumiy fanlar sifatida keltirilgan. Shuningdek, bu kabi fanlar bilan ijtimoiy fanlar ham

⁵⁴Елсуков А.Н. Социология. Краткий курс / А.Н.Елсуков.- Минск:Тетра Системс,2009.-С.44-45.

*Manba: Nobbs Jack and Bob Hine and Margaret Flemming. *Sociology*. Macmillan Education, - London, 1975. - R.32.

munosabatda bo'ladi. Boshqa tomondan qaraganda, sotsiologik tadqiqotlarning ijtimoiy fan sifatidagi ko'lamining kengligi uchun ularning nazariyalari va tadqiqot natijalaridan o'z navbatida boshqa maxsus fanlar ham keng foydalanadi. Shuni unutmash kerakki, har qanday fan o'zining rivojlanishi va o'z obyektlarini murakkablashib borishidan kelib chiqib, yanada ko'proq o'ziga xos xususiyatlar kasb etishda davom etadi. Bu kabi holat sotsiologiyaning ba'zi sohalari uchun ham taalluqlidir.

Sotsiologiya aniq fanlar (masalan, matematika, statistika va boshq.) bilan ham mustahkam aloqalarda bo'ladi. Statistik ma'lumotlardan sotsiologik umumlashmalarni ishlab chiqishda keng foydalaniladi. Matematik metodlar yordamida axborotlar qayta ishlab chiqiladi⁵⁵. Tabiiy fanlarning (biologiya, fizika va boshq.) sotsiologiyaga ta'siri uning ilk shakllanish davrida juda ham kuchli bo'lgan.

Sotsiologiya o'zining universal fan ekanligidan kelib chiqib sotsial fanlar ichida markaziy o'rinni egalladi. Insonning sotsial harakati va sotsial xulqi jamiyatning hal qiluvchi omillaridan biri ekanligi, uni o'rganadigan sotsiologiya tobora ixtisoslashib borishi natijasida u bir necha sohalarga tarmoqlanib bormoqda, insoniy hayotning barcha jabhalarida o'zini namoyon qilmoqda. Sotsial-gumanitar fanlar ichida sotsiologiya birinchi bo'lib tabiiy fanlarning ko'xna metodlari — kuzatish va ilmiy tajribadan foydalanishni o'ziga kasb qilib olgan fan hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishi qanday kechdi?
- 2.Sotsiologik fikrlar taraqqiyotida Abu Nasr Forobiy qanday o'rin tutadi?
- 3.Ibn Xalduunning sotsiologiyaga oid qarashlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
- 4.Sotsiologiyaning fan sifatida paydo bo'lishida Ogyust Kont qanday o'rin tutadi?
- 5.Sotsiologiyaning predmeti va obyekti deganda nimalarni tushunasiz?
- 6.Jamiyatdagi sotsiallik va sotsial munosabatlar nimalarni anglatadi?
- 7.Sotsiologiyaning qanday qonunlari mavjud?
- 8.Sotsiologiyaning biologiya bilan qanday aloqalari mavjud?
- 9.Sotsiologiya bilan iqtisodiyot o'rtasida umumiy va xususiy jihatlar bormi?
- 10.Sotsiologiya ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan qanday o'zaro aloqalarga ega?

⁵⁵Всемирный доклад по социальным наукам / пер. на русск. В.С.Хелемендина. -М.:Издательство МАГИСТР-ИРЕСС,2002.-С.20.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016 // Xalq so'zi, 2016,6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.2017// http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild. -T.: O'zbekiston, 1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr // <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr, 2016,20-oktyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017. -T.: O'zbekiston, 2017.
9. Американская социологическая мысль: Тексты / Под ред. В. И. Добренкова. -М, 1994.
10. Аристотель. Политика // Аристотель. Соч.: В 4 т. Т. 4. -М., 1983.
11. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. -Алма-Ата: Наука, 1973.
12. Асп Э. Введение в социологию. Перевод с финск. яз. -СПб.: Издательство: «АЛЕТЕЙЯ», 1998.
13. Арон Р. Этапы развития социологической мысли. -М., 1992.
14. Вебер М. Избранное: Образ общества. -М., 1994.
15. Всемирный доклад по социальным наукам / пер. на русский В.С. Хелемендина. -М.: Издательство МАГИСТР-ПРЕСС, 2002.
16. Гегель Г. В. Ф. Философия права. -М.: Мысль, 1990.
17. Гиддингс Ф.Г. Основания социологии анализ явлений ассоциации и социальной организации // Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия. Добренков В.И., Беленкова Л.П. -М.: Наука, 1994. -С. 166-203.

18. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда: Метод социологии. - М., 1991.
19. Ибн Халдун. Ал-Мукаддима. Состав. и пер. с араб. А. В. Смирнова // Историко-философский ежегодник 2007. - М.: Наука, 2008. - С. 192-193.
20. Зиммель Г. Проблемы социологии // Избранное. Т. 2. // Созерцание жизни. - М.: Юрист, 1996.
21. Конт О. Дух позитивной философии // Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия. Добренъков В. И., Беленкова Л. П. - М.: Наука, 1994. - С. 5-25.
22. Масионис Дж. Социология. 9-е изд. Пер. с англ. - М.: Питер, 2004.
23. Монтескье Ш. О духе законов // Монтескье Ш. Избр. произведения. - М., 1955.
24. Нурышев Г. Н., Бразевич Д. С. Социология: Учеб. пособие. - СПб.: СПбГУНиПТ, 2010.
25. Saint-Simon С. Н. La Physiologie sociale. Oeuvres choisies. - P., 1965.
26. Смелзер Н. Социология: пер. с англ. - М.: Феникс, 1994.
27. Спенсер Г. Основания социологии // Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия. Добренъков В. И., Беленкова Л. П. - М.: Наука, 1994. - С. 55-68.
28. Социология: учебник для студентов вузов / под ред. В. К. Батурина. - 4-е изд. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.
29. Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г. В. Осипов, Л. Н. Москвичев. - М.: Норма, 2003.
30. Социология. Хрестоматия для вузов / Кравченко А. И. - М.: Академический Проект, 2002.
31. Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество. - М., 1992.
32. Тернер Дж. Структура социологической теории. - М., 1985.
33. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. - Т.: А. Қодирий ном. халқ мероси нашриёти, 1993.

2-mavzu. SOTSILOGIYA STRUKTURASI

2.1.Sotsiologik bilimlar strukturasi tushunchasi.

2.2.Makrosotsiologiya, mikrosotsiologiya va umumiy sotsiologiya.

2.3.Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari.

2.4.Sotsiologiyaning funksiyalari.

Tayanch tushunchalar: struktura, sotsial struktura, sotsial institut, sotsial guruh, nazariy sotsiologiya, amaliy sotsiologiya, empirik sotsiologiya, fundamental sotsiologiya, umumiy sotsiologiya, makrosotsiologiya, mikrosotsiologiya, mehnat sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya, tarbiya sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, fan sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi, etnosotsiologiya, yoshlar sotsiologiyasi, ta'lim, sotsiologiyasi, harbiy sotsiologiyasi, san'at sotsiologiyasi, sport sotsiologiyasi, turizm sotsiologiyasi, sotsiologiyaning funksiyalari.

2.1. Sotsiologik bilimlar strukturasi tushunchasi

Struktura (lotincha «structura» — «tuzilish») — obyektning bir butunligini va uning o'ziga o'zi aynanligini, ya'ni turli ichki va tashqi o'zgarishlarda o'zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta'minlovchi barqaror aloqalar yig'indisidir. Struktura aksariyat holatlarda «nimanidir tarkibiy qismlarini o'zaro joylashishi va o'zaro aloqalari» yoki «ma'lum bir tuzilish va tuzilmaga ega bo'lgan narsa» ma'nolarida ham ishlatiladi⁵⁶.

Struktura — birinchidan, bu unsurlarni ma'lum bir model sifatida namoyon qilish, masalan, qandaydir institutlashtirilgan sotsial birikmani (rollar, tashkilotlar va boshq.) tasniflashni «hosilalashgan struktura» yoki «joylashuv strukturasi» sifatida tartibga solishdir; ikkinchidan, ustki struktura asosida yotuvchi (ayniqsa qiyosiy grammatikada) qoida va tartibdir («chuqur struktura» — Levi-Stross ta'biricha). Taniqli sotsiolog olim Giddens uchun «struktura» sotsial tizimlarni qaytarilishi va takrorlanishida saqlanib turadigan «qoidalar va imkoniyatlar»ga taalluqli tushunchadir⁵⁷. Yana bir talqinga binoan, struktura — bu tizimning tuzilishi va uning unsurlari o'zaro barqaror aloqalarining birligi, bu o'zaro aloqalar qonuniyatlarini sifatida namoyon bo'ladigan ichki shaklidir⁵⁸.

⁵⁶Локшина С.М.Краткий словарь иностранных слов.-10-е изд.,стер.-М.:Рус.яз., 1988.-С.488.

⁵⁷Qarag: Большой толковый словарь (Collins).Том 2 (П-Я): Пер. с англ.-М.: Веча, АСТ, 1999.-С.300.

⁵⁸Большой энциклопедический словарь//<http://www.sovslov.ru/tolk/struktura.html>.

Sotsiologiya fani mustahkam amaliyotga tayanadi, u dastlab strukturaviy jihatdan ikkiga — nazariy va amaliy darajalarga bo‘linadi. *Sotsiologik bilimlar strukturasi* — bu sotsial voqeliklar tavsifini aniqlash yoki umumlashtirish darajasidan kelib chiqiladigan turli daraja va bo‘laklardagi sotsial voqeliklar haqidagi nazariyalar, tasavvurlar, tushunchalar, qarashlar, yondashuvlarning o‘zaro bir-birlariga bog‘langan tizimidir. Sotsiologik bilimlarning o‘ziga xos xususiyati — bu ularning harakatlanib va rivojlanib borayotgan sotsial organizm — jamiyat haqidagi muayyan darajada tartibga solingan bilimlar tizimi ekanligidir. Sotsiologik tasavvurlar, farazlar va ilmiy bilimlar strukturasi u yoki bu sotsial hodisalar va jarayonlarga oid ma’lumotlarni tahlil etish negizida olinadigan ilmiy umumlashmalar va xulosalarning kengligi va chuqurligi sotsiologiya tomonidan o‘rganilayotgan obyektlar doirasiga bog‘liq holda shakllanadi.


Sotsiologik nazariyalarning strukturaviy unsurlari jamiyatga doir bilimlardan iborat bo‘lib, u o‘z ichiga uning rivojlanish qonuniyatlari va boshqa asosiy jihatlarini izohlab berishni oladi. Jamiyatning yashashi va ijtimoiy hayotning alohida sohalariga (iqtisodiy, siyosiy, sotsial, ma’naviy va boshq.) doir bilimlar, shuningdek, bu sohalarining har birida shaxslar yoki guruhlarining o‘zini o‘zi namoyon qilishi va ularning hayot kechirish shartlari va imkoniyatlari sotsiologik *bilimlarning strukturasi*ni tashkil etib, ular — ilmiy qarashlar, jamiyat sotsial strukturasi nazariyasi, aholining sotsial tarkibi, jamiyatdagi mavjud sotsial institutlar (davlat, huquq, iqtisodiyot, din, madaniyat, oila va boshq.) faoliyati kabilarda o‘zini namoyon qiladi.

Sotsiologik bilimlar strukturasi tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy hayotning ma’lum sohalarida tadqiqotlar olib borish bilan shug‘ullanadigan qator maxsus bo‘limlarni, shuningdek ba’zi umumiy nazariyalar sohalarini bir-birlaridan ajratib ko‘rsatishga ehtiyoj tug‘iladi. Zamonaviy sotsiologiya fani *aniq sotsiologiya* yoki *o‘rta darajadagi sotsiologiya* deb ataluvchi bo‘limlarga (sohalarga) ajraladi:

1) oila, tarbiya sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, bilish, mafkura, fan, din, san’at, armiya, sanoat, mehnat sohalariga tegishli bo‘lgan sotsial institutlarni tadqiq etadigan bo‘lim;

2) kichik guruhlar, hududiy birliklar, shahar, qishloq, aholining sotsial qatlami, kasblar va kastalar kabi turli sotsial birliklarni maxsus ravishda tadqiq etuvchi bo‘lim;

3) sotsial hodisalar va jarayonlarni maxsus ravishda tadqiq etish (ko‘chish — joy o‘zgartirish, tartib-intizomni buzish, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, tadbirkorlik va bozor munosabatlarining shakllanishi,



2.1-rasm. Sotsiologiyaning strukturasi

ommaviy kommunikatsiya — OAV va kino — ularning madaniyatni shakllanishiga ta'siri; aholining jug'rofiy kengliklarda bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi va ularning boshqa birlik hamda madaniyatga o'ta boshlashi, bir sotsial qatlmdan ikkinchisiga o'tish jarayonlari va boshq).


Sotsiologiyaning ilmiy bilish tizimi sotsial voqeliklarni tadqiq etishning turli darajalari va turlarini ifodalovchi murakkab strukturaga egadir. Sotsiologik bilimlarning uchta darajasi bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- umumiy sotsiologik nazariyalar;
- maxsus sotsiologik nazariyalar yoki o'rta darajadagi nazariyalar;
- aniq sotsiologik tadqiqotlar.

Shuningdek, ijtimoiy hayotni o'rganishning nazariy va amaliy darajalari ham mavjuddir.

2.2. Makrosotsiologiya, mikrosotsiologiya va umumiy sotsiologiya

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib sotsiologiyaning turli tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan faoliyati sohasi turli ichki taqsimlanishlarga ajraldi va u o'zida murakkab jarayonlarni ifoda eta boshladi. Sotsiologiya- ning strukturasi, ya'ni uning tarkibiy qismlarining birikuv va o'zaro bog'lanishi nisbatlari o'zaro taqsimlanishning uchta shakli bilan ifodalana- nadi: 1)predmet mezonlari bo'yicha (predmetga oid taqsimlanish — differentsiallasuv); 2)bilish usuli mezonlari bo'yicha (metodologik taqsim- lanish); 3)maqsadlar va tadqiqotlar natijalaridan foydalanish mezonlari bo'yicha (pragmatik taqsimlanish).



2.2-rasm. Sotsiologik bilimlar strukturasi

Predmetga oid taqsimlanish, birinchidan, ontologik⁵⁹ mo'ljalni aniqlashning turli-tumanligi bilan izohlanadi. *Ontologiya* tushunchasi

⁵⁹Ontologiya - [yunon. ontos turmush + logos ta'limot, so'z] - sotsiologiyada turmush mohiyatini va hodisalarni (gnoseologiyaga qarama qarshi o'laroq) faqat dalillar orqali idrok qilish tushuniladi; falsafada turmushni uning qismlaridan mustaqil ravishda anglash; turmushni (borliqni) umumiy ravishda aniqlashning tajribaga asoslanmagan mavhum tizimi.

voqelik haqiqatan va chindan ham mavjudlikka ega bo'lgan borliqqa oidligi haqidagi falsafiy ta'limotga nisbatan ishlatiladi. Sotsiologiyada sotsial borliqni aniqlashga doir ikkita yondashuv shakllandi: haligi, qandaydir narsa «haqiqatda» mavjud, shuning uchun ham u sotsiologiya predmeti hisoblanadi. Ularga yondashuvlardagi farqlanishlar «sotsiologik realizm» va «sotsiologik nominalizm» yondashuvlarida o'z ifodasini topdi.

Birinchi yondashuv jamiyat, sotsial strukturalar, sotsial institutlar, sotsial guruhlar kabi hodisalar, jarayonlar alohida olingan odamlar xatti-harakatlari, ularning tavsiflaridan va mavhumlashgan individualliklaridanda yuqori va muhim bo'lgan voqeliklarni hosil qiladi, degan qarashlarni ilgari suradi. Bu yondashuv «odamlar o'tib ketadi, jamiyat esa qoladi», degan oddiy mulohazadan kelib chiqdi. Boshqacha aytganda, individlar avloddan avlodga o'tib yashaydi, tug'iladi, vafot etadi, sotsial strukturalar — me'yorlar, o'zaro ta'sir namunalari, guruhlariga bo'linish, maqomlarga ajralish — uncha o'zgarmagan va takrorlangan holda davom etadi. Lekin, bir avlod hayoti davomida ham sotsial strukturalar islohotlar natijasi o'laroq yoki inqiloblar oqibatida tub o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Shu tariqa, sotsial strukturalarning yashash va rivojlanish mantig'i individning mavjudlik mantig'idan yuqori turadi. Ustiga-ustak «sotsiologik realizm» tarafdorlari tasavvurida individlar xatti-harakati mantig'i determinantlashadi⁶⁰. Boshqacha aytganda, sotsial strukturalarning yashash va rivojlanish mantig'i oldindan belgilab qo'yiladi. Shuning uchun ham sotsial hodisalarni tadqiq etish — bu hodisalarni o'rganishning keng miqyosli turi va individuallikdan yuqorida bo'lgan *makrosotsial* tadqiqotdir. Unga jamiyatning tuzilishi, uning qismlarini o'zaro ta'siri (masalan, siyosiy va iqtisodiy institutlar), sotsial evolyutsiya (masalan, individlarning sotsial maqomini aniqlashda bir necha o'n yilliklarda, hattoki, yuz yilliklarda oila rolining o'zgarib borishi), jamoatchilik fikri strukturasi (masalan, turli siyosiy partiyalarni qo'llab-quvvatlayotgan saylovchilar u yoki bu partiyalarga nisbatan xayrixohligi hissasining o'zaro nisbatlari) kabilarni keltirish mumkin.

Makrosotsiologiya — bu individuallikdan yuqorida turgan strukturalarga nisbatan qaratilgan va amalda ontologik mo'ljal olishga asoslangan tadqiqotlar yig'indisidir (jamlanmasidir). *Ikkinchi yondashuv* — «sotsiologik nominalizm» tarafdorlari jamiyat, sotsial strukturalar, sotsial tizimlar kabi kategoriyalar faqat individlarning xatti-harakati yig'indisini o'ng'ay tarzda

⁶⁰Determinizm - [lot. *determinare* aniqlamoq] - fan qonunlarida tasvirlangan tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarni sababli ravishda o'zaro bog'langanligini va ob'ektiv qonuniyatlarini e'tirof etishga doir falsafiy tushuncha.

ifodalaydigan nomlardan iborat bo'lgan atamalardan boshqa narsa emas, degan iddaoni ilgari surdi. Sotsial hodisalarni «nominalizm» nuqtai nazaridan talqin qiluvchilar ochiq-oydin ko'rinib turgan dalillar — ya'ni, amalda hech qanday struktura va tizimlar ko'zga ko'rinmaydi, shuning uchun ham ularni kuzatish mumkin emas, degan da'vo bilan chiqdi. Kuzatish mumkin bo'lgan narsalar — bu individlar va ularning xatti-harakatlaridir. Ko'plab individlarning harakati odamlar tasavvurida go'yoki individuallikdan yuqorida turgan strukturalar bo'lib tuyuladigan barqaror, takrorlanib turuvchi sxemalar (tarxlar) va namunalarni yaratadi. Lekin, bu strukturalarning mavjudligi va tabiati odamlarning o'z xatti-harakatlariga beradigan ma'no-mazmundan kelib chiqib belgilagan tasavvurlaridan iboratdir. Shuning uchun ham sotsial hodisalarni tadqiq etish — odamlar kundalik hayoti shart-sharoitlarida ro'y beradigan individlararo o'zaro ta'sirlarni (ya'ni, *mikro* voqealarni) tadqiq etish demakdir. Shu kabi holatlarga kichik guruhlar ichidagi xulqlarni keltirish mumkin. Masalan, oilada individlarning o'z sotsial maqomini va rollarini bajarishining anglashi o'rtasidagi o'zaro aloqalar shunday vaziyatni yaratadiki, unda individlar sotsiiallashadi, ya'ni ular qadriyatlarini va sotsial me'yorlarni o'zlashtiradi. *Mikrosotsiologiya* — individlarning o'zaro xatti-harakatlariga qaratilgan va «*nominalistik*» ontologik mo'ljal olishga asoslangan tadqiqotlar jamlanmasidir.

Agar sotsiologiya rivojlanishining oldingi davrlarida «realizm» va «nominalizm» o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshiliklar ularning ilmiy nuqtai nazarlari o'rtasida katta chegaralarni vujudga keltirgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib *makrosotsiologiya* va *mikrosotsiologiyaga* bo'linish tadqiqot ishlarida sotsial hodisalarni har tomonlama va chuqur o'rganishga doir ixtisoslashuvni anglata boshladi.

Sotsiologiyani makrosotsiologiya va mikrosotsiologiyalarga bo'linishidan tashqari predmetning umumiyligidan kelib chiqib, fan ichida yana bir o'zaro taqsimlanish amalga oshirildi. Sotsiologiya fani *umumiy sotsiologiya* va *sotsiologik bilimlarning xususiy tarmoqlariga* ajratildi.

Umumiy sotsiologiya — bu sotsiologik bilimlarning konseptual o'zgidir. Uning predmeti sifatida hodisalar o'zaro sotsial bog'langanligining universal shakllarini ko'rsatish mumkin. Umumiy sotsiologiya sotsial hodisalarni va har qanday sotsial jarayonlarni tavsiflash va tushuntirishga imkon beradigan konseptual apparatni⁶¹ ishlab chiqishga qaratilgan

⁶¹Apparat - [lot. apparatus] - sotsial fanlarda boshqaruv yoki xo'jalik sohasida xizmat ko'rsatuvchi muassasalar yig'indisi ma'nosini anglatadi (masalan, davlat apparati, sud apparati va hokazo). Mazkur sahifada konseptuallik tushunchalari va sharhlari tizimi ma'nosida berilmoqda.

tadqiqotlar yig'indisidir. Umumiy sotsiologiya predmetining mohiyati jamiyat, sotsial struktura, sotsial stratifikatsiya, sotsial harakat, sotsial institut, rollar va maqomlar, guruhlar, ixtiloflar, o'zgarishlar, sotsiallashuv kabi sotsiologik kategoriyalarni o'zida ifodalaydi. Bu kategoriyalar odamlarning hayotiy faoliyatlari jarayonlari — iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ta'lim, diniy, oilaviy aloqalar va turli hodisalarning umumiy xususiyatlari va xossalarini qayd etadi, ularni ilmiy tadqiqotlarga olib kiradi. Masalan, mehnat jamoasi va oila sotsial guruhlarning turli xillariga mansubdir, kasbiy, diniy yoki etnik birliklar bo'yicha bo'linish sotsial strukturaning turli xillaridan biri hisoblanadi.

2.3. Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari

Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari maxsus tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati keltirib chiqaradigan sotsial hodisalarning umumiy qatoridan alohida predmet sifatida ajralib chiqqan qandaydir hodisalar va jarayonlar asosida rivojlandi. Sotsiologiyaning alohida tarmoqlari doirasidagi tadqiqotlar mazkur tarmoqlar predmetining umumsotsiologik konseptual vositalari — «jamiyat», «sotsial harakat», «sotsial struktura», «sotsial institut», «sotsial maqom», «sotsial guruh» va boshqa tushunchalarni qo'llash va ularga moslashish yo'li bilan amalga oshiriladi. Faqat sotsiologiyaning ma'lum bir tarmoq doirasida muhim ahamiyat kasb etadigan o'ziga xos alohida hodisalar va jarayonlarni tavsiflash va tushuntirish vazifalarini bajarish natijasidagina umumsotsiologik yondashuvlar asosida o'rganilayotgan predmetning mohiyatini aniqlaydigan va afzalroq ravishda ochib beradigan maxsus konseptual vositalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Jumladan, *iqtisodiy sotsiologiya* iqtisodiy hodisalar va jarayonlarga nisbatan sotsial bog'liqlik kasb etadi. Bu bog'liqlik sotsiologlar tomonidan quyidagilarni tadqiq etishi natijasi o'laroq o'z isbotini topadi: jamiyatning rivojlanishi va tuzilishida iqtisodiyotning roli, jamiyat tuzilishining iqtisodiy sohasidagi sotsial institutlar (ya'ni, iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari rioya qilayotgan sotsial me'yorlar majmualari), iqtisodiy hayotda ishtirok etish shakllari va maqomiy kategoriyaga mansublik o'rtasidagi o'zaro aloqalar, xo'jalik faoliyati jarayonida sotsial guruhlarning shakllanishi, individlar xulqi va ularning guruhlarga mansubligining turli jarayonlarga ta'siri va hokazo.

Iqtisodiy sotsiologiya doirasidagi tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatini sotsial-iqtisodiy tizim, norasmiy iqtisodiyot, iste'mol xulqi, bandlik shakllari, tadbirkorlik, kasbiy guruhlar, mehnat munosabatlari, xo'jalik etikasi kabi kategoriyalar ham ifodalaydi.

Sotsiologiyaning yana bir tarmogʻi — *siyosiy sotsiologiya* predmeti siyosiy hodisalar va jarayonlarning oʻzaro bogʻliqligini tadqiq etadi. Bu bogʻliqlar jamiyat rivojlanishi va tuzilishida davlat va siyosiy tashkilotlarning roli, jamiyat tuzilishining siyosiy jarayonlarga taʼsiri, siyosat sohasidagi sotsial institutlarning (yaʼni, siyosiy faoliyat ishtirokchilari rioya qiladigan sotsial meʼyorlar majmualarini) amal qilishi, siyosiy hayotda ishtirok etish shakllari va maqomiy kategoriyaga mansublik oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar, siyosiy faoliyat jarayonida sotsial guruhlarining shakllanishi, individlar xulqi va ularning guruhlariga mansubligining jarayonlarga taʼsiri kabi sotsial munosabatlarni tadqiq etish natijasida aniqlanadi. Siyosiy sotsiologiya predmetining oʻziga xos xususiyatini sotsial-siyosiy tizim, elektoral xulq, siyosiy harakatchanlik, siyosiy ishtirok, siyosiy elita, turli taʼsir etish guruhleri (lobbilar) kabi kategoriyalar ifodalaydi.

Sotsiologiyaning boshqa tarmoqlari — madaniyat, oila, fan, din sotsiologiyasi va etnosotsiologiya kabilar jamiyatning u yoki bu sohalarini tadqiq etishda muhim rol oʻynaydi. *Madaniyat sotsiologiyasi* madaniy hodisalar — qadriyatli yoʻnalganlik, urf-odatlar, intellektual va badiiy faoliyat, shuningdek, madaniyat bilan sotsial jarayonlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni tadqiq etadi va oʻrganadi. Madaniyat sotsiologiyasining oʻziga xos xususiyatlari mavjuddir. Ular turli xalqlarning madaniyatlaridagi umumiylik va oʻziga xosliklarni oʻrganadi. Madaniyat sotsiologiyasining kategoriyalari sotsiomadaniy tizimlar, qadriyatlar, madaniy patternlar⁶², submadaniyatlar, madaniy gibridlar⁶³ kabilardan iboratdir.

Oila sotsiologiyasining oʻziga xos xususiyatlari va oilaviy hayot shakllarining oʻzaro bir-birlariga bogʻlik aloqalarini oila institutlari, reproduktiv⁶⁴ xulq, gender rollari, oilaning shakllari, oila hayotining sikllari kabi kategoriyalar ifodalaydi. *Fan sotsiologiyasining* predmeti — bu fan sohasidagi institutlar — ilmiy hamjamiyat, fan taraqqiyoti, fan muassasalari kabilardir. *Din sotsiologiyasining* predmeti — diniy institutlar, cherkov, masjid, ibodatxonalar, dunyoviydashish, fundamentalizm kabilar, *emosotsiologiya* (etnik sotsiologiya) predmeti — jamiyatning etnik strukturasi, etnik stereotiplar, etnik aynanlashish, enosotsial ixtiloflar kabilardir.

⁶²Pattern - [ingl. *pattern* namuna, qolip, tizim] - tabiatda va insoniy birlikda uchrab turadigan qonuniyatli muntazmlik, shuningdek, takrorlanuvchi qolip va namuna.

⁶³Gibrid - [lot. *hibrida* chatishma, qurama, aralash] - oʻsimliklarning yangi turlari va hayvonlarning yangi zotlarini olish uchun oʻsimliklar va hayvonlarning har xil turlari va zotlarini bir-biriga chatishtirish. Sotsiologiyada turli madaniyatlarining bir-biri bilan aralashib va chatishib ketishi tushuniladi.

⁶⁴Reproduksiya - [lot. *re...* yangidan + *producer* etishtirish, yaratish] - qaytadan etishtirish va koʻpaytirish (tasviriy sanʼat sohasida, keyingi paytlarda esa gender sohasida qoʻllanmoqda).

Shuningdek, hozirgi davrga kelib *yoshlar, ta'lim, harbiy, san'at, sport, turizm sotsiologiyalari* kabilar sotsiologiya fanining alohida tarmoqlari sifatida shakllandi.

Nazariy sotsiologiya — bu asosiy mazmuni konseptual modellar tuzishga oid tadqiqotlar yig'indisi, ya'ni, sotsial hodisalarni tushuntiruvchi va tavsiflovchi, mantiqan o'zaro bog'lanib, o'z isbotini topgan dalillar tizimidir. Nazariy tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular tadqiqotlar jarayonida bevosita obyektlarga murojaat qilmaydi. *Empirik sotsiologiya* esa asosiy mazmuni obyektga doir daliliy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishdan iborat bo'lgan tadqiqotlar yig'indisidan iboratdir.

Sotsiologiyada daliliy ma'lumotlar — bu har qanday axborot yoki xabarlardan iborat bo'lmagan, balki faqat maxsus ilmiy izchillik asosida o'rnatilgan metodlarni (usullarni) qo'llash natijasida olinadigan ma'lumotlardir. Bu kabi metodlarga quyidagilar kiradi:

-tadqiqot obyektini tashkil etish — eksperimental tadqiqot, tanlab olib tadqiq etish, panelli (obyektning boshqa unsurlari va ular qo'shiladigan asosiy qismiga bo'lib o'rganish) tadqiqot, alohida holatlardagi tadqiqot (case study)⁶⁵;

-ma'lumotlar to'plash metodi — so'rov (anketalar to'ldirish, intervyu), kuzatish, hujjatlarni tahlil etish (matnli, vizual, ovoz vositasida);

-ma'lumotlarga ishlov berish va ularni tahlil etish, — statistik (miqdoriy) tahlil, mantiqiy-ma'noli tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil.

Ko'rinib turibdiki, sotsiologik dalillar — bu o'z-o'zidan o'rganiladigan voqelik emas, balki o'rganiladigan voqelik haqida ilmiy ahamiyat kasb etadigan alohida tarzda yaratilgan ilmiy materiallardir.

Sotsiologiya uch darajadagi daliliy ma'lumotlar asosida tadqiqot olib boradi:

1) xususiy empirik dalillar — tadqiqotning ayrim vaziyatlarini tasniflovchi ma'lumotlar yig'indisi (anketa yoki intervyu savol-javoblarning mazmuni, tadqiqotchining kundaligi yoki kuzatuv bayonnomasi mazmuni va hokazo);

2) tahliliy (yig'ma va statistik) dalillar — empirik dalillarni agregatsiyalash va guruhlash natijalariga doir ma'lumotlar (jadvallar, foizli taqsimlashlar, diagrammalar va boshq.);

⁶⁵Keys-stadi - [ingl. case study *aniq o'quv vaziyatini tahlil qilish*] — quyidagi sohalarda malakani takomillashtirish va tajriba orttirish uchun mo'ljallangan metod: muammoni aniqlash, tanlash va hal etish; axborotlar bilan ishlash — tasvirlangan vaziyatda barcha tafsilotlarni (mayda-chuydalarni) anglab etish; axborotlar va dalillarni tahlil qilish va ularni bir-birlariga o'zaro bog'lash; farazlar va natijalar bilan ishlash; muqobilliklarni baholash; qarorlar qabul qilish; boshqa odamlarni tinglash va tushunish — guruhviy ravishda ishlash ko'nikmalarini orttirish.

3) empirik umumlashmalar — sotsiologik tushunchalar yordamida ifodalanadigan empirik va tahliliy o‘zaro barqaror aloqalarga (tamoyillarga, qonuniyatlarga va boshq.) doir xulosalar.

Empirik umumlashmalar empirik sotsiologiyaga doir tadqiqot ishlarining oliy darajasi hisoblanishidan tashqari u bir vaqtning o‘zida nazariy sotsiologiyadagi tadqiqot ishi shakli hisoblanadi. Empirik umumlashma — bu empirik ma’lumotlarni konsepsiyalashtirish demakdir.

Nazariy tushunchalar (konseptlar) to‘plangan ilmiy bilimlarning umum ahamiyat kasb etgan ifodasi va yig‘iq shakli sifatida xizmat qiladi. Ilmiy tushunchalarni kiritish yo‘li bilan tizimlashtirish va ular o‘rtasida mantiqiy aloqalarni o‘rnatish nazariylashtirishning mohiyatini tashkil etadi. Sotsiologiyada nazariylashtirishning uchta asosiy shaklini bir-biridan ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) empirik umumlashmalar — sotsial hodisalar va jarayonlarda kuzatiladigan tamoyillar va doimiyliklarni qayd etish;

2) tipologizatsiyalash (turkumlashtirish) — borliqda ko‘zga ko‘rinmagan holda mavjud bo‘lgan, lekin a‘lo darajada model bo‘lib xizmat qiladigan, tadqiqotchi tomonidan kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarning nisbatini namoyon qiladigan sotsial hodisa va jarayonlarni mantiqiy imkoniyatlar darajasida turlarga ajratish demakdir (masalan, maktablarda o‘qituvchilar va ma‘muriyat xatti-harakatlarini qadriyatga oid yo‘nalganlik modeli sifatida individualizm va jamoachilikning namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rsatish mumkin);

3) konseptual sxemani (tarxni) tuzish — sotsial hodisalar va jarayonlar o‘rtasida o‘zgaruvchan tushunchalar qiyofasida gavalangan kauzal⁶⁶ va funksional bog‘liqliklarni o‘rnatish.

Sotsiologiyada nazariy bilimlarning umumiylik me‘yori bo‘yicha uchta darajasini bir-biridan ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) tushuntirish, muayyan vaqtda va muayyan joyda kuzatilayotgan ayrim hodisaning nazariyasi sifatida yaratilgan konseptual model;

2) o‘rta darajadagi nazariya, ya‘ni sotsial hodisalarning ma‘lum turkumi yoki ba‘zi qatorlari tushuniladigan va tavsiflanadigan xususiy (yoki maxsus) nazariya;

3) umumsotsiologik nazariya, ya‘ni uning yordamida har qanday sotsial hodisalar va jarayonlarni tushuntirish va tavsiflashning imkoniga ega bo‘lgan universal nazariya.

Hozirgi davrda sotsiologiya fani sohasida nazariy va empirik

⁶⁶Kauzal - [lot. *causalis* sababli] - hodisa va jarayonlar qandaydir sabablar bilan yuz beradi, deb qarash.

tadqiqotlar olib borish faoliyati o'zaro almashuv aloqalari bilan bog'lanib borayotganligini kuzatish mumkin: nazariyalar empirik ma'lumotlarni to'plash jarayoniga yo'naltirilgan tadqiqotlarga yondashuvi va farazining (gipotezasi) manbai sifatida xizmat qilsa, empirik umumlashmalar konseptual modellar tuzish uchun material sifatida xizmat qiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda empirik ma'lumotlarni yig'ish va nazariyalar deduksiya⁶⁷ vositasidagi tadqiqot ishlari yordamida umumiy jarayon bilan bog'lanadi — «umumiylik»dan (nazariy holatdan) «xususiy»ga (dalillarni tekshirishga yo'l qo'yadigan farazlarga) olib chiqiladi. Induksiya⁶⁸ vositasida olingan empirik ma'lumotlar va sotsiologik nazariyalar o'zaro bog'lanadi — «xususiy»dan (alohida dalillardan) «umumiylik»ka (konseptual modellar tuzishga imkoniyat yaratuvchi umumlashtirishlarga) olib kelinadi. Empirik sotsiologiyaning mazmunini hodisalarning o'zaro bir-biriga bog'langanligi tashkil etadi, shuningdek uning rivojlanish asosini belgilab beradi. *Nazariy sotsiologiyaning* mazmunini hodisalarning sotsial jihatlardan o'zaro bog'langanligi, fanni yanada rivojlantirish yo'nalishi va uning erishgan darajasi belgilab beradi.

Sotsiologiya fani ichidagi o'zaro foydali natijalar berishga asoslangan taqsimlanish, ya'ni, tadqiqotlar natijalaridan foydalanish va maqsadlar mezoni bo'yicha bo'linish oqibatida *akademik va amaliy sotsiologiyalar* shakllandi. *Akademik sotsiologiya* — bu fundamental (asosiy) ilmiy bilimlarni olish maqsadida amalga oshiriladigan tadqiqotlar yig'indisidir. Akademik sotsiologiya doirasidagi tadqiqotlarning asosiy natijalari — bu sotsiologiyani fan sifatida rivojlantirish, ya'ni yangi nazariyalarni yaratish, yangi empirik umumlashmalar olish, yangi metodlar va yo'llarni ishlab chiqish va ularni sinovlardan o'tkazish demakdir. Fundamental tadqiqotlar asosan ilmiy-tekshirish institutlari va universitetlarda amalga oshiriladi. Bunda sotsiologiya jiddiy ilmiy bilimlar, mustaqil ilmiy va o'quv fani sifatida rivojlanadi.

Amaliy sotsiologiya — bu amaliy va foydali bilimlar olish maqsadidagi tadqiqotlar yig'indisidir. Amaliy sotsiologiyaning asosiy natijasi — bu ilmiy vositalar (nazariy modellar va empirik metodlar) yordamida aniq muammolarning yechimlarini topish demakdir. Amaliy ahamiyat kasb

⁶⁷Deduksiya - [ingl. *deduction* ayrish, chiqarib tashlash, chegirib qolish, ushlab qolish] - umumiylikdan xususiylikka, umumiy muhokamadan xususiy yoki boshqa umumiy xulosalarga o'tishga doir mantiqiy va muayyan bir fikrga kelish.

⁶⁸Induksiya - [ingl. *inductio*] - qator empirik kuzatuvlarda asoslangan ikki yoki undan ko'proq o'zgarib turadigan obyektlar o'rtasida muntazam aloqalarni ko'zlagan umumiy fikr yoki jarayon. Induktiv dalillar qator ma'lum holatlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

etadigan tadqiqotlar asosan ixtisoslashgan, ko'pincha tijorat asosida faoliyat yurituvchi, buyurtmalar asosida tadqiqotlar olib boruvchi tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Hozirgi davrga kelib amaliy sotsiologik tadqiqotlar marketing, menejment, jamoatchilik bilan aloqalar (PR) kabi sohalar faoliyatiga tezlik bilan kirib kelmoqda⁶⁹.

Albatta, sotsiologiyaning hozirgi davrdagi strukturasi — bu o'zida shartli taqsimlanishlar va bo'linishlar bo'lishini taqozo etadi. Aslida, ularning hammasi bir butun sotsiologiya fani miqyosida umumiylik kasb etadi. Sotsiologiya strukturasi hozirgi modeli fan ichida bir-biridan ajralishga moyillikni o'rnatish uchun emas, balki sotsiologiya fanining tadqiqot olib borish faoliyatini turli ko'rinishlari va jihatlarini tizimlashtirishga imkon berishi uchun shakllandi.

2.4.Sotsiologiyaning funksiyalari

Barcha fanlar kabi sotsiologiya fanining ham o'ziga xos funksiyalari mavjuddir. Bu funksiyalar asosan beshta guruhga bo'linadi: *bilishga, qayta o'zgartiruvchilikka, prognozga* (bashoratga), *axborotga, dunyoqarashga va boshqaruvga oid* funksiyalar. Bu bo'linish asosida bir tomondan, sotsiologiyaning jamiyat tizimiga doir va sotsial fanlar yo'nalishlariga taqsimlanishi va xilma-xilligining obyektiv zarurat ekanligi, ikkinchi tomondan, sotsiologik mehnatning mazmuni va o'ziga xosligiga muvofiq ravishda sotsiologik faoliyatning turli shakllarda namoyon bo'lishi yotadi.

Bilish funksiyasi. Sotsiologiya fani sotsial borliqqa nisbatan atroflicha va har tomonlama nuqtai nazar bilan qaraydi. Bir tomondan, nimani saqlash va mustahkamlash lozimligini e'tiborga oladi, ikkinchi tomondan, qanday keskin o'zgarishlarga talablar borligini aniqlaydi. Bu funksiyani amalga oshirish asnosida asta-sekinlik bilan sotsiologik bilimlar to'planadi, ular tizimlashadi, jamiyat amaliy hayotidagi haqiqiylik tekshiriladi. Bu funksiyaning unsurlaridan biri — tasniflash funksiyasi — tizimlashtirish, tahliliy materiallar ko'rinishidagi tadqiqotlarni, ilmiy hisobotlarni, maqolalar va kitoblarni tasniflash kabilardir. Mazkur materiallar sotsiologiyaga nafaqat sotsial borliqni bilishga, balki bu yo'lni davomi sifatida tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritish imkoniyatlarini beradi. Chunki, odamlarning o'zi jamiyatning yaratuvchilari hisoblanadi, bu borada kelajak avlodlar oldidagi ma'sullikni chuqur his etadi. Zero, jamiyatni o'zgartirish farovonlikni

⁶⁹Нурьшев Г.Н.,Бразевич Д.С.Социология:Учеб. пособие.-СПб.:СПбГУН и ПТ,2010.-С.19-28.

oshirish maqsadini ko'zlaydi. Bilish funksiyasi o'zining davomini bashorat qilish va qayta o'zgartiruvchilik funksiyasida topadi.

Har qanday fanlarda bo'lganidek sotsiologik faoliyat ham bilishdan boshlanadi. Sotsiologiyaning bilish funksiyasi tavsiflash, o'rganish, tushuntirish, tahlil, sotsial dalillarning bir yoki bir qancha guruhlarini sifatida paydo bo'ladigan sotsial voqelikka tashxis qo'yish kabilari vositasida amalga oshiriladi.

Bilish funksiyasini amalga oshirishning borishida sotsiologiyaning vazifasi ma'lum tamoyillar shaklida namoyon bo'ladigan o'zaro bog'liqlarni aniqlashdan iboratdir. Shuning uchun bilish funksiyasi guruhlarini tavsiflash, tushuntirish va tashxis qo'yish vositasida aniqlashtirish mantiqan fanning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Sotsial dalillar va jarayonlarni tavsiflash har qanday tadqiqotning boshlanish bosqichi hisoblanadi. Bu degani keyinchalik o'rganiladigan va tahlil etiladigan sotsial materiallarni topish va qayd etish demakdir. Tavsiflashdan keyin belgilangan sotsial dalillarni va ular o'rtasidagi aloqalarni tushuntirishga zarurat paydo bo'ladi. *Tashxis qo'yish funksiyasi* tavsiflash va tushuntirishning tabiiy ravishda davom etishi bo'lib, uning maqsadi tadqiq etish talab etayotgan aniq sotsial muammolarni ularning amaliy ahamiyati va dolzarbligidan kelib chiqib aniqlash, ularning belgilari va xususiyatlarini ochish, shuningdek hal etishga muhtojlik sezayotgan sotsial ziddiyatlarni topishdan iboratdir.

Sotsiologiyaning bilish funksiyasi sotsial voqelikni ham nazariy, ham empirik tahlil etish bilan bir-biriga bog'lanib ketadi. Bu funksiyalarni amalga oshirish jarayonida tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt, predmet, ziddiyatlari, asosiy tushunchalari, ishchi farazi (gipotezasi), ko'zda tutilgan natijalar, muammolarni o'rganish vositalari va metodlarini aniqlash, olingan axborotlarni qayta ishlab chiqish va tahlil qilish kabilarni o'z ichiga olgan *dastur* ishlab chiqiladi.

Qayta o'zgartiruvchilik funksiyasi — sotsiologik tadqiqotlar xulosalari, tavsiyalari, takliflari, sotsial subyektga doir baholashlari ma'lum qarorlar qabul qilishni taqozo etadi. Albatta, bu qarorlarning aksariyat qismi jamiyatning u yoki bu jihatlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, sotsial siyosatga doir qarorlar qabul qilishda, albatta, sotsiologik tadqiqotlar natijalariga tayaniladi. Yoki, turli referendumlar va boshqa yirik o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq qarorlar saylovchilarning irodasi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ham sotsiologik tadqiqotlar asosiy rollardan birini o'ynaydi.

Prognoz (bashorat) qilish funksiyasi. Prognoz funksiyasi sotsial loyihalash, faraziy tuzilmalashtirish (konstruksiyalash) va rejalashtirish

vositasida o'zini namoyon qiladi. Har qanday holatda ham bu uchchala funktsiya mushtarak tarzda qo'llanilishi lozim.

Sotsial loyihalash funktsiyasi sotsial jarayonni yoki sotsial tizimni (tizim ostini) ularning o'ziga xos xususiyatlari va o'lchovlarini e'tiborga olgan holda aniq modelini ishlab chiqishdan iboratdir. Bu sotsial prognoz qiyofasida aniq chegaralar, miqdor va sifatga ega bo'lgan sotsial loyiha shaklidagi sotsial prognozni tasavvur qilishni yo'lga qo'yish demakdir. U istiqboldagi jarayonni (tizimni, tizim ostini) sifatli belgi va xususiyatlarining tasnifidan boshqa narsa emas.

Faraziy tuzilmalash (konstruksiyalash) *funktsiyasi* sotsial loyihalashga qaraganda keng bo'lgan tadqiqot ishlarini o'ziga qamrab oladi. U ma'lum aniq-ravshan o'lchovlar va me'yorlar nisbati berilmagan yangi sotsial obyektни tafakkurlash vositasida qurishni ifodalaydi. Bunda faqat obyektning istiqboldagi qiyofasi tasavvur etiladi.

Loyihalashga misol tariqasida kompyuter bazasida sotsial obyekt-larning turli modellarini (shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida yangi xo'jalik va sotsial mexanizmlarning modellarini) tuzishni keltirish mumkin. Umuman olganda, sotsial loyihalash, sotsial rejalashtirish va sotsial tuzilmalashtirish (konstruksiyalash) matematika, iqtisodiyot, tizimli tahlil etish kabi sohalar uchun xos bo'lgan faoliyat bo'lsada, bu jarayonda sotsiologiya fani ham ishtirok etadi.

Sotsial rejalashtirish sotsiologik prognozlashning bir turi bo'lib, u o'zida ijtimoiy hayot, tarmoqlar, mintaqalar, shaharlarning alohida sohalarini rivojlantirishning majmuaviy dasturini ishlab chiqishni ifodalaydi.

Axborot funktsiyasi ilmiy tadqiqotlar jarayonida axborotlarni yig'ish, tizimlashtirish va bir joyga axborotlar banki sifatida to'plash kabilarda o'z ifodasini topadi. Sotsiologik axborotlar sotsial axborotlarning eng tezkor turi hisoblanadi. Ular qandaydir darajada jamiyatda muvofiqlashtiruvchilik va yo'naltiruvchilik kabi me'yorlashtirish funktsiyalarini bajarishini e'tiborga olsak, sotsiologik axborotlarning butun bir xalq boyligi ekanligiga amin bo'lamiz.

Sotsiologiyaning *dunyoqarashga oid funktsiyasi* — inson sotsial voqelikni anglash jarayonida o'zini o'rab turgan olamning bir qismini o'z dunyoqarashiga singdiradi, shu asnoda u butun bir olam to'g'risida tasavvur qila olishga imkon topadi. Ana shu jarayonda dunyoqarashga oid funktsiya amalga oshadi. Bu dunyoqarashga oid funktsiya hozirgi davr kishisini ishontirishga qobil bo'lgan — haqiqiy sotsiologik tadqiqot jarayonida ilmiy sinovlardan o'tgan sotsiologik bilimlar, ma'lumotlar, dalillardan foydalanishda o'z ifodasini topadi.

Boshqaruv funksiyasi. Sotsiologiya boshqaruvni takomillashtirish vositasi sifatida rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrga kelib sotsiologik xulosalar, tavsiyalar, takliflar, sotsial obyektning holatiga doir baholashlar, sotsiologik texnologiyalar kabilar boshqaruv qarorlari ishlab chiqish va qabul qilish uchun asos bo'lmog'da. Ayniqsa, jamiyat, mintaqa, shahar, korxonalar, tashkilot va muassasa miqyosida sotsiologik asoslarda qarorlar qabul qilish o'zining dalillanganligi va samaradorligi bilan ajralib turadi.

Boshqaruv funksiyasiga sotsiologiyaning tashkiliy-texnologik funksiyasi ham taalluqlidir. Bu funktsiya asosida yoki uning yordamida sotsial texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Sotsial texnologiya deganda vaziyatni butunlay o'zgartirishga qaratilgan tub o'zgarishlar faoliyati dasturini amalga oshirish tushuniladi.

Shuningdek, boshqaruv funksiyasiga nazorat-tahliliy va maslahat berish funksiyalari ham kiradi. Nazorat-tahliliy funktsiya uchun bir tizimdan ikkinchisiga o'tish (transformatsiya jarayoni) natijasi bo'lgan u yoki bu sotsial texnologiyalarni, yangi sotsial jarayonlar tahlillarini joriy qilish, sotsiologlar takliflari va tavsiyalarini amalga oshirishni nazorat qilish kabilar taalluqlidir. Nazorat-tahliliy funktsiya natijasi tufayli sotsiologlar o'z faoliyatlari samaradorligidan voqif bo'ladi va o'z oldilariga yanada takomillashishga doir yangi vazifalar qo'yadi.

Sotsiologiyaning *maslahat berish* (konsultatsiya) funksiyasi ham boshqaruv funksiyasining turlaridan biri bo'lib, u nazariy, amaliy va ma'rifiy yo'nalishlardan iboratdir. Sotsiologlar odamlarning turli qatlamlariga maslahatlar beradi, ularni o'z tadqiqotlari va boshqa sohalar materiallari bilan tanishtiradi. Ko'pchilik holatlarda maslahat berish faoliyati ta'lim beruvchilar ishi bilan mustahkam bog'lanib ketadi⁷⁰.

Shuningdek, hozirgi davrga kelib har bir korxonada, ta'lim muassasalarida, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida, vazirliklar, turli boshqaruv organlari, parlament faoliyatida sotsiologik tadqiqotlar vositasida boshqaruv qarorlari qabul qilish an'anaga aylandi. Ayniqsa, saylovlar davrida saylov kampaniyalarining borishini tahlil etish, deputatlikka nomzodlar salohiyatini o'rganish, siyosiy partiyalarning elektorat oldidagi obro'si va nufuzini aniqlash, saylovchilar xohish-irodasini shakllantirish kabilarini sotsiologik tadqiqotlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham har bir boshqaruv organi matbuot kotibi xizmati tarkibida sotsiologik tadqiqotlar olib borish guruhlarini faoliyat yuritishi odatga aylandi.

⁷⁰Зборовский Г.Е.Общая социология:Учебник.3-е изд.,испр.и доп.-М.: Гардарики,2004.-С.12-17.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Sotsiologik bilim strukturasi qanday tarkibiy qismlar va unsurlardan iborat?
- 2.Fundamental sotsiologiya deganda nimani tushunasiz?
- 3.Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya o'rtasida qanday farqlanishlar mavjud?
- 4.Umumiy sotsiologiya qanday tavsiflanadi?
- 5.Nazariy va amaliy sotsiologiyalar o'zaro aloqalari va farqlanuvchi xususiyatlari nimalardan iborat?
- 6.Empirik sotsiologiya deganda nimani tushunasiz?
- 7.Sotsiologiyaning qanday alohida tarmoqlari mavjud?
- 8.Sotsiologiya qanday funksiyalarni bajaradi?
- 9.Sotsiologiyaning bilish funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
- 10.Sotsiologiyaning qayta o'zgartiruvchilik va prognoz funksiyalari jamiyat rivojida qanday o'rin tutadi?

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2016.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.5.10.2016//Xalq so'zi,2016,6-okt.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son,70-modda.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.201//http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
- 5.Karimov I.A.Asarlar.1-24 jild.-T.:O'zbekiston,1996-2016.
- 6.Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y.,9 sentyabr//<http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
- 7.Mirziyoyev Sh.M.Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr,2016,20-oktyabr.
- 8.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.:O'zbekiston,2017.

9. Большой толковый словарь (Collins). Том 2 (П-Я): Пер. с англ. - М.: Веча, АСТ, 1999.
10. Волков Ю. Г. Социология: Учеб. - Ростов н/Д: Феникс, 2009.
11. Мационис Дж. Социология. Пер. с англ. - СПб.: Питер, 2004.
12. Gold R. L. Roles in Sociological Fieldwork / R. L. Gold // Social Forces. - 1958., Vol. 36.
13. Зиммель Г. Проблемы социологии // Избранное. Т. 2. // Созерцание жизни. - М.: Юрист, 1996.
14. Нурышев Г. Н., Бразевич Д. С. Социология: Учеб. пособие. - СПб.: СПбГУНиПТ, 2010.
15. Парсонс Т. Система современных обществ. - М., 1998.
16. Ritzer G. Toward an Integrated Sociological Paradigm. - Boston, 1981.
17. Ritzer G. Sociological Theory. - N. Y., 1988.
18. Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество. - М., 1992.
19. Социология: учебник для студентов вузов/под. ред. В. К. Батурина. - 4-е изд., и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.
20. Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г. В. Осипов, Л. Н. Москвичев. - М.: Норма, 2003.
21. Социология. Хрестоматия для вузов / Кравченко А. И. - М.: Академический Проект, 2002.
22. Социология: Учеб. / Под ред. Н. Г. Скворцова. - М.: Проспект, 2009.
23. Социология // Ўқув қўлланма. / Убайдуллаева Р. А., Бекмуродов М. Б., Ота-Мирзаев О. Б. ва бошқ. - Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
24. Социология. Маърузалар курси. / Алиқориев Н. С., Бекмуродов М. Б., Ота-Мирзаев О. Б. ва бошқ. - Т., 2001.
25. Социология // Ўқув қўлланма. / Алиев Б., Рафиқов Ф., Муллажонов М., Раҳмонов Б. ва бошқ. - Т.: ТДЮИ, 2006.
26. Тернер Дж. Структура социологической теории. - М., 1985.

3-mavzu: JAMIYAT YAXLIT TIZIM SIFATIDA

3.1. Jamiyat tizimli tuzilma sifatida.

3.2. G'arb sotsiologiyasi asoschilari ijtimoiylik haqida.

3.3. Davlat, siyosat va jamiyat.

3.4. Jamiyatning turkumlari va tasniflari.

3.5. Zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy munosabatlari muammolari.

Tayanch so'zlar: jamiyat, tizim, sotsial tizim, ostki tizimlar, ijtimoiylik, o'zaro sotsial ta'sir, sotsial aloqa, kommunikatsiya, an'anaviy jamiyat, mo'l-ko'llik jamiyati, iste'mol jamiyati, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, axborot jamiyati, postmodernistik jamiyat, sotsiomadaniyat.

3.1. Jamiyat tizimli tuzilma sifatida

Jamiyat va uning sohalarini turli fanlar tomonidan tadqiq etilishi an'anaga aylandi. *Jamiyat* quyidagi ostki tizimlardan iborat tizimdir: iqtisodiy, siyosiy, sotsial (ijtimoiy), iqtisodiy va ma'naviy. Jumladan, jamiyatning iqtisodiy ostki tizimi quyidagilarni o'z ichiga olgan murakkab tuzilmadan iboratdir: ishlab chiqarish, taqsimot, tovarlar va xizmatlar almashinuvi, odamlarning mehnat bozorida o'zaro bir-birlariga ta'siri, turli faoliyat turlarini iqtisodiy rag'batlantirish, moliyaviy, kredit, bank va boshqa shu kabi tashkilotlar va muassalar.

Jamiyatning siyosiy ostki tizimi siyosiy hokimiyatda ishtirok etish uchun intilishlar jarayonini ifodalovchi hokimiyatning strukturaviy tuzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining mavjudligi, individlar va sotsial guruhlar siyosiy xulqini muvofiqlashtiruvchi qadriyatlarni shakllantiradigan individlar va ular guruhlarining bir-birlariga o'zaro ta'sirlari yig'indisi, jamiyatning siyosiy tuzilishi, hokimiyat rejimi, davlat hokimiyati organlari, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyati kabilarni o'z ichiga qamrab oladi⁷¹.

Madaniy ostki tizim o'zi ichiga ma'naviyat, ta'lim, san'at, din, axloq, fan, madaniyat tashkilotlari va muassasalari — teatrlar, kinoteatrlar, ommaviy axborot vositalari kabilarni qamrab oladi.

Sotsial ostki tizim — bu tarixan o'zgarib boruvchi, o'zaro sotsial aloqalar va ta'sirlarga, mehnatga oid aklarga, odamlarning hayot kechirish

⁷¹Бабосов Е.М.Общая социология: учебно-методическое пособие для студентов вузов/Е.М.Бабосов-3-е изд.-Минск:“ТетраСистемс”,2006.-С.165.

shakllarining yashashi va rivojlanishiga asoslanadigan, ularning ta'siri bilan ro'yobga chiqadigan sotsial institutlar, tashkilotlar, alohida shaxslar, guruhlar va jamiyatning o'zini o'zi integratsiyalaydigan boshqa barcha strukturaviy tarkibiy qismlardan iborat tuzilmadir⁷².

Sotsial ostki tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

-jamiyatning sotsial va etnosotsial strukturasi;

-jamiyatning hududiy va kasbiy (professional) strukturasi;

-jamiyatning sotsial-demografik tasnifi;

-sotsial institutlar, tashkilotlar, birliklar, guruhlar va ularning sotsial maqomi va rollari.

Sotsial tizim — bu asosiy unsurlari odamlar, ularning me'yorlari va aloqalaridan iborat bo'lgan muayyan bir butunlikdan iborat tuzilmadir⁷³.

Muayyan jamiyatning tarixiy rivojlanishini tahlil etish natijasida olingan tizimlar nazariyasi va sotsiologik ta'riflardan kelib chiqib jamiyatning asosiy universal tasnifini quyidagicha ifodalash mumkin: a) bir butunlik, yaxlitlik; b) o'zgarishlarga boy va rivojlanishga moyillik (dinamizm); v) tizimlilik. Mazkur universal tasnifdan kelib chiqib jamiyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: *jamiyat* — bu yaxlit tuzilma bo'lib, uning doirasida odamlarning birgalikdagi yashashi amalga oshadi; u unsurlardan iborat bo'lish xususiyatiga, shuningdek o'zining mavjudligi makon va zamon chegaralariga ega bo'lgan o'ziga xos organizm yoki tizimdir. Shu tariqa, jamiyat muayyan va aniq hududga joylashgan bo'ladi va o'z mavjudligining aniq muvaqqat doirasiga egadir.

Ba'zi sotsiolog olimlarning fikricha, «jamiyat» va «mamlakat» tushunchalari o'rtasida o'xshashlik mavjud. Jamiyat odamlardan iborat tuzilma sifatida tavsiflanadi: sotsial aloqalarning birlashuvi ro'y beradigan hudud; muayyan bir hudud doirasida yuzaga kelgan sotsial aloqalar, munosabatlar, birliklarning turli tumanligi; avtonomlikka egalik (mustaqil yashashga qobilik); integratsiyalashuvchanlik (barcha individlarning o'zaro qo'shiluvchanligi, ijtimoiy tartibot).

Jamiyat institutlar va birliklarning o'zaro munosabatlarini qo'llab-quvvatlaydigan, yangi sotsial tuzilmalarni integratsiyalaydigan, o'z mantig'idan kelib chiqib aholini asosiy ommasini bo'ysundiradigan, o'z hududida yashovchi odamlarning o'z xatti-harakatlarida ro'y beradigan turli tuman sotsial o'zaro ta'sirlar va aloqalarni yagona negizga uyush-tirishga undovchilik va o'zini o'zi muvofiqlashtirish mexanizmlariga egadir. *Jamiyat* — odamlar, birliklar va tuzilmalar o'zaro ta'sirlari va aloqalarining

⁷²O'sha joyda.-B.164.

⁷³O'sha joyda.-B.164-165.

tarixan rivojаланuvchan, ularning *birgalikda yashash jarayonida o'zgarib boradigan va shakllanadigan yaxlit tizimdir*⁷⁴.

Jamiyatning belgilari. Jamiyatni o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1) sotsiallik; 2) jamiyat a'zolari (insonlar) o'rtasida o'zaro ta'sirlar va bog'lanishlarning mavjudligi; 3) muayyan bir hududga ega bo'lish (sotsial makon); 4) sotsial zamonning (vaqtning) mavjudligi; 5) o'zini o'zi boshqarishi va muvofiqlashtirishi, o'zini o'zi namoyon qilishi, sotsial jarayonlarni o'z-o'zidan anglashi; 6) sotsial institutlarning mavjudligi; 7) har qanday o'zgarishlarga nisbatan odamlarning ongi, irodasi va faoliyatining ta'sir etib turishi; 8) sotsial strukturaning mavjudligi⁷⁵.

Sotsiologiya fanida jamiyatni uzil-kesil ta'riflash, uning muhim belgilarini yanada chuqurroq aniqlash va ajratib ko'rsatishga bir necha bor urinib ko'rildi. Jumladan, *Emil Dyurkgeym* jamiyat barqarorligi va yaxlitligining birinchi asosi — bu insoniy xudbinlikning yemiruvchi kuchiga to'siqlik qilish qobiliyatiga ega bo'lgan jamoaviy ongning va umumiy irodaning mavjudligi, deb bildi. *Robert Merton* jamiyatning yashashi uchun eng muhim asos — bu jamiyatni saqlashning asosi bo'lgan birgalikda hayot kechirishning me'yorlarini saqlashga har bir individning intilishini o'zida ifodalagan asosiy qadriyatlardir, degan fikrni ilgari surdi. *Neyl Smelzer* jamiyatni ajratib turadigan belgilar sifatida muayyan jug'rofiy hudud chegaralari ichidagi odamlarning birlashuvi, umumiy qonun chiqaruvchi tizim, ma'lum milliy (sotsiomadaniy) aynanlik kabilarning mavjudligidir, degan fikrni ilgari surdi. AQSh olimi *Edvard Shilzning* jamiyatning asosini butun bir hudud ustidan nazoratni ta'minlovchi va umumiy madaniyatni joriy etuvchi oshkora hokimiyatning amal qilishidir, deb ko'rsatdi. E. Shilz jamiyatning quyidagi mezonlarini bir-biridan ajratgan holda ko'rsatib berdi:

- u boshqa biron-bir yirik tizimning bir qismi emas;
- nikohlar faqat mazkur birikma vakillari o'rtasida tuziladi;
- u oldindan o'zining e'tirof etilgan vakillaridan iborat bo'lgan odamlarning farzandlari hisobiga o'zini o'zi to'ldirib boradi;
- bu birlashma o'ziga tegishli, deb hisoblaydigan muayyan hududga egalik qiladi;
- jamiyatni o'zining xususiy nomi va xususiy tarixi mavjud;
- u o'zining xususiy boshqaruv tizimiga egalik qiladi;
- birlashma alohida olingan individlar o'rtacha umriga qaraganda uzoq vaqt yashaydi;

⁷⁴O'sha joyda.-B.159.

⁷⁵O'sha joyda.-B.160-163.

-uni «madaniyat» deb ataladigan qadriyatlarining (urf-odatlar, anʼanalar, meʼyorlar, qonunlar, qoidalar) umumiy tizimi birlashtirib turadi.

Sotsiologiya rivojining hozirgi davrida jamiyatga nisbatan sotsial makon va zamonda odamlar oʻrtasida shakllangan nisbatan umumiy hislatlar — avtonomlik, oʻzini oʻzi qayta yaratib turish, qudratli integratsiyalovchi kuch va yuqori darajadagi oʻzini oʻzi tartibga solib turish kabi sotsial aloqalarning «yigʻindisi», degan yondashuv paydo boʻldi.

Jamiyatning ajralib turadigan *birinchi belgisi* — bu odamlar hayoti ijtimoiy tabiatini ifodalaydigan sotsial birlikning mavjudligi, ular aloqalari va oʻzaro taʼsirlarining sotsial oʻziga xoslikka egaligidir. Lekin, sotsial birlik boʻsh joyda emas, balki oʻzining tabiiy substrati⁷⁶ — odamlarning organik birligida va ular aloqalari va munosabatlarining qon-qardoshligida paydo boʻladi. Bu tabiiy shart-sharoitlar va organik munosabatlar jamiyatning tabiiy asosini (sotsial birligini) tashkil etib, ular sotsial-organik turdagi munosabatlarga — er va xotin, farzand va ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqa qon-qarindoshlarga aylanadi⁷⁷.

Jamiyatning *yana bir belgisi* — uning sotsial makon va sotsial zamonda yashashidir. Lekin, sotsial makon va sotsial zamonlar doimo ham tabiiy makon va zamonga toʻgʻri kelavermaydi. Ustiga-ustak, sotsial makon qandaydir hududiy chegaralar va xususiy hududlarsiz (masalan, tabiiy landshaftdan tashqarida, kosmik stansiyada, yulduzlar oʻrtasidagi galaktikalararo kemada, Internetning sotsial tarmogʻida) yashay olmaydi. Sotsial zamon ham tabiiy zamondan farq qiladi.

Jamiyatning *navbatdagi belgisi* — bu uning oʻzini oʻzi muvofiqlashtirishni va takror ishlab chiqarishini amalga oshiradigan maxsus organlari — sotsial institutlarning mavjudligidir. Ularning ichida eng muhimi oila instituti boʻlib, u boshqa sotsialliklarni (nikoh, tarbiya, taʼlim, din va boshq.) kelib chiqishi va yashashi sharti sifatida namoyon boʻladi. Bu holatni *Piter Berger* va *Tomas Lukman* oʻzlarining asarlarida ishonchli tarzda ifodalab berdi. Robinzon bilan Jumavoyning oʻzaro hayoti va ittifoqi sotsiallikning koʻplab belgilarini oʻzida ifodalagani bilan jamiyatni tashkil eta olmaydi. Buning sababi shundaki, bu birlik oʻzining ichida xususiy takror ishlab chiqarish mexanizmiga ega emas. Shuning uchun ham jamiyat sotsiumga toʻgʻri kelmaydi, yaʼni, umuman sotsiallik odamlarning jamoaviy, individual ustki turmushining alohida shakli

⁷⁶Substrat - [lot. substratum soʻzma-soʻz: tub asos, toʻshama] - turli-tuman hodisalar asosi, bir xil hodisalarning birligi yoki oʻxshashligi asosi.

⁷⁷Общество//Википедия//file:///w/index.php?title=Обществ&veaction=edit&vsection=6.

hisoblanadi. Alohida olingan va boshqalardan ajralib turadigan individuuum («sotsiologik robinzonlik») o'zida sotsial sifatlarni ifodalashiga qaramay jamiyatni tashkil etmaydi. Shu bilan bir vaqtda, har qanday jamiyat sotsialdir. Sotsiallik xususiyatiga ega bo'lgan hamma narsa ham jamiyat bo'la olmaydi, ular o'zida tor tushuncha kasb etib, jamiyatning bir qismi, jamiyatning qandaydir holati yoki xossasi bo'lishi mumkin.

O'zidan o'zi faoliyat ko'rsatish, avtonomlik, o'zini o'zi uyushtirish, o'zini o'zi rivojlantirish kabi sifatlarni nafaqat bir butun jamiyatga taalluqli, balki uning ostki tizimlari va unsurlari uchun tegishli bo'lishi mumkin. Lekin, o'zini o'zi qondirish (o'zini o'zi to'q qilish ma'nosidagi) faqat jamiyatga tegishli bo'lgan xususiyatdir. Jamiyatga kiruvchi (uni tashkil etuvchi) biron-bir ostki tizimda bu kabi xususiyat bo'lmaydi. Faqat sotsial birliklar, sotsial guruhlar, sotsial uyushmalar va sotsial institutlar (oila, ta'lim, iqtisodiyot, siyosat va boshq) kabilarning barchasining o'zaro birgalikdagi aloqalari jamiyatni o'zini o'zi qondiradigan tizim sifatida namoyon qila oladi. Jamiyatni sotsial tizim sifatida tavsiflaydigan belgilar quyidagilardir: bir butunlik; ierarxialik; o'zini o'zi muvofiqlashtirish; ochiqlik; axborotlilik; o'zini o'zi determinantlashtirish, o'zini o'zi uyushtirish⁷⁸.

Jamiyatning strukturaviy komponentlari⁷⁹ — ular: ko'plab individlar (shaxslar); odamlar tomonidan bajariladigan sotsial rollar; o'z ichiga hududiy, etnik va boshqa birliklarni olgan sotsial struktura; odamlarning bir-birlariga o'zaro ta'sirlari.

Hozirgi davr sotsiologiya fani jamiyatni o'rganishda tizimli yondashuvga amal qiladi. Shuning uchun ham jamiyat tushunchasini anglash uchun tizim (systema)⁸⁰ nima ekanligini bilishga ehtiyoj tug'iladi. Tizim (sistema) — bo'laklardan (qismlardan) iborat bo'lgan bir butunlikdir; bu o'zaro aloqalarda amalga oshadigan, bir-birlari bilan bog'langan, ma'lum yaxlitlik, birlikka erishgan ko'plab unsurlar yig'indisidir. Nemis olimi *Maks Veberning* ta'rificha, *jamiyat* — bu sotsiallik mahsuli bo'lgan odamlarning o'zaro xatti-harakatlari va ta'sirlari, ya'ni bir qism odamlarning boshqa odamlarga qaratilgan ta'siridan iboratdir. *Veber* yaxlitlikning asosiy omili ehtiyojlar va manfaatlarni ifodalovchi e'tiqod, degan fikrni,

⁷⁸O'sha joyda.

⁷⁹Komponent - [lot. componens yoki compo-nentis tashkil etuvchi, biron-bir tarkibni tashkil etuvchi yoki etuvchilar] — nimanidir tashkil etuvchi (uning unsurlari yoki ulardan biri).

⁸⁰Sistema - [yunon. systema (yaxlitlik), qismlardan tuzilgan, birikma] - muayyan yaxlit tuzilmani va birlikni ifodalagan ko'plab qonuniyatli tarzda bir-birlari bilan bog'langan unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshq.).

E. Dyurkgeym esa bu omilni jamoaviy ong, degan g'oyani ilgari surdi. AQSh sotsiologi *T. Parsonsning* fikricha, jamiyat boshlang'ich bog'lovchilari me'yorlar va qadriyatlardan iborat bo'lgan odamlarning o'zaro munosabatlari (aloqalari) tizimidir.

Jamiyatga tizimli yondashuvning prinsiplarini anglash uchun unga oid asosiy tushunchalarni bilishga ehtiyoj seziladi. *Tizim* — bu yaxlit birlikni hosil qiladigan, bir-birlari bilan o'zaro bog'langan muayyan tarzda tartibga solingan unsurlardan iboratdir. Har qanday yaxlit tizimning ichki tabiati va mazmunini, uni uyushtirishning moddiy asosini uning tarkibi va unsurlari yig'indisi belgilab beradi.

Sotsial tizim — bu asosiy unsuri odamlardan, ularning aloqalari, o'zaro ta'sirlari va munosabatlaridan iborat bo'lgan yaxlit tuzilmadir. Bu aloqalar, o'zaro ta'sirlar va munosabatlar barqarorlik hosiyatiga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda avloddan avlodga o'tgan holda takroriy ravishda qaytadan hosil bo'lib turadi.

Sotsial aloqa — bu muayyan aniq vaqt ichida u yoki bu maqsadlarga erishish uchun birlashgan holda faoliyat yuritishni shart qilib qo'yadigan dalillar to'plamidir. Sotsial aloqalar odamlarning talabchanligidan kelib chiqqan holda emas, balki obyektiv tarzda tashkil topadi. Tashkil topgan bu aloqalar individlar yashayotgan va xatti-harakat qilayotgan sotsial shart-sharoitlarga bog'liq holda paydo bo'ladi. Sotsial aloqalar mohiyati muayyan sotsial birlikni tashkil etuvchi odamlarning xatti-harakatlari mazmuni va xossalari namoyon bo'ladi. Sotsiologiyada o'zaro ta'sir, munosabatlar, nazorat qilish, institutsional va boshqa aloqalar o'rganiladi.

O'zaro sotsial ta'sir — bu odamlarning bir-birlariga ta'sir qilishlarining o'z boshidan kechirishlariga oid xatti-harakatlaridir. O'zaro sotsial ta'sir mexanizmi u yoki bu xatti-harakatlarni amalga oshirayotgan, bu xatti-harakatlar tomonidan paydo bo'ladigan sotsial birlik yoki yaxlit jamiyatdagi o'zgarishlarning individlarga ta'sirlari, va nihoyat, bu ta'sirlarga nisbatan aks ta'sirlarni amalga oshiruvchi individlarni o'z ichiga oladi. O'zaro ta'sirlar yangi sotsial munosabatlarni paydo bo'lishiga olib keladi. *Sotsial munosabatlar* — bu individlar va sotsial guruhlar o'rtasidagi nisbatan barqaror va mustaqil o'zaro aloqalardir.

Shu tariqa, jamiyat ko'plab individlar, ularning sotsial aloqalari, o'zaro ta'sirlari va munosabatlari natijasi o'laroq shakllanadi. Lekin, buning o'zi jamiyat bo'lish uchun kifoya emas. Chunki, jamiyat qandaydir jamlanma emas, balki u yaxlit tizimdir. Bu degani, jamiyat darajasidagi individual xatti-harakatlar, ta'sirlar, aloqalar va munosabatlar yangi tizimiy sifatni tashkil etadi. *Tizimiy sifat* — bu alohida holdagi sifat holati bo'lib,

uni oddiy unsurlar jamlanmasi deb, bo'lmaydi. Ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va munosabatlar individual usti va shaxs usti xossasiga ega, ya'ni jamiyat — bu qandaydir mustaqil tub mohiyatdan iborat bo'lib, u individga nisbatan birlamchidir. Har bir individ dunyoga kelib muayyan aloqalar va munosabatlar strukturasi duch keladi va sotsiallashtirish jarayonida uning ichiga kiradi (uning unsuriga aylanadi).

Yaxlit tizimga ko'plab aloqalar, o'zaro ta'sirlar va munosabatlar xosdir. Ularning ichida ajralib turadigan — bular o'z ichiga unsurlarni koordinatsiyalash va subordinatsiyalashni olgan korrelyativ⁸¹ aloqalar, o'zaro ta'sirlar va munosabatlardir. *Koordinatsiya* (muvofiglashtirish) — bu unsurlarning o'zaro bir-birlariga bog'liqligidan kelib chiqadigan holdagi muayyan o'zaro kelishuvi bo'lib, u yaxlit tizimni saqlanishini ta'minlaydi. *Subordinatsiya* — bu yaxlit tizimdagi unsurlarning o'zaro baravar bo'lmagan alohida o'ziga xos joylaridan darak beradigan bo'ysunish va hambo'ysunishdir (ya'ni, hammani o'zaro teng bo'ysunishidir)⁸².

Shu tariqa, jamiyat o'zining tarkibiga kiradigan barcha unsurlarida alohida tarzda uchramaydigan alohida sifatlarga ega bo'lgan yaxlit tizimdir. Sotsial tizim o'zining integral sifatini kasb etishi oqibatida o'zini o'zi tashkil etadigan alohida-alohida unsurlariga nisbatan muayyan mustaqillikka, shuningdek o'z rivojlanishining nisbatan mustaqil yo'liga egadir.

3.2. G'arb sotsiologiyasi asoschilari ijtimoiylik haqida

Qadimgi davrlardan boshlab jamiyat insoniyatning nodir va noyob uyushmasi sifatida o'rganiladi, uning tabiati, strukturasi va unsurlari tadqiq etiladi. O'z davrida Platon va Aristotel jamiyatni doimiy ravishda o'zgarishlarga uchrashga muhtalo bo'lgan, individlar va sotsial guruhlarning faoliyati, o'zaro munosabatlari, aloqalari va xulqiga katta ta'sir ko'rsatuvchi, o'ziga xos xususiyatlar kasb etgan hodisa sifatida ta'riflaydi.

Klassik sotsiologiya asoschisi O.Kont jamiyatni sotsial voqelik sifatida o'rganishda unga nisbatan «sotsial organizm», «sotsial tizim», «sotsial mavjudlik» kabi iboralarni ishlatgan edi. U jamiyatning ikki tomonlama tabiatini aniqladi va asoslab berdi: bir tomondan u hayvonot dunyosining davomiyligini anglatadi, ikkinchi tomondan, u butunlay yangi sifat — «sotsiallik»ni («ijtimoiylik»ni) ifodalaydi. Kont fikricha, sotsiallik — bu

⁸¹Korrelyativ - [lot. correlativus] - munosabatdosh] - predmetlar, hodisalar va tushunchalarning nisbati, o'zaro muvofigligi, o'zaro aloqalari, o'zaro bog'liqligi.

⁸²Qarang: Радугин А.А., Радугин К.А. Социология: курс лекций. - 3-е изд., перераб. и доп.-М.: Центр, 1999. - С.38-40.

insonning ta'lim va tarbiya jarayonlarida orttirgan tabiiy holatidir. Jamiyat individlar faoliyat qonunlarini belgilab, ular ustidan balandda (ustun) turadi, o'z navbatida, individlar faqat o'z ko'rinishlarini (shakllarini) o'zgartira olishi, allaqachon paydo bo'lgan hodisalar va intilishlarni kuchaytirishlari yoki bo'shashtirishlari mumkin, xolos.

Ingliz olimi E. Giddens «sotsiallashtirish» tushunchasini sodda ravishda quyidagicha ifodaladi: *Sotsiallashtirish (socialization)* — o'jiz va nochor go'dakni asta-sekinlik bilan o'zini o'zi anglatadigan, o'zi tug'ilgan madaniy muhitni tushunadigan aql-idrokli mavjudotga aylanish jarayonidir. Sotsiallashtirish go'dakning muloqotga kirishiga qaraganda tashqaridan bo'ladigan ta'sirni passiv qabul qiladigan «madaniy dasturlashtirish»ning ko'rinishlaridan biri emas. Yangi tug'ilgan go'dak o'z hayotining dastlabki lahzalaridayoq o'zidagi muhtojlik va ehtiyojlarni sezadi, o'z navbatida, u o'ziga g'amxo'rlik qiladigan odamlarning xulqiga ta'sir qiladi. Sotsiallashtirish turli avlodlarni bir-biriga bog'laydi. Go'dakning tug'ilishi uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan odamlar hayotiga o'zgarishlar kiritadi, va ular shu tariqa yangi tajribalarni egallaydi. Odatda, ota-ona majburiyatlari ularning keyingi hayotini bir umrga bolalarga bog'lab qo'yadi. Qariyalar nabiralari ko'rgan paytga kelib ham ota-ona bo'lib qolaveradi, va bu aloqalar turli avlodlarni bir-birlariga o'zaro birlashtirishlariga imkoniyat yaratadi. Madaniy taraqqiyot jarayoni keyingi davrlarga nisbatan go'daklik va bolalik paytida juda ham tez kechishiga qaramasdan, o'rganish (ta'lim olish) va moslashish insonning hayotiy umrguzaronlik davriga xos bo'lgan o'zgarishlar jarayoni sifatida qolaveradi. Bolalarning sotsial me'yorlar va qadriyatlarini o'zlashtirishiga tegishli ravishda sotsial jarayonlar kechadi, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadi. Sotsiallashtirish individning bolalik davri uchun juda ham muhim zarurat bo'lishiga qaramasdan, bu jarayon bolalikdan keyingi butun bir umr bo'yi kechadi. Har qanday odam boshqa odamlarning o'ziga nisbatan ta'sirisiz yashay olmaydi, bu individning xulqida butun umri davomida namoyon bo'lib boradi»⁸³.

Jamiyatni obyektiv sotsial voqelik sifatidagi ta'rifi E. Dyurkgeym tomonidan yanada rivojlantirildi. Uning konsepsiyasiga muvofiq, jamiyat — bu individuallik ustidagi voqelik bo'lib, u «sotsial dalillar»dan (faktlardan) yuzaga keladi yoki tuziladi. Sotsial dalillar — bu qonunchilik aktlari, axloqiy me'yorlar, xulqiy qoidalar, diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va an'analar shakllarida jamoaviy tasavvurlar va ifodalarga asoslangan jamiyatning ma'naviy va moddiy unsurlaridir. E. Dyurkgeymning maqsadi sotsial dalillar individuumlarga nisbatan ancha tashqarida bo'lganligi uchun

⁸³Гидденс Э. Социология.-М.:Эдиториал УРСС,1999.-С.54 и 510.

ham ularni tashqi «sotsial hodisalar» sifatida obyektiv ravishda o'rganish mumkin ekanligini isbotlash edi. Masalan, jamiyatda odamlarni o'z jonlariga qasd qilishlari koeffitsientlarini keltirish mumkin.

E. Dyurkgeym o'zining «Sotsiologik metod qoidalari» nomli asarida (1895) o'zining sotsiologik nazariyasini «sotsial dalillar buyumlar yoki ashyolar sifatida o'rganilishi lozim, degan prinsipga tayanadi», deb belgiladi. Shu tariqa, Dyurkgeymga binoan, jamiyat sezilarli darajada insonning o'ziga bog'liq bo'lmagan tarzda hosil bo'ladigan, uning ongi va xulqini qanday bo'lishini belgilab beradigan insoniy birlikdir.

AQSh olimi *T. Parsons* jamiyatni tizimli ravishda tadqiq etish an'anasini davom ettirib, jamiyatni har biri individlarning o'zaro aloqalari asosida paydo bo'ladigan va bir-birlariga o'zaro bog'liq sotsial tizimlar yig'indisi, degan fikrni ilgari surdi. Ularning har biri bir vaqtning o'zida boshqa subyektlar va o'zi o'z maqsadi va obyektini belgilab olgan holda sodir bo'ladigan sotsial ta'sir etish natijasida yuzaga keladigan sotsial harakat sifatida namoyon bo'ladi. Bunda jamiyat «har qanday sotsial tizim universumi ichida o'z atrofiga nisbatan tizim sifatida o'ziga o'zi yuksak farovonlik darajasini yarata oladigan sotsial tizim turidir»⁸⁴.

Jamiyatni shakllanishida ijtimoiylik va kichik guruhlarining o'rniga doir nazariyalar taniqli olim, AQSh klassik sotsiologiyasi asoschilaridan biri *Charlz Xorton. Kuli* (1864-1929) tadqiqotlarida rivojlantirildi. Kuli «ko'zguli MEN» va kichik guruhlar nazariyalarini muallifi sifatida tanildi.

Kuli jamiyatni o'rganishda ikkita asosiy shart-sharoitlardan kelib chiqdi. Birinchidan, jamiyat doimiy ravishda o'zgarib turuvchi jarayondir. Ikkinchidan, sotsial o'zgarishlar individual va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlarga asoslanadi va jamoaviy xulqda aks etadi. Ustiga-ustak ijtimoiy «organizm»ning barcha komponentlari (guruhlar, individlar, uyushmalar) muayyan prinsiplar bo'yicha bir-birlari bilan chambarchas tarzda o'zaro aloqalarda bo'ladi.

Kulining fikricha, individual va jamoaviy (ijtimoiy) yagona yaxlitlik — «katta onga» tegishlidir. Aynan ugina jamiyatda ro'y beradigan barcha jarayonlarning o'zaro bog'liqligining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ana shu yaxlitlikni ifodalash uchun Kuli «insoniy hayot» iborasidan foydalandi. U bu bilan «hayot falsafasi»ga bog'liq holda tadqiqot olib borganligini ko'r-satdi. Bu holat, albatta, amerikan pragmatizmidan kelib chiqqan edi.

Individuallikni umumiylikka qo'shish jarayoni sotsiallashish jarayoniga yo'l ochib beradigan dastlabki guruhlarda boshlanadi. Kuli sotsial-

⁸⁴Нурьшев Г.Н., Бразевич Д.С. Социология: Учеб. пособие.-СПб.:СПбГУНИ ПТ, 2010.-С.96-97.

lashishning turli bosqichlarini chuqur o'rgandi: *selffeeling, felling states, imaginations*. Sotsiallasuv sotsiolog tomonidan ongda «obraz»larni paydo bo'lishi vositasida «o'lchanadi». Keyinroq «obrazlar» «sotsial histuyg'ular»ga o'tadi, ya'ni umumiy fikrlar timsollari sotsial jihatdan mustahkamlanadigan namunalar va xulq me'yorlariga asoslanadi. Shuningdek, Kuli amerikan sotsial fikrlarning umummetodologik interaksionistik an'alarini davom ettirib, xususan «ijtimoiylik» faqat aloqalarda (munosabatlarda), kommunikatsiyalarda, harakat subyektlarining o'zaro bir-birlariga ta'sirida paydo bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Kuli bu prinsiplarni rivojlantira borib, «aksdagi aks» sotsial konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu ibora rasmiylashtirishda turlicha tarzda ifodalandi. Darhaqiqat, Kuli tasavvurlarning tasavvurlari (*imagination of imaginations*) to'g'risida, ya'ni, subyektning o'zini (boshqalarning qanday qabul qilishidan qat'iy nazar) to'liq mustaqil holda idrok qilishi (o'zlashtirishi) to'g'risida fikr yuritgan edi. Boshqacha aytganda, insonning sotsial mohiyati uni shakllantiradigan sotsial muhitda faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Kulining bu nazariyasi sotsiologiyaga «*ko'zgudagi MEN*» (*looking-glass self*) nazariyasi nomi bilan kirdi. Bunda so'z insonning jamiyatda doimo «ko'zgu»da ko'rinishi, ya'ni inson boshqa insonlar fikrlari, xulqlari, ularning aks ta'sirlari natijasida namoyon bo'lishi to'g'risida ketmoqda. Subyekt beixtiyoriy va ongsiz ravishda ana shu ko'zgudagi tasvirlarga taqlid (mo'ljal olish) qilishni boshlaydi va ana shu ko'zgudagi akslarga muvofiq ravishda o'zining xususiy MENini quradi. Kulining fikricha, bu kabi taqlid (mo'ljal olish) o'zining shakllanishida uchta bosqichni bosib o'tadi:

1. O'zining shaxsiy tashqi ko'rinishini hayoldagi tasavvuri loyihasini qurish. Inson o'zining tashqi qiyofasini hayolan rejalashtiradi; u o'ziga tashqaridagi odam ko'zi bilan qaraydi, o'zining qiyofasi va siymosini shakllantiradi. Bu xususan, «boshqalar ahamiyati» (*significant others*) deb ataladigan, ya'ni subyekt uchun kimlarning fikri ahamiyat kasb etishi inobatga olinadi.

2. Boshqalarning aks ta'sirlarini (reaksiyalarini) talqin etish. Inson o'ziga boshqalarning qanday munosabatda bo'lishi, ta'sir qilishi, o'zining idrok etishini boshqalarning idrok etishiga mos kelishini tahlil qiladi.

3. O'zining shaxsiy obrazini qurish. Inson o'zining dastlabki motivatsiyalarini boshqalarning munosabatlari va ta'sirlariga qo'shgan holda o'zining shaxsiy obrazini shakllantiradi, boshqacha aytganda, individning sotsial xulqi determinantlashadi.

Jamiyatdagi ijtimoiylik va uning ahamiyati to'g'risida Kuli quyidagi fikrlarni yozdi: «Tuzilmadagi har qanday yorqin ifodalangan va barqaror

narsani sotsiallik turi, deb atash mumkin... Dastlabki (kichik) guruhlar shu ma'noda dastlabki deyiladiki, ular umumiy birlikning boshlang'ich va to'la tajribasini beradi, shuningdek ular murakkab o'zgarishlar darajasidagi yirik o'zgarishlarga duchor bo'lmaydi. Demak, ular murakkab o'zgarishlar manbasi hisoblanadi. Albatta, ularni keng jamiyatlardan mustaqil, deb bo'lmasada, ular keng jamiyatlar kayfiyatini o'zida aks ettira oladi.

Inson tabiati deganda, past darajadagi jonivorlardan afzal bo'lgan insoniy his-tuyg'ular va intilishlarni tushunmoq kerak, shuningdek, ular ma'lum bir irq yoki davrlarga emas, balki butun bir insoniyatga taalluqlidir. Ular o'z ichiga, xususan, quyidagilarni oladi: boshqalarga hamdardlik, muhabbat, rahm-shavqat, intilishlar va urinishlar, shuhratparastik, jasurlik, sotsial adolat va haqsizlikka berilish kabi behad o'lchovsiz his-tuyg'ular. Shu ma'noda, inson tabiatini jamiyatning doimiy unsuri deb hisoblasak adolatdan bo'lar edi.

Inson tabiati individdan alohida holda yashamaydi, bu — jamiyatning dastlabki bosqichidagi *guruhiy tabiatdir (group-nature)*, ijtimoiy tafakkurning oddiy va umumiy shartidir. Ular bir tomondan, toza va tug'ma instinktlarga nisbatan ko'proqdir, ikkinchi tomondan, institutlarga mujas-samlashgan g'oyalari va his-tuyg'ularning murakkab rivojlanishiga nisbatan esa ozroqdir... Bizning «MENimiz» o'z tabiatiga ko'ra altruistiklikka⁸⁵ mansubdir, bizning oliy maqsadlarimiz obyektiga boshqa odamlarning orzu va ezgulari bilan o'zaro uyg'unlashadi. Jamiyatni yaxshilash inson tabiatini jiddiy o'zgartishni talab etmaydi, buning uchun faqat uning shaxsiy intilishlari iloji boricha kengroq va to'liqroq amalga oshirishining o'zi kifoya qiladi»⁸⁶.

Kuli sotsiologiyaning vazifasi sifatida quyidagi fikrni ilgari suradi: «Demak, jamiyat va individ — yaxlit bir butunlikning bo'linmas tomonlaridir. Biz qayerda individual dalilni topsak, o'sha joyda unga hamrox bo'ladigan sotsial dalilni ko'rsatib berishimiz lozim».

Niklas Lumanning jamiyatga doir qarashlari

Taniqli sotsiolog olim *N. Luman* «Jamiyat sotsial tizim sifatida» nomli asarida jamiyatning o'ziga turli ostki tizimlarni qamrab oluvchi

⁸⁵Altruizm - [fr. altruisme < lot. alter boshqa, o'zga] - boshqalarga beg'araz g'amxo'rlik qilish, boshqalar uchun o'z manfaatlaridan kechish (uning aksi egoizm - xudbinlik).

⁸⁶Кули Ч.Х.Общественная организация. Изучение углубленного разума./Тексты по истории социологии XIX-XX веков.Хрестоматия./Сост. и отв.ред.Добренъков В.И.,Беленкова Л.П.-М.: Наука,1994.-С.353-354.

sotsial tizim ekanligiga doir sifatlari va tavsiflari chuqur tadqiq etildi. U jamiyatning ichki tuzilishini tadqiq etishda eng zamonaviy qarashlarni shakllantirgan olim sifatida e'tirof etildi. Luman birinchilardan bo'lib jamiyatni kommunikatsiyalar o'zaro ta'sirlari va munosabatlari hosilasi sifatida tahlil etdi.

Luman jamiyatga doir o'z fikrlarini quyidagicha ifodaladi: «Biz ishlab chiqqan yondashuvga muvofiq, jamiyat nazariyasi umum qamrab oluvchi sotsial tizimni ifodalaydi va u o'z ichiga boshqa sotsial tizimlarni qamrab oladi. Bu ta'rif dastlab Aristotel tomonidan yaratilgan. Mazkur ta'rif Aristotelning hayotning shahar birligini (politike koinonia) barcha boshqa birliklarni (pasas periéchousa tàs allas) o'z ichiga qamrab olgan eng yuksak (hukmronlik qiluvchi, kyriotâte) birlik sifatida ifodalagan «*Siyosat*» asaridagi boshlang'ich qoidalarga tegishlidir. Jamiyat tushunchasini talqin qilishda, albatta, dastlab eski Yevropa an'alariga duch kelamiz. Darhaqiqat, bu tavsifdagi barcha komponentlar (jumladan, *birikish* = *periéchon*: biz taqsimlash konsepsiyasidan foydalanib jamiyatni tizimli-nazariy bo'laklarga ajratsak) boshqacharoq talqinlarda namoyon bo'ladi. Modomiki, bunda so'z hozirgi davrga xos bo'lgan jamiyatga oid nazariya to'g'risida ketmoqda. Shu tariqa, eski Yevropa an'analari bilan aloqadorlik saqlansada, shu bilan bir vaqtning o'zida, markaziy mulohaza sifatida yangi tavsifni amalga oshirishga zaruriyat tug'iladi.

Avvalambor, jamiyat tizim sifatida tushuniladi, tizimning shakli esa tizimlarni farqlashga va bizni o'rab olgan dunyoni tasavvurlashga imkon yaratadi. Lekin, bu tasavvurimizdagi jamiyatning mantiqiy jihatlarini ochib berish uchun umumiy tizimlar nazariyasi yetarli, degani emas. Undan tashqari, sotsial tizimlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, undan keyin — sotsial tizim nazariyasi ichini — jamiyat tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini, binobarin, jamiyatni *umumqamrab oluvchi sotsial tizim* sifatidagi manzarasini ochib berish lozim bo'ladi.

Shu tariqa, jamiyatni tahlil etishning uchta darajasini bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi:

-tizimlarning umumiy nazariyasi, va shu bilan birga, autopoyetik⁸⁷ tizimlarning umumiy nazariyasi;

⁸⁷Autopoyezis - bu "shunday tuzilmaki, u o'zining "xususiy holati"ni o'zi ifodalaydi, ya'ni, u tizim komponentlarining shunday unumli o'zaro xatti-harakatlariki, ayni ana shu komponentlarning o'zi ularning natijasi o'laroq namoyon bo'ladi. Autopoyezisning ko'rinishlari (hodisalari) to'plami haddan tashqari keng: g'isht zavodining o'zi g'ishtlardan qurilgani holda g'ishtlar ishlab chiqaradi; organizm (organlar va hujayralardan iborat bo'lgan) organlar va hujayralarning o'zaro xatti-harakatlari natijasi o'laroq ishlab chiqariladi; til

-sotsial tizimlar nazariyasi;

-jamiyat tizimi nazariyasi — sotsial tizimning alohida hodisasi sifatida⁸⁸.

Lumanning qarashicha, sotsial tizim nazariyasi darajasida autopoyetik tizim to'g'risida so'z ketganida, uni sotsial tizim sifatida tushunish lozim. Bu darajada autopoyetik jarayonlarning atrof dunyoga mos va xos bo'lgan sotsial tizimlarni shakllanishiga olib keladigan o'ziga xos murakkab o'zgarishlar aniqlanishi lozim. Bu — *kommunikatsiyalardir*. Xususan, sotsial tizimlar nazariyasining o'zi barcha fikr-mulohazalarni jamlagan holda barcha sotsial tizimlarga, hattoki, *interaktiv* — uzoq yashamaydigan va kam ahamiyat kasb etadigan tizimlarga doir tasavvurlarni shakllantiradi.

Bu darajada jamiyat (klassik tarzda namoyon bo'lgan "*societas civilis*" kabi) boshqalar ichidagi bitta sotsial tizim sifatida gavdalanib, uni bu kabi turlar bilan o'zaro solishtirish imkoniyatini beradi: tuzilmalar tizimlari va ishtirokchi shaxslar o'rtasidagi *interaksiyalar* tizimlari.

Uchinchi darajada jamiyat tizimining o'ziga xos xususiyatlari ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bunda *Aristotelning* «Siyosat»idagi dastlabki holat darajasiga ko'tarilgan «butunlay qamrab oluvchi»lik belgisi nimani ifodalashini jamiyat tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi. Ko'rinib turibdiki, uning asosida unchalik aqlga sig'maydigan jihatlar uchraydi: boshqalari bilan teng bo'lgan bir sotsial tizim (koinonia) o'ziga barcha boshqa sotsial tizimlarni qamrab olishidan iborat hodisani anglashga zarurat seziladi. Bu muammoni Aristotel his-hayajonlar yordamida, oxir-oqibatda esa — siyosatni etikaviy nuqtai nazardan talqin etish vositasida hal etgan edi. Bu aqlga sig'maydigan holat keyingi an'analar uchun uni ko'zga ko'rinmas tushunchaga aylantirdi. Biz taklif etgan jamiyat tahlili darajalarini farqlash yordamida bu aqlga sig'mas muammoni hal etish mumkin⁸⁹. Bu o'rni kelganda bizga umumiy nazariyani aqlga sig'mas jihatlarini eslashga imkoniyat beradi. (Axir «darajalarni» farqlash bizning tushunchamizda «shakl»ni anglatib, o'zining

tillar haqida so'zlashga imkon beruvchi alohida tizimdir, ya'ni, uning o'zi o'zi haqida gapiradi, va shuningdek, til vositasida qanday so'zlash va so'zlarni qanday talaffuz qilish masalasi echiladi. Shunday ikkilanish yoki ikkiga bo'linish (differentsiatsiya) funksiyasi doimo o'z unsurlarini tug'ib turadigan yaxlitlikni takror va takror yaratib turadi. Ana shu xildagi voqelik jamiyat haqidagi o'z nazariyalarini shakllantirgan sotsiologiya (jamiyatning bir qismi sifatida) uchun ham taalluqlidir. Ustiga-ustak ana shu nazariyalarning o'zi kommunikativ harakatlardan iborat bo'lganligi uchun ham jamiyatni ifodalaydi. Shuningdek, fanni tahlil qiluvchi bilish nazariyasining o'zi fandan iborat va uning o'zi bevosita fanlarni yaratishda ishtirok etadi.

⁸⁸Луман Н.Л.Общество как социальная система.Пер. с нем./А.Антоновский. -М.:Логос.2004. -С.84.

⁸⁹O'sha joyda. -B.85.

ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligini namoyon qilmaydimi?: daraja tushunchasining o'zi boshqa darajalarning ham mavjud ekanligini taqozo etmaydimi?).

...Biz uchun zarur bo'lgan nazariy qarorlar xususiyatlarini tasniflash uchun ijtimoiy tizimni barcha darajalarda tahlil etish maqsadida biz tizimli-nazariy vositalardan foydalanamiz. Autopoyetik tizimlarning umumiy nazariyasi tizimni uni o'rab olgan dunyodan chegaralaydigan, shuningdek, tizimlar autopoyezisi davomida amalga oshadigan aynan ana shu murakkab jarayonning aniq vazifasi bo'lishini talab etadi. Agar bunda sotsial tizimlar nazarda tutilgan bo'lsa, u holda bu jarayon *kommunikatsiya* vositasida bajariladi⁹⁰.

Lumanning fikricha, kommunikatsiya birdan-bir ijtimoiy struktura paydo qiluvchi birlik bo'lib, u o'zining ichki strukturaga ham ega bo'lishidan tashqari, ayni paytda, uchta unsurdan iborat holda namoyon bo'ladi: xabarlar, axborotlar va tushunish. Biroq, bu unsurlarni o'z-o'zidan (tashqari, kommunikatsiyagacha yoki undan keyin) yashaydigan va mustaqil ravishdagi mavjudlik, deb qaramaslik lozim. Kommunikatsiya ana shu unsurlar aloqalari natijasi o'laroq ro'yobga chiqadi, xabarlar va axborotlarni farqlash va bir-biridan ajratish jarayoni uni yaratadi. Kommunikatsiya ana shu farqlash⁹¹ mavjud bo'lgan joyda amalga oshadi: xabarlardan axborotlar ajralib chiqadi. Bu farqlashlarni (bir vaqtning o'zida ularning yaxlitligini) anglash xabarlar va axborotlarni tushunishga olib boradi.

Axborot — bu «farqlashni yaratuvchi farqlashdir». «Xabar beruvchi» yalpi xabarlar ichidan faqat so'zlashish mumkin bo'lgan xabarlarni yuboradi (birinchi farqlanish). Xabarni «qabul qiluvchi» uning ichidan axborotni ajratib olar ekan, bu bilan u medium ichidan barcha narsalarni emas, balki faqat o'z suhbatdoshiga nimani xabar qilishni istayotgan bo'lsa ana o'shanigina ajratib oladi, so'ngra uni suhbatdoshiga yuboradi (ikkinchi farqlanish). Axborot kommunikatsiyani o'zgartiradi, uning ortidan keyingi kommunikatsiyani kiritadi yoki talab qiladi. Agar kimgadir tovarni sotib olish taklif etilgan bo'lsa, xabarlar ichidan (aytaylik, reklama ichidan) u o'ziga keraklilarini olib, qolgan xabarlariga nisbatan o'z diqqatini qaratmaydi, faqat o'zi sotib olmoqchi bo'lgan tovarning xossalariga doir ax-

⁹⁰O'sha joyda.-B.86.

⁹¹Quyida biz shunga amin bo'lamizki, farqlash - kuzatish, unga muvofiq ravishda, biron-bir narsani qandayligini belgilash (predmet, aynanlashish, farqlash va boshq.) uchun imkoniyat yaratib beradigan asosiy kognitiv faoliyat jarayoni bo'lish bilan birga, u hali "noaniq bo'lgan dog'"dir. Boshqacha aytganda, u o'z-o'zidan kuzatishga chap berib, e'tibordan chetda qoladigan hodisa hisoblanadi.

borotlarnigina ajratib oladi. Bu holat o'z ortidan ikkinchi kommunikatsiyani (sotib olish va pul to'lash) yuzaga keltiradi.

Bunda muammo shundaki, xabarlardagi axborot o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Xabardagi axborot mazkur kommunikatsiya boshlaguncha mavjud bo'lgan obyekt yoki bilimlarning xossalarni topishdan iborat bo'lmagan juda ham ixtiyoriy tuzilma — kommunikatsiya natijasidir. Shuning uchun ham axborotni xotirada «qayta ishlab», unga qandaydir yangilikni «siqib kirgizib» yoki «boshqa axborot tashuvchi uchun qaytadan yozib» bo'lmaydi. Kompyuter, inson yoki kommunikatsiya xotirasida kerak bo'lgan paytda «chiqarib olinadigan» axborotlar saqlanadi, deyish — bu o'zini o'zi aldashedir. Hech yerda saqlanmaydigan, o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holdagi axborotlarga ega bo'lgan axborot tashuvchilar (konteynerlar, disketlar, hujjatlar, kitoblar, turli yozuvlar) bilan dolzarblashib turuvchi — xabardagi tezkorlik va bir martalik-tafovutlikka ega, uning loqaydlikka olib keladigan farqlanish darajalari, kommunikatsiya tizimini davom etishini yoki o'zgarishini talab qilayotgan axborotlarni bir-biridan adashtirmaslik lozim. Xabarlar qandaydir darajada «tashuvchi» — axborot konteyneri sifatida namoyon bo'lishi mumkin; til, kasseta, kompyuterning qattiq diski — ular xabarlarining funksional (ekvivalenti) o'rnini bosuvchilardir.

Lumanning muhim g'oyalardan biri — bu «kommunikatsiya dunyoni kuzatishning muayyan turi» ekanligidir. Kommunikatsiya o'z farqlashlarini tashqi dunyodagi farqlashlarga nisbatda ro'y beradigan o'z aks-sadosi sifatida kuzatib boradi (aytaylik, kommunikatsiyaga nisbatan boshqa sotsial tizimdagi turli farqlashlar). Shu bilan birga, tizim va uning tashqi dunyosi o'rtasidagi farqlashlar faollashib boradi. Tizimning tashqi dunyosidagi farqlashlar o'zidan o'zi, ya'ni «obyektiv» ravishda va tizimdan mustaqil holda mavjud bo'lmaydi. Ichki turtkilar (impulslar), undan kelib chiqadigan irritatsiyalar⁹² tizimning o'zi o'z axborotlarini ichki selektiv⁹³ mexanizmlar tomonidan saralab olgan taqdirdagina ana shunday relevantlikni⁹⁴ olishlari mumkin bo'ladi. Farqlashlar olamga kuzatuvchilar tomonidan olib kiriladi.

Lumanning fikricha, *kommunikatsiya* haqiqatan ham *sotsial hodisadir*. Shuning uchun ham kommunikatsiyalar funksiyasiga kiradigan — har

⁹²Irritatsiya - [lot. irritatio] - hayajonlanish, to'liqinlanish, asablarning tashqi ta'sirdan qo'zg'alishi.

⁹³Selektiv - [lot. selectio tanlov, tanlab olish, saralash] - xossalarga asoslanilgan tanlash yoki saralashni amalga oshirish.

⁹⁴Relevantlik - [ingl. relevant ishga aloqador, o'rinli] - axborotni berilgan savol bilan olingan javobga o'zaro muvofiq kelishi.

qanday yo'sinda «ijtimoiy» (jamoaviy) ongni qurishni, demakki, to'la qonli bir-birini anglash ma'nosidagi konsensusga ham erishishni ularsiz amalga oshirib bo'lmaydi. *Kommunikatsiya* — bu sotsial tizimning imkoniyatdagi birligi, ayni kommunikatsiyaning o'zi yana kommunikatsiyaning yordamida aks ta'sir qilishga ega bo'lgan birlikdir. Kommunikatsiya (va bu — xuddi shu dalil, lekin boshqa tahrirdagi) — agar u rekursiv⁹⁵ aloqalarda boshqa kommunikatsiyalar bilan, ya'ni faqat tarmoqlarda, har qanday alohida kommunikatsiya hamishtirokchi bo'lgan takroran yaratilish jarayonida paydo bo'lsa, u autopoyetik hisoblanadi. Unsurlarni ishlab chiqish — bu autopoyezisdir.

Jamiyat va uning tuzilmaviy birikmalari autopoyezisi uchun muhim shart-sharoit shuki, kommunikatsiya o'zining xususiy yaroqli ekanligini tushunish imkoniyatiga ega bo'lmaydi; shuningdek, uni e'tirof etish masalasi faqat keyinchalik paydo bo'ladigan mustaqil kommunikatsiya tufayli echilishi mumkin.

Biz shunday xulosaga keldikki, jamiyat qandaydir mohiyat emas, uning birligini mohiyat kasb etadigan ma'lumotlarni aniqlash yo'li bilan bilib bo'lmaydi, o'zaro ziddiyatda bo'lgan turli talqinlar adashish sifatida rad etilishi mumkin (axir, bu o'zgarishlarga uchraydigan ijtimoiy kommunikatsiyalarga bog'liq holda muhokama qilinadiku!). Demak, jamiyat tizimining birligi faqat uni tashqi muhitdan chegaralashdan iboratdir; u tizim shakli ichiga joylashgan, u darajalashish va tabaqalashishdan iborat, u o'z harakati davomida muttasil ravishda o'zini o'zi takror va takror ishlab chiqaradi⁹⁶.

«Barcha kommunikatsiyalar» ifodasi quyidagilarni anglatadi: kommunikatsiyalar shunday darajada autopoyetik ta'sir etadiki, ulardagi farqlashlarning qandayligi hech qanday farqlashlarni keltirib chiqarmaydi. Agar kommunikatsiyalar jamiyatda nimalarni amalga oshirayotgan bo'lsa, ular jamiyat uchun kutilmagan tarzda bo'lmaydi. Demak, ular qandaydir axborotlar emas. (Boshqacha aytganda, albatta, bunda munosabatlar oldindan kutilgan holatdan iborat bo'lgan ruhiy tizimlar to'g'risida gap ketmoqda). Boshqa tomondan qaraganda, kommunikatsiya axborotlarni dolzarblashtirib beradi. Demak, jamiyat farqlashlarni keltirib chiqarayotganda hech qanday farqlashlar paydo bo'lmaydigan harakat jarayonlari munosabatlari o'laroq paydo bo'ladi⁹⁷.

⁹⁵Rekursiv funksiya - [lot. recur-sio qaytish, qaytarish] - muayyan dalil uchun muhimlik oldingi dalillar muhimligi yordamida hisoblanadigan funksiyalar.

⁹⁶Луман Н. Л.Общество как социальная система.Пер. с нем./А.Антоновский. -М.:Логос.2004.-С.88-94.

⁹⁷O'sha joyda.-B.95.

Talkott Parsonsning jamiyatga doir qarashlari

Jamiyatni kelib chiqishi, yashashi, uning unsurlariga doir chuqur tadqiqot olib borgan olimlardan biri — bu taniqli AQSh olimi T. Parsonsdir. U o'zining jamiyatga doir tadqiqotlarida jamiyatning yashovchanlik xususiyatlari va funksiyalariga muhim e'tibor qaratdi. Uning fikricha, jamiyatga doir nazariy qarashlar boshida Aristotel turadi. Bu haqda T.Parsons quyidagi fikrlarni bildiradi: «Biz jamiyatga ta'rif berishda Aristotelga borib taqaladigan mezonlardan foydalanamiz. Jamiyat — sotsial tizimlarning har qanday universumi⁹⁸ ichidagi shunday bir turiki, u tizim sifatida boshqalarga nisbatan eng yuqori farovonlik darajasiga erisha oladi. Bu tavsif mavhumlashgan tizim ko'rinishiga doir tasavvurdan iborat bo'lib, u o'ziga o'xshash boshqa mavhumlashgan ostki tizimlarga nisbatan dastlabki muhitni yaratib beradi. Bu nuqtai nazar jamiyatda tuzilma sifatida aniq insoniy individlar namoyon bo'ladi, degan umum e'tirof etilgan qarashlarga nisbatan keskin qarama-qarshi turadi. Bu holatda jamiyatning organizmlari va a'zolari shaxsi jamiyat uchun atrof-muhit emas, balki uning faqat ichidagina namoyon bo'ladigan holatni aks ettirar edi. Lekin, o'quvchi mazkur g'oya asosiga qo'yilgan nuqtai nazarni ochiq-oydin tasavvur qilishi lozim.

Farovonlik (boylik) mezonini bu kabi tushunishda har biri sotsial tizimning beshta muhitidan biriga tegishli bo'lgan beshta mezon osti baholashlarga bo'linadi: oliy darajadagi mavjudlik (reallik), madaniy tizim, shaxs tizimi, xulqiy organizmlar va jismoniy-organik muhitlar. Jamiyatning farovonligi — bu besh muhit bilan uning o'zaro munosabatlarini nazorat qilish mexanizmlarining muvozanatlashgan kombinatsiyalaridan⁹⁹, shuningdek jamiyatning o'z ichki integratsiyasi xususiy holatidan kelib chiqadigan funksiyasidir».

T.Parsons jamiyat va ostki tizimlarni boshqarishda nazoratning kibernetik jihatlariga muhim ahamiyat beradi: «Biz tahliliy jihatdan bo'lib tashlangan tizimlarning o'zaro munosabatlarini uyushtiradigan nazorat ierarxiyasiga murojaat qildik. U o'z ichiga axborotlarning yuqori, lekin, energiyaning past darajasiga ega bo'lgan tizimlar, shuningdek uning vositasida past darajali axborotlarga va yuqori darajali energiyaga ega

⁹⁸Universum - universal [lot. universalis umumiy, yalpi, barchaga baravar taalluqli] - 1)ko'p narsani o'z ichiga olgan yoki qamrab olgan, har tomonlama; 2)belgilangan turli va ko'plab maqsadlar uchun yaroqli bo'lgan turli tuman funksiyalarni bajarish.

⁹⁹Kombinatsiya - [lot. combinatio] - 1)birikma, birikuv, bir varakayiga bir necha ishlarni birga qo'shib olib borish, nimalarnidir muayyan bir tartibga birlashtirish; 2)murakkab niyatni amalga oshirish usullari yoki yo'llari tizimi; 3)epchillik, hiyla-nayrang.

bo'lgan boshqa tizimlarni boshqaradigan nazoratning kibernetik¹⁰⁰ jihatlarini oladi (3.1-rasm, V ustun).

Dasturlashtirilgan mexanik vazifani bajaruvchi harakat natijasi (masalan, kir yuvish mashinasida) suvni isitish va mashinaning tarkibiy qismlarini harakatga keltiruvchi energiyaga nisbatan juda ham oz energiya safrlaydigan taymer¹⁰¹ bilan nazorat qilinishi mumkin. Yana bir boshqa misol: gen¹⁰² va u nazorat qiladigan proteinni¹⁰³ sintez qilish, shuningdek, hujayraviy metabolizmning¹⁰⁴ boshqa jihatlarini keltirish mumkin.

Madaniy tizim sizning haqiqiy mavjudligingiz oldidagi majburiyatlaringizni atrof muhit, xatti-harakat tizimi, tabiiy dunyo, organizmlar, shaxslar va sotsial tizimga nisbatan ahamiyat kasb etishiga qaratilgan holdagi mo'ljallar sifatida tuzilmalashtiradi. Madaniy tizim kibernetik jihatdan qaraganda bu xatti-harakatlar tizimida oliy darajadagi o'rinni egallaydi, undan keyingi o'ringa sotsial tizim joylashadi, quyida esa o'ziga tegishli ravishda shaxs va organizm o'rin oladi. Tabiiy muhit hal qiluvchi shart-sharoitlar (uyushtirishdan farq qilgan holda) toifasiga kiradi. Tabiiy omillar qandaydir darajada kibernetik jihatdan yuksak tartibga solingan tizimlar tomonidan nazorat etilmayotgan bo'lsa, biz ularga ko'nikishimiz kerak — aks holda insoniy hayot yo'qolib ketishi mumkin. Bunga odam hayotining kislorod, oziq-ovqat, yetarli darajadagi issiqlik kabilarga bog'lik ekanligi yaqqol misol bo'la oladi.

Biz tadrjijy istiqbollarimizning keng imkoniyatlaridan kelib chiqib asosiy diqqat-e'tiborimizni nosotsial ostki tizimlardan biri — madaniy tizimga qaratamiz. Rivojlanishning uzoq va davomli jarayonlari va turli tuman vaziyatlar o'zaro munosabatlari oqibatlarini o'laroq oldingiga nisbatan yanada kattaroq ko'nikuv (moslashuv) qobiliyatiga ega bo'lgan yangi sotsial tuzilmalar shakllari paydo bo'ladi. Ular o'ziga xos xu-

¹⁰⁰Kibernetika - [yunon. kybernetike boshqarish san'ati] - boshqarish jarayoni; mashinalarda, tirik organizmlarda va jamiyatda axborotlarni uzatishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

¹⁰¹Taymer - [ingl, timer < time vaqtni belgilash] - qandaydir texnologik jarayon yoki uning alohida bosqichlarini nazorat qilish yoki muvofiqlashtirish qurilmasi, yoki ma'lum vaqt birligi ichida biron-bir mashinani o'chirib-yondirib turuvchi murvatli qurilma.

¹⁰²Gen - [yunon. genos kelib chiqish] - irsiyat yoki nasldan-naslga o'tishning oddiy tashuvchisi yoki tarqatuvchisi, xromosomaning muayyan qismida joylashgan va qayta ishlab chiqarishga qobil bo'lgan irsiy (genetik) birlik.

¹⁰³Proteinlar - [yunon. protos birinchi, dastlabki] - oddiy oqsillar — jonzotlar, o'simliklar va mikroorganizmlar hujayrasining asosiy qismi bo'lgan, faqat aminokislotalardan iborat oqsillar. Proteinlarga albuminlar, globulinlar, gistonlar va boshqalar kiradi.

¹⁰⁴Metabolizm - [yunon. metabole o'zgarish, tanaffus] - moddalar almashinuvi — o'simliklar, jonzotlar va mikroorganizmlarda katabolizm va anabolizm jarayonlari yig'indisi.

susiyatlarga ega bo'lgan tabiiy sharoitlar, harakat qiluvchi yoki individual organik, shuningdek, shaxslararo farqlanishlar vositasida ta'sir etuvchi tor, xususiy va turli tasodifiy sabablar ta'sirida ro'y beradigan jiddiy o'zgarishlarga nisbatan chidamli bo'lib, ularning ta'siriga kamroq beriladi. Yuksak rivojlangan jamiyatlarda shaxslararo farqlanishlarning o'sib borishi bilan bir vaqtda, jamiyat strukturasi va undagi jarayonlar individual xususiyatlarga kamroq bog'liq bo'lib boradi. Shuning uchun biz butun diqqat-e'tiborimizni kibernetik jihatdan yuksak uyushgan strukturalar — jamiyat muhiti markazida turgan madaniy tizimga — keng miqyosdagi o'zgarishlarning asosiy manbalariga qaratishimiz lozim»¹⁰⁵.

Shu bilan birga, Talkott Parsons jamiyatni tizimli tuzilma sifatida chuqur o'rgangan olimlardan biri sanaladi. Sotsiologik adabiyotlarda T.Parsonsnings sotsial tizim modeli «AGIL tizimi» deb nom oldi (3.2-rasm)¹⁰⁶. T.Parsons jamiyat tizim sifatida har biri ma'lum darajada o'ziga xos tarzda amal qiladigan uning ostki tizimlaridan iborat bo'lib, ular to'rtta funksiyani bajaradi, deb hisoblaydi: jamiyatning tabiiy moslashuvini (adaptatsiyasini) iqtisodiyot ta'minlab beradi; jamiyat rivojlanishining maqsadga muvofiqligi siyosat tomonidan amalga oshiriladi; jamiyatni integratsiyalashni fuqarolik jamiyati («sotsiental»¹⁰⁷ birlik») muhiti ta'minlaydi; legitimlashtirishni¹⁰⁸ (ko'zga ko'rinmas va yashirin tarzda) tartibotni qo'llab-quvvatlash) madaniyat ostki tizimi bajaradi. Tegishli sotsial ostki tizimlarda almashuv vositasi sifatida quyidagilar xizmat qiladi: iqtisodiyotda — *pul*; siyosatda — *hokimiyat*; fuqarolik jamiyatida — *ta'sir*; madaniy sohada — *majburiyat*.

Jamiyatning tizim sifatidagi o'ziga xos bo'lgan xususiyati uning sotsialligi hisoblanadi — u muayyan tarixiy sharoitlarda alohida shaxslar, ularning guruhlari va birliklarining o'zaro muloqotlari va birgalikdagi faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan aloqalari va munosabatlarining xossasidan iboratdir.

¹⁰⁵Парсонс Т. Понятие общества: компоненты и их взаимоотношения//file:///category/biblioteka/klassiki-sotsiologii/inostran-nye-istochniki/talkott-parsons.

¹⁰⁶Исаев Б.А. Социология. Краткий курс/Б.А.Исаев-Санкт-Петербург: Питер, 2007.-С.50.

¹⁰⁷Sotsiental - [ingl. societal] - jamiyatga taalluqli, jamiyatni bir butun holda anglash; jamiyatning ko'plab o'z funksiyalarini bajarishda bir-birlari bilan chambarchas bog'langan holda tarmoqlanib va rivojlanib ketgan sotsial strukturalar, institutlar va uyushmalardan iborat murakkab va yirik tizimga jamlangan birlik sifatida ifodalaydigan sotsial tizimning eng yuqori darajasi.

¹⁰⁸Legitim - legitimatsiya [lot. legitimus qonun] - qandaydir huquq yoki vakolatni qonuniy ekanligini e'tirof etish yoki tasdiqlash.

I	II	III	IV	V
Xatti-harakatlar-ning umumiy tizimlari funksialari	Sotsial tizimlar xatti-harakatlarining ichki muhitlari		Xatti-harakatlar muhitlari	Kibernetik munosabatlar
Namunani qo'llab-quvvatlash Integratsiya..... sotsial tizim	madaniy tizim	"oily borliq (voqelik)"	axborotning yuksak darajasi (nazorat) ↑ sabab bo'luvchi omillar ierarxiyasi
Maqsadlarga erishish...	shaxs tizimi		↑ nazorat etuvchi omillar ierarxiyasi
Adaptatsiya.....	xulqiy organizm	tabiy-organik muhit	↑ yuksak energiya (faoliyat kuchi, shart-sharoit)

3.1-rasm. Xatti-harakatlar ostki tizimlari (T.Parsons sxemasi)*

		FUNKSIYALAR	OSTKI TIZIMLAR	TASHKILOTLAR, INSTITUTLAR
VOSITAVIY (INSTRUMENTAL)	TASHIQI	1. Adaptiv (A) (adaptation – moslashish)	1. Iqtisodiyot	Zavodlar, banklar
		2. Maqsadga qaratilgan (G) (goal attainment – maqsadga erishish)	2. Siyosat	Davlat organlari, partiyalar
HIS-HAYAJONLI (EKSPRESSIV)	ICHKI	3. Integrativ (I) (integration – birlashish)	3. Sotsial nazorat	Politsiya, madaniy va ijtimoiy tashkilotlar, shariat yoki cherkov
		4. Latent (L) (latency pattern maintenance – Namunani yashirin tarzda ushlab turish)	4. Sotsiallashev	Oila, qon-qardoshlik, ta'lim

3.2-rasm. T.Parsonsning sotsial tizim modeli (AGIL tizimi)**.

*Manba: Парсонс Т. Понятие общества: компоненты и их взаимоотношения// Американская социологическая мысль: Тексты. М., 1996.-С.524.

**Manba: Исаев Б.А. Социология. Краткий курс/Б.А. Исаев.-Санкт-Петербург: Питер, 2007.-С.36.

3.3. Jamiyat, davlat va siyosat

Umuman olganda, davlat insonlarning birgalikdagi hayot tarzini uyushtirish instituti sifatida shakllandi. Ana shu maqsadlarda davlat ijtimoiy turmush qoidalari va me'yorlarini shakllantiradi va qo'llab-quvvatlaydi, ularni hokimiyat va fuqarolar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, guruhiy va korporativ tuzilmalar salbiy ta'sirlarini chegaralaydi. Davlat eng oliy va barchani qamrab olgan jamoaviy birlik sifatida mutassillik, yashovchanlik, faol harakatchanlik xarakterini kasb etuvchi birlikdir. Bu ma'noda davlat universal ahamiyat kasb etuvchi, uning tashkillovchilik va uyushtiruvchilik rolisiz insoniy ijtimoiy turmushni amal qilishini, uni saqlab turishni tasavvur etib bo'lmaydi. Davlatning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanishi hosilasi o'laroq uning asosiy belgilari shakllandi. Ular quyidagilardir:

1. Xalq tomonidan berilgan oshkora hokimiyatning mavjudligi, bu hokimiyatni jamiyatdan ajralgan bo'lishi, uning barcha jamiyat tashkilotlaridan farqlanishi, davlat boshqaruvchilari qatlamning shakllanishi.

2. Suverenitet, mamlakat hududida oliy hokimiyatga ega bo'lish. Har bir jamiyatda turli hokimiyatlar mavjuddir. Masalan, partiyaviy, ishlab chiqarish, oilaviy va hokazo. Lekin, oliy hokimiyat qarorlari barcha fuqarolar, tashkilotlar va muassasalar uchun majburiy bo'lgani — bu davlatdir.

3. Davlatning ma'lum chegaralar bilan belgilangan o'z hududining mavjudligi. Davlatning vakolatlari va qonunlari uning hududida yashayotgan barcha fuqarolar tomonidan bajarilishi shart. Boshqa insoniy birliklardan farqli o'laroq davlat hududiy prinsipga asosan quriladi.

4. Legitim kuch ishlatish va jismoniy majburlashni (fuqarolarni oliy qadriyatlardan — hayot, erkinlik va boshq. maxrum qilish imkoniyati) monopoliya qilib olganligi. Davlatning majburlash doirasi erkinlikni cheklashdan tortib, to insonni jismoniy yo'q qilishgacha tarqalishi mumkin. Davlat o'zining kuch ishlatish funksiyasini bajarish uchun o'zining maxsus vositalariga ega: qurol, hokimiyat va davlat organlarining boshqa resurslari: armiya, politsiya xavfsizlikni saqlash xizmati, sud, prokuratura.

5. Mamlakat hududidagi barcha aholi uchun bajarilishi majbur bo'lgan qonunlar va me'yorlar qabul qilishning yagona huquqiga ega bo'lganligi.

6. Aholidan soliqlar va turli yig'img'lar olish huquqi. Soliqlar ko'p sonli davlat xizmatchilarini saqlash va iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa kabi

sohalarga doir davlat siyosatlarini amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun zarur¹⁰⁹.

Shuningdek, siyosatshunos olim M. Muntyan davlatning belgisi sifatida quyidagilarni keltiradi:

-huquq (davlat huquqsiz yashay olmaydi, chunki huquq davlat hokimiyatini huquqiy jihatdan rasmiylashtirib uni legalligini ta'minlaydi, davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy doirasi va shakllarini belgilab beradi);

-yaxlitlik va umumiy farovonlikni ta'minlash, umumiy manfaatlarni himoya etishda jamiyat vakilligini (talab) da'vo qiladi. Davlatdan boshqa hech qanday tashkilot bu kabi vakillikni va barcha fuqarolarni himoya qilishni talab qila olmaydi¹¹⁰.

Davlatning jamiyatda va xalqaro munosabatlarda o'ziga xos bo'lgan alohida o'ziga xos rollari mavjuddir. Bu rollar turlicha bo'lib, ular quyidagicha ifodalanadi:

Davlatning roli: kichik (minimal) davlat: unga xos bo'lgan «iloji boricha kichik davlat» shiori individga keng erkinliklar berish tarafdori bo'lgan liberalizmga taalluqlidir. Bu sohadagi an'analar ijtimoiy shartnoma nazariyasiga borib taqaladi. Bunda davlatga ijtimoiy tartibot o'rnatuvchi institut sifatida qaraladi. Ular ko'proq Jon Lokkning «davlatning kam aralashuvi» holatida faoliyat yuritishiga doir fikriga asoslanadi. Bu nazariyaga muvofiq, davlatning 3 ta bosh funksiyasi mavjuddir:

- 1) Davlat jamiyatdagi ichki tartibni qo'llab-quvvatlashi lozim;
- 2) Davlat xususiy fuqarolar o'rtasidagi bitim va shartnomalarni bajarilishini nazorat etadigan institutdir;
- 3) Davlat mamlakatni tashqi xavf-xatardan himoya qilishi lozim¹¹¹.

Jamiyat bilan davlat o'zaro munosabatlarining qanday tarzda tashkil etilganligidan kelib chiqib jamiyatda qanday tuzum amal qilayotganligini aniqlash mumkin. Ma'lumki, davlat siyosiy hokimiyat vositasida asosan jamiyatning farovonligi va barqarorligini ta'minlashga doir funksiyalarni bajaradi. Siyosatning turli tuman funksiyalari mavjuddir. Turli olimlar bu funksiyalarni turlicha ta'riflaydilar. Siyosat funksiyalarini ba'zi olimlar «ijtimoiy rivojlanish maqsadlarini jamoa bo'lib aniqlash, sotsium

¹⁰⁹Основы политической науки. Учеб. пособие для вузов. Под ред. В. П. Пугачева. Ч. I. - М., 1996. - С. 204.

¹¹⁰Мунтян М. Государство как политический институт//<http://muntjan.viperson.ru/wind.php?ID=521301&soch=1>.

¹¹¹Хейвуд Э. Политология: учебник для студентов вузов/Пер. с англ. Под ред. Г. Г. Водолазова, В. Ю. Бельского. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - С. 119-120.

barqarorligini saqlash, resurslarni taqsimlash» (Parsons) deb bilsa, yana ba'zilari «qadriyatlarni avtoritar tarzda taqsimlash» (Almond), boshqalari esa «ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqarish» deb, tushunadi. Davlat bilan jamiyat o'rtasidagi ajralmas aloqalar va munosabatlarning aksariyat holatlarda mushtarak ekanligini siyosatning jamiyat bilan bog'liq bo'lgan funksiyalaridan bilish mumkin. Ularning qisqacha ko'rinishi quyidagilardan iborat:

-jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari va guruhlarining hokimiyatga bog'liq bo'lgan manfaatlarini ifoda etadi. Bu ma'noda siyosat kishilarga o'z ehtiyojlarini qondirishlari va ijtimoiy maqomlarini o'zgartirishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar berish vositasidir;

-fuqarolar manfaatlarini faollashtirish, ziddiyatlarni ochib berish, maqsadlarni qo'lga kiritish jarayonini kuzatib borish natijasida jamiyatda paydo bo'lgan ziddiyatlarni o'zaro muvofiqlashtiradi va kelishtiradi, ularni davlat va fuqarolar o'rtasidagi ma'rifiy va madaniy muloqotlar oqimi sari yo'naltiradi. Shuning uchun ham Platon siyosatni «birgalikda yashash san'ati» deb bejiz aytmagan;

-siyosat ijtimoiy majburlash vositasidan foydalanish imkoniyatini nazarda tutgan u yoki bu aholi qatlamlari yoki barcha sotsiumning bir butun manfaatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga rahbarlik qilish va boshqarish, ya'ni ziddiyatlarni muvofiqlashtirish va kelishtirishga doir o'ziga xos funksiyalarni bajaradi;

-siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqarish asnosida aholi turli tabaqalarining manfaatlarini bir butun manfaatlar tizimiga keltirishning ustuvorligiga muhim ahamiyat berish asosida ularni integratsiya qilishni mo'ljallaydi. Siyosat ijtimoiy tizim bir butunligini, ijtimoiy tartibni (hattoki, idora etish rejimlari o'zgarganida ham) ta'minlaydi;

-siyosat shaxsni ijtimoiylashtirishning muhim vositasi, uni ijtimoiy munosabatlarning murakkab olamiga olib kiruvchi omildir. Siyosat sohasida shaxsning ijtimoiy faolligining ustuvor motivi — bu uning muhitga moslashuvi emas, balki, shaxsning o'zgarish va takomillashish ehtiyojlaridir;

-siyosat fuqarolarning individual maqsadlari va guruhiiy manfaatlarini hayotda amalga oshishiga imkoniyatlar yaratib, jamiyat va shaxsning ijtimoiy rivojlanishini yangilanib turishini (innovatsiyasini) ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, jamiyat siyosiy muvofiqlashtirish usullaridan foydalangan holda hayotni ijtimoiy tashkil etishning yangi shakllarini barpo etadi, inson va tabiat, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar siyosatning eng asosiy funksiyalariga doirdir. Chunki, siyosat nafaqat aniq ko'zga tashlanib turgan, ochiq ifodalangan funksiyalarni, shuningdek, latent (yashirin) funksiyalarni ham bajarishi mumkinligini AQSh olimi R.Merton qayd etgan edi. Tirik organizmlarda bo'lgani kabi u yoki bu jamiyatlarda siyosatning ma'lum funksiyalari rivojlanmagan xarakter kasb etishi mumkin. Masalan, jamiyatning u yoki bu sohalariga davlat aralashuvining ijobiy natijalarini tasavvur qila olmaslik holati siyosatni ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatlaridan butunlay yoki to'la mahrum qilib, uni yuz berayotgan hodisalarga doimo kechikib munosabat bildiradigan holatga solib qo'yishi mumkin¹¹². Shuning uchun ham siyosatning asosiy funksiyalarini amalga oshish (yoki amalga oshmaslik) xarakterining yetukligi va rivojlanganligi to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishga zaruriyat tug'iladi.

Odatda, barqaror demokratik jamiyatlarda siyosatning boshqa ijtimoiy sohalar bilan funksional aloqasi mustahkam va dinamik xarakter kasb etadi. Bu sifatlar ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirishning siyosiy usullari rolini pasayishi va diniy — axloqiy me'yorlar avtoritetini, iqtisodiy hayotning o'z-o'zini tashkil etish usullarini kuchaytirish tamoyillarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, o'tish davri sharoitlarida yoki avtoritar tamoyillarning o'sishi davrida ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirishda siyosiy usullarining roli kuchayadi. Totalitar rejimlarda esa boshqarishning siyosiy usullari vositasida idora etish iqtisodiy, axloqiy, huquqiy omillar ta'siri va qadrini tushirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda elita mafkuraviy mulohazalardan kelib chiqib axloqiy me'yorlarni pisand qilmaydi, shuningdek, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqib inson qadr-qimmatiga oid tushunchalarini nazarga ilmaydi. Hokimiyatlarning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashuvi, ularning shaxsiy va jamiyatdagi hayotni to'la nazorat qilinishi natijasida siyosat boshqa ijtimoiy sohalarni o'z ichiga yutib yuborish jarayonlari sodir bo'ladi. Shuning uchun nafaqat sabab-oqibatli, balki ijtimoiy hayot sohalari o'rtasidagi funksional aloqalarni mutlaqlashtirish siyosat tabiatini jiddiy salbiy o'zgarishiga olib keladi.

Ko'rinib turibdiki, fuqarolik jamiyati sharoitida huquqiy davlat jamiyatning bir qismi sifatidagi holati kuchayib boradi. Davlat asosan jamiyatning rivojlanishi, uni zamonaviylashuvi, jamiyat farovonligini oshirish, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonunlarning

¹¹²Основы политической науки. Учеб. пособие. Под ред. В. П. Пугачева. Часть I. - Москва, 1996. - С. 87-89.

hayotda ishlashini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishga qaratilganligi uchun ham jamiyatni o'rganishda davlatning siyosiy institut sifatidagi o'rniga katta e'tibor qaratishga ehtiyoj seziladi.

3.4. Jamiyatning turkumlari va tasniflari

Modomiki, jamiyat rivojlanar ekan, u turli tarixiy bosqichlarni o'z boshidan kechirishi tabiiy bir holdir. Turli jamiyatlarning yashash shart-sharoiti tarixiy va tabiiy omillar bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Jamiyatni o'rganish uchun uni turkumlarga ajratgan holda tasniflash, ya'ni ularni ma'lum belgilari va ajratib turuvchi xususiyatlariga asoslangan holda ma'lum turlarga tegishli jihatlarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixda bir qancha turkumlash tasniflari paydo bo'ldi.

Marksizm asoschilari jamiyatlarni quyidagicha turkumlaydi: 1)Ibtidoiy jamoa tuzumiga xos jamiyat; 2)Quldorlik tuzumiga xos jamiyat; 3)Feodal tuzumga xos jamiyat; 4)Kapitalistik tuzumga xos jamiyat; 5)Kommunistik tuzumga xos jamiyat. Lekin, jamiyatlarni bu kabi turkumlash XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab darz ketdi. Kommunistik tuzumga xos bo'lgan sotsialistik jamiyatlar birin-ketin tarix sahnasidan tushib keta boshladi. Ularning o'rnini bozor iqtisoditiga asoslangan fuqarolik jamiyati egallay boshlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asrning boshlarida *G. Spenser*, *E. Dyurkgeym*, *A. Toynbi* kabi olimlar jamiyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etdi: an'anaviy (harbiy) va industrial (sanoat) jamiyatlari. Bu tasniflashga muvofiq, an'anaviy jamiyat hayotning agrar ukladiga,¹¹³ shuningdek, sotsiomadaniy muvofiqlashtirishning an'anaviy tarziga va ishlab chiqarish rivojining past sur'atiga asoslanishi bilan ajralib turadi.

Industrial jamiyatda industrial ishlab chiqarish iqtisodiy hayotning asosini tashkil etib, bu jamiyatda ishlab chiqarish faoliyati asosan an'analarga emas, balki umumiy bozor va erkin savdo asosida ilm-fan yutuqlari hamda oqilona xo'jalik yuritish hukmronligiga tayanadigan sotsial tizim hisoblanadi¹¹⁴.

Taniqli ingliz faylasufi, sotsiologiyaning «ikkinchi asoschi otasi» *Gerbert Spenser* (1820-1903) tarixda ilk bora sotsiologiyaga sotsial tizim, sotsial

¹¹³Uklad - bu tushuncha ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo'jalik yuritish shakliga nisbatan ishlatiladi.

¹¹⁴Бабосов Е.М.Общая социология:учебно-методическое пособие для студентов вузов/Е.М.Бабосов.-3-е изд.-Минск:“ТетраСистемс”,2006.-С.170.

institut, sotsial nazorat, struktura, funksiya va boshqa tushunchalarni kiritdi. Uning qarashlari «evolyutsiyaviy-organizm nazariyasi»ga taalluqli bo'lib, u sotsiologiyaga ikkita g'oyani qo'shdi va rivojlantirdi: 1)jamiyat organizm sifatida va 2)jamiyatning evolyutsiyasi. Lekin, uning konsepsiyasi markaziy tushunchasi asosan evolyutsionizm edi. G.Spenser o'zi to'g'risida quyidagilarni yozgan edi: agar O.Kont g'oyalarning kelib chiqishini o'rganagan bo'lsa, men sotsial institutlarning o'garishlarini o'rganishga harakat qilaman. G.Spenserning fikricha, sotsiologiya fanining o'zi ijtimoiy agregatning¹⁵ o'sishini, rivojlanishini, tuzilishini, ishlashini o'rganish demakdir. Evolyutsiya — har qanday tabiiy va ijtimoiy hodisaning manbasidir.

G.Spenser sodda jamiyatni murakkablashib borish evolyutsiyasini kuzatdi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida sotsial funksiyalarni integratsiyalash va differensiatsiyalashni kuchaytirish fikrlarini ilgari surdi. Sotsial evolyutsiya rivojlanishning o'z-o'zidan ro'y beradigan va oldindan hukm etilgan rivojlanish jarayoni va aniq sotsial organizmlarning tanazzuli sifatida namoyon bo'ladi. G.Spenser sotsial taraqqiyot sifatida jamiyatning tuzilma sifatida izchillik bilan murakkablashib borishi, deb bildi. Jamiyat qanchalik rivojlangan bo'lsa, u shunchalik murakkab bo'ladi, ya'ni funksional va strukturaviy jihatdan ko'proq differensiallashganlikni kasb etadi. G.Spenser shunga muvofiq ravishda jamiyatni *oddiy, murakkab, ikki baravar murakkab, uch baravar murakkab* turlarga ajratdi. U ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omilini mehnat taqsimotiga bog'liq, deb bildi. Xuddi ana shu *mehnat taqsimoti* ijtimoiy tuzilishning oliy turi — «*industrial jamiyat*»ga olib keladi. G.Spenser sotsial strukturalarni ikki turga ajratdi: birinchisida odamlarning hamkorligi majburan amalga oshiriladi, qolganlarida esa u ixtiyoriy ravishda ro'y beradi. U shundan kelib chiqib jamiyatni ikkita turga bo'ladi — «harbiy» va «sanoat» («industrial»). Jamiyatning «harbiy» turi markazlashgan nazorat va hokimiyatning ierarxik tartiboti bilan tavsiflanadi. Hayotning barcha sohasi qattiq intizomga bo'ysundiriladi (hattoki, cherkov ham harbiy uyushmaga o'xshab qoladi). Bu kabi jamiyatda individ sotsial bir butunlikka majburan bo'ysundiriladi. «Sanoat» jamiyatida sanoat va savdo ustuvorlik kasb etadi, unda siyosiy erkinlik paydo bo'ladi, sotsial uyushma moslashuvchanlik kasb etadi. Bu kabi jamiyatda hokimiyat individlarning irodasi sifatida namoyon bo'ladi, individlarning birlashuvi ixtiyoriy ravishda ro'y beradi.

¹⁵Agregat - [lot. aggregatus birlashtirilgan] - 1)bir turdagi va turli turdagi mexanik birlashmalar yoki mexanik qorishma (aralashma); 2)bir necha turli xildagi mashinalar, apparatlarni bir vaqtning o'zida ishlashi uchun bir butunlikka birlashtirish. Masalan, turbo-generator yoki ekish agregati (traktorga ekish uskunasi va sixmola tirkaladi)

Sotsiologiya tarixida G.Spenserning majburlash («mexanik») kooperatsiyasiga asoslangan harbiy jamiyatdan ixtiyoriy («organik») kooperatsiyaga asoslangan industrial jamiyatga o'tish nazariyasiga yuksak ahamiyat berildi. U jamiyatning natural xo'jalik va qattiq ierarxik tizim ustunlik qilgan turidan tovar ishlab chiqarish va mehnat taqsimotiga asoslangan jamiyatga o'tishga doir tarixiy jarayonning haqiqiy manzarasini aks ettiradigan nazariy qoidalarni ishlab chiqdi. Hozirgi davr sotsiologiyasida jamiyatni «an'anaviy» va «industrial» turlarga bo'lish g'oyasi ijtimoiy tizimlar rivojlanishi nazariyasining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

G.Spenser jamiyatni tirik biologik organizmga o'xshatadi. Davlatda hukumat miyaga o'xshaydi: organizm hayotiga miya qanday «rahbarlik» qilsa, hukumat ham shu tariqa ijtimoiy qatlamlar va boshqa sotsial guruhlar o'zaro ta'sirlarini muvozanatlashtirgan holda jamiyat hayotiga «rahbarlik» qiladi. Savdo organizmdagi qon aylanishiga, pul qon tanachalariga, jamiyat hayotini ta'minlashga imkoniyat yaratuvchi va axborotlar yetkazib beruvchi telegraf aloqalari tirik organizmning nerv tizimiga o'xshatiladi.

Shu bilan birga, rivojlangan jamiyat organlarning uchta tizimiga egalik qilishi g'oyasi ilgari suriladi: ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi va regulyativ. Regulyativ tizim davlat timsolida tarkibiy qismlarni bir butunlikka bo'ysundirishni ta'minlaydi. G.Spenser jamiyatning o'ziga xos qismi sifatidagi muassasalarini (sotsial institutlarni) quyidagilarga ajratadi: uy-ro'zg'or, marosimlar, siyosiy, cherkov, kasbiy va sanoat kabilarga oid. Ularning hammasi sekinlik bilan ro'y beradigan evolyutsiya mahsulidir. Har qanday muassasa «sotsial harakatlar»ning barqaror strukturasi sifatida tuziladi¹¹⁶.

A. Bell, R. Aron, J. Furaste, J. Gelbreyt kabi olimlar (XX asrning iikkinchi yarmi) jamiyatlarni quyidagi turlarga bo'lishni taklif etdi: a) agrar-hunarmandchilik jamiyati; b) industrial jamiyat; v) industrialdan keyingi (postindustrial) jamiyat. Hozirgi davrga kelib industrialdan keyingi jamiyat tasnifi sotsiologiyada tez-tez tilga olinadigan bo'lib qoldi.

Agrar-hunarmandchilik jamiyatida yer, iqtisodiyot, oilaviy xo'jaliklar, siyosat, madaniyat va hayotning barcha jabhalari asosini tashkil etadi. Bu jamiyatda mehnat taqsimotining oddiy shakli hukmronlik qilib, unda bir necha aniq ravishda bir-biridan ajralib turadigan sotsial qatlamlar mavjud bo'ladi. Bu jamiyat uchun hokimiyatning avtoritar tizimi xosdir.

Industrial jamiyat uchun yirik mashinalardan keng foydalanadigan ishlab chiqarish xos bo'lib, unda bozorga yo'naltirilgan yalpi tovarlar

¹¹⁶Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей / Под ред. В.А. Михайлова.-Ульяновск: УЛГТУ,2004.-С.45-46

ishlab chiqarish va kuchli ixtisoslashuvdan iborat bo'lgan rivojlangan mehnat taqsimoti amal qiladi. Uning natijasi o'laroq transport va kommunikatsiya vositalari yuksak darajada rivojlanadi, aholining harakatchanligi avj oladi va aholining asosiy qismini shaharlarda yashashi kuzatiladi.

Industrialdan keyingi jamiyat uchun sanoatning yetakchilik o'rniga nisbatan fan va yuksak texnologiyalarning asosiy ishlab chiqarish quroli sifatidagi o'rnini yuksalishi xosdir. Fan va texnologiyalar sig'imi va ishtiroki yuqori bo'lgan yangi sanoat ishlab chiqarish turlari paydo bo'ladi: biotexnologiya, nanotexnologiya va hokazo. Ilm-fanning o'rnini keskin darajada ortib boradi, uning natijasida proletariat o'rnini «kognitariat», ya'ni murakkab va turli tuman axborot kommunikatsiyalarini joriy etib ishlashga qobil bo'lgan, ishni a'lo va sifatli darajada tashkil etadigan xodimlar egallaydi. Kompyuter va kommunikatsiya vositalarini yangi ishlab chiqarish sohalariga keng qo'llash rusumga kiradi. Uy mehnati, xizmat ko'rsatish sohasi kengayadi. Ilmiy bilimlar nafaqat yangi va yuqori texnologiyalar, ular bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning muhim resurslariga aylanadi, balki ular yangi boshqaruv va hokimiyat imkoniyatlari, boshqa insoniy faoliyatlar uchun yangidan-yangi muhitlar yaratadi¹¹⁷.

Taniqli olim *O. To'flerning* fikricha, agrar-hunarmandchilik jamiyati taxminan 8-9 ming yil, industrial sivilizatsiya 200-300 yil yashagan bo'lsa, uning o'rniga kelgan industrialdan keyingi jamiyat so'nggi bir necha o'n yilliklar ichida shakllandi.

Shu tariqa, hozirgi davrga kelib jamiyatlar rivojlanishining tezlashuvi ro'y bera boshladi. Shu bilan birga, turli mintaqalar va mamlakatlardagi jamiyatlarning teng bo'lmagan holatdagi rivojlanishi ham kuzatilmoqda. Masalan, Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi jamiyatlarda hozirgi davrda ham Yevropadagi jamiyatlarga nisbatan katta tafovutlar mavjud ekanligini kuzatish mumkin.

Hozirgi davrga kelib sotsiologiya fani tarixiy tahlillardan kelib chiqib jamiyat rivojlanishining o'ziga xos umumiy qonuniyatlari mavjud ekanligini aniqladi. Jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari quyidagilardan iborat:

- 1) sotsial rivojlanishning tezlashuv qonuni;
- 2) iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy rivojlanishning notengligi qonuni;
- 3) jamiyatlar rivojlanishida taraqqiyot va tanazzullarning mavjudligi¹¹⁸.

¹¹⁷Бабосов Е.М.Общая социология: учебно-методическое пособие для студентов вузов/Е.М.Бабосов/-3-е изд.-Минск:"ТетраСистемс",2006.-С.171.

¹¹⁸Кравченко А.И.Социология:учебник.-М.:ТК Велби,Издательство Проспект, 2006.-С.95.

Tahlillardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, jamiyat — bu odamlarning har qanday yig'indisi emas, balki o'z doirasi ichida odamlarning u yoki bu darajadagi doimiy, barqaror, yetarli darajada chambarchas tarzda o'zaro ta'sirlari va o'zaro bog'lanishlari kechadigan birlashmadir. Jamiyat odamlarni birlashtirish yo'li sifatida quyidagi belgilari bilan tasniflashadi: doimiy hududning mavjudligi; o'zini o'zi takroran ishlab chiqarish, ya'ni bolalarning tug'ilishi tufayli o'zini o'zi odamlarga to'ldirib turuvchi; sotsial aloqalar asosida yotadigan me'yorlar va qadriyatlar tizimlari birligini ta'minlovchi madaniy birlik; o'zini o'zi boshqarish va siyosiy mustaqillikka moyilikka asoslangan o'ziga o'zi farovonlikni ta'minlash. Jamiyatning rivojlanishida muayyan qonunlar va qonuniyatlar mavjudki, ular yordamida jamiyatning rivojlanish bosqichlari bir-biridan ajratilgan holda o'rganiladi.

Jamiyatning turlicha ta'riflari. Jamiyatda doimo o'zgarishlar jarayonida yashaydi. Sotsial o'zgarishlar sotsial tizimning faoliyati va strukturalaridagi o'zgarishlarni anglatadi. Bu o'zgarishlar natijasi o'laroq yangi guruhlar, o'zaro ta'sirlarning yangi ko'rinishlari paydo bo'ladi. «Sotsial o'zgarish» tushunchasi «sotsial rivojlanish» va «taraqqiyot» tushunchalariga to'g'ri kelmaydi. Sotsial o'zgarishlar moslashuv zaruriyatiga bog'liq ravishda sotsiologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Madaniyatni orqada qolish nazariyasi. Taniqli olim *Vilyam F. Ogbern* (1886-1959) industrial mamlakatlarda sotsial-madaniy o'zgarishlarning birinchi darajali rag'batlantiruvchi omili texnika hisoblanadi, degan fikrni ilgari surdi. Uning fikricha, texnika o'zining qonuniyatlari asosida rivojlanib boradi. Bu, go'yoki, texnika taraqqiyoti davomida tangliklar hosil qilgan holda uzoq jarayonlar ichida jamiyatning boshqa sohalariga moslashib boradigan juz'iy o'zgarishlar natijasida ro'y beradigan mustaqil o'zgaruvchan o'lchamdir. Lekin, umuman, jamiyatda texnika holati qaysi vaqtda qanday bo'lishiga moslashadigan faraziy muvozanat paydo bo'lib turadi.

Texnika rivojlanishi doimiy ravishda tezlik bilan olg'a qarab yurishi natijasida uzoq vaqtni talab qiladigan moslashuvlar texnikaning ma'lum vaqtdagi rivoji darajasidan orqada qola boshlaydi. Shundan kelib chiqib, texnikaga nisbatan «madaniyatning orqada qolishi» to'g'risida fikr yuritish mumkin. Masalan, yo'l qoidalari texnikaning yangi rivojlanish darajasi belgilab beradigan harakatning yangi holatiga qaraganda kechroq joriy etiladi.

Ahloq, etika va texnika taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro nisbatlar o'rtasidagi farqlar qiziq holatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, radioaktivlikni kashf etgan Jolio va Mariya Kyurilarni shu asos bilan atom bombasini

kashf etganligi uchun «ayblab» bo'lmaydi. Aksariyat holatlarda olimlar o'z kashfiyotlari keyinchalik fojiali oqibatlariga olib kelishini oldindan bilsalar ham ular o'z eksperimentlarini to'xtatmaydi. Ilmiy fikrlash va texnika taraqqiyotini to'xtatib qolishning hech bir iloji yo'q, madaniy rivojlanish esa sekinlashishi mumkin.

V.Ogbern tomonidan taklif etilgan «madaniy orqada qolish» nazariyasi shuni ko'rsatdiki, madaniy qadriyatlar va me'yorlar texnika taraqqiyotiga qaraganda juda ham sekinlak bilan almashib boradi. Lekin, texnika jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, unga bog'liq bo'lmasdan yoki uning ustida turib ham rivojlana olmaydi. Jamiyat bilan texnika o'rtasidagi moslashuvlar ikki tomonlama ro'y beradi. Texnika va madaniyat sohalaridagi sotsial o'zgarishlar — mental¹¹⁹ sohada — jamiyatning turini butunlay o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Tashqaridan boshqariladigan jamiyat nazariyasi. Jamiyatning turli mezonlarga asoslangan turlicha tasniflari mavjuddir. Masalan, E.Dyurkgeym dixotomiyasi¹²⁰ jamiyatni «mexanik va organik birdamlik» deb atashni taklif etdi. F. Tennis sotsiologiyaga «ixtisoslashmaydigan» va «majmuaviy» («kompleks») qarama-qarshi turadigan «Gemeinschaft» (gemeynshaft) hamda «Gesellschaft» (geyzelshaft) tushunchalarini olib kirdi.

Nemis olimi *Maks Veber* jamiyatdagi turli dinlarning jamiyatga ta'sirini tadqiq etib, kapitalizmning rivojlanishi uchun protestant etikasining muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib, agrar jamiyatdan industrial jamiyatni o'sib chiqishi — bu axloqiy me'yorlarning o'zgarishi, qadr-qimmatga yondosh bo'lgan burch his-tuyg'ular, mehnatsevarlik va axloqiy tozalik kabilarning dolzarblashganligining natijasi ekanligini ko'rsatib berishga harakat qildi.

Islahotchi *Martin Lyuter* (1483-1546) va uning izdosh *Jan Kalvin* (1509-1564) qadr-qimmatning bu fazilatlarini yer yuzidagi iqtisodiy va ijtimoiy muvafaqqiyatlarning va o'limdan keyingi abadiylikning kafolati, deb qayd etgan edi. Bu g'oyalarga asoslangan *David Rismanning* (1953) tadqiqotlarida ishlab chiqarish jamiyatning moddiy asosi sifatida tahlil etildi. Uning nazariyasi ikkita muhim jihatni o'zida ifodaladi: turli

¹¹⁹Mentalitet - [lot. mens - aql, tafakkur, aql bichimi, fikr yuritish tarzi, fikrlash usuli, inson ruhiyati tarzi] — 1) individual va ijtimoiy ongning ichki qatlamlarida joylashgan bo'lib, u o'ziga ongsizlikni ham qamrab oladi; 2) ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul qilish usuli.

¹²⁰Dixotomiya - [yunon. dichotomia < dicha ikki qismga + tome kesim] - bir butunni izchillik bilan ikkiga bo'linishi, keyin ularning har birini yana ikkiga bo'linishi va hokazo.

madaniyatlar doirasida ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va demografik omil. Ikkinchi omil to'g'risida to'xtalamiz.


XVIII asrda ro'y bergan fandagi rivojlanish, ayniqsa, tabiiy fanlardagi kashfiyotlar natijasida sog'liqni saqlash, ovqatlanish va yashash sharoitlarini yaxshilanishi o'limni ancha kamaytirdi. Lekin, bir qancha vaqt o'tganidan keyin tug'ilish ham kamayib ketdi. Bu demografik omillarning o'zaro ta'sirlari natijasida kamdan-kam uchraydigan favqulodda hodisa — «aholi kuchi» tushunchasi paydo bo'ldi. Agar «aholi kuchi» chiziqli jadval tarzda ifodalansa, unda uchta darajani bir-biridan aniq ajratish imkoniyati paydo bo'ldi. Birinchi daraja yuqori tug'ilish va yuqori o'limni tavsifladi. Uchinchi darajada har ikkala omil ham past ko'rsatkichga ega bo'ldi. O'rta daraja o'zgarishlarning beqaror davrini ifodaladi.

Aholi kuchining chiziqli jadvali uning o'sish holatini ko'rsatib, D.Rismanga rivojlanishning uchta turini sotsial darajasini bir-biridan ajratib ko'rsatishi uchun manba bo'lib xizmat qildi:

1. An'anaviy jamiyat, unda individlar xulqini an'anaviy qadriyatlar boshqaradi.

2. Ichidan boshqariladigan jamiyat. Unda individlar xulqini shaxsiy qadriyatlar boshqaradi.

3. Tashqaridan boshqariladigan jamiyat. Unda individ o'zining faoliyatini «tashqaridagi»lar (masalan, hamkasblari, do'stlari, qo'shnilari yoki umum qabul qilingan jamoatchilik fikri) baholarini idrok etgan holda baholaydi va yo'naltiradi.



3.3-rasm. Aholi kuchining chiziqli o'sish jadvali

An'anaviy jamiyat — bu avvalambor agrar jamiyat bo'lib, unda xulqni an'analar boshqaradi, odatga ko'ra kasblar otadan farzandga o'tadi. U yoki bu qaror individni qoniqtirish yoki qoniqtarmasligi mumkin, lekin uning bu qarorni tanlash yoki tanlamaslik imkoniyati yo'q, u an'analar ko'rsatmalari asosida yashaydi.

Ichidan boshqariladigan jamiyat individuallikni, mustaqil qarorlar qabul qilishni, shaxsiy nuqtai nazarni dolzarblashtiradi. Bu kabi xulq yuqori sotsial harakatchanlik (mobillik) muhiti va faol iqtisodiy hayot, industrilashtirish bosqichlari davri uchun xosdir. O'tish davri mustahkam me'yorlarning yo'qligi bilan farq qilishi tufayli «jamiyat ichidan boshqariladigan odam» o'zidan va sotsiallashtirish jarayonida orttingan qadriyatlar va me'yorlardan tayanch istashga majbur bo'ladi.

Tashqaridan boshqariladigan jamiyat uchun tertiar¹²¹ kasblar xos bo'lib, u ko'proq marketing va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'ladi. Bu holatda ishlab chiqarish muhim o'rinni egallaydi, ijtimoiy muammolar esa tovarlarni sotish va ortiqcha ishlab chiqarishning qiyinlashuvidan kelib chiqadi. Iqtisodiy o'sish davrida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi kasb-korlar va xodimlarning yangi guruhlari paydo bo'ladi. Undan keyin yangi jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, turli nodavlat tashkilotlar shakllanadi. Jamiyat paydo bo'lgan yangi vaziyatga tezlik bilan moslashuvi zaruriyati kelib chiqadi.

Odamlar moslashuv uchun o'zgarib borayotgan vaziyatga ko'nikish maqsadida o'z kasbi va ixtisosligini muvafaqqiyatli ravishda o'zgartirishga majbur bo'ladi. Faqat an'analar va ideallarga tayanish asnosida orttirilgan sotsiallashtirish endi ishni yurishib ketishini kafolatlamay qo'yadi. Bu holatda individ tashqi jihatlarga o'z e'tiborini qaratadi va ularga moslasha boshlaydi. U o'zining xulqini yangidan «qurgan» holda o'z diqqat-e'tiborini o'zi mansub bo'lgan referent¹²² guruhlariga qaratadi. U bunda me'yorlar va modellar andozalarini tashqaridan olgan holda jamoaviy xulqni yangidan o'zlashtirishga kirishadi¹²³. Endi individ o'z kasbini nafaqat an'analar asosida, balki institutsional kasbiy mo'ljallar yordamida va o'z xohishiga binoan erkin tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tarzda, D.Risman tasnifi ancha jonsiz agrar darajadan industrial darajaga, va

¹²¹ Tertiar - [lot. tertius uchinchi].

¹²² Referent - [lot. referens (referentis) xabar beruvchi] - sotsiologiyada sub'ekt xulqi boshqa odamlarning unga nisbatan tanlash munosabatlariga bog'liqligi, ya'ni ob'ektni (uni) tushunishi va baholashiga zarurat sezishi.

¹²³ Асп Э.К. Введение в социологию. Перевод с финс. яз. - СПб: АЛТЕЙЯ, 2000. - С. 58-59.

nihoyat, o'zgarishlarni tezlashtirishi bilan tavsiflanadigan postindustrial (industrialdan keyingi) jamiyatga o'tishga doir tasavvurlarni beradi.

Postindustrial jamiyat. AQSh sotsiologi *Daniel Bell* (1974) ilmiy iste'molga «postindustrial jamiyat» tushunchasini kiritdi va u jamiyatni tertiar sanoat kasbkorligi bosqichiga o'tganligini ifodalab, bunda xizmat ko'rsatish sohasida mehnat qilayotgan aholining kamida 50 foizi ishlashi zarurligi g'oyasini ilgari surdi. AQSh bu ko'rsatkichni 1960-yildayoq egalladi. 3.5-rasm mehnat unumdorligi va iste'mol qobilligi nuqtai nazaridan ishbilarmonlik hayotining o'sishini ko'rsatadi (*The Future Is Tomorrow. Europe 2000. 1972*).

Postindustrial jamiyat ham agrar, ham sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lib, unda shaxsiy ehtiyojlar anchagina ortiqroq bo'ladi. Bu — ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarish davri bo'lib, unga marketing va xizmat ko'rsatishni iloji boricha rivojlantirish, «servis xo'jaligi jamiyati»ga yaqinlashish xos bo'ladi. D.Bell va uning izdoshlari tadqiqotlariga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy davrlar va rivojlanish darajasini ifoda etadigan jadval tuzilgan (3.4-rasm). Bunda industrialdan oldingi davr oldin eslangan agrar jamiyatga muvofiq keladi. Jadvalda postindustrial davrda xizmat ko'rsatishdan tashqari kelajakka yo'nalganlikni, shaxslararo kommunikatsiyalarni, nazariy bilimlar, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning rolining katta ekanligi ochiq-oydin ko'rinib turibdi. Postindustrial jamiyat butunlay yangi texnologiyalardan foydalanishga o'tishi sababli «aqliy texnologiya», axborot va bilimlarga ishlov berish o'sib boradi. Natijada postindustrial jamiyat iborasi «*axborot jamiyati*» qabilida ham ishlatila boshlandi. Jamiyatda bilimlarning o'sib borishi ta'limning nufuzini oshirdi. Shuning uchun ba'zi holatlarda postindustrial jamiyat «ta'lim jamiyati», deb ham atala boshlandi.

Axborot jamiyati. Jamiyatni «ta'lim jamiyati» va «bilimlar jamiyati» deb nomlashlar keng tarqala boshlaganidan keyin bilimlarni ishlab chiqarish, yashash joylarni o'zgartirish, sotish va sotib olish mumkin, degan qarashlar paydo bo'ldi. Bu kabi ilk bor fikr 1962-yilda AQSh iqtisodchisi *Frits Meklap* tomonidan bildirilgan edi. Oradan 10 yil o'tib *Yoneyi Masuda* boshchiligidagi yapon tadqiqot guruhi bu fikrni rivojlantirgan holda «Axborot jamiyati loyihasi — 2000 yilgacha milliy maqsad» nomli rezolyutsiyasini ishlab chiqdi. Bu tadqiqotda axborot qadriyatlarini ishlab chiqarishning moddiy ishlab chiqarishga nisbatan ustuvorligiga erishish zamonaviy jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishni amalga oshirishning asosiy kuchidir, degan g'oya ilgari suriladi.


Mikroprotessorlarga asoslangan hisoblash texnikasi axborot jamiyatini shakllanishini yanada tezlashtirdi. Hisoblash texnikasi deganda, texnikaviy uskunarlar, tizimlar va usullar yordamida axborotlarni olish, qayta ishlov berish va saqlash tushunildi. Axborotlarni uzatish — bir hisoblash texnikasidan ikkinchisiga, ya'ni «iste'molchiga», shuningdek barcha bunga zaruriyat sezgan odamlarga yetkazib berish imkoniyati tug'ildi. Hisoblash texnikasi tezlik bilan ishlab chiqarish qarorlari qabul qilish va barcha harakatlarni integratsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi. Hisoblash texnikasini ishlatish zamonaviy jamiyatning markaziy harakatlantiruvchi va «o'zgartiruvchi kuchiga» aylandi. Mikroprotessorlarga asoslangan hisoblash texnikasini paydo bo'lishi ikkinchi industrial inqilob sifatida baholana boshlandi.

	Industrialdan oldingi davr	Industrial davr	Postindustrial davr
Rivojlanishni boshqaruvchi prinsip	An'anaviylik	Iqtisodiy o'sish	Bilimlarning markaziy o'ri
Ishlab chiqarishning asosiy sektori	Xom ashyo tayyorlash	Ishlov berish	Xizmat ko'rsatishlar
Ishchi kuchining asosiy qismi	Tabiiy muhitni o'zlashtirish bilan band bo'lgan dehqon	Materiallarni qayta ishlash bilan band bo'lgan ishchi	Axborotlar, bilimlar va timsollar bilan ishlaydigan xodimlar
Resurslarni birkitiruvchi boshqaruv guruhi	Xo'jayin, mulk egasi	Tadbirkor, rahbar	Tadqiqotchi, mutaxassis, etakchi ma'mur
Asosiy ishlab chiqarish birligi	Oila	Korxonalar, zavodlar, fabrika	Tadqiqot instituti, servis ofisi
Ehtiyojlarning oliy darajasi	Asosiy maishiy ehtiyojlar	Sotsial ehtiyojlar	O'zini o'zi hayotdagi ishtirokini ta'minlash, bilimlarga ehtiyoj sezish
Vaqt istiqboli	O'tmishga qaratilgan	Hozirgi davrga moslashuv	Kelajakka yo'nalganlik, bashoratlar, senariylar
Sotsial kommunikatsiya a'zolari	Inson - tabiat	Inson - mashina	Inson - Inson
Harakatlantiruvchi kuch	Tabiiy resurslar, jismoniy kuch	Yaratilgan energiya	Axborot, bilimlar bilan ishlash
Strategik resurs	Oziq-ovqat mahsuloti, xom ashyo	Haqiqiy kapital, «qoidalar to'plami», «nou-xau»	Ta'lim, aqliy kapital
Texnologiya	Qo'l mehnati	Mexanizatsiyalashgan texnologiya	Aqliy texnologiya
Metod, qarorlarni boshqaruvchi	Sog'lom idrok, «sinash va xatoliklar metodi», tajriba	Empirizm, sinov tadqiqotlari	Qarorlar qabul qilishning modellari, nazariy tayanchlar, tizimlarni tahlil etish va boshq.

3.4-rasm. Industrialdan oldin, industrial va postindustrial jamiyatlar belgilari

Hisoblash texnikasi iste'molchilari va bu sohada ishlovchilar yildan-yilga ko'payib bordi. Ular bu jarayonda yangi texnologiyalar, yangi takomillashgan axborot uskunalarini o'zlashtirish zaruriyatiga duch kela boshladi. Shu bilan birga, axborot sektorining nafaqat iqtisodiy ahamiyati ortib bordi, balki uning sotsial va siyosiy ahamiyati — axborot jamiyatining barcha sohalarida muhim o'rinlarni egallash jarayoni tezlashdi. «Axborot jamiyati» tushunchasi mubolag'adan jamiyat rivojlanishining asosiy omiliga aylanishi o'z isbotini topdi.

Yuqorida postindustrial jamiyatga doir tasniflar (3.4-rasm) «axborot jamiyati» uchun ham tegishli bo'lib, har ikkala tushunchada ham »bilim» komponenti dolzarb omil sifatida tasniflashgan. Aqliy kapital, nazariy bilimlarning konsentratsiyasi, axborotlarga ishlov berish, ta'lim, yuksak malaka va ixtisoslikni o'zgartirish — bu kabi jamiyatning strategik resurslari va asosiy omillaridir.



3.5-rasm. Postindustrial jamiyatga doir tasnif sxemasi

Zamonaviy texnologiyalarning innovatsiyaviyligi¹²⁴ har qanday rivojlanishning asosiy o'zagi sifatida namoyon bo'la boshladi. Kompyuter xotiralarining hajmi, faillarni birlashtirish qobiliyati, tezlik bilan ishlashi, ular ustidan nazoratni qulayligi axborot tarmoqlarini, ma'lumotlar banklarini yaratish va axborotlarni yalpi ravishda ishlab chiqara olishga keng imkoniyatlar yaratdi. Bu kabi yangi infratuzilma zamonaviy jamiyatning belgilari va timsollari sifatida namoyon bo'ldi. Kompyuterlashtirish va yangi texnologiyalarning globalligi va ahamiyati inson bilan

¹²⁴Innovatsiya - [lot. innovation yangilash; o'zgarish] - yangilik kiritish; jarayonlarni samarali va sifatli o'sishini ta'minlovchi yoki bozor talab etgan mahsulotlar sifatini oshirishga qaratilgan yangiliklarni kiritilishi.

jamiyat o'rtasida yangi uyg'unlashuvlar uchun asoslar yaratib, tabiat holatini nazorat qilishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Bu holatlar sanoat chiqindilarini nazorat qilish, atrof-muhitni ifloslanishiga qarshi kurashning yangi usullarini yaratilishiga tegishlidir. Axborot jamiyati — industrial jamiyatning ko'plab muammolari yechimlarining bir qismidir.

Axborot vositalari uskunalar va asboblarning rivojlanishi va axborot uzatish uchun materiallarning takomillashishi hisobiga ham kengayib bordi. Ular elektronika, tele-, radio- va ovoz anjomlari, o'lchov qurilmalari, nashr va ko'paytirish mashinalari, kabellar, integral sxemalar, nashr materiallariga asoslangan turli kommunikatsiya vositalari, kompyuterlar va boshqa qurilma hamda mexanizmlardan iboratdir¹²⁵. Jamiyat rivojlanishining istiqbollarda quyidagi omillar yanada muhim ahamiyat kasb etib bordi: mexatronika; axborot tizimidagi innovatsiyalar; yangi sanoat materiallari; biotexnika; yangi energiyalar.

Postmodernistik jamiyat. Taniqli olim A. Etsioni (A. Etzioni) o'zining 1968-yilda yozgan «The Active Society» («Faol sotsium») asarida jamiyatning o'zgarishi va uning oqibatlariga doir o'z nazariyasini e'lon qildi. Uning fikricha, «faol sotsium» o'zidan o'zi boshqariladigan, ya'ni o'zini o'zi boshqaradigan ideal jamiyatni shakllantiradi. Bu jamiyat — sobitqadam, o'ziga ishongan holda o'zining chegaralarini anglaydi, shuningdek o'zining tadrijiy imkoniyatlari va kuchini ham anglay oladi. A.Etsioni o'z nazariyasini yaratgan paytda hali shakllanmagan bu kabi ideal jamiyat modelini tavsiflab berdi.

«*Faol sotsium*» — bu jamiyatning postmodernligi shundaki, u modern dan farq qiladi va boshqa bir qancha muhim o'lcham va ko'rsatkichlari bilan undan ustunlik qiladi: keng siyosiy faollik, siyosiy faoliyatga katta investitsiyalar ajratish, bilimlar, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning ustuvorligi. Qarorlar qabul qilish, boshqaruv, jamiyat ustidan nazoratni amalga oshirishda axborot tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tomondan «postmodernistik jamiyat» tushunchasi «axborot jamiyati» tushunchasiga yaqinlashadi. Axborot jamiyatida birinchi o'ringa bilimlarni uzatish va ularga ishlov berish qo'yilsa, postmodernistik jamiyatda bilimlarni qo'llash, sharhlash va talqin etishga asosiy urg'u beriladi. Shunga e'tibor berish zarurki, bunda turli tomonlari va jihatlariga urg'u beriladigan bitta jamiyat to'g'risida so'z ketmoqda. U XX asr oxiri — XXI asr boshlarida yashayotgan sivilizatsiyalashgan jamiyatdir.

Sotsiologiyada «postmodernistik jamiyat» tushunchasi postindustrial jamiyatning sinonimi sifatida ishlatildi. Odatda, postindustrial jamiyat

¹²⁵Асп Э.К.Введение в социологию.Пер.с финск.яз.-СПб:АЛТЕЙЯ,2000.-С.60-64.

deganda, turlicha aloxidaliklardan tashkil topgan, madaniyatlari almashib turadigan, ya'ni har qanday ozchilikning, hattoki ayrim yashash hududlarining ham o'z submadaniyatiga ega bo'lishi kabi belgilari bo'lgan birlik tushuniladi. Shuning uchun postindustrial jamiyatning yaxlitligi va barqarorligi to'la qonli bo'lmaydi. Bunda so'z yangi turdagi — qarorlar dadillik bilan qabul qilinadigan, eski munosabatlar tanqid qilinadigan va turli rollarning o'zini o'zi namoyon qilishlari uchun imkoniyatlar beriladigan jamiyat to'g'risida ketmoqda.

Postmodernistik jamiyat sharoitida bilimlar, hisoblash texnikasi, o'zaro aloqalarni qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar banklaridan foydalanishni yanada kengayadi va atrofdagi voqeliklarni sharhlash hamda turli testlar o'tkazish uchun axborot tizimlari vositasida ma'lumotlar olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu axborotlar yordamida jamiyatdagi o'zgarishlar ham nazorat etib boriladi. A. Etsionining ta'kidlashicha, nafaqat innovatsiyalarning o'zi, balki ularni sharhlashdagi topqirlik va yangi usullar ham muhimdir. Dalillar sharhlarsiz sotsial yoki siyosiy foyda keltirishi ancha cheklangan bo'ladi. Masalan, yangi samarali texnologiya dinga yoki jamiyatning boshqa biron qadriyatiga qarama-qarshi bo'lsa, u nafaqat qiziqishlarni oz bo'lishiga olib keladi, yoki, hattoki, noxushliklarni ham vujudga keltiradi. Shuning uchun yangi texnologiyalarni joriy etuvchilardan ularning afzalliklarini baholash va tushuntirish talab etiladi. Ilmiy-tadqiqot ishlarining sur'ati va natijalariga pragmatika katta ta'sir ko'rsatadi: birinchi navbatda ular qanday amaliy natijalarga olib kelishiga, jamiyat ehtiyojlariga javob berishiga qarab qo'llab-quvvatlanadi.

Faol jamiyatning yashashini muhim shart-sharoitlaridan biri — bu axborotlar ishlab chiqarishda plyuralizmning mavjudligi hisoblanadi. Axborotlar boshqa iste'mol mollari kabi jamiyatga berilgan huquq doirasida foydalaniladi va nazorat qilinadi. Masalan, turli tashkilotlardagi kompyuterlarning ko'plab fayllari strategik muhim axborotlarni saqlaydi, shuning uchun jamiyat ularni nazorat qilishga majbur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, postmodernistik jamiyatda ta'lim alohida va muhim o'ringa ega bo'ladi. Jamiyat va sotsial aloqalarning ko'p tomonlamaligi va murakkabligi, yangi texnologiyalarni boshqarish va mehnat hayotining yangi talablari — bu ta'lim darajasini oshirish zaruriyati talab etadigan omillardir. Oliy ta'lim va maxsus kasbiy ta'limning ahamiyati jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni bilan yonma-yon ravishda o'sib boradi. Shu bilan bir vaqtda, ta'lim individning maqomini aniqlashdagi muhim omil hisoblana boshlaydi.

Sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda «ochiq jamiyat» va «yopiq jamiyat» tushunchalari ishlatiladi. Sotsiologiyaga «ochiq jamiyat»

tushunchasi taniqli ingliz olimi *Karl Popper* tomonidan kiritilgan va u o'ziga xos liberal-demokratik hamda sotsial-demokratik ruhni va demokratiya sinonimini o'zida ifodalaydi.

Poppening ko'rsatishicha, «ochiq jamiyat» iborasi XX asrning 30-yillarida mashhur bo'lgan — *A. Bergsonning* «Axloq va dinning ikki manbasi» (1932) kitobidan olingan. Lekin, K. Popper bu iborani ishlatish bilan cheklanib qolmasdan, uni qo'llagan holda o'zining «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» asarida «ochiq» va «yopiq» jamiyatlarga doir nazariy ishlanmalarni ilgari surdi.

A. Bergsonning fikricha, «yopiq jamiyat» — bu a'zolari o'zlarining hayotiy xulqlarida sotsial birlik tomonidan majburan qabul qildiriladigan axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda yashaydi. Bu kabi hayot tarzi urf-odatlar va an'analar tomonidan qattiq qatag'onlar xavfi va bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar vositasida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu kabi jamiyatni o'zgarimas biologik qonunlar bo'yicha yashaydigan tirik organizmga qiyoslash mumkin. Axloqning jamiyatni ruhiy va amaliy uyushtirish yo'sini sifatida organizmning dastlabki biologik impulsi tizimiga o'xshashligi — yopiq jamiyatning asosiy belgilaridan biri bo'ldi.

K. Poppening qarashicha, «yopiq jamiyat» qabilaga yoki to'daga o'xshaydi, u o'zida jamiyat a'zolarining yarim biologik aloqalari — urug'chilik, umumiy hayot, umumiy ishlarda majburan ishtirok etish, bir xildagi xavf-xatarga duchor bo'lish xavfi mavjud bo'lgan, umumiy qoniqish va falokatlar xavfi birlashtirib turadigan yarim organik birlikni ifodalaydi. Bu — hali mehnat taqsimoti va tovarlar almashuvi kabi sotsial aloqalar bilan bir-birlariga bog'langan aniq individlarning aniq guruhlariga emas, balki, his, hid va ko'z bilan sezishga o'xshash aniq jismoniy aloqalar asosida qurilgan birlikdir¹²⁶.

Jamiyatning «yopiqligi» turlicha qo'rquvlarni shakllantirish va odamlarga ta'sir qilish mexanizmlarini yaratdi, unda boshqa insoniy jamiyatlar, begona madaniyat va dinlardan keladigan g'oyalar va qadriyatlarga nisbatan hushyorlik va dushmanlik kayfiyatlarini mustahkam ushlab turish an'anasi paydo bo'ldi. Jamiyat evolyutsiyasining muayyan bosqichlarida bu kabi mexanizmlar odamlarni birlashtirish, jamoaviy ishlarni amalga oshirishga yordam berdi. Shuning uchun ham muayyan tabiiy va sotsiomadaniy shart-sharoitlarda «yopiq jamiyat»larni uzoq yashaganligi kuzatiladi.

K. Poppening fikricha, yopiq jamiyatdan ochiq jamiyatga o'tishni

¹²⁶Поппер К. Открытое общество и его враги. // Общая социология. Хрестоматия / Сост. А. Г. Здравомыслов, Н. И. Лапин; Пер. В. Г. Кузьминов; Под общ. ред. Н. И. Лапина. - М.: Высш. шк., 2006. - С. 83

insoniyat uzoq davr bosib o'tgan chuqur inqilobiy o'zgarish sifatida tasniflash mumkin. Yopiq jamiyatning biz aytib o'tgan biologik jihatlariga doir tavsiflari tufayli ham bu o'tish davri juda ham chuqur ko'rguliklarni o'z boshidan kechiradi¹²⁷.

K. Popperning «ochiq jamiyat»ga doir ta'limoti tarixiylikka ancha zidligi bilan ajralib turadi. Uningcha, «ochiq jamiyat» xalq hokimiyatining demokratik shaklidir. Bu kabi jamiyat o'z ichiga so'z, fikr va xususiy mulk erkinliklarini oladi. Xalq hokimiyatining bu kabi ko'rinishi qadimga davrda Yunonistonning Afina shahrida qurilgan. Keyinchalik «ochiq jamiyat» amaliyoti Yevropaga ko'chdi. «Ochiq jamiyat»ning mukammal ko'rinishi hozirgi davrda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida qurilgan. Umuman olganda, «ochiq jamiyat»ning asosi hurfikrlilik asosiga qurilgan. Tanqidiy ratsionalizmning muhim tamoyillaridan biri — bu bir erkin fikrlashdan ikkinchi bir erkin fikrlashga o'tish, ya'ni uncha mukammal bo'lmagan fikrlashdan mukammalroq fikrlashga o'tishdir. Bu jarayonda inson fikrlashining o'z-o'zidan rivojlanishi va mukammallashishi ro'y beradi. Xulosa qilib aytganda, K. Popper o'zining «ochiq jamiyat»ga doir qarashlarida jamiyatni inson tafakkurlashi taraqqiyoti sifatida tushuntirib berdi.

«Ochiq jamiyat»ning aksi «yopiq jamiyat» (totalitar tuzum) xususiy mulk hamda hurfikrlilikka qarshi kurashadigan jamiyatdir. Totalitar jamiyatda doimo ideal davlat haqidagi g'oya ilgari suriladi. Unda abadiy va o'zgarmas ideal davlatda «har bir jamiyat a'zosining baxtga erishishi muqarrardir», deyiladi. K. Popper fikricha, bu kabi «ideal davlat» jamiyat taraqqiyoti oldidagi to'siqdir. «Ideal jamiyat»ga doir g'oyalarni ilgari surgan utopistlarning o'zaro tenglik, hamkorlik, birodarlik, do'stlik haqidagi fikrlari xom xayoldan iborat bo'ldi. U zararli g'oyadir. U doimiy ravishda jamoa hokimiyati hukmron bo'lishiga intiladi. Bu holatda individ manfaatlari jamoa manfaatlariga bo'ysundiriladi, oqibatda hurfikrlilik halokatga uchraydi, xususiy mulkning rivojlanishi to'xtab qoladi. Bu kabi jamiyatda indvidlarning loqaydligi nihoyatda kuchayadi, hurfikrlilik an'analari yo'qolib boradi, shaxsga, maskuraviy aqidalarga sajda qilish kuchayadi.

Hozirgi davrda texnika, informatsiya va kommunikatsiya vositalarining rivojlanib borishi insonni tobora faollashtirmoqda, o'zini o'zi rivojlaturuvchi subyektga aylantirmoqda. Hozirgi ochiq jamiyatlar uchun erkin indvidlar zarur. K. Popper fikricha, ochiq jamiyatning ideal shakli erkin indviduumlar jamiyatidir¹²⁸.

¹²⁷O'sha joyda.-B.84.

¹²⁸Асп Э.К.Введение в социологию.Пер. с финск. яз.-СПб:АЛТЕЙЯ,2000.-С.64-65.

Jamiyatning «ochiqligi» — bu ko‘p jihatli tasnif hisoblanadi. Bu turlicha siyosiy, mafkuraviy, diniy qarashlar, ularning yaratuvchilik aloqalari va bir-birlarini to‘ldirishlari uchun o‘zaro faol harakatlariga keng imkoniyatlar yaratish demakdir. U o‘z ichiga iqtisodiy erkinlik, turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllari o‘rtasida hech qanday psixologik va huquqiy g‘ovlarning bo‘lmasligi, madaniyatning ochiqligi, o‘rnatilgan qonunlar va cheklovlar doirasida har qanday axborotni tarqatish va olish erkinligiga ega bo‘lish kabilarni oladi. Eng muhimi — odamlarning bir-birlari bilan ochiq munosabatlarda bo‘lishi, faqat erkin jamiyatda ijobiy amalga oshadigan qadriyat — shaxs suverenitetini shakllanishi bu kabi jamiyatning asosiy belgilaridan biridir.

«*Mo‘l-ko‘llik jamiyati*» («affluent society») tushunchasi dastlab britan jamiyatining XX asrdagi 50-60-yillari boshidagi tavsifi sifatida ishlatildi. Bu davrda jamiyatdagi hayot darajasini yaxshilanishi sotsial munosabatlarda katta o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Hattoki, hayot darajasining yaxshilanishi ta‘sirida ishchilar sinfi saylovlarda leyboristlar partiyasini qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydi. Shuningdek, 1958-yilda J.Gelbreytning «*Mo‘l-ko‘llik jamiyati*» kitobida XX asrning 50-yillarida asosiy iqtisodiy defitsit va kam sotsial ta‘minlanganlik asosan barham topdi, lekin shaxsiy boyliklar «umumiy haroblik» ta‘siridan chiqqa olmadi (masalan, avtomobillar ishlab chiqarish keskin ravishda ko‘paydi, lekin yo‘llarni yaxshilashga e‘tibor berilmadi, atrof-muhitni ifloslanishi nazorat qilinmadi). Shuningdek, kapitalizm inqirozidan zarar ko‘rgan shaxslar iqtisodiy jihatdan himoyalannmadi. Agar XX asrning 60-70-yillaridagi davlat xarajatlari vaziyatni ancha yaxshilagan bo‘lsa-da, monetarizm va siyosiy iqlim 70-80-yillarning oxirida davlat mablag‘larini qisqartirishni taqozo etdi. Gelbreyt tomonidan ko‘tarilgan tashvishli da‘vatlar ta‘sirida siyosatda atrof-muhitni himoya qilish muammolariga muhim e‘tibor berishga doir harakatlar sezila boshlandi¹²⁹.

J.Gelbreyt «*Mo‘l-ko‘llik jamiyati*» kitobida davlat va yirik korporatsiyalarni inson xatti-harakatini belgilashga qaratilgan yangi qadriyatlar asosida baholaydi. U asosan quyidagi g‘oyalarni ilgari surgan edi:

-yirik korporatsiyalar barcha fuqarolarning ehtiyojlarini va ommaviy talablarni qoniqtiradigan darajada tovarlar ishlab chiqara boshladi. Korporatsiyalarning asosiy muammosi tovarlarga nisbatan tegishli ehtiyojlarni va ommaviy kundalik talabni shakllantirib turishdan iborat

¹²⁹ Джери Дж., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь. Том 1. -М.: ВЕЧЕ. АКТ, 1999. -С. 510.

bo'lib qoldi. Korporatsiyalar mustaqil baholashlar va odamlarning qarorlarini ezib tashlaydigan kuchli reklama-savdo apparatini qurib oldi;

-iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish amerika jamiyatining eng asosiy va yuqori maqsadiga aylandi, bu sovet ittifoqining harbiy-kosmik yutuqlari oldida AQSh milliy xavfsizligiga tahdid soladi;

-ijtimoiy muhim ehtiyojlarni shakllantirish va qondirish rolini davlat o'z zimmasiga olishi lozim. Chunki deyarli barcha odamga yo'naltirilgan investitsiyalar bozor tizimidan tashqarida o'tmoqda. Har qanday «odamga investitsiya qo'yish» korporatsiyalar ishlab chiqarayotgan tovarlar oqimidan olinadigan egri soliqlardan oson yo'l bilan olinishi mumkin;

-yollanma boshqaruvchilar, xodimlar va mutaxassislardan iborat «yangi sinf» shakllanmoqda, bu jamiyatning asosiy sotsial yutug'idir. Pentagon xarajatlaridan farq qilib, ko'rsatilgan xarajatlar inflyasiyaga olib kelmaydi;

-bu sinf yaratayotgan jarayon «insondagi investitsiya» hisoblanadi, bu moddiy kapitalga qo'yilayotgan investitsiyalardan farq qilib, ko'zga ko'rinmaydi va uni baholashning iloji yo'q;

-amalda moddiy qadriyatlarga kapital qo'yish yoki daromadlarni olishni ko'paytirish emas, balki «o'z farzandlariga» investitsiyalar ajratish ham insonning, ham jamiyatning asosiy maqsadidir. Hozircha buni iqtisodiyot fanlari unchalik fahmlab etganicha yo'q¹³⁰.

Gelbreytning «mo'l-ko'llik jamiyati»ga doir ilgari surgan g'oyalari inflyasiya va militarlashtirishning nohush jihatlarini tahlil etish, kapital qo'yilmalarni insonga qaratishga doir nazariyalarni rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatib berdi. Bu g'oyalar davlat siyosati va jamiyatga kuchli ta'sir etdi. Shuningdek, bu g'oyalar jamiyatning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va unga davlat byudjetidan yetarli mablag'lar ajratishni anglashda muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada, XX asrning 60-70-yillarida «mo'l-ko'llik» jamiyati g'oyalari ta'sirida AQSh jamiyati ancha rivojlandi, ko'plab sotsial muammolar o'z yechimini topdi. Keyinchalik Gelbreyt kapitalizmni «yangi industrial jamiyat»ga o'tishiga doir g'oyalarni rivojlantirishda faol ishtirok etdi.

«*Iste'mol jamiyati*». Bu jamiyatga doir tushuncha XX asrning ikkinchi yarmida uzil-kesil barqarorlashgan va rivojlangan mamlakatlardagi sotsial-iqtisodiy va madaniy o'zgarish sifatida namoyon bo'ldi. Bu tushuncha 1970-yilda fransuz olimi *Jan Bodriyyarning* «Iste'mol jamiyati. Uning

¹³⁰Дж.К.Гэлбрейт и эволюция американского институционализма. Теория "нового индустриального общества"//http://studme.org/1008062212245/politekonomiya/gelbreyt_evolyutsiya_amerikanskogo_institutsionalizma_teoriya_novogo_industrialnogo_obschestva.

strukturalari» nomli asari nashr etilganidan keyin mashhur bo'lib ketdi. «Iste'mol jamiyati» ikkinchi jahon urushidan keyingi barqarorlik davrida keng iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishning ko'payib ketishi natijasida ommaviy iste'mol jamiyatining shakllanishi bilan bog'liqdir. Bu kabi jamiyatning yana bir muhim jihati — g'arb mamlakatlarida Keyns siyosatini qo'llash natijasida iste'mol madaniyatining keng tarqalishi uchun shart-sharoitlar tayyorlashga imkon bergan sotsial davlat modelini hayotda o'z ifodasini topishi bo'ldi.

Lekin, ulardan oldinroq «iste'mol jamiyati»ni shakllanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yetilgan edi. AQSh milliarderi *Genri Ford* ikki jahon urushi o'rtasidagi davrda umumiy farovonlik jamiyatining timsolini yaratgan edi. Ford nafaqat «xalq avtomobili»ning birinchi modelini yaratdi, balki o'z ishchilarini farovonligini oshirish chora-tadbirlarini ham ko'rdi: avtomobillar nafaqat ommaviy tarzda ishlab chiqarildi, balki ular ommaviy iste'mol predmetiga ham aylandi. Bu nafaqat ishchilarning ish haqlarini oshishida, balki, korxonada ko'proq ishlagan ishchilarning olinadagan daromadlardan naflanishida ham ko'rindi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Ford namunasi davlat tomonidan bevosita va bilvosita tarzda keng sotsial qatlamlar foydasiga kapitalistik tizimdan tushadigan resurslarni — avvalambor moliyaviy — qayta taqsimlash, ya'ni mohiyatan sotsial davlat modeliga xos ravishda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu tariqa, jamiyatning ilgari ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidan bahramand bo'lmagan qatlamlari uchun endi bu sohalardan foydalanishlari uchun keng imkoniyatlar berildi. Va nihoyat, nafaqa tizimi shakllandi.

Shu bilan birga, «iste'mol jamiyati» kerakli ravishda iqtisodiy jihatlardan ta'minlanganligi uchun katta miqyosda iste'mol qilishi mumkin bo'lgan o'rta sinf tushunchasi bilan bog'liq holda talqin etila boshlandi. O'rta sinf — bu sotsial davlat doirasida shakllangan sinf edi. O'rta sinf sotsial davlatning asosiy homiysi sifatida zamonaviy kuchli madaniyatni yaratdi. Tabiiyki, uning o'z iste'mol talablarini qondirishi uchun unga muvofiq keladigan tovarlar ishlab chiqarish industriyasi bo'lishi lozim edi. Shuning uchun ham XX asrning 50-70-yillarida avtomobil, sovutqich, televizor, radio, chang so'rg'ich, ventilyator kabi zamonaviy tovarlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish beqiyos darajada o'sdi. AQSh va Yevropada yirik savdo markazlari tezlik bilan ko'payib bordi. 1957-yilda AQShda ularning soni 960 ta bo'lsa, 1960-yilda 2000 taga, 1977-yilda 20.000 taga, 2004-yilda 46.000 taga etdi.¹³¹

¹³¹Спектор Р. Убийцы категорий. Революция в розничной торговле и ее влияние на культуру потребления/Пер. с англ.-М.:Добрая книга,2005.-С.133.

Savdo madaniyatida inqilob yuz berdi — savdo markazlari va super marketlar yong'irdan keyingi paydo bo'lgan qo'ziqorinlar kabi tezlik bilan ko'payib, ular barcha aholi yashaydigan maskanlarda aholini iste'mol ehtiyojini qondira boshladi. Albatta, bu kabi keskin o'zgarishlar asosida ma'lum motivlar mavjud edi: iste'mol oqilona to'yinish (to'qlik) bahra olishi mumkin bo'lgan voqelik bo'lmay qoldi — Bodriyyar «iste'mol jamiyati»ni xuddi ana shu ko'msash nuqtai nazaridan turib tanqid qilgan edi — lekin yangi o'zgarishlar muttasil ravishda iqtisodiy ishlab chiqarishni rag'batlantirish omili bo'lib qolgan holda hayotning mohiyati va shakli sifatida namoyon bo'la boshladi.

Bodriyyar «iste'mol jamiyati»ning yana bir boshqa xususiyatini — uning timsoliy jihatdan ta'sir qilishini ajratib ko'rsatdi. Ungacha marketing va reklamalar mutaxassislar uchun eskirib siyqasi chiqib bo'lgan manzarlardan iborat edi, xolos. Bu davrda bozordagi «nufuzlilik» bilan birga endi «hayotiy did», «yoshlik», «hayot tarzi» kabilar tegishli ravishda timsoliylikni tashkil etgan iste'mol tovarlarini murakkablashtira boshladi, ular ahamiyatining iste'molni motivatsiya qilishga ta'siri nuqtai nazaridan oshib borishi kuzatildi. Shuning uchun ham brendlarga e'tibor kuchli bo'ldi.

«Iste'mol jamiyati»ning paydo bo'lish shartlaridan biri — shaxsiy xususiy ishbilarmonlik erkinligi va erkin raqobatning keng tarqalishi bo'ldi. Bu kabi sotsial birdamlikka erishilgan jamiyatda iste'mol cheklangan holda, ya'ni ishlab chiqarish hamda taqsimlashga bo'ysungan holda namoyon bo'ladi. Ommaviy iste'molchida iste'mol erkinligidan tashqari vaqtinchalik resurslar ham bo'lishi taqozo etiladi. Ishchi xaftalarining qisqarishi sotsial haraktchanlikni oshishiga olib keldi. AQSh va Yevropada xaftalik ish vaqti keskin qisqardi: 1871-yilda 72 soat, 1900-yilda 61 soat, 1913-yilda 55,5 soatni tashkil etdi¹³². Hozirgi davrga kelib bu ko'rsatkichlar nafaqat qisqardi, balki ishchi va xodim vazifalarini endi yuksak texnologiyalar bajara boshladi. Mehnat mashaqqatli faoliyatdan insonda qiziqish uyg'otadigan jarayonga aylandi.

«Iste'mol jamiyati»da iste'molning o'zi har qanday sotsial faollikni almashtira oladigan darajaga ko'tarildi. Bu kabi jamiyatda o'ziga xos an'ana — «etikaviy iste'mol» paydo bo'la boshladi. Unga binoan tovarlar etikaviy, siyosiy yoki ekologik mulohazalar bilan sotib olinadi yoki sotib olish rad etiladi¹³³. Shu tariqa, «iste'mol jamiyati» — bu kamdan-kam

¹³² Овруцкий А.В. Феноменология общества потребления//<http://cyberleninka.ru/article/n/fenomenologiya-obschestva-potrebleniya>.

¹³³ Коос С. Объясняя этическое потребительское поведение в Европе (эмпирические данные по 19 странам)// Экономическая социология. Т.10.2009, №2. - С.76.

uchraydigan murakkab sotsioiqtisodiy voqelikdir. Bu kabi jamiyat yirik o'rtta sinfning ko'payishi oqibatida paydo bo'lib, u boy va murakkab iste'mol madaniyatini shakllantirdi. «Iste'mol jamiyati» sharoitida yashayotgan rivojlangan mamlakatlarda iste'mol madaniyati doimo o'zgarishlarga uchrab turadi, u doimo va muttasil ravishda murakkablashib va o'z qiyofasini rang-baranglashtirib boradi.

3.5. Zamonaviy jamiyatning sotsiomadaniy munosabatlari muammolari

An'anaviy tarzda *madaniyat* — bu insoniyat tomonidan yaratiladigan narsa, tabiat esa insonga bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan narsalardir. Insonning o'zi tabiatning bir qismidir. Shu bilan birga, jamiyat ham inson tomonidan tabiatdan ajratib olib yaratilgan insoniy birlikdir. Sotsiologiya fanida *madaniyat* deganda insonning biologik tabiati — instinktlari bilan belgilanmaydigan sotsial hayoti tushuniladi; madaniyat odamlarning ko'plab avlod-ajdodlarining birgalikdagi hatti-harakatlari natijasida sun'iy tarzda paydo bo'lgan, har bir avlod tomonidan boyitib boriladigan yaratilmadir¹³⁴.

Albatta, tabiiy muhit sotsial hayotga ta'sir etadi. Lekin, inson o'zining shunday bir shaxsiy dunyosini yaratadiki, fan, texnika, madaniyat, sotsial institutlar kabilarga tayanib uni tabiiy muhitdan mustaqilligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham sotsiologiya fani qabul qilingan qadriyatlar, inson xulqi me'yorlari, ishlab chiqilgan qoidalar, xo'jalik faoliyati va ijtimoiy-siyosiy hayotni uyushtirish o'lovchilari va an'analari asosida muvofiqlashadigan sotsiomadaniy tizimni tadqiq etadi¹³⁵.

Madaniyat — insonning sotsial rivojlanishiga, natijasi o'zgarishlarga boy bo'lgan ideallar tizimini yaratishga, uning ma'naviy olamida mujassamlashishiga olib keluvchi ma'naviy va moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan o'ziga xos faoliyat tarzidir¹³⁶.

Madaniyatda tizim sifatida uchta komponent o'zaro bog'lanishda harakat qiladi:

- a) insonning qadriyatlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy faoliyati;
- b) jamiyatning qadriyatlarda mujassamlashadigan yutuqlari jamlanmasi;

¹³⁴Исаев Б.А. Социология. Краткий курс / Б.А. Исаев.-Санкт-Петербург: Питер, 2007.-С.40.

¹³⁵Общая социология: Учеб. пособие / Под общ.ред.проф.А.Г.Эфендисва -М.: ИНФРА-М, 2007.-С.90.

¹³⁶Бабосов Е.М. Общая социология: учебно-методическое пособие для студентов вузов / Е.М. Бабосов.-3-е изд.-Минск: "ТетраСистемс", 2006.-С.306.

v) insonning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishi davomidagi jamiyatni o'zini o'zi qaytadan yaratib borishi va rivojlantirishi.

Madaniyatni sotsiologik tadqiq etishning o'ziga xos ekanligi shundaki, unda birinchi o'ringa inson qo'yiladi. Shuningdek, insonga nisbatan madaniyatni va uning qadriyatlarini ijodkori yoki yaratuvchisi, bir vaqtning o'zida uning subyekti va obyekt sifatida qaraladi¹³⁷.

Sotsial jarayonlarda madaniyatning rolini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning jamiyatga nisbatan ta'siri turli yo'llar bilan amalga oshadi: a)shaxsning sotsiallasuvi vositasida; b)qadriyatlarni yaratish va ularni ijtimoiy ongga singdirish yo'li bilan; v)madaniyatning xulq-atvor namunalarini yaratishi orqali; g)sotsial institutlar va sotsial tizimlarni modellashtirish vositasida¹³⁸.

Umuman olganda, madaniyat insonlarni o'zaro bir-birlariga nisbatan jipslashuvini mustahkamlaydi. Insonning o'z yaqinlariga nisbatan bir-birini tushunishi, o'zaro ishonchi va hamdardligi eng ustuvor fazilatlar hisoblanib, ular hattoki, kichik insoniy birlikka uyushgan odamlarning didlari, manfaatlari, xulq-atvor tarzi va madaniyatining boshqa jihatlarida ro'y beradigan umumiylikda ham o'z ifodasini namoyon qiladi. Shu bilan birga, madaniyat nafaqat hamkorlikni mustahkamlaydi, balki ba'zan turli milliy madaniyatlarga mansublik odamlarni bir-birlaridan ajratib ham qo'yishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Tizim» tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. «Sotsial tizim»ga doir qanday ta'riflar mavjud?
3. «Jamiyatning ostki tizimlari» deganda nimani tushunasiz?
4. «Jamiyatni bir butun, dinamik tarzda rivojlanayotgan tizimli tuzilma», degani nimani anglatadi?
5. Jamiyat strukturasi asosiy komponentlari nimalardan iborat?
6. T.Parsonsnings sotsial tizimlar modellari nimani anglatadi?
7. «An'anaviy jamiyat» va «industrial jamiyat» deganda nimani tushunasiz?
8. Jamiyat qanday turkumlarga bo'linadi?
9. «Axborot jamiyati» deganda nimani tushunasiz?
- 10.«Postmodernistik jamiyat»ning mazmun-mohiyati nimada?

¹³⁷Общая социология:Учеб. пособие / Под общ.ред.проф.А.Г.Эфендиева.-М.: ИНФРА-М,2007.-С.338.

¹³⁸Екадумова И.И.,Мазаник,М.Н.Социология.Ответы на экзаменационные вопросы / И.И.Екадумова,М.Н. Мазаник. -Минск:"ТетраСистемс",2010.-С.60.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016 // Xalq so'zi,2016,6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.,6-son,70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.2017// http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A.Asarlar.1-24 jild.-T.:O'zbekiston,1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr // <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir. //XXI asr,2016,20-oktyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.:O'zbekiston,2017.
9. Асп Э.К.Введение в социологию.Пер. с финск. яз.-СПб:АЛТЕТЭЙЯ, 2000.
10. Бабосов, Е.М.Общая социология: учебно-методическое пособие для студентов вузов / Бабосов Е.М.-3-е изд.-Минск:«ТетраСистемс», 2006.
11. Гэлбрейт К.Дж. Жизнь в наше время.Пер. с англ. О.С.Васильева. -М.: Прогресс,1986.
12. Гидденс Э.Социология.-М.: Эдиториал УРСС,1999.
13. Джери Дж.,Джери Дж.Большой толковый социологический словарь.Том 1.-М.: ВЕЧЕ.АСТ,1999.
14. Дж.К. Гэлбрейт и эволюция американского институционализма. Теория “нового индустриального общества”//http://studme.org/1008062212245/politekonomiya/gelbreyt_evolyutsiya_amerikanskogo_institutsio_nalizma_teoriya_novogo_industrialnogo_obschestva.
15. Екадумова И.И.,Мазаник,М.Н.Социология.Ответы на экзаменационные вопросы.-Минск: «ТетраСистемс»,2010.

16. Елсуков А.Н. Методика преподавания социологии в высшей школе: Учебное пособие.- Минск: «ТетраСистемс», 2003.
17. Исаев Б.А. Социология. Краткий курс.- Санкт-Петербург: Питер, 2007.
18. Кравченко А.И. Социология: учебник.- М.: ТК Велби, Издательство Проспект, 2006.
19. Коос С. Объясняя этическое потребительское поведение в Европе (эмпирические данные по 19 странам) // Экономическая социология. Т. 10.- 2009, № 2.- С. 76.
20. Кули Ч.Х. Общественная организация. изучение углубленного разума. // Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия. / Сост. и отв. ред. Добренчиков В.И., Беленкова Л.П.- М.: Наука, 1994.
21. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.- М: Издательство "Логос". 2004.
22. Нурышев Г.Н., Бразевич Д.С. Социология: Учеб. пособие.- СПб.: СПбГУНиПТ, 2010.
23. Овруцкий А.В.. Феноменология общества потребления // <http://cyberleninka.ru/article/n/fenomenologiya-obschestva-potrebleniya>.
24. Общая социология: Учеб. пособие / Под общ. ред. проф. А.Г. Эфендиева.- М.: ИНФРА-М, 2007.
25. Парсонс Т. Понятие общества: компоненты и их взаимоотношения // <file://category/biblioteka/klassiki-sotsiologii/inostrannye-istochniki/talkott-parsons>.
26. Поппер К. Открытое общество и его враги. // Общая социология. Хрестоматия/ Сост. А.Г. Здравомыслов, Н.И. Лапин; Пер. В.Г. Кузьминов; Под общ. ред. Н.И. Лапина.- М.: Высш. шк., 2006.
27. Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей / Под ред. В.А. Михайлова.- Ульяновск: УлГТУ, 2004.
28. Спектор Р. Убийцы категорий. Революция в розничной торговле и ее влияние на культуру потребления / Пер. с англ.- М.: Добрая книга, 2005.
29. Социология // Ўқув қўлланма./ Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ.- Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
30. Социология. Маърузалар курси./ Алиқориев Н.С., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ.- Т., 2001.
31. Социология // Ўқув қўлланма./ Алиев Б., Рафиқов Ф., Муллажоновна М., Раҳмонов Б. ва бошқ.- Т.: ТДЮИ, 2006.

4-mavzu: SOTSIAL GURUHLAR VA BIRLIKLAR

4.1.Sotsial guruhlar tasnifi.

4.2.Kvaziguruhlar va ularning turlari.

4.3.Guruhiy dinamika va kichik guruh o'lehamlari.

4.4.Guruhiy psixoterapiya, guruhdagi yetakchilik va avtoritet tavsiflari.

4.5.Sotsial birliklar.

Tayanch so'zlar: sotsietal, sotsial guruh, birlamchi guruh, ikkilamchi guruh, kichik guruh, guruhiy o'zaro ta'sir, kvaziguruh, guruhiy dinamika, guruhiy psixoterapiya, sotsiometriya, guruhiy jipslashganlik, guruhdagi yetakchilik, avtoritet, sotsial birlik, milliy-etnik birlik.

Hozirgi davrga kelib jamiyatda rasmiy va norasmiy ravishda paydo bo'ladigan kichik guruhlardagi odamlarning o'zaro aloqalari va munosabatlari barcha gumanitar-ijtimoiy, ayniqsa, sotsiologiya va psixologiya kabi fanlar tomonidan chuqur o'rganila boshlandi. Sotsiologiya fanida sotsial guruhlariga doir turli nazariyalar shakllandi. Bu fanning ba'zi vakillari sotsiometriyada jamiyat bir-birlari bilan doimo o'zaro kesishib turadigan odamlarning turli-tuman guruhlarining ustunlik qilayotgan o'zaro aloqalari va munosabatlari yig'indisidir¹³⁹, deb talqin etadi. Bu talqinda bir millat doirasidagi turli-tuman guruhlarining yig'indisini ifodalaydigan xalq jamiyati to'g'risida so'z ketmoqda.

Lekin, bu kabi yondashuv jamiyatni ta'riflashning muhim komponenti sifatida ijtimoiy aloqalar turlari e'tiborga olinadigan «atomistik» yoki «tarmoqlashgan» («to'rlashib ketgan») birlik ekanligi nuqtai nazaridan qaraydigan konsepsiyalardan farq qiladi. Sotsial guruhlar nazariyasida bu kabi komponent «jamiyat — guruh — shaxs» tizimida oraliq bo'g'in vazifasini bajaradigan insoniy guruhlar hisoblanadi.

Darhaqiqat, insonning tug'ilishi va shakllanishining sotsial mikromuhitini ifodalaydigan sotsial-psixologik tavsiflarni ochib bermasdan turib uning ijtimoiy qaynoq hayotda shaxs sifatida namoyon bo'lishining turli-tuman jihatlarini ilmiy asoslab berish mumkin emas. Shaxs hayotiy faoliyatining aynan ana shunday muhiti sotsial guruhlariga taalluqlidir. Kichik guruhlar o'zida sotsietal mikrotizimni ifodalaganligi uchun turli-tuman sotsial guruhlarining shakllanish va yashash qonunlarini aniqlash butun bir jamiyat miqyosida, shuningdek mikromuhit darajasida ro'y beradigan jarayonlarni ilmiy jihatdan ochib berishga yordam beradi.

¹³⁹Щепаньский Я. Элементарные понятия социологии. -М.:Прогресс,1969.-С.15.

4.1. Sotsial guruhlar tasnifi

Sotsial guruh — bu odamlarning baʼzi faoliyatida umumiy tarzda ishtirok etishiga asoslangan, rasmiy va norasmiy sotsial institutlar tomonidan muvofiqlashtiriladigan aloqalar tizimiga bogʻliq boʻlgan odamlarning birikuvidir. Guruh aʼzolari birmuncha umumiy qadriyatlarga ega boʻlishi bilan ajralib turish prinsiplari asosida boshqa birliklardan ajralib turadi¹⁴⁰. Keltirilgan taʼrifda guruhning paydo boʻlishi uchun ichki uyushuv, maqsad, sotsial nazorat qilishning aniq shakli, faoliyat namunalariga zarurat tugʻilishiga alohida urgʻu berish lozim. Shu bilan birga, guruhlarining uyushuvi ularning maqsadlari va vazifalariga bogʻliq ravishda rasmiy yoki norasmiy boʻlishi mumkin. Odatda, bunga guruhning boshqalardan ajralib turish prinsiplari ham bevosita bogʻliqdir.

Shu bilan birga, guruhlarining rasmiylashtirish darajasining tahlili bilan birga ularni tasniflashni amalga oshirishga zarurat tugʻiladi. Masalan, guruhlar odamga yaqinligi va unga taʼsiri darajasidan kelib chiqib birlamchi va ikkilamchi guruhlariga boʻlinadi.

Birlamchi guruh — bu odatda, kichikroq guruh boʻlib, uning aʼzolari bir-birlarini yoki guruh vakillarining koʻpchiligini biladi va taniydi. Bu kabi guruh oʻz tarkibidagi odamga kuchli taʼsir qila oladi, guruhdagi aloqalar esa qalin va aʼzolar bir-biriga uzviy ravishda bogʻlangan boʻladi.

Ikkilamchi guruh koʻp sonli boʻlib, u oʻzining tarkibiga bir yoki bir necha birlamchi guruhlarini oladi. Bu kabi guruhning individlarga taʼsiri guruh vakilini guruhiy qadriyatlarning qanchalik oʻzlashtirganligiga (oʻziga olganligiga) bogʻliqdir.

Birlamchi guruhlariga misol tariqasida oila, har bir odamning oʻz atrofidagi doʻstlari doirasini keltirish mumkin. Ikkilamchi guruhga talabalar kursidagi jamoani, shaxs aʼzo boʻlgan siyosiy partiyani misol keltirish mumkin.

Sotsiologik tahlillarga binoan, aksariyat birlamchi guruhlar norasmiy, ikkilamchi guruhlar esa rasmiy boʻlishi mumkin. Lekin, bir xilda baholashlar guruhga sotsial tashhis qoʻyishda xatoliklarni kelib chiqishiga sabab boʻlishi mumkin. Masalan, oʻquv kursidagi bir talabaning doʻsti birlamchi guruhga taalluqli boʻlishi bilan birga, bir vaqtning oʻzida rasmiy guruh aʼzosi ham boʻlishi mumkin. Bu belgilar asosan quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, aʼzolar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirlar usuli: «guruh aʼzosi guruhga kirmagan «begona» odam bilan oʻziga aʼzodosh odamga nisbatan

¹⁴⁰Донцов А.И. Проблема групповой сплоченности.-М.:Наука,1986.-С.16.

bo'lgani kabi qalin munosabatda bo'lmashligi lozim. Bu, ayniqsa, o'zaro raqobatdagi guruhlar a'zolariga ko'proq taalluqlidir».

Ikkinchidan, guruhga a'zolik unga mansublik tuyg'ularini belgilab beradi. Bu ko'pincha qandaydir tashqi timsollar bilan kuchayib boradi. Masalan, «metallsozlar»ning kiyim-boshlarida uzoqdan ko'zga tashlanib turadigan temir zanjirlar, nishonlar, qadama-to'qalar kabilarni ko'rish mumkin. Bu timsoliy belgi sifatida namoyon bo'lib, u kasbdoshlarning ruhiy birdamlik omili bilan bir vaqtda «begonalar» ko'zida metallsozlarni aynanlashuvining qo'shimcha belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, barcha sotsial guruhlar uchun xos va umumiy bo'lgan ko'rsatkichlardan tashqari muayyan guruh sinfini aniqlaydigan tavsiflarni o'zida ifodalaydigan o'ziga xos belgilar ham mavjud bo'ladi.

Guruhlarni tasniflash odatda tahlilning predmet sohasiga, ya'ni ma'lum guruhiy birikmaning barqarorligini tavsiflovchi asosiy belgi sifatida ajralib turadigan jihatlariga asoslanadi. Sotsiologik tadqiqotlarda guruhlarni tasniflashning turli talqinlari uchraydi. AQSh sotsiologi *E.Yubenk* o'z mamlakatidagi ilmiy adabiyotlardagi guruhlarni tasniflashga doir ma'lumotlarni tahlil etib, ularni umumlashtiradi. Uning fikricha, metodologik va metodik jihatlardan tasniflash o'zida tadqiqotchi tomonidan (ma'lum darajada) bir xil xususiyat kasb etadigan sotsial guruhlarni statistik bir butunlik (universum) ichidan ajratib olinishi demakdir. Darhaqiqat, tasniflashni «bir xil turdagi predmetga xos bo'lgan va boshqa predmetlardan farq qiladigan jiddiy va muhim belgilariga tegishli ravishda predmetlarni sinflarga taqsimlash» sifatida talqin etish mumkin. Bunda har bir sinf o'rganilayotgan tizimda muayyan joyni egallaydi, va o'z navbatida, u katta sotsial guruhlar ichida bir-biridan ajratish mumkin bo'lgan ostki sinf va ostki guruhlarga bo'linadi¹⁴¹.

Yubenk tomonidan amalga oshirilgan tahlillar unga guruhlarni tasniflashning yettita asosiy belgilarini ishlab chiqishiga imkoniyat yaratdi:

- etnik yoki irqiy mansubligi asosida;
- madaniy rivojlanish darajasi asosida;
- guruhda mavjud bo'lgan struktura turi asosida;
- guruhning yirikroq birlikda bajarayotgan vazifalari va funksiyalari asosida;
- guruhlar a'zolari o'rtasida ustun bo'lgan muloqotlar turi asosida;
- guruhda mavjud bo'lgan aloqalarning turli ko'rinishlari asosida;
- boshqa prinsiplar asosida.

¹⁴¹Кричевский Р.Л., Дубовская Е.М. Психология малой группы. - М.: Мысль, 1991. - С.19.

Kichik guruhlar. Tasniflashni asoslash faqat guruhlarning yashirin maqsadlarini qandayligini aniqlashga bog'liqdir. Tadqiqot manfaatlari turli-tuman ekanligi uchun sotsial guruhlarini tasniflashni asoslashni ilmiy bisotdagi har qanday tavsiflar bilan ham amalga oshirib bo'lmaydi. Lekin, reprezentativ¹⁴² guruhlarini tasniflash zaruriyati o'ta dolzarb vazifalardan biridir. Bu kabi turga «kichik guruhlar» kiradi.

Yer yuzida yashayotgan har bir odam bir vaqtning o'zida bir emas, balki bir necha kichik guruhlariga mansubdir. Shuning uchun ham kichik guruh noyob hodisa sifatida barchaning diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi. So'z bu hodisaning faqat miqdoriy ko'rsatkichlari to'g'risida emas, balki guruh o'zining a'zosiga ta'sir qiladigan sotsial kuchiga bog'liq ekanligi to'g'risida ketmoqda. Kichik guruhni aniq maqsadga qaratilgan tarzda bir-biriga bog'langan psixologik jihatdan birlashgan sotsial hujayra, deyish mumkin. Guruhning belgisi, avvalambor, bu guruhning bir qismining o'zgarishi uning qolgan barcha qismlari holatini o'zgarishiga olib kelishidir.

Kichik guruhning asosiy xususiyatlari ichidan quyidagilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-guruhni tashkil etgan individlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aloqalar, shaxslararo o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirlarning mavjudligi;

-umumiy maqsadar, umumiy faoliyat va tuyg'ular umumiy kechinmalarining mavjudligi;

-guruh ichida funksiyalar va sotsial rollarning taqsimlanganligi;

,-manfaatlar, sotsial me'yorlar, rasm-rusumlar, odatlar va xulqlarning umumiyliigi;

-makondagi muayyan chegaralanganlik va zamondagi barqarorlik.

Guruhiy o'zaro ta'sirlarning shaxsiylik xususiyatlari determinant guruhiy dinamika¹⁴³ uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik guruh o'zida bir butun sotsial tizimni ifodalashiga qaramasdan, guruhning har bir a'zosi u yoki bu darajada ichki guruhiy munosabatlarga ta'sir etadi - uning yanada uyg'unlashuvi uchun, yoki, aksincha, sotsial uyg'unlikning buzilishi va turli nizolarni kelib chiqishi uchun imkoniyatlar yaratib berishi mumkin. Uyg'unlikning buzilishi yoki nizolar guruhning inqirozini rag'batlantirishi mumkin. Har bir odam turli sotsial maqomlarni egallagani holda bir vaqtning o'zida ko'plab rasmiy va norasmiy guruhlariga kiradi: guruh yetakchisidan boshlab to uning oddiy a'zosi bo'lishgacha. Shu

¹⁴²Reprezentant - [fr. repr&entant] - vakil; Reprezentativ - vakillik, vakillikka oid.

¹⁴³Dinamika - [yunon. dynamikos kuchga taalluqli, kuchli] - 1)harakatning holati, rivojlanishning borishi, qandaydir hodisaning turli omillar ta'sirida o'zgarishi (statikaning aksinchasi); 2)harakat va ta'sirlarning ko'pligi.

tarzda, bitta olingan odamning o'zi turli guruhlarda har xil funksiyalar va rollarni bajarishi mumkin. Ya'ni, biron-bir guruhda shaxs va uning namunasi, maqsadli ko'rsatmasi sifatida tavsiflanishi mumkin.

Guruhiy o'zaro ta'sirlar shaxs hayot faoliyatining butun bir tizimini o'ziga qamrab oladi. Biz birorta guruhga sotsial burch, majburiyat bo'yicha, shuningdek o'zimizning moddiy ehtiyojlarimizni ta'minlash imkoniyatlariga ega bo'lish bo'yicha kiramiz. Yana boshqa guruhga esa — o'zimizning hissiyotli va ma'naviy manfaatlarimizni qondirish uchun ma'naviy, intellektual idrok etishimizni kengaytirish uchun kiramiz. Ana shu sotsial guruhlarining jamiyat va inson hayotiy faoliyatidagi keng qamrovchilik roli ularni ilmiy tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojlarni yanada rag'batlantiradi.

AQSh sotsiologi *T. M. Millz* kichik guruhlarni o'rganishning to'rtta yo'nalishini bir-biridan ajratgan holda ko'rsatib berdi:

Pragmatik yo'nalish. Guruh ichida yuz berayotgan jarayonlar birlikning tarixi uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi, ularning dinamikasi esa odamlarning hayot tarzi va turmushiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, siyosiy yetakchilar guruhi millatni mamlakat sotsial-iqtisodiy yo'lini o'zgartirishga safarbar eta olishi mumkin.

Sotsial-psixologik yo'nalish. Kichik guruh o'zida individ doimiy ravishda mavjud bo'lib turadigan sotsial va individual bosimlarning to'qnashuvi maydonini ifodalaydi. Shuning uchun kichik guruh bu kabi o'zaro ta'sirlar xususiyatlari ustidan kuzatish uchun qulay obyektidir. Ilmiy tahlillar bu kabi mexanizmning umumiy qonunlarini aniqlashga imkoniyatlar yaratib beradi. Demak, guruhiy xulqning belgilari va xususiyatlarini oldindan ko'rish imkoniyatlari mavjud.

Sotsiologik yo'nalish. Bu yo'nalish ilmiy metodologiya, nazariyalar va empirik tahlil usullari asosida kichik guruhlarda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalarni bilish vazifasini bevosita amalga oshirishga qaratilgan. Ilmiy tadqiqotlar doirasida sotsial voqelikda yuz berayotgan o'zgarishlarga muvofiq bo'lgan yangi konsepsiyalar masalalari yechiladi.

To'rtinchi yo'nalish yanada jozibali hodisalarni o'rganishga qaratilgan. Kichik guruhlarining o'zi sotsial tizimning alohida turi — mikrotizimni ifoda etadi. Ularda barcha sotsietal sifatlar muayyan chegarada kichiklashgan tarzda ifodalangan: yetakchilik, mehnat taqsimoti, timsollar tizimi, o'zaro ta'sirlar usullari, nufuz ierarxiyasi, mafkura, afsonalar, an'analar va boshq. Shuning uchun kichik guruhlarni o'rganish tajribasi jamiyatning nazariy modelini qurish imkonini beradi.

Kichik guruhlariga doir ta'limot asoschisi AQSh sotsiologi *Ch.X Kuli* hisoblanadi. U XX asr boshida sotsiologiyaga «birlamchi guruh»

tushunchasini kiritdi. Uning konsepsiyasi hozirgi davrga qadar kichik guruhlarni tahlil etishning klassik nazariy asosi hisoblanadi. U kichik guruhni o'z ostida «yuzma-yuz» tarzda qalin va eng ichki dilkash aloqalarni ifodalaydigan birlamchi guruh, deb tasnifladi.

AQSh sotsiologi *E. Shilz* (1911) kichik guruhlarning uchta turini ajratib ko'rsatdi. Mustahkam, uzoq yillar ichidagi aloqalar va an'analarga ega bo'lgan «*dastlabki boshlang'ich guruhlar*». Bu guruhlarga individ o'zining xohish-e'tiboridan qat'iy nazar mansub bo'lishga majburdir. Unga misol tariqasida oilani keltirish mumkin. «*Shaxsiy guruhlar*» o'zaro bir-birlarini xush ko'rishga asoslangan do'stlar guruhi hisoblanadi. Bu kabi guruhlar odamlarni birlashtirishga bo'lgan shaxsiy ehtiyojlar asosida tuziladi. «*Mafkuraviy guruhlar*» odamlarni umumiy qadriyatlar asosida birlashtiradi. Shu tariqa, kichik guruhlar birlashish uchun turli asoslarga ega bo'lsada, bu guruhlarga mansub bo'lganlar a'zolarining o'zlari umumiy maqsadlarni amalga oshirish, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash uchun ularning faoliyatida albatta ishtirok etishlari lozim.

Bu kichik dastlabki guruhlarga doir tushuncha g'arb sotsiologiyasida umum e'tirof etilgan tushuncha hisoblanadi va undan turli ilmiy tadqiqotlarda keng foydalaniladi. Kichik guruhlarni mazmuniy jihatlarni tasniflash taniqli sotsiolog *M. Shouning* «Guruhiy dinamika» asarida keng ta'riflangan. M. Shou barcha kichik sotsial guruhlarga doir ta'riflarni tahlil etib, ularni quyidagi asoslar bo'yicha tasniflab berdi¹⁴⁴:

- aloxida olingan sheriklar va bir butun guruhni guruh a'zolari tomonidan idrok etishi nuqtai nazaridan;
- guruh a'zolarining motivatsiyasi nuqtai nazaridan;
- guruhiy maqsadlar nuqtai nazaridan;
- guruhlarning tashkiliy (strukturaviy) tavsiflari nuqtai nazaridan;
- a'zolarining bir-birlariga o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan;
- guruh a'zolarining o'zaro ta'sirlari nuqtai nazaridan.

4.2. Kvaziguruhlar va ularning turlari

Sotsiolog olimlar ommaviy va guruhiy birliklar bilan bir qatorda yana *kvaziguruhlar*¹⁴⁵, deb nomlanadigan qator guruhlarni ajratib ko'rsatib berdi. Odatda, ular oldindan rejalaniib va mo'ljallanib tuzilmaydi, balki tasodifan vujudga keladi, ularda barqaror ravishdagi biron-bir narsani

¹⁴⁴Донцов А.И. Проблема групповой сплоченности.-М.:Наука,1986.-С.16.

¹⁴⁵Kvazi...- [lot. quasi go'yoki shunday, nahotki shunday (hayoliy, tagi tugi yo'q)] – hayoliy fikrga asoslangan so'zlariga tegishli old qo'shimcha, masalan: kvaziilmiy, kvaziolim.

kutish umidlari bo'lmaydi, bu kabi guruhdagi o'zaro aloqalar esa bir tomonlama bo'ladi (masalan, faqat suhbatlardan iborat bo'lib, harakatning boshqa ko'rinishlari sodir bo'lmaydi). Bu kabi guruhlar ichidagi a'zolar o'rtasida muntazam aloqalarning borishi bilan bir vaqtda sotsial nazorat darajasi o'sib borsa, bu kabi kvaziguruhlar sotsial guruhlariga aylanishi mumkin.

Kvaziguruhlar quyidagi ajralib turadigan o'z belgilariga egadir: tuzilishining o'z-o'zidan yuz berishi; guruh ichidagi o'zaro aloqalarning barqaror emasligi; o'zaro aloqalarda turli-tumanlikning yetishmasligi, yoki aloqalarning bir yo'nalishli ekanligi; hamkorlikdagi xatti-harakatlarning faqat qisqa vaqt davom etishi.

Kvaziguruhlar uzoq yashamaydi: boshqa shakllardagi birlikka aylanib ketishi mumkin, yoki tarqalib ketadi, yoki sotsial guruh darajasiga o'sib chiqishi mumkin. Kvazigruhlarning uchta turi mavjud: auditoriya, olomon va sotsial davra (doira).

Auditoriya axborotlarga ega bo'lgan va ularni mazkur birlikka yetkazadigan kommunikator (indivud yoki guruh shaklidagi) bilan o'zaro aloqa va ta'sirlarda birlashgan odamlarning birligidir. Auditoriya kommunikator bilan o'zaro aloqalarni bevosita amalga oshirishi mumkin (masalan, ko'cha notig'ini tinglashi, savdo markazida ish boshqaruvchining e'lonlarini eshitib borishi), shuningdek bilvosita, ya'ni OAV vositasida amalga paydo bo'lishi mumkin.

Auditoriyaning o'ziga xos belgilaridan biri — bu deyarli bir tomonlama aloqalarning mavjudligi, auditoriya yiriklashib borgani sayin kommunikator bilan teskari aloqalarning sustlashib borishi hisoblanadi. Har qanday auditoriya o'zining alohida a'zolarining axborotlarni o'zlashtirish idroki imkonidan kelib chiqib boshqa birlik bilan o'zaro aloqaga kirishib qolsa, fikrlar o'zaro almasha boshlasa, u ana shu boshqa birlikka kirishga moyil bo'ladi. Bu kabi ajralib chiqqan birlikka qandaydir hodisalar to'g'risidagi umumiy fikrlar o'zaro aloqalar qilishiga imkoniyat yaratadi va *ular sotsial davralar*, deb nomlanadi.

Inson o'zining kundalik hayotida auditoriyalar bilan tez-tez to'qnashib turadi. Biz ma'ruza zallarida notiqning fikrlarini eshitamizmi, gazeta o'qiyamizmi yoki radio tinglaymizmi — bu kabi holatlarda biz turli xildagi auditoriyalar a'zosiga aylanib boramiz.

Olomon yopiq tabiiy kengliklarda manfaatlar umumiyliги asosida birlashgan odamlarning to'planishidir. Olomon va uning turli belgilari Fransiya sotsiologlari — *G.Tard* va *G.Lebon*, Italiya sotsiologi *S.Sigele*, rus sotsiologi *N.Mixaylovskiy* kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Olomonning sotsial strukturasi boshqa birliklarda bo'lganidek guruh

yetakchisi va a'zolari kabi bo'linishga nisbatan murakkabroq tus olishi mumkin. Olomon individlarning sodda agregatsiyasiga qaraganda mujmalroq hodisa hisoblanadi. *G.Tardning* fikricha, olomonda odamlar shaxslararo aloqalardan uzoqlashishga intilgan taqdirda ham maydondagi chegaralangan kengliklar o'zaro sotsial ta'sirlarga olib kelishi mumkin¹⁴⁶.

Olomon ishtirokchisining o'z atrofidagi boshqa odamlar ishtirokini anglashi ko'zga ko'rinmas tarzda ro'y bersada, ko'zlar to'qnashuviziz aloqalarga asoslangan, yuzdagi imo-ishoralar, kinoyali xatti-harakatlar, va hattoki, kiyinish tarzlari o'zaro almashuvlarning boy taassurotlarini beradi. Olomonlar o'z temperamenti va xulqlari bo'yicha bir-birlaridan kuchli farqlanadi. Bir turdagi olomon qisqa fursat ichida boshqa turdagi olomonga aylanishi mumkin. Masalan, «biror narsaga bog'liq holda to'plangan olomon» — jazavali to'daga aylanib ketishi mumkin. Lekin, shunga qaramay, olomonlar undagi odamlar xulqlarining psixologik xususiyatlariga bog'liq ravishda muayyan umumiy tavsiflarga egadir. *G.Tardning* fikricha, har qanday olomon irratsional¹⁴⁷ va yengil-yelpi ishonishga moyildir. U aynan bir xil harakatlarni, baqiriq-chaqiriqlarni takrorlab turadi, mayda va izzattalab hislarga beriladi. Olomonni tanqid qilib yoki unga oqilona tarzda murojaat qilib bo'lmaydi. Olomon o'ziga yoqish uddasidan chiqmagan har qanday aralashuvlarni baqiriqlar, guvillash va yer tepishlar bilan rad qiladi. Katta olomon tarkibi kimlardan iborat bo'lmasin, unga bari-bir, u o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini yo'qotadi, fikrlamaydi va his qilish qobiliyatini yo'qotadi. *G.Tardning* fikricha, bunday vaziyatda olomondagi turli kasblarga mansub bo'lganlar bir-biridan deyarli farqlanmay qoladi, hamma bir xil hissiyotga beriladi, ya'ni, olomon odamning individualligini bo'shashtirib va yo'q qilib avtomat-odamga aylantaradi.

Shu tariqa, olomon ichidagi odamlar tashqaridagi odamlarga qaraganda o'z ichidagi odamlar fikrini, tuyg'ularini va harakatlarini qabul qilishga moyil va ularga ishonuvchan bo'ladi. Shu bilan birga, olomon ichida xulqning o'z-o'zidan harakat qilish tarziga moyillik kuchayadi, odamlar o'z xatta-harakati to'g'risida o'ylamaydi, ya'ni ularning xulqini faqat his-tuyg'ular boshqaradi.

Olomon ko'pincha bir butun holda harakat qiladi, uning a'zolari bir-biridan ajralib turmaydi, ular o'zlarini alohida individ sifatida qabul

¹⁴⁶Нурьшев Г.Н., Бразевич Д.С. Социология: Учеб. пособие. - СПб.: СПбГУН и ПТ, 2010. - С. 122.

¹⁴⁷Irratsional - [lot. irrationalis aqlsiz, bema'ni] — idealistik falsafada — tavsiflab va tushuntirib bo'lmaydigan, tushunishga erishib bo'lmaydigan mantiqiy tushunchalar va mulohazalar.

qilmay qo'yadi, o'z ahamiyatini esdan chiqaradi va olomon ichida o'zini o'zi tanimay qo'yadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, olomon his-tuyg'uga berilganlik, o'z-o'zidan paydo bo'lish, ishonuvchanlik, yashirinlik, benuqsonlik va yaqinlashib bo'lmaydigan kabi psixologik tavsiflarga egadir.

Sotsiologiyada olomon xulqining shakllanish usullariga bog'liq holda quyidagi turkumlash qabul qilingan:

Tasodifiy olomon ko'proq mavhum strukturaga ega bo'ladi. Unga ko'chada favqulodda hodisalar yuz bergan paytlardagi odamlarning oddiy yig'ilishlarini (yo'l-transport hodisasi va boshq.) misol keltirish mumkin. Bu turda olomonda odamlarni arzimas maqsadlar yoki umuman maqsadsiz bo'lgan vaqtni birga o'tkazishga qiziqishlar birlashtiradi. Bunda individlarning his-tuyg'ulari sust bo'lib, ular erkin ravishda olomondan chiqib ketishi mumkin.

O'zaro bog'langan olomon — oldindan rejalashgan va nisbatan strukturalashgan odamlarning to'planishidir. Bunda olomon shuning uchun ham «o'zaro bog'langanki», uning a'zolarining xulqi muayyan, oldindan o'rnatilgan sotsial me'yorlar ta'siri ostida bo'ladi. Masalan, tomoshaga to'plangan olomon o'zini teatrdagi boshqacha, stadionda boshqacha va yig'inlarda boshqacha — ya'ni har xil tarzda tutadi.

Ekspressiv olomon — bu alohida kvaziguruh bo'lib, u odatda o'z a'zolarining ko'ngil ochishi uchun tashkil topadi. Bunda faollik o'z-o'zidan maqsad va natija sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, raqs tushish, diniy yig'inlar, festivallar va boshq.

Ta'sir qiluvchi olomon. Bunda «ta'sir qiluvchi» iborasi olomon xatti-harakatining butun bir majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu quturgan to'da yoki xulqning ekstremal¹⁴⁸ turiga mansub birlikning boshqacharoq shakllaridan biri hisoblanadi. Sotsial jarayonlarni tadqiq etishda ta'sir qiluvchi olomonga boshqalariga nisbatan ko'proq ahamiyat qaratiladi.

To'da — his-tuyg'usi jazavaga tushgan olomon bo'lib, u kuch ishlatish xatti-harakatlarini amalga oshirishga moyil bo'ladi. To'da odatda o'zining bir yo'nalishlik agressiv niyatlari mavjud bo'lgan va barcha a'zolardan jiddiy konformizmni¹⁴⁹ talab qiluvchi o'z yetakchilariga ega bo'ladi. To'da harakati ma'lum bir obyektga yo'nalgan bo'ladi va qisqa muddatli tarzda ro'y beradi, so'ngra tezda tarqalib ketadi.

¹⁴⁸Ekstremal — ashaddiy, eng keskin, haddan tashqari, avjiga chiqqan.

¹⁴⁹Konformizm - [lot. conformis o'xshash, bir xil] — zamonasozlik, mavjud tartibotlar, hukmron fikrlarni passiv ravishda qabul qilish, moslashuvchilik, o'zining shaxsiy nuqtai nazari va prinsiplari yo'q odamlarga nisbatan ishlatiladigan tushuncha.

Isyonchi olomon — to‘dadan farq qilib, isyon paytida odamlarning xulqi kamroq strukturalashgan, maqsadga yo‘nalgan va uncha barqaror bo‘lmagan guruh sifatida o‘zini namoyon qiladi. Bu olomon o‘z maqsadlariga ega bo‘lgan, lekin, tang lahzalarda yig‘in shaklida harakat qiladigan tavsiflarga egadir. Bu kabi olomon tashqaridan bo‘ladigan turli favqulodda ta’sirlarga beriluvchan bo‘lib, ko‘pincha uning xatti-harakatini oldindan bashorat qilib bo‘lmaydi¹⁵⁰.

Sotsial davralar (doiralalar). Kvaziguruhlar ichida barqaror sotsial guruhlariga sotsial davralar yaqinroq keladi. Polsha olimi *Ya.Shepanskiyning* ko‘rsatishicha, sotsial davralar a‘zolari o‘rtasida barqaror aloqalar bo‘lmaydigan va o‘zaro muloqotlarda juda ham kuchsiz aloqalarga asoslanadigan erkin ittifoqlardir.

Sotsial davralarning muhim belgisi — bu guruhda o‘zaro ta’sirlar asosan axborot almashuvlariga qaratilgan bo‘lishidir. Shuning uchun ham sotsial davralarda qandaydir umumiy maqsadlar bo‘lmaydi, birgalikda zo‘r berishlar va ijro qilish organlari uchramaydi. Uning asosiy funksiyasi turli qarashlar, yangiliklar, sharhlashlar va dalillarni o‘zaro almashishdan iborat bo‘ladi. O‘zaro ta’sirlarning tor yo‘nalishliligi, faollikning yo‘qligi, birlikka erishmaganlik sotsial davralarni beqaror birlashma bo‘lishini taqozo etadi. Uni tashkil etadigan individlar ikkita mezon bo‘yicha ma‘lum tanlovlardan o‘tadi: 1)munozaralar mavzusiga nisbatan umumiy manfaatlarining mavjudligi (to‘garaklar, futbol ishqibozlari davrasi va boshq.). 2)muayyan bir submadaniyatga mansublik (masalan, ishbilarmonlar doirasi, oliy tabaqaga mansublar davrasi va boshq.).

Shuningdek, *Ya.Shepanskiy* quyidagi sotsial davralarni bir-biridan ajratib ko‘rsatadi: kontakt guruhlari; yuqori malakali kasbdoshlar (professionallar) davrasi; do‘stlik davralari (masalan turli «gap»lar); maqomli sotsial davralar (nafaqadorlar, ayollar va boshq.);

Shu tariqa, kvaziguruhlarni barqaror sotsial guruhlariga o‘tayotgan (yoki o‘tishi mumkin bo‘lgan) tuzilmalar sifatida tavsiflash mumkin. Bu kabi o‘tish davrida sotsial nazorat kuchayib boradi.

Individlarning guruhga mansublik belgisidan kelib chiqilgan holda ular *inguruh* va *autguruhlariga* bo‘linadi. Har bir individ o‘zi mansub bo‘lgan va «biz» sifatida ifodalaydigan guruhdagi qandaydir ko‘pchilik ichiga kiradi. Bular «mening oilam», «mening kasbdosh guruhim», «mening sinfim», «mening shirkatim» qabilida bo‘lishi mumkin. Bu kabi guruhlar *inguruhlar* hisoblanadi, ya’ni, odam o‘zini o‘zi aynanlashtiradigan

¹⁵⁰Нурьшев Г.Н.,Бразевич Д.С.Социология:Учеб.пособие.-СПб.:СПбГУНИ ПТ,2010.-С.123-124.

mansublikni his etadi, jamoaviy «biz»ni chuqur anglaydi. Individ mansub bo'lmaydigan boshqa guruhlar (boshqa oilalar, begona do'stona guruhlar, boshqa diniy guruhlar va boshq.) «biz emas» va «boshqalar» kabi timsoliy ahamiyat kasb etgani uchun *autguruh* deb ataladi.

Hozirgi zamonaviy jamiyatlarda odamlar o'rtasidagi munosabatlar aloqalarning turli ko'rinishlari asosida qurilgan bo'lsada, inguruh tuyg'usi, uning a'zolarini boshqalar ichidan izlash har bir inson uchun muhim ahamiyat kasb etishi o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Individ notanish odamlar ichiga kirib qolsa, u dastavval, o'ziga o'xshash manfaatlar va qarashlarga ega bo'lgan sotsial qatlam yoki guruh vakillarining bor-yo'g'ligiga o'z diqqatini qaratadi. Ko'rinib turibdiki, odamlarning inguruhga mansub belgilaridan biri — bu ularning muayyan fikrlari va tuyg'ularini o'zaro baham ko'rishdan iborat bo'lib, bu fazilat hayotiy maqsadlarga erishishdagi faollik sohalorida nisbatan birdamlikning kuchli namoyon bo'lishini isbotlaydi¹⁵¹.

Kichik guruh ichidagi hissiyotli-bevosita aloqalarni tadqiq etishning samarali uslublaridan biri *sotsiometriyadir*. «Sotsiometriya» iborasi lotincha “societas” — jamiyat va yunoncha «metrum» — «o'lchayman» yoki «belgilaydi» so'zlaridan kelib chiqdi. Sotsiometriya, bir tomondan, guruh ichidagi simpatiya va antipatiyani¹⁵² o'rganishga urg'u bergan holda miqdoriy usullar bilan kichik guruhlardagi shaxslararo aloqalarni o'rganadigan sotsial psixologiya va sotsiologiyaning sohasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u o'z ichiga amaliy vazifalarni yechish uchun foydalaniladigan vositalarni takomillashtirish va ishlatishga qaratilgan amaliy yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi.

Sotsiometrik testlar hissiyotli aloqalarni, ya'ni, guruh a'zolari o'rtasidagi simpatiyalar va antipatiyalarni tashhishlash uchun mo'ljallandi. Agar yanada aniqlashtiriladigan bo'lsa, unda sotsiometrik tadqiqotlar uch xil tadqiqotni amalga oshirishga qaratildi:

a)guruhdagi jiplashganlik — guruh a'zolarini o'zaro bir-biridan ajralib qolish darajasini o'lchaydi;

b)«sotsiometrik vaziyatlarni», ya'ni, oxirgi qutblarda guruh «yetakchisi» va «rad etilgan» sxemasida joylashuvlar yuz beradigan — guruh a'zolarining avtoritetini aniqlash vositasidir;

v)guruh ichidagi ostki tizimlarni — boshida o'zining «norasmiy yetakchisi»ga ega bo'lgan jiplashgan kichik tuzilmani topish.

¹⁵¹ O'sha joyda. -B.128-129.

¹⁵² Antipatiya - [yunon. antipatheia] — yoqtirmaslik hissiyoti, moyil emaslik; simpatiya-ning aksinchasi.

Bu usul yordamida guruhning alohida a'zolarining e'tirof etiladigan — e'tirof etilmaydigan shaxslar sifatida baholash, jamoaviy faoliyat sharoitida odamlarning sotsial xulqini turkumlanishini o'rganish, guruhning norasmiy strukturasi bilish, guruh a'zolarining sotsial-psixologik jihatlardan bir-birlariga mosligini aniqlash mumkin.

Sotsiometriya asoschisi taniqli sotsiolog va psixolog Jakob Moreno hisoblanadi. XX asrning 30-yillarida u «sotsiometriya» iborasini fanga kiritdi. Moreno tashabbusi bilan “Sotsiometriya” jurnali ta'sis etildi. Bu jurnal 1956-yildan boshlab AQSh sotsiologlari jamiyatining rasmiy organiga aylandi.

Bolgariya olimi L. Desev siotsiometrik uslublar asosidagi tadqiqotlarni uchga ajratadi:

a) harakatdagi guruhlarini tadqiq etgan dinamik, yoki “inqilobiy sotsiometriya” (vakillari — *J. L. Moreno, E. X. Jennings*);

b) sotsial guruhlarini tasniflash bilan shug'ullanadigan tashhis qo'yish sotsiometriyasi (vakillari — *J. X. Krisuell, J. A. Landberg, U. Bronfenorener, M. L. Nortuey, M. E. Bonney, L. D. Zeleni, Ch. P. Lumis, F. Chepin, E. Bogardus* va boshq.);

v) matematik sotsiometriya (vakillari — *P. Lazarsfeld, S. Ch. Dodd, L. Kats, D. Styuart* va boshq.).

Sotsiometrik tadqiqotlar olib borishning ishonchli bo'lishining muhim sharti quyidagi *qoidalarga* amal qilinishiga bog'liqdir:

-tadqiq etilyotgan guruh chegaralari aniq belgilangan bo'lishi lozim;

-guruh hamkorlikda faoliyat yuritishning muayyan tajribasiga ega bo'lishi lozim;

-guruh a'zolari bilan so'rovlar o'tkazishni mazkur guruhga begona bo'lgan odam amalga oshirishi lozim;

-guruh a'zolarining barcha tanlovlari mustaqil ravishda amalga oshishi lozim;

-savollar shunday shakllantirilishi kerakki, u barcha tushunadigan bo'lsin.

Sotsiometrik anketalarning o'ziga xos belgisi — javob beruvchining ismi va sharifi bo'lishi talab etiladi¹⁵³. Sotsiometrik tadqiqotlarda axborot yig'ishning texnik vositalaridan keng foydalaniladi va tadqiqot sir tutiladi. Olingan sotsiometrik ma'lumotlarga ishlov berish va ularni taqdim etish sotsiometriya hamda sotsiogrammalarni tuzishni, sotsiometrik indekslarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Sotsiometriya o'zida jadvallarni ifodalab, unga o'rganilayotgan barcha guruh a'zolari tomonidan qo'yilgan ijobiy

¹⁵³Социометрия как метод изучения малых групп//http://studme.org/1356061525107/psihologiya/sotsiometriya_kak_metod_izucheniya_malyh_grupp.

va salbiy belgilar (tanlovlar) kiritiladi. Shaʼslararo aloqalarning tavsifi sotsiogrammada yaqqol koʻrinib turadi. *Sotsiogramma* — maxsus jadvaldan iborat boʻlib, unda sotsiometrik usullar yordamida amalga oshirilgan tadqiqotlarda namoyon boʻlgan oʻzaro aloqalar, oʻzaro va bir tomonlama tanlovlar va rad etishlarning bir butun manzarasi tasvirlanadi.

4.3. Guruhiy dinamika va kichik guruh oʻlchamlari

Sotsiologiya va psixologiya fanlarida guruhiy dinamika tushunchasining turlicha talqinlari uchraydi. Taniqli olimlar *M.A. Rober* va *F. Telman* tomonidan yozilgan «Individ va guruhlar psixologiyasi» kitobida *guruhiy dinamika* aniq individlarning oʻzaro taʼsirlari vositasida ular ichidagi tangliklarni kamaytiradigan yoki ularning oʻzaro qoniqishlarga (mutanosibliklarga) olib keladigan jarayonlar sifatida talqin etiladi. Ularning fikricha, bu jarayon quyidagilarni anglatadi:

(a) individning guruhga mansubligini, guruh va guruh aʼzolikning jozibadorligini;

(b) stixiyali tuzilma yoki norasmiy guruhni;

(v) guruhda «yoqimtoy arzandalar» rollarining paydo boʻlganligini.

Taniqdi bolgar olimi L. Desevning yozishicha, hozirgi davr sotsial psixologiyasida «guruhiy dinamika» guruhdagi kuchlar harakatining natijasidagi *oʻzgarishlarga* va guruhda insoniy aloqalarning rivojlanishiga tegishli boʻlgan tushunchadir.

Guruhiy dinamikani tushunish bu kuchlarni oʻrganishni, yaʼni ularning qanday paydo boʻlganligini, nimalar taʼsirida modifikatsiyalashuvini¹⁵⁴, ular harakatining oqibatlarini oʻrganishda talab etadi. Kichik guruhlar nazariyasi va uning sotsial texnologiyadagi yoʻnalish (sotsiopsixologik bilimlardan amaliy foydalanish sohasi) sifatida rivojlanishi bevosita taniqli olim *K. Levin* nomi bilan bogʻliqdir. Dastlab «guruhiy dinamika» iborasi 1939-yilda AQSHdagi «Garvard pedagogik obzor» jurnalida eʼlon qilingan *K. Levinning* «Sotsial kenglikdagi eksperimentlar» nomli maqolasida tilga olingan. Bu maqolada *K. Levin* «guruhning har bir aʼzosi oʻzining guruhdagi boshqa aʼzolarga bogʻliq (qaram) ekanligini tan oladi», degan xulosaga keladi. *K. Levinning* fikricha, «guruhiy dinamika» — bu guruhda harakat qilayotgan ijobiy va salbiy kuchlarni oʻrganadigan fan yoʻnalishidir.

1945-yilda Massachuset texnologiya institutida guruhiy dinamikani tadqiq etish markazi tashkil etildi. Uning vazifasi nafaqat guruhiy dinamika

¹⁵⁴Modifikatsiya - [fran. modification < lot. modificatio] - hodisalar va yana nimalarnidir oʻz shaklini oʻzgartirishi natijasida ularning yangi xossa va xususiyatlarining paydo boʻlishi.

qonuniyatlarini o'rganish va ularni nazariy umumlashtirish, balki guruhlar hayotini o'zgartirish usullarini rivojlantirish, deb belgilandi.

Guruhiy dinamika prinsiplarini tavsiflashda K. Levin geshtalt-psixologiya qonunlariga tayandi. Agar guruhga bir butunlik sifatida qaralsa, K. Levin tomonidan ochib berilgan guruhiy dinamikaning qonuniyatlarini aslida ikkita geshtalt-psixologiyaning asosiy qonuni harakati asosida talqin etish mumkin:

(1) *Bir butunlik o'zining qismlari ustidan ustunlik qiladi:*

- guruh — bu oddiy individlar jamlanmasi emas: u o'zining a'zolari xulqini modifikatsiyalaydi;

- guruhning alohida olingan a'zosi xulqiga nisbatan guruhning barcha a'zolari xulqiga tashqaridan ta'sir qilish yengilroq kechadi;

- har bir guruh a'zosi o'zini boshqa a'zolarga bog'liq ekanligini tan oladi.

(2) *Alohida unsurlar bir butunlikka birlashadi:*

- guruhning shakllanishi uchun asos a'zolarining o'xshashligi emas, balki ularning o'zaro aloqalaridir;

- inson guruh a'zosi bo'lishga unga bog'liq bo'lish uchun emas, balki guruhda o'zini aynanlashtirishi mumkin bo'lgani uchun qiziqadi;

- inson uchun o'z atrofidagi odamlarning xulqlari adolatsiz tuyulsada, ularning bosimlari do'stona bo'lmasada, u o'zini ularga mansub deb bilgani uchun ular orasida qoladi.

Hozirgi davrda guruhiy dinamika tushunchasi — bu guruh a'zolarining o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlari, shuningdek guruhga tashqaridan bo'ladigan ta'sirlarning bir-biriga bog'liqlik ravishda rivojlanishi yoki guruhning zamondagi harakatidir.

Guruhiy dinamika tushunchasi o'z ichiga beshta asosiy bo'lgan va bir qancha qo'shimcha unsurlarni oladi:

Asosiy unsurlar: (1) guruhning maqsadlari, (2) guruhning me'yorlari, (3) guruhning strukturasi va undagi yetakchilik muammosi, (4) guruhning jipslashganligi, (5) guruhning rivojlanish bochiqlari.

Qo'shimcha unsurlar: (6) ostki guruhlarini tuzish (guruh strukturalarini rivojlanishi sifatida); (7) shaxsning guruh bilan aloqalari (guruh strukturasi rivojlanishi sifatida qaraladigan).

(1) *Guruhning maqsadi* uning odamlar bilan amaliy ishlarning qanday kattaroq umumiy tizimiga, shuningdek uni yetakchisining shaxsiy sifatlariga qanchalik sezilarli darajada bog'langanligi bilan aniqlanadi. Guruhning maqsadlari uning alohida a'zolari maqsadlariga mos kelmasligi mumkin. Bu holatning natijasi doimo ham bilib bo'lmaydigan guruhiy dinamikani

tug'ilishiga olib keladi. Guruhning maqsadlari quyidagilar bo'lishi mumkin: shaxsiy maqsadlar konvergentsiyasi¹⁵⁵, o'zaro ta'sirlar induktori¹⁵⁶.

(2) *Guruhning me'yorlari* umumiy maqsadga ergashish (yoki qo'shilish), guruhning barqarorligini saqlashga intilish, boshqa guruhlarga taqlid qilish, guruhda shakllangan umumiy tasavvurlar, sanksiyalar oldidagi qo'rquvlar natijalari o'laroq paydo bo'ladi. Guruhning o'zida ishlab chiqilgan me'yorlari uning a'zolari tomonidan himoya qilinadi. Guruh o'z a'zolarining bu me'yorlarga bo'ysunishlari uchun ularga bosimlar o'tkaziladi¹⁵⁷. Guruhiy dinamika o'z ichiga guruhiy o'lchamlar va ulardagi o'zgarishlar, guruhiy jipslashganlik jarayonlari va natijalari kabi unsurlarni oladi.

Kichik guruhlar o'lchamlari. Kichik guruhlarining o'lchamlariga doir masalalar sotsiologiyaning muhim mavzusi sifatida doimiy tarzda o'rganib kelinmoqda. Bunda ko'proq so'z kontinuum to'g'risida ketmoqda: guruhlarining yuqori va quyi chegaralari.

Bir guruh psixolog olimlar guruhning quyi chegarasi diadadan (ikki kishidan) iborat desa, ba'zi adabiyotlarda bu ko'rsatkich triadadir (uch kishidir) demoqda. Triada tarafdorlari diada kichik guruhning universal modeli roliga da'vogarlik qila olmaydi, chunki u bir kishiga nisbatan faqat bitta turni ko'rsata oladi, xolos, degan fikrga asoslanmoqda¹⁵⁸. Kichik guruhning yuqori chegarasi turli manbalarda triadadan tortib to 35-40 kishigacha bo'lishi mumkin, degan fikrlar uchraydi. Bunda olimlar miqdor jihatidan katta guruhlarda ichki guruhiy aloqalar ancha cheklanishi mumkinligini dalil sifatida keltirmoqda.

Katta sotsial guruhlarini (masalan, etnik va irqiy) tavsiflashda, ularning ko'p sonli ekanligi, bu guruhlarga mansub bo'lganlarning nafaqat bir-birlarini yaxshi bilmasliklari, balki, bundan tashqari, bu kabi guruhda o'zaro bevosita aloqalarning mavjud emasligiga e'tibor qaratiildi. Bu miqdor o'nlab yoki yuzlab minglardan iborat bo'lib, ular katta hududlarni egallashi bilan ajralib turadi. Bu kabi sotsial guruhlar sotsiometrik nazariyalarga binoan katta umumiylik, hattoki, jamiyat tushunchasi bilan aynanlashtiriladi.

Kichik guruh — u birlamchi bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, o'z a'zolari o'rtasida faraz qilingan izchillik asosidagi shaxsiy, bevosita,

¹⁵⁵Konvergentsiya - [lot. convergere yaqinlashish, o'xshashlashish] - o'xshashlik, yaqinlashish.

¹⁵⁶Induktor - [lot. inductor qo'zg'atuvchi].

¹⁵⁷Руденский Е. В. Социальная психология: Курс лекций.-М.:ИНФРА-М; Новосибирск:НГАЭиУ,1997.-С.166-170.

¹⁵⁸Кричевский Р. Л.,Дубовская Е. М.Психология малой группы.-М.:Мысль, 1991.-С.66.

o'ziga qiziqishlar tug'diradigan, guruhning barcha a'zolari bilan munosabatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'ziga xos sotsial aloqalar mavjud bo'ladi. Bu kabi aloqalar uchun faqat o'z hajmiga ko'ra nisbatan kichik bo'lgan guruhlarda imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun ham 35-40 kishidan iborat guruhga nisbatan 17-20 kishidan iborat guruhda qalin shaxslararo aloqalarni amalga oshirish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Barcha guruhlarini o'rganishga doir tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'smirlarning norasmiy guruhlari 2-3 tadan 8 tagacha odamni (barcha guruhlarining deyarli 70 foizini tashkil etadi), shuningdek 8-12 odamni birlashtirgan guruhlardan (barcha guruhlarining deyarli 30 foizini tashkil etadi) iborat bo'lgan.


Kichik sotsial guruhlariga ko'proq yuqori darajada shakllashtirilgan maqsadli birlashmalar (maqsadli guruhlar) mansub bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarishdagi brigadalar. Brigadalar ham 5-8 dan to 16-18 tagacha odamni o'zida birlashtiradi. Lekin, bu holatda, guruhiy aloqalar kichik guruhga oid o'zining ba'zi xossalari yo'qotadi. Xususan, guruh a'zolarining o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining doimiyligi kamayadi. Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatdiki, 7 kishidan ko'proq a'zosi bo'lgan guruhlarda ba'zan ostki guruhchalarga «bo'linish» yuz beradi, ya'ni butun bir guruhga nisbatan undan a'lo darajada o'z maqsadlarini amalga oshirish payida bo'lgan shaxslar ajralib chiqadi va ular guruh ichida yana kichikroq bir guruhga birlashadi. Keyinchalik bu guruhni tugatishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun kichik guruhning yuqori darajasi 5-7 kishidan iborat bo'lsa, u o'zida tabiiylik kasb etadi.

Kichik guruhlar o'lchamlariga doir muammolarni tahlil etishda bu sotsial dalilning guruh tomonidan o'z maqsadlari va funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratiladi. Ba'zi olimlarning fikricha, «agar guruh ijtimoiy munosabatlar tizimida qandaydir aniq o'lchamda namoyon bo'lsa, agar bu o'lcham aniq faoliyatni bajarish uchun yetarli darajada bo'lsa, unda xuddi mana shu chegaradagi holatni tadqiqotlar natijasi sifatida yuqori daraja, deb qabul qilish mumkin». Agar kichik guruhga aniq faoliyatni bajarish uchun rasmiy maqsadli tuzilma sifatida qaralsa, albatta, bu olimlarning mazkur fikriga qo'shilib bo'lmaydi.

Lekin maqsadli rasmiy guruhlar — uyushmalar ichki guruhiy munosabatlar tizimi ko'pincha guruhiy manfaatlar va xohishlar bo'yicha qurilmaydi, balki bunda asosan guruh uchun tashqi hisoblangan, agar bajarilmasa jazolashlar ko'zda tutilgan qonunchilik, farmoyishlar va ko'rsatmalarga amal qilinadi. Rasmiy guruhlar belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin: ko'pincha tashqaridan beriladigan va oqilona tanlangan maqsad,

funksiyalarga doir ko'rsatmalar, ko'zlangan lavozimlar, huquqlar, burchlar, ularni bajarmaganlik uchun beriladigan sanksiyalar, rasmiy munosabatlar tomonidan belgilangan, mansablar maqomi bilan ta'minlangan, shaxsiy emas, balki tashkilot manfaatlariga qaratilgan aniq ravishda shakllantirilgan sotsial struktura va boshq.

Me'yoriy xulq va guruhij jipslashganlik. Ikkilamchi guruhlar muayyan umumsotsial maqsadlarni amalga oshirish zarurati tufayli shakllanadi. Masalan, olimlarning uyushmaga birlashuvi, siyosatchilarning siyosiy partiyaga uyushuvi. Bu guruhlarda tajribalarda orttirilgan moddiy aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular institutlashtirilgan va sxemalashgan munosabatlar tizimiga tayanadi, ularning faoliyati esa me'yorlar va qoidalar bilan muvofiqashtiriladi¹⁵⁹. Aksariyat sotsiologlar «ikkilamchi guruhlar» tushunchasini odamlarning katta birlashmalariga bog'laydi. Masalan, xududiy birliklarda me'yoriy xulqlar va guruhij jipslashganlik sotsial manfaatlar tomonidan muvofiqashtiriladi. Guruhning paydo bo'lish va amal qilish darajasidan qoniqish jamoaviy kuchlar talab etayotgan individual manfaatlar va ehtiyojlar, demakki, shaxslararo o'zaro ta'sirlar asosiy belgilovchi kuch sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Guruh a'zolarining o'zaro ta'sirlari va aloqalari munosabatlar strukturasi ko'rinishida ro'y beradi. Masalan, A guruh a'zosi B va V a'zolar bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Guruhning qanday vazifani hal qilishidan qat'iy nazar o'zaro ta'sirlar natijasida har bir guruh a'zosi «o'z joyini» egallaydigan muayyan guruhij struktura shakllanadi.



4.1-rasm. Guruhdagi o'zaro ta'sirlarning modellari

O'zaro ta'sirlarning uchta modeli mavjud (4.1-rasm). Guruhij aloqalardan qoniqish olish darajasi ko'p tomonli (kanalli) modelda yuqori, aylanma sxemada past va markazlashgan sxemada aralash (yuqori va past) bo'lib, unda markazdagi shaklga joylashuvchilar o'zida ko'proq

¹⁵⁹Щепаньский Я. Элементарные понятия социологии.-М.:Прогресс,1969.-С.33-37.

qoniqishni his qiladi, bu o'rin atrofidagi odamlar o'zlarini ajralib qolgan odamlar sifatida his qiladi.

Guruhiy o'zaro ta'sirlar ba'zan «qolip» deb ataladigan *me'yoriy xulqda* o'zini namoyon qiladi. U guruhlar maqsadlarini amalga oshirish bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bunda me'yoriy xulq u yoki bu darajada guruhlarining barcha vakillari tomonidan e'tirof etiladi.

Aksariyat hollarda sotsiologlar guruhiy o'zaro ta'sirlarni guruhiy struktura tushunchasi bilan aynanlashtiradi. Ma'lumki, guruhiy struktura esa boshqa unsurlar — rol va maqom bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Guruhda sotsial ta'sirning boshqa ko'rinishlari ichida me'yoriy muvofiq-lashtirishning hissi katta ekanligini hisobga olgan holda me'yoriy xulqga mustaqil omil sifatida qarash uchun yetarli darajada asoslar mavjud¹⁶⁰.

Guruhiy me'yorlar va omillarning turli-tumanligini, ularning deter-minantlash funksiyasini e'tiborga olgan holda kichik guruhlarda me'yorlar ta'sirchanligining quyidagi umumiy metodologik prinsiplarini ko'rsatish mumkin:

1. Guruhiy xulqning sotsial me'yorlari umumiy manfaatlar asosida birlashgan odamlarning o'zaro sotsial ta'sirlari mahsulidir.

2. Guruh qandaydir aniq holatlar uchun barcha me'yorlarni o'rnat-maydi, balki, faqat barcha guruh a'zolari uchun alohida ahamiyat kasb etadigan me'yorlarnigina o'rnatadi.

3. Me'yoriy xulq guruh a'zosi uchun rolni bajarish (masalan, yetakchi uchun) yo'l-yo'rig'i tarzida o'rnatilishi mumkin, yoki guruh a'zolarining barchasi uchun xulqning rollari standarti sifatida o'rnatilishi mumkin.

4. Sotsial me'yorlar guruh a'zolarining qabul qilish darajasi bo'yicha differetsialashishi (bo'linishi, qismlarga ajralishi) mumkin: barcha tomoni-dan ma'qullangan, guruh a'zolarini bir qismi tomonidan ma'qullangan va hokazo.

5. Guruhlardagi sotsial me'yorlar turli rad etish kontinuumlariga¹⁶¹ va deviant¹⁶² xulq uchun tegishli bo'lgan sanksiyalar hajmi va chegaralariga ega bo'lishi mumkin.

6. Guruhiy me'yorlarni guruhning barcha a'zolari tomonidan e'tirof etilish darajasi guruhiy jiplashganlik ko'lamining qanchalik bo'lishiga bog'liqdir.

¹⁶⁰ Психология малой группы: Сборник научных работ.-М.:Изд-во МГУ,1994.-С.11-14..

¹⁶¹Континuum - [lot. continuum uzluksiz, muttasil, butun, yalpi] - hodisalar va jarayonlarning uzluksizligi.

¹⁶²Deviatsiya - [lot. deviatio chetga chiqish, bosh tortish <de dan + via yo'l] - qandaydir tashqi sabablar ta'sirida to'g'ri yo'ldan og'ish.

AQSh olimlari A. va B. *Lottovlar* fikricha, guruhiy jipslashganlikni tahlil etishda kichik guruh a'zolarining simpatiyalari¹⁶³ oqibatlari va sabablari yig'indisi o'zgaruvchan va o'zaro muvofiq keluvchi holatlarda bo'lishi mumkin. Sabablarga quyidagilar taalluqlidir: individlarning o'zaro ta'sirlari takrorlanib turishining (sodir bo'lishining) oraliq vaqti, ular o'zaro ta'sirlarining guruhiylikdagi ko'lami, guruhga rahbarlik uslubi (demokratik tarzda bo'lishi darajasi), guruhiy jarayonning borishiga tahdidlar (guruhlararo aloqalar oqibati sifatida) va frustratsiya (ruhni ezadigan tanglik), guruh a'zolarining maqomiy va xulqiy (shaxslararo) tavsiflari (yo'l-yo'riq, yosh, kasb, xulqning etikaviy me'yorlari va boshq.). Simpatiyalar oqibatlari qatoridan, demakki, jipslashganlikdan quyidagilar ajralib chiqadi: simpatik bo'lmagan guruhdagi shaxsga nisbatan *agressiv xulq*, shaxslararo o'zaro ta'sir guruhlar a'zolarining *ijobiy baholashi*, ichki guruhiy kommunikatsiyadagi va boshqa shaxslarning *baholashlaridagi o'zgarishlar, komfort*¹⁶⁴ *xulqning o'sishi, guruhlar serunumligi sifatining o'sish* ehtimoli va boshq¹⁶⁵.

Sotsiologiya uchun bu o'zgarib turishlar (o'zgaruvchanliklar) alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'zgaruvchanliklar empirik jihatlarining yaqqol ifodalanib turishi guruhiy jipslashganlikni aniq sotsiologik tadqiq qilish maqsadida ularni dastur darajasida qayd qilish imkonini beradi. Guruhiy o'zaro ta'sirlarning natijasi motivatsiyasi ehtiyojlar va qadriyatlar yig'indisi sifatida shakllanadigan holat — bu jipslashganlikdir: guruh a'zolari kutadigan yoki subyektiv ravishda yuz berishi mumkin bo'lgan holat — bu guruhda a'zolik inson uchun ijobiy (yoki salbiy) oqibatlar olib keliishi mumkin bo'lgan hodisalardir. Va nihoyat, qiyoslashning individual darajasi — insonning turli sotsial guruhlarda bo'lishi oqibatlarining ma'lum darajadagi o'rtacha subyektiv bahosidir. Bu yondashuvda asosiy urg'u motivatsiyaga berilishiga qaramay, mazkur motivatsiya guruhiy aloqalar subyektlari tomonidan o'zlashtirilgan his-tuyg'uli idrokning bevosita ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi yondashuv — sotsiologik yondashuv bo'lib, u jipslashganlikni guruh a'zolarining qadriyatli-mo'ljal olish hamjihatligi sifatida tahlil etilishiga alohida urg'u beradi. Hamjihatlik g'oyasi o'z-o'zidan barcha guruh a'zolari tomonidan baham ko'riladigan qadriyat bo'lgani uchun ham u guruh ichida hech qanday e'tiroz yoki qarshiliklarga uchramaydi.

¹⁶³ Simpatiya - [yunon. *sympatheia*] — mayl, havas, intilish, qiziqish, kimnidir yoki nimanidir ichki xush ko'rish (antipatiyaning aksinchasi).

¹⁶⁴ Komfort - [ingl. *comfort*] — maishiy yoki hayotiy qulaylik; uy-joy, ijtimoiy korxonalar, aloqa vositasi kabilarning obodligi, shinamligi va qulayligi.

¹⁶⁵ Психология малой группы: Сборник научных работ. - М.: Изд-во МГУ, 1994. - С. 41-42.

Albatta, har qanday hamjamiyatlar ham shu asosda birlashadi, lekin kichik sotsial guruhlarda qadriyatlar jipslashuvning asosi sifatida alohida rol o'ynaydi. Nazariy qarashlarga muvofiq, «jipslashuv qadriyatli mo'ljal olish hamjihatligi (birligi) sifatida — bu butun bir guruh uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, baholashlarning bir-birlariga mos kelishini ko'rsatuvchi guruhning obyektarga (ya'ni, shaxslarga, vazifalarga, g'oyalarga, hodisalarga) nisbatan munosabati va ko'rsatmasi — ya'ni guruh ichidagi aloqalar tizimining tavsifidir». Bu kabi yondashuv sotsiolog uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi: birinchidan, barcha qadriyatlarni empirik darajada umumlashtirish; ikkinchidan, guruh a'zolarining jipslashganlik darajasi qadriyatlarni baholashlarning farqlanishi va aynanlashuvi darajasini aniqlash vositasida belgilanadi.

4.4. Guruhiy psixoterapiya, guruhdagi yetakchilik va avtoritet tavsiflari

Guruhiy dinamika jarayonlarida guruhiy psixoterapiya muhim o'rin tutadi. Guruhiy psixoterapiya psixologik yordam amaliyotiga 1932-yilda *J. Moreno* tomonidan kiritildi. *Guruhiy psixoterapiya* deganda, bir vaqtning o'zida bir necha klientlarga birvarakayiga yordam berish usuli tushuniladi. Psixoterapiyaning birinchi usuli psixodrama hisoblanadi. XX asrning 40-yillarida *K. Levin* tomonidan shaxslararo aloqalarni rivojlantirish va kichik guruhlardagi jarayonlar va ularning ta'sirchanligini o'rganishga qaratilgan T-guruhlar nazariyasi ishlab chiqildi.

Psixoterapevtik guruhlar — u psixolog yoki sotsial xodim rahbarligida shaxslararo, shaxsning o'sishi va o'zini o'zi kashf qilish bo'yicha umumiy maqsadda tadqiqotlar olib borishga harakat qilayotgan odamlarning kichik muvaqqat birlashmasidir. Shaxsning maqsadga qaratilgan rivojlanishi va sog'lom insonni o'zini o'zi dolzarblashtirish ro'y beradigan bu guruhlarda guruh a'zolari va shaxsning psixik yetilishi tezlashadi.

Bu guruh umumiy maqsaddan kelib chiqib aniq ierarxik strukturaga ega bo'ladi. Guruh a'zolaridan biri yetakchi, qolganlar esa bo'ysunuvchilar rollarini bajaradi. Bu struktura psixoterapiyaning maqsadiga qarab o'zgarishi mumkin. Guruhning alohida a'zolari ehtiyojlarini e'tiborga olgan umumiy maqsadlar guruhiy me'yorlarni, ya'ni, guruhning barcha a'zolari xulqlarining shakllari va usullarini belgilaydi.

Terapevt yoki trener guruh a'zolari bilan ishlashda quyidagi maqsadlarga amal qiladi:

- 1) terapevt shaxsga o'zini muammolarini anglab olishiga yordamlashadi;

- 2) shaxsdagi hissiyotli noqulayliklarni yo‘qotishiga ko‘maklashadi;
- 3) shaxsni o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishini rag‘batlantiradi;
- 4) shaxsni yangi g‘oyalar yoki axborotlar, muammolarning yechimlariga doir tavsiyalar bilan ta‘minlaydi.

5) shaxsga o‘zining yangi fikrlash qobiliyati va xulqidagi o‘zgarishlarni tekshirishga yordam beradi.

Guruhiy terapiyaning barcha shakllarida verbal usullar, shuningdek harakatga qaratilgan yoki bixevioral usullar ustuvorlik qiladi. Keyingi davrlarda faoliyatga qaratilgan yondashuvlarga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Ular yuqorida ko‘rsatilgan usullar va terapevtik unsurlardan iborat bo‘lsada, ulardan farq qilib, faol faoliyatga va guruhiy mashqlar o‘tkazishga asosiy urg‘u berishi bilan ajralib turadi¹⁶⁶.

Guruhda yetakchilik va avtoritet. Yetakchilik muammolarini o‘rganish uning boshqaruv, sotsial-guruhiy ishlar va siyosiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etgani uchun ham eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Guruhiy muhitlar va yetakchilik usullarini tadqiq qilishning klassik namunasini *K. Levin*, *R. Lippit* va *R. Uat* tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Bu olimlarning asosiy maqsadi ba‘zi tajribaviy tarzda «guruhiy muhit» va «yetakchilik usullari»ni guruhga va uning alohida a‘zolariga ta‘sirini o‘rganish edi. Guruhiy muhitning uchta turi o‘rganildi: demokratik, avtoritar va aralashmaslik. Laboratoriya sharoitlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda 10 va 12 yoshli bolalardan iborat guruhlar shakllantirilib, ularga katta yoshli yetakchilar tayinlandi. Bu yetakchilar muntazam ravishda (bir necha hafta orasidagi davrda) turli guruhiy muhitlarni yaratdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yetakchilik usulining qanday bo‘lishidan kelib chiqib guruh a‘zolarining xulqi o‘zgarib bordi.

Albatta, yetakchining guruhga ta‘sirini aniqlash uchun dastlab bu tushunchani aniqlab olishga zarurat tug‘iladi. «Yetakchi» tushunchasi faqat bir xil ma‘noni anglatmaydi. Yetakchilik ko‘proq habardor (sergak), ko‘proq avtoritetli bo‘lish va qonuniy hokimiyat sifatida namoyon bo‘lish sifatida o‘rganiladi. Bu kabi yondashuv guruhlar yetakchilarining yuqori maqomga ega bo‘lgan shaxslar ekanligini ko‘rsatadi.

Lekin, yetakchilik deganda bizning nimani tushunishimizga bog‘liq holda uni qonuniy hokimiyat, yoki bo‘ysunuvchilarning «chamalashlari» sifatidagi baholari yig‘indisi, yoki guruh a‘zolarining o‘zlarining ichidan bittasini tanlash niyatlari natijasi o‘laroq shakllangan maqomlar sifatidagi turlicha ifodalashlardan foydalanishga zaruriyat tug‘iladi. Yetakchilik

¹⁶⁶Групповая психотерапия.Понятие психотерапевтической группы//<http://psyfactor.org/lib/psychotherapy10-3.htm>.

muammosi bilan guruhdagi avtoritet muammosi bevosita bir-biriga o'zaro bog'liqdir. Alohida olingan shaxsning avtoriteti bu shaxs ustunlik qilgan guruhdagi odamlarning soniga teng bo'lgan avtoritet indeksida tavsiflanadi.

Sotsiologik tadqiqotlar yetakchilik turlari va turli muammolar bo'yicha guruhlarining alohida olingan a'zolarining avtoritet darajasini o'rganishga imkoniyatlar bera oladi. Lekin, ko'p a'zolaridan iborat guruhlarda avtoritetning belgilarini oxirgi umumlashuvini hisoblashning murakkabligi shunchalik ortib boradiki, u hozirgi davrdagi EHM (elektron hisoblash mashinasi) imkoniyatlaridan ham ko'proq murakkablikni o'rganish zaruratini qo'yadi. Bunday holatda faqat kutilayotgan muvozanatning ierarxik indeksini olishga erishish mumkin, xolos.

Yetakchilik, o'z tabiatiga binoan psixologik favqulodda qobiliyat egasi bo'lishdan tashqari avtoritet sifatida munosabatlarni tashkil etish va ularni boshqarish shakli sifatida ham namoyon bo'ladi. Guruhlarning o'ziga xos turli-tuman jihatlaridan kelib chiqilgan holda yetakchilik muammosi bo'yicha turli tadqiqotlarni umumlashtirib, bu hodisa tahlilining umumiy sxemasini tasavvur etish mumkin: guruhlarining strukturaviy tavsiflari; amalga oshirish mexanizmlari; guruhij jarayonlar oqimi dinamikasi. Bu uchta jihatda yetakchilikning barcha muammolari mohiyatan mujassam bo'ladi.

Shuningdek, yetakchilik norasmiy munosabatlar tizimini tashkil etish va boshqarishni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, rahbarlik (rasmiy yetakchilik) sifatida ichki guruhij aloqalarning deyarli barcha tizimlariga (xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lsin) kuchli ta'sir ko'rsatadi yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rahbar tomonidan asosiy yetakchilik rollarini (u qarorlar qabul qiladi, qarorlarni uzatadi, g'oyalarni taklif qiladi, bo'ysunuvchilarga me'yorlarning muayyan chegaralarida faoliyat yuritishga imkoniyatlar yaratadi, sotsial nazoratni amalga oshiradi va boshq.) bajarish sharoitida guruhni boshqarish samarasi o'sib boradi.

Shu tariqa, yetakchilikka (rahbarlikka) muhim o'zgarishlarga doir (ko'rsatkichlar bo'yicha) o'zaro aloqalarning yuz berish ehtimolini ko'zlagan tizimli noyob hodisa sifatida qarash mumkin: «rahbar — guruh (bo'ysunuvchilar) o'zaro ta'sir strukturasiidagi almashuvlarni amalga oshirish sifatida; rahbar va bo'ysunuvchilarga xos bo'lgan sotsial-kommunikativ jarayonlar natijasi hisoblanadigan kognitiv¹⁶⁷ noyob hodisa sifatida. Rahbarlik to'g'risida ana shunday ko'p omilli tavsiflanadigan

¹⁶⁷Kognitiv - [lot.cognitio idrok qilish, bilish] tushunchalarni shakllantirish, ularni ishlatish va xulosaviy bilimlar olishni ta'minlashga qaratilgan miyaning funksiyasiga va bilishga taalluqli tushuncha.

tasavvurlar guruhni boshqarishning murakkab jarayonini aynanlashgan holda tasvirlash imkonini beradi¹⁶⁸. Kichik guruhlarni tahlil etishda ilmiy paradigmalarning turli-tuman ekanligi insoniy munosabatlarning bu murakkab sohasida yanada chuqurroq nazariy izlanishlar olib borishga katta imkoniyatlar yaratadi.

4.5. Sotsial birliklar

Sotsiometrik nazariyalarga binoan, yirik sotsial guruhlar sotsial birliklar hisoblanadi. Ularga olimlar tomonidan individlar ijtimoiy hayotining sotsial tuzilishi shakli sifatida qaraladi. *Sotsial birliklar* — doimo ham individ uchun xos bo‘lavermaydigan, emerdjentlik¹⁶⁹ xususiyatlariga ega bo‘lgan (ya’ni, bu xususiyatlarning birlashuvi natijasidan yangidan paydo bo‘ladigan), sotsial ta’sirlar obykti sifatida namoyon bo‘la oladigan, empirik qayd qilinadigan individlar birlashuvining aniq mavjud voqeligidir. Masalan, yuksak rivojlangan jamiyatda ma’lumoti juda ham past, yoki umuman ma’lumoti yo‘q odamlar ham bo‘lishi mumkin.

Sotsial birliklar shakllanishining tarixiy aniqlovchilari quyidagilardan iborat:

- odamlarning birlashuvini talab etgan sotsial borliq shart-sharoitlari (masalan, hududni qo‘riqlash, tashqi dushmanlardan himoyalanih);
- individlar nisbatan aksariyat qismining umumiy manfaatlari;
- davlatchilikning rivojlanishi, shu bilan birga, turli sotsial institutlar ko‘rinishida odamlarning uyushish shakllarining paydo bo‘lishi (masalan, odamlar xulqining muayyan me’yorlarini qo‘llab-quvvatlab turuvchi huquq va qonunchilik institutlari);
- shaxslararo (bevosita va bilvosita) aloqalar imkoniyatlarini ko‘zda tutgan umumiy (birgalikda yashaydigan) hudud.

Sotsial birliklarning stratifikatsiyaviy ko‘rsatkichlari yaxlitlik sifatida turli siyosiy, iqtisodiy va sotsial o‘ziga xosliklarning bilvosita hayotiy faoliyat sharoitlari sifatida namoyon bo‘ladi: individlarning o‘zaro ta’sirlarining umumiy manfaatlariga qaratilishi; aniq va muayyan sotsial institutlar va qadriyatlariga berilganlik; birlikka uyushgan individlarning sotsial-kasbiy tavsiflari; tarixan shakllangan xududiy tuzilmaga taalluqli bo‘lish.

¹⁶⁸Хоманс Дж. Социальное поведение как обмен//Современная зарубежная социальная психология.Тексты.-М.:Ин-т социологии,1984.-С.45-47.

¹⁶⁹Emerdjent evolyutsiyasi - [ingl. emergence vujudga kelish, yangilikning paydo bo‘lishi, paydo bo‘lish] — sifatli yangilikning paydo bo‘lishini bilib bo‘lmaydi va u tabiiy qonuniyatga asoslanmagan qabilidagi qarashlarga ega ingliz-amerikan idealizmining zamonaviy falsafiy nazariyasi; materialistik dialektikaning ziddi.

Sotsial ko'rsatkichlar tizimi jamiyat ichida sotsial integratsiyaning (birlashishning) va differentsiatsiyaning (bo'linishning) murakkab jarayonlari ro'y berishini ko'rsatadi. Sotsial integratsiya jarayoni tizim yaxlitligining ba'zi tomonlari sifatida birlikning sotsial aloqalarini takroran namoyon bo'lib turishiga imkoniyatlar yaratadi. Integratsiyaga nisbatan muayyan birlikka birlashgan odamlarning sotsial-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot faoliyatlari shakli sifatida qarash mumkin. Differentsiatsiyaga iqtisodiy, siyosiy va madaniy strukturalarning bo'linish oqibati, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi, mulk shakllariga nisbatan munosabatlarning sohalashuvi sifatida qarash mumkin.

Insoniyatning sotsial-tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladigan sotsial birliklar nafaqat sotsial va aniq-tarixiy jihatlardan bog'lanishlarning turli-tumanligi, balki muayyan turlarga xosligi (masalan, milliy, psixologik va boshq.) bilan ajralib turadi. Birliklar sifat belgilari va miqdoriy ko'rsatkichlar, o'lchamlariga qarab ham bir-birlaridan farqlanadi.

Sotsial-psixologik ko'rsatkichlar ichida sotsial birlikni jipslashganligini, individlar o'zaro ta'sirlari xususiyatlarini alohida ajratib ko'rsatish zarur. Agar birliklar katta hududiy yoki milliy birlashmalarni ifodalasa, unda bevosita aloqalar bilan bir vaqtda, bitta birlikka taalluqli bo'lgan, umumiy manfaatlarga ega, hattoki, bir-birlariga notanish odamlarning bilvosita aloqalari ham mavjud bo'lishi mumkin.

Polsha sotsiologi *Ya. Shepanskiy* birliklarni ikkita katta sinflarga bo'lishni taklif etadi: tabiiy — voqelikda mavjud bo'lgan (hududiy, sotsial) va nominal (masalan, tadbirkorlar birligi). Bu birliklarni u sotsial tizimda qayd etilgan, ya'ni sinflarga taalluqli bo'lgan, kasbiy guruhlar va qayd etilmagan birliklar (masalan, yashillar harakati) kabilarga bo'ladi.

Dastlab *F. Tyonnis* (1855-1936) tomonidan taklif etilgan birliklar konsepsiyasi *J. Moreno* konsepsiyasiga muqobil hisoblanadi. Agar Tyonnis birliklarning turli darajalarini — kichik sotsial guruhdan tortib davlat va sayyoragacha bo'lgan birliklarni tahlil etgan bo'lsa, guruhiy yondashuv tarafdorlari jamiyatning o'zini global sotsial guruh sifatida o'rganadi. Bundan birliklar va sotsial guruhlar stratifikatsiyasining ko'plab umumiy ko'rsatkichlari paydo bo'ldi. Masalan, struktura va tuzilish shakliga bog'liq holda va bir shaklga solingan va solinmagan birliklar va boshq.

Guruhiy birliklar chegaralarini o'rnatish unchalik mushkul emas. Chunki, bevosita aloqalar, faoliyatlarning birgalikdagi shakllari, nisbatan ifodalanib turadigan tarkibning gomogenligi (bir xilligi) unga taalluqli omillarni qayd etish imkonini beradi. Ommaviy birliklar, ya'ni millat kabi birliklar o'z chegaralarining to'la qonli emasligi bilan tavsiflanadi.

Bir millatga mansub odamlar turli shahar va mamlakatlarda yashab, o'zining milliy birligiga nisbatan faqat statistik jihatdan mansub bo'ladi. Bu kabi birliklarning tug'ilishi tasodifan yoki oldindan ko'zlanmagan tarzda ro'y beradi, birlik a'zolari geterogen (turli xil) bo'lishi mumkin. Lekin, odamlarning har biri juda ham ko'plab birliklarga mansub bo'ladi. Bu mansubliklarni qayd etish uchun ishonchli ko'rsatkichlarga ega bo'lish lozim.

Subyektning boshqa birliklarga nisbatan aynanlashuvi iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy qatlamlashish kabi stratifikatsiyaviy ko'rsatkichlar tizimi, shuningdek mazkur birlikda individ bajarayotgan funksiyalar va sotsial rollar vositalarida amalga oshishi mumkin. Sotsial birliklarning amal qilishi va rivojlanishi o'zaro ta'sirlar yoki sotsial aloqalar asosida kechishi mumkin.

Milliy-etnik birliklar. Milliy-etnik birliklar jamiyatning muhim sotsial tuzilmasi sifatida namoyon bo'ladi. Etnik birliklar ko'p qiyofalarda namoyon bo'ladigan hodisalar sirasiga kiradi: qabila, xalq, elat, etnos va millat. Mazkur birliklar tarixiy rivojlanish jarayonlarida rivojlanib, biridan ikkinchisiga aylanib boradi. Odamlarning birlamchi birligi qabila hisoblanib, keyinroq xalqqa aylandi. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi esa millatni paydo bo'lishiga olib keladi. Lekin, hozirgi davr dunyosida milliy-etnik birliklarning barcha xillari bir vaqtning o'zida turli mintaqalarda yashamoqda.

Qabila — bu odamlarning shunday tabiiy-sotsial birligiki, u ibtidoiy jamoa tuzumidan feodalizmga o'tish davriga xosligi bilan tavsiflanadi. Bu birlik qon-qardoshlik aloqalari bilan birlashgan bo'lib, u boshqa qabilalardan o'z hududi, tili va madaniyati kabilar bilan farqlanib, uning ichida ikki yoki undan ortiq urug'lar yig'indisi mavjud bo'ladi.

Xalq — bu tarixiy rivojlanish natijasi o'laroq paydo bo'lgan odamlarning til, hudud, iqtisodiy va sotsiomadaniy jihatlar bo'yicha birlashgan birligi bo'lib, u etnik evolyutsiya jarayonida qabiladan keyin, millatdan esa oldin paydo bo'ladi.

Qabila, xalq va millat — bu etnik rivojlanishning uchta bosqichidir. «Etnos» odatda rivojlanish jarayonining oxirgi natijasi hisoblanadi. Etnos millat tushunchasi bilan bir ma'noda ishlatilishi mumkin.

Etnos — muayyan jug'rofiy-tabiiy muhitda, insonning sotsiomadaniy o'ziga xosligiga tarixan yaqin bo'lgan birlik bo'lib, u jamoaviy tasavvurlar stereotiplariga¹⁷⁰ asoslanadi. Etnos barqaror tarzda o'zini o'zi anglashi va o'z nomini saqlashi bilan tavsiflanadi. Etnosning o'zini o'zi anglashi

¹⁷⁰Stereotip - [yunon. stereos qattiq + typos iz] - qolip, tarz, taxlit.

«biz — ular» qabilidagi zid holat bilan rivojlanib boradi («biz» — bir etnos vakillari, «ular» — boshqa etnos vakillari).

Turli etnoslarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish asnosida ularning quyidagi universal xususiyatlarga ega ekanligi namoyon bo'ldi:

-*etnos* — bu odamlarning o'ziga xos sotsial-tabiiy birligidir;

-uning vakillari boshqa etnoslardan farq qiladigan o'zining aniq belgilariga (til, xudud, madaniyat, din) ega bo'ladi;

-*etnos vakillari* o'ziga xos antropologik tavsiflarga egadir;

-bir etnosga birlashgan odamlar umumiy kelib chiqishi va madaniyati asosida hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etadi;

-etnos vakillarining o'zini o'zi anglashi «o'zimizniki — o'zganiki» qabilidagi zid holat bilan asoslanadi.

AQSh sotsiologlari *J.M. Yinger* va *M. Nesh* etnosning (til, din, irqiy xususiyatlarini) belgilarini qo'shib olib borishdagi farqlanishlarni aniqladi. Olimlarning aniqlashicha, etnos a'zolari o'zlarini «boshqalarga o'xshamay-miz», deb hisoblaydi.

Taniqli olimlar *N. Glezer* va *D. Moynixan* etniklik bilan etnik guruh o'rtasidagi farqlanishni quyidagicha talqin etdi: «etnik guruh manfaatlar bo'yicha birlashgan birlikdir, etniklik esa guruhiy manfaatlariga erishish, siyosiy kurashga safarbar etish vositasidir»¹⁷¹.

Millat — etnos rivojlanishining eng yuqori shaklidir. Millat va milliy davlat — etnik birlashuvning zamonaviy shakllaridir. Hozirgi davr jamiyati uchun etnik ixtiloflar mustasno emas (masalan, ozarbayjon-arman, serb-makedon va boshq.).

Yer sayyorasida turli etnoslarning mavjudligi ularning aloqalarini yuzaga keltirdi. Darhaqiqat, butun insoniyat tarixi o'zida etnik aloqalarning tarixini ifodalaydi. Sotsiologlar ularning birqancha turlarini keltiradi: birlashish; aralashgan holda birlashish; kooperatsiya; etnik ustunlik; etnik diskriminatsiya; etniklik ustuvor bo'lgan millatchilik (yoki milliylik)¹⁷².

Etnik rivojlanish va boshqa etnoslar bilan o'zaro ta'sirlar jaryonlarini ikkiga ajratish mumkin: birlashtiruvchi va bo'lib tashlovchi. Birlashtiruvchiga quyidagilar kiradi: konsolidatsiya (birlashish), assimiylasiya (aralashgan holda birlashib ketish), kooperatsiya. Bo'lib tashlovchiga quyidagilar kiradi: etnik ustunlik, etnik diskriminatsiya, etniklik ustuvorligi millatchiligi.

¹⁷¹Qarang: Арутюнян Ю.В., Дробижсва Л.М., Сусоколов А.А. Этносоциология: Учебное пособие для вузов.-М.:Аспект ПРЕРС, 1998.-С.34.

¹⁷²O'sha joyda.-B.222-223.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Tizim» tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. «Sotsial tizim» deganda nimani tushunasiz?
3. «Jamiyat ostki tizimlari» nimani anglatadi?
4. «Jamiyat bir butun, dinamik tarzda rivojlanayotgan tizimli tuzilma», deganda nimani tushunasiz?
5. Jamiyat strukturasi asosiy komponentlari nimalardan iborat?
6. Talkott Parsonsning sotsial tizimlar modellari, deganda nimani tushunasiz?
7. An'anaviy va industrial jamiyatlar deganda nimani tushunasiz?
8. Jamiyat qanday turkumlarga bo'linadi?
9. «Axborot jamiyati» nima?
10. «Postmodernistik jamiyat» deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016 // Xalq so'zi, 2016, 6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 20.04.2017 // http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild. - T.: O'zbekiston, 1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr // <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir. // XXI asr, 2016, 20-oktyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017. - T.: O'zbekiston, 2017.
9. Асп Э.К. Введение в социологию. Пер.с финск.яз.-СПб: АЛТЕ-ИЯ, 2000.

10. Бабосов Е.М. Общая социология: учебно-методическое пособие для студентов вузов.- Минск: «ТетраСистемс», 2006.
11. Гидденс Э. Социология.- М.: Эдиториал УРСС, 1999.
12. Донцов А.И. Проблема групповой сплоченности.- М.: Наука, 1986.
13. Елсуков А.Н. Методика преподавания социологии в высшей школе: Учебное пособие.- Минск: «ТетраСистемс», 2003.
14. Исаев Б.А. Социология. Краткий курс.- Санкт-Петербург: Питер, 2007.
15. Кричевский Р.Л., Дубовская Е.М. Психология малой группы.- М.: Мысль, 1991.
16. Кули Ч.Х. Общественная организация. изучение углубленного разума. // Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия. / Сост. и отв. ред. Добренков В.И., Беленкова Л.П.- М.: Наука, 1994.
17. Нурышев Г.Н., Бразевич Д.С. Социология: Учеб. пособие.- СПб.: СПбГУНИПТ, 2010.
18. Радугин А.А., Радугин К.А. Социология: курс лекций.- 3-е изд., доп.- М.: Центр, 1999.
19. Руденский Е. В. Социальная психология: Курс лекций.- М.: ИНФРА-М, 1997.
20. Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей / Под ред. В.А. Михайлова.- Ульяновск: УлГТУ, 2004.
21. Социология. Хрестоматия для вузов / Кравченко А.И.- М.: Академический Проект, 2002.
22. Социология // Ўқув қўлланма./ Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ.- Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
23. Социология. Маърузалар курси./ Алиқориев Н.С., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ.- Т., 2001.
24. Социология // Ўқув қўлланма./ Алиев Б., Рафиқов Ф., Муллажоннова М., Раҳмонов Б. ва бошқ.- Т.: ТДЮИ, 2006.
25. Хоманс Дж. Социальное поведение как обмен // Современная зарубежная социальная психология. Тексты.- М.: Ин-т социологии, 1984.
26. Щепанский Я. Элементарные понятия социологии.- М.: Прогресс, 1969.

5-mavzu: SOTSIAL INSTITUTLAR

- 5.1.Sotsial institutlar va ularning jamiyatdagi o'rne.
- 5.2.Sotsial institutlarning strukturasi va funksiyalari.
- 5.3.Iqtisodiy institutlar.
- 5.4.Oila va nikoh sotsial instituti.
- 5.5.Ta'lim sotsial instituti.
- 5.6.Din sotsial instituti.

Tayanch so'zlar: institut, sotsial institut, rasmiy institut, norasmiy institut, jamiyatning hayotiy faoliyat sohalari, institutlashuv, sotsial institutlarning strukturasi, sotsial institutlarning funksiyalari, iqtisodiy sotsial institut, oila sotsial instituti, ta'lim sotsial instituti, din sotsial instituti.

5.1.Sotsial institutlar va ularning jamiyatdagi o'rni

Sotsial institut (lot.institutum belgilash, o'rnatilish, tartibot) — u yoki bu insoniy uyushmaning nisbatan ko'pchiligi xulqini belgilab beradigan sotsial struktura yoki ijtimoiy tuzilish tartibotidir. Institutlar o'rnatilgan qoidalar vositasida odamlar xulqiga ta'sir qilish imkoniyatlariga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Tarixda ilk bor «institut» iborasini Italiya faylasufi *Jambattista Viko* (1668-1744) qo'lladi. E.Dyurkgeym sotsial institutlarning funksional yo'llarini ko'rib chiqishni taklif etdi¹⁷³. Sotsial institutlarning to'liq ta'rifini ilk bor AQSh sotsiologi va iqtisodchisi *T.Vablen* ishlab chiqdi¹⁷⁴.

Huquqshunoslikdan olingan «*institut*» tushunchasi sotsiologiya fanida «*o'rnatilish*», «*qonunlar*» iborasiga qaraganda kengroq talqin etiladi. Chunki, «institut» doimo ham institut a'zolarining xulqlari aniq ifodalangan struktura bo'lishi taqozo etilavermaydi. Sotsial institutlar ko'pincha uyushmalar sifatida mavjud bo'ladi, lekin ularning aksariyati o'zida uyushtirish funksiyalarini ham namoyon qiladi. Lekin, shunga qaramasdan, ba'zi institutlar uyushma yoki uyushish tizimi sifatida namoyon bo'lmaydi, uyushtirishni ham talab qilmaydi.

«Institut» iborasini ishlatish yana shu bilan mushkullashadiki, u ingliz tilida odamlarning an'anaviy tarzda o'zini o'zi takror yaratib turish

¹⁷³Durkheim E. Les formes elementaires de la vie religieuse. Le systeme totemique en Australie. - Paris, 1960. - P.112.

¹⁷⁴Qarang: Веблен Т. Теория праздного класса. - М., 1984. - С.200-201.

xususiyatiga ega bo'lgan har qanday yashovchan tajribasi institut deb ataladi. Shu tarzda keng (maxsus tor ahamiyat kasb etmagan) institut tushunchasining mazmuni odamlarning odatdagi qator tizilib navbatga turishi yoki ingliz tilining ko'p asrlik sotsial amaliyot sifatida institut mazmunini anglatayotganligi qabilida qabul qilish mumkin¹⁷⁵.

«Sotsial institut» so'z birikmasi sifatida turli-tuman ma'nolarda ishlatiladi: oila instituti, ta'lim instituti, sog'liqni saqlash instituti, davlat hokimiyati instituti, parlament instituti, xususiy mulk instituti, din instituti — bu ro'yhatni yana davom ettirish mumkin. Shuning uchun odamlar ko'pincha sotsial institut deganda ijtimoiy urf-odatlar, xulqning muayyan odatlarining mujassamlashuvi, hayotda avloddan avlodga o'tib kelgan fikrlash va yashash tarzi, vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turadigan turmushga moslashish kabilarni tushingani uchun ham ularga nisbatan boshqacharoq nomlash — «institutsiya» (lotin tilidagi institutio iborasi yo'l-yo'riq, ko'rsatma, tartibot ma'nolarini beradi) iborasini qo'llay boshlagan edi. «Institut» deganda esa urf-odatlar va tartibotlarning qonun hamda muassasa ko'rinishida mustahkamlanishi, degan qarashlar paydo bo'ldi. «Sotsial institut» iborasi o'ziga «institutsiya» (urf-odatlar) iborasini singdira boshladi, «institut» (muassasalar, qonunlar) iborasi o'zida ham rasmiy, ham norasmiy tarzda «o'yinlar qoidalarini» o'zida mujassamlashtirdi

Sotsial institut — bu odamlar muttasil tarzda qayta-qayta yangidan takror yaratilib turadigan sotsial aloqalar va sotsial amaliyotni (masalan, nikoh instituti, oila instituti va boshq.) ta'minlab turadigan mexanizmdir. E. Dyurkgeym sotsial institutlarni «ijtimoiy aloqalarni takror ishlab chiqaradigan fabrikalar» deganida mutlaqo haq edi. Bu mexanizmlar ham kodifikatsiyalashgan¹⁷⁶ qonunlar to'plami, ham mavzulashmagan qoidalar (ularni buzganda ko'rinib qoladigan norasmiy «yashirin» holdagi), sotsial me'yorlar, tarixan u yoki bu jamiyatga mansub bo'lgan qadriyatlar va ideallarga tayangan holda ishlaydi. Ular ba'zi darsliklarda qayd etilganidek, «hayotiy yashovchanlikning (sotsial tizimning) hal qiluvchilik darajasida oldindan belgilab beriladigan kuchli va qudratli arqonlardir»¹⁷⁷.

Boshqa tomondan qaraganda, qator tadqiqotchilar turli xalqlarning sotsial institutlari o'rtasida ancha prinsipal farqlar borligiga e'tibor

¹⁷⁵Scott R. Institutions and Organisations.-London:Sage,2001.-P.29-31.

¹⁷⁶Kodifikatsiya - [lot. codificatio] — eskirgan qonunchilikni bekor qilish yoki qaytadan ko'rib chiqish asosida davlat qonunlarini alohida sohalar bo'yicha tizimlashtirish.

¹⁷⁷Основы социологии: Курс лекций/[А. И. Антолов, В. Я. Нечаев, Л. В. Пиковский и др.: Отв. ред. \Г. Эфендиев.-М., 1993.-С.130.

qaratmoqda. Shu bilan birga, bu tadqiqotchilar fikricha, sotsial institutlar o'z xususiyatlaridan kelib chiqib u yoki bu jamiyatlar rivojlanishi yoki inqirozga yuz tutishini belgilab berishi mumkin ekanligi ko'rinib qolmoqda. Sotsial institutlarning jamlanmasi jamiyatning «institutsional matritsasi»ni tashkil etib, unda butun bir sotsial hayotning kechishi uyushtirilmoqda¹⁷⁸.

Jamiyatning hayotiy faoliyat sohalari. Sotsial institutlarni o'rganishda jamiyatning 4 ta — iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy hayot faoliyatlari sohalarini bir-biridan ajratgan holda tahlil etishga ehtiyojlar tug'iladi. Bu hayotiy faoliyat sohasining har biriga turli ijtimoiy institutlar taalluqli bo'lib, ularda turli ijtimoiy aloqalar paydo bo'ladi. Ular asosan quyidagilardir:

Iqtisodiy — ishlab chiqarish jarayonlaridagi aloqalar (ishlab chiqarish, taqsimot, iste'mol, moddiy boylik). Iqtisodiy sohaga taalluqli institutlar quyidagilardir: xususiy mulk, moddiy ishlab chiqarish, bozor va boshq.

Sotsial — har xil sotsial va turli yoshli odamlardan iborat bo'lgan guruhlarining o'zaro aloqalari; sotsial kafolatlarni ta'minlash bo'yicha faoliyatlar. Sotsial sohaga oid institutlar quyidagilardir: tarbiya, oila, sog'liqni saqlash, sotsial ta'minot va boshq.

Siyosiy — fuqarolik jamiyati va davlat, davlat va siyosiy partiyalar o'rtasidagi, shuningdek davlatlararo aloqalar. Siyosiy sohaga tegishli institutlar quyidagilardir: davlat (parlament, hukumat, sud tizimi), huquq, siyosiy partiyalar, armiya va boshq.

Ma'naviy — ma'naviy qadriyatlarni yaratish va saqlash jarayonida vujudga keladigan aloqalar, axborotlarni yaratish, tarqatish va iste'mol qilish. Ma'naviy sohaga taalluqli institutlar quyidagilardir: ta'lim, fan, din, san'at, OAV va boshq.

Institutlashuv. «Sotsial institut» iborasining dastlabki ahamiyati har qanday ko'rinishdagi tartibotni yo'lga qo'yish, ijtimoiy aloqalarni rasmiylashuvi va standartlashuvi tavsiflari bilan chambarchas bog'liqdir. Tartibga solish, rasmiylashuv va standartlashuv jarayonlarining o'zi *institutlashuv* deb ataladi. Institutlashuv jarayoni, ya'ni sotsial institutni tuzilish jarayoni izchillik asosidagi bir necha bosqichlardan iboratdir¹⁷⁹:

- ehtiyojlarning vujudga kelishi (qoniqtirilishi hamkorlikdagi uyushgan xatti-harakatlarni talab qiladigan);

¹⁷⁸Теория институциональных матриц: в поисках новой парадигмы // Журнал социологии и социальной антропологии. №1, 2001. - С. 24.

¹⁷⁹Фролов С.С. Социология. Учебник. Для высших учебных заведений. Раздел III. Социальные взаимосвязи. Глава 3. Социальные институты. - М.: Наука, 1994. - С. 175-176.

- umumiy maqsadlarni shakllantirish;
- sinab ko'rish va xatolarni tuzatish usullari bilan amalga oshadigan, o'z-o'zidan kechadigan sotsial o'zaro ta'sirlar sharoitida sotsial me'yorlar va qoidalarning paydo bo'lishi;
- me'yorlar va qoidalar bilan bog'liq bo'lgan rasmiy o'rnatilgan harakat tartibotining vujudga kelishi;
- me'yor va qoidalarni institutlashuvi, ya'ni ularni qabul qilish va hayotda qo'llash;
- me'yor va qoidalarni qo'llab-quvvatlash uchun sanksiyalar tizimini o'rnatish, alohida holatlarda ularni qo'llash taqsimotini muvofiqlashtirish;
- hech bir institut a'zosini istisno qilmagan holda barchani o'ziga qamrab oladigan maqomlar va rollar tizimlarini tuzish.

Va nihoyat, bu sotsial jarayon ishtirokchilarining ko'pchiligi tomonidan sotsial jihatdan ma'qullangan aniq maqom-rollar strukturalari bilan me'yorlar va qoidalarning o'zaro muvofiqligini ta'minlab turadigan mexanizmlarni yaratishni institutlashuv jarayonining xotimasi, deb tushinish mumkin.

Shuningdek, institutlashuv jarayoni o'z ichiga qator jihatlarni oladi. Sotsial institutlar paydo bo'lishining zaruriy shartlaridan biri — bu unga nisbatan tegishli sotsial iste'molning paydo bo'lishidir. Institutlar jamiyatdagi u yoki bu sotsial ehtiyojlarni qoniqtirish maqsadida odamlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish vazifasini bajarish uchun yaratiladi. Jumladan, oila instituti inson zotini takroran yaratib turish va bolalarni tarbiyalash ehtiyojlarini qondiradi, jinslar va avlodlar o'zaro aloqalarini amalga oshiradi va hokazo. Oliy ta'lim instituti ishchi kuchini tayyorlashni ta'minlaydi, odamga keyingi hayotiy faoliyatini yuksakroq darajada amalga oshirishi, o'z tirikchiligini ta'minlashi uchun uning qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyatlar yaratadi. Muayyan ijtimoiy ehtiyojlarning vujudga kelishi, shuningdek, ularni qondirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish — institutlashuvning eng zaruriy va dastlabki vazifasi hisoblanadi.

Sotsial institutlar aniq individlar, sotsial guruhlar va birliklarning o'zaro sotsial ta'siri, munosabatlari va aloqalari asosida shakllanadi. Lekin, boshqa sotsial tizimlarda bo'lganidek, ular individlar va ularning o'zaro ta'sirlari kabilar bilan cheklanib qolmaydi. Sotsial institutlar individual usti (individlarga bog'liq bo'lmagan holda) xususiyatiga ega bo'lib, o'zining xususiy tizimiy sifatiga egadir. Darhaqiqat, sotsial institut o'zining rivojlanish mantig'iga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy tuzilmadir. Shu jihatdan, sotsial institutlarga nisbatan o'z strukturalarining barqarorligiga va unsurlarining integratsiyasiga erishgan, o'z funksiyalarining muayyan

tarzda o'zgaruvchanligini ifodalaydigan uyushgan sotsial tizim sifatida qarash mumkin.

Bunda so'z qadriyatlar, me'yorlar, ideallar tizimi, shuningdek odamlar faoliyatlari, xulqlari va sotsiomadaniy jarayonlarning boshqa unsurlari haqida ketmoqda. Bu tizim odamlarlarning o'xshash xulqlarga ega bo'lishini kafolatlaydi, ularning muayyan intilishlarini o'zaro kelishtiradi va bir oqimga soladi, ehtiyojlarni qondirish usullarini o'rnatadi, kundalik hayot jarayonlarida paydo bo'lib turadigan ixtiloflarni hal etadi, u yoki bu ijtimoiy birlik va jamiyat miqyosidagi muvozanat hamda barqarorlik holatlarini ta'minlaydi. Bu institutlashuvning *birinchi* muhim unsuridir.

Lekin, bularning o'zi sotsial institutlarning amal qilishini ta'minlay olmaydi. Sotsial institutlarning ishlab turishi uchun ular shaxs ichki olami-ning boyligiga (mulkiga) aylanishi, uning sotsiialashuv jarayoniga birlashuvini ta'minlashi, shaxsni sotsial rol va maqom shaklida mujassamlashuvi talab etiladi. Individlarning barcha sotsiomadaniy unsurlar bilan birlashuvi, ular asosida shaxs ehtiyojlari tizimini, qadriyatli mo'ljallari va umidlarining shakllanishi institutlashuvning *ikkinchi* muhim unsuri hisoblanadi.

Institutlashuvning *uchinchi* muhim unsuri — bu sotsial institutning tashkiliy rasmiylashuvi hisoblanadi. Tashqaridan qaraganda, sotsial institut muayyan moddiy mablag'lar bilan ta'minlangan, muayyan sotsial funksiyalarni bajarayotgan tashkilotlar, mussasalar yig'indisiga o'xshab ko'rinadi. Jumladan, oliy ta'lim instituti o'z faoliyatida muayyan moddiy qadriyatlarga (binolar, moliya va boshq.) ega bo'lgan, muayyan vazirlik doirasidagi professor-o'qituvchilar, xizmat ko'rsatish xodimlari, mansabdorlar o'zaro munosabatlaridagi xatti-harakatlar natijasi o'laroq yashaydi.

Shu tariqa, sotsial institutlar — bu odamlarning shaxsiy sifatlari o'zgarishlar natijalariga nisbatan kam ta'sirlanadigan, sotsial hayotning turli sohalarini (nikoh, oila, mulk, din) muvofiqlashtiruvchi barqaror qadriyatli-me'yoriy majmualar va sotsial mexanizmlardir. Lekin, ular o'zlarining qoidalariga «o'ynaydigan» va faoliyat olib boradigan odamlar tomonidan harakatga solinadi. Shu tariqa, «monogam oila instituti» faqat alohida olingan oilani emas, balki muayyan ko'rinishdagi son-sanoqsiz ko'plab amalda namoyon bo'layotgan me'yorlar majmuilarini nazarda tutadi¹⁸⁰.

Taniqli sotsiolog olimlar — *P.Berger* va *T.Lukman* talqinicha, institutlashuv gabituallashish¹⁸¹ jarayonidan oldin ro'y beradigan, yoki

¹⁸⁰Грицанова.А.Энциклопедия социологии.-М.:Книжный Дом,2003.-С.125.

¹⁸¹Gabitus - [lot. habitus tashqi ko'rinish, sirtqi qiyofa] - odam, jonivor, o'simlik va boshqalarning tashqi ko'rinishi.

keyinchalik tabiiylik sifatida o'zida quyidagi jarayonlarni ifodalaydigan hodisadir: ma'lum o'z mashg'ulotlarini amalga oshirishni o'z me'yorida deb bilishi, yoki turli vaziyatlarda paydo bo'ladigan muammolarni hal etish faoliyatlari namunalarining shakllanishi kabi kundalik turmush kechirishga «odatlanib qolish» demakdir¹⁸². Xatti-harakatlar (turmush kechirish) namunalari dastlab obyektiv sotsial dalillar ko'rinishida tavsiflanadigan va kuzatuvchilar tomonidan «sotsial voqelik» (yoki sotsial institutlar) sifatida qabul qilinadigan sotsial institutlar shakllanishlarining asosi sifatida namoyon bo'ladi.

5.2. Sotsial institutlarning strukturasi va funksiyalari

Sotsial institut tushunchasi quyidagilarni ko'zlaydi: a)jamiyatda ehtiyojlarning mavjud bo'lishi va ularni sotsial amaliyot va sotsial aloqalarni takroran ishlab chiqarish mexanizmlari bilan qondirib borish; b)bu mexanizmlar individual usti tuzilmalardan iborat bo'lib, ular ijtimoiy hayotni, yoki uning alohida sohasini, lekin, farovonlikka doir barcha jihatlarni muvofiqlashtiruvchi qadriyatli-me'yoriy majmualar sifatida namoyon bo'ladi.

Ularning strukturasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xulqlar va maqomlarning (ularni ijro etish ko'rsatmalari) roliga doir modellar;

- ularni dunyoni «tabiiy ravishda» ko'rishiga qaratilgan kategoriyalar namunalarida asoslash (nazariy, mafkuraviy, diniy, mifologik);

- sotsial tajribalarni eshittirish va ko'rsatish vositalari (moddiy, ideal va timsoliy), shuningdek bir xulqni rag'batlantiruvchi, boshqasini jazolovchi chora-tadbirlar, institutsional tartibotni ushlab turish vositalari;

- sotsial vaziyat (joylashuv) — institutlarning o'zi sotsial vaziyatlarni ifoda etadi («bo'sh» sotsial vaziyatlar bo'lmaydi, shuning uchun sotsial institutlar subyektlari haqidagi masala qo'yilmaydi).

Har bir institutning *o'z bosh funksiyasi* bo'lib, u uning muayyan sotsial amaliyoti va aloqalarini takror ishlab chiqarish va mustahkamlash bo'yicha uning bosh sotsial roliga bog'liq bo'lgan qiyofasini tavsiflaydi. Agar bu armiya bo'lsa, uning roli o'zini harbiy qudratini namoyish qilish va harbiy harakatlarda ishtioq etish yo'llari bilan mamlakatda harbiy-siyosiy xavfsizlikni ta'minlashdan iboratdir. Undan tashqari, uning boshqa institutlar uchun ham xos bo'lgan, bosh funksiyasini bajarishni

¹⁸² Batafsilroq qarang: Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания. - М.: Медиум, 1995.

ta'minlashga qaratilgan boshqa *ochiq funksiyalari* ham mavjud bo'ladi. Ochiq funksiyalardan tashqari *latent (yashirin) funksiyalar* ham mavjuddir. Masalan, sobiq ittifoq davrida armiya o'ziga uncha xos bo'lmagan vazifalar — «uchinchi dunyoga» yordam, turli xo'jalik ishlari, turli isyonlarni bostirish kabi funksiyalarni ham bajarar edi.

Sotsial institutlar ijtimoiy hayotda quyidagi *funksiyalar* va vazifalarni bajarali:

- individlar, sotsial guruhlar va birliklarni o'zlarining turli ehtiyojlarini qondirishlari uchun imkoniyatlar bilan ta'minlaydi;

- o'zi maqbul deb hisoblaganini rag'batlantirish, noma'qul deb bilganlarini jazolash kabi yo'llar bilan sotsial aloqalar doirasida individlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi;

- o'zining sotsial regulyatorlari tizimi bilan umumiy sotsial tartibotni belgilaydi va ushlab turadi, o'ziga xosliklarga ega bo'lmagan ijtimoiy funksiyalarni takror ishlab chiqarishni amalga oshiradi (ya'ni, inson manfaatlari va shaxsiylik belgilariga bog'liq bo'lmagan, doimo bir xil yo'l bilan amalga oshiriladigan funksiyalar);

- individlarning intilishlari, xatti-harakatlari va aloqalarini integratsiyalashga doir funksiyalarni bajaradi, birlikning ichki jipslashuvini ta'minlaydi¹⁸³.

Bu sotsial funksiyalarning yig'indisi sotsial tizimlarning muayyan turi sifatida sotsial institutlarning umumiy sotsial funksiyalarida namoyon bo'ladi. Bu funksiyalar juda ham turli-tumandir. Shuning uchun ham sotsiologiyadagi institutsional maktab vakillari (*S.Lipset, D.Landberg* va boshq) sotsial institutlarning to'rtta asosiy funksiyalarini alohida ajratib ko'rsatdi.¹⁸⁴

Jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish funksiyasi. Bu funksiyani asosan oila bajarsada, unga qandaydir darajada boshqa institutlar, masalan, davlat ham daxldordir. Sotsiallashtirish — mazkur jamiyatda o'rnatilgan xulqlar va faoliyat ko'rsatish usullari namunalarini — oila, ta'lim, din kabi institutlar vositasida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish va taqsimlash. Boshqaruv va nazorat qilish iqtisodiy-sotsial institutlar — hokimiyat organlari tomonidan ta'minlanadi. Boshqaruv va nazorat qilish funksiyalari xulqlarning tegishli turlarini muvofiqlashtirib turadigan sotsial me'yorlar va ko'rsatmalar tizimi vositasida bajariladi: ma'naviy va huquqiy me'yorlar, urf-odatlar, ma'muriy qarorlar va boshq.

¹⁸³Qarang:Щепаньский Я.Элементарные понятия социологии/Пер.с польск.-Новосибирск:Наука.Сиб.отд.,1967.-С.106.

¹⁸⁴Qarang:Радугин А.А.,РадугинК.А.Социология:Курс лекций:Для студентов и преподавателей вузов.-М.:Владос,1995.-С.124.

Sotsial institutlar individlar xulqlarini sanksiyalar tizimi vositasida boshqaradi.

Sotsial institutlar o'zlariga xos vazifalarni bajarishdan tashqari, ularning har biri yana o'ziga xos bo'lgan boshqa universal funksiyalarni ham bajaradi.¹⁸⁵ Ijtimoiy aloqalarni takror ishlab chiqarish va mustahkamlash; har bir institut o'zining ideallashuv yo'lidan ketayotgan ishtirokchisi xulqini standartlaydigan va mustahkamlaydigan xulqlar me'yori va qoidalari to'plamlariga egadir; sotsial nazorat har bir institut a'zosi faoliyati kechadigan tartibot va doiralar chegaralarini belgilashni ta'minlaydi. Bu bilan institut jamiyat strukturalari barqarorligini ta'minlab boradi; oila instituti jamiyat a'zolari barqaror kichik guruhlariga — oilalarga bo'linishini ko'zlaydi; sotsial nazorat har bir oilaning barqaror holatini ta'minlaydi, uning inqirozga yuz tutishini chegaralaydi.

Yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi (regulyativ) funksiyasi. Bu funksiya xulqning namunalari va qoliplarini ishlab chiqish yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Inson umri turli sotsial institutlarda ishtirok etish bilan o'tadi, biroq har bir sotsial institut odamlar faoliyatini tartibga soladi va muvofiqlashtiradi. Demak, inson sotsial institutlar yordamida oldindan mo'ljallangan xatti-harakatini va standartlashgan xulqini namoyish etadi, o'zining rollari talablarini va kutib turish vazifasini bajaradi.

Integrativ funksiyasi. Bu funksiya odamlarning o'zaro bog'liqligini, o'zaro mas'ulligini va ularning jipslashuvini ta'minlaydi. Bu jarayon institutlashgan me'yorlar, qadriyatlar, qoidalar, rollar va sanksiyalar tizimlari ta'sirida yuz beradi. U sotsial strukturalar unsurlari tizimining yaxlitligiga va barqarorligiga olib keladigan o'zaro ta'sirlar tizimini tartibga solib turadi

Uzatish (translyasiya) funksiyasi. Jamiyat sotsial tajribalarni uzatishlarsiz yashay olmaydi. Har bir institut o'zining me'yorlariga amal qilishi uchun o'z qoidalarini o'zlashtirgan yangi odamlarning kelishiga ehtiyoj sezadi. Bu institutning sotsial chegarasini o'zgarishi va avlodlar almashinuvi yo'li bilan amalga oshadi. Demak, har bir institutda o'zining qadriyatlariga, me'yorlariga va rollariga moslashgan holdagi sotsiallashish mexanizmlari oldindan yaratilgan bo'ladi.

Kommunikativ funksiyasi. Institut tomonidan tayyorlangan va beriladigan axborotlar ham institut ichida (sotsial me'yorlarga amal qilishni

¹⁸⁵ Batafsilroq qarang: Андреев Ю.П., Коржевская Н.М., Костина Н.Б. Социальные институты: содержание, функции, структура.-Свердловск: Изд-во Урал.ун-та,1989.-С.19-27;Фролов С.С. Социология:Учебник для высш.учеб.заведений.2-е изд., перераб. и доп.-М.:Издательская корпорация "Логос",1996.-С.173-175.

boshqarish va nazorat qilish maqsadida), ham institutlararo aloqalarda tarqatilishi lozim. Bu funksiya o'zining alohida xususiyatiga ega, ya'ni u turli rasmiy aloqalardan iborat bo'ladi. Institutda ommaviy axborot vositalari (OAV) mavjudligining o'zi — bu asosiy funksiyani bajarilayotganligidan darak beradi. Ilmiy muassasalar axborotlarni faol tarzda qabul qiladi. Institutlarning axborotlarni almashish va ayirboshlash imkoniyatlari turlichadir: bu jarayonlarni ba'zilar katta darajada, ba'zilar kichik darajada amalga oshiriladi.

Funksional sifatlari. Sotsial institutlar o'zlarining funksional sifatlari bilan bir-birlaridan farqlanadi: siyosiy institutlar — bu davlat, siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi, siyosiy hokimiyatning muayyan shakllarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan jamoat birlashmalaridir. Ularning jamuljami mazkur jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi. Siyosiy institutlar mafkuraviy qadriyatlarni takror ishlab chiqish va barqaror holda saqlashni ta'minlaydi, jamiyatda ustunlik qilayotgan sotsial-siyosiy strukturalarni barqarorlashtiradi.

Sotsiomadaniy va tarbiyaviy institutlar madaniy va sotsial qadriyatlarni o'zlashtirish, keyinchalik ularni takror ishlab chiqarish, individlarni muayyan submadaniyatlarga kirishiga sharoitlar yaratish, shuningdek individlarni xulqning sotsiomadaniy standartlarini o'zlashtirishi vositasida sotsiallashtirish, va nihoyat, mavjud qadriyatlar va me'yorlarni himoya qilish maqsadlarida faoliyat yuritadi.

Me'yoriy-yo'naltiruvchi institutlar — bu individlar xulqlarini tartibga solish va ma'naviy-etikaviy yo'nalish olish mexanizmlaridir. Ularning maqsadlari — xulqlar va motivatsiyalarga axloqiy dalillashlar va etikaviy asoslarni kiritishdan iboratdir. Bu institutlar sotsial tuzimalarda bajarilishi shartligini talab etuvchi (imperativ) umuminsoniy qadriyatlarni, maxsus kodekslarni va xulq etikasini tasdiqlab turadi.

Me'yoriy-sanksiyalovchi institutlar — bu huquqiy va ma'muriy aktlarda mustahkamlangan me'yorlar, qoidalar va ko'rsatmalar asosida individlar xulqlarini sotsial jihatdan tartibga solib turuvchi institutlardir. Me'yorlarga amal qilishning majburiyligi davlatning zo'rlash kuchi va tegishli sanksiyalar tizimi vositasida ta'minlanadi.

*Marosim-timsoliy va vaziyatli-konvensional*¹⁸⁶ institutlar konvensional (shartnomalar bo'yicha) me'yorlarni ko'proq va ozroq qabul qilishga, ularni rasmiy va norasmiy mustakamlashga asoslanadi. Bu me'yorlar guruhiy va guruhlararo xulqlarning turli-tuman aktlarini, kundalik aloqalarini

¹⁸⁶Konvensional - [lot. conventionalis shartnoma yoki shart-sharoitlarga muvofiq] — shartli, qabul qilingan, o'rnatilgan an'analarga muvofiq.

tartibga soladi. Ular xulqlar o'zaro muloqotlarining tartibi va usullarini belgilaydi, axborotlar, tabriklar, murojaatlar kabilarning o'zaro uzatish va almashish usullarini tartibga soladi, birlashmalarning faoliyati, majlislari tartiboti nizomlarini ishlab chiqadi.

Rasmiy va norasmiy sotsial institutlar. Bu institutlar — funksiyalari hajmi, vositalari, amal qilish usullari qonunlar yoki boshqa me'yoriy huquqiy aktlar, rasmiy tasdiqlangan farmoyishlar, qoidalar va nizomlar kabi ko'rsatmalar bilan tartibga solinadigan institutlardir. Rasmiy sotsial institutlarga davlat, sud, armiya, oila, maktab kabilar kiradi. Ular o'zlarining boshqaruv va nazorat funksiyalarini qattiq o'rnatilgan rasmiy tartibotlar, negativ va pozitiv sanksiyalar asosida amalga oshiradi. Rasmiy institutlar jamiyatni birlashtirish va barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Norasmiy institutlar — ularning funksiyalari, vositalari va faoliyat usullari rasmiy qoidalar bilan o'rnatilmaydi (ya'ni, maxsus qonunlar va boshqa me'yoriy aktlarda belgilanmaydi va mustahkamlanmaydi). Shunga qaramay, norasmiy institutlar rasmiy darajalarda ham boshqaruv va nazorat funksiyalarini keng sotsial hajmlarda bajaradi, jamoaviy ijodkorlik, havaskorik va fuqarolarning boshqa xohish-irodalarini amalga oshiradigan (manfaatlar bo'yicha birlashmalar, turli ko'ngil ochar xizmatlar va boshq.) faoliyatlar bilan shug'ullanadi¹⁸⁷. Bu kabi institutlarda sotsial nazorat norasmiy sanksiyalar asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, bu jarayon jamoatchilik fikrlarida, an'analarda, urf-odatlarda qayd etilgan me'yorga asoslanadi. Bu sanksiyalar ko'pincha odamlar xulqlarini nazorat qilishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsial institutlarning jamiyat rivojlanishidagi roli. AQSh olimlari *Daron Adjemoglu* va *Jeyms A. Robinsonlar* fikricha, u yoki bu mamlakatdagi ijtimoiy institutlarning o'ziga xos xususiyatlari mazkur mamlakat rivojlanishining muvafaqqiyatli kechishini yoki xalokatini belgilaydi¹⁸⁸. Jahondagi ko'plab mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda olimlar quyidagi xulosaga keldi: har qanday mamlakat rivojlanishining hal qiluvchi va zaruriy shart-sharoiti unda ijtimoiy institutlarning (ingl. *Inclusive institutions* — hammabop institutlarning) mavjudligi hisoblanadi. Sotsial institutlarning roli kuchli bo'lgan mamlakatlar sirasiga rivojlangan mamlakatlarni kiritish mumkin. Sotsial institutlari yopiq bo'lgan (yoki ahamiyati kam bo'lgan) mamlakatlar rivojlanish sur'atlaridan ancha orqada qolmoqda. Bu mamlakatlarda sotsial

¹⁸⁷Qarang: Социология: Учеб. пособ. для студентов высш. учеб. заведений // А. Н. Елсуков, Е. М. Бабосов, А. Н. Данилови др. - Минск, 1998. - С. 119.

¹⁸⁸Acemoglu D. Robinson J. The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation / The American Economic Review (англ.) русск., Vol. 91, No. 5 (Dec., 2001), pp. 1369-1401.

institutlar bu institutlarni nazorat qilayotgan elitaning boyishiga xizmat qilmoqda¹⁸⁹. Mazkur olimlar fikricha, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga siyosiy rivojlanish sohasida ilgari ketmay turib erishib bo'lmaydi, ya'ni hammabop siyosiy institutlarni shakllantirmasdan rivojlanish mumkin emas.

5.3. Iqtisodiy institutlar

Mulk, mehnat va ishlab chiqarish. Modimiki, *mulk* avvalambor *ishlab chiqarish* vositalariga (boshqa barcha mulklarga egalik qilish manbai) egalik qilishni anglatar ekan, u holda ishlab chiqarish vositalari bilan *mehnatning* qo'shilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda egalik qilish munosabatlari deganda, ishlab chiqarish vositalarining o'zi tomonidan mulkdan foydalanishi va uni tasarruf etishi nazarda tutiladi. Shu tariqa, mehnat, uning o'ziga xosligi va xususiyatlari birinchi navbatda mulk instituti bilan belgilanadi.

Mulk bilan mehnat o'zaro ta'sirlariga yana bir sotsial institut — ishlab chiqarish «aralashadi». U mulkni dastlabki tizimlashtirishni o'z ichiga oladi. *Xususiy mulk* (agar u bo'g'ib qo'yilmagan, hokimiyat va mafkura tomonidan mushkul ahvolga tushmagan bo'lsa) ishlab chiqarishning iqtisodiy va sotsial erkinligi manbai sifatida aql bovar qilmas darajada foyda keltira boshlaydi. Bu xususiy mulk institutining asosiy funksiyalaridan biridir. Uning yana bir muhim funksiyalaridan biri — bu ishlab chiqarish jarayonining aniq ishtirokchilari mehnat faoliyatini rag'batlantirishdir (agar u xususiy mulkchilik asosida tashkil etilgan bo'lsa). Mulk predmet va buyumlarga doir o'zaro ta'sirlardan iborat ekanligi uchun ham u odamning mulkka alohida munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Modomiki, mulk insonning tabiiy davom etishi, uning zoti mohiyatining bir qismi ekanligini e'tiborga olsak, bu — insonni o'ziga o'zining munosabatini bildiradi. Ana shu ma'noda mulk — bu doimo xususiy, shaxsiylikdan iborat bo'lgan insoniy xususiyatdir. Agar mulk qandaydir «ijtimoiy» subyekt tomonidan (masalan, davlat tomonidan) o'zlashtirib yoki egallab olinsa, u o'zining ana shu xususiyatlarini butunlay yo'qotadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda *xususiy mulk yollash instituti* (sotsial himoyalangan yollash) bilan mustahkam ravishda bog'langan. Shu sababli ishlab chiqarish ishtirokchilari o'zlarining jamoaviy (birlashgan, guruhiy) mulkini doimo ko'payib borishiga erishadi. Jumladan, AQShda 80 % aholi yollanish bo'yicha ishlaydi, ya'ni ishlab chiqaruvchi xususiy mulkka egalik qilmaydi. Milliy boylikning uchdan bir qismini xususiy kapital tashkil

¹⁸⁹O'sha joyda.-B.1398-1399.

etadi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda ijara asosida rivojlanayotgan qishloq xo'jaligida ham xususiy mulk ustunlik qilmaydi. Qishloq xo'jalik xodimlari umumiy soniga nisbatan ijarachilar hissasi AQShda — 45, Fransiyada — 50, Belgiyada — 70, Gollandiyada — 100 foizni tashkil etadi¹⁹⁰.

Sotsial institutlar, umuman, iqtisodiy institutlarning xususan o'ziga xosligi shundaki, ular chambarchas o'zaro aloqalar va o'zaro bog'liqlarda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvda mulk instituti o'ziga xos alohida o'rinni egallaydi. Yuqorida uning ishlab chiqarish va mehnatga katta ta'siriga to'xtalgan edik. Bu sohada tasavvurlarning to'liq bo'lishi uchun bozor institutiga doir tushunchalarni bilishga ehtiyoj tug'iladi.

Bozor deganda, dastavval, erkin tovar ishlab chiqaruvchilar raqobat-chiligi sharoitida talab va takliflar o'zaro nisbati muvofiqligi asosida (ekvivalent¹⁹¹ narxlar almashuvi asosida) ishlab chiqarish va tovarlar almashuviga asoslangan, o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy tizimni ifodalaydigan bozor iqtisodiyoti tushuniladi. Bozorning asosini ishlab chiqarish vositalari, shart-sharoitlari va ishlab chiqaruvchining birinchi navbatda o'z shaxsiy manfaatlarini amalga oshirishga intilishi tashkil etadi. Ayniqsa, ishlab chiqaruvchining shaxsiy manfaatini amalga oshirishga intilish hodisasi eng muhim omil hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti instituti odamlarning ishlab chiqarish sohasida birgalikdagi faoliyatlarini tashkil qilishning o'ziga xos shakli, tovarlar va xizmat ko'rsatish iste'moli, taqsimoti, almashuvi kabilardan iborat bo'lib, u insonning o'z shaxsiy manfaatini amalga oshirish imkoniyatlariga nisbatan bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Azaldan shunday fikr yuradi: insonning haqiqiy manfaati nimadan iborat va uni hayotda qanday amalga oshirish mumkinligini uning o'zidan yaxshiroq boshqa hech kim bilmaydi.

Biz oldin sobiq ittifoq davrida davlat-rejali iqtisodiyoti asosida yashagan bo'lsak, mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotiga o'ta boshladik. Davlat-rejali iqtisodiyotida odamlarga nimalar kerakligi va zarurligini rahbariyat yaxshiroq biladi. O'sha zamonda odamlarga oldin metall, uskunarlar, samolyotlar, raketalar, keyin esa oziq-ovqatlar, kundalik va uzoq vaqt foydalaniladigan tovarlar kerak, degan g'oyalar keng tarqaldi.

¹⁹⁰Макконелл К.Р, Брю С.А. Экономические принципы, проблемы и политика. - М., 1992. - С.46-47.

¹⁹¹Эквивалент - 1) lot. aequus teng + valens (valentis) kuchiga, ahamiyatiga, bahosiga ega bo'lgan] - 1) nimanidir (masalan, predmet, miqdor) nimagadir teng bahoda yoki boshqa tegishli munosabatda (masalan, boshqa predmet yoki miqdorga) uning o'rnini bosuvchi yoki uning ifodasi bo'lib xizmat qiluvchi; 2) boshqa tovarning qiymatini ifodalaydigan tovar ekvivalent tovar, deyiladi; barcha boshqa tovarlarning qiymatini o'zida ifodalaydigan tovar, umumiy ekvivalent (pul) deyiladi.

Lekin, bozor instituti konsepsiyasiga muvofiq, odamning o'zi davlatga nisbatan o'ziga nimalar zarurligini, uning ehtiyojlari nimalardan iborat ekanligini yaxshiroq bilish imkoniyatiga ega ekanligi o'z isbotini topdi. Bu individga hayot kechirish uchun avvalambor o'ziga o'zi tayanishi lozimligiga odatlantiradi, o'zini vahima va xavf-xatarlarga dadil qarshi borishga o'rgatadi. U qandaydir natijalarga erishib, bu bilan o'zini, jamiyatni va davlatni boyligini oshirishga bevosita hissa qo'shadi.

Taniqli ingliz iqtisodchisi *Adam Smitt* (1723-1790) bozor instituti sharoitida odam xulqining asosiy prinsipi bo'lgan quyidagi fikrni bildirgan edi: «Sen o'zingning xususiy manfaatlarining ketidan quvib borishga ongli ravishda intilayotgan bo'lsangda, bu bilan sen unga qaraganda ko'proq umumiy boylik uchun imkoniyatlar yaratgan bo'lasan»¹⁹². Bu prinsip keyinchalik bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish uchun muhim rol o'ynadi.

Ishlab chiqarishni sotsial institut sifatida tadqiq etish ikkita darajada amalga oshiriladi. Birinchisi, ishlab chiqarishning jamiyatdagi o'rni darajasi; bu uning boshqa sotsial institutlar bilan aloqalariga taalluqli bo'lib, u bu darajada keng va umumiy holat kasb etadi. Bunda ishlab chiqarish sotsial institut sifatida namoyon bo'ladigan asosiy ijtimoiy tizim sifatida o'rganiladi.

Uning ikkinchi darajasini maxsus daraja, deb atash mumkin. Chunki, unda ishlab chiqarishning o'zidagi tashkilotlar, strukturalar, sotsial jarayonlar, sotsial rollar, me'yorlar va funksiyalar to'g'risida so'z ketadi. O'z navbatida, bu ikkinchi daraja institutsional tahlil asosida aniqlashib boradi. Ishlab chiqarishni sotsial institut sifatida o'rganishning muhim vazifasi — bu uning odamlar mehnat faoliyati motivlariga, jarayonlariga va natijalariga ta'sirini tahlil etish demakdir¹⁹³.

Ishlab chiqarishning asosiy strukturasi va «skeleti» tashkilot hisoblanadi. Bunda shuni qayd etish zarurki, «tashkilot» iborasi ishlab chiqarish sotsial institutga tegishli unsur sifatida ikki xil mazmun kasb etadi. Birinchi mazmuni — bu tashkilotning ishlab chiqarishni tizim sifatida integratsiyalashning barqaror shakli ekanligiga urg'u berish hisoblanadi. Ikkinchisi — ishlab chiqarishning o'z me'yorida faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni tashkiliy ishlar bilan bog'liqdir. Ikkinchisi ochiq-oydin ko'rinib turgan voqelik bo'lgani uchun, birinchisiga — asosiysiga — ishlab chiqarishning sotsial institut sifatidagi mazmuniga to'xtaymiz.

Ishlab chiqarishning tashkiliy strukturasi ko'rib chiqishda uning asosiy funksiyalarini ikki guruhga ajratish taqozo etiladi — *ishlab chiqarish-*

¹⁹²Adam Smit//<http://design-for.net/page/adam-smit>.

¹⁹³O'sha joyda.

iqtisodiy va sotsial yoki *sotsial-tashkiliy*. Birinchisi o'z ichiga ishlab chiqarishni tashkil etish, uni sotish, moddiy-texnikaviy ta'minlash kabilarni oladi. Sotsial-tashkiliy funksiyalar esa ishlab chiqarish jarayonida odamlarning o'zaro aloqalari va ishlab chiqarish jamoasini tashkil etish kabilardan iboratdir.

Ishlab chiqarishni sotsial tashkil etishning (uyushtirishning) «o'zagi» *sotsial struktura* hisoblanadi. Ishlab chiqarishni sotsial jihatdan tashkil etish — bu alohida ishlab chiqarish jamoalarining maqomlari, ijtimoiy aloqalar tizimidagi o'rnidir. Bu yana ham jamoalar, ham tashkilotlar, ham alohida strukturaviy ostki bo'limlarning ishlab chiqarish tizimida bajarayotgan funksiyalaridir.

Ishlab chiqarishning sotsial strukturasi asosida *mehnat taqsimoti* — ham *funksional* sifatida, ham *kasbiy yo'nalish* sifatida yotadi. Shuning uchun xodimlarning kasbiy bo'linishi va mehnatning kasbiy bo'linishi o'rtasidagi farqlanishlarni bir-biridan ajratib olish lozim. Birinchisi — uning moddiy-buyumlar ta'minoti tarafida turgan ikkinchisining shaklidir. Ishlab chiqarishning kasbiy strukturasi odamlar (odamlar guruhlari) o'rtasidagi sotsial-iqtisodiy farqlanishlarni ifodalaydi va ma'lum darajada ularni shakllantiradi.

Sotsial strukturani *sotsial tarkibdan* farqlash lozim. *Sotsial struktura* o'lchanayotgan guruhlar sonini, kasb-kori va mashg'uloti bo'yicha birlashuvlarni ifodalaydi. *Sotsial tarkib* esa turli ishlarda mashg'ul bo'lgan odamlarning soni bo'yicha statistik ma'lumotlardan iborat tushunchani anglatadi. Sotsial tarkibning turli-tuman ekanligi ishlab chiqarishning kasbiy tarkibi (shuningdek, kasbiy strukturalar ham sotsial strukturaning bir ko'rinishi) hisoblanadi. Umuman olganda, sotsial tarkib — sotsial strukturaning asosidir.

Ishlab chiqarishda sotsial strukturaning ko'plab turlari uchraydi. Ularning mezoni kasblar, malakalar, ta'lim darajasi, demografik belgilar — jinsi, yoshi, oilasining mavjudligi, millatga mansubligi kabilardan iboratdir. Shu tariqa, ishlab chiqarish instituti sotsial institut sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, u jamiyatni o'rganishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni. O'zbekiston davlati mustaqillikning dastlabki o'n yilligida jahonga industrial-agrar davlat sifatida tanila boshlandi. Davlat va hukumat tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi — «O'zbek modeli» bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirila boshlandi. Jahondagi aksariyat

mamlakatlar «O‘zbek modeli»ni yangi rivojlanish yo‘li sifatida e‘tirof eta boshladi. Qisqa davr — dastlabki o‘n yillik ichida mamlakat xalqaro iqtisodiy integratsiyadan o‘ziga munosib o‘rinni olishga erishdi.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich va izchillik asosida amalga oshirilib, bu holat jamiyatni tinch va barqaror tarzda o‘tish davriga kirishini ta‘minlab berdi. Bu jarayonda quyidagi keskin o‘zgarishlar amalga oshirildi:

- islohotlar strategiyasi va taktikasi mamlakat tarixiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini, aholining mentalitetini hisobga olgan holda shakllantirildi;

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratildi;

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida ko‘p ukladli iqtisodiyot asoslari shakllantirildi;

- milliy iqtisodiyotning eng murakkab sohasi — qishloq xo‘jaligini tubdan o‘zgartirish asosida mutlaqo yangi — bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan agrar munosabatlar shakllantirildi va qishloqda mulkdorlar sinfini yaratishga kirishildi;

- ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi va yangi demokratik institutsional o‘zgarishlar uchun keng yo‘l ochildi;

- narxlarni erkinlashtirish va bozor infratuzilmalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berildi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish asosida mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga erishildi;

- davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasi o‘laroq millat ma‘naviy-ruhiy jihatdan uyg‘ondi;

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj keng qatlamiga nisbatan davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati amalga oshirila boshlandi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashiga asoslangan ko‘p ukladli iqtisodiyot shakllandi, xo‘jalik faoliyatiga aralashuvlar chegaralandi, xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy mas‘uliyati ortib bordi, bozor infratuzilmalari rivojlandi, tashqi iqtisodiy faoliyat tizimi qayta shakllandi va valyuta tizimi erkinligi kengayib borishi natijasida real raqobat muhiti shakllandi, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, mulkdorlar roli va huquqi mustahkamlandi, jumladan, xorij investitsiyalari uchun kafolat va yengilliklar beradigan qulay va sog‘lom investitsion iqlim va rag‘batlantirish tizimi yaratildi.

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar samarasi o‘laroq tarmoqlarda texnik qayta qurishlar va

modernizatsiyalash, tabiiy va xom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foydalanish, eksportga yo'nalgan va import o'rmini bosuvchi ishlab chiqarish tizimlari shakllandi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy va institutsional o'zgarishlar, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, mavjud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy, texnik-texnologik salohiyat O'zbekistonning istiqbolda iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qila boshladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi mamlakat iqtisodiyotiga deyarli ta'sir ko'rsatmadi.

Mamlakat «O'zbek modeli»da mujassamlashgan tadrijiy taraqqiyot konsepsiyasini amalga oshirish, iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi va uni mafkuradan xoli bo'lishi, demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich joriy qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini tan olish va o'tish davrida uning ta'sirini oshirish, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi prinsiplar asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini chuqurlashtirib borish asnosida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirdi.

Mustaqillik arafasida iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligini kam samaradorligining eng asosiy sababi — bu sohaga ma'muriy-buyruqbozlik usulida rahbarlik qilish natijasi edi. Xo'jaliklar rahbarlari mayda-chuyda masalalarni ham o'zlari mustaqil hal qilolmas, faqat yuqoridan buyruq kutib turishardi. Hatto, ekish, hosilni yig'ishtirib olish, chorvani oziqlantirish me'yorlari, chorvaning turi va soni, qancha maydonga ekin ekish, paxta yetishtirish hajmi va hosildorligi faqat yuqoridan belgilanardi. O'zbekiston mustaqillik davrida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va intitutsional o'zgarishlar natijasida zamonaviy fermer xo'jaligi mamlakatiga aylandi.

O'zbekistonda mustaqillikning o'tgan 26 yili ichida zamonaviy yoqilg'i-energetika kompleksi shakllanib, bu soha rivojlangan va yuz yillab neft hamda gaz ishlab chiqarayotgan mamlakatlar darajasidan ham oldingga o'tib ketdi. Qisqa davr ichida mamlakatdagi boy energetika resurslari zamonaviy texnologiyalar asosida o'zlashtirilib, ular mamlakat milliy boyligini asosiy qismi sifatida o'zini namoyon qildi.

Mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lgan xususiy biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi ham beqiyos darajada rivojlandi. Ayniqsa, uning huquqiy asoslari fuqarolik jamiyati qurish talablari asosida shakllantirildi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sha-

roitlarida iqtisodiyotning asosi bo'lgan xususiy tadbirkorlik mustaqillik davriga kelib shakllandi.

Mamlakatda kichik biznes sohasida yakka tadbirkorlik eng ko'p tarqalgan xo'jalik sifatida rivojlandi. Mamlakatda yakka tadbirkorlarning soni 3,5 mln. dan ortib ketdi. Ular asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohaslarida band bo'ldi.

Mamlakat jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiyoti rivojlangan davlat sifatida e'tirof etildi. Bozor iqtisodiyotining eng asosiy o'zaklaridan biri bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirishdagi roli va o'rnatib bora mustahkamlanib bormoqda va bu jarayon iqtisodiyotning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarga kuchli ta'sir eta boshladi. Bu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni 200 mingtadan ko'proqni tashkil qilmoqda. Hozirgi davrda mamlakat YaIMning qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000-yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat edi, xolos. Ayni paytda, ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Ko'rinib turibdiki, 2016-yilga kelib iqtisodiyot qariyb 6 barobar, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar 9 barobardan ziyod o'sdi. Keyingi 11 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari barqaror ravishda 8 foizdan yuqori bo'lib kelmoqda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mutanosibligi, davlat byudjeti va to'lov balansining barqaror ravishda profitsit bilan bajarilishi, eksport va oltin-valyuta zaxiralarining o'sishi ta'minlanmoqda. Mustaqillikning o'tgan davri ichida «O'zbek modeli» asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish, bu sohani liberallashtirish o'zini oqladi. Mamlakatda rivojlangan mamlakatlarga xos iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish sur'atlari ro'y bera boshladi. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyatni o'sishi nafaqat ijtimoiy sohani rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi, balki jamiyatda yangi ijtimoiy qatlamlarni shakllanishiga shart-sharoitlar yaratdi. Mamlakatda mulkdorlar sinfi shakllandi. Xalqimizda xususiy mulkchilikka nisbatan yangi qarashlar shakllandi. Iqtisodiy rivojlanish natijalari aholi farovonligining manbai sifatida namoyon bo'la boshladi.

5.4. Oila va nikoh sotsial instituti

Jamiyatning o'zgarimas unsurlaridan biri — bu bir vaqtning o'zida ham sotsial institut va ham sotsial guruh sifatida yashaydigan *oiladir*. Oila kichik guruh sifatida yashash va rivojlanish qonuniyatlariga egadir. Oilaning rivojlanishi jamiyatga, o'zi amal qilayotgan siyosiy tuzum, iqtisodiy, sotsial va diniy aloqalarga bog'liqdir. Shu bilan bir vaqtning o'zida oila jamiyatning mustaqil hujayrasi hisoblanadi.

Nikoh esa oilaning boshlanishi va o'zagidir. Er-xotinlik aloqalarining o'ziga xos belgilari dastavval mazkur nikoh ittifoqining qanday motivlar bu nikohni tuzilishiga olib kelganligi bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatning iqtisodiy asosi va sotsial hayotning oilaga ta'siri sezilarli darajada motivlar vositasida ro'y beradi va ular bilan ifodalanadi. Aksariyat olimlar *nikohni* sotsial va shaxsiy maqsadga muvofiq ravishda jamiyat tomonidan sanksiyalashtirilgan barqaror jinsiy munosabatlardir, deb ta'riflansa, yana boshqa olimlar *oilani* — er-xotinlik — ota-onalik — qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, yagona umumoilaviy faoliyatga asoslangan kichik sotsial guruh sifatida ta'riflaydi.

Oilalari jamiyat hayotiy faoliyatini ta'minlaydigan qator funksiyalarni bajaradi. Ularning ichida eng muhimlari reproduktiv¹⁹⁴, tarbiyaviy, xo'jalik-iqtisodiy va rekreatsion¹⁹⁵ funksiyalardir.

Reproduktiv funksiyasi. Mazkur birinchi funksiya — bu o'ziga o'xshash avlodni takror yaratishdan iboratdir. Inson zoti o'zining yer yuzidagi mavjudligining to'xtab qolmasligi uchun oilada kamida o'rtacha 2-3 tadan farzand tug'ilib turishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy funksiyasi. Oilaning tarbiyaviy funksiyasini boshqa hech qanday institut tomonidan amalga oshirib bo'lmaydi. Aristotelning fikricha, «oila aloqaning birinchi turi» bo'lib, u bo'lajak fuqarolarni tarbiyalash yo'llarini o'zida ifodalaydigan, sog'lom bolalarning tug'ilishini ta'minlaydigan, baxtli hayot ezguliklar va qonunchilikka muvofiq tarzda quriladigan davlat tuzimining muhim unsuridir.

Xo'jalik-iqtisodiy funksiyasi. Bu funksiya ancha keng bo'lib, u oilaviy munosabatlarning keng sohasini o'z ichiga oladi: uy xo'jaligi va byudjetini yuritish, iste'mol va bo'sh vaqtni tashkil etish va boshq. Oilaning iste'mol va kundalik turmushda ham ahamiyati yuqoridir. Oilada nafaqat insonning

¹⁹⁴Reproduktiv - [lot. re... yangidan + producere] - o'zini o'zi takror ishlab chiqarish va ko'paytirish qobiliyati.

¹⁹⁵Rekreatsion - [lot. recreatio-tiklanish] - rekreatsiya; dam olish va tiklanish.

ma'lum darajadagi moddiy ehtiyojlari shakllanadi va qondiriladi, balki muayyan turmush an'analari yaratiladi va qo'llab-quvvatlanadi, uy xo'jaligini yuritishda o'zaro yordamlar uyushtiriladi.

Rekreatsioon (tiklash) funksiyasi. Inson hayotida oilaning tiklash funksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning fikricha, yaxshi oila — mavqelarga erishish, biznes va ta'lim olishdagi muvafaqqiyatlarning yarmi hisoblanadi. Hayot kechirish, uning mashaqqatlarini engib o'tish uchun oilada qulay shart-sharoitlar bo'lishi taqozo etiladi. Sog'lomlik dastlab oilada tiklanadi. Oilada dam olish, ruhlanish, o'ziga ishonchni his qilish, o'z yaqinlariga kerakli ekanligini sezish kabi hissiyotlarni rivojlantirish uchun psixologik shart-sharoitlar va qulayliklar yaratilgan bo'lishi lozim.

Oila-nikoh madaniyatining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, oilaning rekreatsioon funksiyasi yanada samarali bo'lib boraveradi. Oila madaniyati jamiyat madaniyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Barcha oilalardagi ana shu bo'laklar bir butun milliy madaniyat sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham oila insonning madaniy, ma'naviy va ruhiy jihatlardan tiklanishning asosiy manbasidir.

Oila *sotsial institut* sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Birinchi funksiyasi — jinsiy munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Oila asosiy institut hisoblanadi, jamiyat bu institut vositasida odamlarning o'zaro jinsiy munosabatlarini tartibga solib turadi va muvofiqlashtiradi.

Ikkinchi funksiyasi — oilaning o'zi amalga oshirib turadigan funksiya — aholini takror ishlab chiqarib turish hisoblanadi. Aholining tabiiy ravishda kamayib ketmasligi uchun oilani doimiy ravishda takror yaratilib turadigan yangi avlodlar to'ldirib boradi (yoki yanada ko'paytiradi). Jamiyat bu funksiyasiz umuman yashay olmaydi. Shu bilan birga, «demografik portlashlar» yoki aholining keskin kamayishiga yo'l qo'ymaslik uchun jamiyat doimiy ravishda tug'ilishni tartibga solib borishi lozim.

Uchinchi funksiyasi — bu odamlarni *sotsiallashtirishdir*. Oila avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy namunalarning asosiy tashuvchisi va tarqatuvchisidir. Darhaqiqat, go'dak faqat oilada jamiyat madaniyati va uning an'analariga doir ilk tasavvurlarga ega bo'ladi, o'zida jamiyatdagi xulqlar, axloq me'yorlari, or-nomus tushunchalari, ezgulik va adolatga oid tasavvurlar, bilimlar kabilarni shakllantiradi. Aytish mumkinki, oilada insonning shaxs sifatidagi shakllanish asoslari quriladi, qobiliyatlari shakllanadi, bo'lajak xodimning kasb tanlashga doir ilk qarashlari namoyon bo'ladi. Oilada sotsiallashtirishning asosiy jarayoni — bu bolalar tomonidan katta yoshlilarning modeli («nusxasi») ko'chirib olinishidir.

To'rtinchi funksiyasi — odamning hissiyotli va ruhiy munosabatlar, sevgi va intim yordamga muhtojlik, hamdardlik va rahm-shavqat kabilarga doir ehtiyojlari qondiriladi. Psixolog, sotsiolog, pedagog va huquqshunos olimlar tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, bolaligida oiladagi mehribonlik va erkalatishdan maxrum bo'lgan, ota-onasiz yoki bolalar uyida tarbiyalangan odamlar boshqalarga nisbatan ko'proq jismoniy va ruhiy uyg'unlik yetishmasligiga oid kamchiliklar bilan bog'liq bo'lgan ruhiy notinchlik kasalliklariga va deviant xulqqa duchor bo'ladi. O'z yaqinlariga nisbatan g'amxo'rlik va muhabbat, ota-ona, aka-uka, opa-singil bilan o'zaro hissiy aloqalar — bular hayotdagi muvafaqqiyatlar va umid-ishonchga to'lgan xush kayfiyat, ruhiy sog'lomlik kabilardan iborat bo'lib, ular har bir insonning yashashi uchun eng zaruriy unsurlar sirasiga kiradi. Xususan, eng og'ir kunlarda oilaning har tomonlama qo'llab-quvvatlashini boshqa biron-bir ijobiy ta'sir bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Barcha jamiyatlarda oila instituti turli darajalarda o'z a'zolarini jismoniy, iqtisodiy va psixologik jihatlardan himoya qila oladi.

Beshinchi funksiyasi — iqtisodiy va maishiy ehtiyojlarni qondirishi hisoblanadi. Odatda, oila insonning birlamchi manfaatlarini qondiradi — oziqlantiradi, kiyintiradi, kiyim-kechaklar bilan ta'minlaydi, yashash uchun joy beradi. Ularning oqibatida oila a'zolari umumiy xo'jalik yuritadi. Oilada nafaqat muayyan maishiy aloqalar va hayot tarzi quriladi, balki bolalarga meros bo'lib qoladigan, keyinchalik ular ham keksayganlarida o'z bolalariga qoldiradigan moddiy boylik jang'ariladi¹⁹⁶.

Shu tariqa, oila individlarni maishiy birlikka va o'zaro ma'naviy mas'ullikka bog'laydigan kichik guruh va alohida olingan sotsial-madaniy institut sifatida e'tirof etiladi. Oila — qadimdan yashab kelgan kichik guruhlarining eng ko'p tarqalgan turidir. Uning zamini birgalikda hayot kechirish va xo'jalik olib borish, o'zaro yordam, ma'naviy birlashuv kabilardan iboratdir. Oila — jamiyatning poydevori, u ayni insonning asosiy sifatlarini shakllantiradi va uni sotsial aloqalar olamiga olib kiradi.

O'zbekistonda oila instituti faqat mustaqillik davriga kelib jamiyatning eng asosiy sotsial birligi sifatidagi rivojlanish davrini boshladi. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab O'zbekistonda oila, ona va bolalikni ijtimoiy himoya qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Davlat oila institutini jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va demografik rivojlanishining asosi bo'lishiga muhim ahamiyat berdi. Mustaqillik davrida sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, birinchi navbatda,

¹⁹⁶Семья и брак//<http://www.grandars.ru/college/sociologiya/semya.html>.

oila, onalik va bolalikni himoya qilish masalasi eng muhim, ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Bu sohada zarur huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, millat genofondini yaxshilash, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik davrida mamlakatda oilaning jamiyatdagi mavqei bosqichma-bosqich ravishda o'sib bordi. Bu davrda oilalarning soni 7,5 millionga etdi.

Mamlakatda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning har tomonlama rivojlanishi va farovon yashashi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat tomonidan kafolatlanishi tamoyili-fuqarolik jamiyatiga xos sotsial munosabatlar vujudga kela boshladi. Mamlakatda oila institutini rivojlangan mamlakatlar darajasida faoliyat yuritishiga shart-sharoitlar yaratish maqsadida oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi.

Mamlakatda oila institutini rivojlantirishning dastlabki salmoqli qadami 1998-yilni «Oila yili» deb e'lon qilish bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik 1999-yil «Ayollar yili», 2000-yil «Sog'lom avlod» yili va 2001-yil «Ona va bola» yili, 2012-yil «Mustahkam oila» yili, 2014-yil «Sog'lom bola» yili deb e'lon qilinishi bilan bu institutning rivojlanishining zamonaviy huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslari yaratildi. 2016-yilni «Sog'lom ona va bola» yili, deb e'lon qilinishi davlatning oila institutini rivojlantirish siyosatining izchillik asosida yanada xalqchillashib va demokratlashib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatda bu sohada amalga oshirilgan davlat dasturlari asosida sog'lom oilani shakllantirish, har bir oilada sog'lom farzand tug'ilishini ta'minlash, oilada farzandlarni ma'naviy tarbiyasini yuksaltirishga qaratilgan muhim tadbirlar belgilandi. Bu dasturlarning hammasi shaxsni tarbiyalash, uni kamolotga yetkazishga qaratilgan g'oyaviy tarbiya bilan bog'landi. O'zbekistonda oila institutini rivojlantirish siyosatini amalga oshirish jarayonlari mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish strategik maqsadining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etila boshlandi.

5.5. Ta'lim sotsial instituti

Tarixiy rivojlanish tajribalaridan ma'lumki, har qanday jamiyatning barqaror va farovon yashashining zaruriy shart-sharoitlari sifatida umumiy ideallar, timsollar, e'tiqodlar, ma'naviyat, an'analar, xulq me'yorlarini o'z ichiga olgan umum birlashtiruvchi qadriyatlar (madaniyatlar) tizimi mavjud bo'lishi lozim. Jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi muhim

mexanizm jumlasiga odamlarning muhim hayotiy sohalari — iqtisodiyot, siyosat, ta'lim, oila kabilardagi xatti-harakatlarni yo'naltirish va nazorat qilish vositasiga o'zida qadriyatli-me'yoriy birikmani (yig'indini) ifodalagan sotsial institutlar kiradi. Ana shunday sotsial institutlardan biri — bu ta'limdir. Ta'lim ajdodlarning mehnati bilan to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, bilim, tajriba, an'analarni yangi avlodga yetkazadi va ular tomonidan o'zlashtiriladi.

Ta'limning nisbatan mustaqil tizim sifatidagi vazifasi «mazmuni jamiyatning sotsial-iqtisodiy va siyosiy tuzumi, uning moddiy-texnikaviy rivojlanish darajasi bilan belgilanadigan, muayyan bilimlar (dastlab ilmiy bilimlarni), g'oyaviy-axloqiy qadriyatlar, omilkorlik, malakalar, xulq me'yorlari kabilarni egallashga qaratilgan holda jamiyat a'zolarini tizimli ravishda o'qitish va tarbiyalashdan iboratdir».

Sotsiologiyada rasmiy va norasmiy ta'lim bir-biridan ajratib o'rganiladi. «Rasmiy ta'lim», birinchidan, jamiyatda ta'lim jarayoni amalga oshiriladigan maxsus muassasalar (maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlari va boshq.) bo'lishini taqozo etadi. Ikkinchidan, hozirgi davr industrial jamiyatida hukmron bo'lgan ta'lim tizimi kasbiy faoliyatning turli sohalari uchun jamiyat ehtiyoj sezayotgan, davlatning rasmiy ko'rsatmalari tomonidan bilimlar va malakalarning minimal chegaralari belgilangan ta'lim standartlariga bo'ysundirilgan. Undan tashqari, davlat ta'lim standartlari, birinchidan, mazkur jamiyatda qabul qilingan shaxsning (fuqaroning) me'yoriy qoidalariga, ikkinchidan, mazkur jamiyatda tarqalgan sotsial rollarni bajarishning me'yoriy talablariga mos ravishda yosh avlodga ta'lim berish va uni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan muayyan sotsiomadaniy mo'ljalni o'z ichiga oladi. Shuning uchun rasmiy ta'lim tizimi faoliyati davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida mujassamlashadi, shuningdek jamiyatda hukmron bo'lgan madaniy standartlar, mafkura va siyosiy ko'rsatmalar bilan belgilanadi. Sotsiologiya obyekt sifatida asosan bir butun ta'lim jarayonini o'zida aynanlashtiradigan, barcha ta'lim muassalarini o'z ichiga olgan rasmiy ta'lim o'rganiladi.

«Norasmiy ta'lim» individni bilim va malaka olishga o'qitish tizimli vositasida ro'y bermaydigan, atrofda sotsial muhitga (do'stlar, tengdoshlar va boshq.) yoki madaniy qadriyatlarga individual tarzda qo'shilish, gazeta, radio va televideniya kabilardan mustaqil ravishda axborotlar olish yo'li bilan amalga oshadigan ta'limni nazarda tutadi. U rasmiy ta'limga yordamchi rolini o'ynab, individni sotsiallashtirishda, yangi sotsial rollarni o'zlashtirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham sotsiologiyada sotsial institut sifatida rasmiy ta'lim o'rganiladi.

Jamiyatda ta'lim institutining funksiyalari turli-tuman bo'lib, turli olimlar ta'lim institutining turli tomonlariga alohida-alohida holda urg'u beradi¹⁹⁷. Ko'pincha ta'lim institutining to'rtta funksiyasiga muhim ahamiyat beriladi:

1. *Jamiyatda madaniyatni tarqatish va uni turli vositalar bilan aholiga yetkazish funksiyasi.* Bu ta'lim institutining eng birinchi va eng muhim funksiyasi hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, bu institut keng ma'nodagi madaniyatning qadriyatlarini (ilmiy bilimlar, fanlardagi yangi yutuqlar, ma'naviy qadriyatlar, xulq me'yorlari, turli kasblar uchun xos bo'lgan tajriba va malakalarni) avloddan avlodga yetkazib boradi, shu bilan birga, u ta'lim olishning asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, ta'limda milliylik xususiyatlari ham mavjud bo'lganligi bois, u milliy madaniyat va ma'naviyatni saqlashda, uni qo'llab-quvvatlashda, millatni o'zligini anglashda muhim rol o'ynaydi.

2. *Sotsiallashtirish funksiyasi,* yoki yosh avlod dunyoqarashida jamiyatda hukmron bo'lgan ko'rsatmalar, qadriyatli mo'ljallar, hayotiy ideallarni shakllantirish. Mazkur funktsiya tufayli yoshlar jamiyat hayotiga birikadi, sotsiallasadi, sotsial tizimga integratsiyalashadi. Ayniqsa, axloqiy tarbiya va dunyoqarashni shakllantirish sotsiallashtirish jarayonining muhim jihati hisoblanadi. Yoshlar tomonidan umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar adabiyot, tarix, jahon madaniyati, falsafa, etika kabi fanlarni o'zlashtirish asnosida shakllanadi.

3. *Sotsial seleksiyalash (tanlash)* — ta'limning eng muhim funksiyalaridan biridir. Ta'lim jarayonining strukturasi shunday tuzilganki, u ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilar va talabalar ichidan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni tanlash, ularning individual manfaatlari va imkoniyatlariga qarab ta'lim maqomlarini berish vazifalarini bajaradi.

Hozirgi industrial jamiyatda ta'lim tizimi vertikal sotsial harakatchanlikni ta'minlash omili sifatida muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim diplomi nufuzli va ish haqi ko'proq bo'lgan lavozim darajalarini egallashga imkon beradi. Shuningdek, odamlarga ta'lim darajasi nufuzli va serdaromadli kasblar bilan ta'minlashga yordam berishidan tashqari u insonning jamiyatdagi sotsial maqomi ko'rsatkichi sifatida ham namoyon bo'ladi.

4. Ta'lim sotsial institutining alohida va muhim funksiyalaridan biri — bu *sotsial va madaniy o'zgartirish funksiyasidir.* Bu funktsiya o'zaro bir-biriga bog'liq ikkita usul bilan amalga oshiriladi. Birinchisi, oliy o'quv yurtlari va boshqa ilmiy markazlardagi ilmiy tadqiqotlar, ilmiy muvafaqqi-

¹⁹⁷Смелзер Н. Социология. - М., 1994. Гл. 14. - С. 4.

yatlarga erishish va kashfiyotlar jarayonida amalga oshadi. Oliy o'quv yurtlari jamiyatning madaniy merosini boyishiga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari bilan sanoat o'rtasidagi qalin aloqalar natijasi o'laroq fanlar, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yuz beradi, uning natijasida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot tezlashadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning o'sib borishi ta'lim jarayonini takomillashuviga imkoniyatlar yaratadi, yangi g'oyalar va kashfiyotlar o'quv dasturlariga kiritiladi, natijada mutaxassislar tayyorlash sifati oshib boradi. Shuningdek, o'rta ta'lim berish tizimi iqtisodiyot, fan va madaniyat o'zaro aloqalarida muhim rol o'ynaydi.

AQShning taniqli olimi *N.Smelzer* ta'limni sotsial nazorat qilish vositasi sifatida ham tadqiq etdi. Uning fikricha, AQSh va boshqa aksariyat mamlakatlarda o'rta ta'lim majburiy hisoblanadi. O'quvchilar bir yilda to'qqiz oy bir necha soat mobaynida maktabda bo'ladi. Standartlashgan darslik va qo'llanmalardan saboq oladi. O'quvchilar sinf xonasida ham, sport maydonida ham o'qituvchilar nazorati ostida bo'ladi. Aksariyat o'quvchilar hokimiyat va o'quv yurti o'rnatgan tartibotlarni e'tirof etadi va ularga bo'ysunadi. Shu tariqa ta'lim din, oila va qonun chiqaruvchi hokimiyat kabi jamiyatni barqarorligini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi¹⁹⁸. Shu bilan birga, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi doimiy aloqalarda ham yoshlarni sotsiallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi munosabatlar yuz berib turadi.

Shu bilan birga, *N.Smelzer* ta'limni «filtrlash uskunasi» (suzish, elaklash) vositasi sifatidagi rolini ham o'rgandi. Uning fikricha, aksariyat mamlakatlarda ta'lim insoniy faoliyatning barcha turlariga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Aksariyat o'quvchilar maktabda o'qishni tugatib kollej va litseylarga o'qishga kiradi. Aksariyat kollejni bitirgan yoshlar tibbiyot, tijorat, savdo va boshqa aqliy mehnatga asoslangan sohalarga ishga joylashadi. Kollejda pastroq baholarda o'qigan o'quvchilar jismoniy mehnatga asoslangan sohalardagi ishga joylashadi. Lekin, ba'zida bundan mustasno holatlar yuz beradi. Ba'zi kollej bitiruvchilari jismoniy mehnat sohasida faoliyat yuritsalarda, sport, estrada, biznes sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Shu tariqa, ba'zi odamlar uchun maktab, litsey va kollej o'ziga xos filtr rolini bajaradi, ularni yoshi katta bo'lganida nima bilan mashg'ul bo'lishiga yordamlashadi. Taniqli olim *Xernning* ko'rsatishicha, ta'limga bu nuqtai nazar bilan qarashda ta'lim odamlarni fazilatlar va afzalliklariga tegishli ravishda taqsimlash usuli vazifasini bajaradi. Va nihoyat, ta'lim ozchilik guruhlariga nisbatan taassublarni

¹⁹⁸Смелзер Н.Социология: пер.с англ.-М.:Феникс,1998.-С.428-429.

kamaytirib, demokratiyani rivojlanishiga yordam beradi. Ta'lim bilimdon fuqarolarni tayyorlashga ijobiy ta'sir qilishi natijasida ularning haqiqiy yoki demogog arboablarni bir-biridan ajrata olish qobiliyatini egallashiga ko'maklashadi.

Ta'limning yana bir *funksiyasi* — bu «insoniy kapital»ni yaratishi bilan bog'liqdir. Bu nuqtai nazarga muvofiq, ta'lim o'quvchilar tomonidan tezlik bilan iste'mol qilinadigan biron-bir narsa emas, balki ularning kelajagi uchun qo'yilgan kapital qo'yilmadir. Buni taniqli olim *Jaster* quyidagicha ifodalaydi: «Odamlar qandaydir hajmdagi o'z imkoniyatlari kapitali — tabiiy qobiliyatlarga ega bo'ladi. Bu kapital ilk bolalik, maktabdagi o'qish davri va mehnat faoliyatining boshlang'ich paytigacha ko'payib boradi. Lekin, agar odamlarning bilimlari va kasbiy tayyorgarligi (mahorati) hozirgi davr talablariga javob bera olmasa, bu kapital o'zining xaridorboplik kuchini boy beradi yoki butunlay o'z qadr-qimmatini yo'qotadi».

Ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchilarni faoliyatning muayyan turiga tayyorlaydi, balki odamning jamiyatdagi maqomiga ham ta'sir qiladi. Aksariyat odamlar hayotida ta'lim ularning sotsial narvon pog'onalaridan yuqoriga ko'tarilishiga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim ba'zi hollarda odamlarni yuqoriga ko'tarilish harakatchanligini oshiradi. Shu tariqa, ta'lim bir vaqtning o'zida ham amaliy, ham timsoliy ahamiyat kasb etadi. Odamlar o'zlarining bilimlaridan o'ziga xos maqsadlariga erishish uchun foydalanadi. Masalan, tibbiyot institutiga kirgan talaba uni vrach sifatida tugatadi, olgan bilimlaridan amaliy hayotda foydalanadi. Lekin, vrachlik diplomi ham nufuz ko'rsatkichi hisoblanadi. Diplom sotsial maqom timsoliga aylanadi, va bunda ta'lim o'zining bilvosita va timsoliy jihatini namoyon qiladi¹⁹⁹.

Ko'rinib turibdiki, ta'lim sotsial institut sifatida jamiyatning muhim tuzilmasi hisoblanadi. U jamiyatning bir me'yorlarda yashashi, uni barqaror holda rivojlanib borishining muhim omilidir. Shuningdek, ta'lim instituti odamning o'zini ham tubdan o'zgartiruvchi, uni sotsiallashtiruvchi, ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisiga aylantiruvchi jihatlari bilan jamiyatning rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shadi.

Yevropa va Shimoliy Amerikada ta'lim tizimining rivojlanishi. Yevropada ta'lim tizimini modernizatsiyalash sohasida diqqatga sazovor va keng miqyosli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'limning umum Yevropaviy makonini shakllantirish va Yevropa oliy maktabini jahondagi yetakchi o'rnini mustahkamlashga doir vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan «*Bolonya jarayoni*» bilan bog'liqdir (Bolonya shahrida 1999-yil

¹⁹⁹O'sha joyda.-B.434.

19-iyunda 29 ta Yevropa mamlakatlari ta'lim vazirlari tomonidan qabul qilingan «Yevropa oliy ta'limi kengligi» deb ataluvchi qo'shma bayonoti). Mazkur hujjatda oliy ta'limning umumYevropaviy makonini tashkil etishga doir faoliyatning asosiy yo'nalishlari ifodalandi²⁰⁰.

Bolonya jarayoni — bu yangi islohotlarni boshlash uchun emas, balki yagona Yevropani umumsiyosiy va iqtisodiy shakllanishini puxtalik bilan tutashtirish maqsadida tashkil topdi. Shu bilan birga, bu jarayonda mavjud ta'lim tizimini unifikatsiyalash nazarda tutilmadi. Bunda so'z yuqori ta'lim darajasini saqlagan holda mavjud ta'lim standartlarini o'zaro bir-biriga yaqinlashtirish jarayonidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish haqida ketmoqda. Bolonya deklaratsiyasida shakllantirilgan asosiy vazifalar sifatida e'lon qilingan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi mexanizmlarni qo'llashga muhim ahamiyat berildi:

- tushunish va taqqoslash oson bo'lgan akademik malakalar tizimini qabul qilish; Yevropa oliy ta'lim tizimini xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va Yevropa fuqarolarini ishga joylashish imkoniyatlari bilan ta'minlash uchun oliy ma'lumot haqidagi diplomga UmumYevropaviy ilovani joriy etish;

- kadrlar tayyorlashning ikki darajali tizimiga o'tish — *bakalavr* (undergraduate) va *magistr* (graduate). Ikkinchi darajaga o'tish uchun ta'limning 3 yildan kam bo'lmagan birinchi darajasini muvafaqqiyatli yakunlash talab etiladi. Birinchi daraja tegishli malaka darajasi sifatida Yevropa mehnat bozori talablariga javob bera olishi lozim. Ikkinchi daraja esa aksariyat Yevropa mamlakatlari uchun xos bo'lgan — magistrlik yoki doktorlik diplomini olish bilan yakunlanadi.

- ECTS²⁰¹ turidagi kredit tizimini (sinov birliklari Yevropa tizimi) joriy etilishi esa yirik miqyosda talabalar harakatchanligini qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Shuningdek, kreditlar oliy bo'lmagan va butun umr ta'lim olish yo'nalishidagi ta'lim doirasida ham olinishi mumkin. Buning uchun tegishli ta'lim dasturi universitetlar tomonidan e'tirof etilishi talab etiladi. Talabalar harakatchanligiga ko'maklashish ularning erkin ko'chib yurishini samarali amalga oshirishdagi to'siqlarni bartaraf etish yo'li bilan bajarila boshlandi.

²⁰⁰ Qarang: Болонский процесс и грядущие изменения// <http://www.student45.ru/2008/09/06/bologna-process-and-changes/>.

²⁰¹ Bakalavr va magistr darajalari bir darajali ta'lim tizimiga bir necha yuz yillar barqaror ravishda amal qilgan mamlakatlarda ham joriy etilib, ularga Germaniya, Italiya, Shvetsiya, boshqa Sharqiy Evropa, MDH va Boltiq bo'yi mamlakatlariga ham kirib kela boshladi. O'quv rejalari va ta'lim berish dasturlarini standartlashga qaratilgan o'rta va oliy kasbiy ta'lim mazmuni yangilandi; talabalarining akademik harakatchanligini ta'minlash uchun ta'lim kreditlari tizimi ("zachet" - sinov turi birliklari) joriy etildi. Bolonya jarayoni

Bolonya deklaratsiyasini imzolagan ta'lim vazirlarining Praga konferensiyasi (Praga, 18-19-may 2001-y.) «Bolonya jarayonini yanada rivojlantirish»ga doir qarori bilan oliy ta'lim milliy tizimlarini yagona Yevropa ta'lim kengligiga integratsiya etish doirasida yana uchta yangi yo'nalishlarni belgilab berdi:

Butun umr davomida ta'lim olish. Butun umr davomida ta'lim olish oliy ta'limning umumYevropa kengligini tashkil etishning muhim unsuri hisoblanadi. Istiqboldagi Yevropada «Butun umr davomida ta'lim olish» strategiyasini egallash va jamiyat iqtisidiy salohiyatini yuksaltirish omili sifatida Yevropa ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, yangi texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy tengsizliklarga barham berish, yuqori turmush darajasini ushlab turish, barchaga teng imkoniyatlar yaratish kabilarga qaratilganidir.

Oliy ta'lim muassasasi va talabalar. Universitetlar, oliy ta'lim muassasalarining talabalarga nisbatan teng huquqli, mustaqil vakolatli va konstruktiv hamkor sifatida qarash, bu o'zaro munosabatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab borish. Bolonya deklaratsiyasiga tegishli ravishda talabalar bevosita oliy ta'lim muassasalarida va universitetlardagi ta'lim mazmuni va uni tashkil etish jarayonlarida bevosita ishtirok etishlari lozim.

Oliy ta'limning Yevropa kengligi jozibadorligini ta'minlash. Oliy ta'limning Yevropa kengligi jozibadorligini ta'minlashning Yevropalik va boshqa mamlakatlardan kelgan talabalar uchun muhimligi shundaki, Yevropa ta'lim malakalari dunyodagi boshqa mezonlar bilan qiyoslanadi, hamma uchun ma'lum bo'ladigan malakalar doirasi, ta'lim sifatini ta'minlash, akkreditatsiya/sertifikatlash va yagona axborot maydoni bilan aniqlashtiriladi.

«Umumiy farovonlik»ka qaratilgan muvofiqlashuvchi bozorni qo'llab-quvvatlash strategiyasi har bir individga ta'lim jarayoni ichiga muvafaqqiyatli ravishda kirishiga imkoniyat (teng boshlang'ich imkoniyatlar) yaratadi, lekin bunda ta'limda olinadigan natijalar shaxsiy muvafaqqiyatlarga uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan moliyalashtirish modeli esa barcha uchun «teng imkoniyatlar va teng natijalar»ni moliyalashtirishga asoslanadi. Lekin, tajribada bu uch yo'nalishga doir moliyalashtirish unsurlarini o'zida mujassamlashtirgan, lekin ular ichida dastlabki ikki model ustuvorlik qiladigan moliyalashtirish shakllari ham uchraydi²⁰².

doirasida sinov ("zachet") ko'chirishlari (ECTS) Germaniya, Niderlandiya Qirolligi, Belgiya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlarda qo'llanila boshlandi; bu kabi sinovlar birliklari tizimini Avstriya, Vetnam, Yaponiya, Kanada, Xitoy, Shvetsiya, Sharqiy Yevropa va Boltiq bo'yi mamlakatlari ham kabul qila boshladi.

²⁰²Qarang:Тряпичин А.В.Интеграционные процессы в высшем образовании// <http://www.prof.msu.ru/publ/omsk2/o55.htm>.

Ko'proq bozor iqtisodiyoti talablariga moslashgan moliyalashtirish strategiyalari Yevropadan tashqaridagi mamlakatlarda — AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika mamlakatlari kabilar ta'lim tizimi uchun xosdir. Bu strategiyaning belgilari Niderlandiya Qirolligi, Ispaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Xitoy va Sharqiy Yevropaning ba'zi mamlakatlarida sezilarli darajada ko'payib bormoqda.

Turli mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi ham turlicha shaklda va mazmunda amal qiladi. Bu sohada eng keng tarqalgan tashkiliy shakl odatdagi bolalar bog'chasi va maktabgacha tayyorlash bolalar bog'chasi yoki maktabgacha tayyorgarlik sinflari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi — bolalarni tarbiyalash va ularni maktabda o'qishga tayyorlash quyidagi faoliyat turlari bilan qo'shib olib boriladi: jismoniy faollik; umumiy, yozuv va og'zaki tarzda o'zini ifodalash; badiiy va estetik faollik; tekshirish va texnikaviy qobiliyatni rivojlantirish;

Jahondagi mamlakatlarda umumiy o'rta ta'lim olishning davomiy-
ligi 11 yildan 13 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etib, 80 % mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Fransiya, Kanada, Ispaniya, Shvetsiya, Avstraliya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Sharqiy Yevropa va Boltiq bo'yi mamlakatlarida bu muddat 12 yilni tashkil etadi. Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya Qirolligi kabi mamlakatlarda esa mazkur ta'lim muddati 13 yil qilib belgilandi. MDH mamlakatlaridan — O'zbekiston, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Ukraina davlatlari 12 yillik to'liq o'rta ma'lumot olish tizimiga o'tdilar. MDH mamlakatlarining ayrimlari, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Eron va Turkiya kabi davlatlarda esa 11 yillik o'rta ta'lim olish muddati saqlanib qolmoqda. Afrika va Osiyoning deyarli barcha mamlakatlarida to'la o'rta ma'lumot olish muddati 12-13 yilni tashkil eta boshladi. Ularning ichidagi ingliz zabon va farangi zabon mamlakatlarda ta'lim tizimining ingliz va fransuz modeli saqlanib qoldi. Maktab ta'limining eng ko'p tarqalgan tizilmasi o'ziga 4 yoshdan 6 yoshgacha bolalar o'qiydigan boshlang'ich ta'limni qamrab olgan bo'lib, bu davrdan boshlab o'rta ta'limning bosqichlari tegishli ravishda 3-5 va 2-4 yillik muddatlarni o'z ichiga oladi. Shu tariqa, maktab ta'limi quyidagi formulalardan biri asosida amalga oshiriladi: $6 + 3 + 3 = 12$ (ko'p tarqalgan sxema); $5 + 4 + 3 = 12$; $6 + 5 + 2 = 13$.

Qator mamlakatlarda (Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya, AQShning ba'zi shtatlari) boshlang'ich ta'lim mustaqil bosqich sifatida ajratilmagan bo'lib, u maktab ta'limining 8-9 yillik muddatga mo'ljallangan birinchi bosqichi sanaladi, shuningdek u tayanch ta'lim (asosiy o'rta ta'lim) sifatida baholanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda umumiy o'rtta ta'limning asosiy bosqichlari o'zaro bir-biridan ajratilgan holda amal qiladi. Ta'lim bosqichlarining ajratilishi nafaqat boshqaruv va moliyalashtirishga taalluqli, balki ularni joylashtirish ham bir-birlaridan ajratilgan holda amalga oshiriladi, ya'ni har bir ta'lim bosqichi o'zining binosiga va an'anaviy nomlanishiga egadir: boshlang'ich (elementar) maktab — boshlang'ich ta'lim uchun; kichik o'rtta maktab (Fransiyadagi kollej) — birinchi bosqich uchun; katta o'rtta maktab (litsey, gimnaziya va boshq.) — ikkinchi (yakuniy) bosqich uchun. Ta'lim tizimidagi bu kabi alohidalik o'quvchilarning erkinligini ta'minlash, ular yosh darajalarini hisobga olgan holda ta'lim berish va tarbiyalash usullarini ishlab chiqish uchun qulayliklar yaratadi.

Hozirgi davrga kelib umumiy ta'limning mazmuni barcha mamlakatlarda standartlashtirildi. Bu yo'nalishdagi asosiy farqlanishlar standartlashtirish shakli va darajasi jihatlarida sezilishi mumkin. Standartlashtirish boshlang'ich maktablarda qattiq ravishda va barcha jihatlarni o'ziga qamrab olgan bo'lib, u o'rtta ta'limni yakunlash darajalariga kelib ancha yumshoqlashadi. Jumladan, har qanday mamlakatdagi boshlang'ich maktabda bolalar bir hil namunaviy o'quv dasturlari asosida ta'lim oladi. Farqlanishlarga faqat madaniy-o'yin va sog'lomlashtirish xarakteridagi mashg'ulotlar shakllaridagina yo'l qo'yiladi. Standartlashning ochiq ko'rinishi tayanch (asosiy) ta'limda keng foydalaniladi. Unga binoan o'qitilishi majburiy bo'lgan fanlar ro'yhati ularning mavzulari bo'yicha belgilab qo'yiladi, ular o'quv vaqtiga qarab taqsimlab qo'yiladi, ulardagi standart attestatsiya talablari har bir bosqichda yoki chorakda oladigan malakalar va bilimlar hajmi belgilab qo'yiladi. Ba'zi mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, AQSh va boshq.) standartlar umumiy o'rtta ta'limning majburiy minimum darajasi rasmiy ravishda belgilab qo'yiladi. O'quv yurtlari ixtiyori bilan o'qitiladigan fanlarga 30 % o'quv vaqti beriladi, xolos. Boshqa mamlakatlarda esa (Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Sharqiy Yevropa mamlakatlari) standartlar bilan 85-90 % o'quv vaqti muvofiqlashtirib qo'yiladi, o'quv yurtining «tanlash asosida fanlarga» esa cheklashlar kiritilgan bo'lib, ular asosan qo'shimcha ravishda xorijiy tillar va boshqa darslarni o'qitishi mumkin bo'ladi²⁰³.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda maxsus muassasadan tashqari maxsus organlar tashkil etilgan bo'lib, ularga ta'lim standartlarini ishlab chiqish vakolatlari berildi. Jumladan, AQShda 1994-yilda Ta'limni

²⁰³ЗееpЭ.Ф.,СыманюкЭ.Э. Концепция развития профессионального образования //Иновационные процессы в сфере высшего профессионального образования: Материалы Всеросс. научн.-практ.конференции.-Екатеринбург:УрГПУ,2007.-С.22-37.

takomillashtirish va standartlar bo'yicha Milliy Kengash va yana Milliy standartlar va kompetentlik bo'yicha Kengash tashkil etildi. Ulardan birinchisiga AQSh maktablari amaliyotiga 5 ta asosiy o'quv fanidan dunyo ahamiyatiga molik standartlar ishlab chiqish va joriy etish vazifasi topshirildi. Ikkinchi Kengashga esa akademik yutuqlarni sertifikatlash va ularni baholash vositalari va usullarini ishlab chiqish uchun mas'ullik yuklangan.

Lekin, aksariyat mamlakatlarda maktablardagi hal qiluvchi asosiy standartlar mamlakat markaziy ta'lim vazirligi (Fransiya, Niderlandiya Qirolligi, Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya, Xitoy, Sharqiy Yevropa mamlakatlari), yoki tegishli federatsiya subyekti (AQSh, Kanada, Avstraliya, Germaniya, Belgiya) tomonidan tasdiqlanadi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda jahondagi mamlakatlarni o'ziga qamrab olgan globallashuv jarayonlari ta'lim tizimiga ham kuchli ta'sir etmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari bir tomondan, o'z ta'lim tizimlarini umumiyashtirish siyosatini olib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari-dan kelib chiqib ta'lim sifatini oshirishga intilmoqda. Shuningdek, har bir mamlakat iloji boricha o'z milliy an'analari va tajribalaridan ham foydalanishga intilmoqda. Lekin, shunga qaramay, jahon integratsiyasi, dunyoning hamjamiyatlarga bo'linishi, bir necha asrlar davomida shakllangan ta'lim tizimlari asta-sekinlik bilan umumlashib bormoqda. Albatta, bu jarayonda rivojlangan davlatlar davr sinovidan o'tgan, o'z natijalarini namoyon etgan ta'limga doir innovatsiyalarni o'z milliy davlatlarida keng qo'llash siyosatini yuritmoqda.

Har bir rivojlangan davlatning, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, MDH kabi hamjamiyatlarning ta'lim tizimida innovatsion omillarni qo'llash strategiyalari va konsepsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular amaliyotga keng ravishda qo'llanilmoqda. Jahondagi ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonlarida Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya kabi davlatlar oldinda bormoqda. Bu mamlakatlardagi ta'lim tizimi birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy ishchi kuchini yaratishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan, ta'limni modernizatsiyalash jarayonini ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy natijalar olishga qaratishga intilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik davrida milliy ta'lim tizimi ham rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy an'analar uyg'unligi asosida rivojlandi. Mustaqillikning dastlabki davridayoq bu borada quyidagi maqsadlar belgilandi: Uzluksiz ustuvor yo'nalishlar nima? Buning ma'nosi shuki, mazkur yo'nalishlar islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor

hisoblanadi. Ular jamiyatni yangilashdan iborat butun jarayonning boshqa yo'nalishlariga singib ketadi. Islohotlar strategiyasini amalga oshirishda quyidagilar uzluksiz ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi:

- ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish;
- aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish.

Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda, kadrlar salohiyatiga; ularning kasb jihatdan tayyorligiga bog'liq bo'ladi. Bu esa butun ta'lim va madaniyat tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etdi. Keyinchalik, ta'lim sohasidagi islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash maqsadlarida ikkita katta hujjat — O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi.

O'zbekistonda ta'lim instituti faqat mustaqillik davriga kelib o'zini sotsial institut sifatida namoyon qildi. Davlatning ta'limga oid siyosati mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, ma'naviy yangilanishlar jarayoni bilan kadrlar tayyorlash islohotlarini uyg'un ravishda olib borish, ta'lim-tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati va mavqeini yuksaltirishga qaratildi. Ayniqsa, ta'limning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Uning jamiyatdagi mavqei yuqoriga ko'tarildi.

Ana shu g'oya va ta'lim siyosatini hayotga qo'llash, fuqarolik jamiyati qurishning «O'zbek modeli» konsepsiyasidan kelib chiqib, shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta'limning barcha bosqichlari izchil uzviyligiga erishish, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari o'rtasida uslubiy-amaliy hamkorlik, axborot almashish qisqa vaqt ichida amalga oshirilgani o'zining yuksak samaralarini bera boshladi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida O'zbekistonda birinchi bo'lib oliy ta'limning zamonaviy ikki bosqichli — bakalavriat va magistratura yo'nalishiga o'tkazilgani bu sohani jahon integratsiyasiga birlashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayonda asosiy e'tibor tayyorlanayotgan kadrlarning ilmiy salohiyati va amaliy tajribasiga, ish beruvchining talablariga, ya'ni raqobatbardoshligiga mos kelishiga qaratildi.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishning 3 bosqichi (1-bosqich — 1997-2001-yillar; 2-bosqich — 2001-2005-yillar; 3-bosqich — 2005 va undan keyingi yillar) belgilandi. Birinchi bosqichda yangi davr talablariga mos pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv standartlarini yaratish, yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish, umumta'lim maktablar tuzilishini yangilash, uch bosqichli ta'lim (o'rta maxsus va kasb-hunar

bilim yurtlari, kasb-hunar kolleji, akademik litsey) tizimiga zamin yaratish, uzluksiz ta'lim -tarbiya tizimiga asos bo'ladigan tadbirlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoya asosiy vazifalarga aylandi. Milliy dasturning hozirgi bosqichida esa islohotlarni yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohotlar natijalari, aniqroq aytganda, beshta yo'nalish va bosqichlarga asoslangan ta'lim tizimi nafaqat mamlakatda, balki xalqaro maydonda ham e'tirof etilmoqda. U maktabgacha ta'lim (3 yoshdan 7 yoshgacha), boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar), umumiy ta'lim (5-9 sinflar), o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi (3 yildan kam bo'lmagan akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari), shuningdek oliy ta'limdan iborat. Oliy mutaxassislik ta'limi esa bakalavr va magistrlik darajalarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishning muhim maqsadlaridan biri o'n ikki yillik majburiy ta'limni, uning yuqori darajasi sifatida esa o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iborat edi. Ta'limning mazkur shakli yoshlarni ish bilan band qilish, ularni mehnat bozoriga kirishlari uchun har tomonlama imkoniyatlar yaratishga qaratildi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun akademik litsey va kasb-hunar kollejlari barpo etildi. Akademik litseylar muayyan fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berish, iqtidorli yoshlarni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kasb-hunar kollejlari esa o'rta ma'lumot bilan birga kasbiy malakalarni o'zlashtirgan yosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi. Mazkur o'quv yurtlari yoshlar uchun ta'lim olishdan tashqari demografik va jug'rofiy shart-sharoitlar hamda muhitni hisobga olgan holda, ayniqsa tuman va qishloqlarda kadrlarga nisbatan paydo bo'layotgan ehtiyojlarni qondira boshladi. Shuningdek, yoshlar o'z oilalaridan uncha uzoqlashmagan holda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa o'z navbatida muqaddam paydo bo'lgan ayrim ijtimoiy noqulayliklarni barham topishiga sabab bo'ldi.

Mustaqillikning qisqa davri ichida har qanday rivojlangan mamlakatlardagi o'quv maskanlari bilan bemalol bellasha oladigan zamonaviy, ko'rkam va salobatli ta'lim maskanlari qad rostladi. Hozirgi kunda har bir tuman va shaharda har biri uchun bir necha milliard so'mga teng bo'lgan mablag'lar sarflab barpo etilgan yangi kollej va akademik litseylar nafaqat ta'limning o'ziga xos markazlari, balki qishloq va shaharlardagi ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarini tarqatish maskani sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

BMTning O‘zbekistondagi Rivojlanish Dasturi ekspertlarining baholashicha, O‘zbekiston ayni paytda ta’lim sifati darajasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahondagi eng yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Respublikada barkamol yosh avlodni shakllantirish, ularni komil inson qilib tarbiyalashga muhim strategik vazifa sifatida e’tibor berilayotgani, albatta, bejiz emas. Mamlakat kelajagi, uning qudratini yuksalishi, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish maqsadlarini amalga oshirish, asosan, yangicha tafakkur qiladigan, o‘z mustaqil fikr va qarashlariga ega bo‘lgan barkamol yoshlarni shakllantirishga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-mayda qabul qilgan “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori oliy ta’lim muassasalari faoliyatini jahon andozalari darajasida tashkil etish, ularni zamonaviy darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy laboratoriyalar bilan ta’minlashda muhim dasturilamal bo‘ldi. Oliy ta’limning o‘quv-uslubiy, me’yoriy ta’minoti, davlat standartlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ham tizimli ishlar olib borildi.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar andozalari asosida ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining olib kirishga ham muhim e’tibor berildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyunda qabul qilgan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etila boshlandi. Jumladan, talabalar va professor-o‘qituvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikasi, dasturiy vositalar bilan yanada kengroq jihozlandi. Elektron ta’limning milliy tizimi loyihasi amaliyotga qo‘llandi va yuzdan ortiq obyekt ushbu tarmoqqa ulandi. Oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilayotgan video-konferensiyalar, ilmiy anjumanlar, o‘quv-seminarlarni on-layn tizimida bevosita ko‘rish va ularda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Hozirgi davrga kelib O‘zbekistonda 12 yillik uzluksiz ta’lim tizimida erishilayotgan yutuqlar xorijiy mamlakatlardagi ko‘pchilik odamlarning qiziqishlarini uyg‘otmoqda. 2012-yil fevral oyida Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyada O‘zbekistonning uzluksiz ta’limning milliy modelini yaratish borasidagi tajribasi BMT, YuNESKO, YuNISEF singari nufuzli xalqaro tashkilotlar, Buyuk

Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasi bo'yicha yirik mutaxassislari tomonidan yuksak baholandi. Ular mamlakatimizda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning tobora o'sib borayotganiga, hozirgi sharoitda demokratik taraqqiyot va modernizatsiya borasida yuksak natijalarga erishishda bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch ekaniga mamlakatimiz misolida yana bir bor ishonch hosil qildi.

Mazkur forumda ishtirok etgan xorijlik yuzlab olim va mutaxassislar O'zbekiston byudjetidan ta'lim sohasiga ajratilayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotganini, mamlakat umumiy yillik byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotganini yuksak baholadi. Bu xalqaro anjumanda dunyodagi 8 ta nufuzli xalqaro tashkilot va 48 davlatdan 270 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ularning barchasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish umum-milliy dasturi doirasida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishib, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida, oliy o'quv yurtlarida bo'lib, O'zbekistonda ta'lim sohasida shakllangan samarali modelni yuksak baholadi, bu borada to'plangan tajribalarni boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida tavsiya etish mumkin, degan xulosaga keldilar.

Bunday e'tirofni xalqaro media olamida mashhur bo'lgan CNN kompaniyasining AQSh, O'zbekiston va jahonning boshqa davlatlarida ta'limning holati to'g'risida e'lon qilgan qiyosiy axborotida yaqqol ko'rish mumkin. Bu axborot Fransiyaning nufuzli «Insead» xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan e'lon qilingan «2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi» tahliliy ma'ruzaga asoslanadi. Bu tadqiqot dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanish borasidagi 80 ta ko'rsatkichini o'z ichiga oladi. Tadqiqot 2012-yilda 141 ta mamlakatni qamrab oldi. Bu mamlakatlar jahon miqyosida yalpi ichki mahsulotning 99,4 foizini ishlab chiqarishi, sayyoramiz aholisining 94,9 foizi aynan shu davlatlarda istiqomat qilishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur tadqiqotning ko'lami, salmog'i va geografiyasini yaqqol tasavvur qilish mumkin.

Ma'ruzaga ko'ra, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishi innovatsion salohiyat va qulay shart-sharoitlarning mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Bunday holatni baholashda har qaysi mamlakatning innovatsiyalar bo'yicha indeksi alohida o'rin tutadi. Mazkur indeks esa quyida bayon etilayotgan ikki guruh ko'rsatkichlar bo'yicha

yig'ilgan umumiy baholar asosida hisoblanadi. Birinchi guruh — innovatsiyalarni amalga oshirish uchun mavjud resurs va sharoitlar (institutlar; inson kapitali va tadqiqotlar; infratuzilma; ichki bozor va biznesning rivojlanishi). Ikkinchi guruh - innovatsiyalarni amalga oshirishning amaliy natijalari (texnologiyalar va iqtisodiyot haqidagi bilimlarni rivojlantirish; kreativ faoliyat natijalari). Yakuniy indeks xarajatlar va erishilgan samara o'rtasidagi nisbatni namoyon etadi va bu o'z navbatida tadqiqotda qamrab olingan har qaysi mamlakatdagi innovatsiyalarni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni xolis baholash imkonini beradi.

Bunda ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston ushbu reytinglar ro'yxatida 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rinni egalladi. Birinchi o'rinni esa 75,70 ball bilan Irlandiya egalladi. Daniya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Belgiya singari bir guruh rivojlangan Yevropa va boshqa qit'a mamlakatlari ushbu ro'yxatning keyingi o'rinlarini egalladi. Hattoki, yirik moliyaviy resurslarga ega bo'lgan Saudiya Arabistoni 65,49 ball bilan 15-o'rinni egallagan bo'lsa, dunyoning eng qudratli davlatlari bo'lmish AQSh 31-o'rinni (61,34 ball), Xitoy esa 67-o'rinni (52,23 ball) band etgan. Belarus 60,55 ball bilan 36-o'rinni, Rossiya 55,18 ball bilan 55-o'rinni egalladi.

Tadqiqotga binoan, ta'lim tizimi rivojlanishining qator ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston dunyodagi ko'plab davlatlardan ilgarilab ketgan. Xususan, davlatning ta'lim tizimi rivoji, maktablarni kapital qurish va yangilash uchun yo'naltirayotgan sarf-xarajatlari, o'quvchilarning umumiy soniga nisbatan o'qituvchilarning soni necha foizni tashkil etishi, aniq fanlar va muhandislik ishi sohasidagi bitiruvchilarning soni, GMAT, ya'ni o'quvchilarning biznes maktablarida muvaffaqiyatli ta'lim olish qobiliyatini aniqlash uchun standartlashgan test asosidagi o'quvchilarning o'rtacha bahosi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston erishgan muvaffaqiyatlar natijalari boshqa mamlakatlardan yuqori ekani tahliliy hujjatlarda aniq va ravshan ochib berildi.

Hozirgi davrda mamlakatda 1556 zamonaviy ta'lim muassalari, jumladan, 144 ta akademik litsey, 1412 ta kasbiy kollej, chekka qishloqlarda 30 ta kollejlarning filiallari faoliyat yuritmoqda. Mustaqillik davrida oliy ta'lim tizimi beqiyos darajada rivojlandi. Hozirgi davrga kelib ularning soni 58 taga etdi. Undan tashqari mamlakatda 15 ta markaziy oliy o'quv yurtlari filiali, 7 ta rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlarining filiallarida oliy ta'lim berilmoqda. Ularni ichida mashhur oliy o'quv yurtlari sifatida Vestminster universiteti, Singapur menejment rivojlanishi instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti,

Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universitei, Janubiy Koreya Inxa universiteti kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu ta'lim maskanlarida hozirgi davr mehnat bozori talab etayotgan ixtisosliklar — mashinasozlik, neft va gaz sanoati, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, zamonaviy menejment, biznesni boshqarish, tijorat huquqi, turizm kabi sohalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda²⁰⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda qabul qilgan «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori «oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish» vazifalari qo'yildi. Mazkur Qarorni amalga oshirish natijasida mamlakatda zamonaviy va rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan ta'lim tizimini shakllantirishga erishish kutilmoqda²⁰⁵.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatdagi uzluksiz ta'limning milliy modeli kadrlar tayyorlash tizimining asosi sifatida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada o'sishini ta'minlashga, shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini har tomonlama ta'minlashga qaratildi. Shuning uchun ham mustaqillik davrida ta'lim sotsial institut sifatida fuqarolik jamiyatini qurish, mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish kabi sohalarga o'zining salmoqli ijobiy ta'sirini ko'rsata boshladi.

5.6. Din sotsial instituti

Aholini o'ziga qamrab olish bo'yicha eng qadimgi va eng keng tarqalgan institut — bu dindir. Dinning dunyodagi sotsiallik ahamiyatini XXI asrning boshlarida e'lon qilingan quyidagi statistik ma'lumotlardan ham bilsa bo'ladi: yer yuzidagi 6 mlrd.dan ortiq aholimning 4 mlrd.dan ortiqrog'i u yoki bu dinni o'z e'tiqodi sifatida qabul qilgan. Shundan 2 mlrd.ga yaqini xristianlik diniga mansubdir. Ularning ichida keng tarqalgani katolik mazhabi bo'lib, undan keyin protestantlik, va nihoyat pravoslavlik

²⁰⁴Qarang: Ходиев Б. Кадрлар тайёрлаш миллий тизимининг юксак самаралари/<http://nauka.uz/yangiliklar/ta'lim-yangiliklari/408-kadrlar-tajjorlash-millij-tizimining-yuksak-samaralari.html>.

²⁰⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.2017-y.,20-aprel//http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.

mazhablari turadi. Islom dinida 1 mlrd.dan ko'proq, yahudiy dinida 650 mln, budda dinida 300 mln.ga yaqin, konfutsiychilik dinida 200 mln.ga yaqin, sionizm mazhabida 18 mln. aholi diniy taqvodorlik bilan shug'ullanadi²⁰⁶.

Dinga markschilar materialistik va ateistik nuqtai nazardan yondashgan bo'lsa, sotsiologiya asoschilari vakillari — *E.Dyurkgeym* va *M.Veber* butunlay yangi prinsiplar asosida dini sotsiologik nuqtai nazardan turib tadqiq etdi. Fransiya sotsiologi Dyurkgeym o'zining 1912-yilda yozgan «Diniy hayotning elementar shakllari» nomli asarida dinning integrativ rolini ochib berdi. U dini odamlarning turli marosimlarda o'z vazifalarini o'tash uchun diniy qadriyatlar, me'yorlarni qabul qilishi va bajarishi ularni sotsial jipslashuvi va jamiyatni barqarorligi uchun imkoniyatlar yaratdi, degan fikrni ilgari surdi. U dastlab primitiv jamiyatga xos bo'lgan totemizmni tadqiq etib, xristian dinida ham totemizmning ba'zi marosimlari saqlanib qolganini qayd etdi. Jumladan, nonni sindirish va bir qultum may ichish Xristning ruhiga qo'shilish timsolini anglatsada, bu uning tanasi va qonlarini timsollovchi totem ekanligini ochib berdi. Dyurkgeymning dinga doir konsepsiyasi bu sotsial institutning integrativ funksiyasini ochib berdi.

Nemis klassik sotsiolog olimi *M. Veber* dini turmush va u o'z ichiga olgan hayot, kasallik va o'lim kabilarni istisno etmaydigan barcha masalalarga nisbatan insoniy aks sadodir, degan fikrni bildirdi. Shu ma'noda, din jamiyat, alohida sotsial guruhlar va individlar hayotida muhim va yuksak rol o'ynashini qayd etdi. Agar Dyurkgeym dini sotsial roli va integrativ funksiyasiga muhim urg'u bergan bo'lsa, Veber (1904-yilda yozgan «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asarida) diniy-etikaviy qadriyatlarni iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish usullari va tabiatiga ta'siri, uning motivatsiyalari shakllari, shuningdek u yoki bu turdagi xo'jalik yuritishning diniy-etikaviy prinsiplariga ta'sirini tahlil etdi. Veber ana shularni kapitalistik iqtisodiyotni rivojlantirish rag'batlari ekanligini isbotlashga urindi.

Veberning xizmati shundaki, u 1916-1919-yillarda yozgan «Dunyo dinlarining xo'jalik etikasi» nomli asarida dunyodagi turli diniy tizimlarni qiyosiy tahlil etdi, ularni tasnifladi, yuksak shakldagi diniy hayotni tadqiq etdi. U qanday sotsial-kasbiy guruhlarda intellektual-dogmatik mazmunlar yoki marosim va ibodatlar ibtidosi ustunlik qilishini ochib berdi. Uning

²⁰⁶Религии мира//http://www.xliby.ru/nauchnaja_literatura_prochec/sociologija_konspekt_lekcii/p8.php.

fikricha, dinning oqilona maqsadga muvofiqlik jihatlari asosi ko'proq shahardagi tabaqalar va hunarmandlar uchun xos, jodu va afsunlar unsurlari esa ko'proq shaharliklarga qaraganda tashqi tabiiy sharoitlarga bog'liq ravishda kun kechiradigan dehqonlar va qishloq ahli uchun xosdir.

Veberning dinga nisbatan institutsional yondashuvi yana cherkov bilan sektani farqlab tahlil etishida namoyon bo'ldi. Cherkov ijtimoiy tuzilishning tarkibiy qismlaridan biri, u o'z atrofiga ko'plab odamlarni birlashtirgan, davlatdan yordam olib turadigan, o'z strukturasi diniy muammolar bilan shug'ullanadigan shaxslar guruhiga ega bo'lgan rasmiy tashkilotdir. Cherkov marosimlari rasmiylashgan, cherkov hayotida ishtirok etuvchi dindorlarning marosimlari qat'iy ravishda qoidalar va intizomga bo'ysundirilgan. Sektalar esa nisbatan ko'p bo'lmagan odamlardan iborat rasmiylashmagan, davlatni qo'llab-quvvatlashiga mansub bo'lmagan, aksincha, unga qarama-qarshi turuvchi birlikdir. Sekta tarkibida diniy ishlarni tashkil etish bo'yicha kasb-korlarliklarga ega bo'lgan xodimlar guruhi mavjud bo'lmaydi, uning rahbariyati xarizmatik shaxsdan iborat bo'ladi.

Din haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Veberning dinga doir konsepsiyasi uni sotsiologik tadqiq etishni rivojlanishiga kuchli ta'sir etdi. Din bilan iqtisodiyotning o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasidagi yangicha qarashlar ko'pchilikni qiziqтира boshladi. Hozirgi g'arb sotsiologiyasida dinga nisbatan yangi nuqtai nazarlar paydo bo'ldi. AQShning taniqli sotsiologi R.Bella din «*insonning ham bilishga oid, ham hissiyotli hayotiy tajribasi yuzaga keltirgan timsoliy modelni ifodalaydi*», degan fikrni ilgari surdi²⁰⁷. U o'zining yana bir boshqa asarida din tushunchasini yanada aniqlashtirib, quyidagilarni qayd etdi: «*din inson bilan uning umri so'nggi shart-sharoitlarini o'zaro bir-biriga bog'lovchi timsoliy shakllar va xatti-harakatlar to'plamidan iboratdir*». Bu ta'rifda dinga institutsional yondashuv etishmayotgan edi. Uni aniq va to'liq shaklda AQSh sotsiologlari Ch.Glok va R.Stark ifodalab berdi: din «*insoniy umrguzaronlikning so'nggi kategoriyalariga bog'liq masalalarini hal etish imkoniyatlarini beradigan e'tiqodlar, timsollar, qadriyatlar va tajribalarning institutlashgan tizimidir*»²⁰⁸. Albatta, bu ta'rif dinni sotsial institut sifatidagi o'rnini yaxshi tavsiflab bera oladigan tushuncha edi.

Din jamiyatda sotsial institut sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- *integratsiyalash* — yuqorida ta'kidlangan E.Dyurkgeymning konsepsiyasida ko'rsatilganidek, dinning muhim funksiyalaridan biri — bu uning integratsiyalash xususiyatidir. Shu tufayli jamiyatdagi aksariyat

²⁰⁷Белла Р. Социология религии//Американская социология.-М.,1972.-С.287.

²⁰⁸Clock Ch., Stark R. Religion and Society in Tension.-NY.,1965.-P.17.

odamlarning guruhlari muayyan diniy qadriyatlar, marosimlar, urf-odatlar atrofiga jipslashadi, bu jarayon tajribada ko‘rilganidek uzoq va barqaror tarzda davom etadi. Hattoki, funksiyani bo‘shashtirish uchun tashqaridan bo‘ladigan faol aralashuvlar ham uning integratsiyalash natijalarini kamaytira olmaydi. Bu fikrni O‘zbekistonda mustaqillik davridagi diniy uyg‘onish jarayonlari natijalari ham yaqqol tarzda isbotlaydi;

- *me‘yoriy funksiyasi*. Din o‘zining xususiy tarzidagi xulqning me‘yorlar va standartlar tizimiga ega bo‘lib, ular vositasida jamiyatning sotsio-tartiblashtiruvchi mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlagan holda uni muvofiq-lashtirishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi. Bu jarayon bir-biridan ajratilgan davlat va din institutlarining o‘zaro bir-birini anglashiga sharoitlar yaratadi. Chunki, aksariyat diniy qadriyatlar va me‘yorlar umuminsoniy mohiyat kasb etib, insonni sotsiallashtirishga va tarbiyalashga ijobiy ta’sir etadi;

- *kommunikativ funktsiya*. Din o‘zining marosimlari, sig‘inish va ibodat qilish jarayonlarida institut sifatida nafaqat Yaratgan bilan jamoaviy-individual «aloqalar» qilishga, balki odamlarning o‘zaro va yana ruhoniylar bilan munosabatlarini integratsiyalaydi.

Din institutining mazkur uchta funksiyasi uning institutsional tavsiflarini mujassamlashtiradi. Shuningdek din institutining *dunyoy qarashni shakllantirish* (u olamni anglashning muayyan tizimini shakllantiradi), *psixoterapevtik* (dindorlarning o‘z yaqinlaridan judo bo‘lishi va ularni yo‘qotishi natijasida paydo bo‘ladigan tashvishlari va notinchligini barham topishiga tasalli berish, tinchlantirish ta’siri bilan ovutish), *bo‘sh vaqtlarni maroqli o‘tkazish* (diniy bayramlarda, dindorlar davrasida) kabi funksiyalari ham mavjuddir. Lekin, dinning bu funksiyalari nafaqat sotsial institut sifatida, balki ijtimoiy ong sifatidagi funksiyalarni ham bajaradi.

Din instituti ikkita o‘zaro bir-biriga bog‘liq darajalarda tavsiflanadi — *qadriyatli-me‘yoriy* va *xulqiy*. Birinchisi — dindorlar ataydigan predmetlar va hodisalarga nisbatan ko‘rsatmalar, timsollar, e‘tiqodlar yig‘indisi; ikkinchisi — mazmuni har bir dinga tegishli bo‘lgan qadriyatlar va me‘yorlar sifatida belgilanadigan dindorlarning xulqi va ibodatlari.

Din sotsiologiyasining vazifalari. Sotsiologiya fanining dinni o‘rganish sohasida bir necha vazifalari mavjud: birinchidan, dinni jamiyatda o‘zgarib borayotgan o‘rnini siyosiy, madaniy, ta’lim, iqtisodiy institutlar bilan o‘zaro aloqadorlikda sotsial institut sifatida o‘rganish; ikkinchidan, o‘tgan bir necha o‘n yilliklarda dinni noxush tavsiflash kuchayganini e‘tiborga olib, uni obyektiv tarzda tadqiq etishga e‘tibor qaratish. Lekin, bunda mafkuraviy va siyosiy jihatlardagi yondashuvlardan uzoqlashish —

tanqidchilarga qarama-qarshi tomonda turish yoki ateizmi yomonlash, dinga ishonmaydiganlarni ayblash degani emas; uchinchidan, din institutini boshqa institutlar bilan o'zaro aloqalarini tahlil etishda tarixda uchraydigan dinni fan bilan yoki uni madaniyat bilan qarama-qarshiligi holatlarini unutilib, unga yangicha nuqtai nazarlar bilan yondashuv; to'rtinchidan, din institutini o'rganishda kognitiv, hissiyotli va aniq voqelik darajalardagi bir-birlariga o'zaro ta'sirlarda xatti-harakat qilayotgan turli sotsial birliklarda ishtirok etayotganlarning sotsial xulqlarini tahlil etish maqsadga muvofiq ekanligini e'tiborga olish. Bunda so'z diniy hayotdagi motivlar, ko'rsatmalar, manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatli mo'ljallar va aniq xulqiy hodisalarni tadqiq etish to'g'risida ketmoqda.

Dunyodagi hozirgi din instituti haqida so'z ketganida, g'arb jamiyatlarida kuzatilayotgan tamoyillarni ham nazardan qochirib bo'lmaydi. Hozirgi davrda g'arb jamiyatlarida sekulyarlashish jarayonlari ketmoqda. Ya'ni, dunyoni diniy-mifologik manzaralariga doir qarashlar ularni ilmiy va oqilona tavsiflashlar tomonidan siqib chiqarilmoqda. Sotsiologlar va dinshunoslar din o'zining ustunlik qiluvchi sotsiomadaniy rolini yo'qotayotganligini, bu holatlarni cherkov, ibodatxonalarga va diniy marosimlarga qatnashlarning kamayib ketayotganligida, dinni boshqa sotsial institutlar — ta'lim, siyosiy, iqtisodiy, madaniy institutlarga ta'siri tushib ketganligida ko'rinayotganligini qayd etmoqda²⁰⁹.

Hozirgi g'arb jamiyatlarida dinning rolini tushib ketayotganligini rad etmagan holda ba'zi sotsiologlarning (*P. Berger, T. Lukman*) bu borada keltirayotgan dallilari din hali sotsial institut sifatida yo'qolib ketadi degani emas, degan fikrlarni asoslamoqda. Ularning fikricha, din instituti yangi sotsial shakl kasb etmoqda, qaysiki, uning asosiy mazmuni insonning o'zini xususiy tarzda «dunyoni qandayligini tasavvurlashini» yengillashtirishi maqsadidan kelib chiqib qanday diniy tizimni individual tarzda tanlashi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda 16 ta turli konfessiyalarga mansub bo'lgan 2223 ta diniy tashkilotlar davlat ro'yhatidan o'tgan. Ulardan 2037 tasi musulmon masjidleri hisoblanadi (1990-yilda ularning soni atigi 86 tani tashkil etar edi). Shuningdek, O'zbekistonda 159 ta xristian diniga mansub diniy tashkilotlar, yana 8 ta yaxudiy, 6 ta bihoiy, 1 ta krishnaviy jamolari, 1 ta buddaviy ibodatxona faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik davriga kelib milliy qonunchilik tomonidan kafolatlangan diniy e'tiqod erkinligi 135 dan ortiq millatlar va etnik

²⁰⁹Batafsilroq qarang: Костина П.Б. Религиозная общность: проблемы социологических исследований. - Екатеринбург, 2001.

guruhlarning o'zlarini diniy e'tiqodlarini amalga oshirishlari, diniy marosimlarini o'tkazishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratdi. Mamlakatda Toshkent Islom institutida, 9 madrasada, pravoslav va protestant seminariyalarida diniy ta'lim berish yo'lga qo'yildi. Mustaqillik davrida 100 mingga yaqin musulmonlar Saudiya Arabistonida Haj ziyoratini amalga oshirdi. Yana 1500 dan ortiq mamlakat fuqarolari Rossiya, Yunoniston va Isroildagi xristianlar va yahudiylar muqaddas ziyoratgohlarini tavof etishga erishdi²¹⁰.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda diniy sotsial institut sifatidagi maqomi mustaqillik davriga kelib qaytadan tiklandi. Diniy institutlar aholini diniy e'tiqodini mustahkamlashda, yoshlarni axloqiy tarbiyalashda muhim rol o'ynashi bilan birga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga ham o'zining katta hissasini qo'shib kelmoqda. Mustaqillik davrida diniy erkinlikni berilishi natijasida minglab yillar o'zida ham diniy, ham ma'naviy qadriyatlarni mujassamlashtirgan Islom dini mamlakatda o'zining yangi davrini boshladi. Diniy institutlar xalqimizni milliy uyg'onishida muhim ahamiyat kasb etishidan tashqari mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishga oid islohotlarni ham qo'llab-quvvatlab kelmoqda, ayrim sotsial vazifalarni bajarishga o'zining salmoqli hissasini qo'shmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Institut» deganda nimani tushunasiz?
2. «Sotsial institut» nima?
3. Sotsial institutlarning strukturasi nimalardan iborat bo'ladi?
4. Sotsial institutlar qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Iqtisodiy institutlar deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida qanday institutlar shakllandi?
7. Oila va nikoh sotsial instituti nima va u qanday funksiyalarni bajaradi?
8. Ta'lim sotsial instituti to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar ta'lim institutlari o'rtasidagi qanday umumiyliklar va farqlanishlar mavjud?
10. Din sotsial institut sifatida O'zbekistonda qanday funksiyalarni amalga oshirmoqda?

²¹⁰Юсупов О.О. Основы вероисповедания в Узбекистане. 11.11.2013//http://religions.uz/rus/news/osnovi_vero-ispovedaniya_v_uzbekistane.mgr.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016//Xalq so'zi,2016,6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 201-y.,6-son,70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.2017// http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild.-T.:O'zbekiston,1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi.2016-y.,9-sentyabr//<http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr,2016,20-oktyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javob-garlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.:O'zbekiston,2017.
9. Acemoglu D. Robinson J. The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation / The American Economic Review (angl.) russk., Vol.91, No.5 (Dec., 2001), pp. 1369-1401.
10. Андреев Ю. П., Коржевская Н. М., Костина Н. Б. Социальные институты: содержание, функции, структура.-Свердловск: Изд-во Урал. ун-та, 1989.
11. Асп Э. К. Введение в социологию. Пер. с финск. яз..-СПб: АЛТЕТЕЙЯ, 2000.
12. Белла Р. Социология религии//Американская социология.-М., 1972.
13. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания.-М.: Медиум, 1995.
14. Бурдые П. Структура, габитус, практика//Журнал социологии и социальной антропологии.-Том I, 1998, №2.
15. Веблен Т. Теория праздного класса.-М., 1984.
16. Гидденс Э. Социология.-М.: Эдиториал УРСС, 1999.

17. Грицанов А. А. Энциклопедия социологии. - М.: Издательство «Книжный Дом», 2003.
18. Durkheim E. Lesfor meselementaires delavie religieuse. Lesystemetotemi queen Australie.-Paris,1960.
19. Clock Ch., Stark R. Religion and Society in Tension.-NY.,1965.
20. Костина П. Б. Религиозная общность: проблемы социологических исследований. - Екатеринбург, 2001.
21. Коэн Дж. Структура социологической теории. - М., 1985.
22. Кули Ч. Х. Общественная организация. изучение углубленного разума. // Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия. / Сост. и отв. ред. Добренков В. И., Беленкова Л. П. - М.: Наука, 1994.
23. Макконелл К. Р., Брю С. А. Экономические принципы, проблемы и политика. - М., 1992.
24. Нурышев Г. Н., Бразевич Д. С. Социология: Учеб. пособие. - СПб.: СПбГУНиПТ, 2010.
25. Sarapata A., Doktor K. Elementy socjologii przemyslu. - Warszawa, 1967.
26. Scott R. Institutions and Organisations, - London: Sage, 2001.
27. Смелзер Н. Социология: пер. с англ. - М.: Феникс, 1998.
28. Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей / Под ред. В. А. Михайлова. - Ульяновск: УлГТУ, 2004.
29. Троиц М. Социология образования // Американская социология. М., 1972. С. 174-187.
30. Штомпка П. Социология. Анализ современного общества: Пер. с польск. СМ. Червонной. - М.: Логос, 2005.

6-mavzu. SHAXS SOTSILOGIYASI

6.1. Shaxs rivojlanishining asosiy omillari.

6.2. Shaxsning o'zini o'zi anglashi va Men-konsepsiyaning shakllanishi.

6.3. Shaxs turlarining tasniflanishi.

6.4. Shaxs maqomi, roli va uning sotsiallashuvi.

Tayanch so'zlar: shaxs, inson, individ, individuum, individuallik, madaniyat, ehtiyojlar strukturasi, ehtiyojlar piramidasi, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi baholash, Men-konsepsiya, shaxs turlari, shaxs strukturasi, temperament, motivlashish, shaxs maqomi, shaxs roli, sotsiallashuv.

6.1. Shaxs rivojlanishining asosiy omillari

«Shaxs» so'zi ingliz tilida «personality» qabilida qabul qilingan bo'lib, u lotincha «persona» so'zidan olingan. «Shaxs» tushunchasi psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda biri-biridan farqlanib turadigan turli shakllarda uchraydi. Shuning uchun ham uning asl ma'nosini talqin etish uchun bu soha nazariyotchilariga murojaat qilishga ehtiyoj seziladi. Jumladan, *Karl Rojers* «shaxs» tushunchasini «o'zi» («o'zlik») iborasi bilan tavsiflagan: go'yoki, u bizning kechinmalarimiz yuragini tashkil etadigan, uyushgan, uzoq vaqt davom etadigan, subyektiv tarzda idrok qilinadigan ma'no-mazmun sifatida namoyon bo'ladi. *Gordon Olportning* fikricha, shaxs aslida individuum o'zini o'zi ifodalaydigan - insonni atrof olam bilan o'zaro munosabatlarini belgilab va aniqlab berishini namoyon qiladigan qandaydir ichki «holatidir». *Erik Eriksonning* yozishicha, *individuum* o'z hayoti davomida qator psixosotsial inqirozlarga duchor bo'ladi. Uning shaxsi ana shu inqirozlar natijasi o'laroq paydo bo'ladigan funksiyasi sifatida gavdalanadi. *Jorj Kelli* shaxsning har bir individuum uchun xos bo'lgan hayotiy tajribani anglashining noyob yo'li sifatida ta'rifladi. *Reymond Kettel* esa o'zining butunlay boshqacha konsepsiyasini ilgari surdi. Uning qarashicha, shaxs strukturasi o'zagi o'n oltita dastlabki boshlang'ich sifatlar bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Va nihoyat, *Albert Bandura* shaxsni individuum, xulq va vaziyatning uzluksiz tarzdagi o'zaro ta'sirlarining murakkab bezaklari (naqshlari) ko'rinishida tasvirlaydi.

Kundalik hayotda «inson», «shaxs» va «individ» kabi tushunchalar aynan bir xil ma'noli iboralar sifatida qabul qilinadi. Lekin, sotsiologiya

fanida bu tushunchalar turli ma'nolarni beradi. *Inson* — bu biologik tur, yer yuzidagi tirik organizmlar rivojlanishining oliy darajasi, ong va aql-idrokka ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy-tarixiy faoliyat va madaniyat subyektidir. Bu tushuncha umumiy bo'lib, u homo sapiens paydo bo'lgan davrdan buyon yashab kelayotgan asosiy va yetakchi jinsga nisbatan qo'llaniladi. Sotsiologiya fanini asosan inson avvalambor jamiyat rivojlanishining mahsuli sifatidagi jihatlari qiziqtiradi. *Shaxs* — inson mohiyatining aniq va ravshan ifodasi, unda mazkur jamiyatning sotsial ahamiyat kasb etadigan sifatleri va xususiyatlari mujassamlashadi va amalga oshadi. Bu tushuncha individning sotsial va notabiiy mohiyatini alohida ajralib turishi uchun kiritiladi. Shaxsning o'ziga xos ajratib bo'lmaz sifatleri — bu uning o'zini o'zi anglash, qadriyatlar asosida yashash, o'z xatti-harakatlari uchun mas'ul bo'lishidir. Odam shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki shakllanish natijasi o'laroq shaxs bo'lishga erishadi. *Shaxs* bo'lish darajasiga nafaqat yorqin va iste'dodli odamlar, balki sotsial hayot subyekti sifatida yashayotgan, o'zi yashayotgan jamiyatning muhim sotsial sifatlerini o'zida ifodalagan har qanday odam erishishi mumkin.

Shaxs jamiyatning eng noyob unsurlaridan biri hisoblanadi. Ba'zi qarashlarga muvofiq shaxsning shakllanishiga uning tug'ma sifatleri va qobiliyatlari tufayli erishiladi, bu jarayonda sotsial muhitning o'rni unchalik muhim emas, degan g'oyalar ilgari surilsa, yana boshqa qarashlarga binoan bu dalillar inkor etilgani holda to'liq ravishdagi sotsial tajribaning kechishi davomida shakllanadigan qandaydir mahsullik sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, shaxsning rivojlanishi to'g'risidagi bu ikki qarash o'rtasida turadigan yana turlicha talqinlar ham mavjud. Lekin, aksariyat olimlar shaxs shakllanishining ham biologik, ham sotsial tajribaga oid omillarini e'tirof etadi. Ulardan birini keltiramiz: «*shaxs* — inson sotsial xossalarining yaxlitligi, ijtimoiy rivojlanish mahsuli, shu bilan birga, individning sotsial munosabatlar tizimiga faol aloqalar va faoliyatlar vositasida kirishuvidir (ulanishidir)»²¹¹. Shu kabi ko'pchilik qarashlarga binoan shaxs biologik organizm sifatidan turli sotsial madaniy tajribalar tufayli rivojlanish jarayoniga o'tadi. Shu bilan birga, uning shaxsiy sifatleri shakllanishi jarayoniga kuchli ta'sir qiladigan tug'ma qobiliyatlari, jo'shqin intilishlari, moyilliklari ham inkor etilmaydi.

Umuman olganda, inson — bu bir necha o'n ming yilliklar mobaynida jonzotlar dunyosi evolyutsiyasi rivojlanishining oliy darajasi va noyob biologik turidir. Shu bilan birga, inson tarixning faol ijodkori, sotsial

²¹¹Qarang: Социология:Словарь-справочник.-М.,1990.Т.1-3.Т.2.-С.71.

o'zaro ta'sirlar subyekti, shuningdek bir vaqtning o'zida u sotsiurnning oliy unsuridir. Nemis faylasufi K.Yaspersning ta'biricha, inson — bu jonzoilar ichida eng oliysi, farishtalar ichida esa quyisidir. Inson sotsiallik, shaxsiylik va tabiiylikdan o'sib chiqadi, unda doimo tiriklik ishtirok etadi.

Sotsiologlar «inson» (homo sapiens) deganida, bu kimsani insoniyatga mansubligini, odamlarning umumiy tasniflari ifodasini ko'rsatuvchi zurriyot (zot) tushunchasini nazarda tutadi. Bu ma'noda inson o'smir va katta yoshli odam va bizning zamondoshimizdir. Boshqa jonzoilarga nisbatan insonning o'ziga xos xususiyati shundaki, u fikrlash va ong vositasida nazariy va amaliy faoliyatga qobil va ularga ehtiyoj sezadi, shuningdek u aniq va ravshan tarzda so'zlaydi.

Inson zotining alohida aniq vakillarining mavjudligi «individ» tushunchasi bilan ifodalanadi. *Individ* (lotincha individ — bo'linmas, chegarali) deganda insoniyat zotining bitta vakili sifatida aniq ko'rinib turgan inson tushiniladi. Demak, *individ* — bu insonning biosotsial tirik jonzoil, sotsial birlik a'zosi ekanligini anglatadi. Inson sotsial-psixologik belgilarining o'ziga xosligi, uning xulqi, intellekti, madaniyati, tavsifi, hayot tarzi va faoliyati xususiyatlari «individ» iborasining sotsiologik tarkibiga kirmaydi. Ular «shaxs» tushunchasiga taalluqlidir. *Individuallik* — bu bir odamning ikkinchi odamdan farqlovchi sifat va belgilari jamlanmasidir. Bu tushuncha o'ziga xoslik, betakrorlik, aniq bir shaxsning noyobligi kabi ma'nolarni anglatadi.

Aksariyat tavsiflarda *individuallik* yoki induvidual farqlanishlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Shaxsning muayyan odamlar — boshqalardan farqlanib turishiga sabab bo'ladigan alohida sifatlari ko'rsatib beriladi. Undan tashqari, bir shaxsning ikkinchisidan qanday o'ziga xos sifatlari va o'zligini namoyon qilishga oid xatti-harakatlari farqlab turishi hodisasini faqat individual farqlanishlarni o'rganish yo'li bilan anglash mumkin ekanligi ochib berildi. Ko'pchilik ta'riflarda shaxs faraz qilingan struktura yoki tuzilma ko'rinishida beriladi. *Individuum* xulqini kuzatish mumkin bo'lgan holatlar to'liq bo'lmaganligi uchun ham u uyushgan yoki integratsiyalashgan shaxs sifatida ko'rib chiqiladi²¹².

Shu tariqa, *inson* — bu biologik tur hisoblanadi. *Individ* — inson zotining aniq bir vakili demakdir. *Shaxs* — sotsial munosabatlar va ongli hayot faoliyati subyektidir. *Individuallik* — bir shaxsni boshqasidan farqlab turuvchi sifatlari yig'indisidir.

²¹²Хьелл Л., Зиглер Д. Теория личности: основные положения, исследования и применение. Перевод С. Меленевской и Д. Викторовой. Глава 10. - СПб.: Питер Пресс, 1997. - С. 5-7.

Yuqorida keltirilgan qarashlar va tavsiflarning bir-birlariga o'xshamasligi shuni ko'rsatadiki, shaxsning mazmun-mohiyati turli nazariy tasavvurlarda har xil tarzda ifodalangan. Shaxs o'zida qandaydir muhimlik, jiddiylilik va doimiylikni ifoda etadi. Boshqacha aytganda, shaxs — bu inson xulqini kuzatish natijasida olingan xulosalarga asoslanuvchi mavhumlikdir. Yana boshqa ta'riflarda shaxs xulqning barqaror shakllariga muvofiq keladigan tasniflar asosida tavsiflanadi. Shaxs zamonda va o'zgarib turadigan vaziyatlarda nisbatan o'zgarmas va doimiylikdir; u zamon va atrof-muhitni uzluksizlik tuyg'usi bilan ta'minlab turadi.

Shaxsning favqulodda noyobligi nihoyatda murakkab va ko'p ma'nolidir. Shuning uchun ham uni tadqiq etish ham bir xilda ro'y bermaydi. Inson muayyan tabiiy iste'dod va irsiyat turi nishonalariga ega bo'lgan holda faqat aniq sotsial shart-sharoitlarda (guruhlarda, birliklarda, uyushmalarda, institutlarda) va o'z atrofidagi moddiy ashyolar va ma'naviy olam, an'analar, o'zidagi yashashga qobillik, bilimlarni egallash, mustahkamlangan madaniyatni o'zlashtirgan oldingi avlodlar tajribalarini egallashga intilish kabi jarayonlar, shuningdek, o'zaro ta'sirlar hamda munosabatlar natijalari hosilasi o'laroq shaxs sifatida shakllanadi. Lekin, bu jarayon konform²¹³, yoki qonunga itoatgo'y, yoki deviant holdagi, yoki boshqa oraliq turlardan o'tish kabi juz'iy o'zgarishsiz ro'y bermaydi.

Shaxsga nisbatan sotsial-psixologik qonuniyatlar nuqtai nazaridan qaralganda unga muhim ahamiyat kasb etadigan sotsial-psixologik sifatlar va xususiyatlarning barqaror tizimini o'zida mujassamlashtirgan, insoniylik mohiyatini aniq ifodalovchi inson sifatida qaraladi. Sotsiologiya fani uchun shaxsni sotsial rollar yig'indisi, sotsial vaziyatlar, madaniyat, sotsial muhit tomonidan shartlangan sotsial tur, yoki muayyan sotsial guruh yoki birlik vakili sifatida tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Hozirgi davrda olimlar shaxs muammolariga turli metodologik nuqtai nazarlardan yondashayotganligi uchun ham u haqda turlicha talqinlarni uchratish mumkin. Ba'zi olimlar shaxs deganda «individning faol aloqalar va faoliyatlar vositasida sotsial aloqalar tizimiga qo'shilishi, ijtimoiy rivojlanish mahsuli va inson sotsial xususiyatlarining yaxlitligi»ni tushunmoqda²¹⁴.

Umumiy psixologiya fanida esa shaxs psixik jarayonlar, aloqalar va xususiyatlarning barqaror hamda yaxlit tizimi sifatida tadqiq etilmoqda. Sotsial psixologlar aniq olingan shaxsga qaratilgan tavsiflarda shaxsni butun bir jamiyatning tashqi ta'sirida o'zidagi anglash, aloqalar, faol

²¹³Konform - [lot. conformis o'xshash, bir xil] — moslashuvchilik, mavjud hodisalar va voqealar tartibotini faolsiz (passiv) tarzda qabul qilish, jamiyatda ustunlik qiluvchi fikrlar.

²¹⁴Энциклопедический социологический словарь//Под ред. академика Г.В.Осипова;ИСПИ РАН.-М.,1995.-С.357.

faoliyatlarining borishida ichdan o'zini o'zgartirish xususiyatiga katta ahamiyat bermoqda. Ularning ba'zi vakillari fikricha, «shaxs — individning sotsial ahamiyat kasb etadigan sifatlari tizimi, sotsial qadriyatlarni egallash o'lchovi va bu qadriyatlarni amalga oshirish qobiliyatidir»²¹⁵.

Shaxsning paydo bo'lishi va uning shaxslik sifatlari rivojlanishini tasavvur etish uchun shaxsning shakllinishiga ta'sir qiladigan quyidagi omillarni ko'rsatish rusmga kirdi: 1) biologik irsiyat; 2) tabiiy muhit; 3) madaniyat; 4) guruhij tajriba; 5) noyob individual tajriba. Mazkur omillar doimiy ravishda shaxsga ta'sir etib turadi.

Biologik irsiyat. Hayotij tajribadan ma'lumki, g'ishtdan quriladigan uyni toshdan yoki qamishdan qurib bo'lmaydi. Lekin uylarni g'ishtdan turli tarzda qurish mumkin. Har bir odamning biologik irsiyati keyinchalik turli yo'llar bilan inson zoti, individ va shaxs shakllanadigan xom ashyoni yetkazib beradi.

Turli jonzotlardan farqli o'laroq inson zoti butun yil davomida jinsij munosabatlarda ishtirok etadi. Bu holat natijasi u yoki bu darajadagi bolalarning dunyoga kelishida namoyon bo'ladi. Go'dak o'zini eplay olmaydigan ojiz holda yashaydi va uning hayotini dastlabki davri shu tarzda o'tadi. Bu kabi biologik dalillar odamlarning sotsial hayoti asosini yaratadi. Shuningdek, inson bir nikohlilik (faqat bir xotin va erkakdan iborat hayot) jinsij hayot instinktiga²¹⁶ ega bo'lmaydi. Insonning bu xususiyati har bir jamiyatda turlicha kechib, u oila instituti va bolalarni tarbiyalashda o'zini namoyon etadi. Biologik irsiyat belgilari inson zotining havo, ovqat, suv, faollik, uyqu, xavfsizlik va og'riqqa duchor bo'lmaslik kabilarni o'z ichiga olgan qator tug'ma ehtiyojlar bilan to'lib boradi. Agar insonning sotsial tajribasi insonning o'zi ega bo'lgan, asosan bir-birlariga o'xshash bo'lgan umumij belgilar bilan dalillansa, biologik irsiyat asosan shaxsning individualligi, uning jamiyatning boshqa a'zolaridan azaldan farqlanib turishi bilan asoslanadi. Shu bilan birga, guruhij o'zaro farqlanishlarni biologik irsiyat bilan dalillab bo'lmaydi. Bunda so'z noyob sotsial tajriba, noyob submadaniyat²¹⁷ to'g'risida ketmoqda. Shu tariqa,

²¹⁵Еникеев М.И. Основы общей и юридической психологии: Учебник для вузов. - М.: Юристъ, 1996. - С. 188.

²¹⁶Instinkt - [lot. *instinctus* istak, mayl; ilhom, g'oyibona kuch] - muayyan ichki va tashqi qo'zg'alishlar natijasida paydo bo'ladigan jonzot va odamzodga mansub xulqning tug'ma shakli; instinktlar hayot shart-sharoitlariga moslashish shakli bo'lib, ular organizmlarning tarixij rivojlanish jarayonida paydo bo'lib boradi; ichki tuyg'u, tushunish qiyin bo'lgan sezgi, qiziqish, intilish.

²¹⁷Sub...- [lot. *sub* ostida, tagida, yonida] - murakkab so'zlarning birinchi tarkibij qismi: biron-bir narsaning ostida, yonida, atrofida turgan narsani anglatadi, masalan, subtropiklar, substratosfera.

biologik irsiyat shaxsni to'liq ravishda vujudga keltira olmaydi. O'z navbatida, na madaniyat, na sotsial tajriba genlar tomonidan avloddan-avlodga uzatilmaydi.

Lekin, biologik omilni shuning uchun ham e'tiborga olish lozimki, u birinchidan, sotsial birliklar uchun cheklashlarni yuzaga keltiradi (go'dakning o'zini o'zi eplay olmasligi, suv ostida uzoq turib bo'lmaslik, biologik ehtiyojlarning mavjudligi va hokazo), ikkinchidan, biologik omillar tufayli turli-tuman temperamentlar²¹⁸, fe'l-atvorlar, qobiliyatlar shakllanib, ular har bir insoniy shaxsdagi individuallikni, ya'ni, betakror va noyob yaralmani vujudga keltiradi.

Tabiiy muhit. Ba'zi olimlar shaxsning rivojlanishida tabiiy muhitning o'rni hal qiluvchi omil sifatida e'tibor berdi. Jumladan, *Pitirim Sorokin* (1928) o'zining bir necha asarlarida, boshqa aksariyat olimlar — *Konfutsiy*, *Aristotel*, *Gippokrat* kabilardan boshlab hozirgi davrdagi jug'rofiya sohasidagi olim *Elliot Xantingtongacha* yaratilgan nazariyalar umumlashtirilsa, ularda shaxslar xulqlaridagi guruhiy farqlanishlar asosan iqlimlar, jug'rofiy xususiyatlar va tabiiy resurslarning turli-tumanligi bilan belgilanishiga doir isbotlashlar namoyon bo'ladi. Bu kabi qarashlar faylasuf *G.V. Plexanov* va tarixchi *L.N. Gumilevlar* asarlarida ham ilgari surildi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar etnomarkazlashish, millatchilik ongini oqlab chiqish uchun yaxshi asos bo'ldi. Lekin, hech kim shaxsning rivojlanishiga tabiiy omilning ta'sirini hal qiluvchi omil ekanligini to'liq isbotlab bera olmadi. Albatta, o'zaro o'xshash tabiiy va jug'rofiy shart-sharoitlarda shaxslarning turli xillari shakllanishi o'z isbotini topgan, va aksincha, ba'zi hollarda turli xildagi atrof-muhitlarda shaxslarning o'zaro bir-biriga o'xshash guruhiy belgilari rivojlanishi ham kuzatilgan. Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, tabiiy muhit sotsial guruhlarining madaniy o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir etishi mumkin, lekin, uning alohida olingan shaxsga nisbatan ta'siri unchalik sezilarli emas, ular shaxsga guruh madaniyati, guruhiy yoki individual tajriba ta'sirlari bilan tenglasha olmaydi.

Madaniyat. Avvalambor shuni qayd etish lozimki, muayyan madaniy tajriba butun bir insoniyat uchun umumiylik kasb etadi va u har qanday jamiyatning rivojlanish bosqichi qanday darajada ekanligiga bog'liq emas. Shu tariqa, har bir go'dak katta yoshli odamlar tomonidan oziqlantiriladi,

²¹⁸Temperament - [lot. temperamentum tegishli ravishdagi (qismlarning) bir-birlariga o'zaro nisbati; muvofiq, mutanosib] — shaxsning ruhiy faoliyati o'zgarishini tavsiflovchi va oliy nerv faoliyatining fiziologik asosiga ega bo'lgan individual xususiyatlar yig'indisi. Temperament his-tuyg'ular ichida yoki sirtidagi qo'zg'alishlar ta'siri o'laroq paydo bo'ladi.

til orqali aloqa qilishga o'rgatiladi, jazolash va mukofotlashni qo'llash tajribasini oladi, shuningdek, ba'zi boshqa umumiy madaniy namunalarni o'zlashtiradi. Shu bilan birga, har bir jamiyat hayotda o'zining barcha a'zolariga boshqa jamiyatlar taklif eta olmaydigan, boshqacharoq bo'lgan tajribalar va madaniy namunalarni beradi. Jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy bo'lgan sotsial tajribalardan mazkur jamiyatning aksariyat a'zolari uchun xos bo'lgan o'ziga xos shaxslar qiyofasi namunalari vujudga keladi. Masalan, musulmon madaniyati sharoitida shakllangan shaxs xristian mamlakatida tarbiyalangan shaxsga nisbatan boshqacharoq xususiyatlarga ega bo'ladi.

AQShlik taniqli olim K. Dyuboyshaxsni muayyan jamiyat uchun umumiy xususiyatlar kasb etadigan «modallik»²¹⁹ deb ataydi. Dyuboysh «modal shaxs» deganda ko'pincha uchrab turadigan, jamiyat madaniyatiga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlarga ega shaxsni tushunadi. Shu tariqa, har qanday jamiyatda umum qabul qilingan o'rtacha xususiyatlarni o'zida mujassam etgan shaxslarni uchratish mumkin. Masalan, «o'rtacha» fransuz, «o'rtacha» ingliz yoki «haqiqiy» nemis kabi iboralar eslanganida modal shaxslar to'g'risida so'z ketayotganligini bildiradi. Modal shaxs jamiyat tomonidan o'z a'zolariga madaniy tajribalarni o'sib borishi jarayonida singdirib boriladigan umummadaniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar u yoki bu darajada jamiyatdagi shaxsda asrab boriladi.

Boshqacha aytganda, har bir jamiyat o'zining madaniyatiga munosib (loyiq) bo'lgan bir yoki bir necha asos yoki tayanch bo'ladigan shaxslar turlarini rivojlantiradi. Bu shaxslar namunalari odatda bolalik davridan boshlab o'zlashtirib boriladi. Masalan, Janubiy Amerika tekisliklari hindulari orasida katta yoshli erkaklar uchun sotsial jihatdan ma'qul bo'lgan shaxs turi kuchli, o'ziga ishongan, jangovar kayfiyatdagi odam hisoblangan. Ular hammani qoyil qoldiradi, ularning xulqi taqdirlab boriladi, bolalar shu kabi erkaklarga o'xshashga intiladi.

Hozirgi davr jamiyati uchun qanday shaxs turi maqbul, degan savol tug'ilishi tabiiy bir hol. Bu kabi shaxs sotsialbop, ya'ni, sotsial aloqalarga yengil tarzda kirishuvchi, doimo hamkorlikka tayyor turuvchi, shu bilan birga, ba'zi tashqi ta'sirlarga chidamlilik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan (ya'ni, o'zini o'zi himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lgan) va hayotda jur'atli bo'lgan shaxsdir. Bu sifatlarning aksariyati yashirin tarzda, shaxsning ichida rivojlanib boradi, agar bu sifatlar yetishmasa shaxs o'zini noqulay

²¹⁹Modallik - [fr. modalite < lot. modus ishtiyiq, moyillik, yo'sin] - bu atama "moda" iborasidan olingan bo'lib, u ob'ekt o'lchamlarining bir talayi yoki ular qatorida uchrab turadigan o'lchovlarni anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

sezadi. Shuning uchun ham bolalar katta yoshlilarga nisbatan «rahmat» va «xo'p bo'ladi» deyishga, katta yoshlilar orasida tortinmaslikka, o'zini himoya qila olish xulqini egallashga o'rgatiladi.

Lekin, murakkablashgan jamiyatlarda ko'p sonli submadaniyatlarning mavjudligi uchun umum qabul qilinadigan shaxslar turini topish qiyin kechadi. Hozirgi davr jamiyati ko'plab strukturaviy ostki bo'linmalardan iborat: mintaqalar, millatlar, kasb-korlar, yosh darajalari va hokazo. Bu ostki bo'linmalarning har biri o'zining muayyan shaxs namunalari va mos bo'lgan shaxsiy submadaniyatini tuzishga moyildir. Bu namunalar alohida individlarga mansub bo'lgan shaxslar namunalari bilan bir-birlariga qorishib boradi va natijada shaxslarning aralash turlari paydo bo'ladi. Turli submadaniyatdagi shaxslar turlarini o'rganish uchun har bir strukturaviy birlikni alohida o'rganish, shuningdek, so'ngra oxirgi davrda ustuvorlik qilayotgan madaniyat shaxslari namunalari ta'sirini e'tiborga olish taqozo etiladi.

Shu tariqa, shaxsni shakllanishiga ma'lum darajada biologik omillar, shuningdek, alohida sotsial guruhlardagi tabiiy muhit va xulqning umum madaniy namunalari ta'sir ko'rsatadi. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, shaxs shakllanish jarayonining hal qiluvchi asosiy omili, bu - hech bir shak-shubhasiz aytish mumkinki, guruhij tajriba, shu bilan birga, noyob subyektiv shaxslik tajribasidir. Bu omillar to'liq ravishda shaxsning sotsiallashtirish jarayonida namoyon bo'ladi.

Insonni harakatga keltiruvchi kuch uning ehtiyojlari hisoblanadi. Ehtiyojlar shaxsning ajratib bo'lmaz tarkibiy qismini tashkil etadi, uning aksariyat xatti-harakatlari sabablari hisoblanadi. *Ehtiyoj* — bu inson hayot faoliyati va rivojlanishini qo'llab-quvvatlab turish zaruratidan kelib chiqadigan insonning hayot kechirish shartlari sifatida namoyon bo'layotgan bog'liqliklardan (qaramlikdan) iborat narsalarga obyektiv ravishda zarurat sezish demakdir. Ehtiyojlarni qondirish — individning muvozanatlashgan holatga qaytishi, o'zidagi tangliklarga barham berishidir.

Ehtiyojlar strukturasi doir ta'limot AQSh olimi Abraxam Maslou (1908-1970) tomonidan ishlab chiqildi. *A.Maslou* insonni «xohishli mavjudot» sifatida tavsiflab, u o'z xohishiga to'liq va tugallangan holda kamdan-kam erishadi, degan fikrni bildiradi. Agar odamda xohish va ehtiyojlar yo'qolib qolsa, bu vaqtinchalik holatdir. Agar bir ehtiyoj qondirilsa, uning o'rniga ikkinchi ehtiyoj paydo bo'ladi va u inson diqqat-e'tibori va intilishini yangi paydo bo'lgan ehtiyojga yo'naltiradi. Odam bu ehtiyojini qondirgan taqdirda ham yana boshqa ehtiyoj o'zini qondirilishini talab qila boshlaydi. Inson hayoti doimiy ravishda nimagadir xohish bildirish davomida o'tib boradi.

A.Maslouning fikricha, insonning barcha ehtiyojlari tug'ma yoki xulqning tug'ma shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu ehtiyojlar ustuvorlik yoki ustunlik qilishning ierarxik tizimiga uyushadi. Ehtiyojlar o'zining navbatma-navbat keladigan bosqichlari tartibi bo'yicha quyidagilardan iboratdir:


- fiziologik ehtiyojlar;
- xavfsizlik va himoyalanih ehtiyojlari;
- mansublikka erishish va sevilish ehtiyojlari;
- o'zini o'zi hurmat qilish ehtiyojlari;
- o'zini o'zi muhimlashtirish ehtiyoji, yoki shaxsiy mukammalashish ehtiyoji.

Ehtiyojlar ierarxiyasidan ko'rinib turibdiki, xavfsizlik ehtiyoji vujudga kelishidan oldin, dastlab fiziologik ehtiyojlar etarli darajada qondirilishi lozim; fiziologik ehtiyojlar va xavfsizlik va himoyalanih ehtiyojlari mansublik va sevilish ehtiyojlari talablari paydo bo'lmasidan ilgariroq qondirilishi lozim. Maslouning fikricha, asosiy muhtojliklarni ierarxiyada izchillik asosida joylashuvi inson motivatsiyasini uyushtirish asosida yotadigan eng asosiy prinsipdir. Ehtiyojlar ierarxiyasi barcha odamlar uchun xos bo'lishi, inson bu ierarxiyada qanchalik yuqoriga ko'tarilgani sayin o'zining individualligini, insoniy sifatlarini, ruhiy sog'lomligini ko'proq namoyish qilib boradi.

Bunda Maslou shunday juz'iy holatlarga yo'l qo'yganki, ularga binoan motivlarning ierarxik joylashuvida istisnolik ham bo'lishi mumkin. Uning e'tirof etishicha, qandaydir ijodiy faoliyat olib borayotgan odamlar jiddiy qiyinchiliklar va sotsial muammolarga duch kelsada o'z iste'dodlarini rivojlantira olishi va ifodalashlari mumkin. Shuningdek, qadriyatlar va oliy maqsadlari shunday kuchli ifodalangan odamlar borki, ular ochlik va tashnaliklarga bardosh bera oladi, halokatga uchrashini bilsada ulardan qaytmaydi. Va nihoyat, Maslou taxminicha, ba'zi odamlar o'z hayot yo'li so'qmoqlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining shaxsiy ehtiyojlar ierarxiyasini tuzib olishlari mumkin. Masalan, odamlar sevilish va mansublik ehtiyojlariga nisbatan hurmatga ega bo'lish ehtiyojlariga ko'proq ustuvorlik beradi. Bu kabi odamlar uchun o'z artofidagi yaqin odamlar va o'z oilasiga nisbatan ko'proq nufuzga ega bo'lish, xizmat faoliyatida yuqoriga ko'tarilishga intilish muhimroq ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ierarxiyadagi ehtiyojlar qanchalik past darajada joylashgan bo'lsa, ular shunchalik kuchliroq va ustuvorroq bo'lishi kutiladi.

Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi konsepsiyasining muhim jihati — bu ehtiyojlar «hammasi birvarakayiga yoki hech narsa» prinsipi asosida

qondirilmaydi. Ehtiyojlar qisman birdaniga paydo bo'lib qolishi ham mumkin, bunda inson bir vaqtning o'zida ikkita va undan ko'proq ehtiyojlar darajasida motivlashuvi mumkin. Maslouning fikricha, odamlar o'rtacha olganda, o'z ehtiyojlarini taxminan quyidagi darajalarda qondirishlari mumkin: fiziologik — 85 %, xavfsizlik va himoyalalanish — 70 %, sevilish va mansublik — 50 %, o'zini o'zi hurmatlash — 40 %, o'zini o'zi muhimlashtirish — 10 %. Shuningdek, ehtiyojlar ierarxiya bo'ylab asta-sekinlik bilan vujudga kelib boradi.



6.1-rasm. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi piramidasi

Odamlar bir ehtiyojdan keyin ikkinchisini ketma-ketlik bilan qondirib bormaydi, balki ularni bir vaqtning o'zida qisman qondiradi yoki ularni qisman qondira olmaydi. Yana shuni qayd etish lozimki, odamning ehtiyojlar ierarxiyasida qanchalik yuqoriga ko'tarilishi unchalik ahamiyatli emas: agar past darajadagi ehtiyojlarni qondirish to'xtab qolsa, odam ana shu darajaga qaytishga majbur bo'ladi, bu darajadagi o'z ehtiyojini yetarlicha qondirmaguncha shu darajada turishga majbur bo'ladi²²⁰.

²²⁰ Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности: основные положения, исследования и применение. Перевод С.Меленевской и Д.Викторовой. Глава 10.-СПб.: Питер Пресс, 1997.-С.182-184.

6.2. Shaxsning o'zini o'zi anglashi va Men-konsepsiyaning shakllanishi

Shaxsning o'zini o'zi anglashi — bu insonning o'z ehtiyojlari va qobiliyati, qiziqishlari, xulqi motivlari, ichki kechinmalari va fikrlashiga nisbatan anglangan holdagi munosabatidir. Shaxsning o'zini o'zi anglashi asosida dastlabki insoniy turmush tarzlarini shakllantirish jarayonidagi aloqalarda paydo bo'ladigan o'zining xususiy hayot kechirish faoliyati bilan o'zining alohida farqlay olish qobiliyati yotadi. Inson boshqa odamlar bilan o'zaro aloqalar va munosabatlarga kirishganida o'zini atrof-muhitdan ajralgan holda his qiladi, o'zini o'z jismoniy va ruhiy holatlari, xatti-harakatlari va faoliyatlarining subyektivi sifatida his qiladi, o'zi uchun o'zi «Men» sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy «Men»ning subyektiv kechinmalari shunda ifodalanadiki, inson o'zining o'ziga o'tmishda, hozirda va kelajakda aynan ekanligini anglaydi.

Men-konsepsiyasini o'zini o'zi anglash jarayonlari natijasi sifatida hisoblash mumkin. Men-konsepsiyasi XX asrning o'rtasida insonparvarlik psixologiyasi oqimida paydo bo'ldi. Bu oqim vakillari noyob insoniy «Men»ni yaxlitlikda tadqiq etishga harakat qildi. Men-konsepsiya ostida insonning o'zi haqidagi tasavvurlarini o'sib borish tizimini anglashi yotishi ochib berildi. Ingliz psixologi *R. Berne* o'zining «Men-konsepsiyaning rivojlanishi va tarbiya» nomli kitobida Men-konsepsiyani quyidagicha talqin etadi: Men-konsepsiya «individning o'zi haqidagi baholariga bog'liq holdagi barcha tasavvurlari yig'indisi»dir. Insonda Men-konsepsiya sotsial o'zaro ta'sirlar jarayonida psixik rivojlanishning muqarrar va doimo noyob bo'ladigan natijasi sifatida vujudga keladi, u birmuncha barqaror, shu bilan bir vaqtda, u ichki o'zgarishlar va ruhiy o'zgarishlarga duchor bo'lib turadi. Men-konsepsiyaning dastlab tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'lishi turgan gap, lekin u keyinchalik har bir insonning hayotida mustaqil ravishda rol o'ynaydi. Har bir insonning atrof olami, boshqa odamlar to'g'risidagi tasavvurlari sotsiallasuv jarayonida shakllanadigan, lekin muayyan individual-biologik determinantlik sifatlariga ega bo'lgan Men-konsepsiya «ko'zgusi» orqali qabul qilinadi.

Inson o'z atrofidagi olam va odamlar bilan aloqalar qilish tizimida turli sifatlarda, turli rollarda ishtirok etadi, turlicha faoliyatlar subyektivi vazifasini bajaradi. U atrofidagi buyumlar dunyosi va odamlar bilan o'zaro aloqalarda o'zining «Men» siymosini namoyon qiladi. Inson o'zini o'zi tahlil etish, o'zining «Men»ini bir butun ravishda tashkil etib turgan holatini turli alohida aniq qiyofalarga bo'lish jarayoni o'zi bilan o'zi,

o'z shaxsi o'rtasidagi ichki fikrlashish, muhokama qilish sifatida ro'y beradi. O'zini o'zi tahlil etish natijasida har safar insonning «Men» siymosi «yangidan-yangi aloqalarga kirishadi va uning natijasi o'laroq yangi tushunchalarda qayd etiladigan yangidan-yangi sifatlarda namoyon bo'ladi».

Men-konsepsiya strukturasi tashkil etuvchi uchta omil mavjud:

I. *Kognitiv tashkil etuvchi*, yoki «Men» siymosi individni o'zi haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Amalda olimlar insonda faqat bitta emas, balki bir-birini almashtirib turuvchi ko'plab «Men» siymolar mavjudligini qayd etmoqda. Avvalo, «Men» — ya'ni, aniq amaliy (real), ya'ni individni o'zi haqidagi hozirgi va kundalik tasavvurlari alohida ajralib turadi. Undan keyin «Men» — ideal, ya'ni individni hozirgi aniq sharoitda qanday bo'lishiga doir tasavvuri namoyon bo'ladi. «Men» — ideal — shaxsni o'zini o'zi tarbiyalashning zaruriy mo'ljali sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zan «Men» — konsepsiyada «Men» — hayoliy (fantastik) tarzda ham paydo bo'lib turadi. Bu degani — subyektning o'z xohishini ro'yobga chiqarish orzusini paydo bo'lishi demakdir. «Men» — hayoliy bolalarda, ayniqsa, o'smirlarda ko'proq uchraydi. Ularda kelajak rejasini tuzishga ishtiyoq kuchli bo'lganligi uchun hayol va orzularga ko'proq moyil bo'ladi.

Lekin shaxs strukturasi hayoliy tasavvurlarning ustuvorlik qilishi doimo ham ijobiy hodisalar sirasiga kiravermaydi. Chunki, xohish bilan amalga oshmagan voqelik o'rtasidagi holat o'zini o'zi anglash jarayonini izdan chiqarishi va inson qalbini jarohatlab qo'yishi mumkin. «Men» — konsepsiyaga, shuningdek yana «Men» — ko'zguga ham kiradi. U insonning o'z atrofidagi odamlar qanday qabul qilishlari mumkin ekanligiga doir xususiy tasavvurlari hisoblanadi. Bu holat «Men» — siymoning tarkibiy qismi sifatida shaxsiylik ahamiyatini shakllantirish va o'zini o'zi baholash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

II. *Baholashni tashkil etuvchi*, yoki o'zini o'zi baholash insonni o'zi haqidagi tasavvurlarni affektiv²²¹ baholashni o'z ichiga oladi. O'zini o'zi baholash lug'atlarda «insonning o'zini o'zi butunlay, shuningdek o'z shaxsi, faoliyati, xulqi kabilarning alohida tomonlarini yaratadigan qadriyat va ahamiyat» sifatida ifodalanadi. O'zini o'zi baholashning asosini individning shaxsiy aql-idroki tizimi, u qabul qilgan qadriyatlar tizimi tashkil etadi.

O'zini o'zi baholash shaxsning xulqi, faoliyati, rivojlanishi, uning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir etgan holda shaxsni tartibga solib turish va himoyalash funksiyalarini bajaradi. O'zini o'zi

²²¹Affekt - [lot. affectus ruhiy tug'yon, iztirob, hayajon] - nisbatan qisqa muddatli, kuchli va jo'shqin tarzda ro'y beradigan hissiyotli qayg'u, hasrat: keskin harakatlar, ifodalanadigan qichqiriq, yig'lash bilan kechadigan g'azab, qahr, vahima, tushkunlik.

baholashning asosiy funksiyasi shundaki, u shaxs xulqi va faoliyatini muvofiqlashtirishning zaruriy ichki sharti sifatida namoyon bo'ladi. O'zini o'zi baholash asosidagi o'zini o'zi muvofiqlashtirishning (boshqarish) oliy shakli xususiy shaxsga nisbatan o'ziga xos ijodiy munosabatlardan — o'zini intilishlarda o'zgartirish, o'zini yaxshilash, bu intilishlarni amalga oshirish kabilardan iboratdir. O'zini o'zi baholashning himoyalash funksiyasi shaxs mustaqilligi va barqarorligini nisbatan ta'minlagan holda paydo bo'lgan tajribani yangilashlarga olib kelishi mumkin.

O'zini o'zi baholash insoniy ruhiyatning murakkab tuzulmasidir. U shaxsning o'zini shakllanishi jarayonidagi rivojlanishning turli darajalarida turadigan, turli bosqichlardan o'tadigan o'zini o'zini anglash jarayonlarini umumlashtirish ishlari asosida paydo bo'ladi. Shuning uchun o'zini o'zi baholash doimiy ravishda o'zgarib boradi, takomillashadi. O'zini o'zi baholashning shakllanish jarayoni tugamaydi, chunki shaxsning o'zi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Demak, uning o'ziga nisbatan tasavvurlari va munosabatlari ham o'zgarib boradi. Individning o'zini o'zi baholash manbalari uni atrofini o'rab olgan sotsiomadaniy muhit hisoblanadi. Jumladan, qandaydir individning shaxsida namoyon bo'ladigan o'zgarishlarga nisbatan sotsial aks-ta'sirlar, shuningdek o'zini o'zi kuzatish natijalarini ham o'zini o'zi baholash manbalari sifatida ko'rsatish mumkin.

R. Bernsning fikricha, o'zini o'zi baholashni anglash uchun uchta muhim jihatlar mavjud:

Birinchidan, uning shakllanishida aniq «Men» siyimosini «Men» - ideal bilan qiyoslash muhim rol o'ynaydi; insonni o'zi haqida aniq tasavvuri bilan uning ideal «Meni» o'rtasidagi uzilish qanchalik oz bo'lsa, shaxsning o'zini o'zi baholashi shunchalik yuqori darajada bo'ladi.

Ikkinchidan, o'zini o'zi baholashning shakllanishi uchun muhim omil — bu insonning o'zining fikri ojizi taxminicha, uni boshqalar tomonidan baholashlari hisoblanadi.

Uchinchidan, o'zini o'zi baholashning shakllanishiga shaxsning turli faoliyatlar yo'nalishlarida aniq qo'lga kiritgan yutuqlari jiddiy ta'sir qiladi: shaxsning u yoki bu faoliyatdagi yutuqlari qanchalik salmoqli bo'lsa, uning o'zini o'zi baholashi shunchalik yuqori darajada bo'ladi.

O'zini o'zi baholash o'lchovlari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Daraja (yuqori, o'rtacha va past);
2. Aniq va amaldagi yutuqlar bilan o'zaro nisbat (aynan bir xil va bir xil emas, yoki oshirilgan baho va past baho);
3. Qurilmaning xususiyatlari (ixtilofli va ixtilofsiz).

Past darajadagi o'zini o'zi baholash doimiy ravishda o'zining shaxsiy imkoniyatlarini, qobiliyatini va yutuqlarini yaxshi baholay olmaslikka berilish, tashvishli holatlar, o'zi haqida salbiy fikr bildirishdan qo'rquv, boshqa odamlar bilan aloqalarni kamaytirishga mayl o'yg'otuvchi nozik tabiatlilik natijasi o'laroq namoyon bo'ladi. Bu holatlar — o'zini o'zi fosh etish (ochish) aloqalarni chuqur va yaqin kechishini chegaralab qo'yadi.

Aynan bir xil o'zini o'zi baholashlar (ham o'zini o'zi, ham tashqaridan bildirilgan baholar) shaxsning o'ziga nisbatan haqiqiy qarashlarini, o'z qobiliyatining obyektiv bahosini, xususiyatlarini va sifatlarini ifodalaydi. Agar insonning o'zi haqidagi fikri obyektiv bo'lsa, uning o'zini o'zi baholashi aynan bir xillikka erishgan hisoblanadi. Bir xil bo'lmagan o'zini o'zi baholash tasavvuri haqiqiy holatdan yiroq bo'lgan shaxslar uchun xosdir. Bu kabi inson o'zini o'zi obyektiv ravishda baholay olmaydi, uning fikrlari uni qandayligi haqida tashqaridan boshqa odamlar bildiradigan fikrlarga to'g'ri kelmaydi. Bir xil bo'lmagan o'zini o'zi baholash oshirilgan yoki pasaytirilgan baho sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu kabi holatda shaxs o'zining imkoniyatlarini, faoliyati natijalarini, shaxsiy sifatlarini ortiqcha baholaydi. Bu oshirilgan o'zini o'zi baholash deyiladi. Bu kabi xususiyatga ega inson o'zining haqiqiy imkoniyatlarini e'tiborga olmagan holda manmanlik bilan katta ishlarni bajarishga kirishadi, ishi o'ngidan kelmagan taqdirda umidsizlikka tushadi, bunday holatlar uchun mas'ullikni boshqalar ustiga yuklashga intiladi. Agar inson o'zining haqiqiy holatiga yetarlicha baho bermasa, uning bahosi pasaytirilgan baho hisoblanadi. Bu kabi o'zini o'zi baholash shaxsiy yutuqlarga erishish, atrofdagilarni unga yaxshi munosabatlarda bo'lishiga nisbatan umidsizlikni keltirib chiqaradi, o'zining haqiqiy yutuqlari va atrofdagilarning ijobiy baholashlarini vaqtinchalik va tasodifiy deb biladi.

III. Men-konsepsiya strukturasi xulqiy jihatlarini tashkil etuvchi sifatida shaxsning o'ziga o'zi xulqiy aks ta'sir etish imkoniyatlari, yoki o'zi haqidagi bilimlari va o'ziga nisbatan munosabatlari qo'zg'aydigan aniq xatti-harakatlar namoyon bo'ladi.

Men-konsepsiyani bu kabi tarkibiy qismlarga bo'lish shartli bo'lib, aslida, uning barcha tarkibiy qismlari nisbiy o'zaro mustaqil va bir-birlariga o'zaro mustahkam bog'langan bo'lsada, Men-konsepsiya — bu yaxlit tuzilmadir.

1. Men-konsepsiyaning muhim funksiyasi shaxsning ichki uyg'unligi va uning xulqini nisbatan barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Agar individ tomonidan yangi orttirilgan tajriba uning o'zi haqidagi tasavvurlar

bilan o'zaro uyg'unlashsa, u shaxsga yengil tarzda singadi, Men-konsepsiya ichiga kiradi. Agar bu tajriba individning o'zi haqidagi tasavvurlarga mos kelmasa, oldindan mavjud bo'lgan Men-konsepsiya bilan ziddiyatga kirishadi, individni jarohatlovchi tajribani g'arazli talqin etish yoki uni inkor qilishga ko'maklashuvchi psixologik himoyalash mexanizmlarini hosil qiladi. Bu holat, hattoki, haqiqiy dalillar individni tahdid xavfi ostiga qo'ysada Men-konsepsiyani og'ir-vazmin holatda ushlab turishga imkon beradi. Men-konsepsiyani himoyalash, uni buzuvchi ta'sirlardan chegaralash, *Bernsning* fikricha, har qanday me'yordagi xulqning asosiy motivlari hisoblanadi.

«*Himoyalovchi mexanizmlar*» iborasi 1926-yilda *Z.Freyd* tomonidan kiritilgan. Hozirgi davrda psixologik himoya deganda, shaxsni inqirozga olib keladigan xatarli tangliklar ta'siridan saqlashga yordamlashadigan usullar tushuniladi. Himoyalovchi mexanizmlarning har xil turlari uchun asosiy va umumiy bo'lgan sifatleri *Freydning* fikricha, quyidagilardan iboratdir:

1) Beixtiyor, ongsiz ravishdagi holat, ya'ni inson muayyan hodisa yoki obyektga nisbatan uning na sabablari, na motivlari, na maqsadlari, na o'zini himoyalovchi xulqi dalillarini anglab etmaydi;

2) Haqiqiy borliqni doimo buzib ko'rsatadi, soxtalashtiradi yoki o'zgartirib talqin etadi. Buning natijasida ko'pincha himoyalovchi mexanizmlarga nisbatan moslashuvchanlikni buzuvchi omillar sifatida qaraladi.

Himoyalovchi mexanizmlardan biri siqib chiqarish hisoblanadi. Ko'pincha «motivlashgan unutish» tarzida ishlatiladigan siqib chiqarish azob beradigan fikrlar va xis-tuyg'ularni ongdan chiqarish (o'chirish) jarayonini anglatadi. Lekin, vahimali fikrlarni ongdan chiqarish izsiz amalga oshmaydi. *Z.Freydning* fikricha, siqib chiqarilgan fikrlar va istaklar ongsizlik holatida ham o'z faolligini yo'qotmaydi, ongda ularning yorib kirishiga barham berishi uchun doimiy ravishda ruhiy energiya sarflab turish talab etiladi.

Yana bir himoyalovchi mexanizm — inkor etish — inson ruhiga og'riq beruvchi kechinmalar, tuyg'ular, muayyan voqealarning mavjudligini ongsiz ravishda qaytarishda ifodalanadi. Masalan, inson o'zining tuzalmas kasalga chalinganligini biladi, lekin, shunga qaramay, u o'zining kasali to'g'risidagi gap-so'zlardan qochish uchun o'z kelajagi rejasi asosida oldingi ish jarayonini davom ettiraveradi. Inkor etish asosiy himoyalovchisi bo'lgan inson doimo «hammasi yaxshi, hammasi yaxshilikka» degan hayot tarzini ma'qul ko'radi.

Loyihaviy tasavvurlash (proeksiya) - bu ichki xatoliklar va tashqaridan bo'ladigan ta'sirlar natijasida ro'y beradi, degan qarashlar asosidagi jarayon

bo'lib, loyihaviy tasavvurlash vositasida individ xususiy nomaqbul fikrlari, ko'rsatmalari, xohishlarini tashqaridagilar ta'sirida ro'y bermoqda, deb ularni boshqalarga to'nkaydi. Ishining o'ngidan kelmaganligi sababli paydo bo'lgan tashvishli kechinmalar uchun aybdorlik boshqalarga to'nkaladi. Inson o'zining adovatga undovchi istaklarini o'zi anglamaydi, ularni boshqalardan ko'radi, shuning uchun ularni yomon ko'radi va ta'qib etishga intiladi.

2. Men-konsepsiyaning ikkinchi funksiyasi individning o'z tajribasini talqin qilish tavsifini belgilab beradi. Men-konsepsiya individning har qanday vaziyatni idrok etish tavsifini aniqlab beradigan ichki suzg'ich sifatida harakat qiladi. Bu suzg'ich orasidan o'tgan vaziyatlar anglab etiladi, ahamiyat kasb etadi, inson o'zi to'g'risida tegishli tasavvurlarga ega bo'ladi.

3. Men-konsepsiyaning uchinchi funksiyasi individning umidlarini aniqlab beradi, ya'ni, nimalar sodir bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantiradi. O'zining shaxsiy ahamiyatiga ishonch bilan yashaydigan insonlar boshqalar ham ularga nisbatan o'zlari kabi munosabatda bo'lishini kutadi; o'z shaxsiy qadriyatlariga shubha bilan qaragan odamlar o'zlarini hech kimga yoqmaydi, deb o'ylaydi, natijada ular turli sotsial aloqalardan qochsa boshlaydi.

6.3. Shaxs turlarining tasniflanishi

Shaxsning sotsiologik obyekt sifatidagi muhim jihati — uning turlarini tasniflash hisoblanadi. Shaxsning sotsial turi — bu individning qanday sotsial guruhga mansubligini ifodalaydigan, shaxs xususiyatlari muayyan yig'indisi, insonning turli faoliyat turlarini amalga oshirishidir, yoki, shaxsning sotsial turi — ijtimoiy tizim insonning qadriyatli mo'ljal yoki mayliga, ular vositasida esa uning xulqiga qanday ta'sir qilishining ifodasidir. «Shaxsning sotsial turi» tushunchasi qandaydir sotsial birlikka mansub bo'lgan shaxslarning takrorlanib turadigan sotsial sifatleri yig'indisi tasvirlarini qayd etadi. Chunonchi, shaxs ko'p darajali murakkab hodisa bo'lganligi uchun uning turli juz'iy o'zgarishlar asosida yashashi taqozo etiladi. Bu muammolarni o'rganishda sotsiologiya fanida muayyan tajribalar to'plandi.

Dastlab shaxslar tizimini tasniflashlashtirish 1914-yilda *E. Shpranger* tomonidan amalga oshirildi. U shaxslarni motivlashish yo'naliishi asosida ularning oltita «ideal turi»ni tasniflab berdi:

1) nazariy tur — yangi bilimlar olishga moyil shaxslar;

2) iqtisodiy tur — xulqining asosi foydali natijalar olishga qaratilgan shaxslar;

3) sotsial — birlikka intiluvchan, sotsial muhitga beriluvchan;

4) estetik — taassurot, kechinma va o'z fikrlarini bildirishga moyil bo'lgan shaxslar;

5) siyosiy — hukmronlikka va sotsial rollarni taqsimlashga intiluvchan, shuningdek bo'ysunishga moyil bo'lgan shaxslar;

6) diniy (taqvodor)— hayotning oliy mazmunini izlashga, Yaratgan bilan munosabatda bo'lishga moyil bo'lgan shaxslar..

Shu bilan birga, E.Shpranger fikricha, bu turlarning hammasi ham faqat o'zi mansub bo'lgan turgagina xos bo'lmashligi mumkin. Shuningdek, bir turning o'zi ko'plab yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Sotsiologiyada shaxs turlari to'g'risida yana boshqa tasniflashlar ham paydo bo'ldi. Unga binoan shaxslar bazisli (tayanchli, asosli), modal va ideal turlarga bo'linadi. *Bazisli shaxs* — bu muayyan sotsial shart-sharoitlar uchun xos bo'lgan shaxslardir. Shaxsning *modal turi* — bu jamiyatda ko'p uchraydigan shaxslardir. *Ideal tur* — muayyan sotsial shart-sharoitlarga ko'proq javob bera oladigan shaxsdir. Shu tariqa, bu holatda tasniflashning asosi sifatida shaxs bilan mavjud sotsial shart-sharoitlarning o'zaro munosabatlari e'tiborga olindi.

Bu turlardagi shaxslar strukturalari o'rtasidagi farqlanishlar jiddiyligi bilan ajralib turadi. Bunda ideal shaxs hech qachon o'zining tugallangan ravishda amalga oshishiga erisha olmaydi, lekin u har qanday paytda bazisli shaxs turi sifatida o'zini namoyon etishi mumkin. Lekin, bu ikkala tur ham asosida boshqa mezonlar yotgan yana ko'plab tur osti xilma-xilliklariga bo'linishi mumkin.

Shaxslarni turlarga bo'linish tasnifi *E.Fromm* tomonidan ham ishlab chiqilgan. Bu tasniflash asosi sifatida shaxsning jamiyat bilan munosabatlarga moyilligi olindi. Jumladan, kam mahsul shaxs asosida kam mahsullikka moyillik, ya'ni o'z fikrining kamligi xususiyati yotadi. Sermahsul shaxs asosida sermahsullikka moyillik (intilish) — o'z atrof muhitini o'zgartirish va mustaqil ravishda fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lish yotadi. Lekin, *E.Frommning* fikricha, faqat bir turdagi moyilliklarga (mo'ljallarga) ega bo'lgan shaxsning o'zi mavjud emas. Odatda, har bir shaxsda sermahsul, shu bilan birga, kam mahsulli moyilliklar birgalikda uchrashi mumkin.

AQSh sotsiologi *D. Rismen* barcha turdagi shaxslarni ichki, tashqi va «o'zgacha moyilliklar»dan kelib chiqib bir-birlaridan ajratgan holda tadqiq etdi. Ichki moyillikka ega bo'lgan shaxs atrof-muhit va o'z hayotiy

manfaatlariga erishishga qaratilgan ehtiyojlari o'zaro muvozanatini saqlay olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Tashqi moyillikka berilgan shaxs bu kabi imkoniyatlarga ega bo'lmaydi. «O'zgacha moyilliklarga» ega shaxslar o'zini o'rab turgan jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sirida beriladi va ularga aks-sado bildira oladi.

Shaxsning o'zaro ta'sirlariga bog'liq holda shaxsning quyidagi sotsial turlari aniqlangan: ijtimoiy-individual, individual-ijtimoiy, kazarma, xudbin va konformistik. Ijtimoiy-individual tur — bu o'zining xatti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlar bilan mutanosiblashtira oluvchi inson hisoblanadi. Individual-ijtimoiy tur — bu ijtimoiy me'yorlarga o'z imkoniyatlari va manfaatlaridan kelib chiqib moslashadigan insondir. Kazarma turi — bu faqat qattiq tartibotlar o'rnatilgan sotsial tizimdagina yashay odadigan shaxsga xosdir. Bu turga sotsializm va fashizm davridagi sotsial tizimlarda yashagan shaxslar guruhleri kiradi. Xudbin turga o'z shaxsiy manfaatlarini barcha narsalardan ustun qo'yadigan insonlar guruhleri kiradi. Ular o'z manfaatlariga erishish uchun huquqiy va ma'naviy me'yorlarni buzishga tayyor turadi. Konformistik tur — bu kelishuvchi yoki murosasoz inson bo'lib, har qanday sharoitlarga moslasha oladi, doimo kuchli tomonga o'zini moyilligini izhor etadi, o'zining kelajak mo'ljallarini yengil tarzda o'zgartirib turadi²²².

Hozirgi davr sotsiologiya fanida shaxsning qadriyatli mo'ljali yoki mayliga bog'liq holda shaxslarning quyidagi turlari bir-birlaridan ajratib ko'rsatish rusumga kirdi:

1. *An'anaviy shaxslar*. Ular asosan burch, tartibotga amal qilish, intizom, qonunga bo'ysunuvchanlik kabi qadriyatlarga moyil bo'ladi. Ularda kreativlik²²³, o'zini o'zi namoyon qilish va o'z taqdirini o'zgartirishga harakat qilish, mustaqillik kabi fazilatlar juda ham past darajada namoyon bo'ladi.

2. *Idealist shaxslar*. Aksincha, ularning har qanday shart-sharoitlarda ham an'anaviy me'yorlarga, mustaqillik va obro'ni mensimaslik, o'zini o'zi rivojlantirish ko'rsatmalariga nisbatan tanqidiy munosabatlari kuchli ifodalangan bo'ladi.

3. *Frustratsiyalashgan (ruhni ezadigan tanglikdagi) shaxslar*. Ularda o'zini o'zi baholashning past darajada bo'lishi, ruhan tushkunlik, ezilganlik hislari, o'zini hayot oqimidan uzilib qolishini his qilish kabi kayfiyatlar kuzatiladi.

²²²Давыдов С.А. Конспект лекций по социологии.-М.:Издательство:Эксмо, 2008.-С.70-72.

²²³Креатив - [ingl. creative bunyodkor, ijodkor, yangilik yaratuvchi].

4. *Realist shaxs*. Ular o'zida o'z taqdirini o'zi o'zgartirishga intilish bilan o'z burch va mas'uliyatini rivojlanganligini, o'zini o'zi va o'z intizomini qattiq nazorat qilishini uyg'un ravishda namoyon qilishni ifodalaydigan shaxslardir.

5. *Gedonistik moddiyunchi shaxslar*. Ularda birinchi navbatda «hozirning o'zida va har qanday sharoitda» huzur-halovatga erishish, «hayotdan lazzatlanish» ortidan quvish kabilar o'z ehtiyojlari istaklarini qondirish shaklida namoyon bo'ladi²²⁴.

Shaxsning yana bir turlarga bo'lish tasnifi ingliz psixofiziologi G.Ayzenk tomonidan amalga oshirilgan. U neyrotizm (hissiyot barqarorligi) ko'rsatkichini ishlab chiqdi va neyrotizmi bir tomondan ekstraversiya — introversiya, ikkinchi tomondan, mijoz (temperament) turlari bilan bog'ladi.

U *eksrtavert* atamasini sotsial jihatdan ochiq, sotsial aloqalarni oshirishga moyil, tashabbuskor, turli vaziyatlarga moslasha oladigan, tashqi ta'sirlarga beriluvchan, tashqi muhit ta'siridan qo'zg'aluvchan odamga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha sifatida ishlatdi. *Introvert* atamasini yopiq, kam aloqaga qilishga moyil, oziga shukur qiladigan, sotsial jihatdan sust (passiv), o'zini o'zi ichdan g'amga g'arq qiladigan, ishga o'z diqqat-e'tiborini bir joyga to'plagan holda yondashishga moyil, induvidualist odamga nisbatan ishlatiladigan tushuncha sifatida qo'lladi.

Hissiy barqarorlik atamasini xavotirlikka berilmaydigan, o'z kayfiyatini chog' tutishga qodir, yetakchilikka intiluvchan, hamdardlikka berilmaydigan, begona odamning muammolariga befarq bo'lgan odamning tavsifi sifatida qo'lladi.

Hissiy beqarorlik atamasini xavotirli, ta'sirchan, burchli, o'z yaqinlari taqdiriga nisbatan doimo tashvishlanib turadigan, hamdardlikka moyil odamga nisbatan qo'lladi. G.Ayzenk ko'rsatkichlar ma'lumotlari bo'yicha olingan natijalarni o'lchab, ularni mijozlar turlariga bog'laydi.

1. *Xolerik (beqaror ekstravert)* — faol, gap ko'tarmaydigan, tinib-tinchimaydigan, o'z hukmini o'tkazishga moyil, ta'sirchan, nekbin (optimist), o'zgaruvchan, kayfiyatga beriluvchan odam uchun taalluqli belgidir. Xolerik odam — qiziqqon, tez, bor kuchi bilan ishga beriladigan odam. U o'zgarishlarning yaxshi tashabbuskori va loyihalari rahbari bo'lishi mumkin. Lekin serjahlligi va tezligi, birdan yonib-tutab ketadigan odam bo'lgani uchun o'z atrofidaqilar bilan aloqalarda qiyinchiliklarga duchor

²²⁴Klages H. Wertorientierungen im Wandel. Ruckblick, Gegenwartsanalyse, Prognose.-Fr/M., 1984.-P.38.

bo'lib turadi. U ko'pincha boshqalarni xafa qiladi, o'zi ham tez-tez xafa (lekin, tezda sovuydi) bo'lib turadi. Xolerik yetakchilikka intiladi. Ko'pincha o'z sheriklariga o'z fikri va irodasini o'tkazishga, ularning tashabbuslarini bo'g'ishga urinadi. Xolerik uchun bir xil va serhafsala ishlar zerikarli tuyuladi.

2. *Sangvinik (barqaror ekstravert)* — kirishimli, dilkash, ochiq, hammabop, quvnoq, nekbin, tashabbuskor, ixtiyori o'z qo'lida bo'lgan odamdir. Sangvinik kuchli nerv tizimiga ega bo'lgan odam bo'lib, u boshqa odamlar bilan tezlikda umumiy til topib ketadi, tashqi ta'sirlarga uddaburonlik bilan javob bera oladi. Ko'pincha u qandaydir g'oya uchun yonib ketadi, keyinroq esa unga nisbatan qiziqishi so'nadi, parishonlikka moyil bo'ladi. U yaxshi tashkilotchi, do'stona munosabatga moyil, odamlarni o'ziga tortadi (u bergan va'dalarini bajarmasa ham uni ko'pchilik tezda kechirib yuboradi); u ulfatlarning jonu dili. U bir joyda uzoq o'tira olmaydi, o'zgarishlarga va o'sishga moyillik bildiradi. Sangvinik bir maromdan boshqa maromlarga o'tib turadigan ishlarni yoqtiradi. U eskirgan yoki bir xil faoliyatda o'zini yomon his qiladi.

3. *Flegmatik (barqaror introvert)* — xotirjam, ishonchli, vazmin, passiv, tinchlikka moyil, mulohazali, o'zgalarga xayrixoh, ehtiyotkor, kuchli nerv tizimiga ega bo'lgan vazmin inson. U sust, qandaydir ishni bajarishga kirishishdan oldin o'z kuchini go'yoki tejaydigandek uzoq o'ylanadi, so'ngra ishni tezda bajarib tashlaydi. Flegmatik odamni shoshtirish va qistovga olishning foydasi yo'q, u baribir o'zining (sekin, shoshilmagan tarzda) maromidan chiqmagan holda ishlaydi. Flegmatik odam sirdan qaraganda vazmin ko'rinadi, kayfiyat va boshqalarga bog'lanib qolishda o'zgarimaslikka moyilligi bilan ajralib turadi. U tashabbus ko'rsatishni yoqtirmaydi, tinch yashashni va birov tegmasligini istaydi. Flegmatik odamlar bilan chiqishib ketish qiyin masala bo'lsada, ular ba'zi odamlarga qattiq bog'lanib qoladi va sadoqat bilan do'stlashadi. U individuallashtirgan, bir xildagi, shoshilishga majburlanmaydigan ishlarni o'z vaqtida bajaradi. O'zgarishlarga boy, bir xil maromda bo'lmagan shoshilinch ishlarni yoqtirmaydi.

4. *Melanxolik (beqaror introvert)* — sokin, bosiq, tashvishli, kamgap, hazin, mulohazaga moyil, tezda xafa bo'ladigan ko'ngilchan odam. Melanxolik — bu nerv tizimi kuchsiz, hattoki arzimagan ko'ngilsilikka nisbatan ham keskin ta'sirlanadigan insondir. Unga kuchli hayajonlanish, tashvishlanish, o'z kuchiga ishonmaslik xos. U oson toliqadi, ruhiy zarbalar va nizolarga toqat qila olmaydi. U ancha ta'bi nozik bo'lishiga qaramay ranjiganini bildirmaslikka harakat qiladi (qandaydir paytda u birdaniga

portlab, o'z atrofidagilarni ko'rquvga solishi mumkin). Tinch vaziyatlarda melanxolik vijdonli, mas'ul xodim, mehnatkash odam. U boshqa odam uchun qayg'urishi va uning his-tuyg'ularini tushunishi mumkin. Melanxolik odam davraning «hasrati»ni o'ziga olib, boshqalarning hissiyotlariga berilib yig'lashi mumkin, shuningdek, vaziyatlarga qarab tezda ovunishi va boshqalarga chuqur achinish holatini davom ettirishi mumkin. Umuman olganda, melanxoliklarning his-tuyg'ularini sirdan bilib bo'lmagligiga (ular barcha narsani ichida saqlaydi) qaramay ularni teran va barqaror odamlar deb baholash mumkin. Melanxolik qattiq hayajonga olib kelmaydigan va faol munosabatlar bilan bog'lanmagan ishlarni afzal ko'radi²²⁵.

Shaxs strukturasi. Sotsiologiya fanida shaxs strukturasi o'rganish jarayonida uning ijtimoiy jihatlari ochib berildi. Taniqli AQSh olimi *J. Midning* fikricha, shakllangan shaxsning ikkita tarkibiy qismi (komponenti) mavjud: «Men — o'zim» va «Men — menda». «Men — o'zim» — bu o'zini o'zi anglash obyekti, o'zini o'zi tushunish. «Men — menda» — butun bir jamiyat va boshqalarning baholashlariga aks ta'sir qilish sifatidagi refleksiya (tashqi ta'sirlar oqibatidan kelib chiqib o'z ruhiy holati haqida fikrlash).

Taniqli psixolog olim *Zigmund Freyding* tasavvuricha, inson doimiy ravishda jamiyat bilan o'zaro ixtilofda yashaydi, uning biologik xohishlari sotsial me'yorlar bilan ziddiyatda bo'ladi. Tabiiy instinktlar (tug'ma sezgilar) va sotsial nazorat bilan doimiy ravishdagi kurashlarda uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lgan shaxs strukturasi shakllanadi: Id («U») — ichki, asosan jinsiy energiya manbai — u lazzat olishning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Shaxs undan holi bo'lgan paytda undagi ichki tangliklar bo'shashadi va qoniqishlarga erishadi. Bu shaxsning ong osti (ongsiz, g'ayriixtiyoriy) komponenti hisoblanadi. Ego («Men») — bu insonni individuallashtirishga nisbatan xohishini kuchaytiruvchi, g'ayriixtiyoriy mayllarni ongli ravishdagi nazorat qiluvchi kuch hisoblanadi. U shaxsning o'zini o'zi anglashini rivojlanib borishiga monand ravishda o'sib boradi. Superego («yuksak «Men») — bu baholovchi komponent hisoblanadi. Uning shakllanishi ota-onâ va atrofidagilarning baholashlari o'rnini almashtiradi. Shaxsning strukturasi kirib boradigan superego rivojlana borib ijtimoiy fikrlar o'rnini ola boshlaydi. Aslida bu sotsial nazorat ta'sirida shaxs strukturasi paydo bo'lgan psixik komponentdir²²⁶.

²²⁵Шкала нейротизма Г.Айзенка//Типологии личности//http://studme.org/12281/12822064/menedzhment/tipologii_lichnosti.

²²⁶Исаев Б.А.Социология в схемах и комментариях:Учебное пособие.-СПб.: Питер,2008.-С.51-55.

Agar Freydning nazariyasi beixtiyoriylik holatida namoyon bo'ladigan psixik jarayonlarning bir butunligi sifatidagi shaxs — U va ongli ravishdagi Men o'zaro ziddiyatlarini mutlaqlashtira borib shaxsning ichki o'zgarishlari jo'shqinligiga bo'lgan e'tiborni faqat bir tomonlama qayd etgan bo'lsa, AQSh psixologi U. Jems aksincha, individlar o'zaro ta'sirlarining hal qiluvchilik rolini ochib beradi. Jems Men, yoki «empirik Ego»ni «inson o'zimizni deb ayta oladigan umumiy yakun» sifatida talqin etadi. U «empirik Men»ni uchta tarkibiy qismlarga bo'ladi: 1) moddiy Men o'z ichiga tana va mulkni oladi; 2) sotsial Men — «muayyan insonni uning atrofdagilar tomonidan nisbatan e'tirof etishi»dir; bunda har bir inson «o'z tevaragida o'ziga nisbatan fikran befarq bo'lmagan va tashvish tug'diradigan alohida guruhlar» qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik turli tuman «sotsial Men»liklarga ega bo'ladi; 3) Ma'naviy Men psixik layoqatlar va ishtiyoqlar jamlanmasini anglatadi. Ana shu unsurlar asosida insonning o'zini o'zi aynanlashtirish va o'z jonini saqlashga intilishiga qaratilgan his-tuyg'uli hayoti, o'zining o'ziga nisbatan munosabati (kayfiyati) va xatti-harakatlari paydo bo'ladi. Jemsning «sotsial Men» tushunchasi AQSh olimi Ch.Kuli tomonidan rivojlantirildi²²⁷.

Ch. Kuli fikricha, shaxs sotsial o'zaro ta'sirlar — interaksional mahsulidir (ko'zgu «Men» konsepsiyasi). Insonning o'zi haqidagi tasavvurlari (bu Ch.Kulining tushunishicha shaxsning strukturasi hisoblanadi) boshqa odamlar bilan o'zaro aloqalarda shakllanadi. Inson boshqa odamlar uning to'g'risida nimalarni o'ylayotganligi, ya'ni interaksionalarni tasavvur etish vositasida o'zini o'zi anglydi. Yoki, inson o'zi haqidagi boshqalarning tasavvurlari asosida, xuddi ko'zguda aks etganidek tasvirlanadi. Bunda u o'zining uchta unsurdan iborat ko'zgu «Men»ini yaratadi:

- meni boshqalar qanday payqayotganligi to'g'risidagi tasavvurlar;
- meni boshqalar qanday baholashlariga doir tasavvurlar;
- men haqidagi tasavvurlar va baholarga javob sifatidagi «Men»ni his etish.

6.4. Shaxs maqomi, roli va uning sotsiallashuvi

Sotsial maqomlar va rollar. Hozirgi davrda sotsiologiya fanida shaxs nazariyasining asosiy qismini maqomli-rol konsepsiyasi tashkil etadi. Mazkur konsepsiya doirasida shaxsga nisbatan sotsiumda muayyan joyni egallagan, unga tegishli ravishda qator funksiyalarni bajaradigan va faoliyat

²²⁷Qarang: Кон И.С. Социология личности. - М.: Политиздат, 1967. - С.52-53.

yurituvchi subyekt sifatida qaraladi. Maqomli-rol konsepsiyasi AQSh sotsiologlari *J. Mid* va *R. Minton* tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya *T. Parsons* asarlari tomonidan ancha to'ldirildi. Shaxsning rol nazariyasi uning sotsial xulqini ikkita asosiy tushunchalar bilan tavsiflaydi: «sotsial maqom» va «sotsial rol».

Bu konsepsiyaga binoan har bir inson jamiyatda muayyan bir joyni egallaydi. Mazkur joy muayyan huquqlar va burchlar mavjud bo'lishini taqozo etadigan ijtimoiy vaziyatlar bilan belgilanadi. Xuddi mana shu vaziyatlar insonning *sotsial maqomi* hisoblanadi. Shu tariqa, har bir inson bir vaqtning o'zida bir necha sotsial maqomlarga ega bo'ladi. Lekin, shu bilan birga, ana shu maqomlardan biri doimo uning asosiy yoki tayanch maqomi hisoblanadi. Odatda, tayanch maqom insonning mansabini ifodalaydi.

Sotsial maqom — shaxs va sotsial guruhlarning o'z ichiga kasb, malaka va mansabi bajaradigan ishining tavgifi, moddiy ahvoli, siyosiy mansubligi, ishdagi aloqalari, yoshi, oilaviy holati kabilarni o'ziga qamrab olgan ijtimoiy ahvolini jamuljam holda ifoda etuvchi ko'rsatkichdir. Sotsiologiya fanida sotsial maqomlarni buyruq-farmoyishli va orttirilgan (erishgan) kabilarga bo'lib tasniflanadi. Buyruq-farmoyishli maqom — insonning shaxsiy xizmati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga sotsial muhit tomonidan yuklangan jamiyatdagi vaziyatidan iboratdir. Ko'pincha buyruq-farmoyishli maqom insonning tug'ma sifatlarini (irqi, jinsi, millati, yoshi kabilarni) ifodalaydi.

Orttirilgan maqom — insonning o'zi tomonidan erishgan jamiyatdagi holatidir. Lekin, inson aralash maqomlarga (har ikki tur maqomni o'zida ifodalagan holda) ega bo'lishi mumkin. Bunga misol tariqasida nikohda turish holatini keltirish mumkin. Maqomlarning ko'rsatilgan turlaridan tashqari yana tabiiy va professional mansab maqomlari mavjud. Shaxsning tabiiy maqomi — insonning muhim va nisbatan barqaror tavsifi belgilanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini anglatadi. Professional mansab maqomi insonning jamiyatdagi sotsial, iqtisodiy va ishlab chiqarish bilan bog'liq ahvolini qayd etadigan ko'rsatkichdir. Shu tariqa, sotsial maqom individning muayyan sotsial tizimda egallaydigan aniq va ravshan o'rnini anglatadi.

«Sotsial maqom» va «sotsial rol» tushunchalari bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. *Sotsial rol* — bu sotsial tizimda muayyan maqomni egallagan odam bajaradigan xatti-harakatlar yig'indisidir. Bunda har bir maqom bir emas, balki bir necha rollarni bajarishi mumkin. Bir maqom

ko'rsatmasini bajarishdagi rollar yig'indisi *rollar to'plami* deyiladi²²⁸. Ko'rinib turibdiki, odamning holati jamiyatda qancha yuqori, ya'ni uning sotsial maqomi qanchalik baland bo'lsa, u shunchalik ko'p rollarni bajaradi. Sotsial rollarni birinchi marta tizimlashtirgan olim *T. Parsons* hisoblanadi. T. Parsons u yoki bu rolni tasniflashni amalga oshirish uchun beshta asosni ajratib ko'rsatadi:

1) hissiyotlilik, ya'ni ba'zi rollar ko'proq hissiyotli bo'lishni taqozo etadi, boshqalari esa, aksincha, — hissiyotni tiyib turishni talab etadi;

2) olish usullari — ular maqomning turiga bog'liq holda ular ko'rsatmalari asosida, yoki shaxs tomonidan mustaqil ravishda (o'zining bajaradigan rollarni) olishga erishishi asosida qo'llanilishi mumkin;

3) miqyos (ko'lam) — ba'zi rollarning vakolati aniq o'rnatilgan, boshqalariniki esa aniqlanmagan bo'lishi mumkin;

4) tartibga solingan (reglamentlashtirilgan) — ba'zi rollar qat'iy tartibga solingan bo'lishi mumkin. Masalan, davlat xizmatchisining roli qat'iy tartibga solingan, erkaklik roli esa bu kabi tartibga solinmagan;

5) motivatsiya — rollar ham shaxsiy foyda olish uchun yoki ijtimoiy farovonlik uchun ham bajarilishi mumkin²²⁹.

Sog'lom strukturada sotsial rollardagi to'rtta unurni bir-biridan ajratib ko'rsatish mumkin:

1) muayyan rolga tegishli xulq turining tavsifi (talablari);

2) muayyan xulq bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalar (talablar);

3) ko'rsatma asosidagi rolni bajarish bahosi;

4) sanksiyalar — sotsial tizim talablari doirasidagi u yoki bu xatti-harakatning sotsial oqibatlari.

Sotsial sanksiyalar o'z xarakteridan kelib chiqib bevosita sotsial guruh tomonidan uning xulqi orqali (nafatlanish) amalga oshiriladigan ma'naviy, yoki huquqiy, siyosiy, ekologik kabilarga bo'linadi. Shuni qayd etish lozimki, har qanday rol ham xulqning sof modeli bo'lavermaydi. Kutiladigan rol va rol xulqini o'zaro bog'lab turadigan asosiy bo'g'in — bu individning xarakteridir. Boshqacha aytganda, muayyan odamning xulqi doimo oldindan belgilangan qolipga tushavermaydi.

Shaxsning sotsiallashuvi. Sotsiologiya faniga «sotsiallashuv» tushunchasini AQSh sotsiologi *Franklin Giddings* (1855-1931) olib kirdi. U sotsiallashuvni inson sotsial tabiatini rivojlanish jarayoni, deb bildi.

²²⁸ Давыдов С.А. Конспект лекций по социологии. — М.: Издательство: ЭКСМО, 2008. — С. 73-74.

²²⁹ Радугин А.А., Радугин К.А. Социология: курс лекций. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Центр, 1999. — С. 75

Yuqorida shaxsning o'zida biosotsiallik hodisasini ifodalashini ko'rib o'tgan edik. Agar insonning biologik xususiyatlari merosiylik vositasida avloddan-avlodga o'tib borsa, uning sotsiologik sifatleri sotsiialashuv jarayonida orttiriladi. *Sotsiialashuvni* individning muayyan jamiyatda samarali yashashi uchun zarur bo'lgan xulq, sotsial me'yorlar va qadriyatleri o'zlashtirish jarayoni sifatida ta'riflash mumkin. Shu tariqa, sotsiialashuv jarayonida inson o'zining sotsial rolini bajarish uchun zarur bo'lgan sifatleri egallaydi.

Sotsiialashuv jarayoni ikki tomonlama tarzda ro'y beradi: bir tomondan, jamiyat tomonidan individga sotsiialashuv tajribalari singdirib boriladi, boshqa tomondan, bu jarayonda individ ijtimoiy tajribalari o'zi o'zlashtirib boradi. Sotsiologiya fanida sotsiialashuvning ikkita turini bir-biridan ajratish qabul qilingan:

1) *birlamchi* — go'dakning me'yorlar va qadriyatleri o'zlashtirib borishi;

2) *ikkilamchi* — katta yoshli odamlarning yangi me'yorlar va qadriyatleri o'zlashtirib borishi.

Taniqli olim *N.Smelzerning* fikricha, sotsiialashuv jarayonini kechishi uchun uchta voqelikning ro'y berishi talab etiladi: kutish, xulqning o'zgarishi va bu kutishga muvofiqlashishga intilish. Uning fikricha, shaxsning shakllanishi uchta turli bosqichlarda amalga oshadi: 1) bolalarning kattalar xulqiga taqlidi va nusxa ko'chirishi bosqichi; 2) o'yin bosqichi, qaysiki bunda bolalar xulqini rolni bajarish, deb tushunadi; 3) guruhiy o'yin bosqichi, qaysiki, bunda bolalar butun bir guruh kutayotgan rollarni bajarish lozimligini anglaydi²³⁰.

Sotsiialashuv o'zida inson shaxsini rag'batlantirish yoki cheklab turish, shakllantirish, yo'naltirish institutleri va agentleri yig'indisini ifodalaydi.

Sotsiialashuv agentleri — bu madaniy me'yorlar va sotsial qadriyatleri boshqa odamlarga o'rgatish va singdirish uchun mas'ul bo'lgan muayyan odamlardir. *Sotsiialashuv institutleri* — sotsiialashuv jarayoniga ta'sir etuvchi va uni yo'naltiruvchi muassasalardir. Sotsiialashuvning turiga bog'liq holda sotsiialashuv agentleri va institutleri birlamchi va ikkilamchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birlamchi sotsiialashuv agentleri — ota-onalar, aka-uka, singillar, katta ona, bobo va boshqa qarindosh-urug'lar, do'stlar, o'qituvchilar, yoshlar guruhlari yetakchilaridan iboratdir. «Birlamchi» atamasi insonning bevosita va yaqin atrofida gilarining hammasiga nisbatan qo'llaniladi.

Ikkilamchi sotsiialashuv agentleri — maktab, institut, kollej, litsey, korxonalar, armiya, militsiya, masjid vakillari va OAV xodimlaridan iboratdir.

²³⁰O'sha joyda.-B.76-77.

«Ikkilamchi» atamasi insonga kamroq ta'sir qiladigan, ta'sir etishning ikkinchi darajasiga mansub bo'lganlar sifatida tavsiflanadigan agentlarga nisbatan qo'llaniladi.

Sotsiallasuvning *birlamchi institutlari* — bu oila, maktab, tengdoshlar guruhi kabilardir. Ikkilamchi institutlar — bu davlat, uning organlari, institutlar, masjid, OAV kabilardan iboratdir.

Sotsiallasuv jarayoni bir necha bosqich va davrlardan iborat:

1. *Adaptatsiya* (moslashuv, ko'nikuv) davri — tug'ilishdan o'smirlikkacha bo'lgan davr. Bu davrda sotsial tajriba notanqidiy ravishda o'zlashtiriladi, bunda sotsiallasuvning asosiy mexanizmi taqlid qilishdan iborat bo'ladi.

2. Boshqalar ichida o'zini ajratib turish istagining paydo bo'lishi — *aynanlashuv* davri.

3. Tezda o'tib ketishi, yoki oqibati yaxshi bo'lishi, yoki oqibati yaxshi bo'lmasligi mumkin bo'lgan *integratsiyalashuv* davri.

4. *Mehnat davri*. Bu davrda sotsial tajribalarni takroran ishlab chiqarish, atrof-muhitga ta'sir qilish ro'y beradi.

5. *Mehnatdan keyingi davr (keksalik)*. Bu davr sotsial tajribalarni yangi avlodga berish bilan tavsiflanadi.

Sotsiallasuvning har bir davrida insonga o'zaro nisbati turli davrda har xil bo'lgan u yoki bu omillar ta'sir etib turadi. Umuman, sotsiallasuvga ta'sir qiladigan beshta omil quyidagilardan iborat:

- 1) biologik merosiylik;
- 2) jismoniy atrof-muhit;
- 3) madaniyat;
- 4) guruhiy tajriba;
- 5) individual tajriba.

Har bir odamdagi biologik merosiylik keyinchalik turli usul va yo'llar bilan shaxsiy tavsiflarga aylanadigan «xom ashyo materiallari» bilan ta'minlaydi. Biologik omil tufayli individuallikning ulkan turli-tumanligi ro'y beradi. Jismoniy atrof-muhit — iqlim, tabiiy resurslar va boshqa tabiiy hodisalar shaxsning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Har bir jamiyatning madaniyati sotsiallasuv jarayoniga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir jamiyat o'zining madaniyatiga mansub bo'lgan bir yoki bir necha xil shaxslar turini rivojlantiradi. Taniqli olim *Dyuboy*s shaxsni muayyan jamiyat uchun xos bo'lgan fazilatlar va sifatlarni o'zlashtiruvchi modallik²³¹ sifatida ta'riflaydi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, modal shaxs deganda umuman jamiyat madaniyatiga mansub bo'lgan aksariyat xususiyatlarni egallagan, ko'plab uchrab turadigan shaxs turlari tushuniladi.

Guruhiy va shaxsiy tajribalar ham sotsiallasuv jarayonida ishtirok etadi. *Charlz Kulining* fikricha, har bir odam o'zi aloqalarga kirishgan

²³¹Modallik - [fr. modalite < lot. modus usul, yo'sin, mayl, moyillik].

boshqa odamlarning ta'siriga aks ta'sir ko'rsatish asosida o'zining «Men»ini quradi. Kuli ko'zguli «Men»ning shakllanishini uch bosqichini belgilaydi: bizning boshqalarga qanday qarashimizga oid idrokimiz; ularning fikrlariga oid idrokimiz; bizning bu fikrlar bo'yicha his-tuyg'ularimiz. Har bir shaxs tajribasi noyoblikdir, chunki uni aniq va aynan ravishda boshqa shaxslar takrorlay olmaydi.

Individual tajribalar manzaralari shu bilan murakkablashib boradiki, shaxs ularni nafaqat jamlab boradi, balki integratsiyalaydi. Shu tariqa, sotsiallashtirish jarayoni insonni o'rab turgan muhitga ikkita muhim ta'sir ko'rsatadi: tabiiy va sotsial. Sotsial muhit sotsiallashtirishning obyektiv shart-sharoiti bo'lganligi uchun uni tashkil etuvchi unsurlar ham bu jarayonga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu jamiyat unsurlari sotsiallashtirish agentlari deb atalib, ular — odamlar, muassasalar, ular bilan bog'liq holdagi sotsiallashtirish jarayoni natijalari uchun mas'ullardan iborat bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, sotsiallashtirishning asosiy agentlari oila, turli birliklar (jamoalar, etnoslar, xalqlar, sinflar, sotsial qatlamlar), bir butun jamiyat — insonni qamrab olgan barcha narsalar va uning atrof-muhiti. Sotsial hayotning har bir sohasi (moddiy va ma'naviy) sotsiallashtirish jarayonida — maqsadga muvofiq va muvofiq bo'lmagan tarbiyalashda ishtirok etadi.

Demak, qizg'in sotsiallashtirish jarayoni bolalik va o'smirlilik yoshida amalga oshadi. Shaxsning o'z professional mansab maqomini egallagan pallada sotsiallashtirish jarayoni muayyan tugallanganlikka erishadi. Katta yoshli odamlarning sotsiallashtirish tashqi xulqning o'zgarishi (bolalarning sotsiallashtirishida — qadriyatli mo'ljallar shakllanadi) bilan ajralib turadi, ular me'yorlarni baholash qobiliyatiga ega (bolalar esa faqat qadriyatlarni o'zlashtiriyotgan) bo'ladi. Katta yoshli odamlarga nisbatan boshqalarga ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallashlariga yordamlashish maqsadi xosdir.

Shuningdek, katta yoshli odamlar asta-sekinlik bilan sodda bolalik tasavvurlaridan (avtoritetlarning doimo sabotli bo'lishi, mutlaq haqiqatga erishish kabi), ya'ni, dunyo faqat oq va qoradan iborat degan qarashlardan voz kechib boradi. Sotsiallashtirishning muhim jarayoni aynanlashuvdir²³². *Aynanlashuv* — bu individ tomonidan o'zi mansub bo'lgan yoki o'zi mansublikni xohlaydigan sotsial guruhlarining me'yorlari, qadriyatlar sifatlarini o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

²³²Давыдов С.А. Конспект лекций по социологии. - М.: Издательство: Эксмо, 2008. - С. 73-79.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Shaxs» deganda nimani tushunasiz?
2. «Individ», «inson» va «shaxs» o'rtasida qanday farqlanishlar va umumiyliklar mavjud?
3. Shaxsning shakllanishiga ta'sir qiladigan qanday omillar mavjud?
4. A.Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi piramidasi darajalari nimalardan iborat?
5. Shaxsning o'zini o'zi anglashi, deganda nimani tushunasiz?
6. «Men-konsepsiya» nima?
7. Shaxs turlari qanday tasniflashadi?
8. «Shaxs strukturasi» deganda nimani tushunasiz?
9. Sotsial maqomlar va rollar qanday kechadi?
10. Shaxsning sotsiallasuv jarayoni nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016//Xalq so'zi,2016,6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.,6-son,70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.2017//http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A.Asarlar.1-24 jild.-T.:O'zbekiston,1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi.2016-y.,9 sentyabr//<http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M.Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr,2016,20 oktyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.:O'zbekiston,2017.
9. Арон Р.Этапы развития социологической мысли.-М.,1983.
10. Берн Э.Игры, в которые играют люди.-М.,1988.

11. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения.-М,1978.
12. Давыдов С.А. Конспект лекций по социологии.-М.:Издательство: Эксмо,2008.
13. Исаев Б.А. Социология в схемах и комментариях: Учебное пособие.-СПб.: Питер,2008.
14. Зейгарник Б.В. Теория личности Курта Левина.-М.,1981.
15. Klages H. Wertorientierungen im Wandel. Ruckblick, Gegenwart-sanalyse, Prognose.-Fr/M.,1984.
16. Кон И.С. Социология личности.-М.: Политиздат,1967.
17. Ольшанский В.Б. Личность и социальные ценности//Социология в СССР.-М.,1965.Т.1.
18. Радугин А.А., Радугин К.А. Социология: курс лекций.-2-е изд., перераб. и доп.-М.: Центр,1999.
19. Социология: Словарь-справочник.-М.,1990.Т.1-3.Т. 2.
20. Фрейд З. "Я" и "Оно": Труды разных лет.-Тбилиси,1991.
21. Фромм Э. Бегство от свободы.-М.,1986.
22. Фромм Э. Иметь или быть.-М.,1990.
23. Хабермас Ю. Понятие индивидуальности//Вопр. философии. 1989.№2.
24. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. В 2 т.-М.,1986.
25. Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности основные положения, исследования и применение. Перевод С.Меленевской и Д.Викторовой. Глава 10.-СПб.: Питер Пресс,1997.
26. Энциклопедический социологический словарь//Под ред. академика Г.В.Осипова; ИСПИ РАН.-М.,1995.

7-mavzu. DEVIANT XULQ-ATVOR

7.1. Deviant xulq-atvor sotsiologiyaning muhim tadqiqot obyekti sifatida.

7.2. Deviant xulq-atvor turlari.

7.3. Sotsial nazorat.

7.4. Sotsial me'yorlar va jamoatchilik fikri.

Tayanch so'zlar: xulq, deviant xulq, deviantlik, deviatsiya, konformizm, me'yorlar, sotsial me'yorlar, qadriyatlar, madaniy me'yorlar, anomiya, destruktivlik, alkoholizm, narkotizm, korrupsiya, terrorizm, jinoyatchilik, delinkventlik, sotsial nazorat, o'zini o'zi nazorat qilish, jamoatchilik fikri.

7.1. Deviant xulq-atvor sotsiologiyaning muhim tadqiqot obyekti sifatida

Deviant (og'ma) xulq-atvor tushunchasi. Deviantlik — madaniy me'yorlarni anglab va bilib turib buzish demakdir²³³. Modomiki, deyarli barcha insoniy faoliyat bu kabi holatga tushib qolishi mumkin ekanligiga e'tibor bersak, deviantlik tushunchasi haddan tashqari katta ko'lamdagi hodisa va voqeliklardan iborat ekanligini anglaymiz. Uning turlaridan biri — bu jamiyatda rasmiy ravishda qabul qilingan jinoyatga oid qonunchilikning buzilishi hisoblanadi. Kriminal deviantlik yo'l-transport harakati qoidalarini buzishdan boshlanib, zo'rlik bilan nomusga tegish va qotillik bilan tugaydi.

Ba'zan birdaniga miyada paydo bo'ladigan va aksariyat bir-birlariga o'xshash bo'lmagan o'y-fikrlar tartib-qoidalarni buzishga oid noxush holatlarga undaydi: do'kundagi mollarni o'g'irlash, bolaga beshavqat munosabatda bo'lish yoki avtomobilni mast holda boshqarish. Lekin, haddan tashqari tirishqoq odamlar — o'quvchilarning ko'pincha bir-biriga qo'l ko'tarishi, yoki, yangi kompyuter texnologiyasidan zavq-shavqqa to'lib, o'zini tiyib ololmaydigan o'smirlarning xatti-harakatlariga biz ma'lum darajada hurmat bilan qarasadakda, ko'pincha bu holatlarni deviantlikka yo'yamiz. Shu bilan birga, har qanday deviantlik ham xatti-harakat qilishni yoki biron-bir narsani tanlashni ko'zlayvermaydi. Ba'zi

²³³Deviatsiya - [lot. deviatio og'ish de+via yo'l+dan] - psixologiya va sotsiologiyada to'g'ri yo'ldan og'ish ma'nosida ishlatiladi.

toifadagi odamlar mavjudligining o'zi boshqalar uchun malol kelishi mumkin. Keksaygan odamlar yoshlarga umidsiz va «zamonaviy hayotdan ortda qolgan» odamdek tuyuladi. Ba'zi odamlar esa qora yoki qizil tanli odamlar oldida o'zini shunchaki noqulay sezadi. Jismoniy sog'lom odamlar nogironlarga xuddi boy odamlar kambag'al odamlarni o'z mavqe va holatiga munosib kelmaydi, deb o'zini chetga olishi kabi munosabatni o'zida his qilishi mumkin²³⁴.

XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida deviantlikni biologik va psixologik talqin etish keng tarqaldi. Italiyalik shifokor *Sezare Lombrozo* insonning biologik xususiyatlari bilan uning jinoiy xulqi o'rtasida to'g'ri-dan-to'g'ri aloqalar mavjudligini isbotlashga harakat qildi. U odamning yuz tuzilishi va undagi belgilarga muhim e'tibor qaratdi. AQSh shifokori va psixologi Uilyam Sheldon deviantlik bilan tana va gavdaning tuzilishi o'rtasidagi bog'likliklarga doir tadqiqotlar olib bordi. Bu sohada psixologik talqinlar tarafdorlari deviantlikni psixologik hislatlar bilan bog'lashga urindi. Lekin deviantlikning dastlabki sotsiologik dalillari *E.Dyurkgeym* tomonidan ishlab chiqildi. U anomiya²³⁵ nazariyasini ilgari surib, unda sotsial va madaniy omillarni muhim ahamiyat kasb etishini ochib berdi. Uning fikricha, deviantlikning asosiy sababi — bu anomiya, ya'ni «regulyasiyaning etishmasligi» va «me'yorsizlik»dir. *Anomiya mohiyatan* — bu jamiyatda qadriyatlar, me'yorlar, sotsial aloqalarning yetishmasligi, yoki ularning beqarorligi va ziddiyatli holatga tushib qolishi natijasida jamiyatning izdan chiqishi hisoblanadi. Bu salbiy jihatlar barqarorlikni buzadi, sotsial aloqalarning o'zaro uzilishi va beqarorligiga, jamoaviy ongini (sotsial guruhlarining inqirozi, aralashib ketishi, migratsiyasi va boshq.) yo'qolishiga olib keladi, jamoatchilik tartibini buzilishi ro'y beradi, odamlar o'rtasida tartib-intizom buziladi. Buning natijasida deviantlikning turli ko'rinishlari paydo bo'ladi.

E. Dyurkgeymning fikricha, deviantlik konformizm kabi tabiiy holatlar jumlasiga kiradi. Shuningdek, me'yorlardan og'ib ketish nafaqat salbiy, balki ijobiylikning boshlanishi hamdir. Deviantlik odamlarni me'yorlar va qadriyatlar rolini anglashga undaydi, me'yorlarning turli tumanligiga doir tasavvurlarni vujudga keltiradi. Jamiyat va sotsial guruhlarining deviant xulqqa nisbatan aks ta'siri natijasida sotsial me'yorlar chegaralari yanada

²³⁴Масионис Дж. Социология.9-е изд.СПб:ПИТЕР,2004.-С.260-261.

²³⁵Аномия - [anomie me'yorsiz] — bu tushuncha sotsiologiyaga E.Dyurkgeym tomonidan kiritilgan. U jamiyat yoki shaxsning jamiyatga nisbatan holatini ifoda etib, jamoaviy yoki individual hayotni muvofiqlashtiruvchi me'yoriy va axloqiy sifatlar samarasining kamayib ketganligini, konsensusning kuchsizlanib ketishini anglatadi.

oydinlashadi, sotsial birlik ta'minlanadi va mustahkamlanadi. Va nihoyat, deviantlik mavjud sotsial me'yorlarning muqobillarini paydo bo'lishi, ularni yanada takomillashishi kabi sotsial o'zgarishlarning ro'y berishiga sabab bo'ladi. Anomiya nazariyasi *R. Merton* tomonidan yanada rivojlantirildi²³⁶. Uning fikricha, deviantlikning asosiy sababi — bu jamiyat maqsadlari va ularni amalga oshirishni sotsial jihatdan qo'llab-quvvatlaydigan vositalar o'zaro aloqalarining buzilishidir. Ana shundan kelib chiqib, u jamiyatga nisbatan moslashish bilan bog'liq xulqlarning turlarini tavsiflab berdi. Merton ularni amerikaliklarning ana shu kabi maqsadlaridan biri — boylikka erishishga nisbatan munosabatlari misolida ko'rsatib berdi:

- xulqning birinchi turi — *o'xshashlik* va *bir xillik* (konformlik) ham madaniy maqsadlarga, ham unga erishish vositalariga moslashishni taqozo etadi;

- deviant xulqning ikkinchi turi — *innovatsiya* — maqsadlar bilan kelishuvni taqozo etadi, lekin ularga erishishda sotsial jihatdan qo'llab-quvvatlash vositalarini inkor etadi. Masalan, quyi sinf vakillari boylikka erishish maqsadlarini qabul qiladi, lekin, nufuzli faoliyatlar bilan shug'ullanish, ta'lim, iqtisodiy yutuqlarga erishish kabi vositalardan foydalana olmaydi. Ana shu kabi holatdan maqsadlarni noqonuniy yo'llar (reket, chayqovchilik, qo'rqitish va tovlamachilik bilan ish bitirishga urinish, narkotik moddalar savdosi bilan shug'ullanish) bilan amalga oshirishga berilish paydo bo'ladi;

- xulqning uchinchi turi — *ritualizm*, aksincha, maqsadlarni inkor qiladi, lekin maqsadlarga erishishning jamiyat qo'llab-quvvatlagan an'anaviy vositalarini qabul qiladi. Bu ko'proq o'rta sinfning quyi qatlamlari vakillarida uchraydigan holatlar — talab qilish darajasining pasayib ketishida ifodalanadi. Bu ham deviant xulqning manbai bo'lishi mumkin. Masalan, rasmiy ish tartib-qoidalarini mutlaqlashtiruvchi byurokrat mansabdorning faoliyati;

- to'rtinchi tur — *retretizm* ham maqsadlarni, ham vositalarni inkor etadi. *Retretizm*²³⁷ jamiyatdan tashqarida, undan uzilib qolgan shaxslar uchun hosdir: daydilar, giyohvandlar, ichkilikbozlar; ular o'z qadr-qimmatini saqlash, o'z xavfsizligini ta'minlash, nufuzga erishish kabilardan voz kechadi;

- beshinchi tur — *isyon* — ustuvor maqsadlar va andozalar, shuningdek, yangi maqsadlar va vositalardan begonalashuvni taqozo etadi.

²³⁶Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение/Пер.с фр., составление, послесловие и примечания А. Б. Гофмана.-М.:Канон,1995.-С.120.

²³⁷Retretizm - [retraite ketish, chiqish]— ichkilikbozlik va narkotizmga berilish singari o'z joniga qasd qilish; sotsial-passivlikka (majhullikka) berilish.

Jamiyat maqsadlari va vositalariga nisbatan munosabatlarning bu kabi turlari deviant xulq uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Deviant xulqning bu kabi manbalari qatorida, shuningdek, jamiyatning sotsial jihatdan buzilishi sifatida qadriyatlarining barbod bo'lib borayotganligini ham ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, deviant xulq turli submadaniyatlar, ayniqsa jinoiy xulq submadaniyatlari ta'sirida ham paydo bo'lishi mumkin. Jinoiy guruhlar (ko'cha jinoiy to'dalari, narkotik moddalar savdogarlari, reketirlar va boshq.) bilan aloqalar ularning «me'yorlari» va «qadriyatlari»ni tarqalishiga, deviant xulqni ko'payishiga olib keladi. Deviantlikka salbiy hodisa sifatida qaraydigan nizolar (konfliktlar) nazariyasi tarafdorlari uni jamiyatning ichki ziddiyati, sotsial guruhlar o'zaro nizolari sifatida talqin etmoqda. Ko'pincha hukmron sinf vakillari hokimiyatdan maxrum odamlarga qarshi huquqiy me'yorlardan unumli foydalanadi. Bu kabi holatlarda ozchilikning manfaatlarini himoyalovchi, umum e'tirof etilmagan me'yorlarga qarshi odamlar ham deviant xulqli odam, deb e'lon qilinishi mumkin. Bu nazariyaga muvofiq deviantlikning manbai jamiyatning adolatsiz tarzda tuzilgani uchun uni tuzatish, ya'ni sotsial adolatsizlikka barxam berish lozimligi g'oyasi ilgari suriladi.

Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzish) nazariyalari. Deviant xulqning tabiatini tushunishda destruktivlik nazariyasining hissasi nihoyatda kattadir. Destruksiya²³⁸ keng ma'noda — bu buzish, nimanidir me'yordagi strukturasi buzish, yo'q qilish demakdir. Tor ma'noda — bu inson psixikasi va xulqining subyekt va obyektlarni buzishga yo'nalganligi demakdir. *Destruksiya* tushunchasi XX asrda turlicha keskin sotsial o'zgarishlar va ko'plab muammolarning psixotahliliy nazariyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq ravishda chuqurlashgan psixologiyaning yaratilishi jarayonida shakllandi. O'z davrining mashhur olimlari — *A. Adler, K. Yung, E. Bleyler, O. Gross, V. Shtekel, S. Shpilreyn, Z. Freyd, E. Veyss, P. Federn, V. Rayx, E. Fromm* va boshqalar destruksiya nazariyasini ishlab chiqishga o'zlarining katta hissalarini qo'shdi. Bu sohada *Freyd va Frommlar* yangi kashfiyotlar qilishga erishdi.

Bu nazariya inson tabiati va mohiyatining psixotahliliy manzaralarini tadqiq etishning tugallanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. *Freyd* ta'limotiga binoan, *o'lim instinkti* (ichki mayl hissi) Erosga (hayot, seksuallik va o'z jonini saqlash instinktiga) qarshi turuvchi ikkita asosiy instinktardan biridir. Freydning fikricha, *destruksiya instinkti* «har bir tirik jonda ishlab turadi va hayotni «jonsiz materiya» holatiga qaytarish maqsadida uni buzishga

²³⁸Destruksiya - [lot. destructio] - buzish, nimanidir me'yordagi strukturasi buzish demakdir.

intiladi. Albatta, u «o'lim instinkti» deyishga sazovor tushuncha bo'lsa, erotik mayllar o'zida hayotga intilishni ifodalaydi. O'lim instinkti obyektarga nisbatan maxsus organlar yordamida tashqaridan turib ta'sir qila boshlagan paytda u destruksiya instinktiga aylanadi. Tirik jon o'zidan boshqa tirik jonlarni yo'qotish evaziga o'z shaxsiy hayotini saqlashga intiladi. Lekin, o'lim instinkting bir qismi faol ravishda tirik jon ichida yashaydi, va biz unda destruksiya instinkti ichiga kirishga tayyor turgan juda ko'plab sog'lom va patologik mayllarni kuzatamiz»²³⁹.

Insoniy destruksiyaga doir aniq va tizimli nazariyalar *E. Fromm* tomonidan ishlab chiqildi. U o'zining «Insoniy destruktivlik anatomiyasi» kitobida destruksiya muamolarini global nuqtai nazardan tadqiq etish zaruriyatini paydo bo'lishi o'z yechimini kutayotgan «eng muhim» nazariy va amaliy muammolardir, degan fikrni bildirdi. Frommning fikricha, «insoniyat tarixiy o'tmishdagi o'z ajdodlaridan bir necha marta ko'p va aqlga sig'maydigan holdagi shavqatsiz va destruktivlik hamlalar qilayotganligini ko'rmoqdamiz. Bu boshqa tirik jonlarga qaraganda insonning o'taketgan «qotil» ekanligini tasdiqlaydi». Frommning konsepsiyasining muhim prinsipial jihati — bu «destruksiya va shavqatsizlik — bular instinktiv mayllar emas, balki ildizlari insoniy turmushning yaxlit strukturasi borib taqaladigan ehtirolardir. Ular hayotga mazmun bag'ishlaydigan imkoniyatlarning shunday turkumiga mansubdir; ular hayvonlarda umuman yo'q, bo'lishi ham mumkin emas, chunki, ular o'z tabiatiga ko'ra «insoniy mohiyatda»gina chuqur ildiz otadi».

Frommning fikricha, insondagi destruksiyaning sababini «odamni hayvoniy ajdodlaridan ajratib turadigan dalillardan izlash lozim. Asosiy muammo shundaki, insonni yashashi uchun uning o'zgalarga azob berish va o'ldirishga tashnaligining paydo bo'lishiga, shuningdek, undan huzurlanishining jadalligi va uning xulqini insonni yashashi uchun zarur bo'lgan o'ziga xos shart-sharoitlar qanchalik javobgar ekanligini aniqlash qiyin masaladir».

Frommning faraz qilishicha, *destruksiya* asosan ikkita shaklda yashaydi va namoyon bo'ladi: spontan (ichdan, o'z-o'zidan) paydo bo'lish (mudroq destruktiv impulsni (ichki turtkilarni) saqlashni ta'minlovchi — ko'proq mudofalanish tuyg'usidagi — va ularning favqulodda vaziyatlarda faollashuvi va uning shaxs ekanligidan kelib chiqadigan (o'z shaxsini barcha strukturalar bilan ulanganligi, shuningdek, muayyan individga muntazam ravishda xos bo'lib turadigan xulqining destruktivlik belgilari). Tajovuzlarni

²³⁹Qarang: Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. - М., 1991. - С. 365; Фрейд З. Психоанализ. Религия. Культура. - М., 1992. - С. 266-267.

(agressiyalarni) va destruksiyani har tomonlama tadqiq etgan Fromm ularning turli tuman alomatlari va turlarini (bezarar va xatarli) ajratib berdi va «eng xatarli destruksiya hamda eng vahshiylikning (ya'ni, shavqatsizlik, sadizm va nekrofiliya kabilarning), shu bilan bir vaqtda, «eng og'ir patologik holat»ning asosi — bu «inqirozga yuz tutish sindromidir», degan fikrni ilgari surdi²⁴⁰.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, deviantlikni o'rganishda destruksiya nazariyasi muhim o'rin tutadi. Destruksiya nazariyasi inson hayotiy faoliyatidagi deviantlik xatti-harakatlarni ong va ostki ongda kechadigan jarayonlarga bog'laydi va bunda yuz beradigan deviantlik holatlarini kamaytirishning («davolash»ning) psixolik jihatlarini ochib berish asnosida uning sotsiologik mohiyatini ham tavsiflab beradi.

Deviant xulqning paydo bo'lish sabablari va tavsifiga doir ko'plab nazariyalar paydo bo'ldi. Hozirgi g'arb konsepsiyalarida deviantlikning sotsial manbalariga ustuvorlik berilmoqda. MDH mamlakatlarida sotsial og'ishlarning umumiy nazariyasi, og'ma xulqlarni o'rganishga doir huquqiy va sotsiologik tadqiqotlar rivojlandi. Tadqiqotchilar ommaviyligi, yashovchanligi va keng tarqalishi bilan ajralib turadigan sotsial me'yorlarni buzadigan sotsial og'ishlarga doir tushunchalarga aniqlik kiritish sohasida ancha ilgariadi. Nohush sotsial og'ishlarning turlari (jinoyat, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish), ularni sabablari va tarqalishi kabilarni maxsus tarzda tahlil qilish avj oldi. Aksariyat tadqiqotchilar deviantlikni paydo bo'lishi va tarqalishini sotsial rivojlanish ziddiyatlariga bog'lamoqda. Deviant xulqning sotsial, iqtisodiy, madaniy, tarixiy va siyosiy omillarning keng doirasi xatti-harakatlari natijasi ekanligiga muhim e'tibor berilmoqda.

AQSh sotsiologi *Govard Bekker* stigmatizatsiya²⁴¹, yoki «yorliqlar yopishtirish» nazariyasini ilgari surdi. U o'zining «Autsayderlar» (1963) kitobida deviantni «kasal» deb e'lon qilishga qaratilgan deviant xulqning psixologik va psixiatrik modellarini inkor qildi. Uning fikricha, deviantlik jamiyatda katta ta'sirga ega bo'lgan kuchlarining (qonun chiqaruvchilar, sudlar, vrachlar va boshq.) boshqa sotsial guruhlariga nisbatan xulqning muayyan o'lchovlarini zo'rlab o'tkazishdan iboratdir. U bundan quyidagi xulosalarni chiqardi: deviantlik — bu xulqning sifati, insonning xususiyati emas, balki uni hukmron sotsial me'yorlar bilan o'zaro nisbatlashning natijasi, unga nisbatan ta'sirli doiralarning munosabatidir.

²⁴⁰Qarang: Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. - М., 2009. - С. 232-239, 342-346.

²⁴¹Stigma - [yunon. stigma tamg'a, belgi, dog'] - qadimgi davrda qullar yoki jinyatchilarning tanasiga qizdirilgan temir bilan tamg'a yoki belgi qo'yish.

Aksariyat odamlar qandaydir sotsial me'yorlarni buzadi. Masalan, ko'chadan o'tishda yo'l harakati qoidasi, o'quv yurtidagi ma'ruza paytida uxlab qolish, imtihonda adabiyotlarga yashirin tarzda mo'ralab qarash va boshq. Lekin, bu kabi hodisalar ishtirokchilari deviant xulqlilar qatoriga qo'shilmaydi. Sotsiologlar bu kabi xulqni «dastlabki deviantlik» deb ataydi. Politsiyaga kuch bilan olib kelish, jinoiy ish qo'zg'ash, oliy o'quv yurtidan haydash insonga stigma (tamg'a), ya'ni, deviantlik yorlig'ini «yopishtirishga» olib keladi. Endi bu «ikkilamchi deviantlik» deb ataladi, bunday holatdagi insonning atrofidagilar u bilan deviant xulqli odam sifatida muomalada bo'la boshlaydi. Ikkilamchi deviantlik nafaqat rasmiy shaxs (masalan, politsiya boshlig'i) bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. *G. Bekker* deviantlikni paydo bo'lishida «salib yurishlari»ni uyushtirib turadigan «axloq uchun kurashuvchilar» rolini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Agar ular g'oliblikka erishsalar, u holda yangi qadriyatlar va me'yorlar yaratiladi, yangi deviantlar, ba'zan deviantlikning jamoaviy shakllari paydo bo'ladi. U misol tariqasida AQSh konstitutsiyasiga kiritilgan XVIII tuzatish, ya'ni spirtli ichimliklar ichishni ta'qiqlash to'g'risidagi moddani keltiradi.

U yoki bu odamning deviantligini uzil-kesil aniqlab beradigan ba'zi kasblar vakillariga nisbatan jamiyat katta mas'uliyat yuklaydi. Masalan, vrachning u yoki bu odamni deviant xulqli deb qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lganligi uchun ham uning jamiyat oldidagi mas'uliyati yuqori darajada bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Neyl Smelzerning deviantlikni rivojlanish jarayoni sifatida qarash nazariyasi. Taniqli olim N.Smelzer deviantlikni nafaqat sotsial jarayon, balki rivojlanish jarayoni sifatida tadqiq etdi. Shundan kelib chiqib, u deviant xulqning rivojlanishidagi sakkizta omilni va bu jarayondagi o'tish pallasini (yoki bosqichlarini) ko'rsatib berdi: me'yorlarni yaratish, me'yorlarning mohiyati; deviant harakatni amalga oshirish, xatti-harakatni deviant deb tan olish (ikkilamchi deviantlik), stigmatlashtirish, stigmatlashtirish oqibatlari, deviantlikning jamoaviy shakli.

1. Me'yorlarni yaratish. Qoidalar ko'pincha axloqiy «salib yurishi» (axloqsizlikka nisbatan qo'shimcha baholashlarni olib kirishga oid yangilik sari o'zgarishlar) natijasida paydo bo'ladi. Voyaga yetmaganlar jino-yatchiligi shu tariqa paydo bo'ldi. Bir davrlar uy va oilaviy negizlarni mustahkamlovchi an'anaviy qadriyatlar industrilashish va urbanizatsiya²⁴² natijasida xavf-xatar ostida qolgan edi; bunga qisman ko'p sonli muhojirlar

²⁴²Urbanizatsiya - [lot. urbanus shaharga oid] - sanoat va aholining yirik shaharlarda to'planishi, jamiyatni rivojlanishida shaharlarning (qishloqqa nisbatan) rolini oshib ketishi.

oqimi sabab bo'lgan edi. Bu paytda jamiyatning o'rta qatlamiga mansub bo'lgan an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish harakatining ayollardan iborat ishtirokchilari «yoshlar nafaqat jismoniy, balki axloqiy jihatdan qattiq nazorat qilish va himoyalashga muhtojlik sezmoqda», degan vajlarni ilgari surdi. Ularni ko'proq ishchilarning bolalari taqdiri bezovta qilmoqda edi; bu ayollar, bolalar ilgargi davrdagidek «buzuq» muhitdan tashqarida yashashlari lozim, voyaga yetmaganlar kelajakda «baxtiyor» bo'lishlari uchun ular alohida yashash joylarida (koloniyalarda) axloqan tozalanishi lozim, degan qarashlarni ilgari surdi. Shak-shubha yo'qki, AQSh bolalarini nojo'ya ta'sirlardan qutqarish uchun «olijanoblik» sari intilishlar ayollar faoligi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayon ayniqsa ijtimoiy sohada kuchaydi. Muhimi shundaki, ayollar noloyiq xulqlarga nisbatan aloxida diqqat-e'tibor qaratib, go'yoki «yoshlarni qutqarish kurashchilari» sifatida voyaga yetmaganlarning amaldagi muammosini sun'iy ravishda «o'ylab chiqardilar», bu bilan ular deviantlikning yangi turini «yaratdilar». Buning natijasida mazkur «muammolarni» echimini topish uchun yangi qonunlar qabul qilindi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha yangi sudlar tashkil topdi²⁴³.

Me'yor-qoidalar bilan me'yor-kutishlar o'rtasida chuqur farqlanishlar mavjud. Me'yor-qoidalar jamiyatning eng muhim me'yorlari hisoblanib, ular jamiyat birligini mustahkamlovchi va ijtimoiy hayotni muvofiqlashtiruvchi asosiy mexanizmlardir. Me'yor-qoidalarni buzish shavqatsiz jazolanishga olib keladi. Me'yor-qoidalar odam o'g'irlash, odam o'ldirish kabi jinoiy harakatlarni ta'qiqlaydigan qonunlarni o'z ichiga oladi.

Uncha muhim bo'lmagan me'yorlar me'yor-kutishlar deb ataladi, ularni buzish qattiq jazolanishlarga olib kelmaydi. Ba'zi me'yor-kutishlarni buzish, masalan, qoshiq o'rniga sanchqi ishlatish yoki ko'chada cho'milish kiyimi bilan yurish kabilarga doimo ham tanbeh berilavermaydi. Tartibsiz jinsiy munosabatlar onda-sonda yashirin ravishda yuz berib turadi. Lekin bu kabi xatti-harakatlarni fosh qilish qiyin jarayon hisoblanadi. Lekin agar zo'rlash sodir etilsa, u tezda fosh bo'ladi, uni sodir etgan shaxsga eng og'ir jazolardan biri belgilanadi. Me'yor-qoidalarga rioya qilish me'yor-kutishlarga nisbatan katta ko'lamdagi qonunchilik bilan nazorat qilinadi, lekin ba'zi qonunlar (masalan, mast holda avtomobilni boshqarish) me'yor-kutishlarga rioya qilish uchun qabul qilingan. Deviant xatti-harakat uchun qattiq jazolar asosan ularning buzilgandan keyingi holatiga chora ko'rish me'yor turi bilan belgilanadi.

²⁴³Smelser N. Sociology. - New-Jersey: Prentice Hall, 1988. - P.265.

2. *Me'yorlarning mohiyati.* Jamiyatda turlicha me'yorlar mavjud. Ular o'zining qattiqlik va talabchanlik darajasi bilan, shuningdek ularni buzganlik uchun jazolashning u yoki bu turini qo'llash bilan bir-birlaridan farqlanadi. Ba'zi me'yorlarga rioya qilish odamlar — do'stlar, oila a'zolari va hamkasabalardan iborat bo'lgan guruhlar tomonidan nazorat qilinadi. Masalan, qattiq baqirgan odamga do'stlar yoki oila a'zolari tanbeh beradi, ishga kech qolish oylik ish haqidan kesib tashlash bilan jazolanadi. Aksariyat me'yorlarga rioya qilish davlat tomonidan nazorat qilinadi — bu funksiyalarni huquqni himoya qilish organlari, sudlar va qamoqxonalar bajaradi. Avtomobil haydovchilari tezlikni oshirganligi uchun (agar patrul xizmati xodimlari bilib qolsa) jarima to'laydi.

Ba'zi me'yorlar butunlay aniq tarzda belgilangan bo'ladi. Jumladan, professor o'z vaqtida ma'ruza o'qishni boshlashi va tugatishi lozim. Boshqa me'yorlar noaniqligi bilan ajralib turadi. Masalan, professor o'zining ilmiy asarlarini nashr etishi lozim. Lekin hali uni qaysi paytda nashr etish haqida aniq me'yor yaratilmagan. Odatda noaniq me'yorni buzishga qaraganda muayyan aniq bir me'yorga rioya qilmaslik muayyan jazo turini qo'llashga olib keladi. Ba'zi me'yorlar tanlash imkoniyatini bersa, boshqa me'yorlar faqat bir xil deviant xulqqa qo'llashni nazarda tutadi. Erkaklar konsertga o'zlari xohlagan kiyimda borishi mumkin, lekin restoranda bo'ladigan tantanalarga kostyum kiygan va galstuk taqqan holda borishi lozim. Shuningdek, ba'zi me'yorlar xulqning muayyan aniq turini ta'qiqlaydi — masalan, soliq to'lashdan bosh tortish yoki o't qo'yish. Xulqning muayyan turlarini namoyon qilishga yo'l qo'yadigan ba'zi me'yorlar ta'qiqlashga nisbatan majburlashni kamroq nazarda tutadi.

Umuman olganda, ba'zi me'yorlar boshqalariga nisbatan muhimroq bo'lishi mumkin. AQShning barcha shtatlarida og'ir jinoyatlarni, masalan yirik o'g'irlikni ta'qiqlovchi qonunlar mavjud. Ba'zi shtatlarda hokimiyat organlariga tayyorgarlik ko'rilayotgan jinoyatlarni bila turib u haqda xabar bermagan odam uchun maxsus «og'ir jinoyatlarga doir xabarlarini yetkazmaganligi uchun» belgilangan jazoni berish qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Lekin bu kabi jinoiy harakatni isbotlash ancha mushkul bo'lganligi uchun ham bu qonun kamdan-kam hollarda qo'llaniladi.

3. *Deviant harakatni amalga oshirish.* Deviantlikning ko'lami rasmiy statistik ma'lumotlarda ko'rsatilgan son-sanoqlarga qaraganda ancha kengdir. Ba'zan narkotik moddalar iste'mol qilish, soliqlarni to'lmaslik va hatto yirik o'g'irliklar to'g'risida xabarlar berilmaydi. Nyu-York shahri aholisi o'rtasida sotsiologik tadqiqot olib borilganida 99 foiz respondenlar bir yoki bir necha marta noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etganliklarini

tan olganlar. Ular asosan magazindagi o'g'irliklardan iborat bo'lgan. Lekin ularning juda ham oz qismi politsiya tomonidan ushlangan.

Muayyan ijtimoiy qatlarga mansublik jinoiy xatti-harakatga moyillikka ta'sir etadimi? Bu mavzu bo'yicha o'rganilgan 2 ming kishini o'rganish shuni ko'rsatdiki, so'nggi besh yil ichida ular tomonidan sodir etilgan ba'zi jinoiy ishlar bu odamlarning qandaydir ijtimoiy qatlarga mansubligiga (daromadi, zoti, kasbi, ma'lumoti) deyarli bog'liq emas ekan (bog'liqlik juda ham oz ko'rsatkichni tashkil etgan).

Jinoyatlar	Ijtimoiy qatlamlar				
	Jamiyatning oliy qatlami			Jamiyatning quyi qatlami	
	5	4	3	2	1
O'g'irlik (5 dollardan yuqori)	19	36	29	31	25
O'g'irlik (50 dollardan yuqori)	4	10	8	12	7
Qimor o'yinlari	38	54	50	40	36
Soliqdagi qalloblik	16	22	19	13	7
Bosqinchilik tajovuzlari	14	17	17	12	14
Marixuana iste'mol qilish	16	25	19	13	24

Bu statistik ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, tajovuzkorona bosqinchiliklar va o'g'irliklar turli ijtimoiy qatlamlar vakillari o'rtasida taxminan teng ko'rsatkichni tashkil etgan. Qimor o'yinlari, soliqdagi qalloblik va marixuana iste'mol qilish kabilar ko'proq jamiyatning oliy qatlami o'rtasida tarqalgan.

Manba: Ch.R. Tittle and W.J.Villemer. Social class and Criminality. - "Social Forces", №36, 1988. -R.474-502.

4. *Xatti-harakatni deviant deb tan olish.* Ma'lumki, barcha deviant xatti-harakatlar ham deviantlik hisoblanavermaydi. Uni ko'p hollarda «deviant xulq» deviantlik hisoblanmasligiga doir «yorliqlar yopishtirish» nazariyasi tarafdorlarining fikrlari tasdiqlaydi. Shuningdek, ularning qayd etishicha, ba'zan odamlarni ular sodir etilmagan deviant xatti-harakatlar uchun ham qamoqqa olinadi va jazolanadi». Tadqiqotchilardan Pilyavin va Briar (1964) G'arbiy Amerikadagi shaharlardan birida politsiyaning faoliyatini tadqiq etdi. Tadqiqotda aniqlanishicha, ushlangan odamlarning deyarli bir xildagi huquqni buzish holatlari uchun turlicha jazolar qo'llanilgan: ko'pincha politsiya xodimlari sodir etilgan deviant xulq uchun odamlarning kiyim-boshi, qadam tashlashi (turli qiliqlari), muomala tarzi kabi xulqiy jihatlaridan g'azablanganliklari uchun qamoqqa olgan.

5. *Insonni deviant sifatida tan olish.* Inson deviant harakatini baholashdan unga deviant yorlig'ini «yopishtirish»ga o'tishgacha o'tgan vaqt ichida uning xulqiga doir axborotlarni qayta ishlab chiqish amalga oshiriladi. Odatda bu kabi «qayta ishlab chiqish» qandaydir muassasa tomonidan bajariladi. Psixiatrik kasalxonalarda aqliy kasallikka chalingan

odamlarga tashxis hakimlar va uni aniqlash usullari vositasida qo'yilsa, jinoyat sodir etgan odamlarga sudlar hukm chiqaradi. Har ikkala holatda ham bir xil natijaga erishiladi: agar odam kasal bo'lsa yoki unga ayblov chiqarilsa, unga deviantlik «yorlig'i yopishtiriladi». Bu kabi holatlarda individuumni deviant sifatidagi rasmiy aniqlov ajrimi va amalga oshirilgan deviant xatti-harakat o'rtasidagi yaxshi asoslanmagan zaif aloqani ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bu ruhan kasal odamlarga yorliqlar yopishtirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Taniqli olim *L.L.Rozenxen* (1973) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda hayratlanarli natijalar olindi. U psixiatrik kasalxonaga joylashtirilgan sog'lom odamda nimalar kechishini kuzatishga qaror qildi. Rozenxen va yettita soxta kasal odam «meni qandaydir ovozlari ta'qib qilmoqda» degan shikoyatlar bilan turli psixiatrik kasalxonalarda davolanish uchun yotqizildi. Ular klinikalarga joylashganlaridan keyin (qalbaki ismu shariflar bilan) ulardagi «aqli norasolik» alomatlari darhol g'oyib bo'ldi. Ular davolovchi hakimlarni o'zlarini sog' ekanligiga ishontirishga urina boshlashdi. Lekin, shunga qaramay, soxta kasallarning ko'pchiligiga «shizofreniya chalingan», degan ajrim chiqarildi. Ular kasalxonada 19 kun yotishdi, hech bir hakim o'zlarining aldaganligini sezmedi. Bu holat faqat boshqa ba'zi bemorlarni shubxalantirdi, xolos. 35 bemor (ularning hammasi 118 ta edi) kasalxonadagi dastlabki uch kun ichidayoq soxta kasallarga nisbatan o'zlarining shubhalarini bildirgan edi. Ularning bir qismi o'zining haqligiga qat'iy ishonch bildirdi. Ular soxta kasallarga quyidagi so'zlar bilan murojaat qildi: «Sizlar ruhiy kasal emassizlar. Sizlar jurnalsiz yoki professorsiz. Sizlar xakimlarning faoliyatini nazorat qilmoqdasiz». Soxta kasallar boshqa bemorlarni «kasalxonaga kelguncha rosa azob tortgani, hozir esa o'zlarini yaxshi his etayotganligi»ga qattiq turib ishontirishga urinsa ham, ba'zi bemorlar ularning kasal ekanligiga umuman ishonmadi. Soxta kasallarga shizofrenik tashxisi qo'yilgani uchun ular keyinchalik bu yorliqdan uzoq vaqtgacha qutila olmadi (ba'zi xakimlar o'zlarining aldanganliklarini sezib qolgan bo'lsa-da, o'z obro'lari tushib ketmasligi uchun dastlab qo'yan tashxislarini o'zgartirmay turib oldi).

Bu tajribaning ikkinchi bosqichida kasalxonada xodimlariga (psixiatr, tibbiy hamshira va boshq.) yaqin uch oy ichida kasalxonaga soxta kasallar kelishi mumkin, degan soxta xabar yuboriladi. Barcha xodimlarga kasallarning barchasini sinchkovlik bilan o'rganish, ularning ichidagi aldovchilarni fosh etish vazifasi topshirildi. Ruhiiy kasallik bilan tushgan 193 ta bemordan 41 tasi kasal emas, deb tan olinadi. Lekin, bu kasallarning ichida bitta ham soxta kasal yo'q edi. Undan Rozenxen shunday xulosa

chiqaradi: «bu kabi ommaviy xatoliklarga yoʻl qoʻyadigan hakimlarning tashxis qoʻyishiga doir bu kabi tartibotni tibbiyot sohasida yashashiga umuman yoʻl qoʻyib boʻlmaydi».

Koʻpincha odamni deviant deb tan olish uzoq muddatga choʻzilib ketadi. Masalan, jinoyat sodir etgan yosh bolalar dastlab maktabda oshkor boʻladi, keyin ular ustidan politsiya ish qoʻzgʻaydi, va nihoyat voyaga yetmaganlar sudlari ular ustidan hukm chiqaradi, va nihoyat, ularni axloq tuzatish koloniyalariga yuboradi.

Hozirgi davrga kelib OAV deviant xulqni baholashning adolatga asoslangan mezonlarini shakllantirishda asosiy rol oʻynamoqda. Koʻpchilik holatlarda aybsiz odamlarga deviant xulq yorligʻini yopishtirish jarayonlaridagi adolatsizliklarni fosh etishda OAV birdan-bir axborot manbasi boʻlib qolmoqda. Shuningdek, OAV bu sohadagi adolatsizliklarga qarshi kurashda jamoatchilik fikrini shakllantirmoqda.

6. *Stigmatlashtirish.* «*Stigma*» deganda insonga yoki guruhga xos boʻlgan qandaydir nuqson tushuniladi; bu nuqson bilan ayblangan odamlar jazolashga va yakalab ajratib qoʻyishga uchraydi yoki atrofdagilar tomonidan kamsitiladi. Jazolashlar yengil boʻlishi mumkin — deviantga nisbatan odamlar sovuqlik va befarqlik bilan munosabatda boʻladi; jazolar qattiq boʻlishi ham mumkin: ular psixiatrik kasalxonalariga joylashtiriladi yoki qamoqqa olinadi. Stigmalarining boshqa turlari jismoniy nuqsoni mavjud odamlarga taalluqlidir. Masalan koʻzi ojizlar va majruh odamlar jazolashning eskidan qolgan turlariga uchraydi. Atrofdagi odamlar ular bilan bepisand holda muomalada boʻladi. Bir oyogʻi yoʻq qiz oʻz hayotida boʻlib oʻtgan hodisani quyidagicha eslagan edi: «Men yiqilganimda odamlar menga darhol yordamga keldi. Lekin ular menga sogʻlom odamlarga boʻladigan munosabatda boʻlmadi. Ular shunga amin edilarki, goʻyoki men ojiz va nochor majruh boʻlganim sababli yiqilmoqda edim». Bu kabi bir yoqlama fikrlar stigma yorligʻi yopishtirilgan odamlarning oʻziga munosib baholanmasligini yoki ortiqcha baholanishi mumkin ekanligini koʻrsatadi. Masalan, koʻpchilik jinoyatchilar faqat arzon muqovali detektiv romanlarni oʻqiydi, deb oʻylaydi. Agar ular atoqli klassik yozuvchilar asarlarini oʻqisalar, odamlar bunday holni gʻayrioddiy holat, deb baholaydi. Shuningdek, koʻpincha sogʻlom odamlar tangʻa bosilgan odamlar bilan muomala qilishda tortinib oʻtirmaydi.

7. *Stigmatlashtirish oqibatlari.* Qachon odam deviant sifatida tan olinadi, uning oʻziga munosib muomala qanday boʻladi, deviant bundan qanday taʼsirlanadi? Oʻlimga hukm qilingan odam oʻzini jinsiy buzuc yorligʻi yopishtirilgan odamga nisbatan koʻproq deviant xulqli deb biladimi?

Bu savollarga beriladigan javob odam o'z atrofida gilarining fikrlariga rizolik bildirishining qanchalik darajada bo'lishiga bog'liq ravishda belgilanadi. Taniqli olim *Shur* (1971) «ko'nikish» jarayonini deviantning xulqiy og'ish rolini o'ziga singdirish tarzi sifatida ifodalaydi. Uning nuqtai nazariga binoan, rolni o'ziga singdirish deviant xulq rivojlanish jarayonining so'nggi bosqichi hisoblanadi. Bu singdirishning darajasi asosan deviant deb hisoblangan odamga nisbatan boshqa odamlarning munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Yana bir taniqli olim *Fillips* (1963) odamlar kimnidir psixiatr yordamiga murojaat qilganini bilib qoisa, qanday munosabatda bo'lishiga doir tadqiqotlarni amalga oshirdi. Bir necha yuzdan iborat katta yoshli odamlarga beshta odamning xulqini tavsiflari keltirilgan ma'lumotlardan iborat varaqalar berildi: paranoya shizofreniyasi; oddiy shizofreniya; notinch, hayajon va sarosimaga tushgan; vahima azoblayotgan; ruhiyati sog'lom. Shu bilan bir vaqtda, ularning har biri qanday yordamga muhtoj: psixiatrik kasalxonada davolanishmi, psixiatr maslahatimi, ruhoniylar bilan suhbat o'tkazishmi va hokazo. *Fillips*ning aniqlashicha, odamlar bemorning kasallik darajasi va belgilaridan qat'iy nazar ular psixiatrik yordamga muhtoj bo'lmagan odam bilan muloqotda bo'lishni afzal deb bilgan. Psixiatrik kasalxonada davolanayotgan sog'lom odam ruhiy kasal va tibbiy yordam olishga harakat qilmayotgan odamga nisbatan salbiy tarzda qabul qilingan.

Bu tadqiqot deviant tamg'asi bosilgan odamlar duch kelayotgan muammolarga o'z e'tiborini qaratdi. Bu kabi odamlarga ish beruvchilar, ularning oila a'zolari va do'stlari o'z deviantlik rollarini singdirib borishining o'ziga xos jihatlari ta'sir qiladi. Lekin, ba'zan odamlar o'zlarini deviant deb hisoblashni qattiq turib rad etadi yoki o'ziga yopishtirilgan yorliqning «ta'sirini kamaytirishga» urinadi. Shu bilan birga, ular deviant xatti-harakatlar qilganligini tan oladi va bu holatni qandaydir yo'llar bilan oqlashga harakat qiladi. Masalan, ayollar hamyonini o'g'irlashda ayblangan yosh yigit o'zini oqlash uchun quyidagi so'zlarni aytishi mumkin: «Ha, men uni o'g'irladim. Axir hamma o'g'irlayapti-ku. Meni omadim chopmadi, meni ushlab olishdi». U o'g'irlikni ta'qiqlovchi me'yorni qo'llab-quvvatlayapti, lekin o'z shaxsiyatidan kechgan holda uning «ta'sirini kamaytirishga» urinyapti. Insonning deviantlikka aynanlashuvi ko'plab omillarga asoslanadi — atrofida gilarining unga nisbatan bu aynanlashuvni tiqishtirishning qanday tezlikda va shiddat bilan borishi eng muhim va ko'proq ro'y beradigan asosiy omil hisoblanadi.

8. *Deviantlikning jamoaviy shakli.* Taniqli olim *Devid Matsning* (1964) fikricha, ko'pincha deviantlik uzoq vaqt mobaynida kuzatilsa, u alohida olingan individga xos xulq doirasida chiqib, jamoaviy xulqqa aylanadi: ayrim deviant xatti-harakatlar asosida boshqa ko'plab odamlar tomonidan o'zlashtiriladigan xulq namunasi shakllanadi. Bu kabi namuna asosiy prinsiplari «qoidalarni buzish»ni rag'batlantiradigan yangi submadaniyat-larning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, jinoyat olamining submadaniyati o'z me'yorlarini ustunlik qilayotgan madaniyat evaziga o'zlashtiradi, lekin bu o'zlashtirish «oyog'ini osmondan qilib o'zlashtirish» qabilida ro'y beradi. Jinoiy xulq muayyan submadaniyat o'lchovlari mezonlariga mos kelganligi uchun ham u «bexato» yoki «to'g'ri» hisoblanadi. Bu kabi holatning ko'rinishi jinoiy to'da, shuningdek «isyonchilar» xulqida yaqqol namoyon bo'ladi. *Mertonning* fikricha, rituellik jamoalikka o'tishi mumkin. Kimningdir individual odati juda ham aynan tarzda qoida tusini olishi mumkin. Hattoki, bajarilishi bema'nilikka olib keladigan arzimas qoida xizmatchilar guruhining o'z ishini sustlashtirishga olib keladigan «ish uslubi»ga aylanishi mumkin²⁴⁴. Masalan, aviadispatcherlar ishidagi ozgina deviantlik butun bir tashkilot ishini izdan chiqarishi mumkin.

Deviantlik jamoalikka aylanganida, deviant guruh jamiyatda yolg'iz deviantga nisbatan bir necha marta katta ta'sir kuchiga ega bo'lib boradi. Buning natijasida hokimiyat organlari yangi murakkab muammolarga duch keladi. Bu kabi holatlar jamiyatning butun guruh xatti-harakatiga nisbatan munosabatida o'zgarishlar bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Deviant deb hisoblangan xulq endi «bir necha ajralib turuvchilar» yoki «andak og'uvchilar» deb baholanadi va u sotsial e'tirof etilganlar toifasiga kira boshlaydi.

7.2. Deviant xulq-atvor turlari

Turli nohush deviant xulqning paydo bo'lishi sotsial me'yorlar va og'ishlarning nisbiyligi va shartli ekanligiga qaramay o'zida quyidagi ommaviy sotsial hodisalarning namoyon bo'lishini ifoda etadi: ichkilik-bozlik, giyohvandlik, fohishalik, jinoyatchilik, korrupsiya, terrorizm, o'z joniga qasd qilish.

Ichkilikbozlik (alkogolizm). Spirtli ichimliklarni ise'mol qilish bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, u turli jamiyatlarda keng tarqaldi. Spirtli ichimliklar iste'mol qilishdan asosiy maqsad mastlik vositasida ko'ngil ochish, boshqalar bilan yaqin munosabatda bo'lish, taskin topish,

²⁴⁴O'sha joyda.-B.265-274.

asablarni bo'shashtirish kabilarda foydalanishdan iborat bo'lgan. Ba'zi xalqlar uchun u madaniy an'ana tusini oldi va turli marosimlarda (nikoh to'ylarida, marhumni xotirlash ziyofatida, tantanali qabullarda) spirtli ichimlik ichishlar rusumga ham kirdi. Me'yor chegarasidan chiqqan holda va muntazam ravishda spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish ichkilikbozlikka olib keladi.

Ichkilikbozlik — bu insonning spirtli ichimliklar iste'mol qilishga jismoniy va psixik jihatlardan qaram bo'lib qolishidan kelib chiqadigan, odamning nerv tizimi va ichki organlari gayritabiylashuvi, uning shaxslik va xulqiy sifatlarining tanazzulidir. Ichkilikbozlik noxush deviantlikning ko'rinishi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asrning boshlarida tezlik bilan rivojlandi. Industralashtirish va shaharlarning yiriklashuvi (urbanlashish) natijasida aholi o'rtasida ichkilikbozlik yanada ko'paydi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib ichkilikbozlikning o'sish sur'atlari yanada avj oldi.

Hozirgi davrda jahonda zararli spirtli ichimliklarni iste'mol qilish natijasida har yili 3,3 mln. o'lim yuz bermoqda. Bu raqam yiliga ro'y beradigan o'limlarning 5,9 foizini tashkil etadi. Zararli spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kasalliklar va jarohatlanishlar bilan bog'liq bo'lgan 200 dan ortiq sog'liqni izdan chiqaradigan sabablarni keltirib chiqarmoqda. Umumiy global kasalliklar va shikastlanishlarning 5,1 foizi ichkilikbozlik bilan bog'liq holda ro'y berishi aniqlangan²⁴⁵.

Ichkilikbozlikka mukkasidan ketish inson hayotining dastlabki davridayoq o'limga olib keladi. 20-39 yoshda bevaqt hayotdan ko'z yumayotgan o'limlarning taxminan 25 foizi ichkilikbozlik oqibatida ro'y bermoqda. Zararli spirtli ichimliklar iste'mol qilish bilan qator ruhiy va xulqiy izdan chiqishlar, boshqa yuqumli bo'lmagan sog'liqning buzilishi va turli shikastlanishlar o'rtasida sabab-oqibatli aloqalar mavjuddir. So'nggi o'n yilliklarda sil, shuningdek OITV/OITS (odamning immuntaqchillik virusi/ orttirilgan immuntaqchillik sindromi) kabi o'ta xavfli kasalliklarning kechishi bilan ichkilikbozlik o'rtasidagi o'zaro ta'sirli aloqalarning mavjudligi bugun hech kimga sir emas. Bundan tashqari, zararli spirtli ichimliklar iste'mol qilishning sog'liq uchun zarari nafaqat alohida olingan odamlarga, balki, butun bir jamiyatga juda katta sotsial va iqtisodiy ziyon yetkazmoqda.

Surunkali ichkilikbozlik natijasida bir necha yuz yillardan buyon spirtli ichimliklar ruhiy faol modda sifatida ichkilikbozlarni o'ziga qaram

²⁴⁵Данные из доклада ВОЗ о положении в области алкоголя.Употребление алкоголя//Информационный бюллетень №349, январь,2015 г.//<http://who.int/mediacentre/factsheets/fs349/ru/>.

bo'lib qolishiga olib keldi. Ichkilikbozlik odamlar va jamiyatga turli yo'llar bilan salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir iste'mol qilinayotgan spirtli ichimlik hajmi, uni iste'mol qilishning turi, ba'zi holatlarda uning sifati bilan aniqlanadi.

Ichkilikbozlik natijasida qator xavfli kasalliklarning kelib chiqishi bir necha yuz yilar ichida o'z isbotini topdi: spirtli ichimlik inson organizmining turli organlarini izdan chiqarishi, jamiyatda o'limlar hissasini ko'paytirishi, tajovuzkorlikka moyillikning paydo bo'lishi; muntazam mastlik oilani barqaror yashashiga xavf solishi (o'zaro janjallar, moddiy va iqtisodiy taqchilliklar); jiddiy sotsial va ortiqcha chiqimlar va xarajatlarni kelib chiqishi (ichkilikka ruju qo'yish oqibatida huquqbuzarlik va maishiy jinoyatlar, yo'l-transport hodisalari, mehnat qobiliyatini yo'qolishi, mehnat unumdorligini keskin tushib ketishi).

Tadqiqotlardan ma'lumki, spirtli ichimliklarga ommaviy tarzda ruju qo'yish ko'proq daromadi va sotsial axvoli past bo'lgan odamlar uchun xosdir. Spirtli ichimlik iste'mol qilish go'yoki ruhiy keskinlikni yumshatish, turmushdagi qiyinchiliklar va ruhiy yetishmovchiliklarning o'rmini to'ldirish funksiyalarini bajaradi. Yana shunday illat aniqlanganki, odamning moddiy farovonligi oshib borgani sayin spirtli ichimliklar sotib olish xarajatlari ham o'sib boradi. Inson madaniy darajasining past bo'lishi ham spirtli ichimlikka ruju qo'yishga moyillikni oshiradi. Shuningdek, yirik sanoat markazlarida qishloqdagi aholiga qaraganda ko'proq spirtli ichimlik iste'mol qilinadi. Ichkilikbozlik turli ijtimoiy qatlamlarda turlicha shakllarda rivojlanadi yoki kamayadi. Ishchilar qatlami o'rtasida mehnat malakasining o'sishi va ish haqining kamayishi bilan ichkilikbozlik darajasi kamayib borgan.

Jahonda global spirtli ichimliklarni iste'mol qilish statistikasi bilan Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BSST) shug'ullanadi. Mazkur tashkilot bu sohada har besh yilda bir marta tadqiqot o'tkazadi. Bu mavzu bo'yicha oxirgi tadqiqot 2014-yilda o'tkazilib, u BSST tomonidan e'lon qilingan.

Yevropada ichkilikbozlik muammolari. Yevropa an'analari ichkilikbozlikka berilgan odamlarga nisbatan «ichkilikbozlik kasali» (alkogolik) tamg'asini yopishtirish mavjud emas. Lekin, bu kabi odamlarga nisbatan «alkogoldan muammolari mavjud odamlar» degan ibora ishlatiladi. Yevropada bu kabi muammoga ega odamlar barcha aholining 10-15 foizini tashkil etadi. Yevropada ichkilikboz odamlar narkologik ro'yhatga olinmaydi. Shuning uchun ichkilikbozlik kasaliga chalinganlar foizini bizning

tushunchamiz bo'yicha aniqlab bo'lmaydi. Lekin Yevropa aholisi dunyodagi eng ko'p spirtli ichimlik ichuvchi aholi, deb hisoblanadi. Mantiqan olib qaraganda, ichkilikbozlar ko'p mamlakatlarda odamlarning hayot kechirish umri qisqaroq bo'lishi lozim. Lekin statistik ma'lumotlarga bu omillar bilan qattiq bog'liqlik ko'zga tashlanmaydi. Bu mintaqada ichkilikbozlik bevosita emas, balki bilvosita ta'sir qiladi: odamlar hayot darajasi; spirtli ichimliklar iste'mol qilish madaniyati; aholi ko'proq iste'mol qilayotgan spirtli ichimlik turi; ichkilikboz odamlarga (alkogoliklarga) nisbatan munosabat.

Umum qabul qilingan fikrlarga binoan ichkilikbozlik past maqomli, past ta'lim darajasiga ega, oz daromad oladigan odamlar uchun xos illat hisoblanadi. Darhaqiqat, ichkilikbozlik jamiyatning farovon hayot kechirayotgan a'zolariga ham ancha shikast yetkazadi. Bunga shou-biznes va ko'ngil ochar industriya sohasida xizmat qilayotgan odamlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Lekin, bu kabi holatlar ko'lami unchalik keng emas. Yuqori hayot darajasi yaxshi ish haqi, muayyan majburiyatlar, tegishli tanish-bilishlar doirasi bilan qorishib ketadi. Bu omillar birgalikda ichkilikbozlikni kuchayishiga yo'l bermaydi.

Ichkilikbozlik uzoq vaqt pivo, vino va boshqa ichimliklar ta'sirida ham shakllanib borishi mumkin. Lekin, o'tkir spirtli ichimliklar tezlik bilan ichkilikbozlikni rivojlantiradi, uni tajovuzkorona tarzda ro'y berishiga olib keladi. Masalan, Moldova spirtli ichimlik ichish bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakat bo'lsada, uning aholisi uzoq umr ko'rish bo'yicha ham eng peshqadam mamlakatlardan biri hisoblanadi. Albatta, bunda barcha Yevropa mamlakatarida bo'lganidek, iste'mol qilinadigan asosiy spirtli ichimlik aroq emas, balki vino bo'lganligi uchun ana shunday nomutanosiblik mavjuddir. Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida ichkilikbozlar ancha insoniy munosabatlar ta'sirida yashaydi. Shu maqsadda nomlari sir tutiladigan ichkilikbozlar guruhleri tashkil topgan bo'lib, ular ichkilikbozlar o'rtasida turli treninglar va psixoterepevtik mashqlar va o'qishlar o'tkazadi, ichkilikbozlar ham jamiyatga kerak ekanligini anglatishga oid tadbirlar o'tkazib turadi. Bu guruhlar ichkilikbozlarni ishga joylashishiga, oila qurishiga ko'maklashadi, qiyin vaziyatlarda ularga yordam qo'lini cho'zadi. Shuning uchun ham ichkilikbozlik muammosi Yevropada birinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi.

Lekin, Rossiyada ahvol sal boshqacharoq. BSST ma'lumotlariga binoan Rossiya aholisining 20 foizi spirtli ichimliklar iste'mol qiladi (bu mamlakatda o'tkir ichimlik — aroqning mavqei yuqoriroq hisoblanadi).

Agar Fransiyada konyak millilitrlarda o'lichansa, Rossiyada aroq yarim va bir litrlik shisha idishlarda (butilkalarda) hisoblanadi²⁴⁶.

BSST reytinglariga binoan an'anaviy tarzda Yevropa spirtli ichimlik iste'mol qilish bo'yicha peshqadamlik qilsa ham bu sohada har bir mamlakatlarning o'ziga xos jihatlari mavjuddir. 2014-yilda e'lon qilngan ma'ruzaga asosan jahonda aholisi yiliga eng ko'p spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan birinchi o'nta mamlakatga quyidagilar kiradi:

- 1) Moldova kishi boshiga 18,22 l.;
- 2) Chexiya kishi boshiga 16,45 l.;
- 3) Vengriya kishi boshiga 16,27 l.;
- 4) Rossiya kishi boshiga 15,76 l.;
- 5) Ukraina kishi boshiga 15,60 l.;
- 6) Estoniya kishi boshiga 15,57 l.;
- 7) Andorra kishi boshiga 15,48 l.;
- 8) Ruminiya kishi boshiga 15,30 l.;
- 9) Sloveniya kishi boshiga 15,19 l.;
- 10) Belarus kishi boshiga 15,13 l.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bu ko'rsatkich bo'yicha quyidagi o'rinlarni egallaydi: 18 o'rin — Fransiya (12,2 l). 23 o'rin — Germaniya (11,8 l). 25 o'rin — Buyuk Britaniya (11,6 l). 42 o'rin — Niderlandiya (9,9 l). 48 o'rin — AQSh (9,2 l). 141 o'rin — Isroil (2,8 l). Bu sohada eng oxirgi o'rinlarni quyidagi musulmon aholisi yashaydigan mamlakatlar egallaydi: Quvayt, Liviya, Mavritaniya, Pokistan (188-192 o'rinlar).

Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish darajasi bo'yicha MDH mamlakatlari 188 mamlakat ichida quyidagi o'rinlarni egallaydi: Moldova 1-o'rin - (18,2 l., jahonda 1-o'rinda); Rossiya 2-o'rin - (15,7 l., jahonda 4-o'rinda); Ukraina 3-o'rin - (15,6 l., jahonda 5-o'rinda); Estoniya 4-o'rin - (15,5 l., jahonda 6-o'rinda); Belarus 5-o'rin - (15,1 l., jahonda 10-o'rinda); Latviya 6-o'rin - (15,0 l., jahonda 12-o'rinda); Litva 7-o'rin - (12,5 l., jahonda 25-o'rinda); Armaniston 8-o'rin - (11,3 l., jahonda 31-o'rinda); Qozog'iston 9-o'rin - (10,9 l., jahonda 34-o'rinda); Ozarbayjoh 10-o'rin - (10,6 l., jahonda 38-o'rinda); Gruziya 11-o'rin - (6,4 l., jahonda 87-o'rinda); Qirg'iziston 12-o'rin - (5,1 l., jahonda 106-o'rinda); Turkmaniston 13-o'rin - (4,6 l., jahonda 114-o'rinda); O'zbekiston 14-o'rin - (3,5 l., jahonda 131-o'rinda); Tojikiston 15-o'rin - (3,4 l., jahonda 134-o'rinda)²⁴⁷.

Xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyoviy mamlakatlar ichida O'zbekiston Respublikasi sobiq ittifoq tarkibidan chiqib, o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin ichkilikbozlikni keskin chegaralashga muvaffaq bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

²⁴⁶Статистика употребления алкоголя в мире//<http://yatrezv.com/brosit/semya-i-obshhestvo/statistika-upotrebleniya.html>.

²⁴⁷Рейтинг стран мира по уровню потребления алкоголя. Гуманитарная энциклопедия//Центр гуманитарных технологий. (послед.ред.:07.07.2014)//<http://gtmarket.ru/ratings/rating-countries-alcohol-consumption/info>; Статистика употребления алкоголя в мире//<http://yatrezv.com/brosit/semya-i-obshhestvo/statistika-upotrebleniya.html>.

2011-yilda O‘zbekiston Respublikasining «Alkogol va tamaki mahsulotlarini tarqalishini va iste‘mol qilishni cheklash to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama qilish ta‘qiqlandi, alkogol va tamaki mahsulotlarini ta‘lim muassasalaridan 500 m uzoqlikdagi masofada sotish belgilandi. Shuningdek, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlarga sotish ham ta‘qiqlandi. Jamoat joylarida spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilishni keskin qisqartirish maqsadida 2016 yildan boshlab bu kabi xatti-harakatlar uchun jarimalar solish tartiboti kuchga kirdi. Agar bu kabi xatti-harakatlar yana qaytarilsa 15 sutkaga qamash belgilab qo‘yildi. Shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilish holatlarini televidenie va kinofilmlarda namoyish etganlik uchun jarima solishga doir qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Umuman O‘zbekistonda 2015-2020-yillarga mo‘ljallangan sog‘lom ovqatlanishni rag‘batlantirish maqsadida turli tadbirlar majmuini amalga oshirish mo‘ljallangan bo‘lib, unga binoan 2020-yilgacha spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlari iste‘mol qilishni 10 foizga kamaytirish mo‘ljallangan. Bu dasturni amalga oshirish uchun hukumat 1 mln.700 ming AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratishi ko‘zda tutildi²⁴⁸.

Hozirgi davrda O‘zbekiston mamlakati aholisi eng kam spirtli ichimliklar iste‘mol qiladigan mamlakatlar sirasiga kiradi. Albatta, bunday darajaga mamlakatda islom dini, milliy an‘analar va ma‘naviyatni qayta tiklanishi, o‘zbek xalqining o‘zini o‘zi anglash his-tuyg‘ularini shakllanganligi, xalq madaniyatining milliy qadriyatlar va milliy uyg‘onish natijasida yangi mazmunlar bilan boyib borishi, milliy tiklanish jarayonlarini kuchayishi natijasida erishildi. Shuningdek, mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining taboro chuqurlashib borishi ham o‘zbek xalqi mentalitetiga kuchli ta‘sir qildi. Mamlakatdagi ana shu tub o‘zgarishlar natijasida deviantlikning keng tarqalgan nohush turlaridan biri — ichkilikbozlikning ko‘lami keskin kamaydi va bu holat mustaqillik davriga kelib bir necha yillik tarixiy davrlarda shakllangan millatning o‘ziga xos xususiyati sifatida yana qaytadan tiklandi.

Narkotizm. Deviantlikning turlaridan biri — bu giyohvandlikdir. Bu tushuncha xalqaro tilda narkomaniya (yunon. nark — dong qotib qolish va mania — aqldan ozish, ishtiyiq) deb ataladi. Giyohvandlik — narkotik moddalarga ruhiy va jismoniy qaramlikni ifodalovchi, ularga nisbatan maylni yengib bo‘lmaydigan, organizmni ishdan chiqishiga olib keladigan

²⁴⁸Енисеев М.Узбекистан борется с алкоголизмом и курением//[http://inoz-press.kg/news /view/ id/ 48177.19.01.16](http://inoz-press.kg/news/view/id/48177.19.01.16).

og'ir darddir. Narkotik moddalarni iste'mol qilish tibbiyot yo'li bilan ham ro'y berishi mumkin. Bunda vrach ko'rsatmasi bilan og'riqni qoldiruvchi va uyqu keltiradigan dorilar iste'mol qilinadi. Turli narkotik dorilar yordamida odamlar o'z iztiroblari, vahimaga tushishi va horg'inligini bartaraf etadi. Narkomaniyaning biologik va sotsial ildizlari alkogoldan sarxush bo'lishga o'xshaydi, lekin uning oqibatida paydo bo'ladigan dard yanada kuchliroq yemiruvchilik xususiyatiga egadir. Narkotik moddalarni jamoaviy tarzda qabul qilish ba'zi madaniyatlarda (submadaniyatlarda) odat tusini olgan bo'lib, narkotik moddalar alkogolning o'rmini bosuvchi modda sifatida namoyon bo'ladi. Agar narkotik moddalarni vrach ko'rsatmasisiz o'zboshimchalik bilan iste'mol qilinsa, u holda bu notibbiy iste'mol deb ataladi. Bu kabi iste'mol qilish muayyan sotsial guruhlar o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, ba'zi mamlakatlarda ommaviylik tusini olgan.

Narkotik moddalarni notibbiy iste'mol qilishga intilish asosida kayfiyatni ko'taruvchi samara — yengillashtiruvchi, zavq-shavq keltiruvchi yoki kuchlilikni his etish yotadi. Lekin, narkoman bu «kayf» uchun narkotik moddani iste'mol qilishga jismoniy va ruhiy qaram bo'lib qolishdek qattiq va og'ir jazoga duch keladi. «Keskin o'zgarishga uchrash» oldida qo'rquv va sarosimaga tushish bangilarni narkotik izlash va iste'mol qilishni muntazam ravishda davom ettirib turishga majburlovchi muhim sababdir. Bu holat natijasida «qora bozor»da narkotik moddalarga ehtiyoj paydo bo'ladi, narkobiznes rivojlanadi. Narkobiznes eng daromadli biznes hisoblanadi.

Narkomaniya — odamlarning ba'zi qismini narkotik moddalarni iste'mol qilishini va unga tegishli ravishda tibbiy va sotsial-huquqiy oqibatlarga duchor bo'lishini ifodalaydigan, bir muncha keng tarqalgan, statistik jihatdan turg'un sotsial hodisa hisoblanadi. Narkomaniyaning vayronagarchilik oqibatlari tezda ro'y beradi, oxir-oqibatda narkoman jismoniy, ruhiy va sotsial tanazzulga uchraydi. Narkomaniya yoshlar o'rtasida ko'proq uchraydi. Narkomanlar ichida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 65–80 foizni tashkil etadi. Narkotik moddalarni qimmatbaho ekanligi va ularni bangilikdan jismoniy mahrum qilishning qiyinligi sababli narkomanlar ularni izlab topish yoki sotib olish uchun g'arazli va zo'ravonlik jinoyatlari qilish yo'lidan boradi.

Notibbiy ravishda narkotik moddalarni iste'mol qilish sabablari ichida turli sotsial, ruhiy, biologik omillarni uchratish mumkin. Lekin, ularning ichida eng asosiysi — bu sotsial sababdir: odamni nochor ahvolga tushib qolishi, uni jamiyatdan begonlashuvi, jamiyat e'tirof etgan vertikal sotsial

harakatchanlik yo'llari va vositalari miqdorini kamayishi, hayot mazmunini yo'qotib qo'yish, yechimni topish qiyin bo'lgan shaxsiy muamolarning paydo bo'lishi va hokazo.

Narkomaniya bilan *narkotizm* o'zaro uyg'un birlikdagi tushunchalardan biri bo'lsada, ular o'rtasida muayyan farqlanishlar ham mavjuddir. Narkotizm — narkotik moddalarning tarqalaganligi va ularni iste'mol qilishning sotsial hodisa sifatidagi tavsifidir. «Narkotizm» tushunchasining asl mazmunini ifodalashning murakkabligi quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

Birinchidan, narkotizm — bu o'z miqyosi bo'yicha kengligi va hodisa sifatidagi tavsifining birmuncha mavhumligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, narkotizm — murakkab, ko'p jihatli hodisa bo'lib, uning turli qirralarini har tomonlama o'rganish taqozo etiladi. U huquq, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot va boshqa fanlar o'zaro tutashgan tushuncha hisoblanib, ularning har biri tegishli ravishda o'z xususiy predmeti va tadqiqot usuli vositasida bu tushunchani talqin etadi (masalan, narkotik moddalarni iste'mol qilishni inson naslining jismoniy holatiga ta'siri uning tibbiy jihatlarini bo'lsa, shaxsning inqirozga uchrash darajasi bilan narkotik moddalarga ruju qo'yishga moyillik darajasining o'zaro bog'liqligi uning psixologik jihatini hisoblanadi).

Uchinchidan, narkotizm — jamiyat tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarini o'ziga qamrab olgan favqulodda sotsial hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Narkotizm doirasida narkotik moddalar bilan noqonuniy savdo qilish xatti-harakatlari, bu moddalarni bozorda tovar va xizmat ko'rsatish vositasida aylanma harakat qilishi, kimyoviy va biologik mahsulot sifatida kayf qilish holatini hosil etuvchi turli dorivor moddalar birikmasi sifatida iste'molga chiqarilishi, narkotik vositalar va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash jarayonlari amalga oshiriladi²⁴⁹. Shuningdek, narkotizm narkobiznes sohasini ham o'z ichiga oladi. Shu tariqa, narkotizmni tadqiq etishda narkotik moddalarga nisbatan uning iste'mol-motivatsiyaviy tabiatini va iste'mol qilishga haddan tashqari intilishning o'ziga xos xususiyatlari, individni iste'mol qilishga bo'ysundirishi kabilarga muhim e'tibor berish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Narkotizmning sotsial-psixologik sabablari. Narkotizmning narkotik moddalarni ommaviy notibbiy tarzda iste'mol qilinishidan iborat sotsial hodisa sifatida tarqalishi uni jinoiy taqib ostiga tushishiga, yoshlarni stigmalashishiga, ularning ma'naviy va jismoniy sog'lig'ini yo'qotishlariga

²⁴⁹Габияни А.А. На краю пропасти: Наркомания и наркоманы. - М.: Мысль, 1990. - С. 111-113.

olib kelmoqda. Bu muammolarni keltirib chiqaruvchilar nafaqat narkomanlar, balki, ular qatoriga onda-sonda narkotik va psixotrop moddalarni iste'mol qiluvchilarni ham qo'shish mumkin.

Narkotik moddalarni doimiy ravishda va onda-sonda iste'mol qilish tajribasiga ega bo'lganlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish natijalari shuni ko'rsatdiki, narkotik moddalarni yoshlar o'rtasida tarqalishi sotsial va psixologik omillarning hayotda doimiy ravishda paydo bo'lib turishi bilan tavsiflanadi:

1. *Ko'cha omili.* Narkotik moddalarni iste'mol qilish ko'pincha yoshlarning norasmiy muhiti bo'lgan «ko'chadagi do'stlar» bilan sotsial aloqalari paytida ro'y beradi. Bu fikr so'rovnomada ishtirok etganlarning 36 foizi tomonidan bildirilgan. Ko'cha muhiti o'smirlarning narkotik moddalarni iste'mol qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu dalil voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishlarida oila va boshqa ijtimoiy institutlar ta'sirini kuchaytirishni, o'smirlarning ko'chadagi foliyatini nazoratsiz qoldirib bo'lmasligini taqozo etadi.

2. *Qiziqish omili.* Yoshlar muhitida narkotik moddalarni iste'mol qilish motivatsiyasiyana ko'proq «odatdan tashqari va o'tkir his qilish»larga qiziqishdan paydo bo'ladi. Bu kabi fikrni so'rovnomada ishtirok etgan yoshlarning 27 foizi bildirgan.

3. *Gedonistik omil.* Bu omilga so'rovnoma ishtirokchilarining 15 foizi qo'shilgan. Gedonistik²⁵⁰ qarashlar ustunlik qilgan yoshlar narkotik moddalarni «lazzatlanish, kayf qilish, hushchaqchaq bo'lishga intilish»ga qo'zg'atish uchun iste'mol qiladi.

4. *Yengiltaklik omili.* Narkotik moddalarni dastlabki iste'mol qilishga ko'pincha yengiltaklik sabab bo'ladi. So'rovnomada ishtirok etgan yoshlarning 11 foizi o'zlarining yengiltakligi uchun narkotik moddalarni iste'mol qilganliklarini bildirgan. Bu holat yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, oila, maktab va oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

5. *Topishga oson erishish omili.* Narkotik moddalarni osonlik bilan topish yoki uni topish imkoniyatini paydo bo'lishi natijasida narkotik moddalarni iste'mol qilgan yoshlar so'rovnomada ishtirok etganlarning 10 foizini tashkil etgan. Narkotik moddalar bozorining va uni yoshlarga tavsiya etuvchilarning mavjudligi, albatta, talab bo'ladigan muhitga bog'liqdir. So'rovnoma natijalarini ko'rsatishicha, unda ishtirok etgan

²⁵⁰Gedonizm - [yunon. hedone lazzatlanish] - dastlabki Kiren falsafa maktabi (er.il.IV asr) tomonidan rivojlantirilgan etikaviy ta'limot: u oliy farovonlikdagi hayotning asosiy maqsadini lazzatlanish sifatida e'tirof etadi.

yoshlarning 60 foizi narkotik moddalarni «juda oson» va «qiynalmasdan» topganligini bildirgan. Bu sohada huquqni himoya qilish organlari faoliyatining kuchayib borishiga qaramay narkobozorni ildizi bilan quritishga erishish qiyin kechmoqda.

6. *Moda omili.* Muayyan yoshlar doiralari o'rtasida narkotik moddalarni, ayniqsa, uning «elita» qismini («jazavalisi», kokainni) iste'mol qilish moda sifatida tarqaldi. «Narkotik moddalarni iste'mol qilish moda bo'lgani uchun unga berildim», degan fikrni bildirganlar so'rovnoma ishtirokchilarining 11 foizini tashkil etgan. Shuning uchun ham bu sohada axborot-psixologik, tushuntirish va tarbiyaviy tadbirlarni kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida o'z yechimini kutmoqda.

7. *O'z shaxsini (e'tirof ettirish) namoyon qilish omili.* Yoshlar o'rtasida «o'zini sinab ko'rish xohishi»dan kelib chiqqan motiv asosida narkotik moddalarni iste'mol qilganlar so'rovnoma ishtirokchilarining 11 foizini tashkil etgan. Albatta, bu holat qadriyatli-timsoliy tabiatga ega bo'lib, uni barxam topishi uchun yoshlarning o'zini o'zi namoyon qilishlariga doir energiyalarini sarflashning muqobil yo'nalishlarini (sport, faol ko'ngil ochish tadbirlari, professional faoliyat, mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishish) tashviqot va targ'ibot qilishga katta e'tibor qaratish lozim²⁵¹.

BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tomonidan e'lon qilingan «2014-narkotiklar haqida ma'ruza»sida qayd etilishicha, narkotik moddalarni iste'mol qilishni tarqalish darajasining globalik muammosi o'zining yuqori turg'unligini saqlab turibdi. Boshqa mamlakatlarga qaraganda AQSh eng ko'p narkomanlar yashaydigan mamlakat hisoblanadi (jahondagi barcha narkomanlarning 56 foizi AQShda yashaydi). 2009 yilga kelib AQShda giyohvandlarning soni 17,5 mln.ga yetdi, bu ko'rsatkich AQSh aholisining 12 foizini tashkil etadi.

AQShdagi narkomanlar jahonda ishlab chiqarilayotgan narkotik moddalarning deyarli 86 foizini iste'mol qiladi. Mamlakatdagi o'g'rilik, bosqinchilik va odam o'ldirish kabi jinoyatlarning yarmiga yaqini giyohvandlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. AQSh narkomanlar ichida immuntaqchillik virusi bilan kasallanganlarning soni bo'yicha jahonda (Rossiyadan keyingi) ikkinchi o'rinda turadi

AQShda narkotik moddalarni nafaqat iste'mol qilish, saqlash, balki uni topishga harakat qilganlik uchun ham qamoqxonada o'tirishga to'g'ri keladi. Shu bilan bir vaqtda, bu kabi sotsial illatga qarshi tashviqot va targ'ibot choralari ham kuchaytirilgan. AQSh hukumati 2001-yildan

²⁵¹Самойлова Л. Наркотизм как социальная проблема//[http://www.referats.pro/sociology/42002-narkotizm-kak-socia](http://www.referats.pro/sociology/42002-narkotizm-kak-socia%20lna-ja-problema.html) Ina ja-problema.html.

boshlab Afg'onistonda narkotik moddalarni ishlab chiqarishga qarshi kurash uchun 7,6 mlrd. dollar hajmda mablag' ajratdi. Lekin, bu bilan muammo kamaygani yo'q. -

Xitoyda 2014-yilga kelib narkomanlarning soni 14 mln.taga etdi (1949-yilda bu ko'rsatkich 70 mln.ni tashkil etgani edi). Xitoy hukumatining ma'lumotlariga binoan sintetik narkotik moddalar ishlab chiqarish yiliga 36 foizdan o'sib bormoqda. Hozirgi davrga kelib Xitoyda narkotik moddalarni saqlash va sotishga qarshi juda ham qattiq qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, narkotik moddalar savdosini amalga oshirgan odamlar uchun o'lim jazosi belgilandi²⁵².

Afg'oniston mamlakati bir necha o'n yilliklar mobaynida narkotik moddalar ishlab chiqarishning asosiy manbai bo'lib turibdi. 2001-yilda bu mamlakat ekinzorlarining 40 foizida opium ko'knor urug'i ekilgan. Hozirgi davrga kelib bu ko'rsatkich 85 foizga ko'tarildi. U yerda olingan hosilning ko'pchiligi Markaziy Osiyo orqali Rossiyaga yuboriladi²⁵³.

Hozirgi davrda Afg'onistonda giyohvand moddalar olinadigan o'simliklar maydoni 224 ming gektarga etdi. Undan olinadigan xom ashyodan deyarli 6,4 ming tonna opium olinadi. BMT ma'lumotlariga binoan Afg'oniston bu sohada mutlaq yetakchi mamlakat hisoblanib, bu mamlakatda mana shu turdagi narkotik moddalarning 80 foizi ishlab chiqariladi. Hozir jahonda 210 mln. odam narkotik modda iste'mol qilayotgan bo'lsa, uning to'rtidan biri Lotin Amerikasi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Narkosavdoning kuchayishi xalqaro uyushgan jinoyatchilikning keskin oshishiga olib keldi²⁵⁴.

O'zbekiston Respublikasining jahonga giyohvand moddalar yetishtirishning asosiy markazi Afg'oniston bilan chegaradosh mamlakat bo'lganligi uchun ham bu sohada ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mustaqillik davrida O'zbekiston hukumatining narkotik moddalarni mamlakatga kirib kelishi va uni iste'mol qilishga qarshi izchillik bilan olib borgan chora-tadbirlari tufayli bu asr vabosini keskin kamaytirishga erishildi. 2000-yilning yanvar oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasining «Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. 2011-2015-yillarda narkotik moddalarni suiste'mol qilish va ularni noqonuniy savdosiga qarshi choralar ko'rish harakat

²⁵²Наркомания в крупнейших странах мира в 2014-2015 годах//<http://www.vrednye.ru/narkomaniya/narkoma-piya-v-sssr-i-v-sovremennom-mire.html>.


²⁵³Перенджиев А.США наносят вред Афганистану и потворствуют развитию наркотрафика.08.07.2016//<http://www.lawinrussia.ru/node/435347>.

²⁵⁴ООН:в Афганистане растет производство наркотиков//<http://www.aif.ru/society/safety/1380733>.

dasturini amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda giyohvandlikni keng tarqalishining oldi olindi. 2015-yilda 2016-2020-yillarga mo‘ljallangan shu kabi yana yangi dastur qabul qilindi.

Mamlakatda giyohvandlikka qarshi olib borilgan keskin kurashlar o‘z samarasini bera boshladi. 2015-yilning o‘zida sog‘liqni saqlash organlari hisobida turgan narkomanlarning soni 1474 taga (14692 tadan 13218 taga) kamaydi. Narkomaniya bilan dastlabki kasallanishning respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi har 100 ming aholiga nisbatan 2014-yilda 3,8 tani tashkil etgan bo‘lsa, u 2015-yilga kelib 2,9 taga tushdi²⁵⁵.

O‘zbekistonda hukumat va nodavlat tashkilotlar tomonidan giyohvandlikka qarshi olib borilgan kurash natijalari xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etildi. Jumladan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) e‘tirof etishicha, «O‘zbekiston bugungi kunga kelib narkotahdidga qarshi o‘zining barcha sotsial, iqtisodiy va siyosiy resurslarini ishga soldi. Bu mamlakatda narkotiklarni nazorat qilish doirasida narkotik moddalarga nisbatan talablarni kamaytirish va ularni noqonuniy savdosiga to‘siq qo‘yishga qaratilgan, har tomonlama o‘zaro muvofiqlashtirilgan yondashuvlardan foydalanilmoqda»²⁵⁶.



7.1-rasm. O‘zbekistonda 2005-2015-yillarda har 100 ming aholiga nisbatan narkomaniyani kamayish jarayoni

²⁵⁵Сокращение спроса на наркотики. Аналитический обзор//<http://www.ncdc.uz/ru/sokrashchenie-sprosa-na-narkotiki/analiticheskie-obzory/>.

²⁵⁶Информационный бюллетень о наркоситуации. Центральноазиатск. регион = Information bulletin on drug related situation the Central Asian region.ОБСЕ.-Т.: Baktria press,2015.-С.47.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida O'zbekistonda giyohvandlikni va uning savdosini keskin qisqartirishga erishildi. Hukumat tomonidan izchillik bilan giyohvandlikka qarshi olib borilgan kurash o'z samarasini berdi. Shuningdek, jamiyatdagi nodavlat notijorat tashkilotlar, keng jamoatchilik va fuqarolarning yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashining faollashuvi ham bu sohada erishilgan yutuqlarni qo'lg'a kiritishda muhim rol o'ynadi. Giyohvandlikka qarshi kurashning milliy va zamonaviy huquqiy asoslarining qabul qilinishi, ularni hayotda qo'llash natijasi o'laroq xalqimiz huquqiy ongida bu xavfli vaboni tag-tugi bilan yo'qotib tashlashga bo'lgan ishonch ruhi mustahkamlandi.

O'z joniga qasd qilish (suitsid). Deviant xulqning bu kabi fojiaiy shakliga doir muammolar ancha davlatlarda sir saqlanadi. Suitsid xulq (lot. sui — o'zini o'zi, caedere — o'ldirish) sotsiologiya fanida birmuncha odamlarning ixtiyoriy ravishda o'z hayotidan judo bo'lishidan iborat bo'lgan ommaviy va statistik turg'un sotsial hodisa sifatidagi deviant xulq sifatida qaraladi. Bu kabi vayronkor, o'zini o'zi tugatuvchi deviant xulqqa ega bo'lgan odamlarning aksariyati ruhiy jihatdan sog'lom bo'lsada, ular o'z hayotlari mazmunini yo'qotganligi natijasida ana shunday fojiaiy qarorga keladi. O'z joniga qasd qilish darajasi iqtisodiy inqirozlar va turg'unlik davrida ancha oshib ketadi. Shuning uchun XX asrning 90-yillari birinchi yarmida MDH davlatlarida o'z joniga qasd qilish ancha ko'paygan edi.

Deviatsiyaning boshqa turlari kabi o'z joniga qasd qilish ham keskin sotsial va iqtisodiy farqlanishlar va ular sur'atlarining o'zgarish darajalariga bog'liq holda ro'y beradi. Bu hodisa turli xalqlar va turli sotsial-demografik guruhlar o'rtasida noteng ravishda tarqaladi. Bu holat o'z joniga qasd qilishning sotsial tabiatiga doir dalillarni o'rganishga asos bo'ladi. Shuning uchun ham o'z joniga qasd qilish sotsial determinatsiyasi²⁵⁷ sotsiologik nazariyalar va uslublar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shuningdek, o'z joniga qasd qilish muammolari tibbiyot, psixologiya va huquq fanlarining ham tadqiqot predmeti hisoblanadi.

O'z joniga qasd qilish darajasi ko'pincha jamiyatning holatiga bog'liq holda kechadi va u jamiyatning sotsial, iqtisodiy va siyosiy holatining muhim indikatorlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham *E. Dyurkgeymning* (1858-1917) fikricha, o'z joniga qasd qilish ruhiy kulfatlar natijasida ro'y beradi. U o'z vatani Fransiyadagi rasmiy xronikalarni

²⁵⁷Determinizm - [lot. *determinare aniqlamoq*] — fan qonunlarida tasvirlangan tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning o'zaro sababli ravishda bog'langanligi va ularning ob'ektiv qonuniyatlarini e'tirof etishga doir falsafiy tushuncha.

tahlil etish asnosida shaxslarning ba'zi toifalari uchun o'z hayotidan kechish — boshqalarga nisbatan ajralib turadigan o'ziga xos hodisa ekanligini aniqladi. Shuningdek, Dyurkgeym o'z izlanishlarida protestantlar, o'ziga to'q odamlar, hali nikohdan o'tmaganlar o'rtasida ayollar, katoliklar, yahudiylar, kambag'allar va oilali kishilarga nisbatan o'z joniga qasd qilish ancha ko'proq ro'y berishini ochib berdi. U sotsial integratsiya iborasidagi farqlanishlar sabablarini tushuntirib berish asnosida mustahkam sotsial aloqalarga ega bo'lgan odamlar o'rtasida individualizmga berilish kuchli bo'lgan odamlarga nisbatan o'z joniga qasd qilishning juda ham kamligini aniqladi. *E. Dyurkgeym* o'rgangan jamiyatda erkaklar ayollarga nisbatan ustunlik qilib, ular ayollarga nisbatan ko'proq erkinlikka ega edi. Lekin, erkinlik o'zining ochiq-oydin ko'rinib turgan afzalliklarga ega bo'lishiga qaramasdan sotsial yakkalanib qolishga olib kelishi, uning oqibatida o'z joniga qasd qilishlarning ko'payishiga olib kelishi kuzatilgan. Shu tariqa, protestantlar ichida mustahkam sotsial aloqalarga ega bo'lgan katoliklar va yahudiylarga nisbatan o'z joniga qasd qilishga moyil odamlar ko'proq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, o'ziga to'q odamlarda erkinlik kambag'al odamlarga nisbatan ancha ko'p bo'lsada, lekin, ular ichida o'z joniga qasd qiluvchi odamlar hissasi ancha ko'p bo'lgan²⁵⁸. *E. Dyurkgeym* xulosa qilib, quyidagi fikrni bildiradi: «O'z joniga qasd qilish individning ichki xossasi emas, balki u odamlarni boshqaradigan tashqi sabablar oqibati bilan sodir bo'ladigan hodisadir»²⁵⁹.

E. Dyurkgeymning fikricha, o'z joniga qasd qilish — bu individual hodisa bo'lsada, uning sabablari sotsial munosabatlardan kelib chiqadi. Uning dastlabki sababi alohida olingan individlar (ulardan ba'zilarining bu fojeaga muayyan moyilligi bo'lsada) emas, balki jamiyatdan jamiyatga, guruhdan guruhga, dindan dinga rivojlanish jarayonida o'zgarib boruvchi sotsial kuchlardir. Hozirgi jamiyatlarda o'z joniga qasd qilishlarning o'sib borishi — bu patologiyadir. O'z joniga qasd qilishlar darajasi zamonaviy jamiyatdagi patologik sifatlarni aniqlab beradi. U raqobatlar kuchli bo'ladigan iqtisodiy inqirozlar davrida ro'y beradigan anomik o'z joniga qasd qilishlarni tahlil etish asnosida quyidagi xulosaga keldi: «O'z joniga qasd qilishlarni qisqartirishga na oila, na davlat va na dinning kuchi etadi». Individlarni jamoaga va integratsiyalashuvga jalb qilishga qodir bo'lgan birdan-bir guruh — bu kasbiy guruh yoki korporatsiyadir. Korporatsiya yollovchilar va yollanuvchilarni o'zaro jipslashtirish natijasida u individlarga juda ham yaqinlashib boradi, ularning nufuz va hokimi-

²⁵⁸ Мационис Дж. Социология. 9-изд.-Санкт-Петербург: ПИТЕР, 2004.-С. 27.

²⁵⁹ Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. СПб., 1982.-С. 3.

yatdan foydalanishiga yordam beradigan hamkorlik qilish va intizomga o'rganish maktabi vazifasini o'taydi. Alohida olingan inson — bu istak va intilishlar olamini o'zida mujassamlashtirgan odamdир. Shuning uchun ahloq va jamiyatning dastlabki burchi va ehtiyoji — intizomdir. Insonga oliy nufuzli va adolatli kuch yordamidagi intizomlilik, ya'ni o'ziga munosib bo'lgan mehr kerak. Ana shunday kuch individ hayot tarziga singib boradi, ularni o'ziga jalb etadi, jamiyatga mustahkam tarzda singib boradi.

Ko'rinib turibdiki, *suitsid* — hayotdan ongli ravishda voz kechishdan iborat bo'lib, u o'z hayotini tugatishga qaratilgan xatti-harakat bilan birga kechadigan hodisadir. Suitsid — xulqning deviant shakllaridir biridir. U o'zida ikki xil mazmuni kasb etadi: o'lishga qaratilgan xatti-harakatning ro'y berishi va o'ziga nisbatan boshqalarning diqqat-e'tiborini qaratish yoki ularda rahm-shavqat uyg'otishdir. Shundan kelib chiqib olimlar tugallangan va tugallanmagan tarzda o'z joniga qasd qilishlarni bir-biridan ajratdi.

Keyingi o'n yillikda suitsidlar uch martaga ko'paydi. Ularning aksariyatini 14 dan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. E.Dyurkgeymning asosida sotsiologik mezonlar yotgan tasniflashiga binoan xudbinlikdan va alturuistik²⁶⁰ tuyg'ulardan kelib chiqadigan o'z joniga qasd qilish shakllari ham mavjud. Xudbinlikdan kelib chiqadigan o'z joniga qasd qilish ko'pincha shaxsiy va oilaviy hayotdagi omadsizlik bilan bog'liqdir. Shaxsning ichida o'zining ko'plab muammolarining yig'ilib qolishi uni to'liq ravishda individullashishiga, faqat o'z xususiy istaklarini qondirishga intilishiga olib keladi. Istaklar imkoniyatlarga to'g'ri kelmay qolgan paytda hayot quvonchlari va jozibasi yo'qoladi, natijada unda o'z joniga qasd qilish vasvasasi paydo bo'ladi. Xudbinlik va alturuistik asosida o'z joniga qasd qilishlar butunlay bir-biriga qarama-qarshi mazmunga egadir. Birinchisining asosida individuallashish yotsa, ikkinchisi o'zini o'zi shaxs sifatida e'tirof etmay qolish tuyg'usi bilan bog'liqdir. Bu yaponlarga xos «xarakiri» kabi taomillar uchun tegishlidir. Bu xildagi o'z joniga qasd qilish ko'proq ehtirosi kuchli va energiyasi ko'p bo'lgan odamlarda uchraydi. Anomik tarzda o'z joniga qasd qilish jamiyatlar tanazzulga yuz tutgan, shakllangan shart-sharoitlar va tushunchalar xonavayron bo'lgan paytlarda ro'y beradi.

Jiddiy stress holatlari o'z joniga qasd qilish xavfini ancha oshiradi. Bu asosan quyidagilardan iboratdir:

²⁶⁰Altruizm - [fr. altruism] — faqat o'zini emas, balki boshqalar manfaati uchun g'amxo'rlik qiladigan, boshqalar uchun o'z manfaatlaridan kechishga tayyor bo'lish hodisasi hisoblanadi (hudbinlikning aksi va teskarisi).

- o'zida o'limga yoki nogironlikka olib keladigan kasallik paydo bo'lganligi to'g'risidagi xabarni olgan paytda;
- o'zi uchun sevimli bo'lgan, yoki bir necha o'z yaqinlarini yo'qotsa;
- er-xotin yoki yolg'iz qariyalar uchun muommolar tug'diradigan iqtisodiy inqirozlar boshlansa;
- oiladagi ajralish, kutilmagan homiladorlik, ishda yoki o'qishdagi yirik nifoqlar.

Ko'pincha o'z joniga qasd qilish muayyan xulqiy alomatlar paydo bo'lgandan keyin ro'y beradi:

- depressiya (davomli uyqusizlik, ishtahaning buzilishi, loqaydlik);
- bevosita muloqotlar paytida o'z atrofidagilarning so'zlarida o'limga doir shamalar bildirilganida (o'z joniga qasd qilish, san'at, adabiyot va musiqaga doir qayg'uli hazin xabarlar);
- begonalashish (jamoadan uzilib qolish);
- o'qishdagi muammolar (o'zlashtirishning pasayib ketishi, darslarga kelmay qo'yish va boshq.);
- ichkilikbozlik va narkotik moddalar iste'mol qilishga berilish;
- qo'zg'aluvchan xulq (uydan qochish, jinoyatchilik, beboshlik);
- tashqi qiyofa (kiyinishga befarqlik);
- aynanlashmagan xulq (kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi);
- o'z sog'lig'idan asossiz va dalilsiz holda shikoyat qilish;
- qimmatbaho buyumlarni ulashib yuborish.

O'z joniga qasd qilish haqida ko'p gapiradigan odam uni amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun uning so'zini inkor etmaslik lozim.

Bunda quyidagi dalillarga diqqat-e'tibor qaratish taqozo etiladi:

1. Odam qanchalik o'z joniga qasd qilishni qanchalik ishtiyoq bilan gapirsa, unda uni amalga oshish ehtimoli shunchalik ko'p bo'ladi.
2. O'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilishlar to'g'risida gapirish ular ongiga bu haqdagi fikrlarni olib kirishi mumkin.
3. O'z joniga qasd qiladiganlar odatda ruhan sog'lom odamlardir.
4. O'z joniga qasd qilish — bir emas, balki biridan ikkinchisiga o'tib turadigan bir necha ko'ngilsizliklar oqibatidir.

Jahonda har 16 minutda bir odam o'z joniga qasd qiladi. Har 38 minutda kimdir o'z joniga qasd qilishga urinib ko'radi. Har yilda statistik ma'lumotlar bo'yicha 1 mln. 100 ming, umuman taxminiy hisoblashlarga binoan 4 mln.dan ko'proq odam o'z joniga qasd qiladi. Sud ekspertlarining fikricha, ularning aksariyati «baxtsiz hodisadan halok bo'lish» (dorilarni haddan tashqari me'yorida ko'p iste'mol qilish, yo'llardagi falokatlar, balandliklardan o'zini tashlash va boshq.) deb baholansada,

aslida ular o'z joniga qasd qilish hodisalaridir. Rasmiy statistikaga binoan har yilda 350 ming xitoylik, 110 ming hind, 55 ming rus, 31 ming AQShlik, 30 ming yapon, 12 ming ukrain, 10 ming fransuz o'z joniga qasd qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) o'z joniga qasd qilishning 800 ta sababini ko'rsatib bergan. Ulardan keng tarqalganlari quyidagilardir: 41 % - noma'lum sabablar; 19 % - jazolanishdan qo'rqish; 18 % - ruhiy kasallik; 18 % - uydagi dilsiyohlik; 6 % - vahimali ehtirosalar; 3 % - pul yoki boylikdan ajralib qolish; 1,4 % - to'yib ketishdan charchash oqibati; 1,2 % - jismoniy kasalliklar.

Insoniyatga qasddan hayotdan ko'z yumushning 80 dan ortiq turi ma'lum. Ulardan eng ko'p tarqalganlari quyidagilardir: o'zini osish; vena qon tomirini kesish; o'q otish qurollaridan foydalangan holda; zahar ichish; yo'l-transport hodisasini uyushtirish²⁶¹.

JSST jahondagi barcha mamlakatlarni o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichi bo'yicha uchta guruhga bo'lgan:

1) O'z joniga qasd qilishning yuqori va eng yuqori darajasi bo'yicha (100 ming aholiga 20 dan ortiqroq o'z joniga qasd qiluvchi to'g'ri keladigan): Litva – 31,5; Koreya Respublikasi – 31,2; Gayana – 26,4; Qozog'iston – 30,0; Belorussiya – 25,3; Vengriya – 24,6; Yaponiya – 23,8; Latviya – 22,9; Xitoy – 22,2; Sloveniya – 21,9; Shri-Lanka – 21,6; Rossiya – 21,4; Ukraina – 21,2.

2) O'z joniga qasd qilishning o'rtacha darajasi bo'yicha (100 ming aholiga 10 dan 20 tagacha o'z joniga qasd qiluvchi to'g'ri keladigan): Finlyandiya – 19,3; Estoniya – 18,1; Fransiya – 16,3; Moldova – 17,4; Polsha – 14,9; Kuba – 12,3; Kanada – 11,3; AQSh – 11,8.

3) O'z joniga qasd qilishning past darajasi bo'yicha (100 ming aholiga 10 tagacha o'z joniga qasd qiluvchi to'g'ri keladigan): Avstraliya – 9,7; Germaniya – 9,5; Italiya – 6,3; Buyuk Britaniya – 6,9; Isroil – 5,8; O'zbekiston – 4,7; Gruziya – 4,3; Yunoniston – 3,5; Armaniston – 1,9²⁶². Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston o'z joniga qasd qiluvchi odamlarning soni jihatidan eng past darajada turadi. Bu holatga mustaqillik davrida milliy davlatning shakllanishi, demokratik jamiyat qurish islohotlari natijasi o'laroq erishildi.

Hozirgi davrda jahondagi mamlakatlar har tomonlama rivojlanib borishiga qaramasdan odamlarning o'z joniga qasd qilish hodisasi

²⁶¹Суицид. Причинны, классификация. 12-февраль 2014 г.// <http://gn24.net/publ/psychology-psychiatry/suitsid-prichiny-klassi-fikatsiya.html>.

²⁶²Статистика самоубийств//lossofsoul.com/DEATH/suicide/statistic.htm. 25.08.2016.

hanuzgacha ro'yi berib turibdi. Bu kabi fojiviy holatlar rivojlangan mamlakatlarda ham kamaygani yo'q. Iqtisodiy salohiyatning o'sib borishi natijasida erishilgan yuksak darajadagi farovonlik ham bu kabi deviant xulqni bartaraf eta olmadi.

Terrorizm. «Terror» termini lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, «terror» degani «qo'rquv» va «dahshat» so'zlariga yaqin keladi. Terror ilk bor siyosiy harakat usuli sifatida buyuk fransuz inqilobi davrida paydo bo'ldi va bu usuldan radikal inqilobchilar tomonidan siyosiy muholifatni repressiya qilish vositasi sifatida foydalanildi. Ko'rinib turibdiki, terror yoki terrorizm siyosiy muammolarni kuch ishlatish usuli bilan hal qilish usulidir. Terroristik harakatlarning maqsadi — hokimiyat, aholi, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillarini qo'rquvga soladigan usullar vositasida ta'sir o'tkazish yo'li bilan siyosatda o'zgarish qilishga erishishdir.

Terrorizmning tabiatiga nisbatan turli qarashlar paydo bo'ldi: terroristik faoliyatning janggari ko'rinishlaridan kelib chiqib qarash; kriminal; ijtimoiy-siyosiy. Birinchi qarashga muvofiq, terrorizm o'ziga xos qurollangan va jinoiy bosqinchilikka asoslangan xatti-harakat deb qaraladi va «past zo'riqishli qurolli mojar» deb ta'riflanadi. Ikkinchi qarash esa o'z diqqat-e'tiborini terrorizmning jinoiy ishlariga qaratadi va terrorizmni jinoyatchilikning keskin turi sifatida tasniflaydi.

Ijtimoiy terrorizm ancha chuqur ichki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar asosida paydo bo'ladi va u so'l va o'ng terrorizm ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. So'l, ya'ni inqilobiy yoki «qizil» terrorizm mafkuraviy jihatlardan turli so'l doktrinalarga tayanadi. Bu mafkuralarga marksizm, leninizm, trotskizm, anarxizm, maoizm kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. So'l terrorchilar asosan biznes vakillarini, davlat mansabdorlarini, milliy xavfsizlik organlari xodimlarini, hukumat bilan hamkorlik qilayotgan mustaqil mutaxassislarni, hokimiyat tepasidagi siyosiy partiyalar yetakchilarini nishonga oladilar. So'l terrorchilar odatda yashirin jangovar tashkilotlar tuzib, ularni xalqaro darajalarda muvofiqlashtirib boradilar. So'l terrorchilar asosan ichki inqirozlar keskinlashgan paytlarda faollashadilar.

O'ng (aksilinqilobiy, «qora») terrorizm millat uchun an'anaviy bo'lgan doktrina va qadriyatlarga, shuningdek, tarixiy jihatlardan esa o'tmishdagi milliy arboblarga tayangan holda faoliyat yuritadilar. Ular so'l terrorchilar tomonidan xavf tug'ilgan paytlarda qisqa muddatlar davomida faollashadi. O'ng terrorchilar asosan so'l va liberal siyosatchilarni nishonga oladilar. O'ng terrorchilar «qizil» terrorchilardan farq qilib, kamdan-kam hollar-dagina jangovar tashkilotlar tuzadilar. Ular asosan maxfiy o'ng radikal xarakterdagi jangovar guruhlar sifatida faoliyat yuritishni afzal deb biladi.

Millatchi terrorizm asosan etnik belgilar asosida amalga oshiriladi. Separatchi terrorizm millatchi-siyosiy ozchilik guruhlar tomonidan amalga oshirilib, ular o'zlari yashayotgan tarixiy hudud avtonomiyasini kengaytirish uchun kurashadilar. Ular siyosiy vaziyatlardan kelib chiqib o'ng yoki so'l mafkuralarga asoslanishlari mumkin.

Shuningdek, dunyoda keng tarqalgan terrorizm turlaridan biri, bu *diniy terrorizmdir*. Unga islom fundamentalistik terrorizmi, shuningdek, sikxlar, xristianlar, yahudiylar terrorizmi kabilar kiritish mumkin. *Fundamentalistik diniy terrorizm* turli ko'rinishlarda uchraydi. Jumladan, «*Ariy millat*» terrorchilari uchun protestantlik bir mafkura sifatida xizmat qilib, ular hukumatga va liberal g'oyalarga qarshi o'z g'oyalarini shakllantiradilar. Yahudiy fundamentalizmi («Kax») esa radikal g'oyalar asosida Isroil va yahudiylar xavfsizligini ta'minlash maqsadida faoliyat yuritadi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida islom fundamentalizmiga doir terrorizm turlari ko'paydi va ular keng tarqaldilar. Mazkur terrorizm turi radikal fundamental g'oyalar asosida, musulmon xalqlar yashaydigan mamlakatlarda islomning ilk davridagi shariat tartibotlarini o'rnatishga urinmoqdalar. Islom dinini o'ziga niqob qilib olgan bu fundamentalistlarning asosiy xuruj qilish nishonlari turli mo'tadil rejimlar, o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlar, dunyoviy tuzumda yashayotgan davlatlar, diniy ozchilik guruhlari, noislom rejimlar bilan hamkorlik qilayotgan davlatlar fuqarolari bo'lib qolmoqda. Bu kabi fundamentalistlarni kundalik hayotni ilk islom davridagi shariat me'yorlariga muvofiqlashtirishga intilishlar birlashtiradi.

Terrorchilarning yana bir kurash usullaridan biri, ular tomonidan *siyosiy arboblarni* (taniqli siyosatchilar, mansabdorlar, jurnalistlar, diplomatlar) olib qochish usulidan foydalanishdir. Bu kabi usuldan ular o'z siyosiy talablarini qondirish, hukmron doiralarni qo'rquvga solish, terroristik tashkilot faoliyati uchun mablag'larni o'g'irlash maqsadlarida foydalanadi.

Terrorchilarning asosiy kurash usullaridan yana biri *suiqasd uyushtirish* va *odam o'ldirishdir*. Bu kabi tajovuzlar qurolli guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu usul bilan terrorchilar o'z maqsadlariga muvofiq bo'lgan psixologik ta'sirlarni amalga oshiradi. Suiqasd uyushtirishda sovuq va yengil o't ochish qurollari, qo'l granatalari, minometlar va granatometlar ishlatiladi. Bu kabi tajovuzlar tajribali va malakali terrorchilar tomonidan amalga oshiriladi.

O'g'irlik ham ekstremistlarning terrorchilik faoliyatidagi asosiy vositalardan biridir. Bu kabi jinoyatlar terrorchilik tashkilotlarini faoliyat

yuritishi uchun mablag' yig'ish va tashviqot maqsadlarida amalga oshiriladi. Terrorchilarning yana bir tajovuzkorlik usullaridan biri xaydjeking - transport vositalarini (samolyot, temir yo'l poezdi, avtomobil, kemalar kabilar) egallab olishdir. So'l terrorchilarning binolarni egallab olish kabi usullari vositasida tajovuz qilish faoliyati Yevropada keng tarqaldi. Keyingi davrlarda terrorchilikning yangi turi — *kiberterrorizm* («kiber» — urush), ya'ni kompyuter shahobchalariga hujumlar uyushtirish usuli paydo bo'ldi. Bu terrorchilik usuli o'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lib, bu kompyuter shahobchalarini rivojlanishi, ularning ahamiyatini oshib borishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, jamiyatning rivojlanishi ham ko'p jihatlardan kompyuterlashtirish jarayonlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bundan foydalangan terrorchilar bu usul bilan o'zlariga qarshi bo'lgan siyosiy kuchlarga qarshi kurash olib borishni maqsad qilib qo'yanlar²⁶³.

Ekstremizm tushunchasi lotincha «*ashaddiy*» so'zidan olingan bo'lib, bu kabi dunyoqarashga ega bo'lgan kishi boshqacha qarashlar bilan umuman kelishmaydi va o'z qarashlarini amalga oshirish uchun eng so'nggi choralar — mavjud tuzumni keskin ravishda o'zgartirish, o'z qarashlarini kuch ishlatish yordamida singdirish, boshqacha fikrlaydigan kishilarni to yo'q qilishgacha bo'lgan amaliyotni qo'llaydi. Ekstremizm mafkuraviy jihatlardan olib qaraganda, barcha boshqa qarashlarni rad etadi. Bu oqim faqat o'zining siyosiy va diniy qarashlar tizimini tan olib, boshqa qarashlarni butunlay rad etadi. Ekstremistik tashkilot o'z yo'lboshchisining barcha buyruqlarini so'zsiz bajaradi. Shuningdek, diniy ekstremizm fundamentalistik va sektantlik oqimlariga bo'linadi.

Ko'pincha ekstremistik aqida va harakatlarning tarqalish hududlari ko'proq hali shakllanib ulgurmagan va jamiyat e'tiboridan chetda qolgan ijtimoiy guruhlar, shuningdek, lyumpenlashgan kishilarni o'z ichiga olmoqdaki, ular o'zlariga xos ekstremistik aqida va kuch ishlatish vositasida jamiyatda o'z o'rnini topishga va o'zlarini e'tirof ettirishga intiladi.

Terrorchilikning siyosiy hayot hodisalaridan biriga aylanishi, uning kuchayishi va shakllanishi XX asrning 60-yillar oxiri — 70-yillar boshlariga to'g'ri keldi. Lekin, terrorchilikni ilmiy jihatlardan jiddiy ravishda o'rganish faqat 70-yillar oxiri - 80-yillar boshlarida boshlandi. Ma'lumki, terrorchilikning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashlarda boy tajribaga ega bo'lgan, terrorizmga qarshi ashaddiy kurashchi bo'lgan AQSh da ham 80-yillarning boshiga qadar terrorizmning subyektlariga tegishli

²⁶³Qarang:Жаринов К.В.Терроризм и террористы:Ист. справочник.-Минск: Харвест,1999.-С.23-35.

bo'lgan axborotlarni yig'ish sohasida hech qanday faoliyat olib bo- rilmadi²⁶⁴.

Mustaqillik davriga kelib O'zbekiston qonunchilik tizimida terrorism tushunchalariga aniqlik kiritildi. 2001-yil boshlarda e'lon qilingan O'zbe- kiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qo- nunning 2-moddasi quyidagicha ifodalangan: «...*terrorizm* — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishiga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, axolini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar; *terrorchi* - terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs; *terrorchilik guruhi* — oldindan til biriktirib terrorchilik havrakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko'rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi; *terrorchilik tashkiloti* - ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi»dir²⁶⁵.

Dunyoning ko'plab mintaqalariga tarqalishga ulgurgan diniy terrorism va ekstremizmning kelib chiqishi va uning rivojlanishini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi chorak asrda bu terroristik ziddiyatlarning kuchayishi va zo'riqishi butunlay yangicha tarzda ancha shiddatli tus oldi. Shuning uchun ham 2001-yil 11-sentyabrdagi terrorismning AQSh ning Nyu-York va Vashington shaharlariga xuruji va hozirgi davrdagi «Islom davlati»ning Iroq va Suriyadagi kirdikorlari jahondagi siyosiy va demokratik kuchlarni bu «XXI asr vabosi»ga qarshi birlashishi zaruriyatini hozirgi davr kun tartibiga qo'ydi. Hozirgi kunda AQSh harbiylarining terrorismning tag-tomiri bilan yo'qotib tashlash maqsadlarida Afg'oniston- dagi terrorchilar lagerlari va bazalariga havo hujumlarining boshlanganligi va AQShning terrorismga qarshi qurashini 100 dan ortiq davlatlar qo'llab-

²⁶⁴Хайитматов З.М.Экстремизм ва террорчилик - инсониятта таҳдид.-Т.:Янги аср авлоди,2013.-Б.7-16.

²⁶⁵Ўзбекистон Республикасининг “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги Қонуни.-Халқ сўзи,2001,20 янв.

quvvatlab chiqqanligiga e'tibor bersak, nihoyat terrorizm havfini bartaraf etish uchun keng ko'lamdagi xalqaro harakatlar boshlanganligining guvohi bo'lamiz.

Terrorizm va ekstremizm qaysi mintaqalarga yoyilgan bo'lsa, o'sha erda narkotik moddalarni yetishtirish, iste'mol qilish, undan millionlab, hattoki milliardlab dollarlik hajmida foydalar olish avj olishi bugun hech kimga sir emas. Narkotik moddalar yetishtirish va ishlab chiqish terrorizmning keng tarqalishi va avj olishiga mutanosib ravishda ko'payib bordi.

Hozirgi davrga kelib jahondagi barcha diniy ekstremistlar o'zaro birlashishga harakat qilmoqda. Shuningdek, terrorchi guruhlar endi bir davlat hududida emas, balki, u birdaniga bir necha davlatlar hududlarida o'zini namoyon qilmoqda. Shu tariqa har bir terrorchi guruxi o'ziga xos xalqaro harakat tusini olmoqda. Faktlar ko'rsatib turibdiki, endi terrorchilik harakatlari tarkibini fuqaroligi, dini, millati, yoshi, jinsidan qat'iy nazar ashaddiy jinoyatchi, ekstremistik ruhdagi guruhlar va turli kriminal shaxslar tashkil etmoqda. Iroq, Suriya, Turkiya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Ispaniya, Filippin, Indoneziya kabi mamlakatlardagi terroristik aktlar fikrimizga dalil bo'la oladi²⁶⁶.

Jahondagi turli mamlakatlar olimlari tadqiqotlari va tahlillari islom ekstremizmini kompleks tadqiqot etish uchun qator umumiy jihatlarni shakllantirish imkonini beradi. Ular asosan quyidagilardir:

- diniy ekstremizm o'zida tarixan yana takrorlanib turish xarakteriga ega bo'lgan, lekin har doim ham agressiv shakllarda namoyon bo'lavermaydigan ashaddiy islom fundamentalizmini o'zida ifodalaydi;

- diniy ekstremizming ijtimoiy bazasi asosan turli tuman ruhiy larzalar va ijtimoiy inqirozlar hisoblanib, ekstremizm ana jarayonlarning oqibati, keyinroq esa ana shu vaziyatni keyingi rivojlanish omili sifatida namoyon bo'lmoqda;

- diniy ekstremizm qayta tiklash va qayta o'sib chiqish ijtimoiy bazalariga ega bo'lib, transnatsionallik xarakterini kasb etmoqda. Lekin u butunlay yaxlit mafkura sifatidagi holatini doimo saqlagan holda ekstremizmning siyosiy maqsadlari va ularni amalga oshirish faoliyatlari u yoki bu tuzilmalar vositasida harakat qilishi aniq namoyon bo'lmoqda;

- diniy ekstremizmning tarqalishi odatda ko'proq lokal inqiroz muhitini paydo qiladigan ichki va mahalliy sabablarga bog'liq bo'lmoqda. Shu bilan bir vaqtda, uning qurolli faolligini kengayishi aksariyat holatlarda

²⁶⁶Batafsilroq qarang: Профилактика (предупреждение) экстремизма и терроризма. Методическое пособие для пропагандистов. Под общей ред. Л. Н. Панковой, Ю. В. Таранухи. - М., Университетская книга, 2010. - С. 312.

tashqi shart-sharoitlar va omillar (ularning xalqaro markazlari yordamida) ta'sirida kechishi ko'zga tashlanmoqda;

- terrorizm va ekstremizm qaysi mintaqalarga narkotik moddalarni yetishtirish, iste'mol qilish keng yoyilgan bo'lsa, o'sha hududda o'zining chuqur ildizlariga ega bo'lmoqda. Chunki, ular faoliyatining asosiy iqtisodiy manbasi narkotik moddalarni yetishtirish va sotish hisoblanadi. Hozirgi davrda jahonda yetishtirilayotgan narkotik moddalarning deyarli to'rtinchi qismi Afg'oniston hissasiga to'g'ri kelishi — fikrimizning dalilidir.

Terrorchi tashkilotlar har bir shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi o'rniga mavjud tizim asoslarini vayron qilish, uning o'rniga hayoliy loyihalarni amalga oshirish kabi primitiv da'vatlarni amalga oshirish shaklida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, ekstremistik guruhlar islom tarixi va falsafasini chuqur o'rganish kabi mashaqqatli mehnat va izchillik bilan diniy dunyoqarashini takomillashtirish o'rniga diniy manbalardagi «kofirlar» va «munofiqlar»ga qarshi kurashga doir asosiy matnlardan uzib-yulib olingan parchalarni bir-biriga sun'iy ravishda bog'lagan holda yoshlar o'rtasida keng tashqiqot qilishga harakat qilmoqda.

Keyingi o'n yilliklarda ekstremistik guruhlarining yoshlarni, xususan voyaga yetmaganlarni o'ziga jalb etish uchun ilgari surayotgan mafkuraviy talqinlari asosan quyidagilardan iborat bo'lib qolmoqda:

- dunyoviy jamiyat va an'anaviy islom qadriyatlariga dushman ko'zi bilan qarash, ularga qarshi ekstremistik va terrorizm usullari bilan kurash ustuvorligini ilgari surish;

- dunyoviy davlatlarning «zulmi», «adolatsizligi», ularning diniy aqidalarda keltirilgan davlat tuzumiga hech bir aloqasi yo'qligi, shuning uchun ular o'rniga xalifalik tuzumini o'rnatish;

- mavjud siyosiy tizimlarga muqobil ravishda shariat asosida faoliyat yuritadigan hokimiyat tizimlarini shakllantirish, ularni nafaqat ma'muriy, balki ruhiy-huquqiy vakolatlarini amalga oshirishlarini ta'minlash.

Shu bilan birga, terrorchilarning yoshlarga unumli ta'sir etayotgan vositalaridan biri — bu Internet tarmog'i bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sababi — Internet tarmog'i vositasida yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar ongiga oson yo'l bilan kirish, kommunikatsiyani yashirin tarzda ta'minlash, bu tarmoqni davlat organlari tomonidan muvofiqlashtirishning qiyinligi, axborotlarni uzatishning yuqori tezlikda amalga oshirilishi, tarmoqlarning global ahamiyat kasb etayotganligi va multimediyaga imkoniyatlarining arzonligi kabi imkoniyatlarning mavjud ekanligidir.

Ekstremistik resurslar psixologik urush, jumladan, chalg'ituvchi axborotlar berish, qo'rqitish, hiyla nayranglar bilan yoshlar ijtimoiy ongiga

ta'sir qilish, turli tushunchalar va faktlarni soxtalashtirish kabi vositalardan keng foydalanmoqda. Shuningdek, terrorchilik harakatlari yangi a'zolarini yollash, o'z tarafdorlarini ko'paytirish kabi maqsadlarini ham Internet tarmog'i vositasida amalga oshirishga urinmoqda.

Hozirgi davrda Internet tarmoqlaridan barcha terrorizm usullari asosida harakat qilayotlan tashkilotlar foydalanmoqda. Internet tarmoqlarida ekstremistik va terrorizm xarakteriga ega bo'lgan saytlarning soni 8 mingdan oshib ketdi. Ularning 200 ga yaqini rus tilida, o'nlab saytlarda esa o'zbek tilida o'z ekstremistik qarashlarini bayon qilmoqda²⁶⁷.

Hozirgi davrda mamlakatda voyaga yetmaganlarni ekstremistik va terrorchilik oqimlar ta'siridan saqlash fuqarolik jamiyati qurish kafolatlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kelajak yoshlar qo'lida ekanligini e'tiborga olsak, bu sohadagi vazifalarning naqadar muhim ahamiyat kasb etishi namoyon bo'ladi.

2014-2016-yillarga kelib jahonda terroristik tajovuz va hamlalar juda ham ko'paydi. 2015-yilda Yevropada 211 ta terroristik akt ro'y berdi. Bu Yevropa Ittifoqi politsiya xizmatining ma'ruzasida keltirilishicha 2006-yildan buyon qayd etilayotgan statistik ma'lumotlar ichida eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. 2015-yilning o'zida Yevropa Ittifoqining oltita mamlakatida — Daniya, Fransiya, Yunoniston, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyada, Turkiyada, Germaniyada keng miqyoli terroristik aktlar yuz berdi. Buyuk Britaniyada 100 ta, Fransiya 72 ta, Ispaniyada 25 ta terroristik xurujlar kuzatildi.

2015-yilda jahon miqyosida ro'y bergan terroristik aktlar 35 foizga o'sdi. 2015-yilning o'zida 95 mamlakatda deyarli 13,5 ming turli terroristik hamlalar va tajovuzlar yuz berdi. Bular asosan Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Afrikaning g'arbiy qismidagi davlatlarda ro'y berdi²⁶⁸. Terroristik aktlarda har yilda yuz minglab tinch aholi halok bo'lmoqda.

Hozirgi davrda *Terrorizmning global indeksi* (The Global Terrorism Index) ishlab chiqilgan bo'lib, unda jahon mamlakatlarining terrorizm darajasi bo'yicha reytingi — ya'ni qaysi mamlakatda qanday miqyosda terroristik xurujlarga duch kelayotganligiga doir tadqiqotlar natijalari e'lon qilinib boradi. Bu indeks Avstraliyaning Sidney universiteti huzuridagi Iqtisodiyot va tinchlik instituti (The Institute for Economics and Peace) va AQShning Merilend universiteti huzuridagi Terrorizmni o'rganish

²⁶⁷Batafsilroq qarang:Сайт “Молодежь за Чистый Интернет”//<http://www.true-net.info/>.

²⁶⁸Терроризм как явление//<http://antiterrortoday.com/terrorizm/terrorizm-kak-yavlenie/8619-vlasti-ssha-chislo-teraktov-v-mire-vozsrolo-v-2014-godu-na-35>.

bo'yicha milliy konsorsium tomonidan keyingi o'n yil ichidagi 100 mingdan ortiqroq ro'y bergan terroristik aktlarni tahlil etish asosida ishlab chiqilgan. Universitet mutaxassislari fikricha, «terrorizm — noqonuniy tashkilotlarning o'z siyosiy, ijtimoiy va diniy maqsadlarini kuch ishlatish va qo'rqitish yo'llari bilan amalga oshirishga qaratilgan amalda zo'rlik bilan kuch ishlatishi yoki tahdid qilishidir».

Terrorizmning global indeksi u yoki bu mamlakatning ichidagi terrorchilik faolligi darajasini to'rtta asosiy ko'rsatkich bo'yicha o'lchab beradi: terrorchilik hodisalarining soni; halok bo'lganlarning soni; jabr ko'rganlarning soni; moddiy zararining darajasi. Shuningdek, indeksni tuzishda terrorchilikning faollashuviga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi yana boshqa qator omillar ham e'tiborga olinadi. Indeks 162 ta mamlakat miqyosida ishlab chiqilgan.

Mazkur indeksga binoan terrorchilik keng miqyosda kuchaygan o'nta mamlakatga quyidagilar kiradi: Iroq — 10,0; Afg'oniston — 9,233; Nigeriya — 9,213; Pokiston — 9,065; Suriya — 8,108; Hindiston — 7,747; Yaman — 7,642; Somali -- 7,6; Liviya — 7,29; Tailand — 7,279. Bu indeksga binoan terrorchilik deyarli uchramaydigan, ya'ni indeksi nolga (0 ga) teng mamlakatlar qatoriga quyidagilar kiradi: Benin, Botsvana, Kosta Rika, Kuba, Finlyandiya, Gabon, Gambiya, Ekvatorial Gvineya, Gayana, Gaiti, Yaponiya, Janubiy Koreya, Lesoto, Litva, Latviya, Mo'g'uliston, Mavrikiy, Malavi, Namibiya, Oman, Panama, Papua-Yangi Gvineya, Polsha, Shimoliy Koreya, Katar, Ruminiya, Singapur, Serra-Leone, Salvador, Slovakiya, Sloveniya, Svazilend, Togo, Turkmaniston, Timor-Leshti, Urugvay, O'zbekiston, Vetnam, Zambiya.

O'zbekiston mamlakatining terrorchilik deyarli uchramaydigan mamlakatlar qatoriga kirishiga keyingi o'n yillikda hukumat va huquqni himoya qilish organlarining olib borgan sa'yi harakatlari natijasi o'laroq erishildi. Shuningdek, xalq farovonligining yuksalishi, demokratik va milliy qadriyatlarning keng darajada yoyilishi, mamlakat chegaralarining mustahkamlanishi, armiyaga zamonaviy qurollarni kirib kelishi, xalqimiz dunyoqarashidagi tub o'zgarishlar, aholi hushyorligini oshib borishi natijasi o'laroq mamlakatda terrorchilik ildizlarini tubdan quritishga erishildi.

Jinoyatchilik deviant xulq sifatida. *Jinoyatchilik* - bu deviant xulqning ko'rinishlaridan biri bo'lib, u sotsial hodisa hisoblanadi. Chunki, biron-bir shaxs o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tajovuzkorlik munosabatlariga kirishar ekan, u bu bilan jamiyatning yashashiga tahdid soladi, shu bilan birga, uning o'zi ham mazkur jamiyat a'zosi hisoblanadi. Albatta, jamiyatning yashashiga zarar keltiruvchi buzg'unchilikka faqat jinoyatlar

sabab emas. Bu kabi zararli kirdikorlar toifasiga ichkilikbozlik, fohishalik, narkomaniya kabilar, shuningdek turli axloqsizliklar ham kiradi. Lekin, barcha buzg'unchiliklar ichida jamiyat uchun eng xavflisi — bu jinoyatchilikdir. Shuning uchun ham *jinoyatchilik* — odamlar sotsial xulqining jamiyatni bir maromda yashashini buzishga olib keladigan shaklidir. Yana shuni qayd etish lozimki, jinoyatchilikni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlar ichida insonning jamiyat va davlat bilan sotsial munosabatlari va aloqalari namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar va aloqalar insonning sotsial maqomi — ma'lumoti, kasbi-kori, ijtimoiy faoliyatiga, shuningdek insonning shaxs sifatida jamiyatdagi holatiga, ya'ni uning huquqiga uzviy ravishda bog'liqdir. Ular shunday munosabatlarki, unda shaxs o'zini boshqalar bilan teng emasdek, xo'rlangandek his qilishi natijasida uning his-tuyg'ulari uni doimiy ravishda qandaydir noroziliklarga undaydi. Va nihoyat, bu holat jinoy xulqda o'z ifodasini topadi.

Aksariyat sotsiolog va psixolog olimlar «jinoyat»ni «jinoyatchilik» tushunchasining tayanch unsuri deb talqin etadi. Ba'zan jinoy harakatlar va uni amalga oshiruvchilarni ifodalash uchun delinkvent²⁶⁹ iborasi ham ishlatiladi. Jinoyatchilik va yuz bergan jinoyatlar o'zaro munosabatlari bir butunlik bilan uning qismlari, go'yoki, umumiylik bilan yagonalik o'rtasidagi o'zaro munosabatlardir. Jinoyatlar ro'y bermasa, ularning yig'indisi bo'lmasa, u holda jinoyatchilik ham sotsial-huquqiy hodisa sifatida yuz bermaydi, jinoy qonunchilik ham barham topadi. Jinoyatchilik — jinoyatlar tizimini tashkil etib, u boshqa tizimlarda bo'lganidek o'zining umumiy xususiyatlari va tamoyillariga, muayyan tizimlashishga olib keladigan aloqalari hamda qonuniyatlariga ega bo'ladi. Uning asosiy yashash qonuniyatlari, shuningdek jinoyatchilikning aksariyat sabablari barcha sotsial tizimlar uchun bir xillik ahamiyatini kasb etadi. Albatta, bunda farqlanishlar ham mavjud — davlatlarning iqtisodiy, sotsial va madaniy rivojlanish darajasi, milliy xususiyatlari va hayot tarzlari turlicha holatda bo'ladi (masalan, rivojlangan mamlakatlar, «uchinchi» dunyo mamlakatlari va hokazo). Hattoki, bir mamlakat ichidagi iqtisodiy, siyosiy, jug'rofiy, mafkuraviy, huquqiy jihatlar bilan bir-birlariga yaqin bo'lgan mintaqalardagi jinoyatchilik darajalari ham turlichadir. Umuman olganda, jinoyatchilik murakkab hodisalar sirasiga kiradi. Bu hodisalar og'irligi, qaysi hududlarda yuz berishi, jinoyat sodir etgan shaxsning tavsiflari kabilar bilan bir-biridan farqlanadi.

Jinoyatlar turlicha asoslanishlaridan kelib chiqib har xil guruhlariga bo'linadi. Ularni shu jihatdan tasniflash me'yoriy (qonunchilik) yoki

²⁶⁹Delinkvent - [lot. delinquens (delinquentis)] — qonunni buzuvchi, jinoyatchi, isyonchi.

doktrinal (ilmiy) tavsiflashdan iboratdir. Ko'pincha jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasi va tug'ilish obyekti bo'yicha tavsiflanadi. Yana boshqa tavsiflash mezonlariga binoan jinoyatni amalga oshirish uslubi, uni tugallanganlik darajasi, subyektining belgilari va subyektivlik jihatlari e'tiborga olinadi.

Jinoyatlarni guruhlash asosi sifatida ularning ijtimoiy xavflilik darajasi va tavsiflari keltiriladi. Jahondagi aksariyat mamlakatlar qonunchiligida bu asoslar bo'yicha jinoyatlar 2-3 turlarga bo'linib, *xavfsiz jinoyatlar* jinoyiy xatti-harakatlar deb ataladi. Bu xatti-harakatlar uchun kichikroq jazo choralarini ko'riladi. Chunki, ko'pincha ular jinoyiy mas'ullik bilan bog'liqlikdan boshqa noxush oqibatlariga olib kelmaydi (masalan, sudlanganlik).

Aksariyat mamlakatlar jinoyiy kodekslarida jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi aybdorlikning shakli va sanksiyalarda belgilangan jazolashlarning katta o'lchovlari bilan aniqlanadi. Masalan, Fransiyaning jinoyiy kodeksi 111-1-moddasida barcha jinoyiy kirdikorlar *jinoyatlar*, *jinoyiy xatti-harakatlar* va *qonunni buzishlarga* bo'linib, ulardan qaysi birini qo'llash jinoyat qasddan qilinganligi, yoki ehtiyotsizlik oqibatida bo'lganligiga bog'liq holda amalga oshiriladi (masalan, qonunni buzish — ehtiyotsizlik oqibatida yuz bersa jarima solish qo'llanadi, jinoyat sodir etish qasddan amalga oshirilsa umrbod yoki ma'lum muddat qamoqqa hukm qilish jazosi qo'llanadi). Ispaniyada jinoyiy xatti-harakatlar jinoyatlar va qonunni buzishlarga bo'linsa, Germaniyada ular jinoyatlar va aybdorlik xatti-harakatiga bo'linadi.

Shuningdek, turli mamlakatlarda jinoyatlarni turli darajalarga bo'lish o'zining og'ir va yengilligiga qarab jazolanishida bir-biridan farqlansalarda, ularning barchasi jinoyatlarni kamaytirishga qaratilgandir. Ularda jinoyatlarni baholash, ularni jazolash turlari, jazoni o'tash muddatlari, jinoyat sodir etgan muddatning eskirganligi kabi belgilar muayyan bir mamlakatning tarixi, milliy qadriyatlari, etnosotsial jihatlari, qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlariga xos ravishda tarkib topgan.

Har bir davlatda jinoyatchilik o'zining darajasi, o'zgarib turishi, strukturasi va boshqa belgilari bilan bir-birlaridan farqlanib turishiga qaramasdan jinoyatchilikning asosiy dunyoviy tamoyillari shakllandi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) jinoyatchilik har bir davlatda mavjuddir;
- 2) aksariyat mamlakatlarda jinoyatchilik o'sib bormoqda;
- 3) jinoyatlarning asosiy subyektlari erkaklardan iborat;
- 4) jinoyatlar strukturasi g'arazli maqsadlarda sodir etilgan jinoyatlar ko'p miqdorni egallaydi;

5) jinoyatga oid jazolarni keskinlashtirish va oshirish jinoyatchilikni kamaytirgani yo'q;

6) iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda jinoyatchilik kamaygani yo'q;

7) hozirgi davrga qadar jinoyiy-ijroiya tizimlari muassasalari o'zlarining tarbiyalovchilik rollarini to'liq bajara olgani yo'q;

8) jinoyatchilikning o'sish sur'atlari aholining o'sishi, iqtisodiy va madaniy rivojlanish sur'atlariga nisbatan yuqori darajada ro'y bermoqda;

9) jinoyatchilik ustidan sotsial nazoratni amalga oshirish darajasi asta-sekinlik bilan pasaymoqda, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'shashmoqda, shu bilan bir vaqtda, jinoyatchilikka qarshi kurash legitimlashib va insonparvarlashib bormoqda.

Jahonda aksariyat mamlakatlarning iqtisodiy-sotsial rivojlanishi va demokratiyalashuv darajasining o'sishi kabi omillar jinoyatchilikni kamayishiga ta'sir qilgani yo'q. Jinoyatchilikning nisbatan past darajasi faqat qattiq sotsial nazoratni yo'lga qo'ygan mamlakatlarda kuzatilmoqda²⁷⁰. Masalan, yettilikka kiruvchi mamlakatlarning o'zida jinoyatchilik darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. AQShda yuz berayotgan jinoyatlar Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiyadagi jinoyatlarning barchasidagidan ortiqroq miqdorni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda jinoyatchilikning o'sib borishi yiliga 2-4 foizni tashkil etmoqda. Ayniqsa, xususiy mulkka tajovuz qilish jinoyati o'sib bormoqda. Ularning barcha sodir etilgan jinoyatlardagi hissasi Germaniyada 70, Yaponiyada esa 90 foizni tashkil etmoqda.

AQSh va Buyuk Britaniyada zo'ravonlik vositasidagi jinoyatlar o'sib bormoqda. Mulikka doir jinoyatlar ichida o'g'irlikni hissasi kattaligicha qolmoqda. Angliyada odam o'ldirish hodisasi yiliga 700 tadan oshmagani holda, bu ko'rsatkich AQShdagi bu kabi jinoyatdan 35 marta kamroqni tashkil etadi²⁷¹.

Shuningdek, jahondagi aksariyat mamlakatlarda uyushgan jinoyatchilik xavfi ham pasaygani yo'q. *Uyushgan jinoyatchilik* — turli guruhlar birlashgan holda keng miqyosda amalga oshiriladigan, katta moliyaviy daromadlar oladigan, bozorlarni noqonuniy tovarlar va xizmatlar bilan egallab, o'z yashirin hokimiyatini o'rnatadigan faoliyatning murakkab jinoyiy turi hisoblanadi. Bu kabi jinoyat ba'zan davlat chegarasidan tashqarida ham o'z kirdikorlarini amalga oshira oladi. Uyushgan jinoyatchilikka

²⁷⁰Преступность как девиантное поведение//<http://student.zoomru.ru/psih/prestupnost-kak-deviantnoe-pove-denie/186268.1524054.s2.html>.

²⁷¹Современное состояние преступности в мире//<http://studopedia.org/5-50394.html>.

mafiyalashgan oilalar, professional, muayyan hududlarni nazorat qiluvchi tashkillashgan guruhlar kiradi.

BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining 2014-yilda e'lon qilgan ma'lumotlariga binoan jahondagi 219 ta mamlakat ichida har 100 ming odamga nisbatan qasddan odam o'ldirish hodisasining kamligi jihatidan yetakchilik qilayotgan o'nta davlatga quyidagilar kiradi: Lixtenshteyn, Monako, Singapur, Yaponiya, Islandiya, Gonkong, Quvayt, Fransiya Polineziyasi, Indoneziya, Shveysariya. Bu mamlakatlarda qasddan odam o'ldirish darajasi har 100 ming aholiga nisbatan faqat 0 dan 0,6 gachani tashkil etadi. Odam o'ldirish hodisasining ko'pligi jihatidan quyidagi mamlakatlar oldinda bormoqda: Sent-Kits va Nevis — 33,6, Svazilend — 33,8, Lesoto — 38, Yamayka — 39,3, Gvatemala — 39,9, Salvador — 41,2, Beliz — 44,7, Amerika Virginiya orollari — 52,6, Venesuela — 53,7, Gonduras — 90,4²⁷².

O'zbekistonda mustaqillik davriga kelib jinoyatning bu turini keskin kamaytirishga erishildi. Hukumat, huquqni himoya qilish organlari, no-davlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshirgan chora-tadbirlar, huquqiy madaniyatning yuksalib borishi natijasida qasddan odam o'ldirish darajasi keskin kamaydi. Bu ko'rsatkich hozirgi davrga kelib 3,7 ga tushdi.

Korrupsiya. Deviant xulqning turlaridan biri *korrupsiya* tushunchasi lotincha «*corruptio*» so'zidan olingan bo'lib, u ikkita o'zakdan iborat: — cor (yurak, qalb, ruh, idrok) va — ruptum (buzmoq, emirmoq, axloqsizlanish). «*Korrupsiya*» iborasi quyidagi ma'nolarni beradi: 1) yo'ldan urish, poraga uchirish; 2) aynish, tanazzul; 3) egrilik; 4) parokandalik, buzuqlik, ko'ngilsiz holat. Turli lug'atlarda «korrupsiya» iborasi quyidagi shakllarda talqin etiladi: korrupsiya — pora evaziga sotib olish, siyosiy arboblardan mansabdor shaxslarning sotqinligi; korrupsiya — shaxsiy boylik orttirish maqsadida xizmat vazifasi, u bilan bog'liq bo'lgan huquq va imkoniyatlardan to'g'ridan-to'g'ri, uyat-andishasizlik va shavqatsizlik tarzida foydalanish, mansabdor shaxslarning sotqinligi. Shuningdek, «korrupsiya» tushunchasi ayrim shaxslarning deviant xatti-harakati sifatida quyidagicha talqin qilina boshlandi: «korrupsiya — bu shaxsning tanazzulga uchrashi, ijtimoiy foydali mo'ljallarga intilishi bo'lmagan, ijtimoiy-zararli mo'ljal olish kasaliga yo'liqqan alohida olingan individning yoki muayyan sotsium ongining o'zgarishidir». Lekin, hozirgi davrga kelib korrupsiya talqinining quyidagi ifodasi keng tarqaldi: «xizmat vazifasidan shaxsiy

²⁷²Рейтинг стран мира по уровню преднамеренных убийств//<http://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/>.

foйда chiqarish uchun foydalanish» yoki «shaxsiy foyda olish niyatida ijtimoiy hokimiyatni suiiste'mol qilish» (*J.Senturiya*).

Korrupsiya hodisasining o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

1) korrupsiya subyektlaridan birining o'z xizmat vazifasidan foydalanishi («ijtimoiy» soha jihati sifatida);

2) shaxsiy, guruhiy, yoki korporativ foyda olish motivlarining mavjudligi («g'ayrirasmiy» soha jihati sifatida);

3) xatti-harakatning uyushgan tarzda yo'nalganligi (shaxsiy foyda olish bilan ijtimoiy manfaatlar o'zaro ziddiyati; «ijtimoiylik-g'ayrirasmiylik» o'zaro muholifligi).

Qadimiy tarixdan ma'lumki, korrupsiya davlat apparatining vujudga kelishi bilan bir vaqtda paydo bo'ldi. Antik Yunonistonda ilk bor korrupsiyaning iboraviy ma'nodoshi qo'llandi. Korrupsiyalashish — bu avvalambor, suvni buzish, mulkka o't qo'yish, boyligni sovurush ma'nosini berdi. Bir muncha vaqtdan keyin «*corrumpere*» iborasida sotsial ma'no paydo bo'ldi — axloqning inqirozga yuz tutishi, tartibning parokanda bo'lishi, erkinlikning buzilishi, yoshlarni axloqsizlanishi, yana shuningdek, jamiyatga va shaxsga tashqaridan zarar yetkazish kabi ma'nolarni bera boshladi. Korrupsiya faqat Rim huquqida yuridik shaklga ega bo'ldi. Misol tariqasida qadimgi Rim huquqidagi XII Jadval Qonunlarini keltirish mumkin (er.il.V asrda lotincha *leges duodecim tabularum*). Unga binoan, «*corrumpere*» iborasi sudda guvohlik berishning pulga almashishi va hakamlarni poraga sotib olishni anglatishi sifatida ishlatila boshlandi: «Nahotki, sen ishni muhokama qilishga tayinlangan, bu ishda pul haqini olishda fosh qilingan hakam yoki bitishtiruvchini qatl etadigan qonun qarorini berahmlik deb hisoblaysan?».

Korrupsiya aksariyat fanlarning tadqiqot obyekti sanaladi. Jumladan, korrupsiyani o'rganishning sotsiologik yondashuvlari mavjud:

- korrupsiya sotsiologik hodisa, jamiyat yashashining prinsiplari umum tizimli nuqtai nazariga binoan sotsial munosabatlarning ko'rinishlaridan biridir;

- korrupsiyani o'rganishning sotsiologik yondashuvlari asoslari *E.Dyurkgeym, G.Zimmel, M.Veber, T.Parsons, R.Merton, P.Berger* va *T.Lukman* kabi olimlar tomonidan yaratilgan;

- korrupsiya majruh norasolikdir, lekin yuz berishi muqarrar, doimiy ravishda jamiyat rivojlanishi izidan qolmaydigan hodisadir;

- korrupsiya sotsial tizimning funksiyalarini buzuvchi, ularga halaqit beruvchi, jamiyat me'yoriy tizimini izdan chiqaruvchi hodisadir;

- korrupsiyani yengish uchun qanchalik politsiyaviy usullar ishga solinmasin, bu vazifani ijtimoiy irodalar va «ijtimoiy gigiena»lar yordamisiz, ya'ni bu hodisaga nisbatan jamiyatning toqatsiz va murossasiz munosabatlarini shakllantirmasdan turib bajarib bo'lmaydi.

Shuningdek, korrupsiyani tahlil etishning *psixologik yondashuvlari* ham shakllandi:

- psixologiya fani o'zining asosiy e'tiborini o'zi haqidagi tasavvurlar, shaxslararo aloqalar va o'zaro ta'sirlarga oid tavsiflar tizimini belgilab beradigan, korrupsiya amaliyoti subyekti sifatida qator shaxsiy sifatlarni o'zida ifodalagan korrupsiya ishtirokchisining psixologik portretiga qaratadi;

- hozirgi davrda psixologiyaning uchta asosiy nazariy yo'nalishi mavjud bo'lib, ularning yordamida quyidagi korrupsiyaviy munosabatlarning sabablarini samarali ravishda tahlil etishga imkoniyat yaratildi: omilli nazariya, vaziyatli nazariya va kompensator²⁷³ nazariya.

Korrupsiyaga nisbatan etikaviy-madaniy yondashuvlar quyidagilardan iborat: bu yondashuvga binoan korrupsiya nafaqat siyosiy, sotsial, iqtisodiy, balki jamiyatning axloqiy va madaniy buzilishi (xudbinlikning kuchayishi, individual huquqiy ongning pastligi, noxush mentallikning paydo bo'lishi, siyosiy madaniyat darajasining pastligi va boshq.) natijasida tug'iladigan ma'naviy (ya'ni, ma'naviy qadriyatlardan maxrum bo'lgan) hodisadir.

Sotsiologiya va boshqa fanlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar korrupsiyani tarqalish sabablarining ko'p omilli modelini tavsiflashga imkon berdi. Uning sotsiomadaniy va siyosiy determinatsiyalashuvining muhim omillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- siyosiy tizimning to'liq demokratlashmaganligi, siyosiy mansablarga tayinlashlar amaliyotining keng qo'llanilishi, hokimiyat organlaridagi rahbar kadrlarni almashib turishini kamligi, mansabdorlar ustidan jamoatchilik nazoratining sustligi;

- fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanmaganligi;

- jamiyatda oshkoralikning chegaralanganligi;

- tashkiliy madaniyat darajasining pasayib ketishi («ikki yuzlamachilik» axloqining, jamiyatda va hokimiyat organlarida marosimlar va taomillarning keng tarqalishi);

- xushomadgo'ylik madaniyati va poraxo'rlik an'analarining mavjudligi;

- nomenklaturaning doimiy ravishda almashtirib turilmasligi: faqat bir xil an'anaviy boshqaruv pog'onalaridagina mansabdorlarning almashib turishi;

²⁷³Kompensator - [lot.compensare baravarlashtirish, tenglashtirish, o'rinni to'ldirish, badal berish].

- «yuqori maqomli» namunaning mavjudligi: past darajadagi mansabdorlar hokimiyatning yuqori bo'g'ini hayot tarzi va iste'moli namunalari (kottejlar, xorijiy avtomobillar, xorijda dam olish va boshq.) standartlariga ergashishi;

- boshqaruv mansabdorlarining ma'naviy qashshoqligi, uning ustiga kam oylik haqi olishi, bu holat bilan o'zini korrupsiyadagi ishtirokini «oqlash»ga moyilligi.

Hozirgi davrda har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish tarixida chuqur ildiz otgan korrupsiya quyidagi chora-tadbirlar vositasida kamaytirish tajribalari shakllandi:

- byurokratik apparatni kamaytirish, uning professionalligi, umumiy madaniyati va kasbiy etikasi darajalarini oshirish;

- boshqaruv qarorlari va rasmiyatchilikni qisqartirish yo'li bilan byurokratik o'zboshimchalikni cheklash, fuqarolarni qabul qilishning «bir oyna» amaliyotini qo'llash;

- davlat boshqaruv organlarining biznes faoliyatiga aralashuvini kamaytirish;

- fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar ijtimoiy faolligini rivojlantirish;

- ta'qiqlovchi me'yorlar hajmini ozaytirish (ta'qiqqlar va reglamentlash-tirish qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik mansabdor shaxslarga pora berish zaruriyati kuchayadi);

- boshqaruv apparati mansabdorlarini tanlovlar asosida ishga olish, institutsional organlar rahbarlarini saylash va tizimli ravishda muntazam ravishda almashib turish mexanizmlari va huquqiy asoslarini joriy etish;

- boshqaruvchi kadrlar ma'lumot darajasini va ularga qo'yilgan talablarni oshirish, ish haqlarini yaxshilash;

- huquqni himoya qilish organlarini mahalliy hokimiyat organlaridan mustaqilligini ta'minlash;

- boshqaruvchi mansabdorlar faoliyati oshkoraligini yo'lga qo'yish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- mamlakatda korrupsiya va jinoyatchilik darajasini kamaytirishga qaratilgan siyosat yo'lini muntazam ravishda olib borish, korrupsiyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirish;

- korrupsiyani amalga oshirishda ishtirok etgan shaxslarning sotsial va iqtisodiy maqomi qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'z jinoyati uchun jazolanishining muqarrarligi prinsipini amaliyotga joriy etish.

Jahondagi mamlakatlar o'rtasida korrupsiyaning o'zlashish indeksi Transparency International tomonidan ishlab chiqiladi. 2015-yil uchun

ishlab chiqilgan indeks 168 ta mamlakatni o'ziga qamrab olib, unda so'ngi ikki yillik manbalarning ma'lumotlari asos qilib olinadi. Indeks 0 dan (korrupsiyaning eng yuqori darajasi) 100 gacha (korrupsiyaning eng past darajasi) bo'lgan ko'rsatkich bo'yicha har bir mamlakat uchun tegishli bo'lgan korrupsiyaning nechog'liq o'zlashganlik darajasini belgilaydi. 2015-yilgi indeks bo'yicha korrupsiyaning eng yuqori darajasiga erishgan mamlakatlar sirasiga quyidagilar kiradi: Daniya (91), Finlyandiya (90), Shvetsiya (89), Yangi Zelandiya (88), Niderlandiya (87), Norvegiya (87), Shveysariya (86), Singapur (85), Kanada (83), Germaniya (81), Lyuksemburg (81) va Buyuk Britaniya (81). Eng past darajaga mansub mamlakatlar qatoriga quyidagilar kiradi: Gaiti (17), Gvineya-Bisau (17), Venesuela (17), Iroq (16), Liviya (16), Angola (15), Janubiy Sudan (15), Sudan (12), Afg'oniston (11), Shimoliy Koreya (8) va Somali (8)²⁷⁴.

O'zbekistonda mustaqillik davriga kelib korrupsiyani kamaytirish va tugatishga doir qator islohotlar amalga oshirildi. 2008-yilda O'zbekiston BMTning korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga qo'shildi. O'zbekiston 2010-yilda korrupsiyani kamaytirish maqsadlarida 2003-yilda tuzilgan Harakatning Istanbul rejasi xalqaro tashkilotiga a'zo bo'ldi. 2010-yilda Xalqaro va milliy huquq me'yorlariga asoslangan Korrupsiyaga qarshi kurashning Milliy rejasi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual Kodekslariga korrupsiyani sodir etgan va unda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan qator jazolar belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini takomillashtirish va demokratlashtirish maqsadlarida «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonun loyihasi ishlab chiqildi, O'zbekiston Respublikasining 2014-yilda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonun ommaviy axborotlardan erkin bahramandlik va ulardan foydalanishga oid xalqaro standartlar me'yorlarini implementatsiya qilish sohasidagi muhim qadam sanaladi. Xususan, Qonunda so'ralgan axborotni taqdim etishning yanada muxtasar muddatlari belgilandi, davlat organlari muntazam ravishda e'lon qilib borishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati, elektron so'rov imkoniyati nazarda tutildi. Shuningdek, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida» qonun qabul qilindi.

O'zbekistonda davlat organlari milliy qonun hujjatlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida qonunlar ancha takomillashtirildi.

²⁷⁴Transparency International: Индекс восприятия коррупции 2015. | Электронный ресурс // Центр гуманитарных технологий. 27.01.2016. URL // <http://gtmarket.ru/news/2016/01/27/7287>.

Chunonchi, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar subyektlari doirasini kengaytirgan qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, pora va'da qilganlik va taklif etganlik, g'ayriqonuniy tarzda boyluk orttirganlik, ta'sir doirasini suiiste'mol qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni, shu jumladan yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilovchi, shuningdek sudyalalar va deputatlarning xizmat rutbasidagi immunitetlarini belgilovchi huquqiy asoslar ishlab chiqildi.

Mamlakatda ommaviy ma'muriyat tizimiga elektron hukumatni joriy etish yuzasidan ham katta ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlat xizmatlaridan 7 tasini elektronlashtirish hamda davlat portallarini yaratish yuzasidan katta o'zgarishlar amalga oshirildi, uning portallarida ko'pgina ma'lumotlar, qonun hujjatlari hammaning emin-erkin foydalanishi uchun ochib qo'yildi. Me'yoriy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan muntazam ravishda o'tkazib turish an'anasi shakllandi. Shuningdek, biznes sohasidagi tartibsizliklarga chek qo'yish choralari ham amalga oshirildi. Jumladan, 2014-yilda O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimlarini joriy etish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish ishlari boshlandi. Savdo-sanoat palatasi tomonidan Biznes yuritish odobi kodeksi qabul qilindi. Ayni chog'da, kichik va o'rta biznesga (xususiy korxonalariga) ichki nazorat tizimini barpo etishida ko'maklashish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va qabul qilish rejaları qabul qilindi²⁷⁵.

Deviant xulqning yuqorida ko'rib o'tilgan noxush turlari sifatida xavfi kamroq bo'lgan yana qator sotsial og'ish turlari ham mavjud. Ularga fohishalik, qimor o'yinlari, fanatizm va boshqa deviant xulqlar kiradi.

7.3. Sotsial nazorat

Sotsial nazorat va uning mazmun-mohiyati. Jamiyat va davlatning tabiati shundayki, ular doimo o'zlari qabul qilgan qadriyatlar va axloq me'yorlarini nazorat qilish, muayyan sotsil tartibotni ta'minlab turish chora-tadbirlarini ko'rib boradi. Vaholanki, qadriyatlar va ahloq me'yorlari buzilgan jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Davlat va jamiyatning sotsial nazorat qilishiga doir nazariy qarashlar *O.Kont, E.Dyurkgeym, M.Veber, R.Park, P.Sorokin, T.Parsons, R.Merton, E.Ross* kabi sotsiolog olimlar tomonidan ishlab chiqildi. Shuningdek, jamiyatning sotsial barqarorligini

²⁷⁵ Абдуназарова Г.Коррупцияга қарши қаратилган ислоҳот: дастлабки яқунлар // http://gazeta.norma.uz/publish/doc/text121471_korrupciyaga_qarshi_qaratilgan_islohot_dastlabki_yakunlar.

ta'minlash va sotsial nazoratning samarali jihatlarini topishga doir turlicha nazariyalar yaratildi.

E.Dyurkgeym sotsial birdamlik tushunchasidan foydalangan holda jamiyatni nazorat qilishning ikkita usulini taklif etdi: ong bilan yo'naltirilmaydigan (mexanik) birdamlikni saqlab turish uchun *jazolar qo'llaydigan* (repressiv) huquq va uzviy (organik) birdamlikni ta'minlash uchun *tiklash* (restitutiv) huquqi. *R.Park* esa sotsial nazoratning uchta shaklini bir-biridan ajratib ko'rsatib berdi: *unsuriy (elementar) sanksiyalar, ijtimoiy fikr* va *sotsial institutlar*. *M.Veber* sotsial tartibotni ta'minlash asosi sifatida quyidagi *legitimlik* turlarini ilgari surdi: *ratsional* (qonunlarga bo'ysunish), *an'anaviy* (an'analarga bo'ysunish) va *xarizmatik* (g'ayriodatiy «donishmand» shaxslarga bo'ysunish). *P.Sorokinning* fikricha sotsial nazoratning usullari — «*jazolash*» va «*mukofotlash*» (rag'batlantirish). *T.Parsons* sotsial nazoratning quyidagi mexanizmlariga o'zining diqqatini qaratdi: deviatziya va tanglikni kamaytirish maqsadida rollar-maqomlarni uyushtirish; shaxslararo sanksiyalarni va tartiblarni amalga oshirish; deviantlik va aqli raso sog'lomlik o'zaro farqlarini chegaralashni va qadriyatlarini saqlashni ta'minlovchi strukturalarni qo'llab-quvvatlash; integratsiyalash va kuch ishlatishni qo'llash strukturalarini mustahkamlash. *N.Smelzer* sotsial nazoratni jamiyatda shakllangan satandartlarga rioya qilishni muvofiqlashtirish zaruriyati bilan uzviy ravishda bog'laydi.

Ko'rinib turibdiki, sotsial nazorat muammolari bahsli sohalardan biridir. Lekin, «sotsial nazorat» iborasi sotsiologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi, u jamiyat va davlatning qadriyatlari va me'yorlari yig'indisiga, shuningdek, uni amalga oshirishda qo'llaniladigan sanksiyalar hamda o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarga taalluqli tushunchadir. Sotsial nazorat jarayonida jamiyat va uning institutlari sotsial qadriyatlar va me'yorlarni sotsiallashtiradi, ularni saqlashni rag'batlantiradi yoki zaruriy islohotlarni amalga oshiradi, qadriyatlar va me'yorlarni buzuvchilarni jazolaydi.

Ensiklopedik sotsiologiya lug'atida sotsial nazorat «me'yoriy (jumladan, huquqiy) muvofiqlashtirish orqali tizimni tashkil etuvchi unsurlarning o'zaro xatti-harakatlarini tartibli kechishini ta'minlash vositasida tizimning o'zini o'zi muvofiqlashtirish uslubidir» tarzida ifodangan²⁷⁶. Shuningdek, u boshqa sotsiologik manbalarda quyidagicha ifodalanadi: «sotsial nazorat — jamiyatning me'yoriy tartibotni saqlab turish va o'rnatish yoki me'yorlarni buzuvchi (deviant) xulqning ta'sirini yo'qotish yoki

²⁷⁶Энциклопедический социологический словарь/Под.ред. Г.В.Осипова; ИСПИ РАН.-М.,1995.-301.

kamaytirish yoʻli bilan oʻzini oʻzi saqlash va oʻzini oʻzi uyushtirish (oʻzini oʻzi muvofiqlashtirish) mexanizmidir». Huquqiy adabiyotlarda esa sotsial nazorat «odamlarning oʻz manfaatlarini ifodalayotgan xulqlarini jamiyat, davlat va sotsial guruhlar muhofaza qilayotgan xulq meʼyorlariga muvofiq kelishini taʼminlashga qaratilgan meʼyorlar, institutlar va munosabatlar yigʻindisidir».

Sotsial nazorat elementlari. AQSh sotsiologi *T. Parsons* sotsial nazoratni amalga oshirishning uchta asosiy uslubini asoslab va tahlil etib berdi:

1) *Izolyatsiya* (ajratib qoʻyish) — deviant odamlarni maʼnaviyatli va qonunga boʻysunuvchi odamlarga zarar yetkazish imkoniyatidan mahrum qilish maqsadida ulardan uzoq muddatga ajratib qoʻyish. Masalan, uzoq muddatli qamoqqa hukm qilish;

2) *Yakkalab qoʻyish* — deviantning sotsial aloqalarini chegaralash uchun jamiyatdan qisman ajratib qoʻyish maqsadidagi tadbir hisoblanadi. Bu odamga oʻz qadriyatlarini qaytadan baholashlarga va yana sogʻlom hayotga qaytishga imkon beradi. Masalan, huquqni buzuvchi shaxsni alohida vaqtincha saqlash xonalarida qoʻriqchilar nazorati ostida saqlash;

3) *Reabilitatsiya qilish* (oqlanish) — bu deviantga jamiyatda qabul qilingan va maʼqullangan sotsial rollarni ijro etishga tayyorgarlik koʻrish uchun imkoniyatlar beradi. Reabilitatsiyaga misol tariqasida «anonim ichkilikbozlar», «anonim narkomanlar» va psixiatrik yordam koʻrsatish choralarini keltirish mumkin.

Sotsial nazorat mexanizmi oʻz ichiga odam xulqiga sotsial institutlar va guruhlarning, shuningdek, uning atrofdagilarning taʼsiriga javob berish yoʻllarini, yaʼni *pozitiv* va *negativ* sanksiyalarni oladi. Pozitiv sanksiyalar oʻzida ragʻbatlantirishlarning, negativ sanksiyalar esa jazolashlarning turli usullarini oʻzlarida ifoda etadi.

Sotsial nazorat *norasmiy* meʼyoriy talablar, sanksiyalar, «norasmiy» sotsial bosimlarni qoʻllashdan iboratdir. Ularga misol tariqasida koʻrsatmalar shaklidagi meʼyor-kutish, maʼqullash, qoʻllab-quvvatlash yoki norozilik nigohlari, poʻpisa, shuningdek, ishontirish kabilarni keltirish mumkin. Bu holatda ular norasmiylik sifatida namoyon boʻladi. Odatda bu kabi nazorat norasmiy yoki boshlangʻich guruhlarda (oila, doʻstlar davrasi, tengdoshlar yigʻini va boshq.) qoʻllaniladi. *Rasmiy* nazorat sotsial institutlar va tashkilotlar, shuningdek, muayyan sotsial tartibotni muhofaza qilish uchun moʻljallangan meʼyor-qoidalar tomonidan amalga oshiriladi. Rasmiy sotsial institutlarga quyidagilar kiradi: huquq, barcha huquqni himoya qilish organlari, adliya va jazolashlarni ijro etish tizimi, psixiatrik kasalxonalar, maktablar, dam olish va diniy muassasalar. Bundan tashqari,

ular qatoriga an'anaviy shakllardagi jazolash (repressiv), yoki qattiq, shuningdek, tiyib turish (ogohlantiruvchi), yoki yumshoq nazoratlarni kiritish mumkin.

O'zini o'zi nazorat qilish. Ichki nazorat o'zini o'zi nazorat qilishni anglatadi: individ mustaqil ravishda umum qabul qilingan me'yorlar bilan moslashish asnosida o'zini o'zi muvofiqlashtiradi. Sotsiallashtirish jarayonida me'yorlar shunday mustahkam ravishda o'zlashtiriladiki, uni buzgan odamlarda xijolatga tushish yoki aybdorlik hislari paydo bo'ladi. Umum qabul qilingan me'yorlar oqilona ko'rsatmalar sifatida yashab kelishi natijasida ular onga singib boradi, so'ngra ostki ong yoki beixtiyor ong sifatida namoyon bo'lib turadi. O'zini o'zi nazorat qilish tabiiy xatti-harakatlarni tiyib turishni anglatib, u irodani kuchaytirishga asoslanadi. Ichki turtkidani (impulsiv) shakllanadigan xulq, o'z xohishlari va xarxashalari ustidan hukm o'tkaza olmaslik xususiyatlari bolalarga xosdir. Shuning uchun bu xulq *infantilizm*²⁷⁷ deyiladi. Aksincha, oqilona me'yorlar, majburiyatlar, irodani kuchaytirishga muvofiq shakllanadigan xulq balog'atga yetish, ya'ni katta yoshning belgilarini o'zida ifodalaydi.

Barcha turdagi sotsial nazoratning taxminan 70 foizi o'zini o'zi nazorat qilish hisobidan amalga oshiriladi. Jamiyat a'zolarida o'zini o'zi boshqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa, jamiyat shunchalik tashqi nazoratni kamroq amalga oshiradi. Yoki, aksincha, odamlarda o'zini o'zi nazorat qilish qanchalik kamroq rivojlangan bo'lsa, sotsial nazorat institutlari, xususan armiya, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar shunchalik ko'proq sotsial nazoratni amalga oshiradi. O'zini o'zi nazorat qilish sust bo'lsa, tashqi nazorat qattiqqo'llik bilan amalga oshiriladi. Lekin, qattiqqo'llikka asoslangan tashqi nazorat o'zini o'zi anglashga va erkin xohishlarning shakllanishiga to'siq bo'ladi, ichki irodani kuchsizlanishiga olib keladi. Tarixda ana shunday sotsial chekinishlar diktaturani paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Ko'pincha diktaturalar ham fuqarolar farovonligi uchun tartibot o'rnatish maqsadidan kelib chiqqan. Lekin, u uzoq davr yashashi oqibatida yana ham ko'proq o'zboshimchaliklarni keltirib chiqardi. Majburlash asosidagi sotsial nazoratga o'rganib qolgan fuqarolar o'z ichki nazoratini rivojlantirishga moyil bo'lmaydi. Asta-sekin ular o'z sotsialligini va mas'uliyatni o'ziga olish fazilatini yo'qotib, tanazzulga yuz tutadi, tashqi majburlash (ya'ni, diktatura) vositasida yashashga o'rganib qoladi. Shuning

²⁷⁷Infantilizm - [lot. *infantis* go'daklarga xos, bolalarcha] - rivojlanishda bolalar yoshiga xos tavsiflarni saqlab qolish yoki katta yoshda ham jismoniy tuzilishning orqada qolish holati.

uchun ham hozirgi zamonaviy rivojlanish jarayonlarida o'zini o'zi nazorat qilishni sotsial nazoratning asosiy o'zagi sifatida rivojlantirish eng muhim va dolzarb vazifalar sirasiga kirdi.

Hozirgi davrdagi sotsial nazorat shakllarini qo'llash nazariyasi va amaliyotini tahlil etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, sotsial nazoratning oldini olish (ogohlantirish) vositasi sifatida uning yumshoq ko'rinishlari — huquqni muhofaza qilishga doir muammolar va sotsial deviantliklar haqidagi mavzularni yoritishga doir ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan *axborot sotsial nazoratini* ham ko'rsatish mumkin. Axborot sotsial nazorati — bu deviantlikning turli shakllarini cheklash va umum qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarni, sotsial tartibotni ta'minlash maqsadida sotsial tizimning o'zini o'zi uyushtirish va o'zini o'zi muvofiqlashtirishga nisbatan ommaviy kommunikativ ta'sirlari yig'indisini ifodalaydi.

Hozirgi davr jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotida axborot sotsial nazorati shuning uchun ham muhimki, OAV jamiyatda, sotsial guruhlar o'rtasida u yoki bu muammolarni (terrorizm, narkomaniya, ekologik va soliq jinoyatlari, korrupsiya va boshq.) muhokama qilishni ancha dolzarblashtiradi. Yumshoq axborot ta'siri vositasidagi choralar tezlik bilan va manzilli ravishda o'zini o'zi nazorat qilishni, maktab, oila, yon qo'shnilar norasmiy sotsial nazoratlarini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi, nohush og'ishlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar axboratlashish va mavzulashish funksiyalari («agenda setting-function»), baholashlar, dolzarblashish OAV tomonidan faol ravishda amalga oshirilsa, axborot sotsial nazoratining samarasi yanada ko'proq ahamiyat kasb etadi. Axborot oqimlarini boshqarish huquqni muhofaza qilish, hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan sotsial dasturlar va choralarni amalga oshirishni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xavfsizlikning u yoki bu masalalariga jamoatchilik e'tiborini qaratishga keng imkoniyatlar beradi.


AQSh sotsiologi *Ivan Nay* sotsial nazorat nazariyasi va shakllarini boyitishga katta hissa qo'shdi. U sotsial nazoratning to'rtta turini bir-biridan ajralgan holda ta'riflab berdi:

- ichki nazorat (tarbiya yordamida va sotsial me'yorlarga rioya qilishda namuna bo'lish);
- bevosita nazorat (majburlash vositasidagi nazorat);
- bilvosita nazorat (o'zaro aloqadorlikdagi guruh bilan aynanlashish);
- ehtiyojlarni qonuniy ravishda qondirish vositasidagi nazorat (shaxsiy maqsadlarga erishishning turli usullaridan keng foydalanish asosida).

Sotsial nazoratning bu turlaridan shaxsning sotsiallashtirishida va sotsial og'ishlarni oldini olishda keng ravishda foydalaniladi. Uning keng tarqalgan shakllari quyidagilardan iborat: ichki, bevosita va bilvosita nazorat — ko'pincha oila, OAV va maktab kabi institutlarning sotsiallashtirish jarayonida amalga oshiriladi..

G'arb mamlakatlarida sotsial nazorat tamoyillari. Hozirgi davr jamiyatlarida deviant xulq, avvalambor jinoyatchilik ustidan sotsial nazoratni amalga oshirish ko'pincha jazolashlar (repressiyalar) va profilaktika (oldini olish) vositasida amalga oshiriladi. Profilaktikani qo'llash dastlab fransuz ma'rifatparvari Sh.Monteske tomonidan asoslangan bo'lsa, uni rivojlantirishni Ch.Bekkario amalga oshirdi. Tarixdan ma'lumki, bir necha o'nlab asrlar mobaynida sotsial va huquqiy amaliyotda o'limning dahshatli turlari — to'rtta bo'lakka bo'lib qatl etish, osib o'ldirish, otib o'ldirish, «elektr stuli»ga o'tqazib o'ldirish, zahar berib o'ldirish, shuningdek, turli muddatlarda kamoqda o'tirish kabi repressiya turlari qo'llab kelindi. Lekin, bu bilan na jinoyatchilik, na deviant xulq yo'qolib ketgani yo'q. Ustiga ustak, ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlangan mamlakatlarda jinoyatchilikning ko'payib borishi kuzatilmoqda. Ba'zan uzoq vaqt qamoqda o'tirishning inson psixikasiga salbiy ta'siri uning xulqini o'zgartirib, qamoqxona hayoti kriminallashtiruv maktabi vazifasini o'tamoqda.

P.Bergerning sotsial nazorat to'g'risidagi ta'limoti. Ingliz sotsiologi *Piter Berger* o'zining sotsial nazoratga doir konsepsiyasini yaratdi (7.2-rasm). P.Bergerning fikricha, «hozirgi zamon odami jamiyatning turli



7.2-rasm. P.Bergerning sotsial nazorat konsepsiyasining sxemasi

institutlari tomonidan amalga oshiriladigan ko'p qavatli va ko'p tomonlama sotsial nazorat tizimlari domiga tortilgan». U bu tizimlarni markazi individdan iborat bo'lgan, doimo to'liqinsimon tarqalib turadigan to'planma doiralardan iborat ko'rinishda tasavvur etadi. Bu doiralar o'zida sotsial nazoratning turli ko'rinishlari va turlarini ifoda etadi²⁷⁸. Eng dastlabki va katta doira — bu davlat apparatining qudratli ifodasi bo'lgan siyosiy-huquqiy tizimdir. Uning oldida qolgan barcha doiralar o'zlik qiladi. Modomiki, odamlarning irodasi va xohishlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar u soliqlar yig'adi, odamlarni harbiy xizmatga safarbar etadi, ularni son-sanoqsiz qoidalar, qonunlar, qarorlar, buyruqlar va far-moyishlarga itoat etishga majburlaydi.

Ularga rioya qilmagan odamlarga nisbatan so'nggi jazo chorasi - qamoqqa olishdan (ba'zan o'limga hukm qilish) iborat bo'lgan nohush sanksiyalarni qo'llaydi. Doira markazidan tashqaridagi yana bir doirada o'z ahamiyati bo'yicha undan keyin turadigan sotsial nazoratning unsuri — bu ahloq, urf-odat va rasm-rusumlar hisoblanadi. Individdning axloqiy xulqini namoyon bo'lishini juda ham ko'plab odamlar, guruhlar va boshqa jamiyat tashkilotlari kuzatib boradi. Ularga misol tariqasida ota-onalar, qarindosh-urug'lar do'stlar davrasi, tanish-bilishlarni, shuningdek, qattiqqo'likka asoslangan rasmiy tashkilotlar — politsiya va shu kabi strukturalarni keltirish mumkin. Agar ularning birinchisi odamga bosim o'tkazishning norasmiy sanksiyalarini qo'llasa, ikkinchisiga (politsiya va boshq.) *og'ir jazolar* — hibsga olish, soqchilar nazorati ostida bo'lishga majburlash kabilar xosdir.

P.Bergerning konsepsiyasiga binoan, sotsial nazorat tizimida odamga bosim o'tkazishning jiddiy va muhim mexanizmi — bu professional (kasbiy) tizimdir. Uning ta'kidlashicha, odamning o'z ish joyida individda jiddiy nazorat ta'sirini o'tkazuvchi ko'plab professional burchlar va mehnat majburiyatlarini bajarishi talab etiladi. Bunda o'zlaridan yanada yuqoridagi rahbar organlarga bo'ysunadigan kasaba uyushmalari va boshqaruv idoralari mansabdorlari odamlarni nazorat etib boradi. P.Bergerning fikricha, professional tizim tomonidan nazorat qilish odam ish joyini tark etganidan keyin ham to'xtamaydi. Bu holatda professional ta'sirlar yashash joyini tanlashda, tanish-bilishlar doirasida, dam olish va ko'ngil ochar tadbirlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Nazoratning yana muhim unsurlaridan biri — bu jamiyatning individda bosim o'tkazishining navbatdagi doirasini tashkil etuvchi -

²⁷⁸Бергер П. Приглашение в социологию: Гуманистическая перспектива.-М., 1996.-С.73-76.

hamkasblar va xodimlarning individga nisbatan talablari hisoblanadi. P.Bergerning ta'kidlashicha, «jamiyatdagi har qanday professional rol, hatto uning ahamiyati juda kichik bo'lsada, xulqning sotsial kodeksini taqozo qiladi... Bu kodeksga berilish, odatda, texnikaviy omilkorlik va tegishli ma'lumotga ega bo'lishni taqozo etgani kabi professional xizmatning keyingi darajalariga ko'tarilish uchun zaruratga aylangan»²⁷⁹.

Insonga eng yaqin va eng oxirgi doira — bu individning shaxsiy hayoti kechadigan muhitdagi odamlar guruhi hisoblanadi. Unga oila, yaqin qarindoshlar va do'stlar kiradi. P.Bergerning fikricha, bunda me'yoriy bosimlar hech vaqt bo'shshamaydi, aksincha, ular kuchayishga moyil bo'ladi. Bu doiradagi bosimning xususiyati shundaki, agar odam jamoatchilik o'rtasida sergak holda tursa, yoki kutilmagan hujumga zarba berishga tayyor tursa, oilada kutilmagan holatlarda o'tkaziladigan majburlash va bosimlar doimo og'riqli holda kechadi. P.Berger o'z xulosasida odamning sotsial nazorat tizimidan sirg'alib chiqib ketish imkoniyatini juda ham kamligiga achinib, odam o'z atrofini ko'zdan kechirish asnosida o'zining kimga bo'ysunishi lozimligini mantiqiy ravishda ko'nglidan o'tkazar ekan, u o'zining sotsium tomonidan qudratli kuch bilan ezilib turganday his etadi.

7.4. Sotsial me'yorlar va jamoatchilik fikri

Kishilar o'z hayot faoliyatlarida bir-birlari va tabiat (moddiyot) obyektlari bilan o'zaro aloqalarga kirishadi. Bu aloqalar turli tuman bo'lishiga qaramay ularni turlashtirish, shuningdek, qanday xulqlar keng tarqalganu, yana boshqalarining ommaviy yoki mo'tadilligini aniqlash mumkin. «Me'yor» tushunchasi keng ma'noda qoida, namuna, standart, dastlabki yo'l-yo'riqlar ma'nosini beradi. Barcha me'yorlar ikkita guruhga bo'linadi.

1) *Nosotsial me'yorlar*. Bu me'yorlar insonning tabiat va texnika bilan o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtiradi va o'zida insonning moddiyot obyektlari bilan o'ziga xos munosabatlar tilini ifodalaydi. Unga texnikaviy, qishloq xo'jalik, iqlimga oid, fiziologik, biologik, kimyoviy, texnologik, sanitar-gigienik kabi me'yorlar kiradi. Ishlab chiqarish jarayonlari va odamlarning ishlab chiqarishdan tashqaridagi ehtiyojlariga xizmat qiladigan texnikaviy me'yorlar alohida o'rinni egallaydi. Ular odamlar tomonidan o'rnatilgan va kashf etilgan. Texnikaviy yoki nosotsial me'yorlarni saqlamaslik odamning muayyan xatti-harakatiga nisbatan tabiat kuchlari

²⁷⁹O'sha joyda.-B.78-80.

yoki moddiyot obyektlari tomonidan salbiy oqibatlar bilan javob beradi. Masalan, agrotexnikaviy qoidalarni buzish qishloq xo'jalik mahsulotlari hosildorligini pasayishiga olib keladi.

2) *Sotsial me'yorlar*. Ular odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi xulqlar qoidalaridir. Bular bir odamning boshqa odamga (yoki odamlarga) nisbatan aloqalarining (munosabatlarining) o'ziga xos namunalari, standartlari, xulqining ko'lamlari bo'lib, ular muvofiqlashtirish zaruratiga uchragan barcha odamlarning bo'ysunishi lozim bo'lgan barcha holat va hodisalarni muvofiqlashtiradi. Sotsial me'yorlar u yoki bu sotsial guruhlarining manfaatlarini hisobga oladi va ular umuminsoniy me'yorlarning bisyor bo'lishiga qaramay muayyan sotsial guruhlar tomonidan yaratiladi. Sotsial me'yorlar quyidagi umumiylik kasb etadigan belgilarga egadir:

birinchidan, ular alohida olingan hodisa yoki muayyan ijtimoiy aloqalarni emas, balki umumiylik va o'xshashlik kasb etgan holatlarni yoki ijtimoiy aloqalarni (jamoatchilik o'rtasidagi xulq, kattalarga munosabat, namoyishlar o'tkazish kabi) o'zaro muvofiqlashtiradi;

ikkinchidan, sotsial me'yorlar ko'p martalab takrorlanib turishga mo'ljallangan. Sotsial me'yor bir holatni muvofiqlashtirib bo'lganidan keyin yana shunday holat vujudga kelsa uni ham muvofiqlashtirishga kirishib ketaveradi;

uchinchidan, sotsial me'yorlar umumiylik xususiyatiga egadir, ya'ni ular faqat bir odamga emas, balki birdaniga alohida sanalmagan ko'plab odamlarga mo'ljallangan. Ularning muhim belgisi — bu alohida holatlarni nazarda tutmasligi va ular manzilining noaniqligidir;

to'rtinchidan, sotsial me'yorlarni buzganlik uchun sanksiyalar odamlar (individlar, tashkilotlar, davlat, jamiyat) tomonidan beriladi.

Odamlar o'zlarining xulqlarida turli sotsial me'yorlarni ishlatadi. Ular asosan quyidagilardan iboratdir:

1) ritual — ko'proq xulqning tashqi shakliga urg'u beradigan xulq qoidalari. Ritualning mazmuni unchalik muhim emas. Boshqacha aytganda, ritualni odamlarda ma'lum bir his-tuyg'ularni tug'dirish maqsadidagi namoyishkorona xatti-harakat udumi deyish mumkin. Masalan, davlat ahamiyatiga molik anjumanlarni ochilishidan oldin davlat gimni ijro etiladi. Bu holat aksariyat odamlarning o'z faoliyatlari uchun mas'ullik sezish tuyg'ularini oshiradi;

2) marosimlar — bu ham timsoliy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi, lekin, ritualdan farq qilib, odamning ruhiyati ichiga chuqur kirib boradi,

shuningdek, ular tarbiyaviy, mafkuraviy maqsadlarni ko'zlaydi. Masalan, dafn marosimi, nikoh marosimi va boshq.;

3) misllar — odamlarni nimalarni qilishga yoki qilmaslikka da'vat etuvchi naqlar, rivoyatlar, afsonalar, qissalar, dostonlar;

4) urf-odatlar — biri necha avlodlar tarixi ichida shakllangan, muntazam va ko'plab ravishda takrorlanib turish natijasida xulq qoidalariga aylangan me'yorlar. Boshqacha aytganda, urf-odatlarni xulqlar stereotiplari sifatida keltirish mumkin. Ularning odamlar ongidan mustahkam o'rin olishiga asosiy sabab — bu ularning qandaydir hayotiy qonuniyatlarini ifodalashidir. Masalan, vafot etgan odamning mulkini uning yaqin qarindoshlariga berilishi, bolalarni asosan onalar tarbiyalashi, o'ch olish va boshq.;

5) an'analar — bu ham urf-odat kabi barqaror munosabatlarni (aloqalarni) muvofiqlashtiradi. Lekin, an'analar nisbatan yuzakiroq tavsif kasb etgani holda qandaydir ijtimoiy qonuniyatlarga dahli yo'q, shuningdek, ular asosan odamlar xulqining tashqi tomoniga taalluqli me'yorlardir. Bu ikki turdagi sotsial me'yorni bir-biridan shakllanish muddati farqlab turadi: urf-odatlar bir necha avlodlar almashinuvi davrida shakllanadi, an'analar esa qisqaroq vaqt ichida shakllanadi. Shuning uchun ham odamlar uchun urf-odatlarni buzish mashaqqatli ish hisoblanadi. An'analarni buzishda bu kabi qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmaydi. Sotsializm davrida yashashning tezda unutilishi an'analarni buzilishi uchun misol bo'lishi mumkin;

6) diniy me'yorlar — odamlarning o'zaro aloqalarini ilohiylik ibtidosi talablari ta'siri vositasida muvofiqlashtiruvchi xulqlar qoidalaridir. Uning asosiy mazmuni shundaki, inson avvalambor Xudoga, keyin odamlarga yoki jamiyatga xizmat qilishi lozim. Xudo irodasiga bo'ysunish diniy me'yorlarning ich-ichiga singib ketgan. Modomiki, barcha Xudoga ishonuvchilar ham diniy me'yorlar talablarini bajaravermasligi ko'zda tutilgani uchun muayyan sanksiyalar belgilangan: epitimya (xristianlikda gunohkorga uzoq toat ibodat qilish va ro'za tutishni buyurish), anafema (dindan chiqarib, murtad deb e'lon qilishni buyurilishi), do'zaxga tushish, qiyomat qayyum, martabalardan maxrum qilish va hokazo. Muqaddas ilohiy kitoblardagi diniy me'yorlar odamlar xulqini har tomonlama muvofiqlashtirib turadi;

7) huquqiy me'yorlar — bu bajarilishi shart bo'lgan va buzilishi davlatning itoat ettirish kuchi vositasida qo'riqlanadigan xulqlar qoidalaridir. Yuridik me'yorlar eng muhim ijtimoiy aloqalarni (davlat hokimiyati strukturasi, shuningdek uning tartibotini amalga oshirish, soliqlarni

undirish, huquqbuzarlik uchun masullik, yer va yer osti boyliklaridan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshq.) muvofiqlashtiradi. Bu me'yorlarni buzish jamiyatga katta zarar keltirishi mumkinligi tufayli davlat boshqa sotsial me'yorlarni buzishga qo'llanadigan jazolarga nisbatan bu huquqbuzarliklarga qattiq va og'ir sanksiyalarni qo'llaydi;

8) axloqiy me'yorlar — bu ezgulik nima, yoki yovuzlik nima ekanligini belgilash asosida qo'llaniladigan me'yorlardir. Odamlarga nisbatan qo'yiladigan talablar, ularning ijrosi uchun nazoratni amalga oshirish ma'naviy ta'sir etish vositasida bajariladi: har bir odamning o'z xulqi motivatsiyasi sifatida o'z burchini his etish, o'z qilmishlarini va xatti-harakatini baholanishi va o'zini o'zi baholashi. Bu me'yor har bir odamni o'z xulqini mustaqil ravishda muvofiqlashtirishiga asoslanadi. Masalan, yoshlarga yordamlashish, qariyalar uchun g'amxo'rlik qilish, ayollarni xafa qilmaslik va boshq.;

9) siyosiy me'yorlar — bu millatlarlararo, sinflar va sotsial guruhlarining o'zaro aloqalarini davlat hokimiyatini boshqarish, uni egallash va ushlab turishga maqsadida muvofiqlashtiruvchi xulqlar qoidalaridir;

10) etiket (odab-axloq) me'yorlari — bu odamlarning o'zaro tashqi aloqalarini ijobiy va yoqimli kechishini (atrofdagilar bilan takallufda bo'lish, muomala tarzi va salom-alik shakllari, kiyinish madaniyati va boshq.) ta'minlashga qaratilgan xulqlar qoidalaridir;

11) estetik me'yorlar — bu go'zallik va xunuklikka nisbatan munosabatlarni muvofiqlashiruvchi xulqlar qoidalaridir. Masalan, uyni gullar bilan didli ravishda bezash san'ati. Bu me'yor ko'proq did vositasida aniqlanadi;

12) ish va xizmat odatlari — bu amaliy (ishlab chiqarish, o'quv, ilmiy) faoliyatda shakllanadigan odamlar kundalik hayotini muvofiqlashtiruvchi xulqlar qoidalaridir. Masalan, talaba tik turgan holda o'qituvchi bilan salomlashadi, ish kuni qisqa muddatli yig'ilishda topshiriq berish bilan boshlanadi, har kun ertalab korxonada avtomobil haydovchilariga yo'l varaqasi beriladi va boshq.²⁸⁰

Sotsial nazoratni amalga oshirishda jamoatchilik fikrining ham hissasi beqiyosdir. Ma'lumki, *jamoatchilik* — bu paydo bo'lgan vaziyatlarning noma'lumligi va muammoli ekanligini anglagan va undan muayyan tarzda ta'sirlanish natijasi sifatida aks-sado beradigan, shu kabi holatlarga o'xshash vaziyatlarga tushib turadigan odamlar guruhidir.

²⁸⁰Кашанина Т. В., Кашанин А. В. Основы российского права: Учебник для вузов. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: НОРМА, 2003. // http://psyera.ru/socialnye-normy-i-mesto-prava-v-ih-sisteme_7207.htm.

Jamoatchilik fikri — bu muayyan manfaatlarni oʻzida ifoda etadigan, jamiyatda paydo boʻlgan muammolar boʻyicha muayyan jamoaviy nuqtai nazarlarni aks ettiradigan sotsial birliklarning ijtimoiy hayot dalillari, hodisalari va voqealariga nisbatan ochiq yoki yashirin tarzda xulosalaridan iborat ijtimoiy ong holatidir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-ijtimoiy fikr odamlarda mavjud boʻlgan barcha nuqtai nazarlarni emas, balki faqat oʻrganiladigan vaziyat bilan bogʻliq boʻlgan nuqtai nazarlarni oʻz ichiga oladi; bu kabi vaziyatlarga munosabatda individlar yigʻindisi birlik sifatida namoyon boʻladi;

-bir vaziyatda muayyan masalalar boʻyicha shaklangan jamoatchilik fikri boshqa vaziyatlardagi jamoatchilik fikridan tubdan farq qilishi mumkin;

-faqat oshkora tarzda ifodalangan nuqtai nazarlar jamoatchilik fikri sifatida eʼtirof etilishi mumkin, aks holda, u alohida olingan odamlarning individual nuqtai nazari boʻlib qolaveradi;

-ijtimoiy fikr muayyanlik va aniqlik sifatlariga ega boʻlishi va muayyan vaqt davomida saqlanib turishi lozim.

Jamoatchilik fikrining asosiy funksiyasi sotsial nazoratni amalga oshirishdir. Shuningdek, uning *ekspressiv, konsultativ va direktiv funksiyalari ham mavjud*. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratchi sifatida hukumat qarorlarini qabul qilish va bajarish jarayonlarini kuzatib borish, ularni osonlashtirish yoki qiyinlashtirish qobiliyatiga egadir.

Jamoatchilik fikrining muhim funksiyasi — bu *ekspressiv* funksiyasi boʻlib, u jamiyatning ijtimoiy hayotdagi hodisalar va voqealarga nisbatan muayyan nuqtai nazarini ifodalaydi. Bu funktsiya jamoatchilik fikrining, binobarin, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari ustidan nazorat qilishiga, ular faoliyatini baholashiga imkon beradi.

Sivilizatsiyaga erishgan mamlakatlarda jamoatchilik fikrining *konsultativ* (maslahat berish) funksiyasi keng qoʻllaniladi. Aholidan olingan soʻrovnomalar javoblari natijalari u yoki bu muammolarning yechimlari jamiyat maʼqullayotgan yoʻl-yoʻriqlarini tanlashda katta foydasi tegadi. Jamoatchilik fikri turlicha nuqtai nazarlarning kuchli va kuhsiz tomonlarini aniqlash asnosida siyosiy elitani oqilona va aholi manfaatlariga yaqin qarorlarni qabul qilishga undaydi.

Jamoatchilik fikrining *direktiv* funksiyasi — bu aholidan olingan soʻrovnomalar javoblarining natijalarini hayotda qoʻllashning shart ekanligidir. Bu funktsiyani amalga oshirish koʻplab holatlarga bogʻliqdir. Shuning uchun ham uni qoʻllashning ancha murakkab jihatlari mavjud. Bu funktsiyaga misol tariqasida referendumlar oʻtkazish davrida xalqning oʻz irodasini bildirishini keltirish mumkin.

Jamoatchilik fikrining ahamiyati va o'rni fuqarolarning mustaqil o'z qarashlarini bildirishiga keng imkoniyatlar yaratib beradigan fuqarolik jamiyati sharoitida oshib boradi. U umumxalq ishiga doir muhokamalar natijalarini aniqlashga yordam beradi: u fuqarolik jamiyatida ta'sirchan sotsial institutga aylangan holda ijtimoiy hayotdagi muammolarni hal etishning amaliy jihatlarini aniqlab beradi, qandaydir xulq me'yori yoki hodisasini baholaydi.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Deviant xulq» deganda nimani tushunasiz?
2. «Anomiya» nima?
3. Destruktivlik nazariyasining mazmuni nimalardan iborat?
4. Deviantlikning qanday noxush turlari mavjud?
5. Jinoyatchilik va uning paydo bo'lish sabablari nimalardan iborat?
6. Korupsiyaning paydo bo'lishi qanday sabablarga bog'liq?
7. «Sotsial nazorat» deganda nimani tushunasiz?
8. O'zini o'zi nazorat qilish sotsial nazoratda qanday o'rin tutadi?
9. «Sotsial me'yorlar» nima va ular «nosotsial me'yorlar»dan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
10. Jamoatchilik fikrini shakllantirishning qanday yo'llari mavjud?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016//Xalq so'zi, 2016, 6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 20.04.2017// http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild. -T.: O'zbekiston, 1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr//<http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr, 2016, 20-oktyabr.

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi-niing kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.: O'zbekiston, 2017.

9. Бачинин В.А. Основы социологии права и преступности.-СПб.:Изд-во СПбУ, 2001.

10. Бергер П. Приглашение в социологию: Гуманистическая перспектива. Пер. с англ.-М., 1996.

11. Блэкборн Р. Психология криминального поведения.-СПб.: Питер, 2004.

12. Гидденс Э. Социология.-М., 2006.

13. Гишинский Я.И. Девиантология.-СПб., 2008.

14. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд.-М.: Мысль, 1991.

15. Жаринов К.В. Терроризм и террористы: Ист. справочник.-Минск: Харвест, 1999.

16. Змановская КВ. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения): Учебное пособие. 2-е изд.-М., 2004.

17. Кесельман Л. Социальные координаты наркотизма.-СПб., 1999.

18. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения.-М., 2001.

19. Кожушко Е.П. Современный терроризм: Анализ основных направлений.-Минск: Харвест, 2000.

20. Коэн А. Исследование проблем социальной дезорганизации и отклоняющегося поведения//Криминология/Под ред. Дж.Ф.Шели/Пер.с англ.-СПб.: Питер, 2003.

21. Лайне М. Криминология и социология отклоняющегося поведения.-Хельсинки, 1994.

22. Масионис Дж. Социология. 9-е изд.-СПб: ПИТЕР, 2004.

23. Ноэль-Нойман Э. Общественное мнение. Открытие спирали молчания.-М., 1996.

24. Профилактика (предупреждение) экстремизма и терроризма. Методическое пособие для пропагандистов. Под общей ред. Л.Н.Панковой, Ю.В.Тара-нухи.-М.: Университетская книга, 2010.

25. Смелзер Н. Социология: пер. с англ.-М.: Феникс, 1994.

26. Социология девиантного поведения как специальная социологическая теория//Социол. исслед.-1991.-№.2.

27. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции.-М., 1991

28. Фрейд З. Психоанализ. Религия. Культура.-М., 1992.

29. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности.-М., 2009.

30. Энциклопедический социологический словарь/Под. ред. академика Г.В.Осипова; -М.: ИСПИ РАН, 1995.

8-mavzu: JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKATSIYAVIY JARAYONLAR

- 8.1. Jamiyatning sotsial strukturasi doir dastlabki nazariy qarashlar.**
- 8.2. Jamiyat sotsial strukturasi tushunchasi va uning talqinlari.**
- 8.3. Sotsial stratifikatsiya.**
- 8.4. Sotsial harakatchanlik va marginallik.**
- 8.5. Jamiyat sotsial strukturasi rivojlanishida yangi tamoyillar.**

Tayanch tushunchalar: struktura, sotsial, sotsial struktura, jamiyat, fuqarolik jamiyati, sotsial qatlamlar, sinf, sotsial guruhlar, elita, o'rtta qatlam (sinf), quyi qatlam, strata, stratifikatsiya, stratifikatsiyaviy struktura, sotsial harakatchanlik, marginallik, migratsiya, sotsial harakatchanlik turlari.

8.1. Jamiyatning sotsial strukturasi doir dastlabki nazariy qarashlar

Jamiyatning sotsial strukturasi dastlab qadimgi yunon mutafakkirlari *Platon* (er.av.427-347) va *Aristotel* (er.av. 384-322) tomonidan tadqiq etildi. Ular jamiyat bilan davlatni bir butunlik sifatida aynanlashtirgan bo'lsalarda, jamiyat a'zosi sifatida faqat erkin tug'ilgan va fuqarolik yoshiga yetgan kishilarni e'tirof etdi. Ularning jamiyatga doir qarashlari asosini sotsial struktura va sotsial adolat konsepsiyalari tashkil qildi.

Platonning fikricha, sotsial strukturani faqat erkin tug'ilgan, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan *rollarni bajarayotgan* kishilar tashkil etadi. Insonning qalbi uchta asosga ega: «idrok» (intellektuellik), «jasurlik» (irodalilik) va «istak» (sezgi, tuyg'uga ega bo'lish). Odamlarning qalbidagi asoslardan qaysi birining ko'pligi yoki ozligiga qarab jamiyatda uchta ijtimoiy qatlam mavjud bo'ladi: donishmandlar — «faylasuflar», harbiylar — «qo'riqchilar», ishlab chiqaruvchilar — «dehqonlar» va «hunarmandlar». Boshqaruvchilar yuksak ma'lumotli, iste'dodli, xususiy mulkka ega bo'lmagan, zohidlik turmush tarzini kechirayotgan, 50 yoshga etgan faylasuflar ichidan tayinlanishi lozim. Boshqaruvchi bo'ladigan odamlarni falsafa va san'at vositasida tarbiyalash zarur. Boshqaruvchilar qonunlarni o'rnatadi, ijtimoiy sohani adolatli tarzda boshqaradi. «Qo'riqchilar» davlatni himoya qiladi va jamiyatdagi tartibni izga soladi. «Dehqonlar» va «hunarmandlar» o'z mehnatlari bilan fuqarolarning hayoti uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni yetkazib beradi. Ko'rinib turibdiki, *Platon*

tomonidan ilgari surilgan jamiyatning sotsial strukturasi oliy darajasida donishmand-faylasuf turgan mustahkam ierarxiyadan iborat bo'lgan.

Yunon mutafakkiri *Aristotel* o'zining «*Siyosat*» kitobida jamiyatning tabiiy kelib chiqishi, uning sotsial stratifikatsiyasi va sotsial adolat kabi tushunchalar tadqiq etildi. *Aristotel*ning fikricha, inson tug'ilishdan boshlab instinktiv ravishda boshqalar bilan birgalikda hayot kechirishga intiladigan mavjudotdir. Odamning boshqa mavjudotlardan farqi shuki, u ijtimoiy va shaxsiy munosabatlardagi ezgulik, adolat, «umumiy foydani tushunib etgan» mavjudotdir. *Aristotel* jamiyatda izchillik asosida bir-biri bilan almashib boruvchi insoniy ijtimoiy hayot shakllarini ko'rsatib berdi: *oila* — *yashash manzili* (qishloq va boshq.) — *polis* (shahar-davlat). *Aristotel* uchun *davlat* — odamning tabiiy ravishda boshqa odamlar bilan hayot kechirishga intilishi natijasida vujudga keladigan va birgalikda insoniy hayot kechirishning tabiiy va oliy shaklidir. *Oila* — insoniy birlikning birlamchi shakli sifatida talqin etildi. Bir necha oilalar yashash manzilini tashkil etadi. O'zaro bir-birlariga yaqin yashash manzillari shahar-davlatga birlashadi.

Aristotel ilgari surgan sotsial struktura modelida asosiy strifikatsiyaviy prinsip sifatida *mulk seni* tanlandi. Unga muvofiq, fuqarolar uchta sotsial qatlarga bo'linadi: *kambag'allar*, *o'rta qatlam* va *boylar*. Mutafakkirning fikricha, davlatda qanchalik o'rta qatlam ko'p bo'lsa, u shunchalik qudratli bo'ladi va gullab-yashnaydi.

Antik yunon falsafasini yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, Sharq uyg'onish davrining mutafakkiri *Abu Nasr Forobiy* insoniy jamiyatni chuqur va puxta o'rgangan olimlar sirasiga kiradi. Forobiy «Fozil shahar odamlari qarashlari» asarida jamiyat («*inson jamoasi*»)ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab berdi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson ko'paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rtnashdilar, natijada *inson jamoasi* vujudga keldi»²⁸¹. Albatta, mutafakkir nazdidagi inson jamoasi — bu kishilik jamiyati hisoblanadi.

²⁸¹Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Т.:А.Қодирий номли халқ мероси нашриёти. 1993. -Б.18-19.

Forobiy jamiyatning sotsial strukturasi sifatida jamiyatdagi turli *ijtimoiy qatlamlarni* chuqur tahlil etdi. Uning fikricha, mukammal jamiyatda har bir *qattam* yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, ular go'yoki shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashganlar.

Forobiy orzu qilgan *ideal davlat* sharoitida ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlanishlar saqlanadi. Platonning ideal davlat tuzumi haqidagi ta'limotida ko'rsatilgani kabi, har bir qatlamning vazifalari va majburiyatlari aniq belgilangan bo'ladi, qatlamlar o'zlarining maqomlari bo'yicha o'zlariga tegishli bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanadi. Bir qatlamga mansub bo'lgan odam boshqa qattam vakillari uchun tegishli bo'lgan ishlarni bajarish huquqiga ega emaslar (masalan, boshqaruvchilar qattamiga mansub kishilar dehqonchilik yoki savdo ishlari bilan shug'ullanmaydi). Fozil shahar-davlatda har bir qatlamning jamiyatda o'rni va maqomi mazkur tabaqa bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning qanday bo'lishi bilan belgilanadi. Qattam martabasining baland yoki past bo'lishi uning hukmdorga yaqin yoki uzoq bo'lishiga bog'liqdir. Hukmdorga yaqin yoki undan uzoq bo'lishning belgisi har bir qattam vakillarining aqliy (intellektual) va ma'naviy kamolot darajalarining yuksakligiga bog'liqdir. Aqliy va ma'naviy kamolot darajalari yuksak bo'lgan qattam vakillari, ya'ni hukmdorga yaqin odamlar yuqori lavozimlarni egallab, hurmatga sazovor bo'lgan ishlarni bajaradi, ularning qo'l ostida ishlovchilar esa pastroq lavozimlardagi ishlarni bajaradi.

Ko'rinib turibdiki, Forobiyning ideal davlat tuzumiga asoslangan jamiyatda (*fozil shahar-davlatlarda*) kishilarning ijtimoiy qatlamlarga bo'linishi va ularning imtiyozlari saqlanadi. Mutafakkir biron-bir qattamga mansub odamlarning vazifalari va majburiyatlari o'rtasida tafovutlarning saqlanishi, har bir odamning o'z kasbini yaxshi bilishi va o'z vazifalarini bajarishi jamiyatning sobitligi hamda adolatning yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan omildir, deb qaraydi: har bir odamning o'z kasbiga tegishli vazifalarini to'g'ri bajarishi — jamiyatda adolatning saqlanishi va uni barqarorligini ta'minlash asosidir.

Mutafakkir o'zining «*Talxisi navomisi Aflotun*» («Platon qonunlari mohiyati») asarida ilohiy qonunlarning doimo adolatli ekanligi g'oyasini ilgari surdi²⁸². Fozillar jamiyatining adolatli bo'lishi va qatlamlar o'rtasida tafovutlarning saqlanishida *adolat huquqiy kategoriya* vazifasini bajaradi. Ana shu jihatdan yondashganda, Forobiyning adolat g'oyasiga nisbatan ishlatgan ta'rifi Platon talqinlariga yaqindir. Lekin, Forobiy qarashlaridagi

²⁸²O'sha joyda.

adolat g'oyasi kishilar o'rtasida axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni, moddiy boyliklarni taqsimlash va o'zaro almashuv munosabatlarini ham o'ziga qamrab oladi. Mana shu yerda Forobiyning qarashlari Platon talqinlaridan farqlanadi. Forobiy o'zidan oldingi barcha o'tmishdoshlaridan farq qilib, adolat tushunchasiga to'liq va mazmunli ta'rif beradi: «*Adolat* — avvalambor butun shahar ahli tomonidan yaratilgan ne'matlarni (to'g'ri) taqsimlash hamda kishilar o'rtasida bu ne'matlarni taqsimlash qoidalarini saqlash demakdir. Bunday ne'matlar qatoriga (kishilarning) farovonligi, boylik (mol-mulk), turli unvonlar va kishilarning jamiyatda tutgan o'rni hamda ularning moddiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga oid boshqa ko'pgina ne'matlar (narsalar) kiradi. Jamoa a'zolarining har biri o'zining xizmatiga yarasha bu ne'matlardan tegishli ravishda o'z hissasiga egadir. Agar ne'matlar bir odamga nisbatan kamroq taqsim etilsa, bu holda u odamga nisbatan adolatsizlik bo'ladi. Aksincha, o'sha odamga ne'matlar ko'proq taqsim etilsa, unda boshqa fuqarolarga nisbatan adolatsizlik sodir qilingan bo'ladi»²⁸³.

Xulosa qilib aytganda, adolat kishilar va turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri taqsimlashning belgisi vazifasini bajaruvchi kategoriyadir. «Adolatsizlikning sodir bo'lishi, — deb yozadi Forobiy, — shunda ifodalanadiki, ne'matlarning tegishli hissasi berilmay qoladi»²⁸⁴. Mutafakkirning fikricha, sotsial strukturalarning yashash mezoni — bu sotsial qatlamlar o'rtasida, shuningdek davlat bilan qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarda adolat prinsipiga amal qilishdir.

Forobiy kishilarning diniy mazhabiga emas, balki ularning turli belgilari — tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidorlariga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga qarab ijtimoiy guruhlariga bo'ladi. Uning talqinicha, shahar (polis) — bu muayyan bir davlat uyushmasi, jamiyat (jamo) esa — shu davlatga tobe bo'lgan odamlarning qatlamlardan iborat birlashmasidir. Albatta, bu kabi qarashlar Platon va Aristotel tomonidan ilgari surilgan jamiyatning sotsial strukturalariga doir ta'limotni va bu strukturalarni qatlamlashish qonuniyatlarini yanada rivojlantirdi.

8.2. Jamiyat sotsial strukturasi tushunchasi va uning talqinlari

Muayyan jamiyatning tarixiy rivojlanishini tahlil etish natijasida olingan tizimlar nazariyasi va sotsiologik tasniflardan kelib chiqib *jamiyatning*

²⁸³Фараби. Социально-этические трактаты.-Алма-ата: Наука, 1975.-С.224.

²⁸⁴О'sha joyda.-В.226.

asosiy universal tasnifini quyidagicha ifodalash mumkin: a) bir butunlik, yaxlitlik; b) o'zgarishlarga boy va rivojlanishga moyillik (dinamizm); v) tizimlilik. Mazkur universal tasnifdan kelib chiqib jamiyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: *Jamiyat* (society) — bu yaxlit tuzilma bo'lib, uning doirasida odamlarning birgalikda yashashi amalga oshadi; jamiyat o'zining unsurlaridan iborat bo'lish xususiyatiga, shuningdek o'zining mavjudlik makoni va zamoni chegaralariga ega bo'lgan o'ziga xos organizm yoki tizimdir. Shu tariqa, jamiyat muayyan va aniq hududda joylashgan bo'ladi va o'z mavjudligining aniq muvaqqat doirasiga egadir. Ba'zi jamiyatshunos olimlar fikricha, «jamiyat» va «mamlakat» tushunchalari o'rtasida o'xshashlik mavjud. Jamiyat odamlardan iborat tuzilma sifatida tavsiflanadi. U - sotsial aloqalarning birlashuvi ro'y beradigan hudud; muayyan bir hudud doirasida yuzaga kelgan sotsial aloqalar, munosabatlar, birliklarning turli-tumanligiga ega; avtonomlik (mustaqil yashash) qobiliyatiga ega; integratsiyalashuvga moyil (barcha individlarni o'zaro qo'shiluvchanligi, ijtimoiy tartibot natijasidagi birlashuv).

«*Jamiyat*» deganda barcha insoniy munosabatlar (aloqalar) yig'indisi tushuniladi. Yana bir manbada «jamiyat» tushunchasi ma'lum bir hududni egallagan, oz yoki ko'p darajada o'zining boshqalardan farqlanuvchi madaniyati va institutlariga ega bo'lgan odamlarning o'zini o'zi abadiylashtirgan yig'indisi, deyiladi²⁸⁵.

Jamiyat institutlar va birliklarning o'zaro munosabatlarini qo'llab-quvvatlaydigan, yangi sotsial tuzilmalarni integratsiyalaydigan, o'z mantig'idan kelib chiqib, aholining asosiy qismini o'ziga bo'ysundiradigan, mazkur hududda yashovchi odamlarning xatti-harakatlaridagi turli-tuman sotsial o'zaro ta'sirlar va aloqalarni yagona negizga uyushtirishga undovchi va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarga egadir. *Jamiyat* — odamlar, ijtimoiy birliklar va tuzilmalar o'zaro ta'sirlari va aloqalarining tarixan rivojlanuvchan, ularning birgalikda yashash jarayonida o'zgarib boradigan va tarkib topadigan yaxlit tizimdir²⁸⁶.

Jamiyatning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1) sotsiallik; 2) jamiyat a'zolari (insonlar) o'rtasida o'zaro ta'sir va bog'lanishlarning mavjudligi; 3) ma'lum bir hududga ega bo'lish (sotsial makon); 4) sotsial zamonning (vaqtning) mavjudligi; 5) o'zini o'zi boshqarishi va muvofiqshtirishi, o'zini o'zi namoyon qilishi, sotsial jarayonlarni o'z-o'zidan anglanilishi; 6) sotsial institutlarning mavjudligi;

²⁸⁵ Джери Д., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь. Том 1. - М.: ВЕЧЕ АСТ, 1999. - С. 508.

²⁸⁶ O'sha joyda. - B. 159.

7) odamlarning ongi, irodasi va faoliyatini har qanday o'zgarishlarga ta'sir etib turishi; 8) sotsial strukturaning mavjudligi²⁸⁷.

Jamiyatning *strukturaviy komponentlari*²⁸⁸ — ular: ko'plab individlar (shaxslar); odamlar tomonidan bajariladigan sotsial rollar; o'z ichiga hududiy, etnik va boshqa birliklarni olgan sotsial struktura; odamlarning bir-birlariga o'zaro ta'siri kabilardan iboratdir. Jamiyat yaxlit tizim sifatida turli-tuman unsurlardan (faoliyat turlari, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, institutlar va uyushmalar) iboratdir. Ularning barchasi bir-birlariga mustahkam bog'langan bo'lib, ularning jamlanmasi bir butunlikni (yaxlit jamiyatni) tashkil etadi. «*Struktura*» (tuzilma) tushunchasi (lot. «structura» — tuzilish, tuzilma, joylashish tartibi, tartib) umumiy ma'noda bir butunning u yoki bu darajadagi barqaror unsurlari yoki ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni anglatadi.

Biz xorijiy adabiyotlardan foydalanishda qiyinchilik tug'ilmasligi uchun «*tuzilma*» tushunchasining xalqaro miqyosda qabul qilingan shakli — «*struktura*» atamasi sifatida ishlatamiz. Struktura jamiyatning tarkibiy qismlarini turli tartibsizliklar aralashmasidan iborat holda yashashiga yo'l qo'ymaydigan, ularni muvofiqlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradigan o'ziga xos mexanizm vazifasini ham bajaradi.

Struktura — obyektning bir butunligini va uning o'ziga o'zi aynanligini, ya'ni turli ichki va tashqi o'zgarishlarda o'zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta'minlovchi barqaror aloqalar yig'indisidir. Struktura aksariyat holatlarda «nimanidir tarkibiy qismlarining o'zaro joylashishi va o'zaro aloqalari» yoki «ma'lum bir tuzilish va tuzilmaga ega bo'lgan narsa» ma'nolarida ishlatiladi²⁸⁹.

Struktura — birinchidan, bu unsurlarni ma'lum bir model sifatida namoyon qilish, masalan, qandaydir institutlashtirilgan sotsial tasniflashni (rollar, tashkilotlar va boshq.) «tuzilgan struktura» yoki «band struktura» sifatida tartibga solish; ikkinchidan, ustki struktura asosida yotuvchi (ayniqsa qiyosiy grammatikada) qoida yoki tartibdir (Levi-Stross ta'biricha — «chuqur struktura»). Ingliz sotsiologi *Giddens* uchun «struktura» tushunchasi sotsial tizimlarning qaytarilishi va takrorlanishida saqlanadigan «qoidalar va imkoniyatlar»ga taalluqli tushunchadir²⁹⁰.

²⁸⁷ O'sha joyda. -B.160-163.

²⁸⁸ Komponent - [lot. componens (compo-nentis) tuzuvchi, tashkil etuvchi, hosil qiluvchi] - nimanidir tarkibiy qismi.

²⁸⁹ Локшина С.М. Краткий словарь иностранных слов. -10-е изд., стер. -М.: Рус. яз., 1988. -С.488.

²⁹⁰ Qarang: Большой толковый словарь (Collins). Том 2 (П-Я): Пер. с англ. -М.: Веча АСТ, 1999. -С.300.

Giddens jamiyatning *sotsial strukturasi* tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish barobarida, uni funksionalizm tarafdorlari talqinidagi noaniqliklar va yengil-yelpi ta'riflashlarni keskin tanqid qilish asnosida quyidagi fikrlarni ilgari surdi: «Strukturatsiya nazariyasini o'zagini tashkil etgan muhim tushunchalarni ko'rib chiqamiz: «struktura», «tizim» va «strukturaning dualligi (ikki taraflamaligi)». Hech shubhasiz aytish mumkinki, ularning ichida birinchisi — *struktura* (yoki «sotsial struktura») — funksionalizm oqimi tarafdorlari ichida juda ham ommaviylashib ketdi va ular o'z nomidan kelib chiqib ham «strukturalizm» an'analari oldida o'z burçhini bajarishga urindi. Lekin, barcha nazariyalar ham bu tushunchaga sotsial-ilmiy nazariyalarning talablari darajasida ta'rif bera olmadi. Funksionalizm tarafdorlari va ularning tanqidchilari o'zlarining asosiy diqqat-e'tiborini faqat «funksiya» tushunchasiga qaratib, «struktura»ga oid tasavvurlarga muhim e'tibor bermadi; shu tariqa, bu tushunchaning ahamiyati eski holidan nariga o'tmadi.

Shu bilan birga, biz funksionalizm tarafdorlari «struktura» deganda nimani tushunishini yaxshi bilamiz. Lekin, darhaqiqat, jamiyatshunos-tahlilchilar bu tushunchani sotsial munosabatlar va hodisalarni o'ziga xos «modellastirish» deb tushunadi. Ko'pincha struktura tushunchasi skelet yoki organizm tuzilishi, yoki bino sinchi (qobirg'asi) kabi ko'zga ilinmas tasavvurlar shaklida talqin etildi. Bu yondashuv va unga tegishli tushuncha subyekt va sotsial obyektning ikki taraflamaligi (dualligi) bilan mustahkam ravishda o'zaro bog'liqlikda talqin etildi: bunda «struktura» insoniy faoliyatga nisbatan qandaydir «tashqi» holatni ifodalab, mustaqil subyektning erkin tashabbuslarini chegaralashni keltirib chiqaruvchi manba ma'nosini bera boshladi. *Strukturalizm* doirasida paydo bo'lgan strukturaga doir tasavvurlar bizga qiziqarli bo'lib tuyiladi. Bunda, struktura haqida so'zlaganda, biz u yoki bu sotsial munosabatlar va hodisalarning modellarini emas, balki mavjudlik va mavjud emaslikning (yo'qlikning) o'zaro kesishgan nuqtasini nazarda tutamiz; shu tarzda, yuzaki namoyon bo'lishdan kelib chiqqan holda uning poydevori — asos solinadigan prinsiplari chiqarib tashlanadi»²⁹¹.

Giddens «sotsial struktura» va «tizim» tushunchalaridagi farqlanish va bir-birini to'ldirish xususiyatlarini ochib beradi, shuningdek ularga doir izlanishlarni yanada chuqurlashtirishning istiqboldagi vazifalariga to'xtaladi: «Dastlabki qarashda strukturaga doir yuqorida keltirilgan tasavvurlarning umumiylikka hech qanday daxli yo'qdek ko'rinadi. Lekin,

²⁹¹ Гидденс. Э. Устроение общества. Очерк теории структуризации. - М.: Академический Прект, 2005. - С. 58.

aslida, ularning har biri sotsial munosabatlarni strukturalashning muhim jihatlariga tegishlidir. Bu jihatlar strukturalashtirish (strukturatsiya) nazariyasida «struktura» va «tizim» tushunchalariga differensiyaviy (bir butunni bo'laklarga va farqlanuvchi jihatlariga qarab o'rganish) yondashuv vositasida anglab etiladi. Sotsial munosabatlarni tahlil qilar ekanmiz, biz muammoning, bir tomondan, sintagmatik²⁹² jihatlarini — sotsial munosabatlarning vaziyatli amaliyotini takror yaratishni o'z ichiga olgan holda makonda va zamonda modellashtirish, ikkinchi tomondan, shu kabi takror yaratishlar jarayonida muttasil ravishda ishtirok etuvchi «strukturalashning usullari»ni ma'lum sharoitlarda tartibga solishni nazarda tutishga qaratilgan paradigmaviy²⁹³ «o'lchash»ni e'tiborga olishimiz zarur bo'ladi»²⁹⁴.

«Sotsial» tushunchasi (lotincha socialis) odamlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari va hayot kechirish tarzi tufayli bir-birlariga bog'liq ekanligini anglatadi. Jamiyat keng ma'noda — bu umumiy manfaatlar, qadriyatlar va maqsadlarga ega bo'lgan odamlarning birlashish shaklidir. Insoniy jamiyat insonlararo munosabatlar (sotsial munosabatlar) modeli (jamiyat subyektlari o'zaro munosabatlari yig'indisi) sifatida tavsiflanadi.

Bu tushunchalar o'zaro birlashtirilganida «jamiyatning sotsial strukturalashtirishi» ma'nosini beradi. Bu tushuncha jamiyatning (birlikning, guruhlarining) ichki tuzilishini ifodalaydi; bu — tartibga solingan sotsial birliklar, sotsial institutlar va ularning o'zaro aloqalari yig'indisi demakdir. Sotsial struktura, tor ma'noda, funksional jihatlardan o'zaro bog'langan sotsial maqomlar va rollarning yig'indisidir. Sotsial struktura jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlab turadi. Sotsial strukturani tahlil etishda odatda quyidagi sotsial hodisalar ko'rib chiqiladi: sotsial maqom, sotsial rol, sotsial differentsiatsiya, sotsial stratifikatsiya, sotsial notenglik, sotsial mobillik, sotsial marginallik, sotsial institutlar va boshqalar.

Umuman, jamiyatning sotsial strukturasi barcha jamiyatlar uchun xos bo'lib, ularning shakllari, funksiyalari, ta'siri natijalari turli jamiyatlarda fuqarolarning milliy qadriyatlarini, tarixiy rivojlanish tajribasi, siyosiy va huquqiy madaniyatlariga bog'lik holda turlicha bo'lishi mumkin.

²⁹²Sintagma - [yunon. syntagma nimanidir qo'shilganligi, bog'langanligi, birikkanligi] - bir necha so'zlarning yoki so'z qismlarining qo'shilishi, masalan, suv tashuvchi - meshkob (bunda mesh - qopsimon idish, ob - suv).

²⁹³Paradigma - [yunon. paradeigma misol, namuna] - 1) jadval ko'rinishida berilgan so'z shaklining tizimi (nomlarni turlanishi, so'zning tuslanishi); 2) dalillash va qiyoslash uchun tarixdan misol keltirish.

²⁹⁴Гидденс.Э.Устройство общества.Очерк теории структуризации.-М.:Академический Прект,2005.-С.59.

Jamiyatning har bir strukturasi o'z tarkibi va o'zaro ichki aloqlariga egadir. Jamiyat sotsial strukturasi ham bir butun tizim sifatida bundan mustasno emas. Bu tushunchalarni chuqur anglash uchun «sotsial tarkib» va «sotsial aloqalar» tushunchalarini o'rganishga ehtiyoj seziladi. *Sotsial tarkib* — ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi unsurlar to'plamidir. Shunday unsur sifatida individ va individlar birlashmalarini (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshq.) keltirish mumkin. *Individ* — bu ancha umumiylik kasb etadigan tushuncha bo'lib, u o'z ichiga insonning eng umumiy xususiyatlarini oladi. Individlarning dastlabki uyushmasi oila hisoblanadi. *Oila* — odamlarning eng birinchi ijtimoiy birlashmasi, qon-qardoshlik aloqalari va er-xotin juftligiga va o'ziga o'xshagan odamlarni biologik takroran yaratishga asoslangan turmushni tashkil etishning muhim shaklidir. Birlashmaning murakkab shakliga korporativlar va jamoat tashkilotlari kiradi. Korporativ birlashmalar — ular birgalikda xo'jalik faoliyati yuritish uchun tuziladigan organlardir. *Jamoat (nodavlat) tashkilotlari* — ular jamiyatdagi turli sotsial qatlam va guruhlar manfaatlarini ifoda etish va himoyalash birlashmalari hisoblanadi.

Sotsial strukturaning yana bir tavsifi *sotsial aloqa* bilan ifodalanadi. *Sotsial aloqa* — bu sotsial tizimning unsurlari o'rtasidagi barqaror o'zaro ta'sirlar, aloqalar va munosabatlardir. Jamiyat strukturasi biologik, iqtisodiy, siyosiy, sotsiomadaniy va ma'naviy aloqalarni kuzatish mumkin. Demak, sotsial struktura murakkab tushuncha bo'lib, uni talqin etish keng va tor ma'nolarda amalga oshiriladi. Keng ma'noda, *sotsial struktura* — bir butun jamiyatning tuzilishi, uning barcha asosiy unsurlari o'zaro aloqalari tizimidir. Tor ma'noda, sotsial struktura — sotsial-sinfy struktura, birlikdagi va o'zaro ta'sirlardagi sinflar, sotsial qatlamlar, guruhlar yig'indisidir. Tarixiy jihatdan jamiyatning sotsial strukturasi keng ma'noda sotsial-sinfylikka nisbatan ancha oldin paydo bo'lgan. Jumladan, etnik birliklar sinflar paydo bo'lmasdan ilgari urug'chilik davridayoq shakllangan. Har qanday strukturaning, jumladan, sotsial strukturaning ham yana bir tavsiflaridan biri — bu ularning ierarxik jihatga ega bo'lishidir. Uning mana shu xususiyati sotsial tizimni jamiyatda muvofiqlashtirish-uyushtirish rolini bajarishiga imkon beradi, u jamiyatning har bir tarixiy bosqichda o'zgargan shart-sharoitlarga moslashuviga yordam beradi, ya'ni uning yangi talablarga javob berishiga imkoniyatlar yaratadi.

Odamlarning o'zaro ta'sir qilish xususiyati jamiyatni tartibli ravishda ushlab turishga, shu bilan birga, uni bir butunligi va chegaralarini saqlashga imkoniyatlar yaratadi. Lekin, jamiyat sotsial strukturasi ko'rib chiqishga ko'plab yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan, ko'proq sotsial

strukturaning tarixiy turlari nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariya doirasida jamiyat sotsial strukturasi to'rtta turini ajratib ko'rsatish mumkin: quldorlik, kastachilik, tabaqachilik va sinfiylik.

8.3.Sotsial stratifikatsiya

Jamiyatning sotsial strukturasi o'rganishning zamonaviy yondashuvlari va odamlarning u yoki bu sotsial *qatlamlarga (stratalarga)* mansubligining asoslari dastlab *Maks Veber* tomonidan tadqiq etildi. U ilk bor jamiyatning sotsial strukturasi ko'p o'lchovli va ko'p darajali ekanligiga o'z e'tiborini qaratdi. M.Veber odamlarning sotsial notengligida iqtisodiy omillarning muhimligini inkor etmagan holda sotsial mansublikni aniqlash uchun *sotsial nufuz* (sotsial maqom) va *hokimiyatga daxldorlik* (hokimiyat resurslaridan foydalanish imkoniyati va qobiliyati) kabi qo'shimcha mezonlarni kiritdi. M.Veberning fikricha, *sotsial nufuz* doimo ham boylik va hokimiyatga bog'liq emas. Masalan, olimlar, huquqshunoslar, ruhoniylar, jamcat arboblari nisbatan kam daromadga ega bo'lishi mumkin, lekin, shu bilan birga, ko'plab boy tadbirkorlar yoki yuqori darajali mansabdorlardan yuqori nufuzga ega bo'lishi mumkin.

Stratifikatsiya nazariyasini rivojlantirishga *P.Sorokin*, *T.Parsons*, *Ya.Shilz*, *B.Barber*, *U.Mur* kabi olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shdi. Kelib chiqishi rus bo'lgan AQSh sotsiologi *P.Sorokin* odamlarning u yoki bu strataga mansubligi mezonlarini yanada aniqroq va ravshanroq tarzda asoslab berdi. U bunga doir uchta asosiy mezonni alohida ajratib ko'rsatdi: *iqtisodiy, professional, siyosiy*.

*P.Sorokin*ning fikricha, «*sotsial stratifikatsiya* — bu martabalar iyerarxiyasida muayyan odamlar yig'indisining differentsiatsiyasidir (tabaqalashuvdir). U o'z ifodasini yuqori va quyi qatlamlarning mavjudligidan topadi. Uning asosi va mohiyati — u yoki bu hamjamiyat a'zolari o'rtasida huquq va imtiyozlar, mas'ullik va majburiyatlarning notekis taqsimlanganligi, sotsial qadriyatlar, hokimiyat va obro' kabilarning mavjudligi yoki mavjud emasligidir. Sotsial stratifikatsiyaning haqiqiy shakllari turli-tumandir. Agar qandaydir jamiyat a'zolarining iqtisodiy maqomi bir xil bo'lmasa, agar ularning ichida mulkdorlar va yo'qsillar mavjud bo'lsa, bu jamiyat kommunistik yoki kapitalistik prinsiplar asosida tashkil etilganligidan yoki konstitutsiyaviy «tenglar jamiyati» yoki unday emasligidan qat'iy nazar iqtisodiy qatlamlashuvning mavjudligini isbotlaydi». Aholining boy va kambag'al qatlamlari mavjudligini, ularning hayot darajasi va daromadlarining turlicha miqdorlarda olishda

ifodalanadigan iqtisodiy notenglik dalillarini hech qanday yorliqlar, niqoblar va atamalar tomonidan o'zgartirish yoki yashirish mumkin emas.

Haqiqiy o'zaro yondosh sotsial stratifikatsiyalarning soni qanchalik ko'p bo'lmasin, «ular uchta asosiy shaklda ifodalanadi: *iqtisodiy*, *siyosiy* va *professional* stratifikatsiya. Ular bir-biri bilan o'zaro chatishib ketgan. Yuqori qatlarga mansub odamlar qandaydir ayrim munosabatda mazkur qatlarga boshqacharoq tarzda o'lehovlari bilan mansub bo'ladi; va aksincha bo'lishi mumkin. Yuqori iqtisodiy qatlam vakillari bir vaqtning o'zida yuqori siyosiy va professional qatlamlarga tegishli bo'ladi. Mulksizlar ko'pincha o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshira olmaydi va professional ierarxiyaning quyi qatlamiga mansub bo'ladi. Yoki, eng boy odamlar ham doimo siyosiy yoki professional piramidaning tepasida bo'la olmaydi. Yoki, ba'zan quyi qatlarga mansub odamlar ham bu kabi piramidaning tepasida bo'lishi mumkin. Demak, sotsial stratifikatsiyaning uch shakli o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hali mukamallikdan uzoqdadir. Chunki, turli shakllardagi qatlamlar to'liq ravishda bir-biriga mos kelmaydi. Yoki ular bir-birlari bilan qandaydir darajada va qisman bir xillik kasb etadi. Bu dalillar sotsial stratifikatsiyaning uchta shaklini birgalikda tahlil etishga imkon bermaydi. Shuning uchun ularning har birini alohida-alohida tahlil etishga to'g'ri keladi. Har bir jamiyatning sotsial stratifikatsiya manzaralarida chalkashliklar uchraydi. Shuning uchun ham ularni o'rganishda ularning faqat asosiy xususiyatlarni e'tiborga olish bilan kifoyalaniladi»²⁹⁵.

Taniqli olim *T.Parsonsn*ing fikricha, *sotsial stratifikatsiya* muayyan sotsial tizimdagi individlarning turli qatlamlarga mansubligiga qarab saflanishi yoki tabaqalashuvidir. Shuningdek, yana stratifikatsiya deganda, individlarning ba'zi muhim sotsial jihatlardan bir-birlariga nisbatan yuqori yoki past sotsial holatlarni egallashlarini ko'rib chiqish usuli tushuniladi. U sotsial tizimning asosi hisoblanadi. Stratifikatsiya «umumlashgan sotsial tizimning strukturasi»dir. Stratifikatsiyaning ko'rsatkichlari (shkalasi) o'zida tartibga solingan, umum qabul qilingan ahloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan integratsiyalashgan ahloq avtoriteti tomonidan namoyon qilishi hisoblanadi va u o'zida sotsial tizim institutsional strukturasiining bir qismini ifodalaydi.

Darhaqiqat, qadriyatlar o'rtasida katta farqlanishlar mavjud. Ba'zi holatlarda bu farqlanishlarning nimalardan iborat ekanligi ham ko'rsatilgan. Lekin, bu sohadagi bilimlar hali yetarlicha bo'lmaganligi uchun imkon

²⁹⁵Сорокин П.Человек. Цивилизация.Общество.-М.,1992.-С.162-163.

darajasidagi qadriyatli mo'ljallarni qanday bo'lsa shundayligicha olib, ularni stratifikatsiyaning aniq sifati tarzida taqdim etib bo'lmaydi. Shuning uchun uning tasnifini ishlab chiqish qiyin masala bo'lib qolmoqda. Lekin, qadriyatlarga doir iboralardagi individlarning tabaqaviy saflanish tartibi mavjud bo'lganligi uchun individlarning farqlanishlari bo'yicha baholanadigan tasniflashning ba'zi sotsiallik ahamiyat kasb etadigan belgilarini keltirish mumkin. O'z navbatida, bu kabi tasniflash qadriyatlar tizimlarini tasniflash bilan bog'liq holda amalga oshirilishi ham mumkin. O'zaro farqlanishlarni baholashlar asosida qurilgan, lekin hali uzil-kesil o'z nihoyasiga yetmagan va batamom foydalanish mumkin bo'lmagan, shu bilan birga, nisbatan aniq va qulay bo'lgan tasniflashni taklif etish mumkin²⁹⁶.

T. Parsons stratifikatsiyaning quyidagi sifatlari tasnifini taklif etdi:

1. *Qarindoshlik rishtasiga mansublik*. Individning muayyan jamiyat uchun xos bo'lgan, boshqa individlar bilan turli darajadagi qarindoshlik rishtalari bilan bog'liq holda o'zaro baham ko'radigan tabaqaviy maqomining jihatlar mavjud. Unga mansublik tug'ilish, yana boshqa mezonlar, masalan, jamiyatdagi shaxsiy tanlov asosida tuziladigan nikoh bilan aniqlanishi mumkin.

2. *Shaxsiy sifatar*. Bu sifatar insonning xususiyati bo'lib, ular vositasida odam boshqa odamlardan ajralib turadi va bu holatga uning boshqalardan yuqoriroq (yoki, pastroq) ekanligini baholash uchun asos sifatida qaraladi: jins, yosh, shaxsiy jozibadorlik, aql, kuch va boshq. Shaxsiy intilishlar bilan bu sifatlarni qandaydir darajalarda o'zgartirish mumkin. Masalan, ayollardagi jozibadorlik tushunchasi yana bir tushuncha — «yutuq»ga (muvafaqqiyatga) ehtiyoj sezadi. Shaxsiy sifatar individning nima «qilishi»ning natijasi sifatida emas, balki individning o'z o'rniga ko'ra namoyon bo'lishining qismlari sifatida qaraladi. Haqiqiy sifatar ba'zi asos bo'ladigan va individning nazorat qilishiga bo'ysunmaydigan muhitda yana ko'plab turlarga bo'linadi. Masalan, jins, yosh va hokazo.

3. *Yutuqlar*. Ular individlar xatti-harakatlari natijalari qadriyati sifatida ko'rib chiqiladi. Ular moddiy obyektlarda mujassamlashadi. Shuningdek, ular individ ahloqiy jihatdan mas'ul bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita harakatlari nisbati sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, yutuqlar sezilmagan holda sifatlarga o'tadi, boshqa tomondan, tasniflashning to'rtinchi toifasiga (ya'ni, mulkka) o'tadi.

4. *Mulk*. Bu individga tegishli bo'lgan, uni boshqalarga uzatishi mumkin bo'lgan predmetlardir (ular faqat moddiy bo'lishi shart emas).

²⁹⁶Парсонс Т. О структуре социального действия.-М.:Академический Проект, 2000.-С.154-155.

Shuningdek, sifat va yutuqlarni ba'zi xolatlarda boshqalarga uzatish mumkin. Albatta, mavjud mulk sifatidagi buyum-ashyolar shaxsiy va boshqalar yutuqlari natijasi bo'lishi mumkin. Odamlarning sifatlarini nazorat qilish imkoniyatlari mulkning turli-tumanligi hisoblanadi.

5. *Avtoritet*. Bu boshqalarning xatti-harakatlariga ta'sir qilishning (boshqalarning to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy aloqalari bu kabi ta'sirga qaratilgan yoki qaratilmagan bo'lishidan qat'iy nazar) institutsional jihatdan e'tirof etilgan huquqidir. Avtoritet rasmiy mansabni egallagan yoki boshqa sotsial jihatdan aniqlangan maqomga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, ota-onalar, vrachlar, payg'ambarlar maqomlari. Avtoritet turlari va ularning darajalari individlarni tabaqalashuvini baholashning muhim mezonlari hisoblanadi.

6. *Hokimiyat*. Shaxsning hokimiyatga ega bo'lish sabablari shundaki, u boshqalarga ta'sir qilishga urinadi yoki o'zi egallab turgan ta'sir qilish darajasini saqlab turishga intiladi. Shaxsning bu xususiyatlari institutsional jihatdan aniq me'yorlashtirilmagan. Hokimiyatga ega bo'lgan shaxs ko'pincha amaliy hayotda undan o'zini boshqalar tomonidan u yoki bu shaklda va to'g'ridan-to'g'ri e'tirof qilishlariga sazovor bo'lish uchun foydalanadi. Shuningdek, bunda shaxs hokimiyatdan o'zining qonunlashgan maqomini (avtoritetini) va tan olish timsollarini olish uchun ham foydalaniladi.

Jamiyat stratifikatsiyasi tizimidagi har bir individning maqomi yuqorida keltirilgan oltita o'zaro tabaqalashuv ko'rsatkichlari asosida aniqlanadigan sotsial maqomlar bo'yicha, shuningdek, bu baholashlarni umumlashtirish natijasi o'laroq ko'rib chiqiladi²⁹⁷.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi zamonaviy jamiyat sotsial strukturasi to'g'risidagi sinflarga doir marksistik ta'limotga qaraganda ancha chuqur va aniq tasavvurlar beradi. Uning asosida odamlarni sotsial sinflar va qatlamlar (stratalarga) sifatida sotsial sinflarga ajratish (qatlamlarga bo'lish) prinsipining quyidagi mezonlari yotadi: *oladigan daromadi darajasi, hokimiyatni amalga oshirish vakolatlari, kasbining nufuzi, ma'lumot darajasi* va boshq. Bunda «sinf» tushunchasi odamlarni taxminan bir xildagi maqomlari bo'yicha birlashtiradigan jamlovchi ibora sifatida ishlatiladi.

Sotsial stratifikatsiya — bu odamlarning qandaydir yig'indisini sotsial sinfga, ierarixik martaba (yuqori va quyi) qatlamiga differentsiatsiyalashuvidir (tabaqalanishidir). *Strata* (lot. *stratum* — qatlam, qavat, *facere* — qilmoq) — o'xshash sotsial ko'rsatkichlar kasb etgan odamlarning sotsial

²⁹⁷O'sha joyda.-B.157-159.

qatlamidir. Stratifikatsiyaviy strukturalarning asosi - odamlarning tabiiy va sotsial notengligidir.

Sotsial stratifikatsiya — sotsiologiyaning markaziy mavzusidir. Chunki, u jamiyatning boylarga va kambag'allarga qatlamlashishini tushuntirib beradi. Stratifikatsiyaning to'rtta asosiy o'lchovi — *daromad, hokimiyat, ma'lumot* va *nufuz* hisoblanadi. Maqomlarning o'zaro tengsizligi — stratifikatsiyaning asosiy xususiyatidir.

Sotsiologlar sotsial stratalarning taqsimlanishi va miqdorini aniqlashning turli-tuman kesimlari va o'lchovlarini ishlab chiqqan. Bu turli-tumanlik stratifikatsiyaning mohiyat kasb etuvchi belgilarini istisno etmaydi. Birinchidan, u aholining ierarxik rasmiylashgan guruhlari, ya'ni yuqori va quyi qatlamlarga ajratish bilan bog'langan; ikkinchidan, stratifikatsiya sotsiomadaniy boyliklar va qadriyatlarni noteng taqsimlash yakuni natijasidir. *P.Sorokinning* fikricha, sotsial notenglik obyekti sifatida to'rtta omildan iborat guruh namoyon bo'ladi: 1) huquq va imtiyozlar; 2) burchlar va mas'uliyat; 3) sotsial boylik va muhtojlik; 4) hokimiyat va ta'sir etish.

Stratifikatsiya jamiyatda hukmron bo'lgan qadriyatlar tizimi bilan mustahkam bog'langan. U odamlarning sotsial nufuzi darajasi bo'yicha saflanishining nisbatlari asosida turli insoniy faoliyatlarni baholashning me'yoriy ko'rsatkichlarini shakllantiradi. Zamonaviy Yevropa sotsiologiyasi-ning empirik tadqiqotlarida nufuz uch o'lchovli belgilar — *kasbiy nufuz, daromad darajasi* va *ma'lumotlilik* darajasi yordamida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarni umumlashtirish sotsial-iqtisodiy vaziyat (*pozitsiya*) indeksi deb ataladi.

Hozirgi davr jamiyatining sotsial-sinfy strukturasi uchta asosiy sinfga bo'lish qabul qilingan: *yuqori, o'rta* va *quyi*. O'z navbatida, har bir sinfni u yoki bu sotsial belgilari bo'yicha yanada yirikroq darajada tabaqalashtirish uchun u alohida sotsial qatlam-stratalarga bo'linadi. Sinflarga va stratalarga bo'lish sotsiologik tadqiqotlarga qo'yilgan aniq vazifalarning qanday bo'lishiga bog'liqdir. Agar tadqiqot maqsadi jamiyatning sotsial strukturasi ga doir umumiy tasavvurlar olish bo'lsa, u holda stratalarga bo'lish ozroq darajada bo'ladi. Agar barcha tafsilotlarni qamrab oladigan ma'lumotlar olish zarurati paydo bo'lsa, unda tadqiqot maqsadiga muvofiq holda sinf yanada ko'proq stratalarga bo'linadi.

Jamiyat sotsial strukturasi ni tadqiq etishda jamiyatning sotsial tarkibi (jamiyatni sotsial birliklarga bo'linishi) sotsial-sinfy tabaqalanishga to'g'ri kelmasligi e'tiborga olinishi lozim. Masalan, yuqori malakali ishchi oladigan daromadlari, hayot tarzi, o'z ehtiyojlarini qondirish yo'sinlari bo'yicha o'rta sinfga, past malakali ishchi quyi sinfga mansub bo'lishi

mumkin. Har bir jamiyat hech kimni o'zboshimchalik bilan sotsial stratifikatsiya strukturasi o'zgartirib yuborishiga yo'l qo'ymaslik uchun sotsial notenglikni institutlashtirishga intiladi. Buning uchun sotsial ierarxiyani takroran yaratuvchi va himoya qiluvchi alohida mexanizmlar (institutlar) mavjuddir. Masalan, mulkchilik instituti boy merosxo'rga va kambag'al oiladan chiqqan odamga turlicha imkoniyatlar beradi; ta'lim instituti kim tegishli bilimlarni egallagan bo'lsa, o'shanga yuqori mavqega erishishi uchun shart-sharoitlar yaratadi; siyosiy partiya siyosiy mavqega erishish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Individ jamiyat hayot faoliyatining turli sohalarida turlicha sotsial vaziyatlarni egallashi mumkin. Masalan, yuqori siyosiy maqomga ega bo'lgan odam nisbatan kamroq daromad olishi, boy tadbirkor yaxshi ma'lumotga ega bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ayrim olingan individ yoki sotsial guruhlarining sotsial ahvolini aniqlash uchun amaliy tadqiqotlarda barcha o'lchovlarning yig'indisi bo'yicha o'rganiladigan *sotsial vaziyatning integral ko'rsatkichidan* (integral maqom) foydalaniladi. Shuningdek, yana o'zini o'zi tasniflash usuli ham mavjud bo'lib, bunda har bir odamning qaysi sinfga mansub ekanligi uning o'zi tomonidan aniqlanadi. Bu usul baholashlar mezonlari nuqtai nazaridan unchalik xolis hisoblanmasada, qandaydir darajada odamlarning sinfiy o'zini o'zi anglashini aks ettiradi.

Agar marksizm tarafdorlari asosiy stratifikatsiya sifatida xususiy mulkka egalik qilishni ilgari surgan bo'lsa, M. Veber uni *mulkka va daromadlar darajasi, maqomli guruhlariga munosabat, siyosiy hokimiyatga* ega bo'lish va *siyosiy doiralarga yaqinlik* sifatida ifodalab berdi. P. Sorokin esa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, asosiy stratifikatsiya mezonlari sifatida *iqtisodiyot, siyosiy va professionallik* kabilarni ajratib ko'rsatdi.

Stratifikatsiyaviy struktura va uning turlari. A'zolari o'z maqomlarini nisbatan yengil tarzda almashtiradigan sotsial strukturalar *ochiq* stratifikatsiyaviy tizim deb ataladi. Aksincha, o'z maqomini qiyinchilik bilan o'zgartiradigan strukturalar *yopiq* stratifikatsiyaviy tizim deyiladi. Stratifikatsiyaning ochiq tizimlarida jamiyatning har bir a'zosi o'zining shaxsiy tirishqoqligi va qobiliyatiga qarab o'z maqomini o'zgartira olishi, sotsial pog'ona bo'ylab ko'tarilishi yoki pastga tushishi mumkin. Zamonaviy jamiyatlar murakkab sotsial, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga qobiyaliyati yetadigan malakali va omilkor mutaxassislariga ehtiyoj sezgani uchun ular stratifikatsiya tizimida individlarning erkin xatti-harakat qila olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishga intiladi. Ochiq stratifikatsiya bir stratadan ikkinchisiga o'tishda rasmiy cheklashlarga

uchramaydi, millatlararo nikohlar, u yoki bu mashg'ulot yoki kasb bilan shug'ullanish ta'qiqlanmaydi. Zamonaviy jamiyatlar rivojlanib borgani sari ulardagi sotsial harakatchanlik ham o'sib boradi.

Yopiq stratifikatsiya stratalarning qattiq chegaralari bo'lishini, bir stratadan ikkinchisiga o'tishni ta'qiqlashni ko'zda tutadi. Hindistonda 1900-yilgacha hukm surgan kastachilik yopiq stratifikatsiyaviy tizimga misol bo'la oladi. Hind jamiyati an'anaviy tarzda kastalarga bo'linib, odamlar tug'ilishidan boshlab butun umri davomida amal qiladigan sotsial maqomlarni merosiy tarzda ota-onalaridan bolalariga o'tishi rusumga aylangan edi. Hindistonda mingga yaqin kastalar mavjud bo'lib, ular uchta asosiy kastaga guruhlashgan edi: braxmanlar yoki kohinlar kastasi, aholining 3 % qismini tashkil etgan; kshatriylar (sipohiylar avlodlari) va vayshya (savdogarlar) kastasi, aholining 7 % qismini tashkil etgan; shudra kastasi dehqonlar va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular aholining 70 %ga yaqinini tashkil etgan. Qolgan 20 % aholi «xarijan»lar, yoki daxlsizlarga (ajratib qo'yilgan, yaqinlashib bo'lmaydiganlarga) mansub bo'lib, ular odatda farroshlar, axlat tashuvchilar, qo'nchi va cho'chqaboqarlardan iborat kishilardan tarkib topgan. Yopiq stratifikatsiyaning eng jirkanch ko'rinishi - kasta tuzumi hozirgi davr jamiyati uchun mutlaqo yot bo'lishi lozim.

Yuqori kasta vakillari past kasta a'zolaridan jirkangan, ularni kamsitgan va turli jabr-zulm bilan xo'rlab kelgan. Qattiq qoidalar yuqori va past toifadagi kastalarni o'zaro aloqa qilishiga yo'l qo'ymagan, go'yoki, yuqori kastalar past kastalar bilan yaqinlashsa «ruhiy bulg'anib» qolishi mumkin, degan aqida hukm surgan.

Umuman, sotsial stratifikatsiyaning quyidagi tarixiy turlari mavjud: *qullik, kastachilik, klanlik, sinflar*. Hozirgi davrda stratifikatsiyaviy tizimlarning quyidagi turlari aniqlangan:

1) *Tabiiy-genetik* — uning asosida odamlarni tabiiy belgilari bo'yicha farqlanishlarini e'tiborga olish yotadi: jins, yosh, muayyan jismoniy sifatlar — kuch, abjirlik, ko'rkamlik va hokazo;

2) *Etatokratik* (fr. etat - davlat) — guruhlararo tabaqalanishlar, ularning hokimiyat-davlat organlaridagi ierarxiasidagi (siyosiy, harbiy, ma'muriy-xo'jalik) o'rniga, bu guruhlarining hokimiyat strukturalaridagi martabalariga bog'liq holdagi imtiyozlari, resurslarni taqsimlash va ishga solish imkoniyatlariga qarab belgilanishi;

3) *Sotsial-professional* (kasbiy) — guruhlar mehnatining mazmuni va shart-sharoitlari asosida bir-birlaridan farqlanishi e'tiborga olinadi; bunda tabaqalashish muayyan faoliyat turlarini bajara olish qobiliyati va mala-

kalari darajasi (davlat sektoridagi razryadlar ro'yxati, olingan ma'lumot haqidagi attestat va diplomlar tizimi, berilgan ilmiy daraja, unvonlar tizimi va hokazo) qayd etiladigan turli sertifikatlar (diplom, razryad, litsenziya, patent va hokazo) yordamida amalga oshiriladi;

4) *Madaniy-timsoliy* — sotsial ahamiyatga molik axborotlardan foydalanishdagi imtiyozlarining farqlanishi bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni olish, saqlash va ularni sharhlashlardagi farqlanishlar: industrialgacha holatdagi jamiyatlar uchun axborotlarni o'zgartirishga moyil bo'lgan teokratik (yunon. theos — Xudo va kratos — hokimiyat), industrial jamiyatlar uchun partokratik (lot. pars (partis) — qism, parcha, guruh va yunon. kratos — hokimiyat), industrialdan keyingi jamiyatlar uchun texnokratik (yunon. techno — mahorat, san'at, hunar va kratos — hokimiyat) yondashuvlar xos bo'lgan noteng imkoniyatlardan kelib chiqadi;

5) *Madaniy-me'yoriy* — u yoki bu sotsial guruhlariga xos mavjud hayot kechirish tarzi va me'yorlarni (jismoniy va aqliy mehnat, iste'mol standartlari, qiziqishlari, aloqa qilish uslublari, professional iboralarni qo'llashi va mahalliy shevasi kabi) qiyoslash natijasida hosil bo'ladigan hurmatlashlar va nufuzlardagi farqlanishlar asosida shakllanadigan tabaqalashtirish;

6) *Sotsial-hududiy* — resurslarni mintaqalar o'rtasida noteng ravishda taqsimlash, ish joylarini egallash, sifatli mollar va xizmatlardan, ta'lim va madaniyat muassasalaridan foydalanish huquqlaridagi notenglik oqibatida shakllanadi.

Amaliy hayotda stratifikatsiyaviy tizimning dalillari bir-birlari bilan chatishib ketadi, bir-birlarini to'ldirib turadi. Masalan, sotsial-professional ierarxiya mehnat taqsimotining rasmiy mustahkamlangan ko'rinishida jamiyatning hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlab turish uchun nafaqat mustaqil ravishda muhim funksiyalarni bajaradi, balki, har qanday stratifikatsiyaviy tizim strukturalariga sezilarli ta'sir o'tkazib turadi.

Hozirgi davrda *strata* tushunchasi quyidagi xususiyatlari bo'yicha farqlanadi: 1) daromadlar darajasi; 2) hayot tarzining asosiy sifatlari; 3) hokimiyat strukturalaridagi ishtiroki darajasi; 4) mulkchilik munosabatlari; 5) sotsial nufuzi; 6) o'zining jamiyatdagi o'rnini o'zi baholashi.

Sinf tushunchasi quyidagi xususiyatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi: 1) ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi o'rni; 2) ishlab chiqarish vositalariga munosabati; 3) mehnatni ijtimoiy tashkil etishdagi roli; 4) yaratilgan boylıklardan oladigan ulushining miqdori va olish usuli;

Stratifikatsiyaviy va sinfiy yondashuvlarning asosiy farqlari shundaki, sinfiy yondashuvda iqtisodiy omillar asosiy ahamiyat kasb etadi, boshqa

mezonlar esa unchalik ahamiyatga ega bo'lmaydi. Stratifikatsiyaviy yondashuv nafaqat iqtisodiy dalillarni hisobga olishdan kelib chiqadi, balki asosan sotsial, yana shuningdek sotsial-psixologik omillarga tayanadi.

Jamiyat sotsial strukturasi tahlil etishda stratifikatsiyaviy yondashuv quyidagilarni e'tiborga oladi:

1) dastlab u yoki bu belgilar o'Ichovlarini (daromad, ma'lumot, hokimiyatdan foydalanish) hisobga oladi;

2) strataga ajralish asosi — ichida boyliklardan foydalanish imkoniyati keng bo'lgan xususiyati muhim rol o'ynaydigan barcha belgilar yig'indisini;

3) nafaqat turli sotsial qatlamlarning o'zaro ixtiloflashuv omilini, balki ularning o'zaro bir-birlarini to'ldirish va o'zaro hamkorlik qilish omillarini hisobga olish²⁹⁸.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, sotsial stratifikatsiya sotsiologiya fanining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Uning vositasida jamiyatning turi, rivojlanishi, barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, sinflar va sotsial qatlamlarning rivojlanish qonuniyatlari o'rganiladi, uning natijalari jamiyatni yanada rivojlanishi uchun taqdim etiladi.

8.4. Sotsial harakatchanlik va marginallik

Jamiyat sotsial strukturasi nisbiy barqarorligi unda qandaydir harakatlar, o'zgarishlar va o'z joyini o'zgartirishlar bo'lmaydi, degani emas. Bir avlod odamlar o'tib ketadi, ularning o'rinlarini (maqomlarini) boshqalar egallaydi; faoliyatning yangi turlari, yangi kasb-korlar, yangi sotsial maqomlar paydo bo'ladi; individ o'z hayoti davomida bir necha marta o'z sotsial holatini o'zgartirishi (yoki o'zgartirishga majbur bo'lishi) mumkin va hokazo.

Odamlarning bir sotsial guruh, sinf, qatlamga ko'chib o'tishi *sotsial harakatchanlik* (mobillik) deyiladi. «Sotsial harakatchanlik» iborasini sotsiologiyaga P.A.Sorokin kiritgan bo'lib, u *sotsial harakatchanlik* deganda sotsial holatning har qanday o'zgarishini nazarda tutadi. Zamonaviy sotsiologiyada sotsial harakatchanlik nazariyasi jamiyat sotsial strukturasi tadqiq etishda keng qo'llaniladi. Sotsiologiya fanida quyidagi sotsial harakatchanlik turlarini bir-biridan ajratib o'rganiladi:

- *vertikal yuqoriga ko'tariladigan va pasayib turuvchi harakatchanliklar*. Masalan, individ yuqori mansabni egallaydi, o'zining moddiy

²⁹⁸Qarang: Социальная стратификация//http://www.terver.ru/socialstudies/social-naya_stratifikaciya.php.

ahvolini ancha yaxshilaydi, saylovlarda yutib chiqadi yoki aksincha, nufuzli lavozimini yo'qotadi, uning firmasi inqirozga yuz tutadi va hokazo;

- *gorizontal harakatchanlik* — individ yoki guruhlarining bir sotsial qatlam ichida o'z joyini o'zgartirib turishi (ko'chishi);
- *individual harakatchanlik* — alohida olingan individ sotsial bo'lmagan keng makonda u yoki bu yo'nalishlarda ko'chib yuradi;
- *guruhiy harakatchanlik* — bir qancha sotsial guruhlar, sotsial qatlamlar va sinflar jamiyatning sotsial strukturasi o'zlarining sotsial holatlarini o'zgartiradi. Masalan, sobiq dehqonlar yollanma ishchilar toifasiga o'tadi; ishchi-shaxtyorlar konda ma'danni tugab qolishi natijasida boshqa sohalarga ishg'a o'tadi²⁹⁹.

Marginallik (fran.*margin*-chetdagi) — sotsial-psixologik tushuncha hisoblanadi. Bu nafaqat individning sotsial strukturada muayyan oraliqda qolish holati, balki, uning shaxsiy o'zini o'zi idrok etishi va o'zini o'zi his qilishi hamdir. *Marginal* — bu o'zining hozirgi holatini o'tkinchi yoki tasodifiylik oqibati, deb hisoblagan shaxslardir. O'zining faoliyati, kasbi turlarini, sotsiomadaniy muhitini, yashash joyini o'zgartirishga majbur bo'lgan odamlar og'ir qayg'uni o'z boshidan kechiradi.

Tabiiy sotsial harakatchanlikning tarkibiy qismi bo'lgan marginallik bilan ko'plab sotsial guruhlar uchun fojia keltiradigan holat — inqirozga uchragan jamiyatda majburan noilojlikdan marginal bo'lish o'rtasida katta farqlanish mavjud. «Tabiiy» marginallik ommaviylik va uzoq davom etish xususiyatiga ega emas, shuningdek, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xavf solmaydi. «Majburan tiqishtirilgan» marginallik ommaviylik tusini kasb etadi, uzoq davom etadi, shu bilan birga, jamiyatning inqirozli holatidan guvohlik beradi.

Sotsial harakatchanlik imkoniyatlari va uning o'zgarib borishi tarixiy sharoitlarga bog'liq holda kechadi. *P.Sorokin* sotsial harakatchanlik yo'llari yoki «liflari»ga taalluqli sotsial institutlar sifatida quyidagilarni keltiradi: armiya, cherkov, ta'lim institutlari, oila, siyosiy va kasbiy tashkilotlar, OAV va boshq. Stratifikatsiya pog'onalari bo'ylab yuqoriga ko'tarilishga imkon beruvchi sabablar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: oilaning sotsial maqomi, ma'lumot darajasi, millati, naf keltiruvchi nikoh, qobiliyat, tarbiya, yashash joyi va hokazo.

Vertikal harakatchanlik yo'llariga oid sotsial institutlar quyidagilardir: maktab, armiya, cherkov (turli diniy muassasalar) va boshqa indvidlarning shaxsiy yuqori sifatlariga qarab tanlab oluvchi tashkilotlar. Sotsial

²⁹⁹Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество.-М.,1992.-С.170-171.

harakatchanlik turli-tumandir: 1) individual va jamoaviy; 2) vertikal va gorizontal; 3) bir avlod ichida va avlodlar o'rtasida.

P.Sorokin vertikal sotsial harakatchanlikning intensivligi (yoki jadalligi) va umumiylik kasb etish jihatlariga muhim e'tibor berdi. Uning fikricha, miqdoriy nuqtai nazardan vertikal harakatchanlikning bu ikki jihatini bir-biridan farqlash lozim. *Sotsial harakatchanlikning intensivligi* deganda vertikal sotsial oraliq masofa yoki qatlamlarning soni — iqtisodiy, professional yoki siyosiy — individning muayyan vaqt davomidagi yuqoriga ko'tarilish yoki pasayish jarayonida amalga oshiradigan harakati tushuniladi. *Sotsial harakatchanlikning umumiyligi* deganda, muayyan vaqt oralig'ida vertikal yo'nalishdagi harakatlarda o'z sotsial holatlarini o'zgartirgan individlarning soni tushuniladi. Bu kabi individlarning mutlaq soni muayyan mamlakat aholisi strukturasiidagi vertikal harakatchanlikning mutlaq umumiyligini ifodalaydi; bu kabi individlarning barcha aholiga nisbati vertikal harakatchanlikning nisbiy umumiyligini anglatadi.

Muayyan sotsial sohada vertikal harakatchanlikning intensivligi va nisbiy umumiyligini birlashtirgan holda jamiyatning vertikal iqtisodiy harakatchanligining yig'indisiga doir ko'rsatkichni olish mumkin. Bir jamiyatni boshqasi bilan, yoki bir jamiyatning o'zini uning oldingi davrlari bilan taqqoslab, uning natijasi o'laroq qaysi jamiyatda, yoki jamiyatning qaysi davrida harakatchanlik yig'indisi ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi to'g'risida ma'lumot olinadi. Siyosiy va professional vertikal harakatchanlik bo'yicha ham shu usulda vertikal harakatchanlik yig'indisi ko'rsatkichini bilib olish mumkin³⁰⁰.

Nemis sotsiologi *Maks Veber* sotsial harakatchanlikning asosiy negizi — «sotsial harakat» tushunchasini sotsiologiya faniga olib kirdi. U sotsial harakatni quyidagicha ta'rifladi: «sotsial harakat boshqalarning (aralashmaslik yoki chidamli ravishda qabul qilishni qo'shgan tarzda) o'tgan zamondagi, hozirgi paytdagi yoki kelajakda kutilayotgan» xulqiga qaratilgan bo'lishi mumkin. U oldingi paytdagi o'ziga nisbatan ro'y bergan nohaqlikni yana takrorlanish xavfidan yoki uni kelajakda tahdid solishi mumkinligidan himoyalaniish maqsadidagi choralar sifatidagi o'ch olishdan iborat bo'lishi mumkin. Bunda «boshqalar» alohida shaxslar, tanishlar yoki butunlay notanish bo'lgan ko'pchilik odamlardan iborat bo'lishi mumkin (masalan, «pul» almashuv vositasi sifatida xizmat qiladi, uni muomalaga kiritishda ishtirok etuvchi shaxs pulni almashtirishga shuning uchun kirishadiki, uning xatti-harakatlari ko'p sonli notanish va

³⁰⁰O'sha joyda.-B.171-172.

noma'lum «boshqalar» tomonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga javob berishga tayyor turishga qaratilgan bo'ladi. O'z navbatida, kutilgan umidning amalga oshishi — bu oxir-oqibatda almashish jarayonini qabul qilish bilan o'z nihoyasiga etishi hisoblanadi).

Harakatlarning barcha turi ham — jumladan, tashqi harakat (ta'sir) — «sotsial» deb qabul qilinmaydi. Agar tashqi harakat (ta'sir) faqat tashqi obyektlar xulqiga qaratilgan bo'lsa, bunday holatda u sotsiallik deb qabul qilinmaydi. Agar ichki aloqalar (munosabatlar) boshqalarning xulqiga qaratilgan bo'lsa, u holda sotsiallik ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, agar diniy harakat shaxsiy mushohadalar chegarasidan chiqmasa, u faqat yolg'izlikdagi ibodat qilishdan iborat bo'lsa, u sotsiallik kasb etmaydi. Alohida individning xo'jalik yuritishi faqat boshqalarning xulqlarini o'z diqqat-e'tiboriga olgan paytdagina sotsiallik ahamiyatini kasb etadi»³⁰¹.

Shuningdek, *M. Veber* odamlar o'zaro munosabatlarining barchasi ham sotsial mazmun kasb etmasligiga to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildiradi: «o'z mazmuniga binoan faqat boshqalarning xulqiga qaratilgan harakatgina sotsialdir. Ikkita velosiped mingan kishining o'zaro to'qnashib ketishi — bu tabiat hodisasiga o'xshash holatdan boshqa narsa emas. Lekin, ulardan biri bu to'qnashuvdan qochishga urinsa, ya'ni, bu hodisani mushtlashish bilan emas, balki tinchlik bilan tugashiga harakat qilsa, unda bu sotsial harakatdir»³⁰².

Taniqli ingliz sotsiologi *Entoni Giddens* sotsial harakatchanlik nazariyasini chuqur tadqiq etgan olimlar sirasiga kiradi. U o'z izlanishlarining natijasi sifatida quyidagi xulosalarni shakllantirdi: «Veber stratifikatsiyaning yana ikkita jihatini ochib berdi — maqom va partiya». *Maqom* individlar yoki guruhlar uchun xos «sotsial hurmatlash» darajasiga tegishli, *partiya* esa — guruhlarni muayyan maqsadlarga erishishi uchun faol harakatchanlantirish omilidir. Sotsial harakatchanlikni o'rganishda *intrageneratsion* va *intergeneratsion* harakatchanliklarni bir-biridan farqlash lozim. Intrageneratsion harakatchanlik alohida olingan odamni o'z mehnat faoliyatida sotsial ko'rsatkichlar (shkala) bo'yicha yuqoriga yoki pastga qarab harakatlanishini anglatadi. Intergeneratsion harakatchanlik sotsial maqomni navbatdagi avlodga o'tishidagi o'zgarishlarni ifodalaydi. Masalan, ishchilar muhitidan chiqqan yosh qiz yoki yigit mutaxassislar toifasiga o'tdi. Odatda sotsial harakatchanlik chegaranlangan xususiyat kasb etadi. Keyingi o'n yilliklarda harakatchanlikning cheklangan radiusida

³⁰¹ Вебер М. Основные социологические понятия // Западно-европейская социология XIX - начала XX веков. - М., 1996. - С. 476-477.

³⁰² O'sha joyda. - B. 477.

bo'lsada «oq yoqalıklar»ning sotsial harakatchanligi darajasining yuqoriga ko'tarilishi uchun ancha bo'sh o'rinlari yaratib berilgan bo'lsada, aksariyat odamlarning sotsial holati o'z ota-onalari holatidan deyarli unchalik farq qilmadi³⁰³.

Individual va jamoaviy harakatchanlik. Individ o'zining tirishqoqligi va shaxsiy yutuqlari tufayli o'z sotsial maqomlari darajasini oshirib boradi. Bunda so'z individual harakatchanlik to'g'risida bormoqda. Guruhiy harakatchanlik butun bir sinf, qatlam yoki kastaning maqomining qanchalik ko'tarilishi yoki pasayishiga bog'liq holda ro'y beradi. Guruhiy harakatchanlikning sabablari quyidagi omillardan iboratdir: sotsial inqiloblar, xorijiy davlatlar bosqini, davlatlar o'rtasidagi o'zaro urushlar, harbiy to'ntarishlar, siyosiy rejimlarning almashinuvi, zodagon urug'larining o'zaro kurashi, yangi imperiyaning tashkil topishi.

Yirik sotsial guruhlarining ko'chishi iqtisodiyotning strukturaviy qayta qurishda, sotsial-iqtisodiy inqirozlar yuz berganida, inqiloblar davrida, milliy mustaqillikka erishish natijasida juda ham kuchayadi. Masalan, sobiq ittifoqda XX asrning 20-yillarida boylar va yangi paydo bo'lgan mulkdorlar qatlami yo'qotildi, yangi idora etuvchi elita va yangi sotsial qatlamlar shakllandi. Mustaqillik davriga kelib O'zbekistonda ham chuqur iqtisodiy strukturaviy o'zgarishlar natijasida ishchilar sinfi va dehqonlar sotsial qatlami ozaydi, yangi mulkdorlar sinfi — ishbilarmonlar, tadbirkorlar va fermerlar qatlamlari shakllandi.

Sotsial vaziyatlarning (maqomlarning) o'zgarishi individdan (guruhdan) yanada kattaroq harakatchanlikka zo'r berishni talab etadi. Yangi maqom, yangi rol, yangi sotsiomadaniy muhit o'z o'yin qoidalari va shartlarini majburiy ravishda o'tkaza boshlaydi. Yangi sharoitlarga moslashish hayotiy mo'ljallarni keskin o'zgartirish bilan uyg'un holda kechadi. Shuningdek, yangi sotsial muhitning odamlarni «o'ziniki» yoki «begona» toifalarga bo'lishi yanada ko'proq mushkulliklarni vujudga keltiradi. Ba'zan odam o'zining sotsiomadaniy muhitini yo'qotib, yangisiga moslasha olmaydi. Natijada u ikkita sotsial qatlam o'rtasida uzoq davr ushlanib qoladi.

Vertikal va gorizontal harakatchanlik. Harakatchanlik o'zining yo'nalganligi bo'yicha vertikal va gorizontal turlarga bo'linadi. Vertikal harakatchanlik maqomlarning yuqorilashi yoki pasayishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Gorizontal harakatchanlik subyektning faqat bir strata chegarasidan chiqmagan holatdagi ko'rsatkichidir. Masalan,

³⁰³Гидденс Э.Социология.-М.:Эдиторнал УРСС,1999.-С.232.

menejer boshliq o'rinbosari mansabini egallaganidagina o'zida vertikal harakatchanlikni ifodalaydi. Lekin, menejer bir bo'limdan ikkinchi bo'limga lavozimi oshirilmagan holda o'tkazilsa, u gorizontal harakatchanlikni o'zida ifodalaydi. U bu bilan kasblar stratifikatsiyasi martabasini o'zgarishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Shu tariqa, vertikal harakatchanlik individ sotsial holatining o'zgarishini anglatadi. Bunda uning maqomi yuqorilaydi yoki pasayadi. Gorizontal harakatchanlik esa individning sotsial holatini o'zgartirmaydi. Vertikal harakatchanlik o'z o'rnida yuqorilovchi va pasayuvchi turlarga bo'linadi.

Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi harakatchanlik. Bir avlod ichidagi integrativ harakatchanlik individning o'z hayotini turli paytlarida erishgan holatlarini (mehnat faoliyati, demakki, xizmat darajasining oshishi) baravarlashtiradi. Shuning uchun ba'zi tadqiqotchilar uni ijtimoiy holatga emas, balki mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lgan kasbiy harakatchanlik yoki ishchi kuchi harakatchanligi, deb ham ataydi. Shu tariqa, avlod ichidagi harakatchanlik deganda, insonning stratifikatsiya tizimidagi butun bir hayoti davomidagi o'z sotsial holatining o'zgartirishi tushuniladi.

Avlodlar o'rtasidagi (integrativ) harakatchanlik individlarning holatini ularning ota-onalari holati bilan baravarlashtiradi, ya'ni o'g'ilning (qizning) otasi (onasi) sotsial vaziyati sari sotsial maqomining o'zgarib borishi anglanadi.

Migratsiya — bu odamlarning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, bir tumandan ikkinchisiga, shahardan qishloqqa (yoki aksincha) ko'chishidir. Boshqachacha aytganda, bu o'z joyini hududiy jihatdan o'zgartirishdir. Ular yilning fasllariga bog'liq tarzda *mavsumiy*, *tebranuvchi* va *muntazam* ravishda ko'chib yurish shakllarida ro'y beradi. Shuningdek, migratsiya *immigratsiya* va *emigratsiya* shakllarida ham uchraydi. Migratsiya — aholining bir mamlakat ichida o'z joyini o'zgartirishidir; emigratsiya — aholining uzoq muddatga yoki doimiy yashash uchun o'z mamlakati hududidan boshqa mamlakat hududiga ko'chishini anglatadi; immigratsiya — biron-bir mamlakatga doimiy yoki uzoq muddat yashash uchun ko'chishidir.

Shu tariqa, migratsiya tushunchasi odamlarning jug'rofiy kengliklarda ko'chib yurishi ma'nosida ishlatilib, uning sotsial harakatchanlikka hech qanday aloqasi yo'q. Migratsiyaviy jarayonlar turli omillar ta'sirida ham amalga oshirilishi mumkin: *stixiyali* — tabiiy ofatlar (yer silkinishi, suv toshqini, keskin ekologik o'zgarishlar), *etnik* — ixtiloflar va urushlar, Suriyadagi kabi terroristik bosqinlar, keskin iqtisodiy inqirozlar, turli siyosatni qo'llashlar natijasida (masalan, industrashtirish davrida qishloq aholisining shaharga ko'chib o'tishi ko'paygan edi). Odamlarning yangi yashash maskanlariga joylashtirish, ularni ishga joylash va madaniy shart-

sharoitlar yaratish davlatning migratsiyaviy siyosatining mazmunini tashkil etadi. Aks holda, jamiyatda turli ixtiloflar paydo bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida aytganda, sotsial harakatchanlik modernizatsiyalashuv jarayonini o'z boshidan kechirayotgan jamiyatning muhim jihatlaridan biridir. Harakatchanlikni o'rganib, biz butun bir jamiyatning strukturasi, guruhlari va ayrim individlarining imkoniyatlarini bilib olamiz. Alohida olingan individning oldingi hayotidagi sotsial va professional holatini uning hozirgi paytdagi holati bilan taqqoslab, biz bu individning hayotda yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishi to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lamiz. Individning ta'lim vositasida martabasining yuqorilashi, uning dastlab yoki keyin qanday mashg'ulot bilan band bo'lganligini o'rganish jarayonida jamiyat a'zolari harakatchanligining darajasini belgilab beradigan voqeliklar — uning bosib o'tgan yo'li, undagi to'siqlar, yutuqlar, muvafaqqiyatsizliklar kabilarni kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi.

Harakatchanlik sotsial tajribalarni, shuningdek, odamlarning sotsial ahamiyat kasb etadigan shaxsiy qobiliyatlari va xizmatlarini bir joyga yig'ib o'rganishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, sotsial harakatchanlik bandlik, mehnat bozori va kasb-korning o'zgarishlari kabi sohalarni jamiyatdagi qatlamlashuv jarayonlari va strukturaviy notenglik tahlillari bilan uyg'unlashuvini ta'minlab beradi.

8.5. Jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida yangi tamoyillar

So'ngi o'n yilliklarda rivojlangan mamlakatlar jamiyatining sotsial strukturasi sifatida sotsioiqtisodiy, siyosiy, xulqiy va boshqa belgilari bilan o'zaro farqlanadigan yangi guruhlar va qatlamlar yanada ko'paydi. Bu davrga kelib sinflar, stratalar, sotsial qatlamlar strukturasi va o'zaro aloqalari xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi: ichki sinfiy farqlanish jarayonlari faollashdi, sotsial birliklarning harakatchanligi (mobilligi) kuchaydi, yangi qatlamlararo guruhlar shakllandi.

Shuningdek, g'arb mamlakatlarida bozor munosabatlarini sotsial birliklar determinanti sifatida talqin etadigan yangi konsepsiyalar keng tarqaldi. Ayniqsa, ingliz sotsiolog olimi *A. Giddens* ilgari surgan konsepsiyada bu kabi nazariy jihatlariga muhim ahamiyat berildi. Bu konsepsiyaga binoan, sinflar moddiy resurslarga egalik qilish va ularni nazorat etishdagi tengsizliklar sababli paydo bo'ladi, sinfiy mansublikning asosiy ko'rsatkichi individ va guruhlarning imkoniyatlarini aniqlash - ularning egallagan mulki, kasbiy salohiyati, bilimi va texnikaviy saviyasi, shuningdek jismoniy ishchi kuchi kabi ko'rsatkichlar asosida ifodalandi.

Unga muvofiq tarzda g'arb jamiyatlarini uchta sinfga bo'lish rusumga kirdi: *yuqori, o'rta, pastki*.

Ana shu tasniflash asosida oliy sinfni tahlil etishga doir misol tariqasida AQSh jamiyatini keltirish mumkin: o'tgan o'n-yilliklarda yuqori qatlamning tezlik bilan boyib borganligi kuzatildi. 200 mingdan 400 mingacha odamni tashkil etgan aholi vakillarining (AQSh aholisining 0,1-0,2 %) har biri qiymati 10 mln. dollardan kam bo'lmagan mulkka ega bo'lib, yiliga bir necha mln. dollar daromad ola boshladi. Taxminan 200 mingta yuqori sinf vakillari 5 dan 10 mln. dollargacha, yana 300 mingtasi esa 2 mln.dan 5 mln. dollargacha yillik daromad olishga erisha boshladi.

AQShda taxminan 1,5 mln.ga yaqin NNT (nodavlat notijorat tashkilotlar) faoliyat yuritadi. NNT jamiyatning hamma sohalarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, ular tashqi siyosat, saylovlar, atrof-muhitni himoya qilish, sog'liqni saqlash, ayollar huquqi, iqtisodiy rivojlanish, yoshlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish kabi yo'nalishlarda aholining manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda etadi va himoya qiladi. Shuningdek, NNT siyosat bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, diniy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari — qashshoqlar, ruhiy kasallar, yoshlar kabilarga yordam berish faoliyati bilan shug'ullanadi. AQShdagi NNT faoliyati xususiy shaxslar, xususiy sektordagi tijorat kompaniyalari, xayriya jamg'armalari, a'zolik badallari yoki federal va mahalliy hokimiyat organlari (grantlar) kabilar tomonidan moliyalashtiriladi³⁰⁴.

XX asrning o'rtasidan boshlab shakllangan fuqarolik jamiyatiga nisbatan amerikanча yondashuv bu sohada eng mashhur va taniqli bo'lgan — Merilend shtatidagi Baltimor shahriga joylashgan Jon Xopkins universitetining «The Comparative Nonprofit Sector Project» loyihasida yaqqol ko'zga tashlandi. Bu loyihadan kelib chiqib NNTning faoliyat turlari 12 ta yo'nalish bo'yicha belgilandi: 1) madaniyat va dam olish; 2) ta'lim va tadqiqot; 3) sog'liqni saqlash; 4) sotsial xizmatlar; 5) atrof-muhitni himoya qilish; 6) lokal hamjamiyatlarni rivojlantirish; 7) inson huquqlarini himoya qilish; 8) filantrop³⁰⁵ uchun vositachilik qilish; 9) xalqaro; 10) diniy; 11) kasbiy uyushmalar, biznes va kasaba uyushmalari; 12) boshqa yo'nalishlar.

Mazkur loyiha mezonlari doirasida 35 ta mamlakatda (16 ta rivojlangan, 14 ta rivojlanayotgan, 5 o'tish davri iqtisodiyotini o'z boshidan

³⁰⁴История НКО в США. Блог посольства США в Москве//<http://embassy-voices.livejournal.com/19048.html>.

³⁰⁵Filantrop - [yunon. philanthropes] - filantropiya bilan shug'ullanuvchi, xayr-ehson qiluvchi shaxs.

kech irayotgan) NNTning strukturasi, hajmi, ular faoliyatidagi muammolar va natijalarga doir tadqiqotlar olib borilib, ularning yakunlari natijasi o'laroq quyidagilar aniqlandi: Bu mamlakatlarda YaIMdagi uchinchi sektor hissasi 1,3 trl. yoki YaIMlar yig'indisini 5,5 % ini tashkil etgan. NNTda deyarli 40 mln. odam (shundan 20 mln. kishi ish haqi olib ishlagan) faoliyat yuritib, bu ko'rsatkich 35 ta mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil etgan³⁰⁶.

Hozirgi davrga kelib yuqori sinf murakkab ichki strukturaga egaligi bilan tavsiflana boshladi - u mulkning tashkiliy shakllariga bog'liq holda toifalashgan guruhlar sifatida saflashdi: qo'shimcha kapital o'lchami va sohasi; kasbiy faoliyatining (oliy darajali menejerlar, siyosatchilar, boshqaruvchilar) turlari; turmush tarzining xususiyatlari; siyosiy maqsadi va yo'nalishi; etnik, hududiy, demografik va boshqa belgilari.


Postindustrial mamlakatlarda yuqori sinfning sotsial tarkibidagi o'zgarishlar quyidagilar bilan birga sodir bo'la boshladi:

-yirik mulkdorlarning jamiyatda tutgan o'rni yanada mustahkamlanmoqda;

-bir tomondan, yollanma xodim, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari egasi sifatida faoliyat yuritayotgan oliy darajali xodimlar va menejerlar rolining jiddiy ravishda o'sib borishi;

-katta siyosatda yuqori sinf vakillari faolligining o'sib borayotganligi, siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ular moliyaviy xarajatlarining oshib borishi.

Bu sinfning miqdorini faqat taxminan chamalab aytish mumkin: bu ko'rsatkich iqtisodiy faol aholining taxminan 3-4 foizini tashkil etadi.



M a r g i n a l l a r

8.1-rasm. Industrial jamiyatning sotsial strukturasi

³⁰⁶Санович С.Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий обзор).Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала "Socpolitika.ru"/>http://www.socpolitika.ru/rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.

Mashhur tarixchi *Arnold Toyinbining* fikricha, *zamonaviy sivilizatsiya* — bu oʻrta sinf sivilizatsiyasi. Rivojlangan mamlakatlar jamiyati strukturasi oʻrta sinfning hissasi 60-70 foizni tashkil etadi. Turli ilmiy maktablar oʻrta sinfni sotsial birlik sifatida ajratib koʻrsatish uchun turli mezonlardan foydalanadi. Koʻpincha maqomning oʻzini oʻzi baholashi va daromad mezon sifatida qoʻllaniladi. Gʻarb jamiyatlarining uchdan ikki qismi oʻrta sinf oladigan daromadga yaqinlashib kelmoqda, kambagʻallar va boylar unchalik koʻpchilikni tashkil etmaydi, qabilidagi qarashlar keng tarqaldi. Aksariyat tahlilchilar hozirgi oʻrta sinf — bu mayda ishlab chiqarish vositalariga mulkiy egalik qiluvchilardir, degan fikrni bildirmoqda. Bu kabi mayda ishbilarmonlar — «eski oʻrta sinf» deb ataluvchi AQSh fermerlari va Buyuk Britaniya savdo-sotiq korchalonlari aholining 10-15 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlardagi «yangi oʻrta sinf» yoki «menejerlar va mutaxassislar sinfi» deb ataluvchi sotsial birlik aholining 20-25 foizini tashkil etib, ularning aksariyat qismi oliy maʼlumotli mutaxassislar, aqliy mehnat xodimlari, erkin kasblar vakillaridan iboratdir. Agar asosiy mezon mehnatning turi sifatida qoʻllaniladigan boʻlsa, u holda oʻrta sinfga «oq yoqaliklar», yaʼni oliy maʼlumotga ega boʻlmagan («pastki oʻrta sinf») xodimlar ham mansub boʻladi. Shuningdek, oʻrta qatlamlarning bozor munosabatlariga bogʻliq holda va mehnat turidan kelib chiqib aniqlashdan tashqari ularning madaniy va qadriyatli yoʻnalganligi asosida aniqlash usuli ham keng qoʻllaniladi (Rasm 8.1. - gʻarbiy Yevropadagi umumiy holatni ifodalaydi).

Oʻrta qatlamlar jamiyatning farovon yashashi uchun zarur boʻlgan barcha ehtiyojlarni qondiradi: ishchi oʻrinlari, isteʼmol mollari, tibbiy yordam, ilmiy kashfiyotlar va boshq. Sotsiolog olimlarning fikricha, oʻrta qatlamlar — sinflar-muholiflar oʻzaro ixtiloflarini yumshatuvchi omil sifatida ham namoyon boʻlmoqda. Sotsial-iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, oʻrta sinfga turli kasblarga oid mehnatlar ichidagi, shuningdek shahar bilan qishloq turmush tarzi oʻzaro ziddiyatlarni kamaytirishga vositachilik qilish ham xosdir. Oʻrta sinf oila munosabatlarida, yaʼni jamiyat tomonidan ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish sohasida, anʼanaviy oilalar qadriyatlarini yoyish omili sifatida namoyon boʻlmoqda. Siyosiy munosabatlarda oʻrta qatlamlar anʼanalar, meʼyorlar, bilimlarni tashuvchi, yuksak fuqarolik va mustaqil shaxslikni namoyish qilish harakatlarining markazi rolini bajarishdan tashqari bu sohaning ijtimoiy tayanchi, deb eʼtirof etila boshlandi³⁰⁷.

³⁰⁷Караңг:Гражданское общество:понятие,структура,функции//<http://geum.ru/book/133/532.html>.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturasiida pastki qatlamlar o'rtasida onda-sonda ijtimoiy-siyosiy tanglikning o'sib turishiga qaramasdan, bunda o'rtqa qatlamning asosiy o'rinni egallashi natijasida jamiyatni barqaror ravishda yashashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Pastki qatlamlar o'rtasidagi tangliklar ko'pchilikning (ayniqsa, o'rtqa sinfning) betaraf vaziyatda turishi natijasi o'laroq yumshatilmoqda. Eng muhimi — bu o'rtqa sinfning fuqarolik jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy tayanchi, demokratik o'zgarishlarning siyosiy asosi sifatida namoyon bo'layotganligidir. Shu bilan birga, o'rtqa sinf yuqorining ta'siri va pastdan bo'ladigan bosim ostida — «ikki qavatli parda» o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatda turganligi uchun bu sinfning kuchli ta'siri ostida turli ziddiyatli ijtimoiy keskinlarni yumshatish imkoni topilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturalaridagi sezilarli o'zgarishlardan yana biri — bu mehnat qilayotgan aholi real daromadlarining o'sib borishi hisoblanadi. Lekin, shu bilan birga, bu daromadlarning taqsimlanishi tengsizlik asosida ro'y bermoqda. Eng boy va eng kambag'al qatlamlar daromadlarining o'zaro nisbati AQShda 12:1, Fransiyada 9:1, Buyuk Britaniyada 8:1, GFR, Shvetsiya, Niderlandiya Qirolligida 5:1, Yaponiyada 4:1 kabi teng bo'lmagan nisbatlarda ifodalanadi³⁰⁸.

Industrial rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturasiini tahlili shuni ko'rsatadiki, bu struktura tarkibi turli-tuman guruhlar va qatlamlardan iborat bo'lib, ular qator ko'rsatkichlar bo'yicha bir-birlaridan farqlanadi. Hozirgi davrda bu ko'rsatkichlarni va sinflarning o'zaro chegaralarini aniqlash uchun sotsial stratifikatsiyaning har xil mezonlaridan foydalanishga to'g'ri kelmoqda. Ular asosan quyidagilardir: mehnatning ijtimoiy taqsimot tizimidagi ahvoli, olinadigan daromadning hajmi va yo'llari, kasbiy funksiyaning xususiyatlari, hayot kechirish uslubining xususiyatlari, ma'lumotlilik darajasi va boshqalar.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlar jamiyatlarining sotsial toifalashuvi quyidagilar bilan tavsiflanadi: birvarakayiga bir necha sinflar belgilarini o'zida ifodalaydigan ko'p sonli guruhlarining paydo bo'lishi; ichki sinfiy tabaqalanishlarning faollashuvi; struktura unsurlari harakatchanligining o'sishi; moddiy hayot darajasining oshib borishi. Bu jarayonlar ko'p jihatlardan rivojlangan mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va farovon jamiyat qurish g'oyalarini yanada salmoqli tarzda ro'yobga chiqishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Hozirgi davrdagi rivojlangan mamlakatlarning asosiy strategik vazifasi — bu turli sotsial guruhlarining manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirish yo'li bilan umum fuqaroviy konsensusga

³⁰⁸O'sha joyda.

erishish, jamiyatni integratsiyalashga qaratilgan fuqarolik birdamligini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda stratifikatsiyaviy va sotsial harakatchanlik jarayonlari.

Sobiq ittifoq davrida jamiyatda faqat ikkita sinf - ishchilar (proletariat) va dehqonlar, bitta qatlam — ziyolilar (intelligensiya) mavjud, degan aqida hukm surdi. Bu ikki sinf va bir qatlam ichida yana qanchalar sotsial qatlamlar va guruhlar mavjud ekanligi e'tirof etilmadi.

O'zbekistonda stratifikatsiyaning yangi bosqichi XX asrning 90-yillaridan boshlandi. Mamlakatni bozor iqtisodiyoti asosidagi fuqarolik jamiyatiga o'tish davrining dastlabki davridayoq turli mulkchilik shakllari va iqtisodiy faoliyat subyektlari bilan bir vaqtda bilan kuchli nodavlat sektor ham shakllana boshladi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish va vositachilik, moliyaviy-bank ishlari sohalarida band bo'lganlarning soni ko'payib bordi. Mamlakatda bozor iqtisodiyoti va faoliyatning yangi turlari bilan bog'liq bo'lgan yangi sotsial qatlamlar va guruhlar (marketing va reklama xizmati xodimlari, aksioner va xususiy korxonalar menejerlari, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar qiymatini baholovchi mutaxassislar, tadbirkorlar, fermerlar, yakka xo'jalik yurituvchi dehqonlar, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi guruhlar va boshq.) shakllandi.

Bu davrdagi eng muhim o'zgarish — bu mulkdorlar qatlami (o'rta sinf), yoki biznes-qatlamning shakllanishi bo'ldi. Bu qatlamning o'zi yana quyidagi sotsial ostki qatlamlarga bo'lina boshladi: menejer-sherikchilik mulk egalari, yollanma menejerlar, mulk egasi bo'lgan tadbirkorlar, kichik biznes bilan shug'ullanadigan kichik korxonalar egalari, biznesmen-menejerlar, fermerlar, fermer xo'jaligida ishlovchi ishchilar va hokazo. Shuningdek, sobiq ittifoq davridan buyon yashab kelayotgan ishchilar va dehqonlar sinfi, ziyolilar qatlami sotsial tarkibida ham bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos bo'lgan tub o'zgarishlar yuz berdi. Endi jamiyatdagi ishchilarning hissasi ilg'or texnologiya asosida ishlaydigan xodimlarning ko'payishi evaziga keskin qisqardi. Dehqonlar sinfining asosiy qismi yangi jamiyatda fermerlik xo'jaliklarida faoliyat yurita boshladi, yana bir qismi yakka faoliyat yurituvchi dehqon xo'jaliklari sohiblariga aylandi.

O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya jarayoni mustaqillik davrida keskin avj oldi. Sobiq ittifoq davrida mamlakatda mulkdorlar qatlami (o'rta sinf) XX asrning 30-yillardayoq butunlay yo'q qilib tashlangan edi. Mustaqillikning dastlabki davrida bu qatlamning shakllanish jarayoni boshlandi. O'rta qatlam 2015-yilga kelib u aholining 28 foizini tashkil qilmoqda. Bu qatlamning shakllanishi uchun zaxiraga mansub bo'lgan odamlar aholi asosiy qismining 45 foizini tashkil etadi.

Hozirgi davrda mulkdorlar qatlami zaxirasiga mansub bo'lgan aholining o'rtacha kishi boshiga taqsimlanadigan daromadi o'rta sinf daromadidan 2,5-3,5 marta kam bo'lmoqda. Hozirgi kunda o'rta sinf zaxirasidagi odam — bu sinfga kirishi uchun o'zining oilasida kishi boshiga to'g'ri keladigan daromadini ikki marta oshirishi lozim. O'rta sinf zaxirasidagi aholi hisobiga bu sinf ko'lamini oshirish uchun «sotsial liftlar» deb ataladigan harakatchanlikni yuqoriga ko'taradigan quyidagi omillarni yanada rivojlantirish taqozo etilmoqda: ta'lim, davlat xizmati, tadbirkorlik, mehnat bozori va boshq.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan stratifikatsiyaviy jarayonlar avj olib bormoqda. Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishib borishiga mutanosib ravishda jamiyatdagi stratalar va ularning sotsial harakatchanligi jamiyatning industrial bosqichiga xos bo'lgan ko'rinishlar va ko'lamlarni kasb etmoqda. Bu holat oldingi sinflar va sotsial qatlamlarning qisqarib borishi va yangi sotsial qatlamlar hamda guruhlarining shakllanish jarayonida ham namoyon bo'lmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Antik davr mutafakkirlari jamiyat sotsial strukturasi qanday fikrlar bildirgan?
2. Abu Nasr Forobiy jamiyat sotsial strukturasi to'g'risida qanday tahlillarni amalga oshirgan?
3. «Sotsial» va «struktura» tushunchalari nima va ular qanday tarzda o'zaro bog'lanadi?
4. «Jamiyat sotsial strukturasi» deganda nimani tushunasiz?
5. «Sotsial stratifikatsiya» nimani anglatadi?
6. P.Sorokin sotsial stratifikatsiyaga doir qanday nazariy qarashlarni ilgari surdi?
7. Stratifikatsiyaviy struktura va uning turlari deganda nimani tushunasiz?
8. Hozirgi davrda jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida qanday yangi tamoyillar paydo bo'ldi?
9. «Sotsial harakatchanlik» deganda nimani tushunasiz?
10. O'zbekistonda qanday stratifikatsiyaviy jarayonlar rivojlanmoqda?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususi mulkni har tomonlama himoya qilishga

va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.5.10.2016.//Xalq so'zi,2016, 6-okt.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.2017.//http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.

5.Karimov I.A.Asarlar.1-24 jild.-T.:O'zbekiston,1996-2016.

6.Mirziyoyev Sh.M.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr // <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.

7.Mirziyoyev Sh.M.Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr,2016,20-oktyabr.

8.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javob-garlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.:O'zbekiston,2017.

9.Большой толковый социологический словарь.(Collins).Т.1-2/ Пер. с англ.-М.:Вече,АСТ,1999.

10.Гидденс Э.Социология:учебник 90-х годов (реферированное издание).-Челябинск,1995.

11.Монсон П.Лодка на аллеях парка:Введение в социологию:Пер. с швед.-М.:Весь мир,1994.

12.Белл Д.Грядущее постиндустриальное общество:Опыт социального прогнозирования/Пер.с англ.-М.:Academia,1999.

13.Бергер П.,Лукман Т.Социальное конструирование реальности:Трактат по социологии знания./Пер.с англ.Е.Д.Руткевич-М.:Медиум, 1995.

14.Бурдые П.Социальное пространство и генезис «классов»// Вопросы социологии,1992.Т.1.№1.-С.17—36.

15.Вебер М.Избранное.Образ общества/Пер.с нем.-М.:Юрист,1994.

16.Вебер М.Основные социологические понятия//Западно-европейская социология XIX - начала XX веков.-М.,1996.

17.Вебер М.Основные понятия стратификации//Социол. исслед., 1994.№5.-С.147-156.

18.Гидденс Э.Социология.-М.:Эдиториал УРСС,1999.

19.Гидденс Э.Стратификация и классовая структура//Социол. исслед.1992.№9-10.

20. Гидденс Э. Устроение общества: Очерк теории структуризации. 2-е изд. - М.: Академический Проект, 2005.
21. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии/Пер. с фр. и послесловие А. Б. Гофмана. - М.: Наука, 1990.
22. Джери Дж., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь. Том I. - М.: ВЕЧЕ. АСТ, 1999.
23. Жолмухамедова Н. Х. В поисках прекрасного: аль-Фараби и Ибн Сина. Монография/Под общ. ред. З. К. Шаукуновой. - Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2014.
24. Луман Н. Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./А. Антоновский. - М.: Издательство "Логос". 2004.
25. Луман Н. Что такое коммуникация; Глоссарий//Социол. журн., 1995. №3. - С. 114-127.
26. Мертон Р. К. Социальная теория и социальная структура//Социол. исслед., 1992. №2. - С. 118-124.
27. Мертон Р. К. Социальная структура и аномия//Социол. исслед. 1992. №3. - С. 104-114; №4. - С. 91-96.
28. Миллс Р. Властвующая элита. - М., 1959.
29. Мосс М. Общества. Обмен. Личность: Труды по социальной антропологии/Пер. с франц. - М.: Изд. фирма «Восточная литература», 1996.
30. Парсонс Т. О структуре социального действия. - М.: Академический Проект, 2000.
31. Парсонс Т. Система современных обществ/Пер. с англ. Л. А. Седова и А. Д. Ковалева. Под ред. М. С. Ковалевой. - М.: Аспект Пресс, 1997.
32. Платон. Государство. Законы. Политик/Пер.; предисл. Е. И. Темнова. - М.: Мысль, 1998.
33. Поппер К. Открытое общество и его враги. В 2 т. Т. I: Чары Платона. Пер. с англ.; под ред. В. Н. Садовского. - М.: Феникс, Межд. фонд «Культурная инициатива», 1992.
34. Санович С. Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий обзор). Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала "Socpolitika.ru"//http://www.rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.
35. Сорокин П. А. Человек. Цивилизация. Общество./Пер. с англ. - М.: Политиздат, 1992.
36. Фараби. Социально-этические трактаты. - Алма-ата: Наука, 1975.
37. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. - Т.: А. Қодирий ном. халқ мероси нашриёти. 1993.

9-mavzu. SOTSIAL MUNOSABATLAR

9.1.Sotsial munosabatlar tushunchasi va ularning talqinlari.

9.2.Sotsial munosabatlarning turlari.

9.3.Klassik olimlar va ekszenstensializm tarafdorlari jamiyatdagi begonalashuv to'g'risida.

9.4.Sotsial munosabatlar tizimida plyuralizm, notenglik va tenglikning amal qilishi.

9.5.Sotsial barqarorlik va inqiroz — jamiyatning muhim sotsial munosabatlari.

Tayanch tushunchalar: jamiyat, sotsial aloqalar, sotsial munosabatlar, sotsial tizim, sotsietallik, sotsial birlik, sotsial qatlam, sotsial guruh, hamfikrlik, mehnat taqsimoti, kooperatsiya, ixtiloflar, kurash, begonalashuv, sotsial anomiya, befarqlik, notenglik, tenglik, siyosiy tizim, sotsial institutlar, plyuralizm, mulkdorlar qatlami, sotsial barqarorlik, beqarorlik, inqiroz, milliy g'oya.

9.1. Sotsial munosabatlar tushunchasi va ularning talqinlari

Insonning nihoyatda kichik va oz sonli guruhdagi sotsial aloqalari xatti-harakatlar va aks ta'sirlardan iborat bo'lgan juda ham ko'plab o'zaro ta'sirlar va munosabatlarni o'zida mujassamlaydi. Bu jarayonda individlarning turlicha miqdorlarini o'ziga qamrab olgan o'zaro aloqalar va munosabatlarning murakkab to'rsimon tarmog'i vujudga keladi. Bu barcha o'zaro ta'sir va harakatlarning yig'indisidan asta-sekinlik bilan o'zaro harakat qilayotgan individlarning xulqlariga tegishli ravishda ro'y beradigan, o'zaro xatti-harakatda bo'lgan individlarning oqilona-hissiy idroklari asosida muayyan o'ziga xos shaklga ega bo'ladigan barqaror *sotsial aloqalar* ajralib chiqadi. Bu kabi o'z mazmuniga ko'ra bir-biriga nisbatan o'zaro munosabatlar va tegishli xulq bilan tavsiflanuvchi, anglangan, hissiy qabul qilinadigan va takrorlanuvchan o'zaro ta'sirlar va aloqalarning yig'indisi *sotsial munosabatlar* deb ataladi.

Sotsial munosabatlar sotsial aloqalardan farqli ravishda o'z ma'no va mazmuni bilan aniq va ravshan tarzda ajralib turadi. Masalan, boshqa begona guruhga tushib qolgan talaba ma'ruza, seminar va o'qishdan tashqari ro'y beradigan munosabatlarda boshqa talabalar bilan o'zaro aloqalar qilishga kirishadi. Vaqt o'tgani sari takrorlanib turuvchi o'zaro aloqalar o'z mazmuniga ko'ra turlicha - mehr, nafrat, sadoqat, beparvolik,

dushmanlik, do'stlik, hurmatlash, foydali almashuv, majburiyatni bajarish, mensimaslik kabi turlicha sotsial munosabatlarni vujudga kelishiga olib keladi.

Sotsial guruh a'zolarining har biri qator o'zaro aloqalardan tashqari yana boshqa guruhlar a'zolari bilan o'z shakli va mazmuniga binoan turli-tuman va muayyan munosabatlarga kirishadi. Bu sotsial munosabatlarning boy manzaralarini o'rganish uchun ularni tasniflash va ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlashga ehtiyoj seziladi. Dastlab barcha sotsial munosabatlar *bir tomonlama* va *o'zaro* (ko'p tomonlama) turlarga bo'linadi. Bir tomonlama sotsial munosabatlarda bu jarayon ishtirokchilari mazkur munosabatlarga turlicha mazmun baxsh etadi: individ tomonidan izhor qilingan mehr va uning obyekt tomonidan ifodalanadigan aks ta'sirga — mensimaslik yoki nafratga duch kelishi mumkin. Bunda birinchi ishtirokchi individ o'zidagi his-tuyg'ularni o'zi munosabatlarda bo'lgan sherigi yoki sheriklari ham his qilyapti, deb faraz qiladi. Uning xulqida mana shu kutilayotgan umidga nisbatan o'z xulqini yo'naltirishga doir munosabatdorlik paydo bo'ladi. Mana shu umid hamda kutishning kuchi va bu hodisaga moslashgan xulqi uning boshqa sheriklar bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, agar yoqtirish maylining maqsadi kuchsiz va noaniq bo'lsa, dastlabki yoqtirish mayli xush ko'rmaslikka duch kelganidan keyin nafratga o'sib o'tishi mumkin; lekin, bu yoqtirish mayli kuchli va aniq maqsad asosida paydo bo'lsa, unda sheriklarning o'zaro bir-birlariga nisbatan mayllari bo'lmasa bu munosabatlar uzoq vaqt o'zgarmasdan turishi mumkin.

Sotsial munosabatlarning shakllanishi. Ba'zan o'xshash o'zaro aloqalardan tug'iladigan sotsial munosabatlar o'z mazmuniga binoan bir-birlaridan farqlanadi. Masalan, ixtilofli o'zaro aloqalar bir vaqtning o'zida turli individlarda turlicha — nafrat, hamfikrlilik yoki do'stlik kabi munosabatlarni hosil qilishi mumkin. Shuni shak-shubhasiz aytish mumkinki, sotsial aloqalar turlicha asoslarda amalga oshiriladi. Hozirgi davrning taniqli sotsiologlari — *G. Lassvell* va *A. Keplen* fikricha, sotsial aloqalarga muayyan ranglar va mazmunlar baxsh etuvchi, ularni sotsial munosabatlarga aylantiruvchi asoslar — bu qadriyatlardir³⁰⁹.

Qadriyatni istak (umid qilingan) maqsadi hodisasi sifatida ifodalash mumkin. U holda, X subyekt Y obyektini hurmat qiladi, bu shuni bildiradiki, X subyekt Yni darajasiga etib borishga, yoki, juda bo'lmasa, bu darajaga yaqinlashishga harakat qiladi. Bunda shaxs o'zini o'rab olgan

³⁰⁹Lasswell H., Kaplan A. Power and society: A framework for political inquiry. N.Y., 1963. - P. 154-215.

muhitning barcha yo'nalishlariga bo'lgan munosabatlarni baholash vaziyatida turadi. Lekin, shaxs boshqa kimgadir nisbatan sotsial harakatni u o'zi qadrlagan, faqat buyum-ashyolar va boshqa narsalar uchun, ya'ni o'ziga foydali deb bilgan istaklari asosida, boshqacha aytganda, qadriyatlar uchun amalga oshiradi. Bu holatda qadriyatlar har qanday o'zaro aloqalarning zaruriy sharti bo'lishi uchun turtkilar berib turish omili bo'lib xizmat qiladi. Uzoq vaqt ahamiyat kasb etib turadigan, o'tkinchi bo'lmagan qadriyatlar odamlarning barqaror sotsial munosabatlari tavsifini belgilab beradi. Masalan, o'zaro munosabatlar asosi bo'lgan qadriyat sifatida boylik olinadigan bo'lsa, unda iqtisodiy hokimiyat, iqtisodiy majburlash, kredit, xayr-sahovat munosabatlari qadriyatlarining o'zaro almashuv shartlariga bog'liq bo'lgan sotsial munosabatlar vujudga keladi.

Jamiyatdagi notenglik tufayli qadriyatlar jamiyat a'zolari o'rtasida tekis bo'linmaydi. Har bir sotsial guruh, sotsial qatlam yoki sinfningsotsial birlik a'zolari o'rtasida qadriyatlarni taqsimlashi ularda bir-birlaridan farq qilgan holda ro'y beradi. Bu kabi taqsimlash o'zaro aloqalarning dastlabki holatiga, so'ngra sotsial munosabatlariga bog'liq holda kechadi. Qadriyatlarni ayni notekis taqsimlashda hokimiyat va bo'ysunish, iqtisodiy munosabatlarning barcha turi, do'stlik, mehr, sheriklik va boshqa munosabatlar quriladi. Sotsial guruhda qadriyatlarni taqsimlash mazkur guruhning *qadriyatli namunasi* deb ataladi. Qandaydir muayyan sotsial guruhning qadriyatli namunasi o'lchash uchun guruh o'rtasidagi qandaydir qadriyatlarining ko'rsatkichlarini bo'linishini ko'rsatadigan *taqsimlovchi indeks* ishlatiladi. Bu indeks qanchalik yuqori bo'lsa, mazkur qadriyat sotsial guruh ichida shunga tegishli ravishda tekis taqsimlanmaydi³¹⁰.

Qadriyatli namunadagi ayrim olingan individ yoki bir xildagi sotsial obyektning o'rni *qadriyatli joylashish vaziyati* deyiladi. Qadriyatlarni bo'lishda imtiyozga ega bo'lgan shaxs yoki guruh yuqori qadriyatli joylashish vaziyatiga ega bo'ladi, ozroq qadriyatlarga ega shaxs yoki guruh past qadriyatli joylashuv vaziyatiga ega bo'ladi. Qadriyatli joylashish vaziyati qadriyatli namunaga o'tishi bilan o'z o'zgaruvchanligini yo'qotib boradi, qadriyatlarni olishga (o'zlashtirishga) qaratilgan jarayon — mavjud qadriyatlarni va o'zaro aloqalarni almashuvini borishida individlar va sotsial guruhlar muntazam ravishda qadriyatlarni o'zlari o'rtasida qaytadan taqsimlab turadi.

Odamlar qadriyatlarga erishishga intilishlar jarayonida mavjud qadriyatli namunani adolatsiz deb baholab, unda ular ixtilofli o'zaro ta'sirlarga

³¹⁰Фролов С.С. Социология. Учебник. Для высших учебных заведений. - М.: Наука, 1994//<http://tostudy.ru/referats/materials/frolov/fl5.php>.

kirishadi va o'z shaxsiy qadriyatli vaziyatlarini o'zgartirish uchun harakatlari faollik bilan bilan kechadi. Agar ular qadriyatli namunani ma'qul deb topsalar yoki boshqa shaxslar yoki guruhlariga qarshi biron-bir ittifoqqa kirsalar, u holda *kooperativ* o'zaro munosabatlardan foydalanadi. Va nihoyat, agar odamlar qadriyatli namunani adolatsizlikka asoslangan deb bilsalar, lekin, guruhning boshqa qismi turli sabablarga binoan mavjud holatni o'zgartirishga intilmasa, u holda yon berishlar shaklidagi o'zaro munosabatlarga kirishadi.

Individlarning faolligi ikkita ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi: 1) qadriyatli *ekspektatsiya*³¹¹ (bu individ tomonidan kutiladigan vaziyat) — qadriyatli namunadan qoniqishni bildiruvchi ko'rsatkich: 2) *qadriyatli talablar* (bu qadriyatlarni taqsimlash jarayonida individ yoki guruh tomonidan egallashga urinadigan vaziyat). Shunday holatlar ham bo'ladiki, individ yoki guruh yuqori qadriyatli ekspektatsiyaga ega bo'ladi, lekin yanada yuqori vaziyatlarni egallash uchun harakat qilmaydi. Faqat qadriyatli ekspektatsiyani yuqori qadriyatli talablar bilan birikuvi natijasida qadriyatlarni qayta taqsimlashga qaratilgan o'zaro faol munosabatlarga imkoniyatlar yaratiladi. U yoki bu qadriyatli vaziyatga erishishning haqiqiy imkoniyati *qadriyatli potensial* (salohiyat) deyiladi.

Demak, *sotsial munosabatlar* turli-tuman qadriyatlarni egallashga qaratilgan o'zaro munosabatlar va aloqalardan vujudga keladi. Insoniy qadriyatlarni tahlil etish ularni ikkita asosiy guruhga bo'lishga imkon beradi: farovonlik qadriyatlari va boshqa qadriyatlar. *Farovonlik qadriyatlari* deganda, individlarning jismoniy va aqliy faolliklarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar tushuniladi. Qadriyatlarning bu guruhiga avvalambor quyidagilar mansubdir: xotirjamlik (eson-omonlik), boylik, mahorat (malaka), ma'rifatlilik (o'qimishlilik). *Xotirjamlik* individning sog'-salomat ekanligi va xavfsizligini anglatadi; *mahorat* — ba'zi amaliy faoliyatlarda orttirilgan professionalizm; *ma'rifatlilik* — individning bilimi va axborotga egalik salohiyati, shuningdek uning madaniy aloqalari.

Boshqa qadriyatlar muayyan individ yoki boshqalar xatti-harakatlarida ifodalanadi. Ularning ichida muhim ahamiyat kast etadiganlari — bu hokimiyat, hurmat, ma'naviy qadriyatlar va affektivlik³¹² hisoblanadi. Ularning ichida eng muhimi esa *hokimiyat* hisoblanadi. Bu eng yuqori

³¹¹Ekspektatsiya - [ingl. expectation] - shaxsga nisbatan uning sotsial rollarni ijro etish me'yorlarini aniqlab beradigan kutishlar va talablar tizimi.

³¹²Affekt - [lot. affectus - ruhiy iztirob, his-tuyg'u]— tezlik bilan paydo bo'ladigan, qayg'u va avjlanish bilan o'tadigan, kuchli, yorqin ko'rinishdagi ongning torayishi va o'zini o'zi nazorat qilishni pasayishi kuzatiladigan psihik holat.

va noyob qadriyat bo'lib, uni egallash boshqa har qanday qadriyatlarni egallashga imkoniyatlar yaratadi. *Hurmatlash* — bu maqom, nufuz, shuhrat va obro'-e'tibor kabilarga jozibalar bag'ishlovchi qadriyatdir. Bu qadriyatga ega bo'lish uchun intilish eng asosiy insoniy motivatsiyalardan biridir. *Ma'naviy qadriyatlar* o'z ichiga ezgulik, oliyanoblilik, oliyhimatlilik, adolatlilik va boshqa ma'naviy sifatlarni oladi. *Affektivlik* — bu avvalambor mehr, muhabbat va do'stlikni o'z ichiga oladigan qadriyatdir³¹³.

Bu sotsial qadriyatlarga tegishli bo'lgan tushunchalar sotsial munosabatlarning barcha turlarini anglashda duch keladigan muammolarni echish va ularni tushunishga yo'l ochib beradigan kalitdir. Bu kabi munosabatlar bir tomondan, qadriyatlarni olishga ehtiyojlar yoki ular ustidan nazorat qilish, boshqa tomondan, xohish-istakdagi qadriyatlar resurslari mavjudligi kuzatiladigan va doimo takroran yuz berib turadigan o'zaro aloqalar hamda ta'sirlar natijasida hosil bo'ladi. Aytaylik, bir individ boylik ko'rinishidagi resursga egalik qiladi, boshqasi esa moddiy qadriyatlarni egallashga qiziqmaydi. Bu holatda faqat munosabatlarning bitta turini amalga oshirish imkoniyati mavjud — ikki individdagi mustaqillik, qiziqmaslik va beparvolik. Quyidagi misol ko'pchilikka tanish: yuksak hokimiyat, boylik va katta nufuzga ega bo'lgan Iskandar Zulqarnayn Sinoplik mashhur faylasuf Diogenga o'zining ana shu qadriyatlaridan bemalol foydalanishi mumkin ekanligini izhor etdi: Iskandar faylasufdan istagan o'z xohishini bayon qilishini, uni darhol muhayyo qilishini aytdi. Lekin, bu taklif qilingan qadriyatlarga nisbatan Diogenda hech bir ehtiyoj yo'q edi. Shuning uchun u hukmdor taklifini rad etib, o'zining boshqa birdan-bir istagini bildirdi: sovqotgani uchun issiq nurlariga ehtiyoj sezayotgan Diogen quyoshni o'z gavgasi bilan to'sib turgan hukmdordan ozgina yurishni, u bu bilan quyoshdan baxramand bo'lishini bildirdi. Iskandar oldindan umid qilgan izzat-ikrom va tashakkur munosabatlari yuzaga kelmadi, Diogen xuddi hukmdor kabi o'zining mustaqilligi va sarbastligicha qoldi.

Shu tariqa, sotsial munosabatlarning mazmun va ma'nosi ehtiyojlarining qadriyatlar va unga egalik qilishining o'zaro aloqalar va ta'sirlarga qanday qo'shilishiga bog'liq holda aniqlanadi. 9.1-rasmda individlarning farovonlik va shu kabi boshqa qadriyatlarga egalik qilishi, shuningdek bu qadriyatlarga nisbatan boshqa individlarning ehtiyojlarining mavjudligi holatida asosiy sotsial munosabatlarning qanday shakllanishi ko'rsatilgan. Individlarning o'zaro aloqalari va ta'sirlari tashqi muhitning ko'plab omillariga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, sotsial munosabatlarni paydo bo'lishi

³¹³Фролов С.С. Социология. Учебник для высших учебных заведений.-М.: Наука, 1994. // <http://tostudy.ru/referats/materials /frolov/f15.php>.

Qadriyatlarga ehtiyojlar	Qadriyatlarga egalik qilish			
	Hokimiyat	Hurmatlash	Ahloq	Affektivlik
Hokimiyat	Siyosiy hokimiyat	Izzat-ikrom	Ishontirish	Sadoqat
Hurmatlash	Maslahatlar berish	Nufuz	Pand-nasihat	Hurmatlash
Ahloq	Murabbiylik	Ma'qullash	Axloqiy avtoritet	Yaqinlik, bog'lanish
Affektivlik	Shaxsiy ta'sir	Hurmatlash	Axloqiy ta'sir	Mehr
Xotirjamlik	Majburlash	Terror	Intizom	Kuch ishlatish
Boylik	Iqtisodiy hokimiyat	Yuqori martaba	Axloqiy avtoritet savdosi	Sotqinlik
Mahorat	Ekspertlar ta'siri	Ma'muriylik	Huquqiy ustomonlik	Ixlos
Ma'rifatlilik	Ekspert maslahati	Mashhurlik (shuhrat)	Donishmandlik	Xush ko'rish

Qadriyatlarga ehtiyojlar	Qadriyatlarga egalik qilish			
	Xotirjamlik	Boylik	Mahorat	Ma'rifatlilik
Hokimiyat	Majburlash	Iqtisodiy hokimiyat	Direktorlik	Ta'lim, o'qish
Hurmatlash	Xarizma	Kredit	Rahbarlik qilish	Bilimdonlik avtoriteti
Ahloq	Jazolash	Halol biznes	Farmoyish	Senzura
Affektivlik	Vasiylik	Xayr-saxovat	Tirishish, g'ayrat	Pand-nasihat
Xotirjamlik	Qo'pol kuch	Bosqinchilik	Majburiy mehnat	Tergov qilish
Boylik	Hayot kechirish vositalari ustidan hokimiyat	Iqtisodiy ta'sir	Bandlik munosabatlari	Reklama qilish
Mahorat	Jasorat	Unumdorlik	Menejment	Intellekt
Ma'rifatlilik	Boshqarish	Ma'lumotni (ta'limni) sotib olish	Yo'l-yo'riq berish	Bilimlar almashish

9.1-rasm. Sotsial munosabatlar asosiy turlarining shakllanishi*

ehtimollik xususiyatiga egadir. Masalan, bir individ yoki guruhda hokimiyatga nisbatan ehtiyoj mavjud, lekin, ular bilan o'zaro aloqalarda bo'lgan boshqalarda esa hokimiyatni nazorat qilish imkoniyati mavjud emas, lekin ular tomonidan bu qadriyatlar yuqori maqom va iftixorni tuyish sifatida nazorat qilinmoqda. Bu holda ehtimollikning katta darajasida yuz berayotgan o'zaro aloqalarda hurmat qilish munosabatlari vujudga keladi.

* Manba: Фролов С.С. Социология. Учебник. Для высших учебных заведений. - М.: Наука, 1994.

Rasmni nafaqat chapdan o'ngga, balki yuqoridan pastga qarab ham o'qish lozim. Masalan, agar men odamlarning xotirjamligi bilan bog'liq qadriyatlarga ega bo'lsam, yoki, ularni nazorat qilayotgan bo'lsam (ya'ni, men sog'liq-salomatlik va xavfsizlikka ta'sir qila olaman), unda boshqa odamlarning hokimiyatga nisbatan ehtiyoji meni ular bilan majburlashga asoslangan sotsial munosabatlarga kirishishga olib kelishi mumkin. Agar men o'zaro aloqalarga kirishadigan boshqa odamlarda yanada yuqoriroq maqomga aniq ifodalangan ehtiyojlar mavjud bo'lsa, unda bu holat xarizmatik munosabatlarga olib keladi. Agar ular boylikka bo'lgan ehtiyojlarini boshqalaridan afzalroq deb bilsalar, unda yashash uchun vositalar ustidan nazorat qiluvchi munosabatlar paydo bo'ladi.

Ochiq-oydin ko'rinib turibdiki, 9.1-rasmda insoniy jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sotsial munosabatlar keltirilmagan, balki, ularning ichidan faqat sotsial birliklarda doimiy ravishda mavjud bo'lib turadigan munosabatlar olingan. Amaliy hayotda yuz beradigan sotsial munosabatlarga ko'plab takrorlanmaydigan, turli ranglar bag'ishlaydigan insoniy faoliyat jarayonida ko'plab qadriyatlarning o'zaro almashuvlari va ular ustidan nazorat qilishlar ro'y beradi va bu jarayon ancha murakkab tarzda kechadi.

Shuni aytish kerakki, 9.1-rasmda yana qanday munosabatlar ixtiloflarga olib keluvchi noxushlik yoki dushmanlik uyg'otishi mumkin, qandaylari insoniylik, ezgulikka, har tomonlama bir-birini tushunishga va hamkorlikka olib keladi qabilidagi savollarga javob beradigan yana qator munosabatlarga chuqur e'tibor berilgani yo'q. Gap shundaki, murakkab insoniy munosabatlarning har biri, hattoki, u mehr bo'lsa ham, bir vaqtning o'zida dushmanlik ko'rinishidagi munosabat bilan o'zaro bog'liqdir, yoki, ezgulik va hamkorlik qisqa vaqtda toqatsizlik munosabati bilan almashib qolishi mumkin. Shuning uchun, agar sotsial aloqalarda hamkorlik yoki raqobatchilik haqida so'z ketsa, bu jarayondagi sotsial munosabatlar tasniflariga hech bir hojat qolmaydi³¹⁴. Lekin, sotsial munosabatlarni o'rganishga yondashuv qadriyatlarga egalik qilish va almashish nuqtai nazaridan amalga oshirilsa, u holda siyosat, biznes va ishlab chiqarish sohalaridagi munosabatlar to'g'risida samarali tahlillarni amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

³¹⁴Фролов С.С.Социология.Учебник.Для высших учебных заведений.-М.: Наука,1994//<http://tostudy.ru/referats/materials/frolov/fl5.php>.

9.2. Sotsial munosabatlarning turlari

Hamfikirlik (yoki birdamlik) tushunchalari dastlab *E.Dyurkgeym* tomonidan chuqur tadqiq etildi. U hamfikirlikning ikkita turini bir-biridan ajratib ko'rsatib berdi: mexanik va organik. Mexanik hamfikirlik primitiv va tabaqalashmagan holat bo'lib, u klanlarning (dastlabki urug'-aymoqlarning) jamoaviy ongi hosilasidir. Organik hamfikirlik individlarning ko'plab funksiyalarni bajara boshlashiga mutanosib ravishda bir-birlariga bog'liqligi o'sib borishi natijasidagi ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bir vaqtda shakllandi. Dyurkgeym uchun hamfikirlik jamiyatning sinonimi va holatidir. Hamfikirlik bilan birgalikda paydo bo'luvchi va birgalikda yashovchi ixtilofli hodisalarni u sotsial patologiyaning³¹⁵ ifodalanishi sifatida talqin etdi. Hamfikirlik sotsial integratsiyaning muhim unsuri sanaladi, lekin u bilan aynanlashmaydi, chunki, undan boshqa yana ko'plab muqobil integratsiyalovchi unsurlar (iqtisodiy majburlash, siyosiy kuch ishlatish va boshq.) mavjuddir. Shuningdek, sotsial hamfikirlik Dyurkgeymning asarlarida eng asosiy muammolar sifatida qaraladi. Sotsial hamfikirlik — jamiyatni jipslashtiruvchi va mustahkamlovchi, ijtimoiy bir butunlikni yaratuvchi asosiy kuchdir. U mehnatni ijtimoiy taqsimlashning mantiqiy oqibati sifatida, ya'ni odamlarning kasblar bo'yicha sotsiallashuvi va o'zaro taqsimlashuvi natijasi sifatida paydo bo'ladi,

Mehnat taqsimoti turli-tumanlikni keltirib chiqaradi, u qanchalik ko'p bo'lsa, odamlarning birlikka va almashuvga intilishlari ham shunchalik kuchli kechadi. Shartnoma — almashuvlar timsoli, uning huquqiy shaklidir. Almashuv ikki kishining o'zlariga o'zaro majburiyatlarni olishini taqozo etadi. Undan hamkorlik va kooperatsiya kelib chiqadi, shartnoma sotsial o'zaro aloqalarning me'yorlashgan shaklidir; odamlarning shartnoma asosidagi munosabatlari qoidalar va qonunlar bilan muvofiqlashadi.

Mexanik hamfikirlikda (industrialgacha bo'lgan jamiyatda), yoki o'xshash belgilar bo'yicha hamfikirlikda barcha individlar bir xil funksiyalarni bajaradi va o'xshash individual belgilarga ega bo'lmaydi. Organik hamfikirlikda (industrialgacha jamiyatning bir qismi va industrial jamiyatda) odamlar bir-birlaridan ko'proq farqlana boshlaydi va bir-birlarini o'zaro bog'liqlik va organizmdagi tananing qismlarini bir yerga jam bo'lganidek bir-birini o'zaro to'ldira boshlaydi. Jamiyat qanchalik organiklik kasb etsa, shunchalik demokratiyaga mayllar kuchayadi, chunki, demokratiya tanlovlar erkinligi, shaxsni hurmatlash, inson huquqlarini himoya qilish

³¹⁵Patologiya - [yunon. pathos azoblanish + giya] - me'yorlardan og'ish, chiqib ketish, aqli norasolik, majruhlilik.

kabi qadriyatlarga asoslangan bo'radi. Aksincha, jamiyat qanchalik mexanik ahamiyat kasb eta boshlasa, u shunchalik totalitarizmga qarab og'a boshlaydi³¹⁶.

Shuningdek, sotsiologiya fani guruhii hamfikrlilikni ham o'rganadi. Taniqli olim *D.Kartrayning* fikricha, «guruhiy hamfikrlik guruh a'zolarining unda a'zolikni davom ettirishning (qolishning) qanday darajada xohlashidir». Ko'rinib turibdiki, guruhii hamfikrlik (birdamlik) insonni guruhga a'zo bo'lish xohishini qondirishiga imkoniyatlar yaratadi. Guruh hamfikrligining kuchi ikkita manbada mujassamlashgan: birinchidan, xususiy guruhning jozibadorlik darajasi, ikkinchidan, boshqa kirish mumkin bo'lgan muqobil guruhning o'ziga tortish kuchining darajasi. Guruhiy hamfikrlikni o'lchash uning tabiati va kelib chiqishini turlicha tushunishlar bilan bog'liqdir.

Birinchidan, hamfikrlikka hissiyotli hodisa sifatida ham qarash mumkin. Bunda ikki xil yondashuvdan foydalaniladi. Birinchisi — guruh a'zolarini hissiy jozibadorligini o'lchash. Bu quyidagi farazga asoslanadi: guruh a'zolari qanchalik darajada bir-birlariga yoqsa, guruh shunchalik o'ziga nisbatan jozibadorlik kasb etadi, guruhii hamfikrlik indeksi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Bu holat sotsiometrik uslubda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, hamfikrlik kelishuv, qadriyatli mo'ljallar va qarashlarning o'xshashligi natijasi sifatida qaralishi mumkin. Inson o'zi fikrdosh yoki birdam bo'lgan nuqtai nazarlar va maqsadlarga ega bo'lgan odamlar va guruhlar sari intiladi. Shu bilan birga, uni guruhga kirish motivatsiyasi shaxsni himoyalaniishi va hissiy qulaylik bilan ta'minlanishiga qaratilgan ehtiyojlaridan ham kelib chiqishi mumkin.

Uchinchidan, hamfikrlikning asosi sifatida individning ehtiyojlarini guruhda qondirilish darajasi ham muhim rol o'ynashi mumkin. Muhtojlik guruhda qanchalik darajada qondirilsa, odamning guruhga kirish motivatsiyasi shunchalik kuchli bo'ladi. Bunda asosan guruhga mansublik, aloqalarga muhtojlik, himoyalaniish uchun yordam olish, nufuzga erishish, hokimiyatga erishish, hurmatga sazovor bo'lish, o'z hayotini guruhda samarali tarzda o'tkazish mumkinligi va moddiy yordam olish ehtiyojlarini qondirishga asoslangan bo'lishi mumkin³¹⁷.

Umuman, hamfikrlik sotsial munosabat sifatida insonning ijtimoiy faolligini oshiradi, uning o'zini yolg'iz his qilish kechinmalarini kamay-

³¹⁶Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение/Пер.с фр.,сост., посл. и прим.А.Б.Гофмана.-М.:Канон,1995.-С.168-170.

³¹⁷Марковская И.М. Основы социально-психологических знаний//<http://psyera.ru/3407/grupprovaya-splochen-nost>.

tiradi, insonning jamiyatni rivojlanishiga nisbatan ta'sirini kuchaytiradi, individni o'z erkinligi va huquqlarini hayotda ta'minlashiga katta imkoniyatlar tug'iladi.

Kooperatsiya. Hozirgi davrda «kooperatsiya» tushunchasi jamiyat va shaxsning turli hayotiy faoliyatlarida jamoaviy o'zaro aloqalarining takomillashib borishi bilan bog'liq bo'lgan keng tarmoqlashuvini ifodalaydigan sotsial munosabatlarni anglatmoqda. Kooperatsiya (lot. cooperation — hamkorlik) — insoniy faoliyatning turli sohalarida umumiy maqsadlarga erishish uchun odamlarning o'zaro birlashish shaklidir. Kooperativ — birgalikda xo'jalik yuritayotgan ayrim odamlarning birlashmasidir. Kooperativ faoliyatida individual va jamoaviy omillar bir-biri bilan birikadi. Kooperativning muvafaqqiyati shaxsiy (xususiy) manfaatlar bilan mehnatning sotsial jihatlarni bir-biriga qo'shilishiga bog'liq. Kooperatsiyaning muhim jihati shundaki, u o'zida nafaqat iqtisodiy, balki sotsial tuzilmani ham ifodalaydi. Chunki, u umumiy ijtimoiy va xo'jalik yuritish maqsadlariga erishishda hamkorlik qilishga ahd qilgan odamlarning ittifoqi sanaladi. Kooperativ aynanlashish to'g'risidagi deklaratsiyada quyidagi unga bog'liq bo'lgan qadriyatlar alohida ajratib ko'rsatilgan: o'zaro yordam, o'zaro mas'ullik, demokratiya, tenglik, adolat, birdamlik, halollik, oshkoralik, sotsial mas'ullik va boshqalarga g'amxo'rlik qilish³¹⁸.

Kooperatsiya insoniy jamiyatga xos bo'lgan sotsial munosabat sifatida mashhur olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. *G.Spenser* kooperatsiyani odamlarning oddiy o'zaro aloqalariga o'xshamaydigan, «jamiyatning sotsialligini» yaratadigan munosabat, deb ta'riflaydi; *Dyurkgeym* esa professional ixtisoslashish va kooperatsiya yuksak darajada tashkil etilgan rivojlangan jamiyatning belgisidir, degan edi. *Ch.Bernard* kooperatsiyani bir-birlariga bog'langan sotsial sifatlar va individlardan iborat mavhumlashishlar yig'indisi, «shaxslarning umumiy maqsadlarga erishuvlari yo'lidagi o'zaro yordamlashuvi yoki birlashishini ifodalaydigan o'zaro insoniy munosabatlarning muhim jihatidir», deb ta'riflaydi³¹⁹.

Shu tariqa, kooperatsiya sotsial-iqtisodiy va shaxsiy munosabatlarning boshlang'ich prinsipi sifatida shaxsni har tomonlama himoyalash uchun ijtimoiy va xo'jalik amaliyotini ko'plab muqobillaridan biri hisoblanib, u sotsial munosabatlarni insoniylashtirishda muhim o'rin tutadi.

³¹⁸Декларация о кооперативной идентичности, принятая Международным кооперативным альянсом на XXXI конгрессе МКА 20 сентября 1995 г.-М.,1996.-С.3.

³¹⁹Chester A.Barnard. The Functions of the Executive.Cambridge,-Mass.:Harvard University Press,1983.-P.163.P.23.

Ixtiloflar (konfliktlar). Ixtilof tushunchasi alohida olingan individ ongida boshqa individga nisbatan qarama-qarshi yoʻnalgan, bir-biri bilan oʻzaro zid boʻlgan mayllarning, shuningdek, individlar yoki odamlar guruhlarining oʻzaro xatti-harakatlari yoki munosabatlaridagi oʻtkir salbiy his-tuygʻuli toʻqnashuvlari sifatida talqin etiladi. Har qanday tashkiliy oʻzgarishlar, ziddiyatli vaziyatlar subyektiv ravishda jiddiy ruhiy va tashvishli kechinmalar bilan birgalikda kechadi.

Kundalik tashvishlar nuqtai nazaridan ixtilof noxush mazmun kasb etadi. Bu holat tajovuz, chuqur his-tuygʻular, tortishuvlar, doʻq-poʻpisa, dushmanlik kabilarga qoʻshilib ketishga imkoniyat yaratadi. *Ixtilof* — xush kelmaydigan hodisa, agar u paydo boʻlib qolsa, imkoniyat boricha undan qochish kerak yoki uni tezlik bilan hal etish lozim, degan fikr keng tarqaldi. Zamonaviy ruhshunoslik ixtilofning nafaqat noxush, balki ijobiy jihatlarni ham ochib berdi: ixtilofli vaziyatlarning ziddiyatli jihatlarni ajratib koʻrsatgan holda ixtiloflarni tashkilotni, guruhni, alohida shaxsni rivojlantirish usuli sifatidagi oʻrniga muhim eʼtibor bilan qarala boshlandi.

Aksariyat holatlarda ixtilof manfaatlarni qondirishdagi raqobat sifatida ham talqin etiladi. Qanday vaziyatni ixtilofli deyish mumkin? Bu savolga *Tomas teoremasi* javob beradi: agar vaziyat haqiqiy voqelik sifatida aniqlansa, u holda u oʻzining oqibatlarini boʻyicha ham haqiqiy voqelikdir, yaʼni qachonki, hech boʻlmaganda tomonlardan biri uni oʻzining ichki kechinmalarida ixtilof sifatida his etgan taqdirdagina ixtilof haqiqiy voqelik sifatida eʼtirof etiladi. Shuningdek, ixtilof ruhiy iztirob holati, oldingi rivojlanishga nisbatan izdan chiqish yoki yangi tuzilmalarni yaratish manbai sifatida ham talqin etiladi. Bu yoʻnalishda *M.Rober* va *F.Tilman* ixtilofni ijobiy hodisa sifatida tushunishni ilgari suradi.

Psixolog olimlar *J. fon Neyman* va *O.Morgenshteyn* ixtilofni bir-biriga toʻgʻri kelmaydigan maqsadlarga ega boʻlgan ikkita obyektning oʻzaro xatti-harakati, bu maqsadlarni amalga oshirish yoʻli sifatida xarakterlaydi. Bu kabi obyektlar sifatida maqsadga muvofiq xatti-harakatlarni rejalashtirgan, uyushtirish va boshqarish vazifalarini amalga oshirish faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan odamlar, alohida guruhlar, harbiy qoʻshinlar, monopoliyalar, sotsial qatlamlar, sotsial institutlar kabilar nazarda tutiladi.

Taniqli olim *K.Levin* ixtilofni individning bir vaqtning oʻzida oʻziga nisbatan qarama-qarshi harakat qiladigan kuchga nisbatan teng oʻlchovli kuchga ega boʻlgan vaziyat sifatida talqin etadi. Uning fikricha, shaxs ixtilofni hal etish vaziyatida «kuch» sifatida ishtirok etishdan tashqari, bu jarayonda faol rol ham oʻynashi lozim. Shuning uchun ham Levinning asarlarida asosan ichki shaxslararo ixtiloflar keng tadqiq etildi.

Taniqli olim *U. Linkolning* fikricha, ixtiloflarning ijobiy ta'siri jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ixtiloflarning *ijobiy ta'siri* quyidagilardan iborat:

- ixtilof o'zini o'zi anglashni tezlashtiradi;
- uning ta'sirida qadriyatlarining muayyan to'plamiga moyilliklar mustahkam tarzda o'rnashadi;
- birlik va umumiylikni anglashga imkon yaratadi;
- maslakdoshlarni birlashishiga olib keladi;
- keskinlikni yumshatishga imkoniyat yaratadi, arziyas ixtiloflar barham topadi;
- ustuvorliklarni qaytadan joylashtirishga shart-sharoitlar yaratadi;
- xavfsiz va konstruktiv tarzda his-tuyg'ulardan holi bo'lishga zamin yaratadi;
- ixtilof tufayli noroziliklar, takliflar va muhokamaga ehtiyojmandlarga diqqat-e'tibor qaratiladi, o'zaro tushunish, tan olinish, o'zaro qo'llab-quvvatlash, huquqiy rasmiylashuv va muammolar yechimlari uchun imkoniyatlar yaratiladi;
- boshqa odamlar hamda guruhlar bilan muloqotlar o'rnatiladi va amalga oshiriladi;
- ixtilof tufayli chuqur va davomli ixtiloflarning oldini olish, ular yechimini topish va boshqarishning adolatli tizimi rag'batlantiriladi.

Shuningdek, ixtiloflarning *salbiy ta'sirlari* ham mavjuddir. Ular quyidagilardan iborat:

- ixtilof tomonlarning izhor etilgan manfaatlariga nisbatan tahdidlarni paydo qiladi;
- tenglik va barqarorlikni ta'minlayotgan ijtimoiy tizimga xavf soladi;
- o'zgarishlarni tezlik bilan amalga oshirishga xalaqit beradi;
- qo'llab-quvvatlashlardan mahrum qiladi;
- kishilar va tashkilotlarni tezlik bilan rad etib bo'lmaydigan turli ommaviy bayonotlarga bog'liq qilib qo'yadi;
- ba'zan vazmin va puxta javoblar topish o'rniga tezlik bilan harakat qilishga majburlaydi;
- ixtiloflar tufayli tomonlarning bir-biriga ishonchi yo'qoladi;
- birlikka ehtiyoj sezadigan, hattoki, unga intiladigan odamlarni tarqoq holga solib qo'yadi;
- ixtilof natijasida ittifoqlarga birlashish jarayoni buziladi;
- ixtilof chuqurlashish va kengayishga moyilligi uchun ham xavflidir;
- ixtiloflar davrida ustuvorliklar tezlik bilan almashishi natijasida boshqa manfaatlarni xavf ostiga qo'yadi³²⁰.

³²⁰Qarang: Управление персоналом. Словарь-справочник//<http://psyfactor.org/lybr31.htm>.

Albatta, bu talqinlar ixtiloflarni psixologik va ijtimoiy tahlil etish natijasi bo'lib, ular siyosiy ixtiloflarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Sotsial-siyosiy ixtiloflarga doir muammolarni o'rganish va ularning yechimlarini topish ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixida qadimiy an'analarga egadir. Unga doir nazariyalarga dastlab *Aristotel* asos solgan bo'lsa, ular yangi davrga kelib *T.Gobbs*, *N.Makiavelli*, *D.Viko*, *A.Tokvil*, *M.Veber* kabilar tomonidan rivojlantirildi. Bu muammoga turli xil yondashuvlarning paydo bo'lishiga qaramasdan, ularning barchasida ixtiloflar muayyan jamiyatdagi hokimiyat uchun kurashning doimiy harakatdagi shakli sifatida e'tirof etildi. Jumladan, *T.Gobbs* davlatning tashkil topishida ixtilof omiliga muhim ahamiyat berib, uni jamiyatning tabiiy holatini (davlat tashkil topishiga qadar bo'lgan davrni) «barchaning barchaga qarshi urushi» sifatida talqin etdi. Shu bilan birga, *T.Gobbs* ixtiloflarning uchta asosiy sababini ko'rsatdi: raqobat, ishonchsizlik, shon-shuhratga ishtiyoq. Shuningdek, ixtilofli muammolarga nisbatan *V. Pareto*, *E. Dyurkgeym*, *T. Parsons*, *R. Darendorf* asarlarida ijtimoiy-siyosiy hodisalarni tadqiq etishda asosiy omillar sifatida qaraldi.

Jamiyat sotsial va siyosiy sohalarining hayot tarzi ichki ziddiyatlar va ixtiloflar asosida kechadi. Konfliktologiya (ixtilofshunoslik) klassiklari — *G. Zimmel*, *A. Bentli*, *K. Bolduing*, *L. Kozer*, *R. Darendorf*, *J. Berton* kabilar ixtiloflarga nisbatan butun bir jamiyatning, shuningdek, xususan sotsial hayotning chuqur mohiyati sifatida qaradi. Ixtiloflarning mavjudligi sotsial rivojlanishga yoki jamiyat siyosiy tizimiga tahdid sifatida qaralmaydi. Aksincha, hokimiyat resurslari, ijtimoiy nufuzning kamyobligi bo'yicha an'anaviy ixtiloflar keltirib chiqaruvchi omillar siyosiy institutlar evolyutsiyasining manbai, deb tushunish odatga aylandi³²¹.

Hozirgi davr adabiyotlarida ixtiloflar tarixidagi ilmiy yo'nalishlar sotsial ixtilof muammolariga qanday o'rin berishi masalasiga bog'liq ravishda ikkita guruhga bo'linadi. Bu ikki xil yondashuv o'zida ixtiloflarni talqin etishning ikkita tizimi — *T.Parsons* va *R.Darendorf* tomonidan ikki xil qarashlarni namoyon qiladi. Jumladan, *T. Parsons* quyidagi qarashlarni ilgari suradi:

- 1) har bir jamiyat — nisbatan turg'un va barqaror madaniyatdir;
- 2) har bir jamiyat — yaxshi integratsiyalashgan tuzilmadir;
- 3) jamiyatning har bir unsuri ma'lum bir funksiyani bajaradi, ya'ni tizimning turg'unligini qo'llab-quvvatlash uchun nimanidir beradi;
- 4) ijtimoiy tuzilmalarning amal qilishi jamiyat a'zolarining integratsiyasi va barqarorligini ta'minlab turadigan qadriyatli konsensuslarga tayanadi.

³²¹ Ольшанский Д.В. Политический PR.-СПб.: Питер, 2003.-С.41.

R. Darendorf esa quyidagi qoidalarni ilgari suradi:

1) har bir jamiyat o'zining har bir nuqtasida o'zgaradi, sotsial o'zgarishlar doimiydir va hamma joyda mavjuddir (hozirdir);

2) har bir jamiyat o'zining har bir nuqtasida ziddiyatlar va ixtiloflarga duchor bo'lib turadi, ixtilof — sotsial rivojlanishning doimiy yo'ldoshidir;

3) jamiyatning har bir unsuri uni dezintegratsiyalash va o'zgarishi uchun o'zining ulushini qo'shib turadi;

4) har bir jamiyat o'z a'zolarining bir qismini ikkinchi qismiga bo'ysundirishga majburlashga asoslanadi.

Bu ikki xil talqin shunisi bilan bir-biridan farq qiladiki, birinchisida hamkorlik ta'kidlab ko'rsatiladi, ikkinchisida ixtiloflar va o'zgarishlarga urg'u beriladi. Lekin o'zaro ta'sir ko'rsatishning har ikkala komponenti — hamkorlik va ixtilof muayyan uyg'unlikda ijtimoiy hayotda doimiy ravishda ishtirok etadi.

Sotsial-siyosiy ixtiloflar mohiyatiga nisbatan ko'plab ta'riflar paydo bo'ldi. Siyosatshunoslik lug'atida keng tarqalgan talqin, ya'ni ixtilofning qarama-qarshiliklar sharoitida ikkita yoki undan ko'proq turli yo'nalishlardagi kuchlarning o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun to'qnashuvi sifatidagi ta'rifi boshqalaridan ustuvorlik qilib keldi. Taniqli olim *D. Istonning* fikricha, ixtiloflar manbai moddiy boylik, ta'lim, ijtimoiy nufuz, hokimiyat kabi qadriyatlarni taqsimlash tizimida ro'y beradigan jamiyatdagi sotsial tengsizlikdir. Taniqli olim *L. Sanistebanning* fikricha, ixtilof sotsial-munosabatlarning alohida turini o'zida ifodalab, bu munosabatlarda ishtirok etuvchilarning maqsadlari o'zaro zid ekanligi tufayli bir-biriga qarama-qarshi turishidir; u o'zida turli xil — qisman yoki radikal, muvofiqlashishga berilishi yoki berilmasligi kabi xarakterlar kasb etishi mumkin. Taniqli olim *L. Kozerning* ta'kidlashicha, ixtilofning muhim sharti nimagadir egalik qilish yoki kimlardir boshqarishga xohishning mavjud bo'lishidir. R. Darendorf ixtilofning predmeti hokimiyat va avtoritet, deb hisoblaydi. Polsha olimi *K. Poletskiy* siyosiy hokimiyat ixtiloflar natijasida o'zgarishlar ro'y beradigan hayotning asosiy sohasidagi ziddiyatlar sababchisi va ixtiloflar manbai sifatida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi.

Jamiyatdagi sotsial-siyosiy jarayonlarning mohiyati oxir-oqibatda turli sotsial qatlamlar va guruhlarining davlat hokimiyatini egallash va undan foydalanish uchun olishuvlaridan iboratdir. Barcha siyosiy ixtiloflar ana shu jarayon atrofida avj oladi. *Sotsial ixtilof* — sotsial subyektlarning hokimiyatga erishish yoki undan foydalanish, shuningdek, ularning jamiyatdagi siyosiy maqomi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan o'z maqsad

va manfaatlarini amalga oshirish jarayonlaridagi intilishlarining bir-biriga nisbatan o'zaro to'qnashuvlaridir. Sotsial ixtiloflar manbasi universal bo'lib, u murakkab tuzilmalashgan jamiyatlarda sotsial guruhlar va individlarning intilishlarini hokimiyat organlarining markazlashgan holda muvofiqlashtirishsiz va o'zaro kelishuvlarsiz ta'minlab bo'lmaydigan tayanch ehtiyojlarining qondirilishidan boshqa narsa emasdir.

Ixtiloflar *obyekti* sifatida maxsus sotsial resurs — davlat hokimiyati, shuningdek sotsial guruhlarning siyosiy maqomlari (jamiyat uchun bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilishga qobil bo'lgan hokimiyat vositalariga yaqinligi yoki uzoqligi) va siyosiy qadriyatlar (vatanparvarlik, fuqaroviylik, huquq va erkinliklar va hokazo). Ixtiloflar *subyekti* sifatida, odatda, sotsial guruhlar yoki ularni ifodalovchi siyosiy institutlar maydonga chiqadi. Bunda hozirgacha o'z echimini topmagan muammo yashirin tarzda turadi: kimni ixtilofning haqiqiy, kimni uning nominal subyekti, deb hisoblash mumkin?³²².

XX asrning boshlarida AQSh sotsiologi *Artur Bentli* ixtiloflarni sinfiy nuqtai nazardan talqin etgan marksizmga qarama-qarshi o'laroq, hozirgi davrgacha ilmiy tahlillarda foydalanilayotgan *manfaatlar guruhi* tushunchasini fanga kiritdi. Bu tushuncha aniq sotsial vaziyatlarda xatti-harakat qilayotgan va manfaatlar birligi asosida odamlarning o'zaro birlashuvini ifodalaydi. Ular o'zlariga a'zo bo'lib kirgan odamlarning manfaatlarini siyosiy hokimiyat bilan o'zaro xatti-harakatlarda ifodalashning vakilligi funksiyasini bajarishiga tegishli ravishda uyushadi. Bu kabi manfaatlar guruhlariga tadbirkorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari, ayollar tashkilotlari, ekologik, feministik kabi qator tashkilotlar kiradi. A. Bentlining fikricha, bu kabi guruhlarning davlat organlari bilan o'zaro xatti-harakatlari siyosiy jarayonning o'zagini tashkil etadi. Shuning uchun ham ularning o'zi fuqaroviy faollik va ixtiloflarning subyektlari sifatida e'tirof etiladi.

Ixtiloflarni sotsial munosabat sifatida o'rganish jamiyatni taraqqiy ettirishda, mamlakatda zamonaviy sivilizatsiyaviy jarayonlarni chuqurlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ixtiloflar sotsial qatlamlar, guruhlar va sinflar ichidagi ziddiyatlar va ularning yechimlarini topish, jamiyat barqarorligini ta'minlash, fuqarolarni sotsial faolligini oshirish, sotsial nazoratning samaradorligiga erishish kabilarda muhim rol o'ynaydi.

Kurash. Sotsiologik huquq nuqtai nazaridan qarashlar huquq bilan qonunlarni bir-biriga aralastirib yuborganligi uchun rasmiy-aqidaparastlik yo'nalishidagi nazariyalar qattiq tanqidga uchradi. Shunga qaramasdan,

³²²Буртова Е.В. Конфликтология. Учебное пособие. - М., 2002 // http://sbiblio.com/biblio/archive/unknown_konfliktions.

sotsiologik huquqiy qarashlardagi bu kabi muammolarning yechimlari topilgani yo'q. Jumladan, me'yorlar bilan huquqiy tartiblar bir-biriga qarama-qarshi qo'yila boshlandi, huquqning me'yoriylik jihatlari inkor qilindi, qonunlarning me'yoriy kuchi rad etildi, huquqning akseologik muammolari huquqiy fanlarga taalluqli ekanligiga shubha bilan qaraldi.

Sotsiologik tadqiqotlarda jinoyat va jasorat, jazolash va mukofotlashning inson xulqiga ta'siri kabilar ahamiyati e'tirof etilgan holda sanksiyalarning sotsial rolini tahlil etish sotsial munosabatlar mohiyatini anglashga yordam beradi. Jinoyat akti natijasida tahqirlash kelib chiqadi, jinoyatchilarga nisbatan yomon ko'z bilan qarash, ba'zan esa jinoyatchilikka nisbatan dushmanlik va nafrat kabilar shakllanadi, ana shundan keyingina qator qo'shimcha jazolash aktlari qabul qilinadi. Bu aktlar nafaqat ajrim chiqarish yoki o'ch olishga, balki, jinoiy tajovuzlarga yo'l qo'ymaslik va ularni yo'qotishga qaratiladi. Ikkita shaxsning o'zaro aloqalari shunday holatda ixtilofli ko'rinishga o'sib o'tadiki, bunda ularning xulqlari bir-biri bilan to'qnashadi va *kurash* nomi bilan ataladigan shaklga kiradi.

Ikkita yoki ko'p sonli, har biri o'ziga munosib va tegishli bo'lgan o'rinni anglagan va ta'qiqlangan xulqlarini namoyon qilishga moyil bo'lgan shaxslar o'zaro munosabatlar va aloqalarga kirishsalar, albatta, ular o'rtasida qandaydir ixtiloflar yoki kurashga kirishish voqeligini yuz berishi muqarrar. Masalan, ikkita shaxsdan bittasi boshqaning buyumini o'ziga o'zlashtirib olishga harakat qiladi, deylik. Ikkinchi shaxs mulk huquqini astoydil himoya qiladigan odamlar toifasiga kiradi va har qanday ko'rinishdagi birovning mulkini o'zlashtirishni o'zining asosiy prinsiplardan birining buzilishi, deb hisoblaydi. Aytaylik, ularning ikkovi bir joyda yashay boshladi. Albatta, bunday holatda ularning o'rtasida hech qanday murosaga yoki o'zaro uyg'unlikka erishib bo'lmaydi. Ikki o'rtadagi dushmanlik turli shakllarda davom etadi, natijada, o'zaro kurashlar boshlanadi. Ko'rinish turibdiki, talab etilgan aktlarni turlicha tushunish yoki bajarish xulqlarning o'zaro ixtilofini keltirib chiqaradi, u keyinroq to'qnashuv va kurashga o'sib o'tadi.

Sotsial kurash barcha sotsial hayotning yetakchi motivlari oqibati o'laroq ro'y beradi. Uning paydo bo'lishi turlicha miqyoslar va ko'lamlarga egadir. Kurashayotan tomonlar sifatida yirik davlatlar yoki ularning birlashmalari ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, kurashlar monopoliyalar, tadbirkorlar, korxonalar va boshqa obyektlarda ham xuddi sotsial birliklarda ro'y beradigan kurashlar kabi sotsial munosabatlar sirasiga kiradi. Lekin, sotsial kurash alohida olingan ishlab chiqarish, mintaqa

yoki oila, jamoa (brigada, sport komandasi va hokazo) kabi mikroobyekt darajasida ro'y beradi.

Kurashning borishida qanday ziddiyatlar barham topib borishiga bog'liq holda sotsial kurash shakllari bir-birlaridan farqlanadi. Bu kabi shakllarga *qurollik kurash* va *qurolsiz kurash* (ma'muriy-huquqiy, axloqiy me'yorlar, yozilgan va yozilmagan qoidalar kabi vositalar yordamida) kiradi. Bunga misol tariqasida sotsial kurashning turli ko'rinishlarini keltirish mumkin: raqobatchilik, siyosiy, sinfiy, tinchlik uchun, jinoyatchilikka qarshi, ichkilikbozlikka qarshi, chekishga qarshi, sog'lom turmush tarzi uchun kurashlar va hokazo. Bu kurashlar huquqiy va axloqiy me'yorlar yordamida tegishli sanksiyalarni qo'llash, tarbiyaviy chora-tadbirlar ko'rish, targ'ibotlar olib borish, mitinglar, namoyishlar kabi vositlalar bilan olib boriladi.

Sotsial kurashlarni amalga oshish mexanizmlari nuqtai nazaridan keskin, portlovchi, qurolli ixtilof shakliga o'tuvchi, shuningdek, silliq, uzoq davrlar va yillarga cho'ziladigan kurashlar turlari mavjud. Har bir sotsial kurashda ikkita qarama-qarshi kurashayotgan qutblar va betaraf odamlar ommasi ajralib turadi. Siyosiy sotsial kurashlarning mantig'i shundaki, unda tomonlar o'zlariga ko'plab odamlarni og'dirishga urinadi, shuningdek, o'zlariga nisbatan xayrixohlarni ko'p bo'lishi uchun intiladi.

Eng kamida ikkita o'zaro kurashayotgan guruhlar o'z tajribalari, nazariy va mafkuraviy bisotining mavjudligi, bir tomondan, sotsial hodisalar (urush, qo'zg'olon, inqilob, ish tashlash, miting, namoyish va boshq.), ikkinchi tomondan, ular qarama-qarshi nuqtai nazarlardan — ya'ni, ijobydan boshlab to jiddiy salbiy mezonlar bilan baholanishlari mumkin. Har bir sotsial hodisa o'z xususiy sabablariga egadir. Sotsial kurash tasodifiy yoki sababsiz hodisa emas, balki, u jamiyat rivojining turli yo'nalishlariga ta'sir etish maqsadida oldindan ko'rilagan tayyorgarlik asosida amalga oshiriladi. Sotsial kurashlarning asosiy sababalari — bu odamlar ehtiyojlarida ifodalanadigan ijtimoiy manfaatlar, umidlar, xohishlar to'qnashuvidir. Ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarning ichida moddiy ehtiyojlar jamiyatda ustunlik qilayotgan manfaatlarni o'zida namoyon qiladi. Ana shu moddiy ehtiyojlarning qarama-qarshiligi barcha sotsial ziddiyatlarning asosini tashkil etadi. Odamlar o'zlari orzu qilgan eng yuksak jamiyat — bu aholining barcha sotsial qatlamlari va guruhlarining ehtiyojlari (va manfaatlari) uyg'unlashtirilgan, ya'ni, jamiyatning quyi qatlamlarining hayotiy muhim ehtiyojlarini biologik yashash uchun zarur bo'lgan talablar darajasidan pastga tushirmagan holda qondiradigan jamiyatdir. Agar bunda mezonlar

nisbati salgina buzilsa, unda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayadi, kurashlar vositasida hal etiladigan ixtiloflar paydo bo'ladi³²³.

Shu tariqa, sotsial kurash jamiyatning uzoq yashash holati, sotsial obyektlarni rivojlanishining xususiyati, ular ziddiyatli tabiatining namoyon bo'lishi demakdir. Sotsial kurashning tabiati, nazariy va amaliy jihatlari, unga nisbatan sotsiologik yondashuvlarni o'rganish natijasida uni vayronkorlik va boshqa salbiy jihatlarga barham berish, jamiyat barqarorligini yashovchanligini ta'minlash shart-sharoitlari yaratiladi.

9.3. Klassik olimlar va ekszenstensializm tarafdorlari jamiyatdagi begonalashuv to'g'risida

Begonalashuv. Begonalashuvning sotsial omillarini o'rganishda nemis sotsiologi *Ferdinand Tyonnis* tomonidan ishlab chiqilgan «birlik» va «jamiyat» («Gemeinschaft» und «Gessellschaft») kategoriyalari muhim rol o'ynaydi. Tyonnisning o'zi ishlab chiqqan tushunchalar yordamida yechimini topishga harakat qilgan muammolar quyidagilardan iborat edi: insoniy birlashmalarning tabiati qanday, qanday jarayonlar tufayli insoniy birliklarning turli-tuman turlari o'zgaradi hamda yashaydi va boshq. Tyonnisning sharhlashicha, odamlarnig birlashmalari (*sotsial birliklar*) boshqalaridan ajralib turadigan ikkita ijtimoiy aloqalarning turlicha namoyon bo'lishini o'zida ifoda etadi. Birlik *Tyonnis* uchun *oila* sinonimi, an'anaviy *jamo*a namunasi, *birlashganlik*, bu birlamchi yoki insoniy irodalar birligini, shaxsning psixologik xotirjamligini qo'llab turuvchi tabiiy vaziyatdir. Aksincha, jamiyat tarqoq, tijorat va kapitalistik hisob-kitobga asoslangan «*begona*»ning sinonimidir. Bu birgalikda yashovchi, lekin yetarlicha birlashmagan, tarqoq odamlardan (katta shahar, millat, butun dunyo) iboratdir. Gessellschaft (jamiyat) sharoitida hokimiyat individual yutuqlar vositasida amalga oshadi, hokimiyat — hammaning hammaga yashirin adovatidagi g'alaba, o'z qiyofasini yo'qotgan o'zaro raqobatlar natijasidir.

Nemis olimi *Georg Zimmel* formal sotsiologiyasida begonalashtiruvchi omillar sifatida mehnat taqsimoti va madaniyatni obyektivlashtirish keltiriladi. «Mehnat taqsimoti ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan har bir alohida odamni mahsulotdan butunlay ajratib qo'yadi, u butunlay o'zining mustaqil obyektivligini to'xtatadi»³²⁴, shaxs «subyekt ustidan

³²³Социальная борьба. Социальный прогресс и регресс//<http://chu.by/content/sotsialnaya-borba-sotsialnyi-progress-i-regress?page=0,4>.

³²⁴Зиммель Г. Проблемы социологии//Избранное. Т.2. Созерцание жизни.-М.: Юрист, 1996.-С.473

obyektning hukmronligini» barbod qiladi³²⁵. Faoliyat harakatning shunday xiliga olib keladiki, uning natijasi insonning ehtiyojlari yoki g'oyalarini ifoda etmay qo'yadi. Zimmel uchun *begonalashmaslik* shaxsning «o'z xususiy mehnati ijodkori sifatidagi zavqlanadigan, ichki ziddiyatlarini bo'shashtirishdan tashqari yana qo'yilgan maqsadlarni bajarish bo'yicha o'zini subyektiv kuch ekanligini isbotlashidan va qoniqish olishidan, va yana, ishlab chiqarishni mavjudlikka aylanishi — uning yaratgan predmeti buyumlar qadriyatini yanada oshirishidan oladigan psixik qoniqishidir»³²⁶.

Shaxs psixikasining sog'lom ravishda shakllanishi va rivojlanishi «subyektning obyekt orqali yana qaytadan subyekt sari oqishidir»³²⁷. Lekin, madaniyat ne'matlari sifatida to'plangan boylklarni qamrab olish va o'zlashtirishga moyil bo'lgan individual va sotsial ongning zo'r berishiga qaramay, madaniy ijodkorlikning rivojlanishiga bog'liq ravishda, shuningdek madaniyat «mulkiy muhiti»ning kengayishi natijasida madaniyat «qotib qoladi» va obyektivlashadi. «Madaniyatning fojiasi» — uning individual mavjudlikdan begonalashuvidir, boshqacha aytganda, uni sotsial anglashga va tiklanishga berilmaydigan bo'lib qolishidir. Natijada subyektning obyekt orqali oqib o'tishi buziladi, shaxs «o'zining Meniga singmaydigan obyektlar bilan to'qnashadi»³²⁸. Undan Zimmelning hozirgi davr jamiyatida subyekt emas, balki obyekt hokimlik yuritadi, degan xulosasi kelib chiqadi.

Begonalashgan obyektivlashishning oliy shakli — bu hamma narsadan erkin bo'lish, yashirinlik, befarqlik va qiyofasizlik kabilarni o'sishiga imkoniyat tug'diruvchi, iste'mol va hamkorlik faoliyati jarayonida aloqalarning umum begonalashuvi sababchisi — bu puldir. Lekin, Zimmel o'zi chizgan «zim-ziyo zulmat»dan chiqish yo'llarini ko'ra olmadi, uning fikricha, subyektiv va obyektiv madaniyatlar o'zaro ixtiloflarining yechimi yo'q, ular ixtiloflarning yangi shakliga o'tishi bilan ularni bo'shashtirishi mumkin, lekin baribir madaniy qo'shilishlar ro'y bermaydi.

Oldingi mavzularda ko'rib o'tganimizdek, *Emil Dyurkgeym* sotsiologiya faniga *sotsial anomiya* tushunchasini olib kirdi. *Anomiya* — bu ko'pchilik odamlarning o'z maqsadlari va ularni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, jamiyatdagi inqirozlar bilan bog'liq holda qadriyatlar tizimini aynishi tufayli yuzaga keladigan individual yoki ijtimoiy ongning axloqiy-psixologik holatidir. Bu

³²⁵O'sha joyda.-B.472.

³²⁶O'sha joyda.-B.452.

³²⁷O'sha joyda.-B.465.

³²⁸Ионин Л.Г.Георг Зиммель - социолог.-М.:Наука,1981.-С.95.

odamning jamiyatdan *begonalashuvi*, hayotdagi loqaydligi va hafsalasi pir bo'lishi, sotsial izdan chiqishi kabilarda ifodalanadi. Bu qadriyatlar, me'yorlar va sotsial aloqalar yetishmasligida, yoki ular beqaror va o'zaro ziddiyatli bo'lgandagi jamiyatning holatini anglatadi. Ularning hammasi barqarorlikni buzadi, sotsial aloqalarni beqaror qiladi, ularning bir maromda ishlashiga putur yetkazadi, jamoaviy ongni izdan chiqaradi, turli-tuman me'yorlardan og'ish turlarini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, *E. Dyurkgeym* mehnat taqsimotini tadqiq etib, unda ikki tomonlama sotsial psixologik ta'sir qilish hodisasini kuzatdi. Bir tomondan, mehnat taqsimoti asosida odamlarni birlashtiruvchi qudratli korporatsiyalar vujudga keladi, boshqa tomondan, «mehnat taqsimoti prinsipi yanada ko'proq qo'llanib borani sari kasb rivojlanib boradi, kasb egasi esa rivojlanishdan orqada qola boshlaydi»³²⁹.

E. Dyurkgeym mehnat taqsimoti tufayli paydo bo'lgan begonalashuvni yo'qotishni quyidagilarda ko'rdi: xodimga uning aniq ish faoliyati nimaga xizmat qilishini tushuntirish, uni oxirgi maqsad bilan bog'lash lozim. Shunda «u maqsad sari ketayotganligini biladi, uning ongidagi maqsad oydinlashadi. U nimaga xizmat qilayotganligini his qiladi. Buning uchun uning sotsial kenglikning keng sohasini qamrab olishiga hojat qolmayli; unga o'z hatti-harakati maqsadga ega ekanligini bilishning o'zi kifoya qiladi. Uning faoliyati bir xillik va yolg'izlikdan iborat bo'lsa ham bu faoliyat oqilona mavjudot faoliyatidir, chunki xodim uning mazmunga egaligini biladi»³³⁰. Shuningdek, mehnat taqsimotiga asoslangan ijtimoiy birdamlikni Dyurkgeym sotsial-psixologik kasalliklar — o'z joniga qasd qilish va anomiya holatidan chiqishdagi davolash usuli sifatida taklif etdi³³¹. Dyurkgeym ilgari surgan organik birdamlikni ijobiy jihatdan, ya'ni, uningcha shaxs ustidan hokimiyatning yumshoq shakli sifatida, shuningdek hayot mazmuni va maqsadini hosil etuvchi, boshqa odamlarga qo'shilish imkoniyati va ijtimoiy hokimiyat sifatida sharhlash mumkin. Ko'rinib turibdiki, hozirgi davr jamiyatiga nisbatan *F. Tyonnis* va *E. Dyurkgeym* yondashuvlarida o'zaro qutblashishlar seziladi. Bu shu bilan izohlanadiki, Tyonnis odamga uning ichki dunyosining xotirjamligi nuqtai nazaridan yondashadi, *Dyurkgeym* esa jamiyat va odamga ko'proq iqtisodiy ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraydi.

Nemis olimi *Maks Veber* asarlarida begonalashuv va hokimiyat muammolari organik o'zaro aloqadorlikda tadqiq etiladi. *M. Veberning*

³²⁹Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. Пер. с фр. и послесловие А. Б. Гофмана. - М.: Наука, 1990. - С. 47.

³³⁰О'sha joyda. - В. 346-347.

³³¹О'sha joyda. - В. 462-463.

ijtimoiy tuzilishning byurokratlashuvini oqilona (ratsional) boshqaruv sifatidagi tasavvurlarida bu jarayonni salbiy baholash uchramaydi, uning fikricha, «byurokratik mashina» har qanday mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar ish manfaatlariga xizmat qiladi. Lekin, shu bilan birga, *M. Veberning* e'tirof etishicha, qiyofasiz va berahm tashkilotlar tomonidan insoniy psixikaning asoratga solinishi, ayniqsa, byurokratik sotsializm sharoitida intizomni tiklash va uni doimiy ravishda ushlab turish uchun bir odamning boshqalar tomonidan yoki tashkiliy strukturalarning alohida olingan shaxslar ustidan shavqatsiz hukmronligi natijasida sotsialistik byurokratiya sharoitida individning erkinligi uchun yanada oz imkoniyatlar qoladi.

Begonalashuv XX asrga kelib ijtimoiy va shaxsiy hayotning deyarli barcha sohalariga kirib borganligi uchun u asosiy muammolardan biriga aylandi. Bu ko'proq shaxsning inqirozga uchrash ko'lamini kengayishi va turli ekzistensial oqimlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. *Ekzistensializm* birinchi va ikkinchi jahon urushlari davrida dastlab Germaniyada, keyinroq Fransiyada vujudga kelishi tasodif emas edi: bu hayot va o'lim o'rtasidagi masofaning yaqinlashishi holatida insonni o'zini o'zi his etishi kabi XX asrning birinchi yarmidagi fojeaviy hodisalarning falsafiy-psixologik jihatlardan aks etishi edi. Buning asosiy muammosi — individning jamiyatdan begonalashuvi edi. Ekzistensializm begonalashuvga har tomonlama yondashdi: individ faoliyati va uning mahsuli uning o'zini ezuvchi, uning o'ziga qarshi adovatli kuchga aylanishi; insonga nisbatan davlat, jamiyatdagi barcha mehnat tashkilotlari, turli ijtimoiy institutlar, byurokratiya va jamiyatning boshqa a'zolarini qarshi turishi va boshq.

Ekzistensializm oqimi namoyondalari *Karl Yaspers*, *Martin Xaydegger*, *Jan Pol Sartr*, *Alber Kamyu* kabilarning dunyoqarashlari ko'proq umidsizlikka asoslandi. Hech narsa, qo'rquv, g'am, vahima, ma'nosizlik, behuzurlik, absurd (bema'nilik), o'z joniga qasd qilish, yolg'izlik, chorasizlik kabilar o'sha davrdagi odamlarning asosiy psixologik tavsifi edi. Bu oqim konsepsiyasida hokimiyatning insoniyat uchun hech bir chegarasiz nas'ullik sezishi bilan bog'langan edi. «O'zimni o'zim tanlab, men umuman odamni tanlayman»³³². Ekzistensializm oqimi vakili *Martin Buber* «Men va Sen» konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, «boshqalar» bilan o'zaro nisbatlarsiz o'zim haqimda hech narsa deya olmayman. *Men va Sen* muloqotida *Menning* vujudga kelishi ro'y beradi, Men o'z Seni uchun hamma narsani qilishga intiladi, shu tariqa, u butun olam bilan munosabatga kirishadi. Psixologik munosabatlar vujudga keladigan

³³²Сартр Ж.-П. Тошнота: Избр. произведения. - М.: Республика, 1994. - С. 440.

uchta soha mavjud. Birinchisi — tabiat bilan hayot kechirish. Ikkinchisi — odamlar bilan hayot kechirish. Uchinchi — ruhiy mohiyatlar bilan hayot kechirish. «Bizning qismatimizning eng tashvishli tomonlari nimalardan iborat: bu dunyoda har bir Sen Uga aylanishi muqarrar»³³³. Shu bilan birga, «Alohida U hodisa-munosabatga kirishishi orqali Senga aylanishi mumkin»³³⁴. Lekin, shunday nosogʻlom vaqtlar ham roʻy bermoqdaki, unda Uning olami Sendagi tirik oqimlar, olamda koʻpayishi kabi sifatlardan maxrum boʻlgan, olamdan ajralib qolgan va karaxt holdagi ulkan ruhsiz sharpadek insonni ezib tashlaydi. Inson oʻzi uchun hozirgi kunga aylanmaydigan obyektlar olami bilan cheklanib, bu dunyoga qarshilik koʻrsatishdan toʻxtaydi. Ana shunda oddiy sababiyat jabrlovchi va ezuvchi yovuz qismatga oʻsib oʻtadi³³⁵.

AQSh sotsiologi *Rayt Millz* 1951-yilda jamiyatdagi begonalashuvni aniqlashga doir tadqiqotlar olib bordi. U shunday deb yozgan edi: «zamonaviy isteʼmol kapitalizmi jamiyatni shunday uyushtirmoqdaki, unda siz oʻzingizni qilayotgan ishingizga qoʻshimcha ravishda oʻz individualligingizni ham sotishingiz talab etiladi». Yana bir olim *Melvin Simen* 1959-yilda «Begonalashuv ahamiyati» nomli asarini eʼlon qildi. *Simen* E. Dyurkgeym va marksizmning namoyondalari shakllantirgan baʼzi tushunchalarga tayangan holda begonalashuvning modelini aks ettiruvchi beshta belgini koʻrsatib berdi: nochorlik, maʼnosizlik, normlessness (meʼyorsizlik), yakkalanish va oʻzini oʻzi begonalashtirish. Keyinroq *Simen* unga oltinchi unsur — madaniy begonalashuvni ham qoʻshdi.

Keng sotsiologik nuqtai nazardan *begonalashuv* odamning (yoki aqlning) olamga nisbatan nomuvofiqligi sifatida tavsiflanadi. Insoniy aql (predmet sifatida, kimnidir his qilish) olamni idrok etish obyekti deb biladi, olam chegarasi ichida yashash oʻrniga undan uzoqlashadi. Bu kabi fikrlash *Seryon Kerkegorning* ekzistensial falsafasida eʼlon qilishgacha boʻlgan davrda, yaʼni XIX asrda — xristanlikda begonalashuvni Xudodan ajralish deb tushunilgan paytda hukmron edi. XX asrga kelib aksariyat faylasuflar va diniy taʼlimot vakillari *Kerkegorning qoʻmsash, umidsizlik va odamning muhimligi* tushunchalariga berildi. *Kerkegorning* koʻrsatishicha, begonalashuv aqlning hukmronligi, odamning yashash va turmush muammolariga beparvolik bilan qarashi barobarida obyektivlik va oqilona tafakkurlashga nisbatan qiziqishi natijasidir. *Martin Xaydeggerning xavotirlik*

³³³Бубер М. Я и Ты. Квинтэссенция: Филос. альманах, 1991. - М.: Политиздат, 1992. - С. 303.

³³⁴Оʻsha joyda. - B. 315.

³³⁵Оʻsha joyda. - B. 327.

(qo'rsash) va o'lishlik tushunchalari Kerkegordan ta'sirlanish asosida paydo bo'lgan edi; u Kerkegor tomonidan ko'rsatib berilgan odamlarning haqiqatga subyektiv munosabati, odamlarning o'lim qarshisida turishi, yashashning vaqtinchaligi va olamda yashovchilarning jo'shqin dalillari kabilarning muhimligiga doir nazariy qarashlar asosida tadqiqotlar olib borgan edi³³⁶.

Begonalashuvga *M. Xaydegger* o'ziga xos kategoriya orqali — odamdan begonalashgan, unga o'z hayotini o'ziga bo'ysundirib beradigan institutsional me'yor sifatida majburan tiqishtirilgan ijtimoiy fikr, deb qaraydi. *M. Xaydegger*ning odamning begonalashuv muammosini ifodalashga yordam beradigan ikkinchi tushunchasi — bu texnikaning noyob yutug'i — «vaziyatda turish» tushunchasidir. Bu tushuncha — barcha narsani tabiat, jamiyat va insondagi «mavjudlik vaziyatiga» qunt bilan joy-joyiga qo'yishdir. Yangi Yevropa fanlarida «vaziyatda turish» o'zining oldingi ko'lamida texnika va texnologiya shaklidagi nazariyalar oldiga butun borliqni yoppasiga predmetlashtirish vazifasini qo'yilgan edi. *J. Oruell*ning tavsiflashicha, inson ustidan butunlay (total) hukmronlikka misol tariqasida undan begonalashgan «ijtimoiy fikr»ning jamiyat bo'lib chiqishini ko'rsatish mumkin. *E. Giddens* esa begonalashuvga iqtisodiy odamdagi hodisa sifatida qaradi.

Sotsiologiya fanining klassiklari tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, begonalashuv — bu odamni jamiyat va insonga nisbatan kuch bilan hukmronlik qilish darajasini egallagan — tashqi munosabatlar, subyektlar, jarayonlar, institutlar va munosabatlar tomonidan obyektga va vositaga aylantirishga olib keladigan, oxir-oqibatda insonning o'z mohiyati va erkinligini yo'qotishining obyektiv-subyektiv jarayonidir. Shuningdek, begonalashuv sotsial munosabatlarning muhim shakli bo'lib, uni o'rganish, shu asosda xulosalar va ilmiy natijalar olish jamiyat barqarorligini ta'minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida jamiyatdagi sotsial qatlamlar va guruhlarni o'zaro konstruktiv munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Befarqlik. Sotsial munosabatlardan yana biri — bu befarqlik bo'lib, u pozitiv sotsial faollikning antipodi³³⁷ hisoblanadi. *Befarqlik* iborasi beparvo, atrofda gilar va ro'y berayotgan hodisalarda ishtirok etmagan holda munosabatda bo'lish ma'nosini beradi. Shuningdek, *befarqlik* man-

³³⁶Qarang: Зиновьева Д.М. Психология отчуждения: монография. - Волгоград: Изд-во ГОУ ВПО "ВАГС", 2005. - С.11-12.

³³⁷Antipodlar - [yunon. antipodes - qarama-qarshi joylashgan] - qarama-qarshi qarashlar, didlar yoki xulqqa ega odamlar; o'zaro zid va qarama-qarshi sifatlar.

faatlar, kimgadir qiziqishning yetishmasligidir. Befarq odam boshqa odamlarga va o'zini o'rab turgan muhitga beparvo bo'lib, undagi jarayonlarda deyarli ishtirok etmaydi. Shuningdek, lug'atlarda *befarqlik* — bu harakatsizlik, qalb, yurak, hissiyot, ehtiros kabilarning toshdek qotib qolishi; xohish, g'ayrat. shiddat kabilarning yo'qolishi; harakatsizlik, hissiyotsizlik, sovuq, ishtiroksiz, e'tiborsizlik hususiyatlari va holati hisoblanadi³³⁸.

Befarqlik ortida aniq ifodalangan nosotsiallik, sotsial-psixologik taqchillik, insoniy zotning qusurlari yotadi. Befarqlik — sotsial patologiya turi sifatida ifodalanadigan sotsial majruh odamning xususiyatidir. Befarq odam o'z yaqinlarini harakatsizligi, nosotsialligi, sovuqligi va begonalashganligi bilan o'ldiradi; u o'zida o'zgalalar uchun qayg'urish, xushvaqtlik, bosh qo'shish, achinish va daxldorlikning yo'qligi bilan o'zgalarni jarohatlaydi. Lekin, befarqlik ham qandaydir darajada sotsiallikdir. Chunki, u ham insoniy munosabatlar tarixining hosilasidir. Befarqlik insoniyatning o'zini o'zi anglashi sohasida qandaydir joyni egalladi. Befarqlik nafaqat ruhiy va ma'naviy qashshoqlikni anglatadi, balki u axloqiy bilimlar va hissiyotlar sohasiga singishga harakat qiladi.

Fransiyalik mutafakkir *J. Bodriyar* o'z davridagi befarqlik holatini tahlil etib, quyidagi fikrni bildirgan edi: «ommada pozitiv dunyoqarashni izlashga yoki uni tanqidiy fikrlashga undashning foydasi yo'q. Chunki, ularda hech qanday bu kabi hislatlar yo'q; ulardagi bor-yo'g' mavjud narsalar — bu befarqlik kuchi va o'ziga hech narsani singdirolmaslik kuchi, xolos»³³⁹.

Bu kabi inqirozning oqibati qismatning nojo'yaligi hisoblanib, bu kabi «kasallik» jamiyatlarda tezlik bilan o'sib bormoqda. Shuning uchun ham «befarqlik» iborasini (alohida olingan odamning noxush sifatini hech bir so'zsiz tarzda ifodalash, ommaning rivojlanmagan vakillarining o'zini o'zi anglashini tarixan yuzaga kelgan o'ziga xos jihatlarini noxush sotsial-psixologik sifatlariga nisbatan munosabatda bo'lganidek) odamning sotsial hodisalarga va o'z atrofidagi kishilarga nisbatan muayyan bir sotsial-psixologik nuqtai nazarini ifodalaydigan maxsus toifaga o'tkazish zaruriyati paydo bo'ldi. Yana boshqa tomondan yondashganda, befarqlik madaniy qusurlik tushunchasini ham anglatadi. Insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lgan illatlar — dangasalik va befarqlik o'zida madaniyatning va muayyan odamning qusuridir³⁴⁰.

³³⁸ Даль Вл. Равнодушие, равнодушествовать // Толковый словарь живого великорусского языка: В 4-х т. Т. IV. — М., 1982. — С. 7.

³³⁹ Бодрийяр Ж. Прозрачность зла. — М., 2006. — С. 107

³⁴⁰ Мухина В., Хвостов А. Отчуждение от других: отчуждение ленивых и равнодушных // Развитие личности, 2013, №1. — С. 68-71.

Befarqlik «kasali»ga chalingan odamlar ko'proq totalitar va avtoritar jamiyatlarda ko'payadi va o'ziga «qulay» shart-sharoitlar topadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi natijasida jamoatchilik nazorati, o'zini o'zi nazorat qilish omillarining shakllanishi natijasida befarq odamlar kamayib boradi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi ham odamlarni sotsial faol bo'lishini taqozo qilishi sababli befarq odamlar ko'lamini ozaytirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

9.4. Sotsial munosabatlar tizimida plyuralizm, notenglik va tenglikning amal qilishi

Notenglik. Ba'zi taniqli sotsiolog olimlarning (masalan, *R. Ferisning*) fikricha, hozirgi davr sotsiologiyasining tayanch tushunchasi — bu «sotsial struktura» tushunchasidir, «sotsiallik» kategoriyasining asosiy mazmuni — «tenglik — notenglik»dir. Ayni «jamiyat notengligining asoslari»ni tahlil etishdan boshlab sotsiologik bilimlarning nazariyasi va strukturasini tushuntirish jarayoni boshlanadi.

Odam o'z atrofidagi boshqa odamlarga shunchaki yuzaki qaraganda ham ularning bir-birlariga o'xshamaslik jihatlarini his qiladi. Odamlar jinsi, yoshi, mijozi, bo'yi-basti, sochining rangi, intellektining darajasi kabi jihatlar bilan bir-birlaridan farqlanadi. Kimdir musiqaga, kimdir go'zallikka, kimdir o'z kuchiga mahliyo bo'ladi. Odamlar o'rtasidagi fiziologik va psixik xususiyatlarning o'zaro farqlanishi tabiiylikdan boshqa narsa emas. Tabiiy farqlanishlar faqat beg'arazlikdan iborat emas, balki, ular individlar o'zaro noteng munosabatlarini paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Kuchlilar kuchsizlarni o'ziga bo'ysundiradi, ayyor odamlar soddadil odamlar ustidan g'alabaga erishadi va xokazo. Tabiiy farqlanishlardan kelib chiqadigan, hattoki, ba'zi jonzotlarda ham boshqacharoq ko'rinishda uchraydigan notenglik ham sotsial hodisaga taalluqli tushunchadir. Insoniy jamiyatda asosiy sotsial notenglik sotsial farqlanishlar va sotsial tabaqalanish bilan chambarchas bog'liqdir³⁴¹.

Sotsiallik deganda sotsial omillar vujudga keltirgan farqlanishlar anglanadi: hayot tarzi (shahar va qishloq aholisi), mehnat taqsimoti (aqliy va jismoniy mehnat xodimlari), sotsial rollar (ota, hakim, siyosiy arbob va boshq.) kabilar mulkka egalik qilish, oladigan daromadi, hokimiyatdagi ishtiroki, sotsial maqomga qanchalik erishganligi, nufuzi, ma'lumoti darajasidagi farqlanishlarga olib keladi. Sotsial rivojlanishning turli darajalari

³⁴¹Qarang: Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г. В. Осипов, Л. Н. Москвичев. - М.: Норма, 2003. - С. 80.

sotsial notenglik, boy va kambag'allarning vujudga kelishi, jamiyatni qatlamlashishi, uni stratifikatsiyalashuvi kabilarning bazasi (tayanchi) hisoblanadi. *Daromad* — shaxsning vaqt birligi uchun oladigan pul kirimining yig'indisidir. Bu mehnat, mulkka egalik va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. *Ma'lumot* (ta'lim darajasi) — o'quv muassasalaridan olingan bilimlar yig'indisidir. To'liqsiz o'rta ma'lumot olish — 9 yilda amalga oshadi. Professor kamida 20 yillik ta'lim bisotiga egalik qiladi. *Hokimiyat* — o'zining irodasini boshqa odamlarga (ularning xohishining qanday bo'lishidan qat'iy nazar) majburan qabul qildirish demakdir. U qancha odamga tarqalishi va ta'siri miqdoriga qarab o'lchanadi. Nufuz — shaxsning ijtimoiy fikrlarda yig'ilgan jamiyatdagi holatining bahosidir.

Funksionalizm oqimi vakillari notenglikni turli birliklar, sinflar va qatlamlarning sotsial funksiyalarini taqsimlanishidan kelib chiqib tushuntiradi. Har bir sotsial guruh vazifalarning yaxlit holda qo'yilishiga muvofiq tarzda hayotiy muhim bo'lgan echimlarni amalga oshiradigan mehnat taqsimoti tufayli jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar vujudga keladi: ulardan biri moddiy boylik ishlab chiqarish, ikkinchisi ma'naviy qadriyatlar yaratish, uchinchisi boshqaruv bilan shug'ullanadi. Jamiyatning bir tekisda va me'yorlar doirasidagi hayotiy faoliyati uchun barcha insoniy faoliyatlar turlari bir-birlariga muvofiq tarzda o'zaro birikuvini zarur bo'ladi. Ulardan ba'zilari muhimroq bo'ladi, boshqalari unchalik muhim bo'lmaydi. Shu tariqa, sotsial funksiyalarning ierarxiyasi asosiga muvofiq tarzda ularni amalga oshiradigan sinflar va qatlamlar ierarxiyasi quriladi. Sotsial narvonning tepasida doimo umumiy rahbarlik qilayotgan va mamlakatni boshqarayotgan guruhlar turadi, chunki, faqat ulargina boshqa funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarishga zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, jamiyatning yaxlitligini ushlab turish va ta'minlash kabi funksiyalarni bajaradi.

Sotsial notenglikni funksional foydaliligi prinsipini asosiy dalil sifatida ilgari surish subyektiv sharhlashdek jiddiy xavfni o'z ichida yashirib turadi. Darhaqiqat, jamiyat organizm sifatida xilma-xil funksionalliksiz yashay olmasa, unda nima uchun u yoki bu funktsiya boshqalariga nisbatan muhimroq deb sanalishi lozim? Bu kabi yondashuv individning boshqaruvda bevosita ishtirok etishi yuz bermaganda uning yuqori strataga mansubligini e'tirof etishni sharhlash yoki tushuntirishga imkon bermaydi. Shuning uchun ham *T. Parsons* sotsial ierarxiyani sotsial tizimni yashovchanligini ta'minlovchi zaruriy omil sifatida ko'rib chiqish asnosida uni joylanishi va tutgan o'rnini jamiyatda hukmronlik qilayotgan qadriyatlar tizimi bilan bog'laydi. Uning qarashicha, sotsial qatlamlarning

ierarxik narvonda joylashishi ulardan har birining ahamiyati to'g'risida jamiyatda shakllanadigan tasavvurlar bilan belgilanadi.

Siyosiy partiyalar, odamlar, guruhlar va sinflar kurashi — bu katta sotsial imkoniyatlar, afzalliklar va imtiyozlarga egalik qilish uchun kurashdir. Agar notenglik — jamiyatning ajralmas xususiyati bo'lsa, demak, u pozitiv funksional vazifani bajaradi. Jamiyat notenglikni takroriy va doimiy ravishda yaratib turadi, chunki, jamiyat unga yashashni ta'minlash va rivojlanish manbai sifatida muhtojlik sezadi. Shuningdek, notenglik doimo odamlar va guruhlarining o'zaro noteng munosabatlari sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun bu bir xil bo'lmagan vaziyatlar holatining manbalarini jamiyatdagi insonning holati xususiyatlaridan topishga intilish tabiiy bir holdir: mulkka egalik qilishda, hokimiyatda, individning shaxsiy sifatlarida va hokazo. Hozirgi davrda bu kabi yondashuv keng tarqaldi. Har qanday institut yoki tuzilma notenglikni tartibga solib turish xususiyatiga ega ekanligi, usiz sotsial aloqalarni takroran yaratish va yangi paydo bo'lganlarini integratsiya qilish mumkin emasligi uchun uni saqlab turishga intiladi. Bu xususiyat butun bir jamiyat uchun xosdir.

Nemis olimi *R.Darendorffing* fikricha, hokimiyat va maqomlarni qayta taqsimlash uchun to'xtovsiz davom etayotgan ixtiloflar va sinfiy kurashlar asosida yotuvchi iqtisodiy va maqomli notengliklar talab va taklifni muvofiqlashtirishning bozor mexanizmlari xatti-harakatlari natijasida shakllanadi. *P.Sorokin* sotsial notenglikni muqarrarligini quyidagi omillar bilan ifodalaydi: turli odamlarning ichki biopsixik farqlanishlari; individlarni obyektiv ravishda noteng holatga solib qo'yadigan (tabiiy va sotsial) atrof-muhit; jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvchilar sifatida toifalashtirishga olib keluvchi o'zaro munosabatlar va xulqni uyushtirishni talab etgan individlarning birgalikdagi jamoaviy hayoti. *T.Parsons* sotsial notenglikning yashovchanligini har bir jamiyatda qadriyatlarining ierarxiyashtirilgan tizimining mavjudligi bilan bog'laydi³⁴². Masalan, AQSh jamiyatida eng asosiy sotsial qadriyat biznesdagi muvafaqqiyatlar va martabalarini oshirish hisoblanadi. Shuning uchun eng yuqori maqom va daromadlarga texnologiya bilan bog'liq ixtisosliklar olimlari, zavodlar direktorlari kabilar egalik qiladi. Yevropada esa hukmron qadriyat «madaniy namunalarni saqlash» hisoblanadi. Shuning uchun jamiyatda gumanitar sohadagi intellekt egalari, ruhoniylar, universitetlar professorlari alohida yuqori nufuzga egadir.

³⁴²Социальные различия и социальное неравенство//<http://www.grandars.ru/college/sociologiya/socialnaya-struktura.html>.

Sotsial notenglik muqarrar ravishda yuz beradigan va zaruriy, tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlaridagi barcha jamiyatlarda namoyon bo'ladigan hodisadir; tarixan faqat uning shakllari va sotsial notenglik darajalari o'zgarishi mumkin. Aks holda, individlarda o'z malakasini oshirish, murakkab va sermehnat, xavfli yoki qiziqish uyg'otmaydigan faoliyatlar bilan shug'ullanishga nisbatan rag'batlar mavjud bo'lmas edi. Daromadlar olishdagi notenglik va jamiyatdagi nufuz yordamida jamiyat individlarni kerakli, lekin mashaqqatli va yoqimsiz kasb-korlarda mashg'ul bo'lishga undaydi (yoki talab etadi), bunda yuqori ma'lumot egalari va iste'dodli individlarni rag'batlantirib turadi.

Tenglik. Adolatlilikning mazmunini turlicha konseptual talqinlarida sotsial tuzilishning makrosotsial tarzi sifatida sotsial adolatning faqat mavhum tasavvurlarining o'zini emas, balki, hayotiy voqelik jarayonini ziddiyatli tarzda asoslash tenglik va notenglik tushunchalarining o'zaro aloqalariga doir tasavvurlarning o'zgarishini zarurat qilib qo'yadi: «o'z a'zolarining haqiqiy tengligiga tabaqalashmay erishgan jamiyatning mavjudligi — insoniyat tarixida hech qachon voqelikka aylanmagan afsonadan boshqa narsa emas»³⁴³.

Sotsial stratifikatsiyaning tenglikdan vujudga kelishini yuzaki tushunish kerak emas. Stratifikatsiyaning haqiqiy sirlarini tahlil etish shundan guvohlik beradiki, jamiyatdagi notenglik uning yaxlitligi va madaniy aynanligini ushlab turishi sababli ham odamlarning ba'zi-bir tengligi unsurlarini saqlanib turishini taqozo etadi. Tenglik va notenglik muammolari barcha davrlarda ham odamlarni xavotirga solib keldi. Mutafakkir *Aristotel* tenglikning ayrim jihatlari to'g'risida quyidagi fikrni bildirgan edi: «Umuman xatolik — bu har yerda u yoki bu tenglikning ko'rinishlariga shunchaki rioya qilishga intilishdir. Bundan nimalar kelib chiqishiga isbot shundan iborat: shu kabi tenglikka asoslangan davlat tuzilishining hech bir turi barqaror yashay olmaydi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, bu kabi dastlabki xatoliklar faqat u yoki bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin»³⁴⁴.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish shuni ko'rsatdiki, boylikni taqsimlashda odamlarning farqlanishlari, ular faoliyatining sermahsulligi va jamiyat oldidagi xizmatlarini ko'proq e'tiborga olish lozim ekan. Taniqli olim *Fridrix fon Xayek* taqsimlash prinsipi odamlarning xizmatlari bilan muvofiqlashishi lozim, hasad erkinlik tushunchasiga yot bo'lgan tenglikka qiziqishdek buzuqlikning paydo bo'lishidir³⁴⁵, deb yozgan edi.

³⁴³Qarang: Юм Д. Малые произведения. Эссе. Естественная история религии. Диалоги о естественной религии. - М., 1996. - С. 304.

³⁴⁴Аристотель. Соч.: В 4 т. - М.: Мысль, 1984. - Т. 4. - С. 528.

³⁴⁵Хайек Ф. А. Дорога к рабству. - М., 1983. - С. 31.

Tenglik baravarlashtirishga aynanlashmaydi. Tenglikka baravarlashtirish sifatida qarash amaliy hayotda bir xillikni majburan tiqishtirishning niqoblanishidan boshqa narsa emas, u insoniylik qadriyatlariga butunlay ziddir. Jamiyat nuqtai nazaridan baravarlashganlik jamiyat va uning a'zolari uchun maqsadga muvofiq hodisa emas, u odamlarning qobiliyatlarini o'sishi uchun to'siq bo'lib, ularning ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirmaydi, oxir-oqibatda sotsial funksiyalarning buzilishiga olib keladi.

Notenglik va tenglik munosabatlari sotsium tuzilishining ikki tomonlama asoslanishi hisoblanadi. Sotsial struktura va stratifikatsiyaviy jarayonlar ikki qarama-qarshi tomonlarning o'zaro munosabatlarini ifodalab, ularning har biri o'z holicha o'zini anglamaydi. Sotsial stratifikatsiyaning turli modellari sotsial jarayonlarning rivojlanishiga, jamiyat va uning alohida guruhleri manfaatlarini amalga oshirishga turlicha ta'sir etishi mumkin. Muayyan aniq tarixiy sharoitlarda tenglik va notenglikni birga qo'shgan holda e'tiborga olishning muayyan (ideal) sotsial stratifikatsiyaviy modeli sotsial adolat qadriyatlarini o'zida ifoda etadi, boshqalari esa u yoki bu darajadagi adolatsizlikka yuz tutadi.

Sotsial tenglikni jamiyat tuzilishining ko'p jihatli asosi sifatida e'tirof etish mutlaq tenglikni ifodalamaydi, balki, bu bir tomondan, muayyan aniq tarixiy sharoit doirasidagi sotsial hayotning barcha sohalarida jamiyatning manfaatlarini shakllanishi tufayli tenglikning fundamental asoslari mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Ikkinchi tomondan, adolat prinsipini amalga oshirishning turli usullarini hisobga olgan holda boyliklar va sotsial imtiyozlarni sotsial-maqbullik kasb etgan holda taqsimlashni u yoki bu darajada ta'minlaydigan, tenglik va notenglik unsurlarini tegishli ravishda qo'shib olib borish va turli stratifikatsiyaviy munosabatlarni o'z ichiga olgan sotsial tartibning alohida modeli shakllanadi.

Plyuralizm. Dastlab ilmiy muomalaga plyuralizm tushunchasi 1915-yilda ingliz leyborizmi mafkurachisi *G.Laski* tomonidan kiritildi. Lekin, u bunda asosan siyosiy plyuralizmni nazarda tutgan edi. *Plyuralizm* (lot. pluralis — ko'p, ko'p miqdorda, birtalay) — hozirgi davr demokratiyasi ijtimoiy tuzilishining eng asosiy prinsiplaridan biridir. U sotsial guruhlar, partiyalar va boshqa tashkilotlarning o'zaro ta'sirlarga va musobaqalashishga (o'z manfaatlarini erkin ifodalash sharoitida) kirishishlaridir. Plyuralizm tarafdorlari dastlab *Aristotel* tomonidan ilgari surilgan ta'rif — «inson o'z tabiatiga binoan sotsial mavjudotdir» va ularga o'z talablarini ilgari surish, ko'maklar berish yoki norozilik bildirish uchun uyushmalar va guruhlar tuzish xosdir, degan purhikmat so'zlaridan bahra oldi. Manfaatlar guruhlarining hech biri butun bir jamiyatning fikrini ifoda qila olmaganligi

uchun ham ular siyosiy jarayonda ustunlik qila olmaydi, shuningdek, hokimiyatni ham bir joyga yig'ish imkoniyatiga ega emas.

O'tgan asrning birinchi yarmiga kelib turli-tuman sotsial oqimlarni umumiy kelishuviga erishish maqsadida sotsial yon berishlar asosida birlashtirish va ularni o'zaro murosaga keltirishda plyuralizmning sotsial ahamiyati juda ham oshib ketdi. Bu davrga kelib demokratiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida jamiyatdagi plyuralizmni rag'batlantirish, fuqarolarning o'z manfaatlarini ifodalashga va o'zaro kelishuviga erishish edi. Bu davrda plyuralizmning siyosiy jihatlariga ko'proq e'tibor berildi. Umuman, siyosiy plyuralizm deganda, hokimiyatni bir necha yoki ko'plab siyosiy munosabatlar subyektlari o'zaro xatti-harakatlari asosida amalga oshirish, deb tushunildi.

Plyuralistik demokratiyaning sotsial-siyosiy kengligi ko'plab nuqtai nazarlarni ifodalagan, fuqarolarning kayfiyati va talablarini elitaga voqif qiladigan faol uyushmalar va boshqa turli-tuman guruhlardan iborat bo'lishi bilan ham ajralib turadi. Ilmiy muomalaga anomiya tushunchasini olib kirgan *E.Dyurkgeym* plyuralizm deganda an'anaviy jamiyatni buzib tashlagan modernizatsiya va industrlashtirish natijalarining uyushishga moyillik xulqi va siyosatda radikalizmni o'sishiga olib kelgan omillar sifatida tushundi. AQSh sotsiologi *R.Merton* plyuralizm holati bilan bog'liq bo'lgan o'z gipotezasini ilgari surdi. U anomiyaning paydo bo'lishining asosiy sababi — bu jamiyatda keng yoyilgan siyosiy maqsadlar, ularni qo'lga kiritish vositalari, yoki bu maqsadlarni inkor etish yoki boshqasi bilan almashtirishga doir tasavvurlarning o'zaro muvozanatini yo'qotish, degan fikrga asoslandi.

Plyuralizm siyosiy hayotdagi turli-tumanlikni rag'batlantirish natijasida quyidagilarga erishish vositasi, deb qaraldi: odamlarning turli ehtiyojlarini qondirish; siyosiy uyushuvning shakllari va g'oyalarini boyitish; oqilona siyosiy qarorlar qabul qilish, hayot tarzi va ijtimoiy rivojlanishning turli yo'llarini topishga erishish.

Plyuralizmning jamiyatdagi sotsial asoslari siyosiy partiya, ijtimoiy harakat va uyushmalar sifatida faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan manfaatlar guruhlari hisoblanadi. Bu kabi guruhlar mavjudligining asosiy sababi - bu alohida olingan fuqaroning manfaatlarini siyosiy irodaning shakllanishiga ta'sir qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun artikulyatsiya³⁴⁶ qilinishidir. Guruhlardagi artikulyatsiya jarayoni bir necha bosqichlarga bo'linadi:

³⁴⁶Artikulyatsiya - [lot. articulation - alohida-alohidaga bo'linish] - nodavlat va jamoat tashkilotlari, individlar va sotsial guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiy ruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lum siyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi.

-manfaatlarni aniqlash — turli shaxsiy va hissiyotli fikrlarning yig'indisini aniq formulalar va talablarga tatbiq qilish. Bu bosqichda birlik tuyg'ulari va «ular» tushunchasidan a'lo darajada turadigan «biz», ya'ni «boshqalar» tushunchasi vujudga keladi;

-asriy manfaatlarni shakllantirish va umumlashtirish, siyosatga ta'sir etishga imkoniyat yaratish uchun ularni guruh ichida jamlash;

-manfaatlar ichidan eng muhimlarini tanlash — manfaatlarni saralash, ya'ni ularni ichidan muhimlarini birinchi navbatdagi vazifa sifatida tanlab olish.

Plyuralizm asosiy siyosiy qadriyatlar sohasida kelishuvlar, fuqarolarning ko'pchiligi, ularning partiyalari va boshqa uyushmalari vakillarining mavjudligiga asoslanadi: davlatni mustahkamlash va saqlashdagi umumiy manfaatdorlik; hokimiyat uchun kurashda sofdil raqobatchilikni o'z ichiga olgan demokratik qoidalarga amal qilish; muholifatga nisbatan chidamlilik; qonunlar, ko'pchilikning irodasini, inson huquqlarini, shuningdek ozchilikning avtonomligi va o'z xususiy fikriga ega bo'lish va uni qonun doirasida erkin ravishda himoya qilish huquqlarini hurmat qilish; tortishuvli masalalarning yechimini topishda konstitutsiyaga xilof ravishda kuch ishlatishdan bosh tortish va hokazo.

Plyuralizm — sotsial manfaatlarning ko'pligini e'tirof etish va ularni siyosatda ifodalash uslubidir. U boshqa rangba-rangliklarning namoyon bo'lishiga aloqadordir:

-sotsial munosabatlarda uning ildizi iqtisodiyotda — mulkchilikning turlarini ko'pligi, ularning o'zaro bir-birlariga nisbatan ta'sirlar o'tkaza olish qobiliyati va o'zaro raqobatlashuvida yotadi;

-jamiyatning sotsial strukturasi — turli sotsial guruhlar teng huquqligining mavjudligi;

-turli-tumanlik ahamiyatini tushunish, uni sotsial munosabatlarda qo'llab-quvvatlash va saqlash;

-madaniyatda — odamlarning o'ziga xosligini namoyon bo'lish shakllari va yo'nalishlarining rivojlanishi;

-dunyoqarashda — plyuralizm odamlarning nimani afzal qo'rishini va ruhiy tanlovini qadrlashda, davlatning jamiyatdagi dunyoqarashga oid funksiyasidan voz kechishida ifodalanadi.

Plyuralizm nafaqat turli-tumanlik, balki manfaatlarning o'zaro bir-birilariga mos kelishi, busiz jamiyatda siyosiy vositalar bilan hokimiyatni amalga oshirishning har qanday mexanizmini to'xtatib qo'yish demakdir. Bu turli-tumanliklarning birligidir. Shuning uchun sotsial va siyosiy plyuralizm doirasidagi farqlanishlardan tashqari sotsial-siyosiy jarayon

ishtirokchilarining barchasi qabul qiladigan va baham ko'rishini mumkin bo'lgan muayyan umumiy nuqtai nazar va umumiy prinsiplar mavjud bo'lishi lozim. Ana shundan kelib chiqib farqlanishlarni tugatmaslik kerak, balki ularni boshqarish lozim, degan plyuralistik siyosatning prinsipi mavjuddir. Siyosiy plyuralizm quyidagi qarama-qarshi qadriyatlarini birikuvini va uyg'unlashuvi choralari topishga qaratilgan:

- jamiyatda va siyosatda turli-tumanlik va birlik;
- nomarkazlashtirish va markazlashtirish;
- avtonomiya va birlashish;
- erkinlik va mas'ullik;
- raqobatchilik va hamkorlik.

Plyuralizm qandaydir betartiblik muhitidagi turli-tumanlik, ichki birlikdan maxrum hodisa emas. Aksincha, mashhur olim *S.L. Frank* ta'kidlaganidek, «fuqarolik jamiyati — bu alohida unsurlarning erkin va silliq ravishda ichdan o'zaro chirmashib ketgan molekulyar ijtimoiy aloqalaridir».

Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy siyosiy plyuralizmning alomatlarini quyidagilar hisoblanadi:

-saylovchilarning ovozi olish, konstitutsiyaviy vositalar bilan hokimiyatga ta'sir etish uchun kurashlardagi raqobat va musobaqalardan iborat ekanligi. Siyosiy plyuralizmning bu jihatlari muhim ahamiyat bergan AQSh siyosatshunosi *R. Dal* hozirgi siyosiy rejimlar mezonini demokratiya emas, balki *poliarxiya* deb atashni taklif etdi. Uning fikricha, poliarxiya nafaqat yuqori siyosiy ishtirokka xos bo'lgan zamonaviy siyosiy shakllarning xususiyatlarini, balki, hokimiyat vajidan turli siyosiy guruhlar va yetakchilarning o'zaro raqobatchiligini aniq ravishda ifodalaydi. Plyuralistik demokratiya bu holatda qadriyatlar kodeksining umummajburiy talablariga rioya qilish asnosida davlat doirasidagi guruhliy manfaatlarni o'zaro muvozanatlash yo'li bilan umumiy maqsadga erishishga intiladi;

-davlatning o'zini ichidagi ko'plab hokimiyatlarning mavjudligi. Har bir davlatda hokimiyat asosan uchga — qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlariga bo'linadi. Lekin, amalda davlat hokimiyatining turi ko'plab uchraydi. Markaziy organlar ichida ba'zan davlat boshlig'i va quyi palatadan mustaqil bo'lgan parlamentning yuqori palatasi muhim rol o'ynaydi (masalan AQShda). Rivojlangan mamlakatlarda asosiy sohibi tasarrufida nafaqat moddiy qadriyatlar, balki siyosiy resurslar ham bo'lgan, oxir-oqibatda hokimiyat organlari siyosiy strategiyasi va tarkibini belgilashda asosiy o'rin tutadigan o'rta sinf ajralib turadi;

-jamiyatga qanchalik notenglik va sotsial keskin farqlanishlar xos bo'lsa, u joyda siyosiy plyuralizmning qaror topishi uchun shunchalik

asoslar kam bo'лади. Bu kabi holatda marginal guruhlar o'z manfaatlarini himoya qilishda davlatga ta'sir qilish va o'zlarining hokimiyatga doir huquqlarini amalga oshirish maqsadlarida uyushmalar tuzish, ko'zga ko'ringan yetakchilarni ilgari surishning resurslaridan maxrum bo'лади;

-siyosiy plyuralizm sharoitida umumiy manfaatlar ulardan voqiflikning boshlanishi arafasidayoq, ya'ni, u yoki bu ko'pchilikning aniq va ravshan tanlovi muhitida bu masalalar bo'yicha erishilgan kelishuv darajasida ifodalanadi³⁴⁷.

Umuman, qaysi jamiyatda turli siyosiy kuchlar, siyosiy partiyalar, sotsial qatlamlar va guruhlar, turlicha mafkuralar, e'tiqodlar va dinlar o'rtasida plyuralizm prinsiplariga amal qilinsa, ana shu jamiyatda farovonlik, sotsial barqarorlik uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar vujudga keladi. Fuqarolik jamiyatining ham asosiy yashash sharti — bu jamiyatdagi plyuralizm uchun kuchli asoslar va shart-sharoitlar yaratilganligidir.

9.5. Sotsial barqarorlik va inqiroz — jamiyatning muhim sotsial munosabatlari

Sotsial barqarorlik. Sotsiologik nuqtai nazardan sotsial barqarorlik — bu o'zgarmaslik, sotsial tizim va munosabatlarning harakatsizligi sinonimi emas. Jamiyatdagi harakatsizlik barqarorlikning emas, balki erta yoki kech beqarorlik, sotsial tanglik, va nihoyat, inqirozga olib keladigan turug'unlikning alomatidir.

Sotsiologik ma'nodagi sotsial barqarorlik — bu sotsial strukturalar, jarayonlar va munosabatlarning shunday bardoshlilikiki, ular qanchalik turli o'zgarishlar jarayonlariga uchrasalar ham o'z sifatli muayyanligini va oldin qanday bo'lsa o'sha yaxlitligini saqlab qolishidir. Barqarorlik uchta darajadan iborat:

-sotsial tizimning (institutlar, tashkilotlar, hamjamiyatlar va boshq.) ichki barqarorligi;

-ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining barqarorligi;

-sotsial barqarorlik sifatida belgilanadigan butun bir jamiyatning barqarorligi.

Mazkur oxirgi daraja o'z ichiga siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va madaniy barqarorliklarni butun bir jamiyat darajasida ifodalaydi. *Barqaror jamiyat* — bu rivojlanayotgan, shu bilan birga, o'z bardoshlilikini saqlayotgan, o'z tirkaklarini zaiflashishiga olib keladigan sotsial kuchlarning

³⁴⁷Мунтян М.А. Политический плюрализм (теоретический очерк)//<http://ru.convdocs.org/docs/index-449716.html>.

kurashlaridan mustasno bo'lgan, o'z bardoshlilikini saqlagan holda o'zgarishlarga chidamlilikni saqlash mexanizmlariga ega bo'lgan jamiyatdir.

Yana shunga e'tibor berish lozimki, avtoritar va totalitar rejimlar ham qandaydir muddatlar ichida barqaror bo'lishlari mumkin. Lekin, aksariyat mamlakatlarning tarixiy tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, oxir-oqibatda bunlay rejimlar «portlash»ga uchrashi muqarrar bo'lib, ular umumiy sotsial inqirozlar va ixtiloflar o'chog'iga aylanadi. Shuning uchun ham odatda barqaror jamiyat deganda demokratik jamiyat yoki fuqarolik jamiyati tushuniladi.

Shu tariqa, jamiyatdagi barqarorlikka o'zgarimaslik, harakatsizlik hisobiga emas, balki kerakli joyda va kerakli vaqtda pishib yetilgan sotsial o'zgarishlarni omilkorlik bilan amalga oshirish hisobiga erishiladi. Yana shuni aytish lozimki, sotsial o'zgarishlar sotsial barqarorlikning zaruriy shart-sharoiti va unsuri hisoblanadi.

Sotsial barqarorlik omillari. Yuqorida ko'rsatilgan sotsial barqarorlikning uchta darajasiga tegishli ravishda barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Har bir sotsial tizimning barqarorligi tizimning ichki omillari va bu tizimga nisbatan tashqi omillar bilan belgilanadi. Masalan, ta'lim tizimining sotsial institut sifatidagi barqarorligi ichki omillar — o'qituvchilar tarkibining professional jihatdan tayyor ekanligi, o'quvchilar bilan o'qituvchilar sonining oqilona o'zaro nisbati, dasturiy va uslubiy jihatlardan ta'minlanganligi kabi qator omillarga uzviy ravishda bog'liqdir. Shu bilan birga, ta'lim sotsial tizimi yana tashqi omillar — ta'limga doir davlat qonunchiligi, davlat siyosati, jamiyatning siyosiy barqarorligi, o'zining moddiy-texnikaviy va moliyaviy jihatlardan ta'minlanishiga chambarchas bog'liqdir. Bu ichki va tashqi omillarning mavjud bo'lishi boshqa har qanday sotsial tizim uchun ham xosdir.

Milliy-davlat darajasidagi sotsial tizim barqarorligi, ya'ni, u yoki bu jamiyatning bir butunlikdagi barqarorligini ta'minlash eng muhim masala hisoblanadi. Chunki, unga nisbatan tashqi omillarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Bu kabi barqarorlik uchun ijobiy ta'sir qiladigan xalqaro vaziyatlar, boshqa davlatlar bilan do'stona aloqalar, muhimi, global sotsial tizimga qo'shilganlik kabi omillar zarur bo'ladi.

Barqarorlikning ichki omillari turli-tumandir. Ularning ichida o'ziga jamiyatning sotsial, siyosiy, iqtisodiy, madaniy tizimlarini qamrab olgan sotsial institutlarning barqaror amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror jamiyatda ularning o'rtasida ma'lum darajada bir-birlarini qo'llab turadigan muayyan mutanosibliklar bo'lishi lozim. Aks holda, jamiyatda barqarorlikni buzishga moyil kuchlarning jamiyatga nisbatan salbiy ta'siri kuchayib ketadi.

Jamiyatning barqarorligi sezilarli darajada siyosiy tizimning, avvalambor, ijroiya, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarining barqaror holatiga bog'liqdir. Barqarorlikni himoyalovchi mexanizmlardan biri — bu jamiyatdagi ko'ppartiyaviylikdir. Hokimiyat strukturalari bilan partiyalar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi zaruriy qonunchilik asoslarining, shuningdek siyosiy va huquqiy madaniyatlarning yetarli emasligi jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Aslida, *ko'ppartiyaviylik* — bu avtoritarizm va totalitarizmning kirib kelishiga yo'l qo'ymaydigan jamiyatning himoya mexanizmi hisoblanadi. Odatda turli siyosiy partiyalarning o'zaro kurashlari maydoni parlament hisoblanadi.

Siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda ijtimoiy hayotning muhim shakli bo'lgan konsensus turli siyosiy va sotsial kuchlar, siyosiy partiyalarning o'zaro murosasozlik asosida yashashlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, jamiyat barqarorligining sotsial omillari sifatida jamiyatning sotsial-sinfy strukturasiga taalluqli bo'lgan stratifikatsiyaning ahamiyati ham kattadir. Ularning ichida muayyan jamiyatda o'rta daromadlar oladigan o'rta mulkdorlar keng qatlamini shakllangan bo'lishi barqarorlikni saqlashning muhim omilidir. Bu kabi qatlamning mavjudligi faollashgan aholini o'z tomoniga jalb eta oladigan o'rtalikdagi siyosiy kuchlarning mavjudligi va mustahkamligini ifodalaydi.

Inqiroz. Jamiyatning rivojlanishi aksariyat hollarda oldindan bilib bo'lmaydigan ko'plab sotsial jarayonlar bilan birgalikda kechadi. Ana shu jarayondagi qator hodisalar ichida *sotsial inqirozni* sotsial munosabat sifatida alohida o'rganish sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir. Sotsial inqirozni o'z namunali yondashuv nuqtai nazari bilan o'rganish bu hodisani turli sotsiologiya maktablari tadqiqotlari natijalari asosida o'rganishga imkoniyat beradi. «Sotsial inqiroz» tushunchasini ochib berishga doir yondashuvlar turli-tuman bo'lib, ularning tadqiqotlari natijalarini uyg'unlashtirish — bu hodisani chuqur tushunishga imkon yaratadi.

Funksional yondashuv (*O. Kont, T. Parsons, R. Merton, R. Nisbet* va boshq.) sotsial inqirozning jamiyatning yaxlit tizim sifatida yashashiga tahdid soluvchi, jamiyat maqsadlarini amalga oshirishga xalaqit beruvchi yoki jamiyatni beqaror, nomutanosib holatga olib keluvchi shart-sharoitlari va xulqlari turlarini aniqlaydi. Ixtilofshunoslik (konfliktologik) yondashuv (*R. Mills, L. Kozler, R. Darendorf, K. Marks, K. Boulding* va boshq.) nuqtai nazaricha, inqiroz — bu sotsial taraqqiyotni tezlatuvchi va oqilona muvofiqlashtirishga beriluvchan universal va pozitiv omil hisoblanadi. Modernizatsiya-transformatsiyaviy yondashuvga (*V. N. Kudryavseva, A. G. Zdravomislova, T. I. Zaslavskaya, Yu. A. Levada* va boshq.) binoan

sotsial inqiroz — bu jamiyat rivojlanishidagi yoki uning biron-bir sohasidagi burilish, o'zgarish nuqtasidir.

Umuman, barcha yondashuvlar tadqiq natijalarini umumlashtirish asnosida inqirozlarni quyidagi tasniflarini keltirish mumkin: rivojlanish jarayoniga to'sqinlik qilish; qandaydir hodisa yoki jarayonning buzilishi yoki yemirilishi; qandaydir jarayonning amal qilishida boshqaruvchanlikni buzilishi, uni nazorat qilishning izdan chiqishi; oqibatida «sog'lomlashish» yoki sotsiumning buzilishi, tartibsizlik yuz beradigan sotsial «kasallik» rivojlanishining oliy darajasi; sotsial xatti-harakat va tizim rivojlanishi istiqboli imkoniyatini yo'qotish.

Shuningdek, sotsial inqiroz — turli-tuman ko'rinishlarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. «*Sotsial inqiroz*»ni aniqlashning ko'plab tushunchalarining mavjudligi, ularni ta'riflash qanday fan nuqtai nazaridan yoki uning qaysi jihatiga asosiy e'tibor berilayotganligiga bog'liqligi tasodifiy hol emas. Shuning uchun sotsiologiya fani nuqtai nazaridan sotsial inqirozni o'rganishda sotsial aloqalar o'rmini tushunishga ehtiyoj seziladi. Har qanday inqiroz — bu turli darajadagi — mikro-, mezo-, makro- va boshqa darajalarda yashab kelgan sotsial aloqalarning uzilish jarayonidir. Shuning uchun sotsial inqirozni jamiyatdagi aloqalarning uzilishi qabilida aniqlash uchun barcha asoslar mavjuddir.

Sotsial inqiroz — jamiyatdagi ziddiyatlarning g'oyatda keskinlashuvi, sotsial aloqalar uzilishi, ijtimoiy tuzilmalarning o'z funksiyalarini bajarish qobiliyatini yo'qotishi, jamiyatning yaxlit tizim sifatidagi barqarorligini buzilishi kabilar ro'y berishini keltirib chiqaradigan birtalay tang ixtiloflarning keskin kuchayishidir.

Sotsial aloqalarning uzilishi har doim ham inqirozlarni keltirib chiqaravermaydi. Jamiyat o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida ba'zi sotsial aloqalar uzilishga barxam berish qobiliyatiga ega. Lekin, hayotiy muhim sotsial aloqalar uzilib qolsa, unda sotsial inqirozni yuz berishi muqarrar bo'lib qoladi. Alohida olingan sotsial inqirozning betakrorligiga qaramasdan ularning har biri umumiy belgilar va o'Ichamlarga ega bo'lib, bu holat ularni turlashtirishga imkon beradi. Inqirozlarni tasniflashni asoslashlardan biri — bu ularning paydo bo'lish darajalaridir. Ana shu mezon bo'yicha quyidagi inqirozlarni bir-birlaridan ajratish mumkin: 1) megadarajali; 2) makrodarajali; 3) mezodarajali; 4) mikrodarajali.

Megadarajali inqirozlar globallik xususiyatiga ega va ular jahon hamjamiyati darajasida ro'y beradi. Megadarajali inqiroz vaziyatlari *S.Xantington* tomonidan chuqur tadqiq etildi. U ustunlik qilayotgan sivilizatsiyaning dunyoda yetakchilik qilish uchun talab etiladigan qo'llab-

quvvatlash resurslarining kamayishi yoki yo'qolib ketishi uni inqirozga olib kelishi jarayonlarini ochib beradi.

Mazkur sotsium darajasida ro'y beradigan inqirozlar AQSh sotsiologi *F. Fukuyama* tomonidan o'rganildi. U XX asrning 60-yillari oxiri — 90-yillarida rivojlanishning industrialdan keyingi darajasidagi mamlakatlarning ko'pchiligida sotsial shart-sharoitlarning yomonlashuvi, sotsial buzilishlarning o'sish davri sifatida tahlil etdi. Bu noxush holatlar oldinlari G'arb odamlarini birlashtirgan sotsial aloqalarning uzilish oqibatlari edi. Bu aloqalarni uzilishi (*Fukuyama* uni «ulkan uzilish» deb ataydi) fojiaiviy tus olib, kelajak avlod uchun oqibatlari yanada yomon bo'lishiga doir misollar keltiradi. Hozirgi davrda inqirozlarga globallashuv jarayonlari katta ta'sir qilishi natijasida xalqaro darajada ta'sir qiladigan omillar bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga tezlik bilan o'tib ketmoqda. Bunga 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozini keltirish mumkin.

Makrodarajali inqirozlar ayrim jamiyatlar va davlatlarda ro'y bermoqda. Bunga misol tariqasida sobiq ittifoqni misol keltirish mumkin. Mezo-darajali inqirozlar o'rta guruhlar, hamjamiyatlar va uyushmalarda yuz beradi. Mikrodarajali inqirozlar bevosita shaxslararo o'zaro aloqalarda mavjud bo'ladi: kichik guruhlar, oila va hokazo. Ular vaziyatli (yaqin kishining o'limi, ahamiyatli maqomni yo'qotish, oiladagi ajralish, kuch ishlatish va hokazo) qonuniyatli tarzda (yosh o'tishi bilan yuz beradigan inqirozlar va boshq.) yuz beradi³⁴⁸.

Butun bir jamiyatdagi tizimli inqirozdan chiqish va uning oldingi darajasini tiklash imkoniyatlarini yaratish mumkin. Buning uchun katta g'ayrat-shijoat talab etiladi. Olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida jamiyatning tizimli inqirozi oldini olish yoki uni to'xtatish ko'rsatkichlari ishlab chiqildi³⁴⁹.

Bu ko'rsatkichlar hayot faoliyatining muhim yettita sohasi bo'yicha guruhlashtirildi: iqtisodiy munosabatlar, sotsial soha, demografik vaziyat, ekologik vaziyat, deviant xulq, siyosiy munosabatlar, mudofaa qobiliyati. Bunda sotsial soha bo'yicha to'rtta ko'rsatkich olindi: 1) daromadlarning nisbati 10 % eng boylar va 10 % eng qashshoqlar. Dunyo amaliyotidagi oxirgi-mushkul qiymat quyidagi o'zaro nisbatda ifodalandi: 10:1; 2) qashshoqlik ko'rsatkichidan (chizig'idan) ham pastda yashovchi aholining

³⁴⁸ Социальные кризисы: сущность и типология//<http://moyuniver.net/socialnye-krizisyssh-nost-i-tipologiya/>.

³⁴⁹ Каранг: Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г. В. Осипов, Л. Н. Москвичев. - М.: Норма, 2003. - С. 637-639.

hissasi. Dunyo amaliyotidagi oxirgi-mushkul qiymat quyidagi o'zaro nisbatda ifodalanadi: 10 %; 3) eng oz va eng ko'p ish haqi o'zaro nisbati. Dunyo amaliyotidagi oxirgi-mushkul qiymat quyidagi o'zaro nisbatda ifodalanadi: 1:3; 4) ishsizlik darajasi. Dunyo amaliyotidagi oxirgi-mushkul qiymat quyidagi o'zaro nisbatda ifodalanadi: 8-10%; Ana shu ko'rsatkichlarning salbiy tomonga qarab o'zgarishi inqirozlarni kelib chiqishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Milliy g'oyaning sotsial munosabatlar barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Milliy g'oya va mafkuraning asosiy vazifasi — jamiyatni ma'naviy yangilash, jamiyatni barqarorlashtirish, Vatan ravnaqi, shaxs erkinligi, xalq farovonligiga erishish, komil insonni shakllantirish, millatlararo hamkorlik va totuvlikni ta'minlash, insonlarga diniy bag'rikenglikni baxsh etish kabi umuminsoniy qadriyatlarni xalq dunyoqarashiga singdirish va ularni ana shu qadriyatlarni amalda bajarishga safarbar etishdan iboratdir.

Milliy g'oya va mafkuraning ma'naviy-madaniy sohadagi asosiy vazifasi — davlat va jamiyatni rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan rivojlanish darajasiga erishishga doir islohotlar jarayonida fuqarolarning keng ishtirokini va faolligini oshishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ijtimoiy ongni o'sishiga ko'maklashishdir. Shu maqsadda fuqarolarni ona-Vatanga muhabbat, mustaqillikni mustahkamlash, buyuk kelajakni yaratishga e'tiqod, mehnatsevarlik, ma'naviy-madaniy barkamollik ruhida tarbiyalash, ularni ittifoq davrida shakllangan mutelik, ijtimoiy loqaydlik, e'tiqodsizlik kabi illatlardan xalos etish, xalqimizning boy ma'naviy merosidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan baxramand qilishdan iboratdir.

Milliy g'oyaning asosiy maqsadlaridan yana biri — bu kishilarda istiqlolning rivojlanib borish sur'atlariga monand yuksak ishonch va e'tiqodni qaror toptirish, axloqan pok, ma'naviy boy, ijtimoiy faol, jismonan mukammal barkamol insonni voyaga yetkazish, ularda kurashchan vatanparvarlik, ishchan mehnatsevarlik, milliy g'urur va boy tuyg'uni o'stirish, odamiylik sha'niga dog' tushiruvchi xulq-atvordan xalos etishdir. Shu yo'nalishda xalqimiz yaratgan boy ma'naviy madaniyat durdonalaridan baxramand bo'lishga keng imkoniyatlar yaratib berishdir. Albatta, bunda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga mos bo'lgan sotsial munosabatlarni rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini qaror toptirish, avvalo, ulardagi istiqlol dunyoqarashini yuksaltirish ularni sotsial munosabatlardagi ishtiroklarini faollashtiradi, ularda istiqbolni tasavvur etish malakalari yuksaladi. Mustaqillik davrida yuz berayotgan yangi o'zgarishlarni o'rganish, umumlashtirish, xorijiy davlatlarning tajribalariga e'tibor berish,

ijtimoiy-gumanitar, tabiiy fanlarni tezkorlik bilan yuksaltirish, kishilarda Vatan, millat va buyuk kelajakni yaratish jarayoniga ishonch va fidoyi e'tiqodni, ijtimoiy faollikni o'stirish orqali dunyoqarashni shakllantirishga erishish milliy mafkuraning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek, fuqarolarda huquqiy va siyosiy madaniyatni o'stirish mafkuraviy ishning birinchi galdagi vazifalaridandir. Shu sababli ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya fanida hozirgi taraqqiyotning sotsial muammolarni hal etish, yangi jamiyat barpo etish yo'llarini ilmiy taxlil qilish, tajribalar to'plash uchun asosiy g'oyaviy yo'nalishlarni yaratishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Xususan, taraqqiyotning istiqlol yo'li insonning sotsial munosabatlardagi o'rmini, mehnatini yangi yuksaklikka ko'tarish, insonning hayotga, Vatanga, o'z xalqiga, millatiga va o'zligini anglashga qarashlarini tubdan yangilash, kishilarda hayot, sotsial rivojlanish, bozor iqtisodiyoti munosabatlari, mulkchilik munosabatlari, tadbirkorlik va ishbilarmonlik haqidagi va umuman, barkamol inson uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilimlar bilan qurollanishni ta'minlashga qaratilgan.

Milliy istiqlol mafkurasi:

-jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlariga va sotsial munosabatlarga oid tasavvurlarni shakllantirib, xalqimizning yangi fuqarolik jamiyatiga o'tish tasavvurlarini yuksaltiradi;

-fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat ideallarini keng xalq ommasi, sotsial guruhlar va qatlamlar ongiga singdirib, ularni ixtiyoriy ravishda safarbar etuvchi ruhiy kuch vazifasini bajaradi;

-milliy g'oya shaxsiy yoki guruhiy va tabaqaviy manfaatlardan o'z ko'lamining ustivorligini ifodalab, ularni umumiy va yaxlit manfaatlar asosida birlashtiradi, o'zida milliy manfaatlarni ifodalab, bu bilan barcha insonlarni o'z jozibasiga jalb etadi, xalqning orzu, ezgu istaklarini milliy darajada ifodalaydi;

-u o'zida sotsial, iqtisodiy va ma'naviy voqeliklarni uyg'unlashtirib, ijtimoiy tanglik vaziyatlariga barham beradi, turli shaxslar, ijtimoiy guruhlar ehtiyojlarini mutanosiblashtiradi, ularni mavjud imkoniyatlar asosida bir-birlari bilan yaqinlashtirish va kelishtirishga ko'maklashadi;

-mamlakat o'tmishi, milliy an'analari, umuminsoniy qadriyatlarga yot bo'lgan turli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantiradi, yot mafkuralar bilan kurashda jamiyat rivojining muqobil yo'llari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantiradi, turli mafkuralar bosimi va tazyiqlariga qarshi ma'rifat bilan baxsga kirishish imkoniyatlarini yaratadi. Buning oqibatida sotsial munosabatlarning milliy va demokratik shakllari yanada yuksaladi;

-yangi jamiyatga o'tishning strategik maqsadi — huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatiga o'tish qonuniyatlari, nazariyasi, amaliyoti va unga o'tishning o'ziga xos yo'l-yo'riqlarini asoslab beradi, bu maqsadlarni bir tizimga soladi, shuningdek, ularni tadrijiy ravishda xalq dunyoqarashiga singdirib boradi.

Shu bilan birga, milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifalaridan yana biri — mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga asoslanib va undan kelib chiqib siyosiy, sotsial va iqtisodiy hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, jamiyatda demokratik fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarni fuqarolar ongiga singdirib boradi, u bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan oziqlanadi. Shuningdek, u ajdodlarimiz qoldirgan buyuk meros — milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish vositasi bo'lib, u yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, ular g'oyaviy qarashlarini milliy mafkura atrofida birlashtiradi va uyg'unlashtiradi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.«Sotsial munosabatlar» deganda nimani tushunasiz?
- 2.Sotsial munosabatlarning qanday turlari mavjud?
- 3.Sotsial munosabatlar qanday shakllanadi?
- 4.Hamfikrlik, barqarorlik va kooperatsiya sotsial tizimda qanday amal qiladi?
- 5.E.Dyurkgeymning anomiya konsepsiyasining ma'nosi nimalardan iborat?
- 6.F.Tyonnis, M.Veber va G.Zimmel kabilarning jamiyatdagi begonalashuvga oid nazariyalari nimalardan iborat?
- 7.Tenglik va notenglik sotsial munosabatlarda qanday amal qiladi?
8. Ixtiloflar, kurash va befarqlik qanday sotsial oqibatlarga olib keladi?
9. Ekzistensializm oqimi vakillarining sotsial munosabatlarga doir qarashlari qanday bo'lgan?
- 10.Sotsial munosabatlarda milliy g'oya va mafkura qanday vazifalarni bajaradi?

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2016.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016//Xalq so'zi,2016,6-okt.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 20.04.2017//http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.

5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild. - T.: O'zbekiston, 1996-2016.

6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr//<http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.

7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr, 2016, 20-oktyabr.

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017. - T.: O'zbekiston, 2017.

9. Аристотель. Политика//Соч.: В 4-х т. - Т.4. - М., 1984.

10. Бодрийяр Ж. Прозрачность зла. - М., 2006.

11. Бубер М. Я и Ты. Квинтэссенция: Филос. альманах, 1991. - М.: Политиздат, 1992.

12. Буртовая Е.В. Конфликтология. Учебное пособие. - М.: 2002//http://sbiblio.com/biblio/archive/unkn-own_konflictions.

13. Дюркгейм, Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. Пер. с фр. и послесловие А.Б. Гофмана. - М.: Наука, 1990.

14. Зиммель, Г. Проблемы социологии//Избранное. Т.2.//Созерцание жизни. - М.: Юрист, 1996.

15. Зиновьева Д.М. Психология отчуждения: монография. - Волгоград: Изд-во ГОУ ВПО «ВАГС», 2005.

16. Ионин Л.Г. Георг Зиммель — социолог. - М.: Наука, 1981.

17. Камю А. Записки бунтаря: Пер. с фр. - М., 2011.

18. Кернберг О. Агрессия при расстройстве личности. - М., 1998.

19. Lasswell H., Kaplan A. Power and society: A framework for political inquiry. - N. Y., 1963.

20. Марковская И.М. Основы социально-психологических знаний //<http://psyera.ru/3407/grupovaya-splochen-nost>.

21. Мунтян М.А. Политический плюрализм (теоретический очерк) //<http://ru.convdocs.org/docs/index-449716.html>.

22. Мухина В.С. Отчужденные: Абсолют отчуждения. - Свято-Троицкая Сергиева Лавра, 2010.

23. Мухина В., Хвостов А. Отчуждение от других: отчуждение ленивых и равнодушных // Развитие личности, 2013, №1.9-С.68-71.
24. Платон. Государство: Собр. соч.: В 4-х т. - Т.3. - М., 1994.
25. Сартр Ж.-П. Тошнота: Избр. произведения. - М.: Республика, 1994.
26. Социальная борьба. Социальный прогресс и регресс // <http://ehu.by/content/sotsialnaya-borba-sotsialnyi-progress-i-regress? page=0,4>.
27. Социальные кризисы: сущность и типология // <http://mouuniver.net/socialnye-krizisy-sushnost-i-tipologiya/>.
28. Социальные различия и социальное неравенство // <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/social-naya-struktura.html>.
29. Chester A. Barnard. The Functions of the Executive. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1983.
30. Фролов С.С. Социология. Учебник. Для высших учебных заведений. - М.: Наука, 1994.
31. Хайдеггер М. Что зовется мышлением? - М., 2007.
32. Хайек Ф.А. Дорога к рабству. - М., 1983.
33. Юм Д. Малые произведения. Эссе. Естественная история религии. Диалоги о естественной религии. - М., 1996.

10-mavzu. SOTSIAL TARAQQIYOT SOTSILOGIYASI

10.1.Sotsial taraqqiyot tushunchasi va uning turlari.

10.2.Modernizatsiya — zamonaviy sotsial rivojlanish sifatida.

10.3.O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratiyalashuvi sotsial taraqqiyot sifatida.

10.4.Sotsial taraqqiyotni boshqarish. Sotsial menejment va uning xususiyatlari.

10.5.Globalizm sotsial hodisa sifatida. O‘zbekistonning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: sotsial jarayon, sotsial o‘zgarish, sotsial dinamika, sotsial rivojlanish, sotsial taraqqiyot (progress), modernizatsiya, regress, evolyutsiya, revoyutsiya (inqilob), islohot, sotsial boshqaruv, sotsial menejment, globalizm, lokallik, glokalizm, jahon iqtisodiy tizimi, moliyaviy inqiroz, iqtisodiy inqiroz, sotsial inqiroz, fuqarolik jamiyati, «o‘zbek modeli», «o‘zbek modeli»ning besh tamoyili.

10.1. Sotsial taraqqiyot tushunchasi va uning turlari

Sotsiologiya fanida jamiyatning o‘zgarish (sotsial jarayon, sotsial dinamika, sotsial o‘zgarish, sotsial taraqqiyot va boshq.) mexanizmlarini tahlil etish va tavsiflash uchun maxsus ibora yaratilgan. *Sotsial jarayon* (lot. processus — olg‘a siljish) — bu sotsial hodisalar va sotsial tizimlarning rivojlanish bosqichlari, holatlarining izchillik bilan almashib turishidir. Shuningdek, *sotsial jarayon* qandaydir natijaga erishish uchun izchil xatta-harakatlarning yig‘indisini ham anglatadi. Masalan, o‘quv jarayoni o‘quv mashg‘ulotlarining alohida turlarini izchillik bilan almashib turishini ifodalaydi: ma’ruza — mustaqil ish — amaliy mashg‘ulot — individual suhbat. Bu jarayonning natijasi ta’lim olayotganlarning u yoki bu darajadagi o‘zlashtirishi hisoblanadi. Sotsial jarayonning strukturasi o‘z ichiga quyidagi unsurlarni oladi:

- 1) sotsial harakat *subyekti* (shaxs, sotsial guruh, sotsial tashkilot);
- 2) sotsial harakat *obyekti* (sotsial harakat yo‘nalgan sotsial hodisa);
- 3) sotsial harakatning kechishi uchun *shart-sharoitlar* (sotsial jarayon nafaqat subyektning obyektga ta’siri, balki sotsial muhitning xususiyatlari bilan tavsiflanadi);
- 4) uning o‘zini maqsadga muvofiq tarzda sotsial *harakati*;

5) sotsial harakat *natijasi* (subyektning sotsial obyektga ta'siri natijasida unda paydo bo'ladigan *o'zgarishlar*);

Sotsial jarayonlar turli-tumandir. Sotsial jarayonlarning turli asoslari bo'yicha uning ko'plab tasniflashlar shakllandi:

1) *namoyon bo'lish sohalari* bo'yicha — iqtisodiy, siyosiy, ekologik va hokazo;

2) *paydo bo'lish mexanizmlari* bo'yicha — o'z-o'zidan tabiiy ravishda, ongli ravishda, tabiiy-tarixiy;

3) *boshqaruvchanlik darajasi* bo'yicha — boshqariladigan, bo'sh boshqariladigan, boshqarib bo'lmaydigan;

4) sotsial ta'sir obyektining *funksiyalari* bo'yicha — funksional va disfunktsional (funksionalligi buzilgan);

5) sotsial obyekt sifatii holatining *yo'nalganligi* bo'yicha — progressiv (o'sib boruvchi), regressiv (orqaga ketuvchi), neytral (betaraf, o'rtada turuvchi);

6) obyektning sifatii o'zgarishining *intensivligi* (kuchayishi va tezlashishi) bo'yicha — evolyutsiyaviy (tadrijiy) va revolyutsiyaviy (inqilobiy).

Sotsial o'zgarishlar — bu qandaydir sotsial obyektning oldingi va hozirgi holati o'rtasidagi sezilarli farqlanishlar hosil qiluvchi sotsial jarayonlar natijasidir. Sotsiologiya tarixida sotsial o'zgarishlarning umumiy sabablarini aniqlashga doir ko'plab urinishlar yuz bo'lgan. Tarixiy rivojlanish texnologik rivojlanish, sotsial ixtiloflar, integratsiyalar, moslashuvlar, g'oyalar va ilohiy kuchlar ta'siri kabilar bilan bog'liq holda yuz beradi. Nazariyalarning har birida sotsial o'zgarishlarning qandaydir omili e'tiborga olinganligi uchun ham bu sohada natijalarga erishish qiyin kechdi. Chunki, sotsial o'zgarishlarni tizimli yondashuv vositasida tadqiq etish uchun aniqlangan barcha ilmiy natijalar yig'indisi va muayyan tegishli davrning lahzalari ichidan eng asosiylarini ajratib olish asosida o'rganish zarur edi. Zero, har qanday sotsial o'zgarishlar aniq tarixiy kenglik-vaqtning uzluksizligi asosida sodir bo'ladi.

Sotsial o'zgarishlar manbalari. Jamiyatning o'zgarish «mexanizmlarini» ochib berishda ularning tarix bilan yonma-yon qanday harakat qilishini o'rganish lozim. O'zgarishlarning sotsial omillari sifatida tabiiy muhit, aholining o'sishi, resurslar va qadriyatlarini taqsimlashda paydo bo'ladigan ixtiloflar kabilar namoyon bo'ladi. Masalan, *O.Kont* jamiyat rivojlanishining asosiy omili bilimlar taraqqiyotidir, degan fikrni bildirgan edi. *G.Spenser* evolyutsiyaning mohiyatini jamiyatning murakkablashuvida, uning ichki taqsimlanishida (tabaqalanishida) deb bildi. *E.Dyurkgeym* bu o'zgarishlarni individlarning o'zaro o'xshashligi va rivojlanmaganligiga asoslangan

mexanik birdamlikdan sotsial tabaqalashish va mehnat taqsimoti asosida organik birdamlikka o'tishidir, degan fikrni bildirgan edi. Boshqa taniqli olimlar jamiyatni rivojlantiruvchi kuch sifatida boshqa sotsial hodisalarning o'rniga katta e'tibor berdi: avlodlar (*X.Ortega-va-Gasset*), ijodkor elitalar (*G.Moska* va *V.Pareto*), mashhur shaxslar (rus sotsiologiyasining subyektiv maktabi) va hokazo. Marksizm vakillari jamiyatni rivojlantiruvchi kuchlar sifatida oqibati antagonizmga olib keladigan sinfiy kurashlardir, deb e'tirof etdi. Har bir tarixiy davrda odamlarni doimiy ravishda qanoatlantirib turishi lozim bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlar mavjud bo'ladi. Bu ehtiyojlar va manfaatlar doimiy ravishda o'zgarib boradi (aholi o'sib boradi, ehtiyojlar oshib boradi).

Jamiyatda ehtiyojlarning oshib borish qonuniyati amal qiladi: odam birlamchi, hayotiy ehtiyojlarini qondirib bo'lganidan keyin bilish va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga o'tadi. Bu jarayonda inson hayotining og'irlik markazi ma'naviy sohaga ko'chib o'tadi (jonzotlar iste'mol qilish uchun yashaydi, inson esa yashash uchun iste'mol qiladi). Hozirgi davrda doimiy ravishda o'sib borishga moyil ehtiyojlarni qondirish uchun faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga o'tib borgan holda yanada ko'proq mehnat qilishga to'g'ri keladi (masalan, qishloq xo'jaligiga oldin mashinalar kirib keldi, keyinroq esa ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlandi). Industrialdan keyingi jamiyatda odamlarning asosiy hayotiy faoliyat sohasi axborot sohasida namoyon bo'la boshlaydi, axborot va fan rivojlanishning asosiy manbaiga aylanadi³⁵⁰.

Sotsial dinamika — bu jamiyat va uning sotsial strukturasi yangilanishlarga olib keladigan *rivojlanishi*, uning o'zgarish va amal qilish *jarayonlarining* yig'indisidir. Sotsial dinamaning bir necha turlari mavjud — *chiziqli* (evolyutsiyaviy), *siklli*, *spiralsimon*.

1) *Sotsial o'zgarishlarning chiziqli turi*. Evolyutsiya (lot. *evolutio* — kengayish, avj olish) — tirik va jonsiz tabiatda, shuningdek sotsial tizimlarda kechadigan o'zgarishlar jarayonlaridir; keng ma'noda — u rivojlanishning sinonimi hisoblanadi. Evolyutsiya murakkablashuvga, tabaqalashuvga, tizimni uyushtirish darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Tor ma'noda evolyutsiya o'z ichiga faqat bosqichma-bosqich o'zgarishlarni oladi (bu holatda evolyutsiya tushunchasi revolyutsiya (inqilob) tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi).

Jamiyatni tahlil etishda evolyutsiyaviy yondashuv hozirgi davrgacha qo'llanilmoqda. T.Parsons «evolyutsiyaviy o'zgarishlar» nazariyasini ishlab

³⁵⁰Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей /Под ред. В.А.Михайлова.-Ульяновск:УлГТУ,2004.-С.192-194.

chiqib, unda evolyutsiyaga nisbatan jamiyatning strukturaviy-funksional differentsiyaatsiyasi (tabaqalanishuvi) sifatida qaradi. Jamiyatning tabaqalanishi uning evolyutsiyasining muhim mezoni hisoblandi.

Mashhur sotsiolog R. Bellning fikricha, «*evolyutsiyani* organizm, sotsial tizim yoki har qanday boshqa tuzilmalarning o'z ajdodlariga nisbatan ko'proq avtonom bo'lish uchun yangi muhitlarga moslashish qobiliyati bilan ta'minlaydigan tabaqalashish va uyushishning murakkablashuv sari o'sish jarayoni, deb tushunmoq lozim».

2) *Sotsial jarayonlarning siklli turi*. Agar evolyutsiyaviy nazariyalar tarixni bosqichli darajalardan iborat, muayyan yo'nalishni ifodalaydigan jarayon sifatida tavsiflansa, siklli jarayon nazariyotchilari alohida sivilizatsiyalar muqarrar ravishda tanazzulga uchraydi, degan qarashlarga asoslandi. Ular jamiyatni muayyan tartib bo'yicha chiziqli tarixiy ko'rsatkichlar doirasiga joylashtirishga urinmaydi. Ular uning o'rniga jamiyatning turli bosqichlaridagi o'sishlar va inqirozlarni jamiyat bilan taqqoslab, ular ichidan o'xshashlikni topishga harakat qildi. Agar evolyutsiyaviy o'zgarishlar nazariyotchilari vakillari insoniyatga nisbatan uning uzluksiz rivojlanib borishi xususiyatidan kelib chiqib unga umid va ishonch bilan qarasa, siklizm tarafdorlari har qanday sivilizatsiya tanazzulga yuz tutadi, degan qarashlardan kelib chiqib bu jarayonga umidsizlik bilan qaradi.

Nemis olimi *O. Shpengler* (1880-1936) o'zining «Yevropaning tanazzuli» (1923) asarida madaniyatning xuddi odam hayotida ro'y berganidek, rivojlanish va tanazzul bosqichlaridan (paydo bo'lish, yetuklikka erishish, tanazzulga uchrash va halokat) o'tishini isbotlashga urindi. U har biri ming yilga yaqin yashagan sakkiz turdagi madaniyatni o'rganib, g'arb madaniyatining yaratilganligiga deyarli 900 yil bo'lganligini, shuning uchun ham uning tanazzulga uchrashiga yaqin qolganligini bashorat qilishga harakat qildi. Ingliz tarixchisi *A. Toynbi* (1889-1975) o'zaro almashib turish asosidagi sivilizatsiyalarning rivojlanish qonuniyatlarini asoslash va uning prinsiplarini shakllantirishga urindi. Uning fikricha, sivilizatsiya qandaydir «da'vatlar yoki chaqiriqlar»ga javob berish oqibati sifatida vujudga keladi. Ana shunday da'vatlar jumlasiga tabiat kuchlari (og'ir iqlim) yoki insoniy omillar (urushqoq qo'shnilar) kiradi. Sivilizatsiya o'ziga qarshi turuvchi omillarning unchalik keskin bo'lmagan, ijodiy ozchilik (ziyoli elita) salbiy omillarning kuchiga yarasha kuch bilan qarshilik qilish qobiliyatiga ega bo'lsagina rivojlana oladi yoki ravnaq topishga erishadi.

3) *Sotsial o'zgarishlarning spiralsimon turi*. Spiralsimon model jamiyatda ro'y berayotgan ham evolyutsiyaviy, ham inqilobiy o'zgarishlarni hisobga oladi. Bu kabi o'zgarishlar marksizm asoschilari

tomonidan ishlab chiqildi. Unga binoan, jamiyat rivojlanishining o'ziga xos pog'onalari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar izchillik bilan o'zaro almashib boradi. Bunda jamiyatni o'zgartirishda evolyusiviy va inqilobiy omillarning birgalikda ta'sir qilishi e'tirof etilsada, inqiloblarga katta ustuvorlik berildi. Jamiyatni o'zgartirishning asosiy shakli sifatida moddiy ishlab chiqarish, sotsial inqilob kabi amaliyotlar tan olinadi. Sotsial jarayonlarning turlaridan biri — bu *sotsial harakatlar* bo'lib, u — «jamiyat yoki sotsial guruhlardagi sotsial o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash yoki ularga qarshilik qilishga qaratilgan jamoaviy xatti-harakatlarning yig'inidisi» (*R. Terner*). Sotsial harakatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) inqilobiy harakatlar — jamiyat sotsial strukturasi uchun kutilmagan tarzda, kuch ishlatish vositasida o'zgarishi. Taniqli olimlar *L. Edvars* va *K. Brinton* fikricha, inqilobiy harakatlarning ko'p uchraydigan turlariga quyidagilar kiradi: qoniqmasliklarning to'planishi va notinchlik, paydo bo'lgan muammolarning chin mohiyatini intellektual qatlam tomonidan tushuntirib berish qobiliyatining past darajada ekanligi, harakatga kirishishga undaydigan sotsial afsonalarning paydo bo'lishi, inqilobiy portlash, boshqaruvning mo'tadillar qo'liga o'tishi, ekstremizm va terrorchilikdan hokimiyatning tinch yo'l bilan rivojlanish qoidasiga qaytish;

2) islohotlar harakati — ijtimoiy hayotning alohida tomonlarini o'zgartirishni jamiyatda radikal o'zgarishsiz amalga oshirishga urinish (masalan, abolitsionizm harakat sifatida qandaydir qonunni bekor qilish talabi bilan chiqadi, ekologik harakat va hokazo);

3) hayoliy harakatlar — o'z davridan ancha oldinga o'tib ketgan va harakatning zamonga mos kelmaydigan jihatlariga asoslangan holdagi yangi sotsial tartibotni shakllantirishga urinishlar;

4) qarshilik ko'rsatish harakatlari — ortiqcha inqilobiy sotsial o'zgarishlarga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishdagi qarshiliklar;

5) ekspressiv (ta'sirli, hissiyotli) harakatlar — hali sotsial muhitni o'zini modifikatsiyalamay turib, unda xulqni modifikatsiyalash (xipp, rokerlar va boshqa harakatlar).

Sotsial harakatning turlari sifatida yana diniy, yoshlar, emigrantlar, feministlar harakatlari kabilarni keltirish mumkin. Sotsial harakatlar faqat muayyan vaziyatlarda vujudga keladi. Sotsial vaziyatlarga (shart-sharoitlarga) misol tariqasida sotsial harakatlarni vujudga kelishi va rivojlanishiga qulaylik tug'dirib beradigan quyidagi uning turlarini keltiramiz: sotsial buzg'unchilik (anomiya, begonalashuv), sotsial qoniqmaslik (sotsial adolatsizlik, maqomiy noaniqlik) va hokazo.

Sotsiologiya tarixida jamiyatni o'zgartirishning turli-tuman mexanizmlari (modellari, shakllari) sinab ko'rilgan. Masalan, taniqli olim *G. Tard*

taqlid qilish qonunini ishlab chiqdi. Unga muvofiq, faqat «taqlid qilish» sotsial o'zgarishlarning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Lekin, jamiyatni o'zgartirishning keng tarqalgan mexanizmlarini tavsiflash uchun «inqilob» va «islohot» («evolyutsiya») tushunchalarini ko'rib chiqish lozim.

Inqilob (revolyutsiya — lot. revolution — burilish, to'ntarish) — tabiatning qandaydir hodisasi, jamiyat yoki bilish (geologiyadagi inqilob, sanoat inqilobi, ilmiy-teznika inqilobi, madaniy inqilob va hokazo) kabilarning rivojlanishidagi chuqur sifat o'zgarishlaridir. Inqilob rivojlanishdagi sifatiy sakrash va tadrijiylikning uzilishini anglatadi. Inqilob evolyutsiyadan ham, islohotdan ham katta farq qiladi. Inqilobning keng ma'nodagi tushunchasi ijtimoiy rivojlanishni tavsiflashda qo'llaniladi.

Sotsial inqilob — tarixan o'zini tugatgan davrdan zamonaviy ilg'or davrga o'tish yo'lidir; u jamiyatning barcha sotsial strukturasi yuz bergan tub sifatiy to'ntarishdir. Ijtimoiy rivojlanishda inqiloblarning o'rni masalasi o'tkir mafkuraviy kurash mavzusiga aylandi. «Inqilob sotsiologiyasi» vakillarining vajlariga binoan inqilob sotsial rivojlanishning shakli sifatida samarasiz va foydasiz bo'lib, u ulkan serxarajat hodisa bo'lishi bilan bir qatorda rivojlanishning evolyutsiyaviy shakliga har tomondan yon beradi. Marksizm asoschilari esa sotsial inqiloblarni «tarix lokomotivlari», deb ataydi, inqiloblar davrini ijtimoiy taraqqiyot bilan tenglashtiradi.

Evolyutsiya va inqiloblar rivojlanish jarayonlarida bir xil tarzda muhimlik kasb etgan hodisalar bo'lib, ular ziddiyatli birlikni hosil qiladi. Sotsial inqiloblarni tavsiflashda uning ikkita xususiyati namoyon bo'ladi:

1) sotsial inqilob tadrijiylikning uzilishi sifatida, rivojlanishning keyingi sifat darajasiga o'tish sifatida, omma va inqilobiy harakat tarafdorlari bo'lgan elita ijodiyotining namoyon bo'lishi sifatida;

2) sotsial inqilob jamiyatni o'zgartirishda tezlik bilan ro'y beradigan va keng miqyosli o'zgarishlar sifatida (bunda inqilob islohotlarga qarama-qarshi qo'yiladi). Sotsial hayotda evolyutsiya va inqilob tushunchalariga «islohot» iborasi qo'shiladi.

Islohot (reforma — lot. reformare — o'zgarish, qayta o'zgarish) — mavjud sotsial strukturalar asoslarini butunlay yo'q qilvormaydigan, ijtimoiy hayotning qandaydir tomonlarini yangidan qurish, o'zgartirish demakdir. Rasmiy nuqtai nazardan qaraganda, islohot deganda har qanday mazmundagi yangiliklarni kiritishdir. Lekin, amaliyotda islohot deganda ko'pincha, taraqqiyparvarlik, ijtimoiy hayot sohalariga yangiliklar kiritish tushuniladi³⁵¹.

³⁵¹Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей/ Под ред. В.А. Михайлова. - Ульяновск: УлГТУ, 2004. - С. 195-198.

Sotsial taraqqiyot (progress). XIX asrda aksariyat sotsiologik nazariyalar sotsial taraqqiyot konsepsiyasini rivojlantirishga urindi. Dunyodagi o'zgarishlar muayyan yo'nalishlarda ro'y berishiga doir tasavvurlar qadimgi davrdan boshlab shakllandi. Shu bilan birga, taraqqiyotga regress (orqaga ketish, inqiroz) qarama-qarshi qo'yildi: taraqqiyot harakatlari pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga, quyi takomillikdan ko'proq takomillashishga o'tishni anglatadi. Taraqqiyot asosida evolyutsiya qonunlari yotishini isbot qilish uchun urinishlar bo'ldi. Taniqli sotsiolog olim *G.Spenser* va boshqa sotsial darvinizm tarafdorlari sotsial evolyutsiyani biologik evolyutsiyaga o'xshashlik sifatlarini tadqiq etdi. Bunda evolyutsiya jamiyatning bir xildagi oddiy strukturalarining turli-tuman va bir-birlariga o'zaro bog'liq bo'lgan strukturalarga bir yo'nalish bo'ylab o'tishi sifatida talqin etildi. Jamiyat rivojlanishining asosiy qonunlari darvinizmning «yashash uchun kurash» va «ko'proq moslashganlar omon qoladi» kabi qarashlari hisoblana boshladi. Bu qonunlarni erkin raqobatlar qonuniga o'xshatishga intilishlar kuchaydi. Demak, sotsial taraqqiyot ijtimoiy hayotning yanada murakkab shakllariga ko'tarilishni anglata boshladi.

Sotsial taraqqiyot sotsial o'zgarishlarning kuchayishini ifodalay boshladi: hayot tarzining yaxshilanishi, fan, texnika va ta'lim rivoji, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning o'sishi va hokazo. Lekin, ko'plab sotsial hodisalarga nisbatan taraqqiyot tushunchasini ishlatib bo'lmaydi. Chunki, ijtimoiy hayotning ba'zi hodisalari chiziqli harakat qilmaydi. Masalan, san'at, din va boshqa sotsial hodisalar doirasidagi rivojlanishning oliy namunalari bir necha minglab yillar oldin yaratilgan. Shu bilan birga, texnika va texnologiya kabi hodisalar doimiy ravishda taraqqiy etib borish xususiyatlariga egadir. Shuning uchun sotsial taraqqiyotni turli tamoyillarning uchta birligi sifatida tasavvurlash (taraqqiylik, orqaga ketishlik, doira bo'ylab harakat qilish) shakllandi. Bu tamoyillardan qaysi birining (aniq sotsial hodisaga qo'llanishida) ustunlik qilishidan kelib chiqib va unga bog'liq holda uni tavsiflashga imkoniyat tug'ildi. U yoki bu hodisaning taraqqiylik yoki orqaga qaytishlik bahosi obyektiv ko'rsatkichlarga asoslanishni talab etadi. Bunda taraqqiyot mezonlari masalasiga ko'ndalang kelamiz. Masalan, sotsialistik jamiyatda insoniyatning taraqqiyotiga umum tarixiy mezon sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatlari olindi. Texnokratik nazariyalarda jamiyatning rivojlanish darajasi texnika va texnologiyaning rivojlanish mezonlari asosida o'lchanadi. Qator sotsial ta'limotlarda mezon sifatida insonning tafakkurlash darajasi, uning jamiyatdagi ahloqi, dindorligi olinadi.

10.2. Modernizatsiya — zamonaviy sotsial rivojlanish sifatida

Modernizatsiya tushunchasi va uning turlicha talqinlari. XX asrning 50-yillarida siyosiy va sotsial modernizatsiya konsepsiyalari shakllandi. Bu konsepsiyalar *M. Veber*, *F. Tennis* va *T. Parsons* kabi taniqli olimlar tomonidan ishlab chiqildi. Ular jahondagi turli mamlakatlar siyosiy va sotsial tizimlarini tahlil qilib, ularning bir guruhini dixotomik tarzda ijtimoiy safarbarlik uchun g'ov bo'lgan va shaxsning muteligiga doir munosabatlarni saqlaydigan «*an'anaviy*», ikkinchi guruhning esa guruhiy safarbarlik yo'lidagi to'siqlarni buzishga va shaxsiy qaramlik munosabatlarini bartaraf etishga qobil bo'lgan institutlarning funksional differentsiatsiyasi va ratsional tarzda tashkil etishga asoslangan «*zamonaviy*» turlarga bo'linishini asoslab berdi va ularning metodologik prinsiplarini tadqiq etdi. Shu tariqa, «*rivojlanish*» tushunchasi faqat tor ma'nodagi an'anaviy tuzilmalardan zamonaviy tizimga modernistik tarzda o'tishni nazarda tuta boshladi. Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar XVII asrning oxiridan to XX asrning boshlarigacha bo'lgan muddat ichida modernizatsiyalash davrini o'z boshidan kechirgan edi. Siyosiy rivojlanish nazariyasining yirik bilimdoni *S. Ayzenshtadt* modernizatsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: u «XVII asrdan XIX asrgacha G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada rivojlangan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlardagi o'zgarishlar jarayoni bo'lib, keyinchalik u boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqaldi, o'n to'qqizinchidan to yigirmanchi yuz yillikgacha Janubiy Amerika, Osiyo, Afrika qit'alariga kirib keldi»³⁵². Boshqacha aytganda, bu konsepsiya mualliflari chiziqli evolyutsiya andozasini yaratdi. Unga muvofiq, har bir mamlakat taxminan rivojlanishning bir xil bosqichlaridan o'tishi lozim edi.

Sotsiologiya fani bilan bog'liq bo'lgan «*modernizatsiya*» tushunchasi quyidagicha ifodalandi: *modernizatsiya* «nisbatan oddiy jamiyatdan ko'proq murakkab bo'lgan jamiyat sari chiziqli-bosqichli taraqqiyot evolyutsiyasidir». Bu tushuncha modernizatsiyaviy jarayonlarni klassik tarzda ifodalash bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Bu kabi ta'riflarga oz yoki ko'p darajada Angliyada *G. Spenser*, *J. Mak-Lennan*, *J. Lebok*, *E. Taylor*, *J. Frezer*, Germaniyada *A. Bastian*, *T. Vays*, *Yu. Lippert*, Fransiyada *Sh. Leturno*, AQShda *L. G. Morgan* kabi yirik olimlar qo'shilgan edi.

Keyingi davrlarga kelib g'arbda «zamonaviy jamiyatga» o'tishning qator konsepsiyalari ishlab chiqilib, ular nazariyalar sifatida quyidagi

³⁵²Eisenstadt S. *Modernization: Protest and Change*. Englewood Cliffs, 1966. - P. 1.

asosiy yo'nalishlardan iborat bo'ldi: 1) «modernizatsiya»; 2) «rivojlanish»; 3) «orqada qolgan, qoloq» (yoki «subrivojlanish») va 4) «qaramlik».

«Modernizatsiya» tushunchasi uchta asosiy ma'nolarda ishlatila boshlandi: birinchidan, umumiy mazmunda, taraqqiyot o'zgarishlarining yo'nalishi sifatida; ikkinchidan, g'arbda XVII asrdan to XIX asrgacha davom etgan sotsial transformatsiya modeli sifatida (S. Ayzenshtadt); uchinchidan, tor ma'noda, orqada qolgan, zamonaviy jamiyatga o'ta-yotgan mamlakatlar evolyutsiyasi yo'li sifatida.

1960-yilda mashhur olim U. Rostou o'zining «Iqtisodiy o'sish bosqichlari: nokommunistik Manifest» asarida rivojlanishning beshta asosiy bosqichini bir-biridan ajratib ko'rsatdi: 1) primitiv texnologiya, dehqonchilik va oilaviy-urug'chilik aloqalari ustunlik qiladigan *an'anaviy jamiyat*; 2) orqada qolgan mamlakatning markazdagi ilg'or mamlakat rivojlanishiga qarshi ta'siri sifatida paydo bo'lgan *o'tish davridagi jamiyat*; 3) industrilashtirish, urbanizatsiya va jamg'arilish bilan bog'liq bo'lgan *ravnaqqa erishish*; 4) yetuk, ko'p tarmoqli va texnologik tuzilmalarga ega bo'lgan iqtisodiyot sari harakat; 5) iqtisodiy tuzilma, xizmat ko'rsatish va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol mollari ishlab chiqaradigan sohalar yo'nalishlariga o'tib boradigan *ommaviy iste'mol jamiyati*. Keyinchalik bu qatorga oltinchi — *ijtimoiy hayotda «sifat izlash»* rivojlanish bosqichi ham kiritildi. U. Rostou fikricha, oliy bosqich Shimoliy Amerikada qo'lga kiritildi, G'arbiy Yevropa mamlakatlari esa beshinchi bosqichda turibdi, qolgan barcha mamlakatlar — istiqbolga yaqin yoki undan uzoq bo'lgan mamlakatlardir³⁵³. Shu tariqa, bu kabi qarashlar doirasida «vesternizatsiya» jarayoni ifodalana boshladi. U. Rostou fikricha, siyosiy modernizatsiya «pastdan» va «tashqaridan» qo'llab-quvvatlashlarga erishgan taraqqiyparvar elita tomonidan hokimiyatning eski an'anaviy institutlarini zamonaviylariga almashtiradigan jarayondir.

Taniqli olim D. Apter modernizatsiyani talqin etishda quyidagi andozani keltiradi: siyosiy tizimning ikkita asosiy turi mavjud: «an'anaviy-jamoaviy» (yoki safarbarlikka shaylik) va «sekulyar-libertarian» (yoki «plyuralistik») modellar. Birinchi model yetakchilikni timsollashtirish bilan bog'liq bo'lib, unda ba'zan xarizmatik yetakchiga diniy e'timoddek qaraladi va ommaviy partiyaning gegemonligi hukm suradi (sobiq ittifoqdagi partiya yetakchilari, Ganadagi Nkvame Nkrumo va hokazo). Birinchi model ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yiladi: ikkinchi — siyosiy plyuralizm modelida hokimiyat diversifikatsiyasi hukm suradi, ko'plab

³⁵³Rostow W. Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto, -Cambridge, 1960; Idem.: Politics and the Stages of Growth. -Cambridge, 1971. -P.61-66.

kelishuvlar tuziladi va muhosasozlikka intilishlar avj oladi (AQSh). Shu tariqa, Apterga binoan, modernizatsiya eski tuzumda umuman mavjud bo'lmagan tuzilmaviy, differensiyalashgan institutlar va mexanizmlar, ularning amal qilishi (plyuralistik partiyaviy va qonun chiqaruvchi tizim) ishlay boshlagan, an'anaviy, safarbarlikka moyil avtokratik tizimlarning demokratik, «kelishuvchan» («reconciliation») modelga o'tish davri bilan bog'liq bo'lgan xususiy hodisadir³⁵⁴.

Modernizatsiya — inson tafakkurlashi va faoliyatining barcha sohalarini bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Yirik olim *Deniel Lernerning* fikricha, modernizatsiya «birmuncha sifatli, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, insonlarga zamonaviylikni yaxlit bir butunlik sifatida his etishini baxsh etishi barobarida hayotni qonunlar vositasida uyushtiradigan jarayondir». Modernizatsiyaning asosiy jihatlari «urbani-zatsiya, industrilashtirish, sekulyarlashtirish, demokratlashtirish, ta'lim, ommaviy axborot vositalarining roliga tasodifiy tarzda amal qilmaydigan va bir-biri bilan aloqalarsiz ravishda namoyon bo'lmaydigan» hodisalardir. Ular tarixan «bir-biri bilan shu qadar chambarchas o'zaro bog'liqlikda rivojlandiki, o'z-o'zidan shunday savol tug'iladi: umuman olganda, ularni chinakam mustaqillik darajasiga erishgan omillar, deb hisoblash mumkinmi, shunday deb taxmin qilsa bo'ladimi; ularning rivojlanishidagi bu qadar barqaror yonma-yonlik shuning uchun ham bir-biri bilan o'zaro uyg'un ravishda bog'langanki, agar tarixiy ma'noda aytish joiz bo'lsa, ular *zaruriyatdan* kelib chiqib yonma-yon tarzda rivojlandi»³⁵⁵.

Modernizatsiya psixologik darajadagi qadriyatlarda, maqsadlar qo'yish yo'nalishida, orzu-umidlarga (expectations) erishishda mustahkam va asosli ravishda olg'a siljishni anglatadi. An'anaviy insonlar tabiat va jamiyatni doimiy va o'zgarmas, deb hisoblar, ularni o'zgartirish va boshqarish mumkin ekanligiga ishonchlari yo'q edi. Aksincha, zamonaviy inson o'zgarishlar imkoniyatlarini e'tirof etdi, uni amalga oshirishga ishonadi. *Lernerning* ta'biricha, zamonaviy inson o'z atrofidagi muhitni o'zgartirishga moslasha oladigan «harakatchan shaxs»dir. Odatdagi holatlarda bu o'zgarishlar xolislik va sodiqlikka zarurat sezadi, muayyan va yaqin guruhlarning (oila, qarindosh-urug', qishloq ahli va hokazo) keng va ijtimoiy birliklar (ijtimoiy qatlam, millat va hokazo) bilan aynanlashishining keng tarqalishini taqozo etadi. Bu jarayon partikulyar qadriyatlarga qarama-qarshi bo'lgan universal qadriyatlarga berilishning o'sishi bilan uyg'un holda

³⁵⁴Qarang: Apter D. Politics of Modernization. Chicago, 1965. - P. 67.

³⁵⁵Daniel Lerner. The Passing of Traditional Society (Glencoe, Ill., Free Press, 1958). - P. 438.

kechdi va u yoki bu guruhlar askriptiv andozalariga (ya'ni, uning mansubligi bilan bog'liq) qarama-qarshi o'laroq, ko'proq individ erishgan yutuqlar bilan bog'liq bo'lgan andozalarga tayandi.

Modernizatsiya intellektual darajada atrof olam haqida insoniy bilimlarni kengaytirishni va bu bilimlarni jamiyatda ta'lim, ommaviy kommunikatsiyalar hamda ma'lumotlilikni o'sishi vositasida keng tarqatishni anglata boshladi.

Modernizatsiya jarayoniga turlicha yondashuvlar talqini. Ba'zi olimlar hozirgi davrdagi siyosiy rivojlanish va modernizatsiya tushunchalarini ularning umumiy noaniqligi yoki mazmunan turli xilligidan kelib chiqib sinonim sifatida ishlatmoqda. Ularning ichida taniqli olim *Dankvart Rastou* (1925—1996) siyosiy modernizatsiya modelidagi uchta muhim maqsadlarni bir-biridan ajratib ko'rsatdi: 1) milliy birlik; 2) barqaror hokimiyat; 3) tenglik. Modernizatsiyaviy o'zgarishlarning eng maqbulroq xili sifatida $2 > 1 > 3$ yoki $1 > 2 > 3$ yo'llarni keltirdi. Xuddi mana shu ikkita andozani aksariyat davlatlar amalga oshirishga erishganligi uchun ham ularga muhim e'tibor berildi. D. Rastouning fikricha, tenglik uchun hokimiyatning barqarorligi va milliy birligiga erishilganidan keyin harakat qilish lozim. Chunki bu komponentlardan birining etishmasligi (tenglik e'lon qilingan holatda) siyosiy rejim buzilishi yoki anarxiya kelib chiqishi uchun sabab bo'lishi mumkin. Hokimiyatni amalga oshirish tizimini takomillashtirmay turib mehnatni to'laqonli ravishda taqsimlab bo'lmaydi. Demak, tenglik eng sodda ko'rinish tarzida o'rnatilishi sababli jamiyatda noroziliklar kelib chiqishi mumkin. Agar siyosiy aynanlashtirish va hokimiyat tizimining asoslari an'anaviy sotsium shart-sharoitida shakllanadigan bo'lsa, u holda siyosiy ishtirok va tenglik — modernizatsiyalashgan jamiyatning ajralmas tasnifiga aylanadi. Negaki, ommaviy ishtirokka o'tish bir qancha avlodlar almashinuvi bilan amalga oshadi. Tezlashtirilgan modernizatsiya jarayoni pirovardida jamiyatda turli noroziliklar kelib chiqishi mumkin.

Konservatik nazariya. Modernizatsiya nazariyasining konservatik yo'nalishi vakillari sotsial va siyosiy beqarorlik keltirib chiqaradigan eng asosiy xavf-xatar sifatida iqtisodiy va sotsial jarayonlarning izdan chiqishi, degan fikrni ilgari surdi. Bu yo'nalishning vakili, mashhur AQSh siyosatshunosi S. Xantington o'z tadqiqotlarida keyingi o'n yilliklarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ro'y bergan jarayonlarni chuqur sharhlagan holda yangi nazariy andozalarni ilgari surib, modernizatsiya nazariyasiga katta hissa qo'shdi. Unga binoan, siyosiy modernizatsiya «jamiyat siyosiy ongi va siyosiy institutlarini demokratlashtirish»dan

iboratdir³⁵⁶. Lekin demokratlashtirishga tezlik bilan erishib bo'lmaydi. Shuning uchun siyosiy o'zgarishlar asosiy ijtimoiy institutlarning barqaror tarzda ishlashini ta'minlashi, ularning ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi modernizatsiya jarayonlari sur'atiga muvofiq kelishi uchun bu jarayonni asta-sekinlik bilan amalga oshirish lozim.

S.Xantington demokratiyaning mustahkamligi va uni orqaga qaytmaydigan jarayon bo'lishi nuqtai nazaridan unga o'tishning uchta modelini bir-biridan ajratib ko'rsatdi: Birinchisi, *ko'lamlı yoki klassik model*. Unga misol tariqasida Buyuk Britaniya va Shimoliy Yevropa mamlakatlari taraqqiyotini ko'rsatish mumkin. Bu model uchun demokratlashtirish jarayonining orqaga qaytmaligini ta'minlash maqsadida masalalarni izchillik bilan hal etish xarakteri xosdir.

Ikkinchisi, *siklli model*. Bu model dastlab Lotin Amerikasi mamlakatlari tajribasini umumlashtirish asosida shakllandi. Bu mamlakatlarning ko'pchiligida ularning Ispaniya mustamlakasi hukmronligidan qutilgan paytda — XIX asrdayoq demokratiyaga o'tish uchun dastlabki urinishlar kuzatilgan edi. Lekin, aksariyat Lotin Amerikasi mamlakatlarida barqaror demokratik rejimlar shakllanmadi. Demokratik boshqaruvlar ba'zan ro'y berib turadigan harbiylar davlat to'ntarishi, harbiy diktaturaning o'rnatilishi, ba'zan fuqaroviy rejimlarning avtoritarizmga aylanishi bilan bo'linib turdi. Avtoritarizm davrlari demokratlashtirish bilan, va aksincha tarzda o'zaro almashib turdi. Bu kabi siklli rivojlanish Lotin Amerikasi mamlakatlarining demokratiyaga o'tishi o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bilan mustahkamlanmadi. 1960-yillardan boshlab Lotin Amerikasining ayanchli tajribasi Osiyo va Afrikada yangi paydo bo'lgan mamlakatlarda qaytarila boshlandi. Ularda ham demokratik va avtoritar boshqaruvlar doimo bir-biri bilan almashib turdi.

Uchinchisi, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Gretsiyada amalga oshirilgan *dialektik model*. Bu mamlakatlarning barchasi o'z vaqtida siyosiy modernizatsiya yo'lidan siljishlardan ancha uzoq bo'lgan jarayonlarni ham bosib o'tdi. Lekin demokratik o'garishlar orqaga qaytmaydigan jarayon sifatida o'zini oqladi. Bu mamlakatlarda hokimiyatni egallagan totalitar va avtoritar siyosiy rejimlar demokratik institutlar rivojlanishini yo'qqa chiqardi. Lekin, oxir-oqibatda demokratiyani yana qaytib kelishi hodisasiga «inkorni inkor» sifatida qaraldi. Chunki bu kabi demokratik rivojlanish yo'li «dialektik» nomini olgan edi. O'zgarishlar iqtisodiy va ijtimoiy institutlarga kuchli ta'sir etishi mumkin, lekin an'anaviy siyosiy tizimga

³⁵⁶Hantington Samuel P.The Ungovernability of Democracy?//The American Enterprise, November/December, 1993.-P.13.

daxl qilmaydi. An'anaviy elita boshchiligida eski siyosiy institutlar doirasida «yuqoridan» modernizatsiyani amalga oshirish uchun prinsipial imkoniyatlarga yo'l qo'yiladi. Bunda eng muhim shart — turli sohalardagi o'zaro muvozanatlarni saqlash va boshqaruvchi elitaning nafaqat texnikaviy-iqtisodiy, balki siyosiy modernizatsiyani ham amalga oshirishga tayyor ekanligi hisoblanadi.

Xantington quyidagi uchta «tranzit»ning umumiy xilini bir-biridan ajratib ko'rsatdi: *transformatsiya, almashish, o'rnini olish*. Transformatsiya ro'y berishi uchun boshqaruvchi elita demokratiyani o'rnatish tashabbusini o'z qo'liga olishi lozim. Hokimiyatni almashtirishda hokimiyat idora etuvchi elitaga zid guruh qo'lida bo'ladi, avtoritar rejim hokimiyatni tark etadi. Ular o'rnini olish jarayoni — ya'ni demokratlashtirish hukumat bilan unga begona bo'lgan siyosiy kuchlar guruhlarini birgalikdagi xatti-harakatlari natijasida ro'y beradi³⁵⁷.

S.Xantington modernizatsiyani quyidagilardan iborat jarayon, deb ta'rifladi: 1) hokimiyatni ratsionallashtirish; 2) ijtimoiy, davlat va fuqarolik tuzilmalarini differentsiyalash; 3) siyosiy ishtirok darajasini oshirish. U mazkur jarayonlarning ketma-ketlik tartibi mezonlari bo'yicha modernizatsiyalash jarayonlarining turli xillarini alohida tadqiq etib, ulardagi o'zaro farqlanishlarni ko'rsatib beradi: *kontinental-Yevropa* xos modernizatsiyaviy jarayonda hokimiyatni ratsionallashtirish va tuzilmalarni differentsiyalash ustunlik qiladi. Zamonaviy davlatning tug'ilishi aristokratiyaning zaiflashuvi, yangi sotsial guruhlarining shakllanishi, ratsionallashtirilgan byurokratiyaning o'sishi va kuchayishi kabilar bilan birga kechdi. Cherkovga va monarxiyaga sadoqat o'z o'rnini davlat qonunlarini e'tirof etishga bo'shatib berdi. *Buyuk Britaniya institutsional modernizatsiyasining* ko'p jihatlari kontinental-Yevropa modernizatsiyasiga o'xshasa-da, fuqarolarning cherkov o'rniga davlatga bo'ysunishi, hokimiyatning markazlashuvi, byurokratiyaning ko'payishi va uning ta'sirini oshishi kabilar bilan tavsiflandi. Lekin Buyuk Britaniyada boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, hokimiyatning markazlashuvini monarxiya instituti emas, balki parlament amalga oshirdi. AQShda esa Buyuk Britaniyaning XVI asrdagi siyosiy institutlari namunasi shakllandi, unga nisbatan hurmat-ehtirom saqlandi. Lekin *AQShdagi modernizatsiya* jarayonida asosan siyosiy ishtirokni oshirish ustunlik qildi. AQSh siyosiy tizimini va unga xos bo'lgan ratsional hokimiyat va markazlashgan byurokratiyani Xantington hozirgi davrning «noyob antik anaxronizmi»,

³⁵⁷Хантингтон С.Третья волна.Демократизация в конце XX века/Пер. с англ. -М.,2003.-С.134-179.

deb atadi. Xantingtonga binoan, siyosiy modernizatsiya beqarorlikka olib kelmasligi uchun asosiy muammo sifatida erkinlik emas, balki barqarorlik asosiy qadriyatga aylanadigan legitim ijtimoiy tartibotni tashkil etish lozim. Shuning uchun ham ko'pincha Xantington nazariyasini konservativ xarakterda ekanligiga urg'u beriladi.

Liberal nazariya. Konservativ nazariya mualliflari kabi liberal nazariya vakillari (*R. Dal, G. Almond, L. Pay, K. Deych*) ham siyosiy tizimning layoqatini shakllantirish aholining siyosiy va sotsial talablarini o'zgartirib borish bilan uzviy bog'liqligini, bu talablarga mos ravishda javob berish — bu siyosiy modernizatsiyaning muhim vazifasi ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatdi. Agar konservatorlar siyosiy tartibot uchun asosiy tayanch sifatida markazlashgan institutlar mustahkamligi va barqarorligini nazarda tutsa, liberallar modernizatsiyaga doir muammolarning echimini topishda asosiy urg'uni *hokimiyat bilan aholi o'rtasidagi o'zaro doimiy muloqotlarning mavjudligiga* qaratdi. Bunda asosan demokratik saylovlar yoki elita tomonidan ommani safarbar qilish nazarda tutiladi. Bu kabi muloqotlarni uyushtirish (siyosiy tizim bilan jamiyat o'zaro qarama-qarshi (teskari) aloqalari tizimidan iborat o'zini o'zi muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan) ochiq ijtimoiy va siyosiy tizimlar sari harakat qilishni anglatadi. Liberal yo'nalish olimlari o'rta sinfning paydo bo'lishi va aholining ma'lumotlilik darajasining o'sishi jiddiy o'zgarishlarga olib keladi, deb hisoblaydi. Ularning fikricha, bu nafaqat ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirishda mafkuralarning aralashuvi chegarasini o'rnatadi, balki qarorlarni amalga oshirishning markazlashgan shakllarini samara berishini (modimiki, siyosiy faol aholi qo'shimcha hokimiyat ta'siri markazlarining paydo bo'lishi uchun imkoniyatlar yaratadi) shubha ostiga qo'yadi.

Bu haqda taniqli olim *R. Darendorfning* totalitarizmdan demokratiyaga o'tishga tegishli bo'lgan quyidagi fikri e'tiborga loyiqdir: «O'tish bir tizimdan ikkinchisi bilan almashtirishni anglatmaydi va anglatmasligi dar-kor. Erkinlik sari yo'l yopiq jamiyatdan ochiq jamiyatga o'tish demak-dir. Ochiq jamiyat tizim emas, faqat muqobilliklarni o'rganish uchun mexanizmdir, xolos»³⁵⁸.

Liberal yo'nalish vakillari siyosiy modernizatsiyaning asosiy mezoni sifatida «vakillik demokratiyasi tizimiga aholining jalb etilish darajasi»ini belgilab beradi. Taniqli olim *K. Deych* siyosiy modernizatsiyani ishtirok va safarbarlik tushunchalari bilan aniqlaydi. Unga binoan, modernizatsiya o'sib boruvchi siyosiy nomarkazlashtirish shaklini oladigan ommaviy ishtirok bilan bog'liqdir. «Siyosiy ishtirokni kengaytirish siyosiy rivojlanish

³⁵⁸Лапки́н В.В.В поисках России политической//Полис,1998,№6.-С.172.

chashmasidir»³⁵⁹. Liberal konsepsiyaga muvofiq, siyosiy modernizatsiya nafaqat huquqqa ega bo'lgan, balki siyosiy qarorlar qabul qilishda e'tiborga olinishning haqiqiy imkoniyatiga ega bo'lgan individlar va guruhlar sonining ko'payishini ko'zlaydi. Siyosiy ishtirokning ahamiyati «o'tish davridagi siyosiy rejimning legitimligi yoki samarasini oshirish omili» sifatida ta'kidlanadi. Siyosiy ishtirokka bu kabi munosabat siyosiy elitaning hokimiyatga intilishini xalq manfaatlarining qonuniy vakillari sifatida legitimli va asosli ekanligini mustahkamlab beradi. Umuman olganda, liberal konsepsiya o'zining modernizatsiyani rivojlantirishga moyilligini erkin elitalar o'zaro ochiq raqobatlarini va oddiy fuqarolarning siyosiy ishtiroki darajasini oshirish bilan bog'laydi.

10.3. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvining demokratiyalashuvi sotsial taraqqiyot sifatida

Davlat hokimiyatini modernizatsiyalash islohotlari. O'zbekiston davlati mustaqillikning dastlabki davridayoq huquqiy davlat qurish yo'lini tanladi. Chunki dunyoning rivojlangan davlatlarida shakllangan huquqiy davlat sharoitidagina fuqarolik jamiyatini qurish, inson haq-huquqlarini himoya etish, xalq farovonligini keskin darajada oshirish uchun imkoniyatlar yaratiladi, jamiyatda doimiy barqarorlik va xalq farovonligi ta'minlanadi. Umuman, huquqiy davlat tarix tajribasi va imtihonidan muvaffaqiyatli o'tganligi va o'zining kuchli ijtimoiy siyosat yuritishi bilan ham ajralib turadi.

Keyingi yigirma besh yildan ortiqroq tarixiy rivojlanish tajribalari shuni ko'rsatdiki, huquqiy davlat unsurlari shakllanmasdan ilgari fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmaydi. Siyosiy tizimda huquqiy davlat qurishga ehtiyojlar paydo bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida fuqarolik jamiyati qurishga kuchli tabiiy ehtiyojlar seziladi. Chunki huquqiy davlat barpo etish jarayonlari fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan uyg'un holda kechmas ekan, bu sohadagi islohotlar ham o'z o'rnida depsinib turaverishi, hattoki, orqaga qarab ketishi xalqaro tajribalarda bir necha marta kuzatilgan. Buning asosiy sababi shundaki, huquqiy davlat qurish islohotlari fuqarolik jamiyati muhitidan oziqlanadi, davlat irodasi ham jamiyatdagi turli-tuman manfaatlar va ehtiyojlar ifodalanishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham jahondagi fuqarolik jamiyatlari huquqiy davlatning rivoj-

³⁵⁹Растоу Д.А.Переходы к демократии: попытка динамической модели// Полис,1996,№5.-С.7.

lanishiga hamohang tarzda yetuklik sari takomillashmoqda. Shuningdek, huquqiy davlat sharoitidagi erkin raqobatbardoshlik natijasidagina o'rtiq qatlam — mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Shuning uchun ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishga qaratildi. Hozirgi davrda bunday davlat va jamiyat barpo etishning konstitutsiyaviy va qonuniy asoslari yaratildi. Demokratik tipdagi milliy davlat-chilik shakllandi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyatini shakllantirishga doir konstitutsiyaviy asoslar va unga doir barcha qonunlar ijtimoiy huquqiy davlat qurish andozalari asosida yaratildi. Chunki, davlat qurishning umumiy yo'lini aniqlamay turib, uning quyi organlari va jamiyatni isloh qilish mumkin emas. Mahalliy hokimiyat tizimini joriy etishda ham strategik maqsadning huquqiy davlat qurish ekanligidan kelib chiqildi, milliy merosimizdagi huquqiy davlatga xos bo'lgan unsurlar qaytadan tiklandi.

O'zbekistonda Milliy mustaqillik davriga kelib milliy an'analar hamda demokratik qadriyatlarga asoslangan yangi tipdagi davlat hokimiyatini shakllantirish imkoniyatlari tug'ildi. Yangi o'zbek milliy davlatchiligi sohasidagi islohotlar Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan taklif etilgan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning besh tamoyiliga asoslangan «O'zbek modeli» asosida amalga oshirildi. Davlat hokimiyatini yangidan shakllantirish uchun avvalambor yetuk va rivojlangan davlatlardagi siyosiy tizimning tuzilishi va amal qilish prinsiplarini shakllanish tajribasi va tarixiy milliy an'analar asos qilindi.

Mamlakatda bozor munosabatlariga o'tishning qiyin jarayonlari, ayniqsa, mulk munosabatlarining vujudga kelishi, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash, xo'jalik yuritishning yangi usullarining shakllanishi bilan butunlay yangi tipdagi davlat hokimiyati organlariga ehtiyoj sezilgan edi.

O'zbekiston davlati milliy mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda ijtimoiy huquqiy davlatga xos bo'lgan davlat hokimiyati organlarini shakllantirish yo'lini tutdi. Lekin, shu bilan birga, demokratik islohotlar jarayonlarida avlod-ajdodlarimiz meros qoldirgan davlatchilik an'analari, demokratik qadriyatlar unsurlarini zamonaviy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilib borishga muhim ahamiyat berildi. Shu maqsadda davlat qurilishida sof milliy xarakterga ega bo'lgan, shu bilan birga, demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashish natijasida yangi mazmun kasb etgan hokimiyat organlarini shakllantirish islohotlari amalga oshirildi.

Umuman, jahondagi demokratik davlatlar tarixiy tajribasi va konstitutsiyaviy tuzumi amaliyotini e'tiborga olgan holda, shuningdek,

mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat hokimiyatiga doir qonunlarga binoan markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, mahalliy boshqaruv va boshqa barcha masalalarni aholining manfaatlarini e'tiborga olgan holda qonunlar, shuningdek, tegishli moddiy va moliyaviy resurslar asosida bevosita yoki bilvosita hal qilish maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etildi.

Mustaqil O'zbekistonda huquqiy davlatni shakllanishida 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Konstitutsiyaning g'oyalari, maqsadlari, ruhi, uning har bir qoidasi «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», bir necha asrlar mobaynida ilg'or va yetakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan milliy va sharqona davlatni adolatli idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analarini ham o'zida mujassamlashtirdi.

Mamlakat tarixida birinchi marta Konstitutsiyaning 2-moddasida quyidagi xalq suverenitetiga xos tamoyil e'lon qilindi: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar»³⁶⁰. Konstitutsiyaning mazkur moddasida ilk bor fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslaridan biri mujassamlashdi. Mazkur huquqiy qoidani Konstitutsiyaning 7-moddasi quyidagi talqinlarda yanada rivojlantirdi: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi»³⁶¹. Albatta, Konstitutsiyaning bu moddasi «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ning 21-moddasida «Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim»³⁶², degan demokratik tamoyilning O'zbekistonda har tomonlama ro'yobga chiqishi uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berdi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 9-moddasida davlat hokimiyati siyosatining xalq manfaatlari, istaklari asosida amalga oshirishning huquqiy asosi ifodalandi: «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi»³⁶³.

³⁶⁰Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон,2016.-Б. 4.

³⁶¹О'sha joyda.-Б.5.

³⁶²Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси.-Т.,1998.-Б.30.

³⁶³Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон,2016.-Б. 5.

Huquqiy davlat amal qilishining eng asosiy sharti davlat hokimiyatining uchga bo'linish prinsipini hayotda amalga oshirishdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasi mamlakat siyosiy tizimida uning amal qilishi maqsadlarida mazkur prinsipni quyidagi mazmunda ifodalab berdi: «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi»³⁶⁴. Albatta, mazkur modda mamlakat parlamenti — qonun chiqaruvchi hokimiyatida fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini mukammal tarzda ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratib berdi.

Mamlakat parlamenti tomonidan 2010-yil 16-noyabrda qabul qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da asosan siyosiy partiyalarni hokimiyatni shakllantirishdagi rolini oshirish, saylovlar tizimini yanada demokratlashtirish, davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya vositalarini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish, bozor iqtisodiyotini yanada liberallashtirish vositasida davlat hokimiyati tizimini modernizatsiyalashning huquqiy asoslarini yaratish vazifalari qo'yildi.

Shuningdek, Konsepsiyada «O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi», degan demokratik qoidani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilishi natijasida fuqarolar siyosiy partiyalar vositasida hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish huquqlariga ega bo'ladilar.

Konsepsiyada «O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan *ishonchsizlik votumi bildirish* haqidagi masala kiritiladi», degan demokratik qoida ijroiya hokimiyati tizimini parlament tomonidan nazorat qilinishini amalga oshirishga imkon yaratdi.

Umuman olganda, davlat hokimiyati organlarining asosiy ustuvor faoliyati inson taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish sifatida namoyon bo'lishi islohotlar natijasi insonga qaratilganligini anglatadi.

³⁶⁴O'sha joyda.-B.6.

Jamiyatni modergizatsiyalashga doir islohotlar. XX asrning 80-yillari oxiri — 90-yillar boshida totalitar tuzumdan endigina xalos bo'lgan, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekistonda yangi jamiyat va davlatni bunyod etish islohotlari jahon tajribasining qanday yo'lidan borishi hali aniq va ravshan emas edi. Respublikada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning siyosiy va huquqiy kafolatlari qisqa muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda o'z ifodasini topdi. Natijada, fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun huquqiy asoslar tug'ildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etish islohotlari eng murakkab va mashaqqatli sinovlarni kutmoqda edi. Chunki mamlakatda eskidan meros bo'lib qolgan davlatchilik an'analari va totalitar jamiyat asoratlari hali saqlanmoqda edi. Shuningdek, xalqning hali yangi jamiyat qurish va uni tashkil etishga doir tajribasi kam, ruhiyati va siyosiy madaniyati esa fuqarolik jamiyati to'g'risidagi tasavvurlardan ancha uzoq edi. Ana shunday sharoitlarda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va bozor munosabatlariga o'tish davrining nazariy asoslari ishlab chiqildi. Albatta, ular mamlakat tarixiy rivojlanish an'analari, demokratik prinsiplar va xalq dunyoqarashi, qolaversa, mamlakat milliy manfaatlarini o'zida ifoda etar edi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning asosiy kafolati, ya'ni ularning huquqiy asoslarini yaratish maqsadlarida 1991-yilning 15-fevralida O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Mazkur qonun respublikada faoliyat yuritib kelayotgan jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga, ularni sobiq yakkahokim mafkuradan poklanishiga, shuningdek, jamoat birlashmalari tizimini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratib berdi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi marta mazkur qonunda jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta'riflab berildi: «Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqiy hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish...»³⁶⁵ maqsadlarida tuziladi.

Mamlakat tarixida ilk bor fuqarolik jamiyati institutlari — jamoat birlashmalarining mustaqilligi, ularning davlat va hukumatdan alohida

³⁶⁵Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бirlashmalari туг'risida”ги Қонуни//Ўзбекистон Республикасининг қонунлари.4-сон. -Т:Адолат,1993.-Б.155.

faoliyat yurituvchi huquqiy subyekt ekanligi tan olindi. Bu holat fuqarolik jamiyatiga xos belgilardan biri edi. Qonunda davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekistondagi fuqarolik jamiyati barpo etishga doir islohotlarni rivojlangan demokratik mamlakatlar va xalqaro hamjamiyatlar tajribasidagi demokratik qadriyatlar asosida amalga oshirishga muhim ahamiyat berildi. Chunki demokratik qadriyatlar nafaqat xalqaro tajriba va sinovlardan o‘tganligi, balki o‘zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham islohotlar jarayonlariga tatbiq etila boshlandi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab davlat fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va huquqlarining eng asosiy himoyachisi ekanligiga muhim e‘tibor bera boshladi. Shuningdek, hukumat fuqarolik jamiyatining davlat organlari, fuqarolarning mansabdor shaxslar ustidan nazorat o‘rnatishlari, ularning fuqarolar oldidagi mas‘uliyatini oshirish masalalariga muhim e‘tibor qaratdi. Ayniqsa, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning davlat organlari faoliyatidan xabardorligi, shuningdek, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi keng ishtiroki fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri ekanligiga doir konseptual qoidalar ilgari surildi. Albatta, bu nazariy qarashlardagi ilmiy talqinlar nafaqat jamiyatning, balki davlatning kuchli va samarali faoliyat ko‘rsata olish qobiliyatini oshirish bilan uyg‘unlikda amalga oshiriladiki, undagi asosiy g‘oyalar inson erkinligini ta‘minlash maqsadlarida uning o‘zini faol va omilkor bo‘lishga undaydi.

Umuman olganda, «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish, unga mutanosib ravishda huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish (liberallashtirish) konsepsiyasini ishlab chiqildi va uning quyidagi yo‘nalishlari belgilandi:

-mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;

-mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma‘nodagi ko‘ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish;

-nodavlat notijorat tuzilmalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

-jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta‘minlash;

-inson huquqlari va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Mamlakatda «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilidan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarida davlat hokimiyatining aksariyat vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlari va oʻzini oʻzi boshqarish organlariga berish jarayonlari boshlandi. Markaziy davlat hokimiyati tasarrufida esa asosan, faqat konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini taʼminlash, inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vakolatlarni qoldirish koʻzda tutildi.

Shuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xoʻjalik masalalari, pul va valyuta muomalasi boʻyicha qarorlar qabul qilish, xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari markaziy davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish uchun huquqiy asoslar va siyosiy shart-sharoitlar yaratishga doir islohotlar chuqurlashib bormoqda. Shu bilan birga, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlari ham asosan oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga oʻtkazish belgilandi.

Mamlakatda markaziy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini nomarkazlashtirish asosida kuchli jamiyatning shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadlarida hokimiyat vakolatlarining maʼlum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga oʻtkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qoʻshimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Shu bilan birga, oʻzini oʻzi boshqarish organlari — mahalla va boshqa fuqarolik yigʻinlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish muhim vazifalar sirasiga kiritildi.

Mamlakatda ikki palatali parlament islohotlari bilan uzviy bogʻliqlikda nodavlat notijorat tashkilotlarni ijtimoiy qatlamlar, guruhlar manfaatlari hamda irodalarini ifodalovchi tashkilotlar darajasiga koʻtarish, jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish, jamiyatning doimiy barqaror boʻlishiga zamin yaratish, shuningdek, fuqarolarning jamiyat va davlat organlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish uchun shart-sharoitlar va huquqiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Fuqarolik

jamiyati institutlari faoliyatining davlat va qonunlar tomonidan kafolatlanishi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun imkoniyatlar yaratdi.

O'zbekiston jamiyati siyosiy tizimida ikki palatali parlament islohotlarining boshlanishi ham davlat hokimiyati tizimi va jamiyat institutlarini har tomonlama modernizatsiyalashtirish va isloh etish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Avvalambor, parlament islohotlari natijasida jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining manfaatlari va irodalarini ifodalovchi yangi institutlar — parlamentning Qonunchilik palatasi va Senatning shakllanishi natijasida bu turli-tuman manfaatlarni qonunlar va siyosiy qarorlarda ifodalana olish imkoniyatlari yaratildi. Albatta, bu o'zgarishlar fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qadriyatlardan biri — fuqarolar istaklari va manfaatlarini fuqarolik institutlari vositasida davlat irodasi hamda davlat vazifasi darajasiga ko'tarish amaliyotiga erishildi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qonunlar qabul qilishning o'ziga xos imkoniyatlari yaratildi.

Mamlakatda bozor munosabatlariga o'tishning qiyin jarayonlari, ayniqsa, mulk munosabatlarining vujudga kelishi, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, xo'jalik yuritishning yangi usullarining shakllanishi bilan butunlay yangi tipdagi davlat hokimiyati organlariga ehtiyoj sezilgan edi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati institutlari bilan muvozanat saqlashi, jamiyat institutlarini davlat organlaridan mustaqil faoliyat ko'rsatishida jamiyat va davlatni rivojlantirish omillaridan eng asosiysi, bu — siyosiy plyuralizmdir. Jamiyatda plyuralizmning yetishmasligi oqibatida fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tizimi o'z ichiga «yutib» yuborishini tarix o'z vaqtida isbotlab bergan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida siyosiy plyuralizmni davlat va jamiyatning yashash prinsipi sifatida e'tirof etilishi fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berdi. Xususan, Konstitutsiyaning 12-moddasi quyidagicha talqin qilinadi: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas»³⁶⁶.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yettita moddadan iborat «Jamoat birlashmalari bobi» respublikada fuqarolik jamiyati institutlarini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham siyosiy jihatdan zarur shart-sharoitlar yaratib berdi. Unda «jamoat birlashmasi», «kasaba uyushmalari» va «siyosiy partiyalar» kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritilib, ular endilikda demokratik talqinlar asosida ta'riflana boshlandi. Ayniqsa, Kons-

³⁶⁶Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон,2016.-Б. 6.

titutsiyaning 58-moddasidagi «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi»³⁶⁷ kabi demokratik prinsiplarning Asosiy qonunda ifodalanishi mustaqil respublika davlati va xalqining insoniyat hayotida bir necha asrlik tajriba va sinovlardan o'tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi boshladi.

Mamlakatda xalq manfaatlari va siyosiy irodalarini erkin bildirish va ularni erkin ifoda etish uchun huquqiy asoslar va erkin siyosiy muhit yaratilishi bilan hamohang tarzda siyosiy partiyalar va boshqa nodavlat jamoat birlashmalari ham tuzila boshlandi. Sobiq ittifoq tuzumi davrida faoliyat ko'rsatgan nodavlat jamoat birlashmalarini demokratik huquqiy asoslar va talablar asosida qaytadan tashkil etish jarayonlari avj oldi. 2016-yilga kelib nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) soni 8300 tadan ortib ketdi. Shuningdek, davlat organlari mamlakatda fuqarolik jamiyatining institutlari faoliyatini moliyaviy va ijtimoiy jihatlardan kafolatlashga ham muhim ahamiyat berdi. Siyosiy partiyalar, «Ma'naviyat targ'ibot» markazi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Xotin-qizlar qo'mitasi hamda ularning barcha quyi tashkilotlarini davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirishga doir huquqiy asoslar qabul qilindi va hayotga joriy etildi. Darhaqiqat, O'zbekistonda tub o'zgarishlar jarayonlaridagi davlatning bosh islohotchilik o'rni asosan fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ldi.

Mamlakatda XXI asr boshlariga kelib «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» tamoyil asosida markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarga bosqichma-bosqich berib borish asosida fuqarolik jamiyati qurish islohotlari yanada chuqurlashdi. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ning beshinchi yo'nalishini «Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish» deb nomlanishining o'zi bu sohada amalga oshiriladigan vazifalarni davlatning eng asosiy strategik ahamiyatga molik maqsad ekanligini anglatadi.

Konsepsiyadagi asosiy vazifalardan biri — bu fuqarolik jamiyati institutlarini davlat boshqaruvi va jamiyatdagi nufuzi va maqomini oshirish, ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan samarali

³⁶⁷O'sha joyda.-B.20.

jamoatchilik nazoratini amalga oshira olish darajasiga ko'tarishdan iborat ekanligi ochiq-oydin e'tirof etildi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayoni jamoatchilik va fuqarolik nazorati institutlarini jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq holda kechishi ko'zda tutildi.

NNIn fuqarolik jamiyati institutlari sifatida tobora rivojlantirish, ularning mustaqil faoliyat yuritishi, ularni fuqarolar huquq va erkinliklari, shuningdek manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasining «*Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida*»gi, «*Jamoat fondlari to'g'risida*»gi, «*Homiylik to'g'risida*»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «*O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi qarori va yana boshqa huquqiy asoslarning shakllantirilganligi natijasida nodavlat notijorat tashkilotlar o'zlarida fuqarolik jamiyati institutlariga xos belgilarni ifoda eta boshladilar.

Lekin, shu bilan birga, Konsepsiyada mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish va demokratlashtirish, jahon hamjamiyatiga yanada chuqurroq integrasiyalashuv maqsadlari, fuqarolar irodasining muhim davlat qarorlarida ifodalanishi, aholining islohotlarda va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish maqsadida yana qator qonunlar qabul qilishga zarurat sezilayotganligi asoslab berildi. Jumladan, bu sohada ma'lum rivojlanishga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta'minlash, davlat organlari bilan fuqarolar munosabatlarida o'zaro hamkorlikni ta'minlash maqsadida «*Ijtimoiy sheriklik to'g'risida*»gi Qonunni qabul qilindi. Ayniqsa, bu qonunning «aholi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar»ni o'z ichiga olishiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Konsepsiyada qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida yanada rivojlantirish, mahallalar faoliyatini aholi manfaatlarini kengroq ifodalashi, ular ish faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, ularning ish ko'lamini yanada kengaytirish, bu organlarni davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatlarini yaqinlashtirish maqsadida «*Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida*»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish asosan

mahallalarni «...aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiyl tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, ularning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e‘tibor qaratish» vazifasi qo‘yilgan edi.

Shuningdek, Konsepsiyadan kelib chiqib mahalla fuqarolar yig‘inlarini aholining manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda eta oladigan, ularni o‘z faoliyatida himoyalashga qodir bo‘lgan jihatlarini oshirishga muhim e‘tibor berildi. Ayniqsa, Konsepsiyaga muvofiq *O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida»gi Qonuniga* o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritildi. Bunda yig‘in raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilarini saylashda ularga yuksak talablar — «oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta‘minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutish» e‘tiborga olindi. Darhaqiqat, hozirgi davrga kelib nafaqat fuqarolar yig‘ini raisi va uning maslahatchilari faolligini oshirish, balki ular ish faoliyati ustidan mahalla ahlining nazorati, fuqarolar yig‘iniga saylangan organlarning tegishli hududda yashayotgan aholi manfaatlari va ehtiyojlarini qay darajada e‘tiborga olib ish olib borayotganligini ta‘minlash mexanizmini yaratishga zaruriyat sezilayotgan edi. Mazkur qonunni takomillashtirishda fuqarolar yig‘inining saylanadigan organlarini hozirgi davr talablari darajasida faoliyat yuritishi mahalla ahli mas‘ulligi asosida kechishi bu institutning fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan jihatlarini boyitish nazarda tutilgan edi.

Jahon tajribasidan ma‘lumki, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning amal qilish sharoitida jamiyat institutlarini davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar va fuqarolar manfaatlari go‘yoki davlat manfaatlari sifatida namoyon bo‘la boshlaydi. Qolaversa, jamoatchilik nazorati davlat organlari faoliyatini jamiyat manfaatlari asosida kecha boshlashini ta‘minlashga ta‘sir etadi. Muhimi, bu jarayonda fuqarolarning o‘zlari ham davlat boshqaruvida ishtirok etgani sayin ijtimoiylashib boradilar. Ijtimoiylashuv esa siyosiy madaniyatning asosiy komponentlaridan biridir. Shuning uchun ham Konsepsiyada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «*O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonunni* qabul qilish»

taklifi ilgari surildi. Mazkur «qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subyektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur»ligi belgilandi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, Konsepsiyaning e'lon qilinishi, unda ilgari surilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish natijasida fuqarolik jamiyati institutlari xalqaro me'yorlar talablari darajasida rivojlanadi, bu jarayonga bog'liq holda mamlakatda inson taraqqiyotini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Zero, hozirgi davrga kelib inson manfaatlarini qondirish inson taraqqiyotining asosiy kafolati ekan, bu jarayon to'liq ravishda faqat biz qurayotgan fuqarolik jamiyati sharoitida amalga oshishi mumkin.

10.4. Sotsial taraqqiyotni boshqarish. Sotsial menejment va uning xususiyatlari

Boshqaruvning sotsial tabiati. Sotsiologik nuqtai nazardan yondashganda boshqaruv — odamlarning o'zaro sotsial munosabatlarini muvofiq-lashtirishga doir hokimiyatni amalga oshirish shaklidir. Boshqaruv munosabatlari — ikkita subyektning o'zaro munosabatlarining alohida sohasidir: boshqaruvchi va boshqariluvchi. *Boshqaruvni* ikkita jihati bo'yicha ikkiga bo'lish mumkin: 1) munosabatlar tizimi sifatida; 2) o'zaro munosabatlar shakli sifatida. Munosabatlar tizimi sotsial ierarxiya (boshliq - bo'ysunuvchi), shuningdek hokimiyatning nazorat qilish va martabalar vakolatlarini amalga oshirish tartiboti mavjud bo'lishini taqozo etadi. O'zaro munosabatlar shakli — bu rahbarlikka oid vakolatlarni amalga oshirishni ifodalaydi. *Boshqaruv* bir qism odamlarni (yoki odamni) boshqa odamlarga ochiq yoki yashirin bosim o'tkazishiga va jamiyatdagi mavjud sotsial-iqtisodiy boyliklarni taqsimlanishidagi tenglikning yo'qligiga asoslanadi.

Boshqaruv tizimi avtoritar yoki demokratik shakl kasb etishi mumkin. Lekin, u muayyan jamiyat uchun qabul qilingan me'yorlar va qoidalar doirasida individlar va sotsial guruhlarning xatti-harakatlari erkinligini chegaralashning sotsial tizimidir. Har qanday boshqaruv tizimi imtiyozga ega bo'lmagan (ijro qiluvchi) odamlarga nisbatan imtiyozli mansabdor odamlarning ozligi asosida quriladi. Boshqaruvchilarni tayinlash jarayoni doimo bir yoki bir necha odamga tegishli bo'ladi, shuningdek boshqa ko'plab odamlarning bo'ysunuvchi sifatida bo'lishiga asoslanadi. Boshqaruv.— har qanday oqilona tashkil etilgan va sivilizatsiyaga erishgan

jamiyatdagi muhim sotsial institutlardan biri hisoblanadi. Olamlarni boshqarish — bu odamlarni muayyan xulqqa kirishga qo‘zg‘ash (yoki majburlash) demakdir.

Xulosa qilib aytganda, *boshqaruv* — bir individning (yoki bir necha) boshqa (yoki ko‘plab) individga maqsadga muvofiq ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatishidir. Yoki, boshqaruvning asosi boshqaruv subyektlari (boshliqlar) va boshqaruv obyektlari (boshqariluvchilar) o‘zaro ta‘silari va munosabatlaridan iboratdir. Bu subyektiv-obyektiv munosabat demakdir. Sotsial boshqaruvning murakkabligi shundaki, unda boshqaruv obyekti va subyekti sifatida bir bo‘lgan individlar ishtirok etadi.

Shu bilan birga, bozor iqtisodiy munosabatlari sharoitida boshqaruvni *menejment* deb qabul qilish odatga kirdi. Menejment aslida tijoriy boshqaruv turi sifatida paydo bo‘lgan edi. Ma‘lumki, tijorat foyda olishni mo‘ljallab amalga oshiriladi. Shuning uchun menejer subyektiv-obyektiv munosabatlarni shunday tarzda tashkil etadiki, bunda bo‘ysunuvchilarning o‘zaro munosabatlaridan iloji boricha ko‘proq foyda kelishi ko‘zlanadi. Foyda olish menejer xizmat faoliyatini baholashning mezoni hisoblanadi. Menejmentning birinchi pioneri (kashshofi) AQShda vujudga keldi. Bu mamlakatda 1880-yildayoq dastlabki menejment maktablari paydo bo‘lgan edi³⁶⁸.

Hozirgi davrda menejerlik sohasi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar ko‘plab sotsial-gumanitar fanlarni — sotsiologiya, falsafa, huquq, iqtisodiyot, psixologiya kabilarni o‘rganadi. O‘tgan davrlar ichida menejmentni rivolantirishga doir (ayniqsa, AQShda) ko‘plab turli-tuman nazariyalar shakllandi. Olimlar boshqaruvni umuman sotsial institut sifatida rivojlani-shini beshta bosqichga bo‘ldi: er.il. 2-3 ming yillar oldin qadimgi sharqda paydo bo‘lgan; er.il. 18 asrdan boshlab Bobilda paydo bo‘lgan (*Xammurabi* hukmdorligi davrida 258 tadan iborat boshqaruv qonunlari Bobil qonunlar to‘plamida ifodalangan); Bobil hukmdori *Navuxodonosor II* (er.il.605–562 yy.) g‘alla omborlari va to‘qimachilik sohasida ishlab chiqarish nazorati va boshqa boshqaruvga doir ko‘plab qoidalarni amaliyotga kiritdi.

To‘rtinchi boshqaruv sohasidagi inqilob XVIII-XIX asrlardagi Yevropa kapitalizmining rivojlanishini rag‘batlantirgan industrilashtirish inqilobilari bilan bog‘liqdir. Bu davrda bir mulkdor o‘rniga minglab aksiyadorlar, ya‘ni kapitalning birgalikdagi qo‘shma egalari vujudga keldi. Mulchilikning yangi tizimi boshqaruvning kapitaldan ajralishiga olib

³⁶⁸Зарецкий А.Д. Менеджмент социальной работы. Изд. 2-е, доп. и перераб. - Ростов н/Д: Феникс, 2008. - С. 17

keldi, keyinroq esa ma'muriyat va menejmentni mustaqil iqtisodiy kuchga aylantirdi. To'rtinchi boshqaruv inqilobi natijasida menejment professionallashdi. Dastlab menejmentning tor texnikaviy ma'nosi shakllandi: ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlashni va sotishni nazorat qilish.

Mulkchilikning aksiyadorlik shaklini o'sib borishi bilan menejmentning strukturasi ham o'zgardi: aksionerlar tomonidan tayinlangan menejerlar ularning korxonalaridagi vakillariga aylandi. Boshqaruv maxsus ta'lim olishga zarurat sezgan holda usullar, prinsiplar, texnika, vosita va turli yo'llar yig'indisi sifatida namoyon bo'la boshladi. XIX asrning oxiriga kelib yollanma menejerlik paydo bo'ldi. Umuman olganda, industrilashtirishning boshlanishi menejerlarning paydo bo'lishini taqozo etdi.

Beshinchi boshqaruv sohasidagi inqilob XX asrning boshlariga to'g'ri keldi. Bunda *M. Veberning* byurokratiya nazariyasini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr menejer inqilobi davri deb ataldi. *E. Bernshteyn* va *K. Schmidning* mulk egalari manfaatlariga ziddiyatda bo'lgani uchun kapitalistlar sinfini ma'muriyat stratasi siqib chiqaradi, degan qarashlar paydo bo'ldi. 1941-yilda *J. Bernxaymning* «Menejer inqilobi» nomli kitobi nashr etildi. Uning aksariyat g'oyalari *T. Veblen* va *M. Veber* qarashlariga uyg'un keldi. Bu davrda *T. Veblen* «Bekorchi sinf nazariyasi» asarida institutsionalizmning iqtisodiy nazariyasini yaratib, unda kapitalistlar va menejerlarning o'zaro chegaralanishi jarayoni ochib berildi.

Menejer inqilobi AQShda mamlakat aholisining 60 foizini o'rta sinf darajasiga chiqishini ta'minlashga katta hissa qo'shdi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida o'rta sinfning o'zagi menejerlar hisoblanadi. O'rta sinf ikkita qarama-qarshi qutblar — kambag'allar va boylarni bir-birlari bilan to'qnashuvlariga yo'l bermasdan ajratib turadi. 1990-yildan boshlab AQSh va G'arbiy Yevropaning yetakchi universitetlari o'quv dasturlariga ma'muriy-davlat boshqaruvi nazariyasini o'rganish fan sifatida kiritildi. Ilmiy boshqarish — boshqaruv amaliyoti nazariy asosini tashkil etuvchi ilmiy bilimlar tizimidir. Bu davrdan boshlab menejmentning g'arb amaliyoti quyidagi konsepsiyalarni o'z ichiga olishni taqozo etdi: ilmiy boshqaruv konsepsiyasi (teylorizm, asoschisi — *F. Teylor*); ma'muriy boshqaruv maktabi — (*A. Fayol*); insoniy munosabatlar maktabi (*E. Meyo*); boshqaruvning psixologik maktabi (*A. Maslou*); insoniy resurslar samarasini oshirish konsepsiyasi (o'tgan asrning 50-yillaridagi mualiflar nazariyalari yig'indisiga asoslandi). Mazkur konsepsiyalar sotsial-mehnat hayotining sifatlarini o'zgarishi, boshqaruvchilarning yetakchilik sifatlarini vujudga kelishi, hokimiyat va avtoritet, tashkilotda kommunikatsiyalarning namoyon

bo'lishining xususiyatlari, motivlashish, o'zaro sotsial aloqalar turli jihatlarini taqozo etadigan rivojlanishning evolyutsiyaviy qirralarini ifodaladi³⁶⁹.

Bu konsepsiyalardan tashqari menejmentning uchta yo'nalishi shakllandi: 1) boshqaruv jarayon sifatida (tashkilot maqsadlariga boshqaruv funksiyalarini o'zida namoyon etgan turli o'zaro bog'liqlikdagi xatti-harakatlar uyg'unligi asosida erishiladi); 2) boshqaruv tizim sifatida (boshqaruvchilar tashkilotni turli unsurlar (odamlar, texnologiyalar, strukturaviy tashkil etuvchilar) yig'indisi deb qarashlar taqozo etildi); 3) boshqaruv vaziyat sifatida (bu yondashuvga binoan boshliq boshqaruv shakllari, usullari zaxirasiga ega bo'ladi va ulardan shakllanadigan vaziyatdan kelib chiqib foydalanadi).

Hozirgi davrga kelib menejmentning quyidagi yo'nalishlari rivojlana boshladi: boshqaruv sotsiologiyasi; menejment sotsiologiyasi. Boshqaruv sotsiologiyasi turlicha jamiyatlar hayotiy faoliyatida foydalaniladigan sotsial ierarxiyaning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Menejment sotsiologiyasi bozor iqtisodiyotiga amal qilayotgan jamiyatlardagi firmalar va kompaniyalarga boshchilik qilishga taktikaviy va strategik yondashuvlarning tizimini tavsiflaydi. Sobiq ittifoq davrida «menejment sotsiologiyasi» iborasi «burjua jamiyatiga xos» degan tamg'a bilan butunlay ta'qiqlangan edi. O'tgan asrning o'rtalarigacha «boshqaruv sotsiologiyasi» iborasi ham ta'qiqlangan edi. Demak, *menejment* — bu bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimida qo'llaniladigan boshqaruv qonuniyatlari yig'indisidir. Agar ishlab chiqarish, tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatishdagi samarali menejmentning natijasi pul daromadini olish bo'lsa, unda bu kabi yondashuvni sotsial jarayonlarni boshqarishda, umuman sotsial menejment tizimida qo'llab bo'lmaydi. Chunki, sotsial jarayon — bu zaruriy hayotiy faoliyatni ta'minlash shart-sharoitlarida bir turdagi odamlarning sotsiialashuvi va boshqalarning takroriy sotsiialashuviga doir (individlar, sotsial guruhlar, jamiyat) ijtimoiy va professional faoliyatdir.

Sotsial menejment sotsial boshqaruvning ostki tizimi sifatida umumiy boshqaruvni ifodalamaydi, balki sotsial tizimni boshqaradi. Sotsial menejmentning asosiy vazifasi — bu ostki tizimlarni oqilonalik, samaradorlik va barqarorlikda amal qilishini ta'minlashni qo'llab-quvvatlash, sotsial-texnologik harakatlarni samarali boshqarish shakllari va usullarini topish demakdir. Sotsial menejmentning ostki tizimlari quyidagilardan iboratdir: 1) har bir individga alohida yondashish — bu boshqaruv ta'sirini mikro-darajasi hisblanadi; 2) jamiyat ichidagi turli sotsial guruhlariga yonda-

³⁶⁹Управление - это наука искусство: А. Файоль, Г. Эмерсон, Ф. Тэйлор, Г. Форд. - М.: Республика, 1992. - С. 20-42, 237-271.

shuv — bu boshqaruvning makrodarajasidir; 3) butun bir jamiyatga yondashuv — bu sotsial strukturalarni boshqarishning megadarajasidir³⁷⁰.

Quyidagi asosiy xususiyatni doimo nazardan qochirmaslik lozimki, sotsial guruhlar ko'pincha iqtisodiy afzalliklarga erishishga moyillikka amal qiladi. Barcha sotsial guruhlar, birinchi navbatda, iqtisodiy manfaatlardan (xususiyl mulk, ishlab chiqarish vositasi, ulardan o'zining sotsial holatini yaxshilashda foydalanishi va hokazo) kelib chiqadigan iqtisodiy barqarorlikni xohlaydi. Sotsial guruhlar iqtisodiy munosabatlar evaziga siyosiy barqarorlikka erishishni istaydi. Shu tariqa, sotsial menejmentning *makrodarajasi* — bu muayyan guruhlar uchun iqtisodiy barqarorlikni xohlashlaridir. Bu darajadagi menejment bu kabi barqarorlikni qo'llab-qvvatlash va ta'minlashning sotsial texnologiyalarini topish bilan shug'ullanishi lozim. Sotsial menejmentning *megadarajasi* — bu jamiyatdagi sotsial guruhlar va individlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvlar yo'llarini topishdan iboratdir. Bunda global tarzdgagi sotsial texnologiyalar qo'llaniladi. Bu jarayonda o'zaro ta'sirlarning quyidagi uchta asosiy muhitida sotsial ta'sirning turli vositalariga zarurat tug'iladi: shaxslaro muhitda; maxsus ravishda tuziladigan e'tiqodlar muhitida (bu o'quv yurtlari, diniy muassasalar va boshqalarda o'zaro aloqalar o'rnatish qobiliyatini shakllantirish demkdir); OAVda (televidenie, radio, bosma nashrlar, elektron axbortlar va hokazo). Shu tariqa, sotsial menejmentning uslubiyoti individlar, sotsial guruhlar va bir butun jamiyat o'zaro boshqaruv munosabatlaridagi alohida yashash shakllariga va ulardagi farqlanishlarga tayanadi.

10.5. Globalizm sotsial hodisa sifatida. O'zbekistonning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlanishi

Globalizm va sotsial taraqqiyot. Global so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, uning o'zagi lotin tilidagi globus — shar, ya'ni yer shari so'zidan olingan. Bu so'zdan inglizcha *global* — «global» sifati tashkil topdi. Bu ibora yer shariga taalluqli — sayyoraviylikka daxldorlik ma'nolarini bera boshladi. XIX asrning 80-yillariga kelib jahonda ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari olimlar diqqatini o'ziga tortdi. 1976-yilda taniqli olim *Immanuel Vallershtayn* o'zining dunyo tizimlarini o'rganishi natijasida o'zining globalizmga doir nazariyalarini ilgari surdi. Unda milliy davlatlar va birliklarga ikkinchi darajali o'rin berildi, birinchi o'ringa global sotsial o'zgarishlarni ilgari surish vazifasini qo'ydi. Vallershtayn dastlab dunyodagi

³⁷⁰Зарецкий А.Д. Менеджмент социальной работы. Изд. 2-е, доп. и перераб. - Ростов н/Д: Феникс, 2008. - С.23.

imperiyalar va jahon iqtisodiy tizimlari o'rtasidagi o'zaro farqlanishlarni tadqiq etdi. Imperiyalar yaxlit harbiy va siyosiy hokimiyat ostida birlashgan bir necha hududlardan iborat. Rim imperiyasi bunga klassik misol bo'la oladi. Jahon iqtisodiy tizimlari ham turli mamlakatlar va hududlarni o'z ichiga olgan holda bir butunlikka birlashgan bo'ladi, lekin ularning markaziy va siyosiy hokimiyati bo'lmaydi. Bunga qadimgi Xitoydagi soliq to'lash tizimi misol bo'la oladi. Nisbatan kuchsiz davlatlardan har yili o'lpon sifatida olinadigan oltin, hayvonlar va boshqa mollar evaziga ularga Xitoy hukmdori tomonidan o'z ishlarini o'zlari boshqarishi huquqi berildi. Tarixning taqozasi bilan jahon iqtisodiy tizimlari beqarorlik «kasali»dan qutila olmadi. Ular inqirozga yuz tutdilar yoki imperiyalarga aylanib ketdi. Lekin, Vallershtayn shuni ta'kidladiki, jahon iqtisodiy tizimlaridan biri — hozirgi kapitalizm imperiyaga aylanmadi, aksincha u 500 yildan buyon yashab kelmoqda. Aslida, hozirgi kapitalizm markaziy siyosiy hokimiyatning yo'qligi evaziga farovonlikka erishdi. Transnatsional korporatsiyalarning bir hukumat nazoratidan tashqarida faoliyat yuritishi ularga har qanday noqulay milliy siyosat sharoitlarida ham o'z pul jamg'armalarini o'zlari xohlagan boshqa mamlakatlarga o'tkaza olish imkoniyatini berdi.

Vallershtayn nazariyasiga binoan jahon iqtisodiy tizimi o'ziga markaziy davlat, shuningdek periferiya va yarim periferiya mintaqalarni qamrab oladi. Markaziy davlat sezilarli darajada periferiyadagi mintaqalarni boshqaradi, bunda yarim periferiya mintaqalar turli murakkab jihatlarida oraliq bo'g'inni egallaydi. Shuningdek, markaziy davlatning ichida muttasil ravishda ichki kurashlar davom etadi. Masalan, hozirgi davrda ham AQSh, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Rossiya o'rtasida to'xtovsiz kurashlar davom etmoqda. Ularning o'rtasidagi raqobatchilikning yuz berishiga sabab — bu ular joylashgan kapitalistik iqtisodiyot rahbarlik qilayotgan jahon iqtisodiy tizimida qandaydir markaziy organning mavjud emasligidir.

Vallershtaynning nuqtai nazaricha, kapitalistik dunyoning tarixi uchta asosiy bosqichlardan iborat. Birinchisi 1450-1640-yillardagi Uyg'onish davri hisoblanadi. Bu davrda aholining o'sishi ro'y berdi, baholar ko'tarildi, mehnatning ixtisoslashuvi amalga oshdi. Ko'plab tijorat korxonalari, universitetlar shaharchalari, siyosiy markazlar va portlar paydo bo'ldi. Ispaniya monarxiyasi jahon imperiyasini tuzish uchun qanchalik ko'p pullar va odam resurslarini sarflagan bo'lsada, imperiya o'rniga faqat jahon iqtisodiy tizimi shakllandi. Markaziy davlatlar sifatida Angliya va Fransiya hisoblandi, Ispaniya va Shimoliy Italiya yarim periferiya mintaqalari bo'lib qolaverdi. Shimoliy-g'arbiy Yevropa va Yangi dunyodagi

(Shimoliy Amerikadagi) Ispaniya mustamlakalari esa yarim periferiya hududlar darajasidan yuqoriga ko'tarila olmadi.

Ikkinchi bosqich 1660-yillardan 1700-yilgacha davom etib, bu davrda inglizlar jahon iqtisodiyoti ustidan o'zlarining tijorat va sanoat hukmronligini mustahkamlab oldi. Ular gollandlar egallagan savdo qilish san'atidan ham oldinga o'tib ketdi. Fransiyaning bir necha bor Angliyani siqib qo'yish va jahonda hukmron holatni egallashga urinishi qattiq zarbaga uchradi.

Uchinchi bosqich 1750-yildan keyingi ikki yarim asrni o'z ichiga olib, hozirgacha davom etib kelmoqda³⁷¹. Bir qancha mamlakatlarda sanoat kapitalizmi gullab-yashnadi. Ilg'or texnologiyalar tufayli yangidan yangi hududlar kapitalistik iqtisodiyotga bog'liq bo'lib qolaverdi. Bu jarayon g'arb dunyosini ko'plab mamlakatlar ustidan hukm yuritishini ta'minlab berdi. Undan tashqari, jahon iqtisodiy tizimida siyosiy hukmronlik va ustunlik qilish borasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. AQSh va Germaniya Buyuk Britaniyani xalqaro tizimda siqib qo'ydi va ularning o'zlari jahonning yetakchi mamlakatlariga aylandi. Hozirgi davrda jahon kapitalistik iqtisodiyotini ko'proq AQSh hukumati va korporatsiyalari, Yevropa umumiy bozori mamlakatlari boshqarmoqda.

XX asrning 80-90-yilarida aksariyat sotsiolog olimlar o'rtasida jamiyat bilan global jamiyatning o'zaro farqlanishi yoki farqlanmasligiga doir munozaralar kuchaydi. Sotsiologlarning qarashicha, millat-davlat deb tushuniladigan birlik — bu jamiyatdir. Lekin, global jamiyat ham bo'lish mumkinmi, degan savolga taniqli olimlar *R. Robertson* va *M. Feterstoun* kabi olimlar javob topishga harakat qildi. Ular xalqaro hamjamiyatlarning global jamiyatga o'sib o'tishi va «millat-davlat»larni jamiyat turi sifatida siqib chiqarilishi istiqbollarini o'rgandi.

Bu davrda globallikni modernizatsiya jarayonlarining jihatlari sifatida talqin etishlar ham avj oldi. Globalizatsiyaning yuzlab talqinlariga asoslangan yondashuvlarda uni taraqqiyot, plyuralizatsiyalashuv va boshqa jarayonlar bilan adashtirish davom etdi. Lekin, AQSh olimlari *R. Robertson*, *M. Olbrou*, ingliz olimi *M. Feterstoun* globalizmni sotsial transformatsiyaning (bir holatdan ikkinchi holatga o'tishning) mustaqil turi sifatida talqin etdi. Bu yondashuv ko'proq sotsiologik nuqtai nazardan amalga oshirildi. Chunki, unda ilk bor faqat global iqtisodiyot yoki siyosat emas, balki jahon jamiyati imkoniyatlari o'rganildi.

R. Robertson global jamiyatga aynanlashadigan «jahon tizimi» tushunchasini ishlatdi. Bu tizim alohida jamiyatlar o'zaro munosabatlari, shuning-

³⁷¹Смелзер Н. Социология: пер.с англ.-М.:Феникс,1994.-816-817.

dek insoniyatga doir tasavvurlardan holi ravishda ifodalandi. Bu tizim individ va jamiyatning yangidan o'zini o'zi aniqlashtirishi, ya'ni yangi aynanlashish masalasi bilan bog'liq holda tadqiq etildi. Robertsonning fikricha, globallashuv haqida individ yoki millat-davlatni nazarda tutmaydigan, balki, global jamiyat sifatidagi yangi voqelik bilan bog'liq bo'lgan «uchinchi madaniyat» shakllanganidagina gapirish mumkin. Robertson globallashuvni yangi jahon tartibotini o'rnatadigan muhim sotsial transformatsiya sifatida qabul qiladi.

Robertson modernizatsiya g'oyalarini davlatlarning xalqaro tizimi bilan bog'lashga urindi. Globallashuv «dunyoni siqiq» holatga o'tishi, butun bir jahon miqyosida ongning o'sishi sifatida talqin etildi. Robertsonning fikricha, jahon hali integratsiyalashmagan, balki, endigina birlashib bormoqda. Globallashuv individ va millat-davlat ahamiyatini nisbiylashtirdi, shuningdek individ, milliy jamiyat, jamiyatning xalqaro tizimi va insoniylik kabi unsurlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zgartirdi. Global kenglik ana shu unsurlarsiz tashkil topib boradi va xuddi shu holat globallashuv tavsiflarida asosiy rol ni o'ynaydi. Globallashuv Robertson uchun — «bu dastlabki uzoq jarayonning natijasidan iborat bo'lgan sotsial transformatsiyadir. Globallashuv bir yo'nalishga ega bo'lmagan holdagi murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib globallashuvni gomogenlashuv³⁷² bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki, globallik lokallikni, lokallik esa gloaballikni inkor etmaydi. Hozirgi davrda globallashuv shaklini «glokalizatsiyalashuv» deb tavsiflansa maqbulroq bo'lardi». Robertsonning bu iborani kiritishiga sabab, u ikkita so'zni — «globallashuv» va «lokallashuv» qo'shilishidan hosil bo'lganligini ta'kidlagan holda, hozirgi davrda ularning har ikkalasini ham amalga oshish imkoniyatlari mavjud ekanligiga e'tibor qaratdi. Glokallashuv — bu globallik lokallikni inkor etmaydi, va aksincha, degan ma'noni anglatadigan o'ziga xos tushunchadir. U lokallik va globallik birikuviga xos bo'lgan amaliy glokallashuvning amaliyotdagi ko'rinishlarini tahlil etdi.

Global jamiyat — eski tartibotlarga qarshi chiqish demakdir. Lekin, u hali o'zini to'liq namoyon qilgani yo'q. Uni paydo bo'lishiga doir sotsial nazariyalar hali o'z nihoyasiga etgani yo'q. Olbrouning fikricha, hozirgi zamon tugab bormoqda, lekin bu tarix tugadi, degani emas. Biz global davrda, hozirgi zamonning oxirgi bosqichida yashamoqdamiz.

³⁷²Gomogenlashuv - [yunon. homogenes bir tarkibli] - tarkibi bo'yicha bir xillashuv; urug', qabila, millat, sotsial qatlam, guruh, jamiyat va boshqa hodsalarining sotsial, madaniy, milliy kabi jihatlarini mezonlarini aniqlashda ishlatiladi.

Global davrga o'tishning boshlanishi BMTning global halokatlar to'g'risidagi ma'ruzasida ochiq-oydin keltirildi³⁷³.

Globallashuv oqibatlari. Hozirgi davrdagi globallashuv jarayonlari o'zining ham ijobiy va salbiy jihatlarini namoyon qilmoqda. Uning pozitiv jihatlarini to'g'risida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) globallashuv xalqaro mehnat taqsimoti va yanada ixtisoslashuvga imkoniyatlar yaratdi. Globallashuv jarayonida mablag'lar va resurslar samarali taqsimlana boshladi va uning natijasida aholining yashash darajasi o'sdi va uning hayotiy istiqbollari kengayadi;

2) erkin savdoning kuchayishi natijasida juda ham ko'plab tomonlarning daromadlari ko'paydi;

3) raqobatchilikning yanada kuchayishi yangi texnologiyalarning rivojlanishini va jahonda keng tarqalishini rag'batlantirdi;

4) globallashuv mehnat unumdorligini o'sishiga olib keldi, natijada ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalar yanada kengroq joriy etildi, jahon miqyosida innovatsiyalarni qo'llash oshib bordi;

5) globallashuv sharoitida mamlakatlar o'zlarining moliyaviy resurslari harakatchanligini oshirdi, u o'ziga ko'proq investorlarni jalb etdi;

6) globallashuv insoniy muammolarni hal qilish uchun katta asoslarni yaratdi, birinchi navbatda, ekologik halokatlarning oldini olishga kengroq imkoniyatlar paydo bo'ldi;

7) globallashuvning iqtisodiy jihatlarini natijalari jahondagi ko'plab sotsial muammolarni (qashshoqlik, ichimlik suvi tanqisligi, ta'lim, ishsizlik, ekologik halokatlar, sotsial tengsizlik, aholini sog'lomlashtirish va hokazo) hal etishga moliyaviy asoslar yaratdi, bu muammolarni bartaraf etishga mamlakatlarni birlashtirdi.

Lekin, shu bilan birga, globallashuvning salbiy oqibatlari ham kuzatilmoqda:

1) quyidagilar natijasida ishsizlik darajasi o'sishi mumkin:

- ish joylarini qisqartirishga olib keladigan yangi texnologiyalarni joriy etish;

- rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishi va tovarlarning sermehnat turlarini ommaviy tarzda ishlab chiqarishning dunyoda ko'chib yurishi natijasida ko'plab ishlab chiqarish turlarining tugatilishi;

- ishchi kuchlari harakatchanligini o'sishi;

³⁷³Современные трактовки глобализации в социологии и ее влияние на развитие социологической теории//<http://mybiblioteka.su/1-120842.html>.

- TNKning (transnatsional korporatsiyalarning) o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlaridan yuqori qo'yishi natijasida milliy davlatlarning zaiflashuvi, ular vakolatlarining bir qismini xalqaro yoki davlatlararo tashkilotlarga o'tib ketishi.

Albatta, globallashuv jarayonlaridagi iqtisodiy omillarning o'zgarishi birinchi navbatda barcha mamlakatlar jamiyatlaridagi sotsial munosabatlar va holatlarga ta'sir etadi. Shuuning uchun ham hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda globallashuv jarayonlariga shubha bilan qarashlar mavjud. Undan tashqari, globallashuvning milliy madaniyat, ma'naviyat va turli jug'rofiy joylashuv hamda diniy muhitlarda shakllangan aholiga nisbatan salbiy ta'sirlari ham uning milliylikka nisbatan xavf solayotganligini ko'rsatib turibdi. Lekin, shunga qaramay, jahondagi mamlakatlarning aksariyat qismida iqtisodiy va sotsial taraqqiyot o'sib borishiga monand ravishda globallashuv jarayoniga ehtiyojlar oshib bormoqda.

O'zbekistonning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlanishi. Jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hozirgi davrga qadar davom etib kelayotganligiga qaramasdan O'zbekistonda jamiyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlar izchillik bilan davom etmoqda. Qisqa davr ichida totalitar jamiyatdan fuqarolik jamiyatiga o'tish, sotsializmga barham berish, bozor iqtisodiyotini shakllantirish, huquqiy davlat asoslarini yaratish kabi islohotlar amalga oshirildi. 26 yil ichida aql bovar qilmaydigan o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakat jahon iqtisodiy integratsiyasidan o'ziga munosib o'rinni egallab, rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan rivojlanish yo'liga kirdi. Bu yo'l xalqaro maydonda «o'zbek modeli» nomi bilan tanildi. Bu model iqtisodiyotning maskuradan xoli qilish va uning siyosatdan ustunligini e'tirof etish, barcha o'zgarishlarni amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roliga amal qilish, xuquqiy davlat uchun xos bo'lgan jamiyatda qonun ustuvorligini o'rnatish, davlatning aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish siyosatini olib borishi, rivojlanishning hech bir zo'riqishlarsiz tadirijiy yo'l bilan borishini ta'minlash kabilarni o'z ichiga oldi.

O'zbekistonda modernizatsiyalashuv jarayonlari. Mamlakatda chorak asr ichida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning poydevori yaratildi. Mustaqillik davrida markaziy va mahalliy hokimiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy boshqaruvdagi hissasi keskin kamaytirildi. Korxonalar, xo'jalik, o'rta va kichik biznes subyektlariga bozor iqtisodiyoti talablari darajasidagi iqtisodiy erkinlar berildi. Ular o'zini o'zi boshqarish prinsipi asosida faoliyat yurita boshladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar, viloyatlarda fuqarolar tashabbuslari va

ishtiroklari asosida amalga oshiraladigan demokratik boshqaruv tizimi shakllandi. Huquqiy davlatga xos bo'lgan sud huquq tizimi shakllandi. Hozirgi davrda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish va liberallashtirishga doir islohotlar yanada chuqurlashib bormoqda.

Ittifoq davrida partiya va davlat jamiyatga hukmdorlik qilgan bo'lsa, mustaqillik davrida davlat jamiyatning siyosiy instituti sifatida faoliyat yurita boshladi. Endi o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyat institutlari sifatida faoliyat yurita boshladi. 10 mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining institutiga aylantirish islohotlari o'z nihoyasiga etdi. Mustaqillik arafasida 210 ta jamoat va nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritgan bo'lsa, ularning soni chorak asr davomida 8400 ga yetdi. Ittifoq davrida jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlar yakkahokim partiyaga qaram bo'lgan institutlar sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, ular endi jamiyat institutlari sifatida turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodachisi va himoyachisiga aylandi. Mamlakat «o'zbek modeli»ning «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati» strategik prinsipi asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish pallasiga kirdi. Bu jarayon yanada chuqurlashib bormoqda.

O'zbekistonda sotsial-iqtisodiy rivojlanish. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda bozor iqtisodiyotini shakllantirish islohotlari boshlandi. Davlat mulklari xususiylashtirildi. Mulkning turli shakllari va ular o'rtasidagi iqtisodiy raqobatchilikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar shakllandi. Mustaqillik davrida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash asosida ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi, xo'jalik faoliyatiga aralashuvlar chegaralandi, xo'jalik subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyati ortib bordi, bozor infratuzilmalari rivojlandi, tashqi iqtisodiy faoliyat tizimi qayta shakllandi va valyuta tizimi erkinligi kengayib borishi natijasida real raqobat muhiti shakllandi, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, mulkdorlar roli va huquqi mustahkamlandi, jumladan xorij investitsiyalari uchun kafolat va yengilliklar beradigan qulay va sog'lom investitsion iqlim va rag'batlantirish tizimi yaratildi.

Mustaqillikning dastlabki o'n yilligidagi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar samarasi o'laroq tarmoqlarda texnik qayta qurishlar va modernizatsiyalash, tabiiy va xom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foydalanish, eksportga yo'nalgan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish tizimlari shakllandi. Mamlakat iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy va institutsional o'zgarishlar, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, mavjud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy, texnik-texnologik salohiyat O'zbekistonning istiqbolda

iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qila boshladi. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi mamlakat iqtisodiyotiga deyarli salbiy ta'sir ko'rsata olmadi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida tub islohotlar amalga oshirilib, xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos bo'lgan zamonaviy shakllari joriy etildi. Ayniqsa, xususiy mulkchilik shaklidagi fermer xo'jaliklarining tashkil etilganligi soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik davrida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Mamlakatda kichik biznes sohasida yakka tadbirkorlik eng ko'p tarqalgan xo'jalik sifatida rivojlandi. 2003-yilga kelib mamlakatda yakka tadbirkorlarning soni 3,5 mln. dan ortib ketdi. Ular asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohalarida band bo'ldi. 2010-yilning 1-yanvar holatiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 8402,3 ming kishini, shu jumladan, yakka tadbirkorlar 6446,2 ming kishini, kichik korxonalar va mikrofirmalarda band bo'lganlar soni 1956,1 ming kishini tashkil etdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda ro'yxatga olingan kichik biznes korxonalarining soni atigi 16,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda) 200 mingtadan oshib ketdi. Bu 2000-yilga nisbatan 2 barobar ko'pdir. Mustaqillik davridagi islohotlar natijasi o'laroq yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan 2016-yilda 56,7 foizga etdi yoki 1,8 barobar oshdi³⁷⁴. Hozirgi davrda bu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri — xizmat ko'rsatish sohasi ham beqiyos darajada rivojlandi. Jumladan, 2015-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri keldi. 2015-yilga kelib xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yildagi 49 foizdan 54,5 foizga oshdi. Jami ish bilan band aholining yarmidan ko'prog'i shu sohada mehnat qilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o'rniga 2015-yilda 52 foizga o'sdi. Bu MDH mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori ekanligi bilan ajralib turibdi³⁷⁵.

³⁷⁴Ўзбекистон статистика қўмитасининг жорий архиви. Мамлакатни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш яқунлари.-Б.3.

³⁷⁵О'sha joyda.-В.3-4.

Jahondagi mamlakatlarda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamon davom etayotganiga qaramasdan mamlakatda keyingi o'n yillikda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Shuningdek, 2015-yilda ham yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiyoti qariyb 6 barobar, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar 12 barobardan ziyod oshdi. Oltin-valyuta zaxiralari barqaror sur'atlar bilan ko'payib bormoqda. 2000-2015-yillarda mehnat unumdorligi 2,3 marta oshdi. Shuningdek, mustaqillik davridagi keng miqyosli rivojlanish — mamlakatni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqish 4,4 marta o'sdi. Mamlakat jahonda iqtisodiyoti tezlik bilan rivojlanayotgan davlatlar ichida beshinchi o'ringa ko'tarildi.

Mustaqillik mamlakatning milliy manfaatlar asosida iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berdi. Qisqa 26 yil ichida mamlakat eski totalitar va mustabidlik tuzumidan voz kechib, bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantira oldi. Agrar-industrial mamlakat industrial mamlakatga aylana boshladi. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari natijasida iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarga xos sur'atlar bilan o'sa boshladi. Buning natijasida mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning iqtisodiy tayanchi vujudga keldi.

Mamlakatning chorak asr davomida naqadar shiddat bilan rivojlanganligini xalqimizning quyidagi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari ham isbotlab turibdi: Aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasida ham sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu yo'nalishdagi tovarlarning aksariyati mamlakatimizning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Xususan, har 100 oilaning 42 tasi yengil avtomobillarga ega bo'lib, bu besh yil avvalgi ko'rsatkichdan 1,5 barobar ko'p, 47 ta oila shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan va bu davrda o'sish 3,9 barobarni tashkil etdi. Shuningdek, har 100 ta oiladan 31 tasi konditsionerga ega yoki bu boradagi o'sish 1,7 barobarga teng, har 100 ta oilaga 234 ta mobil telefon to'g'ri kelmoqda yoki bu sohadagi o'sish 1,6 barobarni tashkil etmoqda.

Umuman, mustaqillikning o'tgan 26 yili ichida O'zbekiston xalqi davlatning bosh islohotchiligi asosida eski tuzumning mafkuraviy va mustabidlik asoratlariga barham berdi, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning quyidagi shart-sharoitlarini yaratdi:

- eng muhimi — inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy asoslari va amaliyoti shakllantirildi;

- eski yakkapartiyaviy totalitar davlat, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvga butunlay barham berilib, demokratik tamoyillar asosida boshqariladigan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat belgilari shakllandi. Milliy ijro hokimiyati — hukumat, tuman, shahar, viloyat hokimliklari tashkil etilib, ular huquqiy davlatga xos bo'lgan vakolatlar bilan ta'minlandi, hokimiyat organlarining bir-birlarini takrorlash va o'rinni bosish holatlariga barham berildi;

- jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi, shu asosda qonunlar qabul qiladigan butunlay yangi, demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritadigan qonunchilik hokimiyati shakllandi;

- jamiyatda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni amal qilishini ta'minlashga qodir bo'lgan sud hokimiyati vujudga keldi;

-jamiyatda fikrlar va qarashlar xilma-xilligini o'zida aks ettiradigan, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini parlament va mahalliy vakillik organlarida ifoda etadigan va himoya qiladigan ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi;

- partiya va davlatdan xoli bo'lgan fuqarolik jamiyatining institutlari — nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi;

- o'zini o'zi boshqarish organlari partiyadan va davlatdan ajratilib, fuqarolik jamiyatining instituti sifatida rivojlana boshladi;

- milliy qadriyatlar va milliy ma'naviyat mamlakat xalqining asosiy dunyoqarashiga aylanishi uchun barcha huquqiy asoslar yaratildi;

- qisqa davr ichida xalqning farovonligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoyalashning asosiy omili — bozor iqtisodiyoti shakllandi. U mamlakatning rivojlangan mamlakatlarga xos taraqqiyotini ta'minlab bera boshladi;

- mamlakatda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi — tadbirkorlar, ishbiarmonlar, fermerlar ijtimoiy qatlamlari shakllandi. Ular davlatning xususiy mulkni rivojlantirish va davlat mulkini xususiy lashtirish siyosatini amalga oshirish natijasi o'laroq mulkdorlar sinfi sifatida o'zini namoyon qila boshladi;

- iqtisodiy rivojlanish natijasida mamlakatning mudofaa va harbiy qudrati yuksaldi, mamlakat sarhadlarini himoyalashga qodir bo'lgan milliy armiya shakllandi;

- mamlakat qisqa vaqt ichida jahon iqtisodiy integratsiyasi va xalqaro siyosatining faol subyektiga aylandi. O'zbekistonning xavfsizlik va tinchlikni saqlashga doir tashabbuslari jahondagi yirik davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishi, ular asosida xalqaro siyosat yo'na-lishlarini ishlab chiqilishi an'anaga aylandi;

2016-yilning so‘nggi choragida Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat Prezidenti etib saylanishi muhim tarixiy voqelik sifatida namoyon bo‘ldi. Qisqa davr - o‘n oi ichida mamlakatda davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirishga doir qator huquqiy asoslar qabul qilindi. Ular ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotga jadallik bilan joriy etila boshlandi.

Hozirgi davrga kelib “mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida konyunktura o‘zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etayotganligini” e‘tiborga olgan holda, shuningdek “olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Unda besh yil ichida O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mujas-samlashgan bo‘lib, ularning birinchisi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha dasturiy vazifalarni o‘zida ifodalaydi.

Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan — “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” prinsipini ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar ham mujassamlashdi. Harakatlar strategiyasida belgilangan hokimiyatlarning uchga bo‘linishida parlamentning rolini oshirishga qaratilgan konseptual maqsadlarni amalga oshirish qonunlarni xalq manfaatlari va irodasini e‘tiborga olgan holda qabul qilinishiga, fuqarolarning davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi ishtiroklarini faollashuviga, bu organlar faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari xalq farovonligini oshirishga qaratilishiga zamin tayyorlaydi. Shuningdek, bu o‘zgarishlar jarayoni fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari sifatida namoyon bo‘ladi. Albatta, bu o‘zgarishlarni amalga oshirish, jamiyatni

yanada demokratlashtirish, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ko'proq xalq manfaatlarini ifodalab borish, o'z navbatida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlanishiga, mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada yuksalishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi muqarrardir.

Harakatlar strategiyasida **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman) to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, unda yangi tashkil etiladigan ombudsmanga quyidagi vakolatlarni berish nazarda tutildi: tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tekshirilayotganda ularni huquqiy qo‘llab-quvvatlash; tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining amalda ro‘yobga chiqarilayotganligini o‘rganish; qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishiga ta’siri samaradorligini baholash; davlat organlari, huquqni muhofaza va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

Biznes ombudsmanni tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakatdagi tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrda qabul qilingan **“Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi farmoni ijrosi ustidan parlament nazorati o‘tkazishdan iboratdir. Shuningdek, biznes-ombudsman har bir fuqarolik jamiyati uchun xos bo‘lgan huquq - mamlakat fuqarolarining iqtisodiy huquqlarini himoyalash va ta’minlashning asosiy instituti sifatida faoliyat yuritishi nazarda tutilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, biznes ombudsmanga beriladigan huquqlar va vakolatlarni mamlakat iqtisodiyotining asosi — tadbirkorlar va fermerlarning mehnat salohiyati, uddaburonligi, ishchanligi va g‘ayrat-shijoatini to‘liq ravishda ro‘yobga chiqara olishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. Mulkdorlar sinfini bu kabi huquqiy asoslar va institutlar vositasida himoyalash, ular huquq va erkinliklarini ta’minlashga doir alohida davlat siyosati uchun asos solinishi — bu mamlakatimizning

rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo'lgan huquqiy davlat sari intilayotganligini anglatadi. Chunki, mulkdorlar qatlami fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosi va ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

Shu bilan birga, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilinishi bilan mamlakatda parlament nazoratini amalga oshirishning hozirgi davrga – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan darajaga ko'tarish dolzarb vazifaga aylandi. Shuning uchun ham Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakiliga (Ombudsman) yuqorida qayd etilgan qonunlarda nazarda tutilgan qonunlar ijrosi, ularning shaffofligini ta'minlash jarayonlarini parlament nazorati ostiga olishi uchun qator vakolatlar beradi, fuqarolarning o'z qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishiga doir murojaatlarini adolatli va samarali tarzda hal etishga imkoniyatlar yaratadi. Parlamentning inson huquq va erkinliklarini himoyalash va ta'minlashga doir faoliyatini olib boradigan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsman) huquqi xalqaro me'yorlar talablari darajasiga ko'tariladi va uning mustaqil institut sifatida faoliyat yuritishi kafolatlanadi.

Harakatlar strategiyasida siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishlariga oid huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan "**Siyosiy partiyalar to'g'risida**"gi **O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida**"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi³⁷⁶. Mazkur qonun loyihasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha huquqiy asoslar mujassamlashadi: partiya guruhlarini tomonidan mahalliy xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini ko'rib chiqish; mahalliy ijroiya hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining hisobotlarini eshitish haqidagi takliflarni kiritish; tuman (shahar) hokimi nomzodini viloyat hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish; xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlariga viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga tegishliligi bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining, shuningdek mahalliy ijroiya

³⁷⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,2017-y.,6-son,70-modda.

hokimiyati organlari rahbarlarining qoniqarsiz faoliyati haqida xulosalarni taqdim etish huquqini berish; Qonunchilik palatasi deputatlariga mintaqalardagi saylov okruglaridagi elektoratning vakillari sifatida tegishli siyosiy partiya hududiy bo'limlarining vakillarini birlashtirib qo'yish.

Harakatlar strategiyasidagi bu vazifalar mamlakatda "saylovchilar (fuqarolar) — siyosiy partiyalar — parlamentdagi siyosiy partiya fraksiyalari (mahalliy vakillik organlaridagi partiya guruhleri) — qonunlar, me'yoriy hujjatlar, davlat organlari qarorlari" sxemasi asosida fuqarolarning manfaatleri va irodalarini davlat hokimiyati, jumladan, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida ifodalash, ularni qonunlar va hokimiyat organlari qarorlarida aks etishi kabi demokratik jarayonlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, mahalliy vakillik va ijroiya organlari xalq manfaatleri asosida faoliyat yuritadigan organ sifatida namoyon bo'ladi.

Harakatlar strategiyasi asosida partiya guruhlariga yangi huquqlar va vakolatlar berilishi quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishi nazarda tutilmoqda: mahalliy vakillik organlarini faoliyatini yanada kuchaytirish; bu borada siyosiy partiyalar vositasida mahalliy deputatlarning jamiyatdagi rolini oshirishga shart-sharoitlar yaratish; mahalliy vakillik organlarida shakllangan partiya guruhleri ishini faollashtirish; ularning tashkiliy jihatdan ta'sirchan kuchga aylanishini ta'minlash; hududdagi muammolarni ko'tarib chiqish, ularni yechimlarini topishga doir faoliyatini jonlashtirish. Ayniqsa, siyosiy partiyalar o'rtasidagi o'zaro raqobatchilik markazini partiya guruhleri o'rtasida ro'y berishga muhim ahamiyat berish, turli hil dasturiy va g'oyaviy maqsadlar o'rtasidagi munozaralar va bahslar aholining plyuralistik mafkuraviy qarashlarini o'sishini ta'minlaydi, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan ko'ppartiyaviylik va mafkuraviy qarashlarning xilma-xilligi, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni kelishtirish, aholini umumiy maqsadlar yo'li sari safarbarligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratadi.

Mahalliy vakillik organlaridagi partiyaviy guruhlarining o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirib turadigan, bu munosabatlarni mahalliy hududlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga shart-sharoitlar yaratib beradigan me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish fuqarolarning o'z manfaatlarini mahalliy vakillik organlari vositasida ifodalash va himoyalashga doir tasavvurlari va qarashlarini boyitadi, ularni ijtimoiy faolliklarini oshiradi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan hokimiyatlarning uchga bo'linishida parlamentning rolini oshirishga qaratilgan konseptual maqsadlarni amalga oshirish qonunlarni xalq manfaatlari va irodasini e'tiborga olgan holda qabul qilinishiga, fuqarolarning davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi ishtiroklarini faollashuviga, bu organlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlari xalq farovonligini oshirishga qaratilishiga zamin tayyorlaydi. Shuningdek, bu o'zgarishlar jarayoni fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari sifatida namoyon bo'ladi. Albatta, bu o'zgarishlarni amalga oshirish, jamiyatni yanada demokratlashtirish, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ko'proq xalq manfaatlarini ifodalab borish, o'z navbatida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlanishiga, mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada yuksalishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi muqarrardir.

Umuman, mustaqillikning o'tgan 26 yili ichida mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy shart-sharoitlar yaratildi. Ular zamirida mustaqillik bergan ne'matlar — davlatning suverenligi, jamiyat va uning a'zolarining erkinligi, inson huquqlarini himoya qilish tizimining yaratilganligi, demokratik qadriyatlarning rivojlanishi, milliy meros va qadriyatlarning tiklanishi, mamlakatning jahon iqtisodiy integratsiyasidan o'ziga munosib o'rinni egallashi kabi erishilgan yutuqlar yotibdi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.«Sotsial taraqqiyot va rivojlanish» deganda nimani tushunasiz?
- 2.Evolyutsiya va inqilob sotsial rivojlanishda qanday o'rin tutadi?
- 3.Rivojlanishning islohotlar turi qanday xususiyatlarga ega?
- 4.Modernizatsiyani zamonaviy sotsial rivojlanish sifatida qanday ta'riflay olasiz?
- 5.O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratiyalashtirish sotsial taraqqiyotga qanday ta'sir etmoqda?
6. «Sotsial menejment sotsial rivojlanishda qanday ahamiyat kasb etadi?
7. Sotsial menejment sotsial rivojlanishda qanday ahamiyat kasb etadi?
- 8.Globalizm deganda nimani tushunasiz?
- 9.Globallashuv qanday sotsial-iqtisodiy oqibatlarga olib kelmoqda?
- 10.O'zbekistonning jahon moliya-iqtisodiy inqirozi sharoitidagi rivojlanishi qanday kechmoqda?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016//Xalq so'zi,2016,6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son,70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.20.04.2017//http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild.-T.:O'zbekiston,1996-2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi.2016-y.,9-sentyabr//<http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir.//XXI asr,2016,20-oktyabr.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017.-T.:O'zbekiston,2017.
9. Будон Р. Место беспорядка. Критика теорий социального изменения.-М.,1998.
10. Wallerstein I. The Modern World-System. Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century.-New York,1974,pp.18,15
11. Доклад о человеческом развитии 2015.Труд во имя человеческого развития.-М.:ПРООН,2016.
12. Дюркгейм Э.О разделении общественного труда.Метод социологии. Пер.с фр.и послесловие А.Б.Гофмана.-М.: Наука,1990.
13. Зарецкий А.Д. Менеджмент социальной работы.Изд. 2-е,доп. и перераб.-Ростов н/Д:Феникс,2008.
14. Зиммель Г. Проблемы социологии //Избранное.Т.2.//Созерцание жизни.-М.:Юрист,1996.
15. Лапкин В.В. В поисках России политической.//Полис.1998.№ 6.
16. Лисовский В.С. Динамика социальных изменений//Социс.1998. № 5.
17. Платон. Государство:Собр.соч.:В 4-х т.-Т.3.-М.,1994.

18. Пути модернизации: траектории, развилки и тупики: Сборник статей // под ред. В. Гельмана и О. Маргания. - СПб.: Издательство Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2010.

19. Rostow W. Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto, - Cambridge, 1960; Idem.: Politics and the Stages of Growth. - Cambridge, 1971.

20. Растоу Д. А. Переходы к демократии: попытка динамической модели. // Полис. 1996. № 5.

21. Смелзер Н. Социология: пер. с англ. - М.: Феникс, 1994.

22. Социальная борьба. Социальный прогресс и регресс // <http://ehy.by/content/sotsialnaya-borba-sotsialnyi-progress-i-regress? page=0,4>.

23. Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г. В. Осипов, Л. Н. Москвичев. - М.: Норма, 2003.

24. Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей / Под ред. В. А. Михайлова. - Ульяновск: УлГТУ, 2004.

25. Троян В. О сущности ТНК на этапе глобализма. 15.01.2016 // <http://russmir.info/namp/6996-o-suschnosti-tnk-na-etape-globalizma.html>.

26. Управление - это наука и искусство: А. Файоль, Г. Эмерсон, Ф. Тэйлор, Г. Форд. - М.: Республика, 1992.

27. Франчук В. И. Основы общей теории социального управления. / Ин-т организационных систем. - М., 2000.

28. Хантингтон С. Третья волна. Демократизация в конце XX века / Пер. с англ. - М., 2003.

11-mavzu. EMPIRIK SOTSIOLOGIK TADQIQOT VA UNING METODLARI

11.1.Sotsiologik tadqiqot dasturi.

11.2.Kuzatish metodi va uning mohiyati.

11.3.Sotsiologik so‘rovlar metodlari.

11.4.Hujjatlarni sotsiologik tahlil etish metodi.

11.5.Eksperiment metodi va uning turlari.

Tayanch tushunchalar: metodologiya, metod, tadqiqot obyekti, tadqiqot subyekti, gipoteza (faraz), respondent, tadqiqot dasturi, strategik reja, so‘rov metodi, so‘rov anketasi, intervyu, kuzatuv metodi, hujjatlarni tahlil etish metodi, kontent-tahlil, tahlil kategoriyasi, eksperiment metodi, eksperimental vaziyat, eksperimental guruh, eksperiment nazorat guruhi,

11.1. Sotsiologik tadqiqot dasturi


Sotsiologik tadqiqot metodologiyasi va metodikasi. Sotsiologik tadqiqotlar sotsial hodisalar va jarayonlarning haqiqiy holati to‘g‘risida axborotlar olish zarur bo‘lganida o‘tkaziladi. Bu kabi hodisa va jarayonlarning eng asosiylari quyidagilardir: loyihalar va boshqaruv qarorlarini asoslash; sotsial vaziyatlar prognozini shakllantirish; mavjud ziddiyatlar yoki paydo bo‘lgan muammolar yechimlarini topish, ularga doir tavsiyalar va takliflar berish.

Aniq sotsiologik tadqiqotlar sotsiologik tafakkurlashning muhim tarkibiy qismidir. Aniq sotsiologik tadqiqotlar — bu mavjud nazariy va sotsial muammolar yechimlarini topish uchun tadqiq etilayotgan obyektga yangi bilimlarni (axborot va ma‘lumotlarni) olish imkoniyatini beradigan barcha nazariy va empirik (amaliy, tajribaviy) faoliyatni amalga oshirish qoidalari tizimidir. Sotsiologik tadqiqotga tayyorgarlik ko‘rish — sermashaqqat jarayondir. Tadqiqotni dastlab nazariy tayyorgarlikdan boshlash lozim. Buning uchun sotsiologik tadqiqot jarayonida ishlatiladigan tushuncha va iboralarning mohiyati va mazmunini anglab yetish talab etiladi.

Metodologiya — bilishning umumiy falsafiy yondashuvidir. Sotsiologik tadqiqotlarning *metodi* — bu ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil etish, ya‘ni axborotlar olishning asosiy usullari va yo‘l-yo‘riqlaridir, yoki tadqiqotni kuzatish, hujjatlarni yoki so‘rovlarni tahlil etish kabilar yordamida tadqiq qilish demakdir. *Texnika* — u yoki bu metoddan

samarali foydalanish uchun maxsus yuqori malakalar orttirish natijasida paydo bo'ladigan yo'l-yo'riqlar yig'indisidir. Masalan, savollarni qanday berish texnikasi — qanday shaklda savollar berish lozim? (ochiq, yopiq, yarim ochiq, ko'rgazmali va boshq. shakllarda), javoblarni qanday qayd etish kerak? (qanday shkalalardan (ko'rsatkichlardan) foydalanish lozim: nominal (nomma-nom tarzda), tartibini ko'rsatgan holda, munosabatlar tarzida), anketani (so'rovnomani) tarqatishni qanday tashkil etish lozim? (respondentlar³⁷⁷ bilan ularning ish joylarida to'g'ridan-to'g'ri ravishda yoki boshqa biror joyda so'rovlar o'tkazish), kuzatish ko'rsatkichlarini qanday qilib to'g'ri va ishonchli tarzda tanlash mumkin?

Metodika — qandaydir faoliyat yoki ishni izchillik va o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishning metodlari va texnik yo'l-yo'riqlari yig'indisidir. *Protsedura*³⁷⁸ — bu biron-bir ishni izchillik bilan bajarish, tadqiqotni tashkil etish xatti-harakatlari va yo'llarining umumiy tizimidir.



11.1-rasm. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bosqichlari

³⁷⁷ Respondent - [ingl.respondent<lot.respondens - javob beruvchi] — sotsiologik, demografik yoki psixologik tadqiqotlar anketasiga javob beruvchi shaxs, sinaluvchi.

³⁷⁸ Protsedura - [lot. procedere oldinga yurmoq, siljimoq] - qandaydir ishni olib borish yoki muhokama qilishda o'rnatilgan rasmiy tartib.

Har qanday sotsiologik tadqiqot uning dasturini ishlab chiqishdan boshlanadi. Sotsiologik tadqiqotning mukammal ishlab chiqilgan dasturi uni yuqori darajada va sifatli bo'lishini ta'minlaydi. *Dastur* — bu tadqiqot loyihasi, maqsadlari, vazifalari va rejasidir. Tadqiqot dasturi — tadqiqotning nazariy-metodologik asosi (umumiy konsepsiyasi) va farazi. shuningdek, ularni tekshirish tartib-qoidalari ifodalangan ilmiy hujjatdir. Sotsiologik tadqiqotlarning ikki turi mavjud: *nazariy-amaliy* tadqiqotlar sotsial muammolar yechimlarini topishning yangi nazariy yondashuvlarini ishlab chiqishga olib keladi; *amaliy* sotsiologik tadqiqotlar ochiq namoyon bo'lib turgan sotsial muammolarning amaliy jihatlardan hal etishga qaratiladi. Bu tadqiqotlar natijasi o'laroq amaliyotga joriy etish uchun sotsial loyiha va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi. Ko'pincha bu tadqiqotlar sotsial-muhandislik tadqiqotlari ham deyiladi.

Dasturning strukturasi va tadqiqot metodologik asoslarining tavsifi. Sotsial tadqiqotlar dasturi ikkita bo'limdan iborat: metodologik va tadqiqotni amalga oshirish tartibi.

Metodologik bo'lim quyidagi unsurlardan iborat:

1. Mavzuni shakllantirish, maqsadlarni aniqlash, tadqiqot vazifalarini qo'yish.

2. Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash;

3. Asosiy tushunchalarni oydinlashtirish va sharhlash.

4. Ishchi farazni ilgari surish.

Tadqiqotni amalga oshirish tartibi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Tadqiqotning prinsipial (strategik) rejasini.

2. Kuzatuv birliklarini tanlash tizimini asoslash.

3. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish ishlari hamda asosiy chora-tadbirlarning xomaki rejasini tayyorlash.

Dastur ish bosqichlari, tadqiqotni o'tkazish muddatlari, moddiy xarajatlar kabilarni aniqlashtiradigan ishchi reja bilan to'ldiriladi.

Tadqiqotning mavzusi, maqsad va vazifalari. Har qanday tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi mavzudan boshlanadi. Tadqiqot uchun bitta yoki ikkita mavzu shakllantiriladi. *Muammoli vaziyat* — obyektning hozirgi holati bilan rivojlanish ehtiyojlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ifodasidir. Boshqacha aytganda, muammoli vaziyat — bu kishilarning qandaydir natijali amaliy va nazariy xatti-harakatlariga nisbatan ehtiyojlari to'g'risidagi bilimlari bilan ular hali bilmaydigan usullar, vositalar, yo'l-yo'riqlar va ularni amalga oshirishlari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardir. Muammoli vaziyatlarni hayotiy ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Sotsial muammolar bilan ilmiy bilishga oid muammolarni bir-biridan farqlash lozim. *Sotsial muammo* —

bu sotsial, hayotiy ziddiyatli, uni tugatish uchun maqsadga muvofiq ravishdagi xatti-harakatlarni uyushtirish talab etiladigan muammodir. *Ilmiy muammo* — bu «bilmaslik haqida bilish» holatidir. Ilmiy muammo deganda jamiyatning yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyojlari va ularga doir va mos bo‘lgan nazariyalarning yetishmasligi o‘rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi tushuniladi. Masalan, jamiyat yangi ta‘lim konsepsiyasiga muhtojlik sezmoqda. Ba‘zi sotsial muammolarning yechimini topish bir vaqtning o‘zida ham nazariy, ham amaliy harakat qilishni talab etadi. Shuning uchun, odatda, sotsiologik tadqiqotlar majmuaviy ravishda olib boriladi.

Dasturda tadqiqot maqsadlari va vazifalari asoslanadi. Aniq sotsiologik tadqiqotning *maqsadi* — bu oxirgi natijani olishga qaratilgan tadqiqotning umumiy yo‘nalganligi. xatti-harakatlari loyahasidir. O‘z maqsadlaridan kelib chiqib sotsiologik tadqiqot *nazariy-tushunishga oid* va *amaliy* bo‘lishi mumkin. Aniq sotsiologik tadqiqot dasturining muhim metodologik qismi tadqiqot vazifasini aniqlash hisoblanadi. Maqsadlar va vazifalar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Aniq sotsiologik tadqiqotning vazifasi — bu muammolarni tahlil etish va ularning yechimlarini topishga qaratilgan aniq maqsadli ko‘rsatmalar yig‘indisidir. Vazifalar tadqiqot maqsadlariga erishishga oid javoblar oladigan savollarni shakllantiradi. Tadqiqotning oxirgi maqsadini uning umumiy vazifalari deb atash mumkin. Vazifalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

a) sotsial hodisalarga tashxis qo‘yish (mehnat jamoasidagi ixtiloflar sabablari);

b) sotsial jarayonlarni (optimallashtirish) sozlash (jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalariga moslashtirish);

v) bashorat (prognoz) qilish (keyingi yillarda tug‘ilishni kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni qo‘llash lozim?);

Tadqiqotning dasturiy maqsadlari va vazifalari tadqiqot jarayonidagi intizomni ta‘minlaydi va uning samarasini oshiradi.

Tadqiqotning obyekt va predmeti. Sotsiolog muammoni aniqlab, tadqiqot maqsadi va vazifalarini shakllantirib bo‘lganidan keyin obyektga doir ma‘lumotlarni yig‘ishi lozim. *Obyekt* — bu bilish yoki o‘rganish jarayonining maqsadi yo‘naltirilgan, ochiq yoki yashirin tarzda sotsial ziddiyatlarni saqlab turgan va muammoli vaziyatlarni tug‘diruvchi holatlardir. Tadqiqot obyekt ixtiloflar va ziddiyatlarni o‘zida saqlab turgan sotsial jarayon, sotsial voqelik sohasi, qandaydir sotsial munosabatlar, odamlar faoliyati va odamlarning o‘zi bo‘lishi mumkin. Obyekt quyidagi tavsifga ega bo‘lishi lozim: professional mansublik (ishchilar, muhandislar, etnoslar va boshq.) sifatidagi o‘lchamlar bo‘yicha aniq belgilarga ega bo‘lgan hodisalar;

makonlari cheklangan joylar (mintaqa, shahar, qishloq va boshq.); funksional yoʻnalganlik belgilariga ega boʻlgan sohalar (ishlab chiqarish) korxonalar, siyosiy partiya, maishiy hayot, xizmat koʻrsatish va koʻngil ochar). Shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot obyektlarini tanlashdan tashqari sotsiologik tadqiqot predmetini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. *Sotsiologik tadqiqot predmeti* deganda, bevosita oʻrganishga mansub boʻlgan obyektlar yoki muammolarning xususiyatlari, muhim jihatlari va tomonlari tushuniladi. Odatda sotsiologik tadqiqot predmeti oʻzida muammolarning markaziy masalalarini saqlaydi³⁷⁹. Masalan, tadqiqot obyekti sifatida oʻsmirlar va talabalarni olaylik. Bunda tadqiqot predmeti sifatida ularning qadriyatli yoʻnalganlik jihatlari va ularning oʻzgarish jarayonlari namoyon boʻlishi mumkin. Masalan, oliy taʼlim samaradorligini oʻrganishning predmetlari quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

-eng isteʼdodli yoshlarni talabalikka olish uchun qabul qilishni qanday tashkil etish lozim?

-har bir talabani shaxsiy kompyuter bilan taʼminlash uchun mablagʻni qayerdan olish mumkin?

-taʼlim samarasini oshirish uchun professor-oʻqituvchilar malakalarini qanday va qayerda oshirish mumkin?

Asosiy tushunchalarni aniqlashtirish va sharhlash. Sotsiologik tadqiqot oʻtkazishda zaruriy tushunchalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda eng muhimi asosiy tushunchalarni sharhlash hisoblanadi. Asosiy tushuncha koʻpincha oʻzida boshqa, yaʼni, ayrim tushunchalarni oʻz ichiga olishi mumkin. Ular aniq ifodalanib turadi, lekin, ular umumlashtirishning pastroq darajasida turadi. Asosiy tushunchalarni sharhlash ularni tashkil etuvchi unsurlarni bir-birlaridan ajratishni, yaʼni ularning ichida koʻproq zarur boʻladiganlariga muhimroq ahamiyat berish taqozo etiladi. Masalan, «sotsial faollik» umumiyroq tushuncha hisoblanadi. U oʻz ichiga «ijtimoiy-siyosiy faollik», «mehnat faolligi», «bilish faolligi» kabi tushunchalarni oladi.

Amaliy sotsiologiya empirik sharhlash, yaʼni tushunchalarning *empirik ahamiyatni izlash va ishga solish uchun saralash* (operatsional) kabi sharhlashlarni bir-biridan farqlaydi. Saralash va ishga solish — bu bir xil maʼnoli iboralarga, shuningdek asosiy tushunchalarni sharhlashni unsurlarga nisbatan ham yana davom ettirish va yanada aniqroq tafsilotlar olishga erishish demakdir. Bu jarayonda ancha soddalashtirilgan holda olinadigan

³⁷⁹Ковалевская Е.В.Социология: учебное пособие,практикум по дисциплине/Московский государственный университет экономики,статистики и информатики.-М.:МЭСИ,2004.-С.18-20.

tushunchalar *operatsional* (ishga solish uchun saralangan) tushunchalar deb ataladi. Bunda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

1) sharhlash yo‘li bilan tadqiqot predmetining barcha asosiy tomonlarini aniqlashtirib olish vositasida shunday tushunchalarni shakllantirish kerakki, ular tadqiqot predmetining aniq va to‘liq mohiyatini ifodalab bera olsin;

2) keyinchalik asosiy tushunchalarga aylanishi mumkin bo‘lgan operatsional tushunchalarning yig‘indisini aniqlash lozim.

Bu shuning uchun ham zarurki, umumiy nazariy tushunchalarni so‘rovnomalalar (anketalar) yoki boshqa tadqiqot hujjatlariga kiritish maqsadga muvofiq kelmaydi. Nazariyalarda falsafa va iqtisodiyotning murakkab tushunchalaridan foydalaniladi. Sotsiologik tadqiqot jarayonida so‘rovnomalarga javob berayotgan shaxslar bu nazariy tushunchalarni har xil ma‘nolarda tushunishlari tufayli natijalar ko‘proq taxminiy ahamiyat kasb etishi mumkin. So‘rovnomalarni tuzishda savollarning turli ma‘nolar berish ehtimolidan qochish uchun oddiy iboralardan foydalanish ma‘qulroqdir. Masalan, ishchilarning mehnatga munosabati tadqiq qilinmoqda. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri «Sizning fikringizcha, o‘zingizni yuqori mehnat unumdorligiga erishgan ishchi, deb hisoblaysizmi?» degan savolni berib bo‘lmaydi. Bu savolga ishonchli javob olish mumkin emas. Chunki, turli ishchilar o‘rtasida «yuqori» tushunchasi 21 xil ma‘noni berishi mumkin ekanligi aniqlangan. «Siz kunduzi me‘yordagi ishni bajaryapsizmi?» yoki «Siz bir soatda qancha mahsulot ishlab chiqarasiz?» degan savollarning ma‘nolari bir xilligi uchun ularga aniq va ishonchli javoblar olish mumkin. Sotsiolog asosiy tushunchalarni empirik sharhlash natijasida dastlabki ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishning aniq metodikalarini ishlab chiqish vazifasini shakllantiradi.

Ishchi farazlarni (gipotezalarni) ilgari surish. Tadqiqot dasturini ishlab chiqishning asosiy jihatlaridan biri — bu uning farazini shakllantirishdir. Farazlar yangi bilimlarni hosil qiladi. Sotsiologik tadqiqotdagi *farazlar* — bu sotsial hodisalar strukturasi doir mo‘ljallanayotgan obyektlarga oid, shuningdek o‘rganilayotgan sotsial hodisalar va sotsial muammolarni hal etishning imkoniyatdagi yondashuvlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar xususiyatlari to‘g‘risidagi xomaki mo‘ljallarni asoslashdir. Agar kuzatuvlar ma‘lumotlarini tushunish uchun bilimlar kamlik qilgan taqdirda yangi mo‘ljallar sifatida farazlar paydo bo‘ladi.

Sotsiologik farazlarni tuzish bosqichlari. *Birinchi bosqich* — tadqiq etiladigan mavzu bo‘yicha axborotlar yig‘ishdan iborat bo‘ladi. Mavzuga doir mavjud adabiyotlar va boshqa axborot manbalar o‘rganiladi. Bunda

hisobotlar, statistik ma'lumotlar, ekspertlardan olingan axborotlar, ilgari orttirilgan tajriba asosida tahlil etiladi. *Ikkinchi bosqich* — yig'ilgan va tanqidiy ravishda o'rganilgan axborotlar asosida ishchi farazlarni shaxsiy ravishda shakllantirish demakdir. Bu eng qiyin jarayon hisoblanadi. Masalan, korxonadagi kadrlar qo'nimsizligi muammosini o'rganish mumkin, lekin yoshlarning qadriyatli mo'ljallari muammolarini o'rganish sermashaqqat ish hisoblanadi. *Uchinchi bosqich* — farazlarni guruhlantirish. Bunda asosiy va asosiy bo'lmagan farazlarni bir-biridan ajratish, ularni muayyan tizimga solish ishlari bajariladi.

Farazlarni tasniflash. Farazlarni turli belgilarga qarab tasniflash mumkin. Mo'ljallarni birlikka erishish darajasi bo'yicha *faraz-asoslash* va *faraz-natija* kabi tasniflash tushunchalari mavjud. Ular mantiqan bir-birlariga bog'liqdir. Faraz-asoslashga misol: aholini qashshoqlashuvi sababchisi iqtisodiyotdagi inqiroz deylik. Faraz-natijaga binoan oilalarning qashshoqlashuvi tug'ilish darajasining pasayib ketishiga olib keladi. *Tadqiqotning vazifalari nuqtai nazaridan* farazlar asosiy va asosiy bo'lmagan farazlarga bo'linadi. Farazlarning asosiy yoki asosiy emasligi tadqiqot vazifalari bilan belgilanadi. Farazlarni ilgari surishda asosiy e'tibor markaziy masalaga taalluqli mo'ljallarga qaratiladi. Farazlar *ishlab chiqilganlik* va *asoslanganlik* darajalari bo'yicha *birlamchi* va *ikkilamchi* farazlarga bo'linadi. Birlamchi faraz empirik ma'lumotlar tomonidan rad etilsa, uning o'rniga ikkilamchi faraz ilgari suriladi. Sotsiologiyada empirik tadqiqot-gacha ishlab chiqilgan farazlar *ishchi* yoki *tadqiqot farazlari* deyiladi.

Nisbatan o'rganilayotgan obyektning *mo'ljallari mazmuniga* binoan farazlar tavsiflovchi, tushuntiruvchi va prognoz farazlariga bo'linadi. *Tavsiflovchi* farazlar — bu obyektlarning (tasniflashtirilgan) jiddiy xususiyatlari to'g'risida va o'rganiladigan obyektning alohida (strukturaviy) unsurlari o'zaro aloqalari belgilari to'g'risidagi mo'ljallardir. *Tushuntiruvchi* farazlar o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlardagi sabab-oqibatli bog'liqliklarga doir mo'ljallarga taalluqlidir. Bu tajribaviy tekshirishlar talab qiladigan ancha ahamiyatli farazlardir. *Prognoz* farazlari — olingan obyektning rivojlanish tamoyillari va qonuniyatlarini ochib beradi.

Farazlarni shakllantirish talablari. Ular asosan quyidagilardan iborat:

- 1) Faraz empirik sharhlanmagan tushunchalar ma'nosini bermasligi lozim, aks holda uni tekshirishga zarurat qolmaydi;
- 2) Faraz imkoni boricha oddiy bo'lishi, ortiqcha taxmin va chegaralashsiz umumiy asoslarda shakllantirilishi lozim;
- 3) Faraz tadqiq etiladigan muammolar doirasidagi mazmunga ega bo'lishi lozim;

4) Faraz empirik jihatdan tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. Aks holda u faqat subyektiv fikrni ifodalaydigan mo'ljal va mulohazadan iborat bo'lib qolishi mumkin;

5) Farazni mantiqiy tahlil etish uning ichki ziddiyatli emasligini isbotlashi lozim.

Tadqiqotning asosiy (strategik) rejasi. Sotsiologik tadqiqotning muvafaqqiyati nafaqat dasturning metodologik qismini ishlab chiqish, balki strategik reja va uni joriy etishga ham uzviy ravishda bog'liqdir. Strategik rejaning uchta turi mavjud: 1) qidirish (ta'riflashtirish, izlashga oid); 2) tahliliy (tavsifiy); 3) tajribaviy. Qidirish rejasi tadqiqot obyekti va predmeti to'g'risida ravshan tasavvurlar yetishmagan holatlarda, sotsiolog hech qanday farazni ilgari sura olmagan paytlarda qo'llaniladi. Bu holatda rejaning maqsadi — muammolarni aniqlash va farazni shakllantirishdan iborat bo'ladi. *Qidiruv rejasi* tadqiqotni uch bosqichda o'tkazishni taqozo etadi. Tahliliy (tavsifiy) rejadani tadqiq etiladigan muammolarga oid bilimlarning tadqiqot obyekti ajratib olish hamda tavsifiy farazni shakllantirish (ya'ni, o'rganiladigan obyektning tasniflash tavsiflari va strukturaviy-funksional aloqalarga doir faraz) imkonini bergan paytda foydalaniladi. Rejaning maqsadi — tavsiflovchi farazni tekshirishdir³⁸⁰.

Tajribaviy reja mavjud bilimlar tadqiqot obyekti shakllantirishga imkoniyat yaratgan holatlarda qo'llaniladi. Bunda rejaning maqsadi — obyektida sabab-oqibatli aloqalarni o'rnatishdan iboratdir. Tadqiqotning ishchi rejasi sotsiologik tadqiqot o'tkazish dasturi bilan bir vaqtda tuziladi. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish dasturi asosiy hujjat vazifasini bajaradi.

11.2. Kuzatish metodi va uning mohiyati

Sotsiologik tadqiqotlar olib borishda empirik ma'lumotlar yig'ishning uchta asosiy metodi mavjud: to'g'ridan-to'g'ri kuzatish, hujjatlarni tahlil etish va so'rovlar. Ularni qo'llash texnikasi shu qadar turli-tumanki, murakkab o'zgarishlar natijasida ularning ba'zilar — jumladan, intervyu va anketa so'rovi mustaqil metodlar sifatida rivojlanadi. Tadqiqotlarda qanday metodlardan foydalanilmasin, ularning hammasi uchun yagona bo'lgan umumiy qoidalar mavjuddir. Zarur bo'lgan holatlarda muayyan metodning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yana qo'shimcha sharhlarga qaytamiz.

³⁸⁰Ковалевская Е.В. Социология: учебное пособие, практикум по дисциплине/Московский государственный университет экономики, статистики и информатики. -М.: МЭСИ, 2004. -С.23.

Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish majmuasida eksperimental metodlari va psixologik testlar alohida mavqega egadir. U yoki bu metodlar bir vaqtning o'zida dalillarni ro'yhatga olish va ularni qayta ishlab chiqishning mustahkam ravishda belgilab qo'yilgan yo'llariga amal qilishni taqozo etadi. Psixologik va sotsial-psixologik testlar turli fanlardan olingan bilimlarni bir-birlariga qo'shish asnosida amalga oshiriladi. Eksperimental metod tahlil usuli vositasila olib boriladi. Chunki, bunda sotsiolog turli hodisalarning aloqalari va o'zaro bog'liqliklarini o'rganish mantig'idan kelib chiqib kuzatuv, so'rov yoki hujjatlar bilan ishlash metodlaridan foydalanadi.

Kuzatuv. Sotsiologiyada *kuzatuv* deganda, hodisaga guvoh bo'lgan odam tomonidan uni to'g'ridan-to'g'ri qayd qilishi tushuniladi. Keng ma'noda har qanday ilmiy bilimlar kuzatish — tirik borliqni bevosita idrok etishdan boshlanadi. Ba'zan hodisalarni o'zimiz kuzatamiz, ba'zi hollarda boshqalarning kuzatuidan foydalanamiz.

Kunda kuzatib va ko'rib yurgan holatlardan ilmiy kuzatuv quyidagilar bilan farq qiladi: 1) aniq shakllantirilgan vazifalar va aniq tadqiqot maqsadlariga bo'ysundirilganligi; 2) kuzatuv oldindan amalga oshirish niyat qilingan ishlarni rejalashtirish asosida olib borilishi; 3) kuzatuvdan olingan barcha ma'lumotlar muayyan tizim bo'yicha bayonnomlarda yoki kundalik daftarlarda (yoki kompyuter xotiralarida) qayd etilishi; 4) kuzatuv yo'li bilan olingan axborotlarning asoslanganlik va o'zgarmaslik sifatlariga ega ekanligini nazorat qilish mumkin bo'lishi.

Kuzatuvni tasniflashni amalga oshirish turli asoslarga qarab amalga oshiriladi. U rasmiylashtirish darajasi bo'yicha *nazorat qilib bo'lmaydigan* (yoki nostandart, strukturasisiz) va *nazorat qilish mumkin bo'lgan* (standartlashgan, strukturali) kuzatuvlarga bo'linadi. Birinchisida tadqiqotchi umumiy asosiy rejaga, ikkinchisida hodisalar barcha tafsilotlari bilan ishlab chiqilgan ish jarayoniga muvofiq holda qayd etadi.

Kuzatuvchining holatidan kelib chiqib kuzatuvlar *hamishtirokchilar* bilan (yoki *keyinchalik qo'shilgan*) kuzatuv va oddiy kuzatuvga bo'linadi. Birinchisida tadqiqotchi sotsial muhitga kirishni taqlid sifatida amalga oshiradi, unga moslashadi va hodisalarni go'yoki «ichdan turib» tahlil etadi. Oddiy kuzatuvda tadqiqotchi hodisalarni «chetdan turib» kuzatish asosida qayd etadi. Har ikki holatda ham kuzatuv ochiq va yashirin holatlarda (kuzatuvchi ko'zga ko'rinmay ishlaydi) amalga oshiriladi. *Qo'shilgan kuzatuvning* yana bir takomillashgan turi — *rag'batlantiruvchi kuzatuv* bo'lib, u ish jarayonida tadqiqotchining nazorat qilishi qiyinroq bo'lgan obyektning holatini chuqurroq o'rganish uchun o'ziga tajribaviy

shart-sharoit yaratib olishini anglatadi. Uyushtirish shart-sharoitlariga binoan kuzatuv *dala* (tabiiy sharoitlarda kuzatish) va *laboratoriyaviy* (eksperimental vaziyatlarda) kuzatuvlariga bo'linadi.

Kuzatuv obyektlari. Kuzatuv tadqiqot dasturi va farazi kabilardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Rasmiy reja asosida kuzatuv olib borishdan tadqiqot olib borishga asoslangan farazlar shakllantirilmagan holatlarda oddiy yoki strukturasisiz kuzatuvlar jarayonidan foydalaniladi. Bu kabi kuzatuv mo'ljallarini faqat umumiy ko'rinishda belgilashi mumkin:

1) quyidagi unsurlarni o'z ichiga olgan sotsial vaziyatning umumiy tavsifi sifatida: faoliyatlar sohalari (ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, ularning xususiyatlarini aniqlashtirish va hokazo); butun bir obyektning holatini muvofiqlashtiruvchi qoidalar va me'yorlar (rasmiy, umum qabul qilingan, lekin yo'riqnoma va farmoyishlarda mustahkamlanmagan), kuzatuv obyektining o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi darajasi (uning holati tashqi omillar va ichki sabablar bilan bog'liq bo'lgan o'lchovlarda aniqlanadi);

2) kuzatilayotgan obyektning muayyan vaziyati boshqa obyektlarning vaziyatlariga nisbatan xosligi, ularning o'xshash va o'xshamas jihatlarini aniqlashga harakat qilish; ekologik muhit, hayotiy faoliyatlar sohalari, umumiy iqtisodiy va siyosiy sharoitlar, ijtimoiy ongning hozirgi holati;

3) sotsial hodisalarning subyektlari yoki ishtirokchilari. Kuzatuvning umumiy vazifalariga bog'liq holda ularni quyidagicha tasniflash mumkin: demografik va sotsial belgilari bo'yicha (jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, ma'lumoti, daromadi va hokazo); mehnat faoliyatining mazmuni bo'yicha (mehnatining xususiyatlari, ish mashg'uloti sohasi, dam olish sohasi va hokazo); jamoa yoki guruhga nisbatan maqomi (rahbar, jamoadosh, bo'ysunuvchi, ma'mur, ijtimoiy arbob, jamoa a'zosi va hokazo); o'rganilayotgan obyektida birgalikdagi faoliyatda rasmiy ravishda bajaradigan funksiyalari (burchi, huquqi, ularni amalga oshirishning aniq imkoniyatlari, o'zlari jiddiy rioya qiladigan qoidalar); norasmiy munosabatlar va funksiyalar bo'yicha (do'stlik aloqalari, norasmiy yetakchilik, obro', nufuz va hokazo);

4) subyektlar va guruhlarining maqsadlari va sotsial manfaatlari: umumiy va guruhiy maqsadlar va manfaatlar; rasmiy va norasmiy guruhlar, ularning a'zolari, mazkur muhitdagi qo'llovchilar va qo'llamaydiganlar; manfaatlar va maqsadlarning bir-birlariga moslashganligi;

5) tashqarida faoliyat ko'rsatuvchi strukturasi: tashqi xohishlar (rag'batlar), ichki anglangan niyatlar (motivlar), maqsadga erishish uchun jalb etiladigan vositalar (vositalar mazmunlari va ularni ma'naviy jihatdan

baholashlar bo'yicha), ular faoliyatining jadallik darajasi (mahsulli, tug'ilishning ko'payishi; tangli, osoyishta), uning amaliy natijalari bo'yicha (moddiy va ma'naviy mahsullar);

6) kuzatilayotgan hodisalarning doimiyliigi va takrorlanishi: yuqorida ko'rsatilgan bir qancha holatlarda tavsiflangan vaziyatlar bo'yicha.

Ana shu mo'ljallar yo'nalishlari rejasi bo'yicha amalga oshiriladigan kuzatuv ulardagi turli xususiyatlar, unsurlar, faoliyat yuritayotgan odamlar va guruhlar funksiyalarini strukturalash vazifasini bajaradi. Ma'lumotlarning yig'ilishi va ularni oldindan tahlil qilishdan kelib chiqib kuzatish aniqlashtirib boriladi. Kuzatilayotgan hodisalarning qandaydir tomonlarini barcha tafsilotlari bo'yicha kuzatish zarurati paydo bo'lib qolishi mumkin. Kuzatuv asta-sekinlik bilan ko'proq rasmiylashgan qidiruvga aylanib boradi.

Nazoratdagi kuzatuvning jiddiy ish tartibini tuzishdan oldin kuzatiladigan obyektidagi muammolarni va uning barcha tafsilotlarini olingan ma'lumotlar va nazariyalar asosida chuqur tahlil qilish lozim. Undan keyin alohida hodisalar, voqealar va odamlarning turli xulqlari shakllari tadqiqot mantig'i tushunchalaridan kelib chiqilgan holda sharhlanishi lozim. Endi ular sotsial ahamiyat kasb etadigan yoki ko'proq umumiy xususiyatlarning indikatorlari mazmunini ifodalagan holda namoyon bo'la boshlaydi³⁸¹.

Ketma-ketlikdagi kuzatuvda tadqiqot rollarining farqlanishidagi muhim jihatlarni amalga oshirishning yanada muhimroq bo'lgan chegaralari doirasini belgilashni taniqli olim *R.Gould* taklif etgan edi. Bu kabi farqlanishlarni belgilash asosan tadqiqotchining kuzatish vaziyatidagi jalb qilish-chetlashtirish darajasi va uning xususiy etnografik va ilmiy faoliyatining ochiqlik-yopiqlik darajasiga tegishli ravishda asoslandi³⁸². Bu holatda quyidagi rollarni alohida ajratib ko'rsatish qabul qilindi:

- 1) to'liq ravishdagi ishtirokchi;
- 2) ishtirokchi kuzatuvchi sifatida;
- 3) kuzatuvchi ishtirokchi sifatida;
- 4) to'liq ravishdagi kuzatuvchi.

«To'liq ravishdagi ishtirokchi» rovida tadqiqotchining maqsadi va maqomi boshqa barcha odamlar uchun yashirin bo'lib qoladi. Shuning uchun bu vaziyatni ko'pincha yashirincha kuzatuv deyiladi. Sotsiolog *O.Xellevik* irqchilik xurofotlarini aniqlash uchun yashirin kuzatuvdan

³⁸¹ Ядов В.А. Социологическое исследование: методология программа методы. //http://www.socioline.ru.-C.105.

³⁸² Gold R.L. Roles in Sociological Fieldwork//R.L.Gold//Social Forces.1958.Vol. 36. -P.217-223.

foydalanganligi to'g'risida qiziqarli misol keltirish mumkin. Sotsiolog sinov qilinayotgan odamlarda qanchalik kuchli irqchilik xurofotlariga berilish mavjudligini o'rganishga kirishadi va u o'zining tadqiqot maqsadini sir tutadi. U intervyu olinadigan (oq tanli) odamlarga qisqa fursatda oq tanli odamning bashang kiyimli afroamerikalikka qo'lidagi ustara bilan xamla qilayotganligini aks ettirgan rasmni ko'rsatdi. U sal keyinroq odamlardan rasmda nima tasvirlanganligini so'raydi. Agar bu odamlar rasmni tasavvurlashga doir hikoyalarida ustarani ishlatgan odam boshqa bilan almashtirilsa (deylik, afroamerikan odam bilan), sotsiologlar bu hikoya qilgan odamning rasmida tasvirlangan vaziyatni to'g'ri va aniq idrok etishda qiyinchiliklarni his etganligi uchun ham hikoyachini afroamerikaliklarga nisbatan xurofotga ega odam, deb sharhladi. Albatta, bunda o'zaro qarama-qarshi qutblashib turgan «to'liq kuzatuvchi»lik roli o'rganilayotgan odamlarning tadqiqotchiga nisbatan ta'sir qilishi mumkin emasligi asos qilib olingan. Chunki, oxirgi odam (kuzatuvchi) ba'zi psixologik eksperimentlarda uchrab turganidek, tadqiq etilayotgan odamlarga bir tomonama ko'zgu vositasida qaraydi yoki ularni go'yoki yashirin kameradek kuzatadi³⁸³. Ko'pincha kuzatuvchi tavsiflanadigan vaziyatlar chetida turuvchi odam rolini bajarishi lozim bo'ladi.

Hozirgi davrga kelib kuzatuvlarda sotsiologlar video va auditexnika vositalaridan keng foydalanmoqda, foto hujjatli tadqiqotlarning omma-viyligi kuchaymoqda. Lekin, empirik materiallar olishning eng asosiy manbalaridan biri sifatida oldindan ishlab chiqilgan tizim bo'yicha tahlil etish zaruriyatiga ega bo'lgan yana o'sha eski ish metodlari — dala qaydlari va xotiralari ko'proq e'tirof etilmoqda. Taniqli olim *J.Spredli* dala kuzatuvlarini qayd qilishga doir maxsus nazorat varag'idan foydalanishni taklif etdi³⁸⁴. Bu varaq o'z ichiga to'qqizta belgi — qayd qilish yuz berayotgan hodisalarni to'liqroq tavsiflashga kengroq imkon beradigan «markerlar»ni oldi:

- makon (kenglik) — tabiiy ravishda o'r mashgan joy yoki bir necha joy;
- aktor (rol o'ynovchi) — voqealarda ishtirok etuvchi odamlar;
- faoliyat — o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lgan harakatlarni bajaradigan odamlar;
- obyekt — mavjud tabiiy predmetlar;
- akt — odamlar bajaradigan alohida xatti-harakatlar;
- hodisa — odamlar olib boradigan ko'plab o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lgan faoliyatlar;

³⁸³Хеллевик О.Социологический метод/О.Хеллевик.-М.,2002.-С.56

³⁸⁴Девятко И.Методы социологического исследования.-М.,2006.-С.46.

- zamon (vaqt) — bo'layotgan voqealarni vaqtincha tartibga solish;
- maqsad — odamlar erishishga intilayotgan narsalar;
- hissiyot — sezilayotgan va ifodalanayotgan ruhiy kechinmalar³⁸⁵.

Dala qaydlarini olib borishda tadqiqotchining qandaydir taxminlar, farazlar va qiziqarli dalillarni esidan chiqarib qo'ymasligi uchun maxsus tahliliy eslatmalar bo'lishi talab etadi. Ular qavslar yoki daftar sahifasi chetidagi belgilar sifatida ajralib turishi lozim. Muhim muammolardan biri — bu ishtirokchilarning «tabiiy lug'ati»ni saqlanishini ta'minlashdir: dastlabki matn bilan keyingi sharhlar bir-biridan aniq ajralib turishi lozim. Dala qaydlarini olib borishda og'zaki yoki so'z bilan bog'liq bo'lmagan xulqni tahlil etishga ham zarurat tug'iladi: yuz mushaklarining ma'noli harakatlari, sun'iy qiyofa, imo-ishora va hokazlar. Hodisalarni kuzatishning zaruriy unsuri — bu vaqtni to'g'ri qayd etishdir. Chunki, bu vaqtga oid qaydlar axborotdan mazmunli tarzda foydalanish uchun ko'p tomonlama sharoitlarini yaratishda muhim o'rin tutadi.

Sotsiolog olimi S.I.Erina kuzatish metodidan foydalanishga doir qiziqarli misol keltiradi. U kuzatish metodikasi asoslariga doir adabiyotlarga tayanib, shahardagi aholining ommaviy aloqalari, xulqlari me'yorlari va muammolarini shahar transportidagi qisqa muddatli sotsial-vaziyatli aloqalari misolida o'rgandi³⁸⁶.

Sotsiologik kuzatuvning ahamiyati. Kuzatuv ilmiy metod sifatida katta miqdordagi vaqtinchalik resurslarga ega bo'lishni va yaxshi uyush-tirishni talab etadi. Ko'pincha ba'zi jarayonlar kuzatuvga «bo'ysunmaydi». Masalan, shaxsiy hayot, uzoq davr ilgari sodir bo'lgan hodisalar va hokazo. Lekin, muammolarning shunday uzun ro'yxati mavjudki, ularni yosh bolalar xulqlari yordamidagina tahlil etish mumkin. Kuzatish metodi etnik va irqiy guruhlarini o'rganishga ham chuqur kirib bordi.

Kuzatish metodining afzalligi shundaki, bunda tadqiqotchi obyekt bilan bevosita aloqalarga ega bo'ladi, o'rtada vositachilar bo'lmaydi, axborotlar tezlik bilan olinadi, moslashuvchanlikka tezlik bilan erishiladi, hodisalar o'zgarib boshlasa, ularni tezlik bilan qayd etish mumkin, farazlarni yangi o'zgarishlarga osonlik bilan moslash uchun imkoniyatlar topiladi. Uning yana bir asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u tadqiqotchining o'zida bevosita chuqur taassurotlar tug'diradi.

Lekin, kuzatuv metodining o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Kuzatuvchi xohlasa ham, xohlamasa ham o'rganilayotgan jarayonga ta'sir

³⁸⁵Spradley J.P. Participant Observation. - N.Y.: Holt, Rinehart & Winston, 1980. - P. 78.

³⁸⁶Ерина С.И. Организация и методы прикладного социально-психологи-ческого исследования: метод. указания/С.И.Ерина. - Ярославль, 2004. - С. 17.

qiladi. Jadallik bilan ishlash kichik joyda izlanishga, o'rganilayotgan vaziyatlarni cheklanib qolishiga, o'rganilayotgan hodisalarning barcha yig'indisini qamrab ololmaslik sari burilib ketishi mumkin. Chunki, kuzatuvchining shaxsiy sifatлари u oladigan natijalarda aks etadi, subyektivlik o'zini ko'rsatadi. Shuning uchun, birinchidan, olingan natijalar albatta boshqa metodlar vositasida qayta tekshirilishi, ikkinchidan, kuzatuvchilar xulqiga nisbatan alohida talablar qo'yish lozim. Kuzatish metodida quyidagi kamchiliklar uchrab turadi:

-ishtiyoq-samara (gallo-samara) — kuzatuvchining umumlashgan taassurotlar asosida yondashuvi uning xulqini dag'al ma'lumotlarni o'zlashtirishiga, nozik tafovutlarni inkor etishga olib keladi;

-shavqatlilik samarasi — ro'y berayotgan hodisalarga doimo ijobiy baho berish hissiyoti kuchli bo'ladi;

-markaziy moyillik xatosi — kuzatuvchining kuzatilayotgan xulqqa nisbatan o'rta miyona darajali baho berishga intilishi;

-o'zaro bog'liqlikdan kelib chiqadigan xatolar — xulqning bir belgisiga berilgan baho boshqa kuzatilayotgan belgiga baho berishga ham asos bo'lib qolishi (inetellekt bir lahzalik so'zlar bo'yicha baholanadi);

-keskin ifodalangan qarama-qarshiliklar (kontrastlar) natijasida kelib chiqadigan xatolar — kuzatuvchining kuzatilayotgan obyektida ko'proq o'ziga yoqmagan va o'ziga qarama-qarshi bo'lgan belgilarni ajratib olishga moyilligi;

-birinchi taassurot xatosi — kuzatuvchining individ haqidagi ilk taassuroti uning keyingi xulqining bahosini va idrokini belgilab qo'yish holati.

Kuzatuvchining o'z faoliyatida paydo bo'ladigan muammolarni bartaraf etishga qobillik salohiyatining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar odam yoki odamlar guruhi o'zlarining kuzatilayotganlini sezib qolsa, ularning tezlik bilan o'zgarishga moyilligi kuchayadi. Agar kuzatuvchi guruhga yoki individga nisbatan noma'lum odam bo'lsa, bu holat o'rganilayotgan xulqlarni jiddiy o'rganishga yordam beradi. Lekin, agar voqealarning to'liq manzaralarini tavsiflash va individlar xulqlarini to'liq aks ettirish zarur bo'lib qolsa, yoki, vaziyatga tashqaridan xalaqit berishlarni istisno qiladigan tabiiy xulqni tadqiq etish zarurati paydo bo'lsa, u taqdirda kuzatuv tengi yo'q metod hisoblanadi³⁸⁷.

Kuzatuv mustaqil ish faoliyatini ifodalaydigan va eksperiment jarayoniga qo'shiladigan metoddir. Kuzatuv metodiga doir sinovlarning

³⁸⁷Руденко Л.Д. Современные методы социологических исследований: учебное пособие/Л.Д.Руденко; Яросл. гос. ун-т им. П.Г.Демидова.-Ярославль:ЯрГУ,2012. -С.61-65.

borishida eksperimental vazifalarni bajarilish natijalari tadqiqotchi uchun muhim qo'shimcha axborot sifatida xizmat qiladi. Kuzatuvning chegaralanganligiga barxam berish uchun uni axborot yig'ishning boshqa metodlari, masalan so'rov bilan qo'shgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

11.3. Sotsiologik so'rovlar metodlari

So'rovlar dastlabki sotsiologik axborotlarni yig'ishning eng ko'p tarqalgan metodidir. So'rov o'zida sotsial-psixologik aloqalarning murakkab turini ifoda etadi. Shuning uchun so'rov metodlarini yaxshi bilish olingan ma'lumotlar sifatini yaxshilashning muhim shartidir.

So'rov sotsiologik axborotlar olishning metodi sifatida. So'rov metodi to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvga erishib bo'lmaydigan va tahlil etilyotgan hujjatlarda to'liq aks etmagan hodisalar va jarayonlar to'g'risida axborotlar olishga zarurat tug'ilganida qo'llaniladi. *So'rov* — bu intervyu oluvchi (intervyuer) yoki anketa (so'rovnoma) savollariga javoblar berish yo'li bilan bevosita yoki bilvosita dastlabki axborotlarni yig'ish metodidir. So'rovlar turli asoslarga binoan tasniflashtiriladi. Dastavval anketa so'rovlari va intervyu tushunchalarini bilishga ehtiyojlar paydo bo'ladi. Sotsiolog va respondent o'zaro aloqalari tavsifiga binoan so'rovlar tadqiqotchining respondent bilan bevosita aloqasi amalga oshiriladigan jarayondan iborat *yuzma-yuz* (shaxslararo) va o'zaro aloqalar yuz bermaydigan *sirtqi* turlarga bo'linadi. Yuzma-yuz so'rovga intervyu, sirtqi so'rovga anketa so'rovlari taalluqlidir. Rasmiylashish darajalari bo'yicha so'rovlar oldindan tayyorlangan reja bo'yicha amalga oshiriladigan *standartlashgan* va *standartlashmagan*, ya'ni erkin turlarga bo'linadi. O'tkazilish joylariga qarab so'rovlar yashash joyida va ish joyida o'tkazilishi bilan ham birbiridan farqlanadi. Bosh (asosiy) yig'indilarni qamrab olishi darajasi bo'yicha so'rovlar *yaxlit* (yalpi) va *tanlab olinadigan* xillarga bo'linadi. Yaxlit turida kuzatish birliklari barchasini tashkil etadigan yig'indiga teng bo'lgan miqdorda so'rov qilinadi. Tanlab olinadigan turida o'rganiladigan barcha asosiy yig'indilarning ma'lum bir qismi so'rov qilinadi. So'rovlarni takroriy o'tkazish bo'yicha *bir martalik* va *ko'p martalik* so'rovlarga bo'linadi. So'rovlarning o'ziga xos turi *ekspert* so'rovi hisoblanib, unda tadqiq etiladigan sohalar mutaxassislardan so'raladi.

So'rov metodining afzalligi. So'rov — odamlarning subyektiv olami, qiziqishlari, faoliyatlari motivlari, fikrlari, qadriyatli mo'ljallari to'g'risida axborotlar olishning hech bir tengi yo'q turi hisoblanadi. So'rov tad-

qiqotchi uchun zarur bo'lgan har qanday vaziyatni modellashtira olishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Bu odamlarning xulqlari asosida yotadigan — ularning hayotiy umidlari, mehnat jamoasidagi munosabatlar strukturasi, oilaviy hayoti kabilarga ta'sir etadi, shuningdek ularning nimalarni afzal deb bilishi, motivlari va manfaatlarining barqarorligini aniqlash uchun zarurdir. So'rov metodi yordamida nisbatan qisqa vaqt ichida ko'plab respondentlarni so'rovdan o'tkazish, katta hajmdagi axborotlarni olish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin.

Anketani kompyuterda tezlik bilan qayta ishlab chiqish, shuningdek savollarga berilgan javoblarni so'rovgacha oson kodlashtirish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin. Agar tanlab olish ishlari to'g'ri va savodxonlik asosida bajarilsa, so'rov metodidan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarali natijani beradi. Chunki, ozroq shaxslar yig'indisini so'rov qilish asosida o'rganilayotgan obyektning holati va rivojlanish sur'atlari to'g'risida batafsilroq axborotlar olish mumkin bo'ladi. So'rovlar uchun anketalar va so'rov varaqlaridan foydalaniladi. *Anketa* — bu har biri mantiqan tadqiqotning asosiy vazifalari bilan bog'liq bo'lgan, muayyan tarzda strukturaviy jihatlardan uyushtirilgan savollar to'plamidir. Sotsiolog savollar yordamida respondentlarning javoblari ko'rinishidagi empirik axborotlarni (dastlabki ma'lumotlarni) oladi. Olinadigan natijalarning sifati va ishonchliligi anketa yoki intervyu varag'i qanday darajada tuzilganligiga bog'liqdir. Savollardan iborat bo'lgan anketa va intervyu varaqlari ishonchli bo'lishi quyidagilarga bog'liqdir: a) izlanayotgan axborotlarni olishning ta'minlay olishi; b) olingan ma'lumotlarning aniq va to'g'ri axborotlar berishi; v) turli sharoitlarda va boshqa shaxslarning tadqiqot o'tkazishidagi qayta tekshirishlarda o'zgarib ketmaydigan ma'lumotlar berishi.

Ishonchli ma'lumotlar olishda respondentlar xulqi uchun quyidagilar zarur bo'ladi: 1) kerakli axborotni idrok qilishi; 2) uni to'g'ri tushunishi; 3) agar so'ralsa, oldin bo'lib o'tgan hodisalarni eslay olishi; 4) ishning amaliy holati yoki o'zining fikriga tegishli javoblarni topa olishi yoki savol xususiyatlariga moslab javob bera olishi; 5) beriladigan javob qo'yilgan savolning mazmuniga mos bo'lishi; 6) javob berishda ichki mas'uliyatga ega bo'lish, uni ichdan his qilish.

So'rovlarda ishlatiladigan savollarning turlari va shakllari. So'rov metodidan muvafaqqiyatli ravishda foydalanish uchun nimalarni so'rash, qanday so'rash, savollarni qanday tarzda berish, kimdan so'rash, qayerda suhbat qurish, suhbatni qanday o'tkazish, olingan javoblarni qanday tekshirish kerak ekanligini bilish zarur. Savol — bu so'rovning tadqiqot vositasidir. Savollar aniq, barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ayniqsa,

uning tili sodda va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Bunda respondentning ma'lumot darajasini ham hisobga olish zarur. Bunda savollarning vaqtinchalik doirasini saqlashga harakat qilish lozim. Beriladigan savollarning turli-tumanlilikini uchta yo'nalishga bo'lish mumkin:

- 1) berilayotgan savolning maqsadi;
- 2) beriladigan javobning mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- 3) savollarning mazmuni.

Savollarning maqsadga bog'liq ekanligi quyidagilarga bo'linadi: mazmunli yoki natijali yoki funksional. Anketaning asosiy savollari natijali savollar bo'lishi talab etiladi. Ular o'rganilayotgan hodisaning mazmuniga oid axborotlar yig'ishga qaratilgan. Ular mantiqan tartib asosida tuzilishi lozim. Funksional savollar quyidagilarga bo'linadi: funksional-psixologik, filtrli va nazorat qilinadigan. Funksional-psixologik savollar quyidagi holatlarda qo'llanadi:

1) tanglikdan chiqish uchun. Masalan, anketa ko'p vaqt oladi, 15-20 minutdan keyin tanaffus berish zarurati paydo bo'ladi;

2) respondentda paydo bo'ladigan inijqliklarni bartaraf etish uchun;

3) bir mavzudan ikkinchisiga o'tishda diqqatni bo'shashtirish uchun³⁸⁸.

Savol-filtrlar berilishi lozim bo'lgan javoblarni respondentlarning bilish yoki bilmasligini sinab ko'rish uchun qo'llaniladi. Nazorat qilinadigan savollar javoblarning ishonchli ekanligini tekshirish uchun ishlatiladi. Uning yordamida alohida savollarga beriladigan javoblarning qoniqarli ekanligi tekshiriladi. «Tuzoqqa tushirish» savollari respondentlarning halolligi va samimiyligini aniqlash uchun ishlatiladi. Savollar shaxsiy va noshaxsiy bo'lishi mumkin. Masalan, «Siz qancha soliq to'laysiz?» va «Do'stlaringiz o'rtacha qancha miqdorda soliq to'laydi?» qabilidagi savollar berilishi mumkin. Vaziyatli savollar manfaatlar va faoliyatlar motivlarini umumiy yo'nalganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Qayd etish usuliga qarab savollar ochiq, yopiq va yarim yopiq savollarga bo'linadi. Ochiq savolda respondentga mustaqil ravishda savolni anglash va javobni shakllantirish imkoni beriladi. Yarim yopiq savollar «boshqalarichi?», «yana nima?» kabi savollarga qo'shimcha javoblar olishda qo'llanadi. Yopiq savollar ko'plab javoblarni oldindan tayyorlab qo'yish, ularni tanlash respondentning ixtiyorida bo'lgan shakldagi so'rovlarda ishlatiladi.

Respondentlardan olingan javoblar matematik-statistik qayta ishlashni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning

³⁸⁸Ковалевская Е.В. Социология: учебное пособие, практикум по дисциплине / Московский государственный университет экономики, статистики и информатики. - М.: МЭСИ, 2004. - С.31-32.

uchun shkalalar (ko'rsatkichlar) va kodlardan foydalaniladi. *Shkala* deb har bir kuzatilayotgan obyektga tegishli ravishda bir qancha raqamlar (sonlar) qo'yib chiqish yordamida amalga oshadigan algoritim jarayoniga aytiladi. Bu raqam shkala qiymati yoki ko'rsatkich deyiladi. Shkala — bu muayyan tartibga solingan raqamlar qatoridir. Respondent shkala bo'yicha u yoki bu sotsial jarayonning bo'lib o'tish jadalligiga nisbatan o'z fikri bo'yicha tegishli deb topgan raqamni tanlaydi³⁸⁹. Masalan, «siz xaftada diskotekaga qancha marta borasiz?» degan savol qo'lgan bo'lsin. Unga quyidagi jadvalda raqamlar bo'yicha javoblar joylashtirilgan. Bunda respondent o'zining xulqi va amaliy faoliyatiga bog'liq ravishda raqamlardan birini belgilaydi. Bu kabi so'rovlarni turlicha — yanada murakkab holatlarda tashkil etish mumkin.

Juda ko'p	Ancha ko'p	Ba'zida	Ba'zi-ba'zida	Bormayman
5	4	3	2	1

Tartibli raqamlar yordamida o'lchamlarni qayta ishlash uchun jadvallardan tashqari *Pirson*, *Kramer* va *Chuprovlar* tomonidan taklif etilgan koeffitsientlarni qo'llash mumkin. Bunday kamchilik o'zgaruvchan ahamiyatlar oraliqining tengsizligidir. Belgilarni (alomatlarini) jadallashuvi yoki sustlashuv darajasini o'lchashni tartibli raqamlar shkalasi namunasi sifatida quyidagi misolni keltiramiz: «Sizga taklif etilgan shkalada o'zingizga xos bo'lgan sifatlarni aniqlang»:

Ma'naviylik	1	2	3	4	5	6	7	Omilkorlik

Yoki, «yetti ballik shkala bo'yicha o'z guruhingizdagi do'stlik munosabatlari darajasini baholang»:

Kichikroq darajada	1	2	3	4	5	6	7	Kattaroq darajada
--------------------	---	---	---	---	---	---	---	-------------------

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishda matematik metodlarni qo'llash uchun shkala uslubida tadqiqot o'tkazishning tengi yo'q. Sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirishga axborot texnologiyalarini kirib kelishi, ko'plab vazifalar kompyuterlar zimmasiga yuklanishi natijasida shkala metodining ahamiyati taboro oshib bormoqda.

Anketa so'rovi va strukturasi. Anketa so'rovlari quyidagi turlarga bo'linadi:

³⁸⁹O'sha joyda. — B.32-33.

1. Yuzma-yuz so'rov anketa beruvchining (anketyorning) bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Yuzma-yuz so'rov tarqatma (guruhiy) va individual turlarga bo'linadi. Tarqatma xilda anketa beruvchi anketalarni tarqatadi. Respondentlarning o'zlari anketalarni to'ldirib, anketa beruvchiga topshiradi. Bunda bir vaqtning o'zida 30-40 kishini so'rov qilish mumkin.

2. Sirtqi so'rov pochta orqali va ommaviy xillarga bo'linadi. Pochta orqali so'rovda anketalar pochta orqali respondentlarga yuboriladi va pochta orqali qabul qilinadi. Ommaviy so'rovda anketa gazetalarda beriladi va unga javoblar kutib turiladi. Pochtada yuborilgan yoki gazetada berilgan anketalarning 5 foizidan javob kelishiga hisob qilinadi.

3. Ekspres-so'rov turi ham mavjud. U jamoatchilik fikrini o'rganishda qo'llanadi va uning savollari kam bo'ladi (u 3-4 ta savol va so'ralayotganlarning sotsial-demografik tavsiflaridan iborat).

Anketalarning strukturasi. Tadqiqot muvafaqqiyatli chiqishi uchun tadqiqotchilar respondentlarni qiziqtirishlari, o'zlariga moyil qilishlari lozim. Bunga anketani ishlab chiqishda e'tibor berish lozim. Anketa titul varag'ida joylashadigan kirish qismdan boshlanadi. Unda kim tadqiqot o'tkazayotganligi («Ijtimoiy fikr» markazi, ilmiy-tekshirish instituti, laboratoriya kabilar), hujjatning nomi (anketa yoki so'rov varaqasi), mavzuning qisqacha nomi, tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari, so'rovni o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatilishi lozim. Shu joyda, yoki alohida betga respondentga murojaat joylashtiriladi va unda anketani to'ldirish, savollarga javob berish iltimos qilinadi, anketani yozish qoidalari beriladi. So'ngra asosiy qism, ya'ni savollarga o'tiladi.

Dastlab aloqalar bog'lashga oid savollar qo'yiladi. Ularning maqsadi — respondentlarni qiziqtirish va ularni muammolar ichiga kirishini yengillashtirishdir. So'ngra asosiy savollar qo'yiladi. Ularning yordamida asosiy axborotlar olinadi. Anketa so'ngida respondentning sotsial-demografik tavsiflariga oid savollar joylashtiriladi (jinsi, yoshi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, moddiy va ijtimoiy holati va hokazo).

Anketa so'rovining kamchiliklari. 1) anketa so'rovini anonimligi uchun respondentlar javoblarining haqiqiyliги va samimiyligini nazorat qilib bo'lmaydi; 2) ba'zi respondentlarda javob berish uchun tuzuk-quruq ma'lumotlar bo'lmasa ham ular boadablik uchun anketa savollariga javob beradi. Natijada buzilgan axborotlar olinadi; 3) so'rovning anonimligi uchun tadqiqotchi oydinlashtiruvchi yoki qo'shimcha savollar bera olmaydi. Shuning uchun ham muammo oxiriga yetmay qoladi, qo'shimcha tadqiqot o'tkazishga ehtiyoj tug'iladi.

Anketa so'rovi metodi alohida shaxslarning fikrlariga asoslanadi. U respondentlar fikrlaridagi nozik farqlanishlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi, dasturiy savollarni shakllantirish asosida boshlanadi			
Anketa so'rovini o'tkazish talablari	Anketa savollarining o'z shakllari bo'yicha tasniflanishi	Axborotlarning ishonchli ekanligini nazorat qilish usullari	Anketalarni tayyorlash bosqichlari
so'rov 40 minutdan oshmasligi lozim, aks holda respondent charchaydi va to'liq bo'lmagan javoblar bera boshlaydi;	(savollarni mazmuni bo'yicha bo'lish axborotlarning qandayligidan kelib chiqib amalga oshiriladi)	nazorat savollari;	loyihani tayyorlash;
so'rovga qiziqishning sekinlik bilan o'sib borishi uchun uning mazmuni murakkab savollardan soddavollarga o'tib borishi lozim;	ochiq anketa turi – javobning erkin shaklini ko'zda tutadi;	takroriy savol - panellik (o'sha hajmda) yoki oldin so'ralganlarning 5–10 % o'rtasida;	qidiruv - so'rov (sinov tariqasida) – 20–30 kishi;
birinchi savol xolis bo'lishi (ya'ni bahsli, sergak qiladigan bo'lmashligi);	yopiq anketa turi (keraklisini tagiga chizing);		
qiyin savollar anketaning o'rtasiga joylashtiriladi;	yopiq anketa turi (javoblar ro'yxatidagi "boshqalar..." – sabablar, motivlar va hokazo" jumlasiga qo'shimcha);		
savollar har bir respondentga tushunarli bo'lishi lozim;	to'g'ridan-to'g'ri (dalillarni mavjudligi yoki mavjud emasligini belgilovchi);		
dastlab savollar bilan hodisa aniqlanishi, keyingi savollar javoblarida hodisani baholash ifodalinishi lozim;	bilvosita (xulq va fikrlar motivlari kabilar haqida so'z ketganida qo'llaniladi);		
agar anketada yangi bo'lim paydo bo'lsa	shaxsiy; shaxsiy emas.		

11.2-rasm. Anketa so'rovi metodi

Tadqiqot bosqichlari. 1) dastur ishlab chiqish; 2) anketalarni ishlab chiqish; 3) anketyor uchun yo'riqnoma ishlab chiqish; 4) tanlash yoki terib olish hisob-kitobini qilish; 5) anketa nusxalarini ko'paytirish; 6) anketyorlar tayyorlash; 7) dala tadqiqotlari o'tkazish; 8) axborotlarni qayta ishlash va tahlil etish; 9) hisobot yozish; 10) tadqiqotni o'tkazish muddatlarini belgilash va qayd etish.

Intervyu olish metodi. Intervyu — muayyan reja bo'yicha intervyu oluvchining respondent bilan bevosita suhbat qurishidir. Bunda javoblar intervyu oluvchi, yoki uning assistenti, yoki diktofon yoki video kabilar

vositasida yoziladi. Intervyuga respondent va intervyu oluvchi o'rtasidagi o'zaro sotsial-psixologik aloqalarning muayyan shakli sifatida qarash mumkin. Bu o'zaro aloqalarning xususiyatlari ular o'rtasidagi rollarning qat'iy talabchanlik bilan taqsimlanishidan iboratdir. Umuman, bu metodning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1) intervyu yordamida respondentning tasavvurlari, fikrlari va motivlari haqida chuqur ma'lumotlar olish mumkin;

2) suhbat davomida erkinlik va bemalollik muhitini yaratish imkonining mavjudligi uchun ham javoblarning samimiyligi oshadi. Bu eng to'liq va haqiqatga yaqin javoblarni olishga imkon beradi;

3) intervyu oluvchi respondent bilan bevosita muloqoti davomida undagi psixologik alomatlarini kuzatishi, shu asosda vaziyatga tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin;

4) shaxsiy muloqotlar respondentning so'rov jarayoniga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishiga zamin yaratadi.

Intervyu tadqiqotning ilk bosqichida qo'llanadi. Intervyudan katta so'rov-tadqiqotlar metodikasini ishlab chiqishda, shuningdek, kichik hajmda tanlab olingan yoki cheklangan sotsiologik axborotlar yig'ishning asosiy metodi sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, intervyu anketa so'rovi, kuzatish, hujjatlarni tahlil etib borish jarayonlarida axborotlar olishning qo'shimcha metodi sifatida ham ishlatiladi. Yoki, boshqa metodlar yordamida olingan ma'lumotlarni oydinlashtirish va tekshirish uchun ham intervyu metodidan foydalaniladi.

Intervyularning turlari. Intervyu belgilangan maqsadlari bo'yicha *hujjatli* va *fikrlar* intervyulariga bo'linadi. Oldingi davrlarda bo'lib o'tgan hodisalarning guvohlari, ishtirokchilari, tamoshabinlari bilan o'tkazilgan suhbatlarni qaytadan tiklaydi, hujjatli intervyu olish yordamida o'tgan sotsial hodisalar va dalillar yangidan tiklanadi. Fikrlar intervyusi odamlarning qandaydir sotsial voqelikdagi hodisalarga nisbatan fikrlari, qarashlari, mulohazalarini o'rganadi.

Intervyu o'tkazishning shakli yoki texnikasi bo'yicha *norasmiy* (standartlashmagan), *rasmiylashgan* (standartlashgan) va *yarim standartlashgan* turlarga bo'linadi. Rasmiylashmagan intervyuda savollarni shakllantirish, ularning izchilligi va savollarning miqdori, shuningdek unga beriladigan taxminiy javoblar odindan belgilanmaydi. Bunda intervyu beruvchi aniq paydo bo'lgan vaziyatlar sharoitida ishlashi tufayli savollarni o'zgartirishi, javoblarni rag'batlantirishi, boshqa jihatlarda ham aniq sharoitlardan kelib chiqib faoliyat yuritishi mumkin. Lekin, respondentning javoblariga ta'sir qilish juda ham oz bo'lishi lozim. Rasmiylashmagan intervyuning

kamchiligi — bu suhbatning o‘zaro moslashuvchanligi va o‘zgarib borishi tufayli ma’lumotlarni qayta ishlashdagi natijalarni taqqoslashda qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Rasmiylashgan (standartlashgan) intervyu eng ko‘p tarqalgan tur hisoblanadi. U barcha tafsilotlari bilan ishlab chiqilgan savolnomaga ega bo‘ladi, ya’ni boshdanoq savollar va ularni berish tartiblari shakllantiriladi; ehtimoldagi muqobil javoblar, ularni kodlashtirish, yozib olish shakllari oldindan belgilanadi. Bunda ish jarayonida o‘zgarishlar yuz bermaydi. Yarim standartlashgan intervyular olishning belgisi - bu uni o‘tkazish jarayonlarini qisman standartlashtirilganligidir. Unda har bir mavzuga oid javoblar olish uning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

O‘tkazish usullari va qoidalaridan kelib chiqib intervyu olish chuqurlashgan, ya’ni jadallashgan va davomli bo‘lishi, shuningdek qisqa muddatli bo‘lishi mumkin. Chuqurlashgan intervyulardan asosan g‘arb mamlakatlari foydalaniladi. Unda turli sohalarning turli-tuman manfaatlari barcha tafsilotlari bilan o‘rganiladi. Qisqa muddatli (fokuslashgan) intervyular aniq vaziyatlar, hodisalar, ularning sabab va oqibatlarini o‘rganishda qo‘llanadi. Ayniqsa, marketing sohasida juda ham ko‘p ishlatiladi. Intervyular tashkil etish bo‘yicha guruhiy va individual turlarga bo‘linadi.

Intervyuni o‘tkazish tartibi. Muayyan sotsial tadqiqotlarda intervyular olish jarayoni qo‘yidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi: 1) intervyu savolnomasini tuzish; 2) intervyuni o‘tkazish. Standartlashgan intervyularda savollarning qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqilishi uning muvafaqqiyati garovidir. Ular qanchalik standartlashsa, shunchalik ishonchli ma’lumotlar olinadi. Savolnomada intervyu oluvchining ismi sharifi, uni o‘tkazish joyi, respondentning suhbatga munosabati, savollar, sotsial-demografik ma’lumotlardan iborat respondentning javoblari qayd etiladi. Savolnomani tuzish mavzu, muammolarni shakllantirish, obyekt va predmetni o‘rganishdan boshlanadi. Savolnoma kirish, asosiy va demografik qismlardan iborat bo‘ladi³⁹⁰.

Intervyuning muammolari:

1. Har bir respondent bilan psixologik muloqotlar o‘tkazish uchun izlanish;
2. Nisbatan ko‘proq moddiy va vaqt xarajatlarining mavjudligi;
3. Intervyu oluvchilarni tayyorlashning sermashaqqatli ish ekanligi;
4. Anonimlik muammosi.

³⁹⁰Ковалевская Е.В. Социология: Учеб. пос., практикум по дисциплине//Московский государственный университет экономики, статистики и информатики. -М.:МЭСИ,2004.-С.37-39.

11.4. Hujjatlarni sotsiologik tahlil etish metodi

Hujjatlarni tahlil etish — har qanday hujjatda mavjud boʻlgan maʼlumot axborot manbasi sifatida xizmat qiladigan sotsiologik tadqiqot metodidir. Axbort manbalari quyidagilardan iboratdir: bayonnomalar, maʼruzalar, qarorlar, rezolyusiyalar, gazeta va jurnaldagi maqolalar, xatlar, badiiy asarlar, illyustratsiyalar va hokazo. Bu metod roʻy berib oʻtib ketgan hodisalar, ishtirokchilarni soʻrov qilish imkoniyati boʻlmagan bevosita kuzatuvlar haqida maʼlumotlar olishga imkon beradi. Koʻp yillar mobaynida bir hodisaning matnlar boʻyicha oʻrganish uning oʻzgarib va rivojlanib borish jarayoni xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Sotsiologiyada hujjatlarni tahlil etishning ikkita asosiy turi (uslub) mavjud:

1) *sifatiy tahlil*, u yana anʼanaviy deb ham ataladi;

2) *miqdoriy tahlil*, u xalqaro tasniflashlarga binoan *kontent-tahlil* deyiladi.

Birinchi usul hujjatlarni tanlash va sifatini baholash, ular mazmunini idrok qilish va sharhlash bilan bogʻliq boʻlgan barcha ish faoliyatlarini oʻz ichiga oladi. Bu metod hujjatlar mazmunlarini umumlashtirish va tahlil etish, shuningdek, xulosalarni mantiqiy dalillashlarni ichki his bilan anglashga asoslangan. Hujjatlarni anʼanaviy hissiyotli tahlil etishga misol tariqasida sotsiologning oʻrganiladigan muammolarga doir adabiyotlarni oʻqishi va oʻzining xulosalarini qisqacha ilmiy maʼlumotnoma sifatida ifodalashini keltirish mumkin. Bu tahlildagi asosiy cheklov — tahlil etishning boshlanishigacha boʻlgan fursatda tadqiqotchining oʻzbilarmonligi va uning turli taʼsirlar sababli yuzaga kelgan oʻz ichki koʻrsatmalari asosida (yoki sotsiologik bilimlarining yetishmasligi natijasida) yoʻl tutishi tufayli axbortlarni aralash-quralash qilib yuborish imkoniyatlarining mavjudligidir³⁹¹. Bu kabi holatlar koʻpincha xatolik sifatida tan olinmaydi, bu kabi kamchiliklarni aniqlash va baholash mezonlari hali ishlab chiqilgani yoʻq.

Kontent-tahlil usulidan sotsiologlar 100 yildan ortiqroq davr ichida foydalanib kelmoqda. Uning yordamida diniy timsollar, ommaviy qoʻshiqlar oʻrganildi, siyosiy shiorlarning samaradorligi, reklamalar, asosida oʻz joniga qasd qiluvchilarning oʻlim oldidan yozib qoldirgan xatlari, dushmanlar olib borgan tashviqotlar, turli sotsial guruhlar ongidagi stereotiplar, turli millatlarning namoyishlari, OAV faoliyati va uning turli taʼsirlari kabi minglab hodisalar tadqiq etildi.

³⁹¹Методическое пособие социолога-практика (словарь-справочник)/Под.ред. Д.А.Шевченко,А.И.Кравченко.-М.,2001.-С.86.

Sotsiologik tadqiqotlarda hujjatlarni tahlil etishda uchrab turadigan xatolar quyidagilardan iborat:

1. Tadqiqotchi hujjatdagi axborotlarni oldindan tahlil etmasdan, ularni dastlabki sotsiologik axborot sifatida ishlatadi; unda quyidagilar tekshirilmaydi: ularning haqiqiyliigi, asl nusxa ekanligi, ishonchligi, hujjatning mualliflari, axborotning asl maqsadi va xokazo.

2. Hujjatlarni tahlil etish oldindan tuzilgan reja yoki dastur asosida amalga oshirilmaydi.

3. Tahlil uchun tanlab olingan hujjatlar faqat mavzulari bo'yicha tadqiqot mazmuniga o'xshaydi, xolos. Ularning mazmuni tadqiqot farazlariga aloqador emas.

4. Tahlil kategoriyalari hujjatlar matnlari mazmuni va tili bilan taqqoslanmaydi. Ko'p iboralarning tushunchalari turli xil ma'nolar beradi; tahlilning bir kategoriyasi butunlay mazmuni o'zgacha bo'lgan boshqa matnda ham ishtirok etaveradi.

5. Ma'lumotlarni umumlashtirishga oid hujjatlar oldindan tayyorlanmagan, sinovlardan o'tmagan. Belgilarni qayd etishda muammolar mavjud.

6. Qayd qiluvchilar va kodlashtiruvchilar o'rtasida tushuntirish tadbirlari o'tkazilmagan, ular maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan.

7. Kodlar ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish dasturiga to'g'ri kelmaydi.

8. Qayd qiluvchilarning ish joylari yaxshi tashkil etilmagan.

9. Tahlillarda ishlatilayotgan hujjatlarning ro'yxati (katalogi) yo'q va hokazo³⁹².

Kontent-tahlil metodologiyasi va metodikasi. Kontent-tahlil ommaviy (matnli, audiovizual, raqamli) axborotlarni statistik qayta ishlash yo'li bilan miqdoriy o'zgarishlarga o'tkazishni ifodalaydi. Uning g'oyasi juda ham oddiy bo'lib, uning asosida har qanday boshqa — anketa olishmi yoki kuzatuvmi, undan qat'iy nazar, sotsiologiyadagi miqdoriy metodlar yotadi. Bunda ko'p takrorlanib turadigan so'zlar yoki mavzularni hisobga olib borish zarur. Masalan, gazeta materiallaridagi bu kabi holatlar ostida nima yotganligini aniqlash zarur. Bu bir xillik kasb etgan matnlarni tahlil etish statistik usullarni qo'llashda asqotadi.

Kontent-tahlil (ingl. content analysis — ma'nolarni analiz qilish) — aniqlangan miqdoriy qonuniyatlarni keyinchalik mazmuniy sharhlash maqsadidagi matnlar va matnlar uyumini miqdoriy jihatdan tahlil etishdir. Kontent-tahlilda *matn* (tekst) deganda kitob, kitob boblari, esse, intervyu,

³⁹²Социология: Словарь-справочник. Т.4. Социологическое исследование: Методы математики и статистика. -М., 1991. -С.21-22.

munozara, gazetadagi maqolalar, tarixiy hujjatlar, kundalik yozuvlar, nutqlar, reklama matnlari va boshqalar tushuniladi. *Matnlarning kontent-tahlili* deganda asosiy e'tibor ularning hali tilga kirmagan holatdagi mazmunlarining tavsiflariga emas, balki matn muallifi ko'zlayotgan maqsadlar; matn manzilgohi tavsiflari, ijtimoiy hayotning turli-tuman voqealari kabiga qaratiladi.

Kontent-tahlil uchta bosqichdan iborat:

1) keyinchalik tahlil kategoriyasiga olib kelinadigan va kompyuter vositasida ishlash mumkin bo'ladigan tahlil birliklari ajratib olinadi;

2) takroriy bo'linishlar sanaladi va hisoblanadi, so'ngra tahlillar birliklari o'zaro aloqalarini aniqlash uchun matematik usullar qo'llanadi;

3) olingan natijalarni sharhlash amalga oshiriladi.

Obyekt va tahlil birligini tanlash — bu yo'ldagi eng murakkab qadamlardan biridir. Unda quyidagi savollarga javob topish kerak bo'ladi: uni qayerdan izlash kerak? men o'rganadigan hodisa va jarayon qanday namoyon bo'ladi?

Kontent-tahlil *obyekti* kitob, plakat yoki varaqa, gazeta, film, turli nutq bilan chiqishlar, tele va radiodagi chiqishlar materiallari, ijtimoiy va shaxsiy hujjatlar, jurnalistlar olgan intervyular, anketalarda berilgan ochiq savollarga javoblar kabilar bo'lishi mumkin. Ular *tanlangan* (hujjatlar) deb ataladigan voqelikni ifodalab, tahlil uchun yetarli hisoblangan, kitoblar, jurnallar, gazetalar va boshqa manbalarning ichidan terib va tanlab olingan matnlardan iborat bo'ladi. Tabiatan kontent-tahlilga hech qanday cheklovlar belgilanmagan bo'lishi va uni alohida matnga qo'llashga hech narsa to'sqinlik qilmasligiga qaramasdan qator sabablar mavjudligi tufayli bu usul ko'p sonli matnlardan iborat bo'lgan axborot uyumlarini tahlil etishda ishlatiladi. Birinchidan, hujjatlarni tanlab olishlar hajmi qanchalik katta bo'lsa, statistik qonuniyatlar shunchalik ochiq va ravshan namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, ko'pchilik holatlarda kontent-tahlil komparativ (tarixiy-qiyosiy) maqsadlarda foydalaniladi. U muayyan bir payt kesimida emas, balki o'zgarishlar holatini ochib berishda o'zining kuchli ekanligini isbotlaydi.

Shu tariqa, kontent-tahlil katta axborot uyumlarini tahlil etishni taqozo etadi; boshqa tomondan, uning nisbatan arzon tushishi va texnologiyalashganligi tahliliy imkoniyatlarini ko'paytiradi. Matndagi so'zlarni uchrashuvchanligini miqdoriy hisoblash — bu kontent-tahlilning qiziqarli natijalar beradigan eng oson usuli hisoblanadi. Ular asosan va ko'pincha «qiziqarli» yoki «muhim» so'zlar yoki so'z birikmalari shaklida uchraydi. Masalan, erkinlik, barqarorlik, ishonch, hududiy yaxlitlik,

soʻzning yoki umidsizlik, korrupsiya, jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, narkotizm va boshq.

Sotsiologning ilmiy bilish nuqtai nazaridan qaraganda, koʻpincha va doimo ham faqat alohida soʻzlar emas, balki koʻplab tarqalib ketgan soʻz-belgilarini birlashtiruvchi tushunchalarga oid kategoriyalarni bir butun mavzuga moslashtirishga doir tahlillar ham zarur boʻladi. Masalan, tadqiqotchi «jinoyatchilik» soʻzini tahlil etishda «buyurtma berish», «odam oʻldirish», «kriminal», «avtoritet», «narkomaniya» kabi tushunchalarni oʻrganishga ehtiyoj sezadi. Yaxlit asoslanish uchun guruhlashtirilgan, boshqacha aytganda, konseptual butunlikni tashkil etuvchi tushunchalar tahlili birligiga nisbatan boshqacha ibora — «*tahlil kategoriyasi*» tushunchasi ishlatiladi

Tahlil kategoriyasi — tadqiqot konsepsiyasidagi tayanch nazariy tushunchalarni mantiqan qayta qurish natijasida matndagi axborotlarni empirik belgilarini anglatadigan mazmuniy birliklardir. Tahlil kategoriyasiga alohida talablar qoʻyilgan: ular tadqiqotning nazariy tushunchalarini ifodalashi lozim, matnda belgilarning (maʼnolarga oid birliklari) mosligiga erishish lozim, bu kategoriyalarni tashkil etuvchi belgilarni bir xil maʼnolarda qayd etish imkoniyatiga ega boʻlish kerak. Tahlilning borishidagi axborot yigʻishning asosiy vazifasi — hujjatda ajratib koʻrsatilgan muammolar, gʻoyalar, mavzularni (masalan, «boyliklarni adolatli tarzda taqsimlash» kabi) mavjud ekanligini koʻrsatib beruvchi indikatorlarni izlashdir. Tahlil kategoriyasi gʻoyalar va muammolar kategoriyasida ifodalangan maʼnolilik, jadallik (intensivlik), yoʻnalganlik kabilarni tavsiflovchi muayyan belgilar (ostki kategoriyalar) bilan ifodalanadi. Ularga jamiyat hayotining har qanday sohasidagi tushunchalarning barchasi taalluqlidir: mulkchilik shakllari, xususiylashtirish, moliya tizimi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, xoʻjalik yuritish usullari, milliylik, millatchilik, avtoritarizm, demokratiya, xalqaro hamkorlik, inson huquqi, insonparvarlik, faollik, ishbilarmonlik, qonunchilikni buzilishi, korrupsiya va boshq.

Tahlil kategoriyalarini aniqlash birinchi qadam boʻlsa, ikkinchisi — bu unga mos matnni tahlil etish birligini topish, uchinchisi — matndagi tahlil kategoriyasi belgilarini namoyon boʻlishining takrorlanishini (doimiyligini) qayd etishga imkoniyat beradigan hisoblash (sanash) birliklari, yaʼni tahlil birliklarining miqdoriy oʻlchovlarni (ular kontent-tahlil indikatorlari ham deyiladi) oʻrnatishdir. Hisoblash birligi sifatida quyidagilarni qabul qilish mumkin: 1) tahlil kategoriyasi belgisi namoyon boʻlishining takrorlanishi; 2) matn mazmunida ajralib chiqadigan tahlil kategoriyasiga eʼtibor qaratish hajmi. Eʼtibor qaratish hajmini aniqlash

uchun tabiiy makon birliklarida ifodalangan bosma nashr belgilari miqdori, matn sahifalari, abzatslarni keltirish mumkin. Gazeta va boshqa standart matnlar uchun — sahifadagi ustunlarning kengligi va fikr-mulohazalarning koʻlami olinadi. Ogʻzaki beriladigan matnlar uchun ham vaqt birligidan foydalanish mumkin. Hisoblash birliklari — bu jismoniy oʻlcham, efir vaqti kabilarda ifodalanadigan maʼlum soʻzlarning soni yoki ularning birikmalari, eslanib qolgan soʻzlarni takrorlanishi, sahifadagi qatorlar soni, nashr belgilari, sahifalar, abzatslar, mualliflik taboqlari, matn maydoni va boshqalar boʻlishi mumkin.

Kontent-tahlilni amalga oshirish jarayoni va tartiblari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: oʻrganilayotgan matndagi tahlilda bir turdagi birliklarining ajralib chiqishiga oid standart qoidalarni qoʻllash; mutlaq (necha martaligi) va nisbiy (foizlarda) tanlab olingan (hisoblanadigan hujjatlar soni) bu birliklarning uchrashuvchanligini takrorlanishini hisoblash. Bu jaryondagi bajarilishi shart boʻlgan ish — hisoblashning matematik-statistik metodlaridan foydalanishdir. Chunki, kontent-tahlilning asosini statistik oʻzaro aloqalarni aniqlash, ularning strukturaviy aloqalar oʻzaro munosabatlari tahlili asnosida toʻldiriladigan axborotlar uyumida tahlil etiladigan baʼzi komponentlarning³⁹³ uchrashuvchanligini miqdoriy va sifatiy tavsiflar bilan taʼminlagan holda hisoblash tashkil etadi³⁹⁴.

Kategoriyalar oʻzaro aloqalari turli darajada boʻlgan soʻzlarning *birgalikdagi uchrashuvchanlik metodi* yordamida oʻrnatiladi: unda har bir taqdim etilgan matnda qanday kategoriyadagi soʻzlar uchrashi aniqlanadi. Undan soʻng kategoriyalar oʻzaro aloqalari taʼsirlari va bu aloqalar belgisini ifodalaydigan oʻzaro bogʻliqlarning oddiy koeffitsiyentini hisoblash yengil kechadi. Kategoriyalarni ishlatgan holdagi matnlar kontent-tahlilini baʼzan *konseptual tahlil* deb ham atashadi. Uni qoʻllash sohalari juda ham kengdir. Uning yordamida ikki xil vazifalar hal etiladi:

1. Ikkita va undan koʻp matnlarda muayyan kategoriyalarga vazifalar qoʻyishga taalluqli taqqoslash zaruriyati mavjud. Masalan, ikkita gazeta oʻzlaridagi muayyan mavzularga qanday eʼtibor berishini aniqlash vazifasi qoʻyildi. Agar bu gazetalar bir xil oʻquvchilarga moʻljallangan boʻlsa, unda takrorlanishdagi jiddiy farqlanishlar — bu gazetalar ortida turgan odamlarning oʻtkazayotgan siyosatidagi farqlanishlar natijasida kelib chiqadi.

³⁹³Komponent - [lot. componens (compo-nentis) tashkil etuvchi] - nimanidir tarkibiy qismi.

³⁹⁴Яковлева Н.Ф. Социологическое исследование [Электронный ресурс]. Учеб. пос.-2-е изд.-М.:ФЛИНТА,2014.-С.209-211.

2. Muayyan kategoriyalar funksiyalari o'zgarishining rivojlanib borishini kuzatish vazifasi. Masalan, bunda dollar kursining o'zgarib borishi bilan davlatning tashqi qarzlari to'g'risidagi mavzuni OAVda takrorlanib turishidagi o'zgarishlar qonuniyatlari sifatida o'rganish mumkin.

Hozirgi davrda kontent-tahlilning to'rtta metodologiyasi mavjud:

-grammatik (lingvistik) — abzatslar hajmi, iboralar uzunligi, gapdagi so'zlar tartibi, tilning metrik tarkibi va rasmiy belgilari bo'yicha;

-semantik (sotsiologik) — mazmunini ekspert baholashi;

-hujjatli (kibernetik) — til, matn va hujjatni xabar (so'z birikmalari va ularning vazifalari, axborot zichligi, qanday jihatlar kasb etishi, oqimining darajasi, jismoniy va axborot bo'yicha hajmi, axborot sig'imi va axborotlilik) sifatidagi o'lchamlari bo'yicha;

-sitatsion — ilmiy adabiyotlardan olingan bibliografik iqtiboslarni (sitatalarni) tahlil etish³⁹⁵.

Sotsiolog olimlar kontent-tahlilni tasniflovchisi sifatida tahlil birliklari va tahlilning barcha kategoriyalarini ifodalaydigan umumiy jadvalni shakllantirdi. Uning asosiy vazifasi — tadqiqotda ishlatilayotgan har bir kategoriyaning qanday birlikda ifodalanishini imkoni boricha aniq qayd etish hisoblanadi. Kontent-tahlilning tasniflovchisi — tahlil kategoriyasi savollar, tahlillar birliklari esa javoblar rolini o'ynaydigan sotsiologik anketalarga o'xshatiladi, u kontent-tahlilning boshqa hujjatlar mazmunlarini belgilab beradigan asosiy metodik hujjati hisoblanadi.

11.5. Eksperiment metodi va uning turlari

Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda bo'lgani kabi sotsiologiyada ham eksperiment ikki hil ma'noni anglatadi: yangi bilimlarga erishish vositasi — u bunda asosiy (fundamental) fanlarni chuqurroq bilish metodi sifatida namoyon bo'ladi; sotsial voqelikni o'zgartirish, ilg'or g'oya, tajriba, dastur sinovlaridan o'tkazish usuli — u bunda amaliy fanlar sohasiga taalluqli tarzda bo'ladi. *Eksperiment* (lot. *experimentum* — sinov, tajriba) — biron-bir hodisa (jarayon, vaziyat) ustidan muayyan aniq maqsadga qaratilgan kuzatuvni amalga oshirish chog'ida uning tavsiflarining bir qismi (yoki aksariyati) muayyan tartib va izchillik asosida o'zgartirilsa, unda mazkur hodisaning (jarayon, vaziyat) tavsiflari qanday namoyon bo'lishini tadqiq etish strategiyasidir.

³⁹⁵O'sha joyda.-B.211-214.

Ekspiriment o'rganiladigan hodisaning tavsiflari o'zaro aloqalariga doir nazariy tasavvurlarga asoslangan holda farazlarni tekshirish metodi sifatida shakllandi va yashamoqda. Metodologik jihatdan eksperiment uchta bosqichda amalga oshiriladi: birinchisi — tadqiqot obyektini nazariy tahlil etish, ikkinchisi — o'zgarib boruvchi (yoki o'zgaruvchan) hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning mavjudligi, tavsiflari yoki yo'nalishlariga doir farazlarni shakllantirish, uchinchisi — o'zgarib boruvchi (yoki o'zgaruvchan) hodisalar va xususiyatlarning o'zaro bir-birlariga bog'liqli va bog'liqmasliklarga bo'lishdan iboratdir³⁹⁶. Eksperimental o'zgarib boruvchi hodisalar va xususiyatlarni bir-birlaridan ajratish — obyektini oldindan tahlil etish natijasi hisoblanadi. Ularning ichida tadqiqotchining ta'siri vositasida yo'naltiriladiganlari nazorat qilinadigan ajratish deb ataladi. Undan so'ng eksperimentning metodik qismi boshlanadi. Tadqiqot maqsadi va dasturi ishlab chiqilganidan keyin ikkita guruh tuziladi — eksperimental va nazorat etuvchi. Eksperimental metodning asosiy maqsadi — natijasi to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tavsiya etiladigan u yoki bu farazlarni tekshirishdir.

Ekspirimentni qo'llashda muayyan cheklovlar mavjud: bu metoddan faqat obyektida ro'y berayotgan o'zgarib borishlarni kuzatish va o'lchash, shuningdek mavjud bilimlar yordamida unda o'zgarib boruvchi strukturalarni ajratib olish va eksperimental omillarni qo'llash imkoniyati mavjud bo'lgan obyektlardagina foydalanish mumkin. Eksperimentning chegaralangan muayyan joyda o'tkazilishi tadqiqotchining umumlashtiruvchi keng va chuqur xulosalar olishini cheklab qo'yadi.

Ekspiriment dasturi sotsiologik tadqiqot dasturining barcha strukturaviy unsurlarini o'z ichiga oladi. Dastur tuzishdagi asosiy vazifa — bu sotsial obyekt xulqini aniqlovchi farazlarni va ularni o'zgaruvchan omillar tizimida tekshirishni rejalashtirishni shakllantirishdir. Uning o'ziga xosligi shundaki, u obyektini (sotsial guruhni) boshqarish va tadqiqot tizimlarida tegishli qoidalar asosida amalga oshiriladigan jarayonlarni ham o'z ichiga oladi³⁹⁷. Eksperimentdagi *o'zgaruvchilar* — bu o'zgariluvchi obyekt holatiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir qiladigan, uni nazorat qiladigan va nazorat qilmaydigan omillardir. O'zgaruvchilar tizimi bilan

³⁹⁶Mavzuda ishlatilayotgan “o'zgarib boruvchi” yoki “o'zgaruvchan” kabi tushunchalar hodisalar yoki jarayonlarning tashqi sabablar yoki aloqalar ta'sirida o'zgarib borishini nazarda tutmoqda. Matnda ular qisqacha tarzda - “bog'liqli o'zgaruvchanlik” yoki “bog'likli bo'lmagan o'zgaruvchanlik” qabilida berildi.

³⁹⁷Яковлева Н.Ф. Социологическое исследование [Электронный ресурс]. Учеб. пос.-2-е изд.-М.:ФЛИНТА, 2014.-С.215.

eksperimental vaziyat aniqlanadi va tavsiflanadi. Turli aloqalarga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarish — bu tadqiqotchi tomonidan o‘zgartiriladigan va so‘ngra ularni eksperiment guruhiga kiritadigan omildir. Bu obyektning holatiga ta‘sir etuvchi nisbatan mustaqil, barqaror va jiddiy omil hisoblanadi. Aloqalarga bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchi — bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarishlar ta‘sirida o‘zgarib boradigan omildir. O‘zgaruvchilar tahlil kategoriyalarini eksperimentda namoyon etadi, shuningdek tahlil kategoriyasi sifatida va empirik ko‘rsatkichlar ko‘rinishida aks etadi³⁹⁸.

Eksperimental vaziyat — bu eksperiment o‘tadigan shart-sharoitlar yig‘indisidir. Ular *dala vaziyati va laboratoriya vaziyatlariga* bo‘linadi. Ilmiy eksperimentning betakrorligi bu jarayon natijasida olimlarning qandaydir muayyan vaziyatlarni «boy berishiga» olib kelsada, bu jarayon natijasi sotsial hodisalar to‘g‘risida juda qimmatli axborotlar olishida namoyon bo‘ladi..

Eksperiment obyekti — sotsial guruh, jamoa, shaxs (eksperiment ishtirokchilari) kabilardan iborat. Eksperimentda ikki xil obyekt (eksperiment birligi) mavjud: *nazorat qilinadigan va eksperimental guruhlar*. Ikki guruhni taqqoslash farqlanishlarni aniqlaydi va kutilgan o‘zgarishlar yuz bergani yoki bermaganligi haqida tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Eksperimentda ishtirok etuvchilar odatda 10-15 kishidan ortmaydi.

Eksperimental guruh — eksperimental omillarga (bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchanliklarga) ta‘sir ko‘rsatuvchi birlikdir. Obyektni tanlashning umumiy talablaridan tashqari — o‘rganilayotgan obyektlar sinfidagi o‘ziga xoslik — bu guruhlariga eksperiment davrida ular tarkibining nisbatan barqarorligi va doimiy ravishda nazorat qiladigan kuzatuv imkoniyatiga ega bo‘lishi kabi talablar qo‘yiladi; shuningdek, ko‘pchilik holatlarda guruhning eksperimentda ishtirok etishga ixtiyoriy ravishda rozilik bildirishi talab etiladi³⁹⁹.

Nazorat guruhi tadqiqotchiga eksperimental jihatlar uchun berilgan o‘lchamlardagi ishlarni bajaradi, lekin u eksperimental omillarga (bog‘liq bo‘lmagan o‘garuvchanlikka) ta‘sir qilishga aralashmaydi. Nazorat guruhi mavjud bo‘lganida bu guruhning eksperimental guruh bilan qo‘shilishi natijasida jarayondagilar sonining ortishi evaziga sotsial eksperimentning yanada shaffofligi oshadi.

³⁹⁸ Григорьев СИ., Растов Ю.Е. Основы современной социологии: Учеб. пос. // <http://irbis.asu.ru/mmc/grig/4.2.ru.shtml>.

³⁹⁹ Гришаев С.В. Динамика социальной структуры Красноярского региона // Социологические исследования, 2001, № 2.-С.117-120

Ekspirimentni o'tkazish tartib-qoidalariga (protsedurasi) muvofiq ravishda olimlar dastlab tadqiqot obyektini o'rganishga oid ikkita bir xil va o'xshash guruhlariga bo'linadi: ularning birinchisi bir qancha yangi omillar kiritadi, ikkinchisi esa obyektga o'zgarishlarni kiritmay turadi. Ish so'ngida obyektga nisbatan ikki guruh olib borgan ish natijalari o'zaro taqqoslanadi. Taqqoslash o'tkazilayotgan obyektga faqat eksperimental vaziyat hosil qilish uchun vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun bu obyekt ommaviy so'rovlar obyektidan farqli o'laroq olingan natijalar va xulosalarni ishlatishga hech qanday aloqasi bo'lmaydi.

Ekspiriment bilish metodi sifatida nazorat qilinish va boshqarilish ta'sirlari yordamida jamiyat va tabiat hodisalari tadqiq etishning beshta bosqichidan o'tib boradi:

1. Ikkita guruh tashkil etiladi: a)eksperimental (olim aralashishi mumkin bo'lgan guruh), u yana interventsiviy (bosim bilan kiruvchi) yoki rag'batlantiruvchi guruh deb ham ataladi; b)hech kim aralashmaydigan nazorat guruhi.

2. Bu ikki guruhga sinaluvchilar ichidan tasodifiy tanlab olishlar asosida a'zolar olinib, ularning iloji boricha teng bo'lishiga e'tibor beriladi. Guruhlar hajmi jihatidan qancha katta bo'lsa, ularning tenglik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi⁴⁰⁰.

3. Ikkala guruh ham tadqiqotchining eksperiment jarayonida mo'l-jallagan o'zgarishlarni o'rganish zarur bo'lgan — masalan, daromad, abortga moyillik kabi boshqa turli o'zgarishlarni o'lchash uchun oldindan pre-testdan (*pretest*) o'tkaziladi.

4. Bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanlik, ya'ni rejalashtirilgan o'zgarishlar kiritiladi.

5. Bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik, ya'ni yangi kiritishlar oqibatlari post-testda (*posttest*) o'lchanadi.

Agar eksperimental guruhda aloqalarga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik ahamiyati almasha, lekin nazorat ostidagilari almashmasa, unda sotsiolog aloqalarga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlikning o'zgarishi tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilgan aloqalarga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlikka nisbatan o'tkazgan «sof» ta'siriga bog'liq, degan xulosani chiqarishi mumkin. Aloqalarga bog'lik bo'lmagan va bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanliklarning o'zaro aloqalariga doir farazlar quyidagi holatda isbot etilgan deb e'tirof etiladi: *nazorat guruhidagi oldingi*

⁴⁰⁰Яковлева Н.Ф. Социологическое исследование [Электронный ресурс].Учеб. пос.-2-е изд.-М.:ФЛИНТА,2014.-С.217.

o'zgaruvchanlik barqaror holda saqlanayotgan sharoitda eksperimental guruhda aloqalarga bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanlikni o'zgarishi bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlikda o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi lozim.

Ekspirimentda guruhlarini shakllantirish. Ekspirimentni o'tkazishda eksperimental guruhga a'zolar tanlab olish va uni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspirimentni o'tkazishning eng oddiy usuli — eksperimentdan oldin va undan keyingi holatni taqqoslash hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko'rsatkichlari bilan ish joylarini yoritilganligini (bu ataylab qilinmagan bo'lsa) o'zaro taqqoslash mumkin. Lekin, bu kabi soddalashtirilgan eksperiment jarayoni aloqalarga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlikka ta'sir qiladigan — hisobga olinmagan o'zgaruvchanlik kabi yana ko'plab boshqa jarayonlarni kuzatishga imkon bermaydi. Bu ta'sirni bartaraf etish uchun, yoki hech bo'lmasa bu ta'sir ishtirokini nazorat qilish uchun nafaqat eksperimental, balki nazorat guruhini ham ajratish taqozo etiladi. Bu hisobga olinmagan omillar eksperimental va nazorat guruhlarida teng harakat qilishlari mumkin, degan mo'ljallarga asoslanadi. Eksperimental guruhda nazorat qilinayotgan (bog'liq bo'lmagan) o'zgaruvchanlikning yanada o'zgarishi amalga oshiriladi. Nazorat guruhida aloqalarga bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanlik o'zgarishsiz qolaveradi⁴⁰¹.

Sotsiologiyada guruhlarini shakllantirishning uchta metodidan foydalaniladi: juftlab tanlash, strukturaviy aynanlashtirish va tasodifiy tanlash⁴⁰².

Juftlab tanlash metodi. Bunda bosh yig'indi (ro'yxatga olingan barcha ishtirokchilar) ichidan ikkita guruh shunday tarzda tanlab olinadiki, ular xolislik, nazorat etish va omillik tavsiflari bo'yicha bir-biriga aynan bo'lishi lozim⁴⁰³. Undan so'ng har ikkala guruh uchun ham teng sharoitlar yaratiladi, birmuncha vaqt o'tganidan keyin ikkala guruhda nazorat belgilarining o'lchamlarini taqqoslash va qayd etish yo'li bilan eksperiment samarasi o'lchanadi. Bu metod ko'proq parallel (yondosh) eksperimentlarda ishlatiladi.

Strukturaviy aynanlashish metodi. Bu ham chiziqli, ham parallel eksperimentlarda qo'llaniladi. Chiziqli eksperimentda guruh shunday tanlanadiki, u xolislik va nazorat qilish tavsiflari bo'yicha o'zida bosh

⁴⁰¹Густафсон Б., Ниворожкина Л. Сравнительный анализ бедности в России и Швеции // Бедность: взгляд ученых на проблему / Под ред. М.А. Можинной. - М., 1994. - С. 77-78

⁴⁰²Добренев В.И., Кравченко А.И. Методы социологического исследования: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2006.

⁴⁰³Зеркало мнений: Результаты социологического опроса населения России. - М., 1993.

yig'indining makromodelini ifoda etsin. Tanlov kvota bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Parallel eksperimentlarda yuqorida ko'rsatilgan tavsiflar bo'yicha eksperimental va nazorat guruhlarining strukturalari baravarlash-tiriladi.

Tasodifiy tanlov metodi oldindan berilgan ma'lum hajmdagi tanlov ehtimolligi metodiga o'xshaydi. Bunda qoidaga binoan eksperimental guruh juda ham katta hajmda bo'lganida (bir necha yuz) dala eksperiment-larida qo'llanadi⁴⁰⁴. Tasodifiy tanlov texnologiyasida randomizatsiya⁴⁰⁵ keng qo'llaniladi. *Randomizatsiya (randomisation)* — sinalayotganlarning eksperimental va nazorat guruhlariga tasodifiy taqsimlanishini ta'minlab beradigan qoidalar tartibiga (protseduraga) amal qiladi. Maqsad — bir xil turdagi sinalayotganlarning ongli va ongsiz ravishda tanlash imko-niyatlarini ozaytirishga, masalan, ko'proq ma'lumotli va sog'lom odamlarni tanlashga qaratishdan iboratdir. Tasodifiy taqsimlashni qo'llash tufayli ikkala guruhdagi farqlanishlarni ozaytirishga erishiladi. Shu tariqa, guruhlarning qandaydir belgilari tufayli doimiy ravishda paydo bo'lib turadigan ehtimolligi kamayadi.

Eksperimentda uchrab turadigan xatolar va qiyinchiliklar quyida-gilardan iborat:

- eksperiment oddiy va boshqa oson usullar bilan axborotlar olish maqsadida amalga oshiriladi;
- eksperimentni qo'shilgan yoki standartlashgan qo'shilmagan kuzatuv, degan xato qarashlarni mavjudligi;
- eksperimental vaziyat aniq belgilanmaganligi uchun eksperiment sharoitlarning buzilgan holida o'tkaziladi;
- eksperimental vaziyatni subyektiv baholash uning obyektiv tavsiflariga nisbatan ustun bo'ladi;
- o'zgaruvchanlikning nazariy tizimi noto'g'ri qurilgan, undagi sabab va oqibatlar chalkashib ketgan;
- o'tkazilgan ekspertning maqsadi, vazifalari va tadqiqot farazi bilan organik birlikdagi aloqalar to'liq emas yoki yetishmaydi;
- shakllantirilgan farazlar muammoli vaziyatlarni, o'rganilayotgan obyekt-dagi jiddiy o'zaro bog'liqlarni ifodalamaydi;
- eksperimental tekshiruvga taqdim etilgan farazlarda ko'p ma'no-lilikka yoki noaniq tarz-dagi shakllantirishlarga yo'l qo'yiladi;

⁴⁰⁴Иванов М.А.Беседа как метод исследования//Социологическое исследо-вание, 1989. №4.-С.14.

⁴⁰⁵Randomizatsiya - [ingl.randomtussmollab tanlangan, tasodifiy] - anlov tadqiqotini o'tkazishda statistik yig'indi unsurlarini tasodifiy tarzda tanlash usuli yoki protsedurasi.

- bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanlik sifatida o'rganilayotgan hodisalardagi barqaror aniqlovchilikni bajarish jarayonlariga sabab bo'lmaydigan omillar ajratiladi;
- eksperimental omil (bog'lik bo'lmagan o'zgaruvchanlik) aniqlovchi rolini bajarishi va tadqiqotchi tomonidan boshqaruvga jalb etilishi mantiqqa zid ravishda hisobga olinmaydi;
- bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanlikka kirmagan bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlik omillarining ta'siri e'tiborga olinmaydi;
- obyektни oldindan tavsiflashda xatolarga yo'l qo'yilgan, natijada o'zgaruvchanlik va o'xshash bo'lmagan ko'rsatkichlar empirik noto'g'ri sharhlanadi;
- eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirishda xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Eksperimentning borishida guruhlar o'rtasidagi farqlanishlarning mavjud bo'lishi sababli bu guruhlarning o'zgaruvchanlik tarkibi bo'yicha taqqoslashga yetarli imkoniyati bo'lmaydi;
- eksperimentning borishida eksperimental guruhning oldin ma'lum bo'lmagan xususiyatlari o'zini namoyon qila boshlaydi;
- keraksiz qo'shimcha omillarning ta'siriga barxam berilmaganligi uchun eksperimental vaziyatni shakllantirishda qiyinchiliklarni paydo bo'lishi;
- o'zgaruvchanlik holatini o'lchash va nazorat qilish darajasi to'liq ta'minlanmaydi;
- eksperiment natijalarini tahlil etishda sotsiolog bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanlikni bog'liq bo'lgan o'zgaruvchanlikka ta'sirini ortiqcha baholaydi, eksperimental vaziyatdagi o'zgarishlarga nisbatan qator tasodifiy omillarning ta'siri hisobga olinmaydi⁴⁰⁶;
- eksperimentni amalga oshirish vositalari eksperimentning shaffofligini saqlashga emas, balki, faqat muayyan ma'lumotlarni qayd etishga qaratiladi;
- olingan axborotlarni tahlil etishda foydalanilgan statistik metodlar sababli-oqibatli aloqalar tabiatiga mos kelmaydi;
- eksperiment o'tkazuvchilar xulosalari farazlarga zaruriy asoslarsiz tiqishtiriladi;
- eksperiment unda ishtirok etishni xohlamaydigan va ishtirok etishga qarshilik ko'rsatadigan odamlar ustidan o'tkazilmoqda;
- eksperimental ishlarni tashkil etuvchilar orasida eksperimentning ijobiy natijalaridan manfaatdor bo'lmagan odamlar mavjud;

⁴⁰⁶Каменская Е.Н. Социология: Учебное пособие.-М.: Дашков и К, 2005.-С.31-32.

- eksperimentning borishida uning qatnashchilari o'rtasida ishtirok etish masalasida ixtiloflarning paydo bo'lishi;
- jamoaning oldinlari ham bu kabi eksperimentlarda ishtirok etganligi, lekin unda ortiqcha tashvishdan boshqa hech narsani ko'rmaganligini pesh qilib, eksperimentda ishtirok etishdan bosh tortishi.

Sotsial fanlardagi eksperiment turlari. Bu fanlarda eksperimentlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) haqiqiy eksperimentlar va qalbaki eksperimentlar;
- 2) tabiiy eksperimentlar (*natural experiments*) va naturalistik (umumlashmalardan qochib, ko'proq tafsilotlarga beriladigan) eksperiment (*naturalistic experiments*) — dala (tabiiy) va laboratoriya eksperimentlari;
- 3) parallel (yonma-yon) va izchillik asosidagi (chiziqli) eksperimentlar;
- 4) faol va faol emas (passiv) eksperimentlar;
- 5) «yaxshilovchi» va «haqiqiy ijtimoiy muhitning nusxasini ifodalovchi» eksperimentlar;
- 6) metodik eksperimentlash va baholash tadqiqotlari olib borish eksperimentlari;
- 7) ko'p omilli va bir omilli eksperimentlar;
- 8) model va fikriy (faraziy) eksperimentlar;

Sotsial fanlarda eksperimental vaziyatning qandayligiga qarab (ko'pincha sotsiologiya va antropologiya fanlarida uchrab turadi) ikkita asosiy eksperiment — dala va laboratoriya eksperimentlari mavjuddir.

Laboratoriya eksperimenti — alohida shart-sharoitlarda individ faoliyatini modellashtirishga qaratilgan metodik strategiyadir. U nazorat qilinadigan o'zgaruvchanlikni o'zgarishi va bog'langan o'zgaruvchanlikda birgalikdagi o'zgarishlarni yuz berishiga imkoniyat beradigan sun'iy vaziyatni hosil qilishga asoslanadi. Bunda texnikaviy moslashtirish va maxsus jihozlar bilan ta'minlanish ko'zda tutiladi. Laboratoriya eksperimentining asosiy belgisi tadqiq etilayotgan tavsiflarni va ularni namoyon bo'lishini takroriy ravishda yaratib borishdan iboratdir⁴⁰⁷.

Dala eksperimenti o'rganiladigan jarayonlar sharoitlari tabiiy tarzda shakllantirilgan holda o'tkaziladi. Bu eksperimentda nazorat va eksperimental guruhlarini zaruriy o'zgaruvchanlik yig'indisi bilan birgalikda tanlash talab etiladi⁴⁰⁸. Bunda guruh a'zolari (sinalayotganlar) eksperimentda ishtirok etayotganligi to'g'risidagi axborot bilan tanishtiriladi yoki

⁴⁰⁷ Яковлева Н.Ф. Социологическое исследование [Электронный ресурс]. Учеб. пос.-2-е изд.-М.: ФЛИНТА, 2014.-С.223

⁴⁰⁸ Кутляев А. Умеете ли вы задавать вопросы?//Новые рынки, 2001, №4.-С.3.

tanishtirilmaydi. Bu kabi tanishtirishlar eksperimentning borishiga qanday ta'sir o'tkazishiga qarab amalga oshiriladi.

Haqiqiy eksperimentlar tabiiy fanlar ishlab chiqqan ilmiy metodlarga (olimlar oxirgi natijalarga ta'sir etadigan nazoratlar o'tkazmaydi) rioya qilish asosida tashkil etiladi. Ular sotsial fanlarda kamdan-kam o'tkaziladi.

Ba'zan sotsial fanlarga doir tadqiqotlarda *kvazieksperimentlar* (lot. kvazi — go'yoki, haqiqiy bo'lmagan) ham qo'llaniladi. Ular haqiqiy eksperimentning teskarisi, deb ham ataladi⁴⁰⁹. Bu kabi eksperimentlarda ilmiy metodning barcha talablariga unchalik amal qilmaydi → tadqiqot dasturi bo'lmaydi, farazlar va o'zgaruvchanliklar ilgari surilmaydi, tuzilishi shart bo'lgan ikkita guruh tuzilmaydi. Lekin, shunga qaramay, eksperiment o'tkazilgan hisoblanadi⁴¹⁰. Bu kabi eksperimentdan faqat bir narsa qoladi — subyektning obyektga ta'siri natijasida sotsial muhitning o'zgarishi. Shuning uchun ham u sotsial fanlar tomonidan ancha vaqtlardan buyon o'tkazib kelinmoqda. Chunki, ular u yoki bu darajadagi (ba'zan muhitni yaxshilashga, ba'zan yomonlashuviga olib keluvchi) amaliy samaralarga erisha oladi. Masalan, shaharda haq olinadigan yangi telefon tizimi o'rnatiladi: o'ziga xos yo'l haqi tizimi joriy etiladi, nogironlar uchun alohida imtiyozlar beriladi (ular yangilik kiritishlar yoki innovatsiyalar deyiladi). Bu eksperiment ana shu kabi holatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Tabiiy (natur) eksperimentlar haqiqiy va kvazieksperimentlardan tubdan farq qiladi. Bu kabi eksperimentlar quyidagi holatlarda qo'llaniladi: a) qishloq aholisini bir qismi shaharga ko'chdi, bir qismi esa qishloqda qoldi; b) mintaqadagi ba'zi qishloqlar elektrlashtirildi, ba'zilar elektrlashtirilmadi; v) milliy ozchilik vakillari bolalarining bir qismi maktabga bormoqda, qolganlari esa maktabga bormayapti; g) ba'zi madaniyatlar turida ayollarning o'ranib yurishi, ba'zilarida esa ularning ochiq yurishi taqozo etiladi. Bunda natijalarni faqat respondentlarning javoblari shakllantiradi, ularga tadqiqotchining aralashuvi kamdan-kam bo'ladi.

Parallel eksperimentlarda bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanliklar holati bilan ularning eksperimental guruhdagi holati — ikkala holat parallel ravishda o'lchanadi, nazorat guruhida esa eksperimental ta'sirlar amalga oshirilmaydi. Guruh tarkibi eksperimentning borishiga ta'sir qiladigan (birinchi navbatda sotsial-demografik belgilarga) barcha nazoratga oid va boshqa xolis tavsiflarga aynanlashishi lozim.

⁴⁰⁹Мягков А.Ю. Влияние метода сбора данных на вербальное поведение респондентов//Социологический журнал,1999,№1/2.-С.133-142.

⁴¹⁰Природопользование.Словарь-справочник./Под ред.Реймерс Н.Ф..-М.: Мысль,1990.-С.17-18.

Nazorat guruhining tavsiflari eksperiment davomida o'zgarimay turadi. Eksperiment yakunlari bo'yicha ikki guruhning nazorat tavsiflari taqqoslanadi, ro'y bergan o'zgarishlar sabablari va o'lchamlari to'g'risida xulosalar chiqariladi.

«*Eks-post-faktum*» eksperimenti faraziy sabablar ta'sirlarini hozirgi davrdan o'tgan zamonga qarab rekonstruktsiya (qayta tiklashni) qilishni nazarda tutadi. *Fikriy eksperiment* deb o'rganilayotgan obyekt to'g'risida olingan axborotlarni tadqiqotchi bu obyektidagi bo'layotgan jarayonlarga aralashmagan holatidagi sharhlashining maxsus texnologiyasiga aytiladi. *Assotsiativ*⁴¹¹ *eksperiment* — loyihalash metodi hisoblanadi. Bu metod bir vaqtning o'zida K.G. Yung, M. Vertgeymer va D. Klyayn tomonidan taklif etilgan bo'lib, u shaxs motivatsiyasini tadqiq etishga mo'ljallandi. Unda sinov qilinayotgan shaxsga bir necha so'zlar to'plamiga tezlik bilan javob berish taklif etiladi, ya'ni, uning miyasiga keladigan har qanday so'zga nisbatan paydo bo'ladigan rag'batlarini aniqlash amalga oshiriladi⁴¹². Bunday uyushish yoki birikuvlar ularning bir xilli uyushuvlarini takrorlanishi, so'z-rag'bat va sinalayotgan odamning javoblari bilan o'tgan vaqt o'rtasidagi farqlarga doir ko'rinishlari bo'yicha qayd etiladi. Olingan ma'lumotlar asosida sinalayotgan shaxsdagi yashirin mayllar va ehtiroslar yig'indilari to'g'risida xulosalar chiqariladi.

Sotsiometrik eksperiment sotsiologiyaning muhim tadqiqot metodlaridan biridir. U odamlar o'zaro aloqalari, odamning u yoki bu guruhdagi holatlarini (ishlab chiqarish jamoasi, maktab sinfi, bolalar bog'chasi va hokazo) o'rganish uchun qo'llanadi (bu metodga doir qo'shimcha tafsilotlar sotsial guruhga doir mavzuda ham berilgan). Guruhni o'rganishda har bir guruh a'zosi o'zining ish, dam olish va boshqa mashg'ulotlardagi hamkoriga taalluqli bo'lgan savollarga javoblar beradi. Uning natijalari bo'yicha guruhdagi ommaviyroq bo'lgan yoki yetakchilik sifatlarini o'zida namoyon qila oladigan shaxslar aniqlanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sotsiologik tadqiqot deganda nimani tushunasiz?
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi qanday unsurlardan iborat?
3. Tadqiqot obyekti va subyekti nimalarni anglatadi?

⁴¹¹Assotsiativ - [lot. associare qo'shmoq, birlashtirmoq] - bir nechani (individ, manfaat, ehtiyoj, hodisa va boshq.) birga qo'shilishi.

⁴¹²Яковлева Н.Ф. Социологическое исследование [Электронный ресурс]. Учеб. пос.-2-е изд.-М.:ФЛИНТА,2014.-С.226

4. Sotsiologik tadqiqotda qanday ma'lumotlar to'plash metodlari mavjud?
5. So'rov metodi deganda nimani tushunasiz?
6. Sotsiologik tadqiqotda qanday anketalar ishlatiladi, ularning mazmuni nimalardan iborat?
7. Kuzatish metodi sotsiologik tadqiqotda qanday o'rin tutadi?
8. Hujjatlarni tahlil etish metodi qanday unsurlardan iborat?
9. Kontent-tahlil deganda nimani tushunasiz?
10. Sotsiologik tadqiqotlarda eksperiment metodi qanday qo'llanadi?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. 5.10.2016 // Xalq so'zi, 2016, 6-okt.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017- y., 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 20.04.2017 // http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=3171590.
5. Karimov I.A. Asarlar. 1-24 jild. - T.: O'zbekiston, 1996-2016.
6. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016-y., 9-sentyabr // <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/15789>.
7. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir. // XXI asr, 2016, 20-oktyabr.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017. - T.: O'zbekiston, 2017.
9. Gold R.L. Roles in Sociological Fieldwork / R.L. Gold // Social Forces. 1958. Vol. 36.
10. Густафссон Б., Ниворожкина Л. Сравнительный анализ бедности в России и Швеции // Бедность: взгляд ученых на проблему / Под ред. М.А. Мужиной. - М., 1994.
11. Ганиева М.Х. Введение в социальную работу. - Т., 2011.
12. Девятко И. Методы социологического исследования. - М., 2006.

13. Добренъков В.И., Кравченко А.И. Методы социологического исследования: Учебник.-М.: ИНФРА-М, 2006.
14. Ерина С.И. Организация и методы прикладного социально-психологического исследования: метод. указания/С.И. Ерина.-Ярославль, 2004.
15. Зиммель Г. Проблемы социологии//Избранное.Т.2.//Созерцание жизни.-М.:Юрист,1996.
16. Иванов М.А. Беседа как метод исследования//социологическое исследование,1989.№4.
17. Лисовский В.С. Динамика социальных изменений//Социс.,1998. №5.
18. Ковалевская Е.В. Социология: учебное пособие, практикум по дисциплине//Московский государственный университет экономики, статистики и информатики.-М.:МЭСИ,2004.
19. Методическое пособие социолога-практика (словарь-справочник) /Под.ред.Д.А. Шевченко,А.И. Кравченко.-М.,2001.
20. Мягков А.Ю. Влияние метода сбора данных на вербальное поведение респондентов//Социологический журнал,1999.№1/2.
21. Ноэль Э. Массовые опросы: введение в методику демоскопии.-М., 1978.
22. Руденко,Л.Д. Современные методы социологических исследований: учебное пособие/Л.Д. Руденко;Яросл. гос.ун-т им.П.Г.Демидова.-Ярославль:ЯрГУ,2012.
23. Смелзер Н. Социология: пер.с англ.-М.:Феникс,1994.
24. Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г.В. Осипов, Л.Н. Москвичев.-М.: Норма,2003.
25. Социология: Словарь-справочник. Т.4. Социологическое исследование: Методы математики и статистика.-М.,1991.
26. Социология. Хрестоматия для вузов/Кравченко А.И.-М.: Академический Проект,2002.
27. Социология//Ўқув қўлланма/Убайдуллаева Р.А., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ.-Т.:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,2002.
28. Социология. Маърузалар курси./Алиқориев Н.С., Бекмуродов М.Б., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ.-Т.,2001.
29. Социология//Ўқув қўлланма./Алиев Б., Рафиқов Ф., Муллажоновна М., Раҳмонов Б. ва бошқ.Т.:ТДЮИ,2006.
30. Убайдуллаева Р.А., Ота-Мирзаев О.Б. ва бошқ. Социологик тадқиқотлар амалиёти. Ўқув-услубий қўлланма.-Т.:Ижтимоий фикр,2001.
31. Хеллевик О. Социологический метод.-М.,2002.
32. Ядов В.А. Социологическое исследование: методология программа методы//[http://www. socioline.ru](http://www.socioline.ru).
33. Яковлева Н.Ф. Социологическое исследование [Электронный ресурс]. Учеб. пос.-2-е изд.-М.:ФЛИНТА,2014.

GLOSSARIY

Avtonomiya - [yunon. autos+ nomos — o‘zi+qonun] - 1.Yagona davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma‘muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

Avtoritar - [lot. auctoritas — hokimiyat, ta‘sir] - hokimiyatning bir kishi yoki bir hokimiyat organi qo‘lida to‘planishi, diktatorlik uslublari bilan idora etishga asoslangan siyosiy rejim.

Agregat - [lot. aggregatus birlashtirilgan] - 1)bir turdagi va turli turdagi mexanik birlashmalar yoki mexanik qorishma (aralashma); 2)bir necha turli xildagi mashinalar, apparatlarni bir vaqtning o‘zida ishlashi uchun bir butunlikka birlashtirish, masalan turbogenerator yoki ekish agregati (traktorga ekish uskunasi va sixmola birlashtiriladi).

Agregatsiya - [lot. aggregatus — qo‘shilgan, to‘plangan] - nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya‘ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida asosiy va muhim manfaatlar uyg‘unlashtiriladi va ular o‘rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi.

Aksiologiya - [yunon. axia - qadriyat, logos - so‘z, ta‘limot] - qadriyatlar nazariyasi.

Aktor - [lot. «actor» — aktyor, arbob] - muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subyekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va subyekt tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi.

Altruizm - [fr. altruisme < lot. alter boshqa, o‘zga] — boshqalarga beg‘araz g‘amxo‘rlik qilish, boshqalar uchun o‘z manfaatlaridan kechish (uning aksi egoizm - xudbinlik).

Anarxizm - [yunon. anarchia — boshliqsizlik, hokimiyatsizlik] - jamiyatni davlatsiz qurish, har qanday institutlashgan hokimiyat shaklini fuqarolarning erkin va ixtiyoriy uyushmalariga almashtirish tarafdori bo‘lgan siyosiy oqim.

Anaxronizm - [yunon. ana+chromos—orqaga+vaqt,zamon] - yangilish holda bir davrdagi voqea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo‘yish.

Anomiya - [anomie me‘yorsiz] — bu tushuncha sotsiologiyaga E.Dyurgeym tomonidan kiritilgan. U jamiyat yoki shaxsning jamiyatga nisbatan holatini ifoda etib, jamoaviy yoki individual hayotni muvofiqlashtiruvchi me‘yoriy va axloqiy sifatlar samarasining kamayib ketganligini, konsensusning kuchsizlanib ketishini anglatadi.

Antipatiya - [yunon. antipatheia] — yoqtirmaslik hissiyoti, moyil emaslik; simpatiyaning aksinchasi.

Antipod - [yunon. antipodes — qarama-qarshi joylashgan] — qarama-qarshi qarashlar, didlar yoki xulqqa ega odamlar; oʻzaro zid va qarama-qarshi sifatlar.

Artikulyatsiya - [lot. articulation — alohida-alohidaga boʻlinish] - nodavlat va jamoat tashkilotlari, individlar va sotsial guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiy ruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va maʼlum siyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi.

Apatiya - [yunon. apatheia — behushlik, eʼtiborsizlik] - butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

Antreprenyer - [fr. entrepreneur — tadbirkor, ishbilarmon] - xususiy, tomosha qilish (teatr, sirk va boshq.) korxonalari egasi.

Apparat - [lot. apparatus] — sotsial fanlarda boshqaruv yoki xoʻjalik sohasida xizmat koʻrsatuvchi muassasalar yigʻindisi maʼnosini anglatadi (masalan, davlat apparati, sud apparati va hokazo).

Aristokratiya - [yunon. aristokratia, zodagonlar hukmronligi] - biron-bir ijtimoiy qatlam yoki guruhning imtiyozli qismi.

Askriptiv — [ingl. ascription — nisbat berish] - askriptiv mezonlar - individning kelib chiqishi boʻyicha qanday toifa, urugʻ, oila kabilarga tegishli ekanligiga asoslangan mezonlari.

Assotsiativ - [lot. associare qoʻshmoq, birlashtirmoq] — bir nechani (individ, manfaat, ehtiyoj, hodisa va boshq.) birga qoʻshilishi.

Assotsiatsiya - [lot. association — qoʻshilma] - qoʻshilish, aralashish; shaxslar birlashmasi yoki faoliyat turi boʻyicha tuzilgan muassasa.

Atribut - [lot. attributum — muhim belgi, aniqlovchi] - biron-bir predmet yoki hodisaning muhim va ajralmas xususiyati, nimanidir tarkibiy qismi.

Autopoyezis - bu «shunday tuzilmaki, u oʻzining «xususiy holati»ni oʻzi ifodalaydi, yaʼni, u tizim komponentlarining shunday unumli oʻzaro xatti-harakatlariki, ayni ana shu komponentlarning oʻzi ularning natijasi oʻlaroq namoyon boʻladi. Autopoyezisning koʻrinishlari (hodisalari) toʻplami haddan tashqari keng: gʻisht zavodining oʻzi gʻishtlardan qurilgani holda gʻishtlar ishlab chiqaradi; organizm (organlar va hujayralardan iborat boʻlgan) organlar va hujayralarning oʻzaro xatti-harakatlari natijasi oʻlaroq ishlab chiqariladi; til tillar haqida soʻzlashga imkon beruvchi alohida tizimdir, yaʼni, uning oʻzi oʻzi haqida gapiradi, shuningdek, til vositasida qanday soʻzlash va soʻzlarni qanday talaffuz qilish masalasi yechiladi. Shunday ikkilanish yoki ikkiga boʻlinish (differentsiatsiya) funksiyasi doimo oʻz unsurlarini tugʻib turadigan yaxlitlikni takror va takror yaratib turadi. Ana shu xildagi voqelik jamiyat haqidagi oʻz nazariyalarini shakllantirgan sotsiologiya (jamiyatning bir qismi sifatida) uchun ham taalluqlidir. Ustiga-ustak ana shu nazariyalarning oʻzi kommunikativ harakatlardan iborat boʻlganligi uchun ham jamiyatni ifodalaydi. Shuningdek,

fanni tahlil qiluvchi bilish nazariyasining o'zi fandan iborat va uning o'zi bevosita fanlarni yaratishda ishtirok etadi.

Autsayder - [ingl. outsider] — musobaqalarda oxirgi o'rinni olgan sportchi yoki sportchilar komandasi.

Affekt - [lot. affectus ruhiy tug'yon, iztirob, hayajon] — nisbatan qisqa muddatli, kuchli va jo'shqin tarzda ro'y beradigan hissiyotli qayg'u, hasrat: keskin harakatlar ifodalanadigan qichqiriq, yig'lash bilan kechadigan g'azab, qahr, vahima, tushkunlik.

Bozor - bu tushuncha dastavval, erkin tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatchiligi sharoitida talab va takliflar o'zaro nisbati muvofiqligi asosida (ekvivalent narxlar almashuvi asosida) ishlab chiqarish va tovarlar almashuviga asoslangan, o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy tizimni ifodalaydigan bozor iqtisodiyotini anglatadi. Bozorning asosini ishlab chiqarish vositalari, shart-sharoitlari va ishlab chiqaruvchining birinchi navbatda o'z shaxsiy manfaatlarini amalga oshirishga intilishi tashkil etadi. Ayniqsa, ishlab chiqaruvchining shaxsiy manfaatini amalga oshirishga intilish hodisasi eng muhim omil hisoblanadi.

Byurokratiya - [fr. bureau byuro+yunon. kratos-hokimiyat, kuch-qudrat] - davlat boshqaruvi oliy mansabli ma'muriyati.

Verbal — [lot. verbalis — so'z orqali] - og'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning subyektiv jihatiga bog'liq emasligiga ishora qilinmoqda.

Gabitus - [lot. habitus tashqi ko'rinish, sirtqi qiyofa] — odam, jonivor, o'simlik va boshqalarning tashqi ko'rinishi.

Gedonizm - [yunon. hedone lazzatlanish] — dastlabki Kiren falsafa maktabi (er.il.IV-asrdagi) tomonidan rivojlantirilgan etikaviy ta'limot: u oliy farovonlikdagi hayotning asosiy maqsadini lazzatlanish sifatida e'tirof etadi.

Gen - [yunon. genos kelib chiqish] — irsiyat yoki nasldan-naslga o'tishning oddiy tashuvchisi yoki tarqatuvchisi, xromosomaning muayyan qismida joylashgan va qayta ishlab chiqarishga qobil bo'lgan irsiy (genetik) birlik.

Gibrid - [lot. hibrida chatishma, qurama, aralash] — o'simliklarning yangi turlari va hayvonlarning yangi zotlarini olish uchun o'simliklar va hayvonlarning har xil turlari va zotlarini bir-biriga chatishtirish.

Gildiya - [nem. gilde — korporatsiya] - o'rta asrlarda savdogarlarning sex korporatsiyalarini, keyinchalik savdogarlarning tabaqaviy birlashmalari nomini anglatgan tushuncha.

Globalizm - global so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, uning o'zagi lotin tilidagi globus - shar, ya'ni yer shari so'zidan olingan. Bu so'zdan inglizcha global — «global» iborasi tashkil topdi. Bu ibora yer shariga taalluqli — sayyoraviylikka daxldorlik ma'nolarini bera boshladi. Global jamiyat — eski tartibotlarga qarshi chiqish demakdir. Lekin, u hali o'zini to'liq namoyon qilgani yo'q. Uni paydo bo'lishiga doir sotsial nazariyalar hali o'z nihoyasiga

etgani yo‘q. Olbrouning fikricha, hozirgi zamon tugab bormoqda, lekin bu tarix tugadi, degani emas. Biz global davrda, hozirgi zamonning oxirgi bosqichida yashamoqdamiz. Global davrga o‘tishning boshlanishi BMTning global halokatlar to‘g‘risidagi ma‘ruzasida ochiq-oydin keltirildi.

Gomogenlashuv - [yunon. homogenes bir tarkibli] — tarkibi bo‘yicha bir xillashuv; urug‘, qabila, millat, sotsial qatlam, guruh, jamiyat va boshqa hodsalarning sotsial, madaniy, milliy kabi jihatlarini mezonlarini aniqlashda ishlatiladi.

Gradualizm - [lot. gradatio - asta-sekinlik bilan o‘zgarish] - bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga asta-sekin va ohista tarzda, keskin bo‘lmagan holda va «shok terapiyasi»si usulini qo‘llamasdan o‘tish.

Deviantlik - madaniy me‘yorlarni anglab va bilib turib buzish demakdir. Modomiki, deyarli barcha insoniy faoliyat bu kabi holatga tushib qolishi mumkin ekanligiga e‘tibor bersak, deviantlik tushunchasi haddan tashqari katta ko‘lamdagi hodisa va voqeliklardan iborat ekanligini anglaymiz. Uning turlaridan biri — bu jamiyatda rasmiy ravishda qabul qilingan jinoyatga oid qonunchilikning buzilishi hisoblanadi. Kriminal deviantlik yo‘l-transport harakati qoidalarini buzishdan boshlanib, zo‘rluk bilan nomusga tegish va qotillik bilan tugaydi.

Deviatsiya - [lot. deviatio og‘ish de+via yo‘l+dan] — psixologiya va sotsiologiyada to‘g‘ri yo‘ldan og‘ish ma‘nosida ishlatiladi.

Deviatsiya - [fran. deviation] — biron-bir narsani sotsial ma‘noda jamiyat uchun o‘z me‘yorida yoki sotsial jihatdan yaroqli deb hisoblovchilardan chetga chiquvchilar, ularni rad qiluvchilar; to‘g‘ri yo‘ldan chiqib ketish ma‘nosida ham ishlatiladi.

Deduksiya - [ingl. deduction ayrish, chiqarib tashlash, chegirib qolish, ushlab qolish] — umumiylikdan xususiylikka, umumiy muhokamadan xususiy yoki boshqa umumiy xulosalarga o‘tishga doir mantiqiy muayyan bir fikrga kelish.

Dezintegratsiya - [fr.des+lot.integratio] - bir butunning tarkibiy qismlarini bo‘linishi, parchalanishi, integratsiyaning teskarisi.

Delinkvent - [lot. delinquens (delinquen-tls)] — qonunni buzuvchi, jinoyatchi, isyonchi.

Destruksiya - [lot. destructio] — buzish, nimanidir me‘yordagi strukturasi buzish demakdir.

Determinizm - [lot. determinare aniqlamoq] — fan qonunlarida tasvirlangan tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarni sababli ravishda o‘zaro bog‘langanligini va obyektiv qonuniyatlarni e‘tirof etishga doir falsafiy tushuncha.

De-fakto - [lot. de facto] - aslida, haqiqatan.

Detsentralizatsiya - [lot. de...ajralish, yo'qotish, bekor qilish + markazlashish] - nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvni bo'shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

De-yure - [lot. de jure] - yuridik, huquq bo'yicha, rasman.

Diversifikatsiya - [lot. diversification] — o'zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlama va turli-tuman yo'nalishlarda rivojlantirishga strategik mo'ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash — iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag'larni turli obyektlar o'rtasida bo'lib-bo'lib joylashtirish.

Dinamika - [yunon. dynamikos kuchga taalluqli, kuchli] - 1)harakatning holati, rivojlanishning borishi, qandaydir hodisaning turli omillar ta'sirida o'zgarishi (statikaning aksinchasi); 2)harakat va ta'sirlarning ko'pligi.

Diskriptiv - [ingl. descriptive] — tavsif, tasviriy, ko'rsatmali, ko'rgazmali.

Differensiatsiya - [lot. differentia] — farqlash, har xillik; taqsimlanish, biron-bir narsani alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo'laklarga bo'linish.

Dixotomiya - [yunon. dichotomia < dica ikki qismga + tome kesim] - bir butunni izchillik bilan ikkiga bo'linishi, keyin ularning har birini yana ikkiga bo'linishi va hokazo.

Dualizm - [lot. dualis — ikki taraflamalik] - ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab — ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta'limot).

Jamiyat - muayyan jamiyatning tarixiy rivojlanishini tahlil etish natijasida olingan tizimlar nazariyasi va sotsiologik ta'riflardan kelib chiqib jamiyatning asosiy universal tasnifini quyidagicha ifodalash mumkin: a)bir butunlik, yaxlitlik; b) o'zgarishlarga boy va rivojlanishga moyillik (dinamizm); v)tizimlilik. Mazkur universal tasnifdan kelib chiqib jamiyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: jamiyat — bu yaxlit tuzilma bo'lib, uning doirasida odamlarning birgalikdagi yashashi amalga oshadi; u unsurlardan iborat bo'lish xususiyatiga, shuningdek o'zining mavjudligi makon va zamon chegaralariga ega bo'lgan o'ziga xos organizm yoki tizimdir. Shu tariqa, jamiyat muayyan va aniq hududga joylashgan bo'ladi va o'z mavjudligining aniq muvaqqat doirasiga egadir. Jamiyat institutlar va birliklarning o'zaro munosabatlarini qo'llab-quvvatlaydigan, yangi sotsial tuzilmalarni integratsiyalaydigan, o'z mantig'idan kelib chiqib aholini asosiy ommasini bo'ysundiradigan, o'z hududida yashovchi odamlarning o'z xatti-harakatlarida ro'y beradigan turli tuman sotsial o'zaro ta'sirlar va aloqalarni yagona negizga uyushtirishga undovchilik va o'zini o'zi muvofiqlashtirish mexanizmlariga egadir. Jamiyat — odamlar, birliklar va tuzilmalar o'zaro ta'sirlari va aloqalarining tarixan rivojlanuvchan, ularning birgalikda yashash jarayonida o'zgarib boradigan va shakllanadigan yaxlit tizimdir.

Jamoatchilik fikri - bu muayyan manfaatlarni o'zida ifoda etadigan, jamiyatda paydo bo'lgan muammolar bo'yicha muayyan jamoaviy nuqtai nazarlarni aks ettiradigan sotsial birliklarning ijtimoiy hayot dalillari, hodisalari va voqealariga nisbatan ochiq yoki yashirin tarzda xulosalaridan iborat ijtimoiy ong holatidir. Jamoatchilik fikrining asosiy funksiyasi sotsial nazoratni amalga oshirishdir.

Ierarxiya - [yunon. hierarchia — mansab pog'onasi] - mansab va unvonlarning pastdan yuqoriga va bo'ysunish tartibi bo'yicha joylashish qatori.

Individ - [lot. individ — bo'linmas, chegarali] - individ insoniyat zotining bitta vakili sifatida aniq ko'rinib turgan inson tushiniladi. Demak, individ — bu insonning biosotsial tirik jonzot, sotsial birlik a'zosi ekanligini anglatadi. Inson sotsial-psixologik belgilarining o'ziga xosligi, uning xulqi, intellekti, madaniyati, tavsifi, hayot tarzi va faoliyati xususiyatlari «individ» iborasining sotsiologik tarkibiga kirmaydi. Ular «shaxs» tushunchasiga taalluqlidir.

Individuallik - bu bir odamning ikkinchi odamdan farqlovchi sifat va belgilari jamlanmasidir. Bu tushuncha o'ziga xoslik, betakrorlik, aniq bir shaxsning noyoblighi kabi ma'nolarni anglatadi. Aksariyat tavsiflarda individuallik yoki individual farqlanishlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Shaxsning muayyan odamlar - boshqalardan farqlanib turishiga sabab bo'ladigan alohida sifatlari ko'rsatib beriladi. Undan tashqari, bir shaxsning ikkinchisidan qanday o'ziga xos sifatlari va o'zligini namoyon qilishga oid xatti-harakatlari farqlab turishi hodisasini faqat individual farqlanishlarni o'rganish yo'li bilan anglash mumkin ekanligi ochib berildi.

Islahot (reforma) - [lot. reformare - o'zgarish, qayta o'zgarish] — mavjud sotsial strukturalar asoslarini butunlay yo'q qilvormaydigan, ijtimoiy hayotning qandaydir tomonlarini yangidan qurish, o'zgartirish demakdir. Rasmiy nuqtai nazardan qaraganda, islohot deganda har qanday mazmundagi yangiliklarni kiritishdir. Lekin, amaliyotda islohot deganda ko'pincha, taraqqiyparvarlik, ijtimoiy hayot sohalariga yangiliklar kiritish tushuniladi.

Inklyuzivlik - [ingl. inclusive] - o'z ichiga olmoq, ichida, ichiga kirib borishi.

Inson — bu biologik tur, Yer yuzidagi tirik organizmlar rivojlanishining oliy darajasi, ong va aql-idrokka ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy-tarixiy faoliyat va madaniyat subyektidir. Bu tushuncha umumiy bo'lib, u homo sapiens paydo bo'lgan davrdan buyon yashab kelayotgan asosiy va yetakchi jinsga nisbatan qo'llaniladi. Sotsiologiya fanini asosan inson avvalambor jamiyat rivojlanishining mahsuli sifatidagi jihatlari qiziqtiradi.

Instansiya - [lot. instans — kelgusidagi] - bir-biriga bo'ysunadigan organlar tizimida izchillikdagi har bir pog'onalari.

Intervyu olish metodi - intervyu — muayyan reja bo'yicha intervyu

oluvchining respondent bilan bevosita suhbat qurishidir. Bunda javoblar intervyu oluvchi, yoki uning assistenti, yoki diktofon yoki video kabilar vositasida yoziladi. Intervyuga respondent va intervyu oluvchi o'rtasidagi o'zaro sotsial-psixologik aloqalarning muayyan shakli sifatida qarash mumkin. Bu o'zaro aloqalarning xususiyatlari ular o'rtasidagi rollarning qat'iy talabchanlik bilan taqsimlanishidan iboratdir.

Institut- [lot.institutum belgilash, o'rnatilish, tartibot]— u yoki bu insoniy uyushmaning nisbatan ko'pchiligi xulqini belgilab beradigan sotsial struktura yoki ijtimoiy tuzilish tartibotidir. Institutlar o'rnatilgan qoidalar vositasida odamlar xulqiga ta'sir qilish imkoniyatlariga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Huquqshunoslikdan olingan «institut» tushunchasi sotsiologiya fanida «o'rnatilish», «qonunlar» iborasiga qaraganda kengroq talqin etiladi. Chunki, «institut» doimo ham institut a'zolarining xulqlari aniq ifodalangan struktura bo'lishi taqozo etilavermaydi. Sotsial institutlar ko'pincha uyushmalar sifatida mavjud bo'ladi, lekin ularning aksariyati o'zida uyushtirish funksiyalarini ham namoyon qiladi. Lekin, shunga qaramasdan, ba'zi institutlar uyushma yoki uyushish tizimi sifatida namoyon bo'lmaydi, uyushtirishni ham talab qilmaydi. «Institut» iborasini ishlatish yana shu bilan mushkullashadiki, u ingliz tilida odamlarning an'anaviy tarzda o'zini o'zi takror yaratib turish xususiyatiga ega bo'lgan har qanday yashovchan tajribasi institut deb ataladi. Shu tarzda keng (tor ahamiyat kasb etmagan) institut tushunchasining mazmuni odamlarning odatdagi qator tizilib navbatga turishi yoki ingliz tilining ko'p asrlik sotsial amaliyot sifatida institut mazmunini anglatayotganligi qabilida ham tushunish mumkin.

Institutlashuv - «sotsial institut» iborasining dastlabki ahamiyati har qanday ko'rinishdagi tartibotni yo'lga qo'yish, ijtimoiy aloqalarni rasmiylashuvi va standartlashuvi tavsiflari bilan chambarchas bog'liqdir. Tartibga solish, rasmiylashuv va standartlashuv jarayonlarining o'zi institutlashuv deb ataladi.

Induktor - [lot. inductor qo'zg'atuvchi].

Induksiya - [ingl. inductio] — qator empirik kuzatuvlarda asoslangan ikki yoki undan ko'proq o'zgarib turadigan obyektlar o'rtasida muntazam aloqalarni ko'zlagan umumiy fikr yoki jarayon. Induktiv dalillar qator ma'lum holatlarni umumlashtirishga bog'liq holda bo'ladi.

Innovatsiya - [lot. innovation yangilash; o'zgarish] — yangilik kiritish; jarayonlarni samarali va sifatli o'sishini ta'minlovchi yoki bozor talab etgan mahsulotlar sifatini oshirishga qaratilgan yangiliklarni kiritilishi.

Instinkt - [lot. instinctus istak, mayl; ilhom, g'oyibona kuch] - muayyan ichki va tashqi qo'zg'alishlar natijasida paydo bo'ladigan jonzot va odamzodga mansub xulqning tug'ma shakli; instinktlar hayot shart-sharoitlariga moslashish shakli bo'lib, ular organizmlarning tarixiy rivojlanish jarayonida payd bo'lib boradi; ichki tuyg'u, tushunish qiyin bo'lgan sezgi, qiziqish, intilish.

Interaksiya - [ingl. interaction o'zaro ta'sir] — sotsiologiyada (yuzma-yuz va yaqinlashgan holdagi) o'zaro ta'sir, munosabat, bog'lanish kabi ma'nolarda ishlatiladi.

Infantilizm - [lot. infantilis go'daklarga xos, bolalarcha] — rivojlanishda bolalar yoshiga xos tavsiflarni saqlab qolish yoki katta yoshda ham jismoniy tuzilishning orqada qolish holati.

Irratsional - [lot. irrationalis aqlsiz, bema'ni] — idealistik falsafada — tavsiflab va tushuntirib bo'lmaydigan, tushunishga erishib bo'lmaydigan mantiqiy tushunchalar va mulohazalar.

Irritatsiya - [lot. irritatio] — hayajonlanish, to'liqinlanish, asablarning tashqi ta'sirdan qo'zg'alishi.

Isteblishment - [ingl. establishment-o'rnatish, asos, muassasa] - jamiyatga ta'sir etish hokimiyatiga ega bo'lgan davlatga qarashli, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy institutlar va tashkilotlar; mazkur institut va tashkilotlarda asosiy hal qiluvchi o'rinlarni egallagan guruhlar va shaxslar.

Kategoriya - [yunon. kategoria] — moddiy dunyo hodisalarining munosabatlari va aloqalari, ularning umumiy xossalarini aks ettiruvchi tushuncha. Fan tushunchalari ma'nosida ham ishlatiladi.

Katexizis - [yunoncha katechsis og'zaki yo'l-yo'riq] — ta'limotga doir qisqacha savol va javoblar tariqasidagi bayonnoma.

Kauzal - [lot. causalis sababli] — hodisa va jarayonlar qandaydir sabablar bilan yuz beradi, deb qarash.

Kvazi... - [lot. quasi go'yoki shunday, nahotki shunday (hayoliy, tagi tugi yo'q)] — hayoliy fikrga asoslangan so'zlarga tegishli old qo'shimcha, masalan: kvaziilmiy, kvaziolim.

Keys-stadi - [ingl. case study aniq o'quv vaziyatini tahlil qilish] — quyidagi sohalarida malakani takomillashtirish va tajriba orttirish uchun mo'ljallangan metod: muammoni aniqlash, tanlash va hal etish; axborotlar bilan ishlash — tasvirlangan vaziyatda barcha tafsilotlarni (mayda-chuydalarni) anglab yetish; axborotlar va dalillarni tahlil qilish va ularni bir-birlariga o'zaro bog'lash; farazlar va natijalar bilan ishlash; muqobilliklarni baholash; qarorlar qabul qilish; boshqa odamlarni tinglash va tushunish — guruhliy ravishda ishlash ko'nikmalarini orttirish.

Kibernetika - [yunon. kybernetike boshqarish san'ati] — boshqarish jarayoni; mashinalarda, tirik organizmlarda va jamiyatda axborotlarni uzatishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

Kognitiv - [lot. cognitio idrok qilish, bilish] tushunchalarni shakllantirish, ularni ishlatish va xulosaviy bilimlar olishni ta'minlashga qaratilgan miyaning funksiyasiga va bilishga taalluqli tushuncha.

Kodifikatsiya - [lot. codificatio] — eskirgan qonunchilikni bekor qilish yoki qaytadan ko'rib chiqish asosida davlat qonunlarini alohida sohalar bo'yicha tizimlashtirish.

Kombinatsiya - [lot. combinatio] - 1) birikma, birikuv, bir varakayiga bir necha ishlarni birga qo'shib olib borish, nimalarnidir muayyan bir tartibga birlashtirish; 2) murakkab niyatni amalga oshirish usullari yoki yo'llari tizimi; 3) epechilik, hiyla-nayrang.

Kommunikatsiya - [lot. communicatio] — xabar, aloqa.

Kommunikator - [lot. o'zagi «communicatio» — «xabar»] - axborot uzatishdagi vositachi.

Kompensator - [lot. compensare baravarlashtirish, tenglashtirish, o'rnini to'ldirish, badal berish].

Komponent - komponent [lot. componens yoki compo-nentis tashkil etuvchi, biron-bir tarkibni tashkil etuvchi yoki etuvchilar] — nimanidir tashkil etuvchi (uning unsurlari yoki ulardan biri).

Komfort - [ingl. comfort] — maishiy yoki hayotiy qulaylik; uy-joy, ijtimoiy korxonalar, aloqa vositasi kabilarning obodligi, shinamligi va qulayligi.

Konvensional - [lot. conventionalis shartnoma yoki shart-sharoitlarga muvofiq] — shartli, qabul qilingan, o'rnatilgan an'analarga muvofiq.

Konvergeniya - [lot. convergere yaqinlashish, o'xshashlashish] - o'xshashlik, yaqinlashish.

Kontent-tahlil - [ingl. content analysis — ma'nolarni analiz qilish] — aniqlangan miqdoriy qonuniyatlarni keyinchalik mazmuniy sharhlash maqsadidagi matnlar va matnlar uyumini miqdoriy jihatdan tahlil etishdir. Kontent-tahlilda matn (tekst) deganda kitob, kitob boblari, esse, intervyu, munozara, gazetadagi maqolalar, tarixiy hujjatlar, kundalik yozuvlar, nutqlar, reklama matnlari va boshqalar tushuniladi. Matnlarning kontent-tahlili deganda asosiy e'tibor ularning hali tilga kirmagan holatdagi mazmunlarining tavsiflariga emas, balki matn muallifi ko'zlayotgan maqsadlar, matn manzilgohi tavsiflari, ijtimoiy hayotning turli-tuman voqealari kabiga qaratiladi.

Konsensus - [lot. consensus] - kelishuv, hamfikrlilik, yakdillik, birlik, til birlashtirish.

Kontinuum - [lot. continuum uzluksiz, muttasil, butun, yalpi] - hodisalar va jarayonlarning uzluksizligi;

Konformizm - [lot. conformis o'xshash, bir xil] — zamonasozlik, mavjud tartibotlar, hukmron fikrlarni passiv ravishda qabul qilish, moslashuvchilik, o'zining shaxsiy nuqtai nazarini va prinsiplari yo'q odamlarga nisbatan ishlatiladigan tushuncha.

Konform - [lot. conformis o'xshash, bir xil] — moslashuvchilik, mavjud hodisalar va voqealar tartibotini faolsiz (passiv) tarzda qabul qilish, jamiyatda ustunlik qiluvchi fikrlar.

Kon'yunktura - [lot. conjunctura - bog'lash, qo'shish] - bozor kon'yunkturasi - talab va taklif, baholar darajalari, mollar zaxiralari, shuningdek,

iqtisodiy sikllar o'zgarishlar davri — ko'tarilish yoki tanazzul kabilar o'zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozorda yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Kon'yunkturaning birinchi belgisi uning tez o'zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

Kooperatsiya - [lot. cooperatio-hamkorlik] - ko'pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

Koordinatsiya (muvofiglashtirish) — bu unsurlarning o'zaro bir-birlariga bog'liqligidan kelib chiqadigan holdagi muayyan o'zaro kelishuvi bo'lib, u yaxlit tizimni saqlanishini ta'minlaydi.

Korporatsiya - [lot. corporation-hamjamiyat] - birlashma, jamiyat, ittifoq (ayniqsa, shaxsiy-guruhiy sex manfaatlari asosidagi).

Korrelyativ - [lot. correlativus] — munosabatdosh] — predmetlar, hodisalar va tushunchalarning nisbati, o'zaro muvofiqligi, o'zaro aloqalari, o'zaro bog'liqligi.

Korrupsiya - [lot. corruption-aynish, buzilish, sotib olish] - mansabdor shaxslar va siyosiy arboblarni hiyonati va sotqinligini ifodalaydigan tushuncha.

Kreativ - [ingl. creative bunyodkor, ijodkor, yangilik yaratuvchi].

Kuzatuv - sotsiologiyada kuzatuv deganda, hodisaga guvoh bo'lgan odam tomonidan uni to'g'ridan-to'g'ri qayd qilishi tushuniladi. Keng ma'noda har qanday ilmiy bilimlar kuzatish — tirik borliqni bevosita idrok etishdan boshlanadi. Ba'zan hodisalarni o'zimiz kuzatamiz, ba'zi hollarda boshqalarning kuzatuvidan foydalanamiz.

Legitim - legitimatsiya - [lot. legittimus qonun] — qandaydir huquq yoki vakolatni qonuniy ekanligini e'tirof etish yoki tasdiqlash.

Legal - [lot. legalis — qonuniy] - ruxsat berilgan, qonun e'tirof etgan.

Lobbi - [lot. loby-kuluar] - jamiyatdagi ma'lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizilmalar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarni amalga oshirish parlament va mansabdor shaxslarga bosim o'tkazishga intilayotgan guruhlar.

Lokal - [lot. localis — mahalliy] — biron-bir joy uchun xoslik.

Madaniyat - bu insoniyat tomonidan yaratiladigan narsa, tabiat esa insonga bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan narsalardir. Insonning o'zi tabiatning bir qismidir. Shu bilan birga, jamiyat ham inson tomonidan tabiatdan ajratib olib yaratilgan insoniy birlikdir. Sotsiologiya fanida madaniyat deganda insonning biologik tabiati — instinktlari bilan belgilanmaydigan sotsial hayoti tushuniladi; madaniyat odamlarning ko'plab avlod-ajdodlarining birgalikdagi hatti-harakatlari natijasida sun'iy tarzda paydo bo'lgan, har bir avlod tomonidan boyitib boriladigan yaratilmadir. Madaniyat — insonning sotsial rivojlanishiga, natijasi o'zgarishlarga boy bo'lgan ideallar tizimini yaratishga, uning ma'naviy olamida

mujassamlashishiga olib keluvchi ma'naviy va moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan o'ziga xos faoliyat tarzidir.

Makrosotsiologiya - bu individuallikdan yuqorida turgan strukturalarga nisbatan qaratilgan va amalda ontologik mo'ljall olishga asoslangan tadqiqotlar yig'indisidir (jamiylanmasidir). Agar sotsiologiya rivojlanishining oldingi davrlarida «realizm» va «nominalizm» o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshiliklar ularning ilmiy nuqtai nazarlari o'rtasida katta chegaralarni vujudga keltirgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib makrosotsiologiya va mikrosotsiologiyaga bo'linish tadqiqot ishlarida sotsial hodisalarni har tomonlama va chuqur o'rganishga doir ixtisoslashuvni anglata boshladi.

Manfaatlar — (interes) — [lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim] - obyektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo'lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag'ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

Marginallik - [lot. marginal is — chetdagi] — sotsial-psixologik tushuncha bo'lib, u nafaqat individning sotsial strukturada muayyan oraliqda qolish holati, balki, uning shaxsiy o'zini o'zi idrok etishi va o'zini o'zi his qilishi hamdir. **Marginal** — bu o'zining hozirgi holatini o'tkinchi yoki tasodifiylik oqibati, deb hisoblagan shaxslardir. O'zining faoliyati, kasbi turlarini, sotsiomadaniy muhitini, yashash joyini o'zgartirishga majbur bo'lgan odamlar og'ir qayg'uni o'z boshidan kechiradi.

Metabolizm - [yunon. metabole o'zgarish, tanaffus] — moddalar almashinuvi — o'simliklar, jonzorlar va mikroorganizmlarda katabolizm va anabolizm jarayonlari yig'indisi.

Mentalitet - [lot. mens — aql, tafakkur, aql bichimi, fikr yuritish tarzi, fikrlash usuli, inson ruhiyati tarzi] — 1) individual va ijtimoiy ongning ichki qatlamlarida joylashgan bo'lib, u o'ziga ongsizlikni ham qamrab oladi; 2) ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul qilish usuli.

Mental (mentalitet) - [lot. mensyoki mentis qalb, ruh (qisqa ma'noda - aql)] — aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar yig'indisi, sotsial yoki etnik guruh, millat va xalqqa mansublikning qadriyatli mo'ljallari va maqsadli yo'nalganlik belgisi.

Metodika - sotsiologik tadqiqotlarda qandaydir faoliyat yoki ishni izchillik va o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishning metodlari va texnik yo'l-yo'riqlari yig'indisidir.

Mexanizm - [yunon. mechane-qurol, inshoot] - harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Gumanitar fanlarda u ma'juziy ma'noga ega bo'lib, biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari va vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

Mobillik - [fran. mobile] - tez harakat qilishga qobil bo'lgan chaqqonlik; turli vaziyatda tez mo'ljal olishga qodir, vazifalarni tezlik bilan bajarish qobiliyati.

Modallik - [fran. modalite < lot. modus ishtiyiq, moyillik, yo'sin] - bu atama «moda» iborasidan olingan bo'lib, u obyekt o'lchamlarining bir talayi yoki ular qatorida uchrab turadigan o'lchovlarni anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

Model - [fr. modele] — namuna, tarh, nimanidir tasviri tavsifi.

Modernizatsiya — [fran. moderniser < rao-derne zamonaviy] — zamonaviy qilmoq) - taniqli olim S.Ayzenshtadt modernizatsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: u « XVII asrdan XIX asrgacha G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada rivojlangan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlardagi o'zgarishlar jarayoni bo'lib, keyinchalik u boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqaldi, o'n to'qqizinchidan to yigirmanchi yuz yillikgacha Janubiy Amerika, Osiyo, Afrika qit'alariga kirib keldi». Sotsiologiya fani bilan bog'liq bo'lgan «modernizatsiya» tushunchasi quyidagicha ifodalandi: modernizatsiya «nisbatan oddiy jamiyatdan ko'proq murakkab bo'lgan jamiyat sari chiziqli-bosqichli taraqqiyot evolyutsiyasidir». Bu tushuncha modernizatsiyaviy jarayonlarni klassik tarzda ifodalash bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Modifikatsiya - [fran. modification < lot. modificatio] - hodisalar va yana nimalarnidir o'z shaklini o'zgartirishi natijasida ularning yangi xossa va xususiyatlarining paydo bo'lishi.

Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nominalizm - [lot. nomina nom, ism] — umumiy tushunchalar faqat ayrim predmetlarning nomlaridir, degan aqida ostida buyumlarning birlamchiligini, tushunchalar ikkilamchi degan g'oyani ilgari surgan falsafadagi oqim.

Ontologiya - [yunon. ontos turmush + logos ta'limot, so'z] - sotsiologiyada turmush mohiyatini va hodisalarni (gnoseologiyaga qarama qarshi o'laroq) faqat dalillar orqali idrok qilish tushiniladi; falsafada turmushni uning qismlaridan mustaqil ravishda anglash; turmushni (borliqni) umumiy ravishda aniqlashning tajribaga asoslanmagan mavhum tizimi.

Oxlokratiya - [yunon. ochlos — olomon+kratos — hokimiyat] - olomon hukmronligi; populistik shiorlar bilan jamiyatdagi qashshoq qatlamlarga suyanib faoliyat yuritadigan ijtimoiy-siyosiy guruhlar hokimiyati.

Paradigma - [yunon. paradeigraa misol, namuna] - 1)jadval ko'rinishida berilgan so'z shaklining tizimi (nomlarni turlanishi, so'zning tuslanishi; 2)dalillash va qiyoslash uchun tarixdan misol keltirish.

Paranoyya - [yunon. paranoia aqldan ozganlik] — surunkali ruhiy kasallik.

Patologiya - [yunon. pathos azoblanish + giya] — me'yorlardan og'ish, chiqib ketish, aqli norasolik, majruhlik.

Pattern - [ingl. pattern namuna, qolip, tizim] — tabiatda va insoniy birlikda uchrab turadigan qonuniyatli muntazmlik, shuningdek, takrorlanuvchi qolip va namuna.

Penitensiar - [lot. penitentiary — qamoqxona, turma] - ko'proq jinoiy va qamoqxonalar bilan bog'liq jiddiy jazolashlarga taalluqlilik.

Pozitiv - [lot. positivus ijobiy] — ijobiy, ma'qullaydigan, ma'qullangan.

Pragmatizm - [pragma — harakat, amaliyot] - falsafadagi oqimlardan biri bo'lib, obyektiv haqiqatni bilishni inkor etadi, amaliy foydali natijalarni haqiqat sifatida tan oladi.

Prinsip - [lot. principium-asos, dastlabki, boshlang'ich] - asos bo'ladigan poydevor g'oyalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

Proteinlar - [yunon. protos birinchi, dastlabki] — oddiy oqsillar — jonzorlar, o'simliklar va mikroorganizmlar hujayrasining asosiy qismi bo'lgan, faqat aminokislotalardan iborat oqsillar. Proteinlarga albuminlar, globulinlar, gistonlar va boshqalar kiradi.

Protsedura - [lot. procedere oldinga yurmoq, siljimoq] - qandaydir ishni olib borish yoki muhokama qilishda o'rnatilgan rasmiy tartib.

Randomizatsiya - [ingl.randomtusmollab tanlangan, tasodifiy] —tanlov tadqiqotini o'tkazishda statistik yig'indi unsurlarini tasodifiy tarzda tanlash usuli yoki protsedurasi.

Reduksiya - [lot. reducere teskari tomonga olib borish, qaytarmoq] — soddalashtirish, osonlashtirish, kichraytirish, nimanidir kuchsizlantirish.

Rekursiv funksiya - [lot. recur-sio qaytish, qaytarish] — muayyan dalil uchun muhimlik oldingi dalillar muhimligi yordamida hisoblanadigan funksiyalar.

Rekreatsioon - rekreatsiya; dam olish va tiklanishga mo'ljallangan.

Relevantlik - [ingl. relevant ishga aloqador, o'rinli] — axborotni berilgan savol bilan olingan javobga o'zaro muvofiq kelishi.

Relyatsiya - [lot. relatio xabarnoma, ma'ruza] — ma'lumot, xabar; harbiy harakatlarning borishi to'g'risida xabar va hokazo.

Reprezentant - [fr. repr&entant] - vakil. Rerezentativ — vakillik, vakillikka oid.

Reproduksiya - [lot. re... yangidan + producer yetishtirish, yaratish] — qaytadan yetishtirish va ko'paytirish (tasviriy san'at sohasida, keyingi paytlarda esa gender sohasida qo'llanmoqda).

Respondent - [ingl.respondent<lot.respondens—javob beruvchi] — sotsiologik, demografik yoki psixologik tadqiqotlar anketasiga javob beruvchi shaxs, sinaluvchi.

Retretizm - [retraite ketish, chiqish]— ichkilikbozlik va narkotizmga berilish singari o‘z joniga qasd qilish; sotsial-passivlikka (majhullikka) berilish.

Referentlik - [lot. referens — xabar beruvchi] — subyekt xulqi boshqa odamlarning unga nisbatan tanlash munosabatlariga bog‘liqligi, ya’ni obyekt (uni) tushunishi va baholashiga zarurat sezishi.

Referent - [lot. referens (referentis) xabar beruvchi] — sotsiologiyada subyekt xulqi boshqa odamlarning unga nisbatan tanlash munosabatlariga bog‘liqligi, ya’ni obyekt (uni) tushunishi va baholashiga zarurat sezishi.

Refleksiya - [lot. reflectere — ifodalash, ko‘zgu, aks, yoritish] - odamning turli ta’sirlarga nerv tizimi orqali u yoki bu qarshi ta’sir ko‘rsatish yoki hayvon organizmiga nerv tizimi orqali u yoki bu ta’sir etishga qarshi unda javob tariqasida paydo bo‘ladigan hodisa.

Retsipient - [lot. recipiens — oluvchi] - ko‘pincha axborot oluvchi ma’nosida ishlatiladi.

Selektiv - [lot. selectio tanlov, tanlab olish, saralash] — xossalarga asoslanilgan tanlash yoki saralashni amalga oshirish.

Semiotika - [yunon. syomeion belgi; alomat] — belgilar va belgi tizimlari, shuningdek tabiiy va sun’iy tillarni belgilar tizimi sifatida namoyon bo‘lishi haqidagi fan.

Sikl - [yunon. kyklos — doira] - muayyan tizimni tashkil etuvchi va o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar, ishlar, jarayonlar yig‘indisi yoki rivojlanishning tugallangan doirasi.

Sirkulyasiya - [lot. circulatio — aylanma harakat] - uzluksiz almashinish, aylanma harakat.

Shaxs - inson mohiyatining aniq va ravshan ifodasi, unda mazkur jamiyatning sotsial ahamiyat kasb etadigan sifatleri va xususiyatlari mujassamlashadi va amalga oshadi. Bu tushuncha individning sotsial va notabiiy mohiyatini alohida ajralib turishi uchun kiritiladi. Shaxsning o‘ziga xos ajratib bo‘lmas sifatleri — bu uning o‘zini o‘zi anglash, qadriyatlar asosida yashash, o‘z xatti-harakatlari uchun mas’ul bo‘lishidir. Odam shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki shakllanish natijasi o‘laroq shaxs bo‘lishga erishadi. Shaxs bo‘lish darajasiga nafaqat yorqin va iste’dodli odamlar, balki sotsial hayot subyekti sifatida yashayotgan, o‘zi yashayotgan jamiyatning muhim sotsial sifatlarini o‘zida ifodalagan har qanday odam erishishi mumkin.

Simpatiya - [yunon. sympatheia] — mayl, havas, intilish, qiziqish, kimnidir yoki nimanidir ichki xush ko‘rish (antipatiyaning aksinchasi).

Sintagma - [yunon. syntagma nimanidir qo‘shilganligi, bog‘langanligi, birikkanligi] — bir necha so‘zlarning yoki so‘z qismlarining qo‘shilishi, masalan, suv tashuvchi — meshkob (bunda mesh — qopsimon idish, ob - suv);

Sistema - [yunon. systema (yaxlitlik), qismlardan tuzilgan, birikma] — tizim; muayyan yaxlit tuzilmani va birlikni ifodalagan ko‘plab qonuniyatli tarzda bir-birlari bilan bog‘langan unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshq.) yig‘indisini ifodalovchi tizim;

Sotsial - [lot. socialis] - odamlarning jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari va hayot kechirish tarzi tufayli bir-birlariga bog‘liq ekanligini anglatadi. Jamiyat keng ma‘noda — bu umumiy manfaatlar, qadriyatlar va maqsadlarga ega bo‘lgan odamlarning birlashish shaklidir. Insoniy jamiyat insonlararo munosabatlar (sotsial munosabatlar) modeli (jamiyat subyektlari o‘zaro munosabatlari yig‘indisi) sifatida tavsiflanadi.

Sotsial aloqa - bu sotsial tizimning unsurlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro ta’sirlar, aloqalar va munosabatlardir. Jamiyat strukturasi biologik, iqtisodiy, siyosiy, sotsiomadaniy va ma‘naviy aloqalarni kuzatish mumkin. Sotsial aloqalar muayyan aniq vaqt ichida u yoki bu maqsadlarga erishish uchun birlashgan holda faoliyat yuritishni shart qilib qo‘yadigan dalillar to‘plamidir. Sotsial aloqalar odamlarning talabchanligidan kelib chiqqan holda emas, balki obyektiv tarzda tashkil topadi. Tashkil topgan bu aloqalar individlar yashayotgan va xatti-harakat qilayotgan sotsial shart-sharoitlarga bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Sotsial aloqalar mohiyati muayyan sotsial birlikni tashkil etuvchi odamlarning xatti-harakatlari mazmuni va xossalarida namoyon bo‘ladi. Sotsiologiyada o‘zaro ta’sir, munosabatlar, nazorat qilish, institutsional va boshqa aloqalar o‘rganiladi. Sotsial aloqalar insonning nihoyatda kichik va oz sonli guruhdagi sotsial aloqalari xatti-harakatlar va aks ta’sirlardan iborat bo‘lgan juda ham ko‘plab o‘zaro ta’sirlar va munosabatlarni o‘zida mujassamlaydi. Bu jarayonda individlarning turlicha miqdorlarini o‘ziga qamrab olgan o‘zaro aloqalar va munosabatlarning murakkab to‘rsimon tarmog‘i vujudga keladi. Bu barcha o‘zaro ta’sir va harakatlarning yig‘indisidan asta-sekinlik bilan o‘zaro harakat qilayotgan individlarning xulqlariga tegishli ravishda ro‘y beradigan, o‘zaro xatti-harakatda bo‘lgan individlarning oqilona-hissiy idroklari asosida muayyan o‘ziga xos shaklga ega bo‘ladigan barqaror sotsial aloqalar ajralib chiqadi.

Sotsial barqarorlik - sotsiologik nuqtai nazardan sotsial barqarorlik — bu o‘zgarimaslik, sotsial tizim va munosabatlarning harakatsizligi sinonimi emas. Jamiyatdagi harakatsizlik barqarorlikning emas, balki erta yoki kech beqarorlik, sotsial tanglik, va nihoyat, inqirozga olib keladigan turug‘unlikning alomatidir. Sotsiologik ma‘nodagi sotsial barqarorlik — bu sotsial strukturalar, jarayonlar va munosabatlarning shunday bardoshlilikiki, ular qanchalik turli o‘zgarishlar jarayonlariga uchrasalar ham o‘z sifatli muayyanligini va oldin qanday bo‘lsa o‘sha yaxlitligini saqlab qolishidir.

Sotsial guruh - bu odamlarning ba’zi faoliyatida umumiy tarzda ishtirok etishiga asoslangan, rasmiy va norasmiy sotsial institutlar tomonidan

muvoqilashiriladigan aloqalar tizimiga bog'liq bo'lgan odamlarning birikuvidir. Guruh a'zolari birmuncha umumiy qadriyatlarga ega bo'lishi bilan ajralib turish prinsiplari asosida boshqa birliklardan ajralib turadi. Keltirilgan ta'rifda guruhning paydo bo'lishi uchun ichki uyushuv, maqsad, sotsial nazorat qilishning aniq shakli, faoliyat namunalariga zarurat tug'ilishiga alohida urg'u berish lozim. Shu bilan birga, guruhlarining uyushuvi ularning maqsadlari va vazifalariga bog'liq ravishda rasmiy yoki norasmiy bo'lishi mumkin. Odatda, bunga guruhning boshqalardan ajralib turish prinsiplari ham bevosita bog'liqdir.

Sotsial dalillar - bu qonunchilik aktlari, axloqiy me'yorlar, xulqiy qoidalar, diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va an'analar shakllarida jamoaviy tasavvurlar va ifodalarga asoslangan jamiyatning ma'naviy va moddiy unsurlaridir. E. Dyurkgeymning maqsadi sotsial dalillar individuumlarga nisbatan ancha tashqarida bo'lganligi uchun ham ularni tashqi «sotsial hodisalar» sifatida obyektiv ravishda o'rganish mumkin ekanligini isbotlash edi. Masalan, jamiyatda odamlarni o'z jonlariga qasd qilishlari koeffitsientlarini keltirish mumkin.

Sotsial dinamika - bu jamiyat va uning sotsial strukturasi yangilanishlarga olib keladigan rivojlanishi, uning o'zgarish va amal qilish jarayonlarining yig'indisidir.

Sotsial jarayon - (lot. processus - o'lg'a siljish) — bu sotsial hodisalar va sotsial tizimlarning rivojlanish bosqichlari, holatlarining izchillik bilan almashib turishidir. Shuningdek, sotsial jarayon qandaydir natijaga erishish uchun izchil xatta-harakatlarning yig'indisini ham anglatadi. Masalan, o'quv jaryoni o'quv mashg'ulotlarining alohida turlarini izchillik bilan almashib turishini ifodalaydi: ma'ruza — mustaqil ish — amaliy mashg'ulot — individual suhbat. Bu jarayonning natijasi ta'lim olayotganlarning u yoki bu darajadagi o'zlashtirishi hisoblanadi.

Sotsial institut - u so'z birikmasi sifatida turli-tuman ma'nolarda ishlatiladi: oila instituti, ta'lim instituti, sog'liqni saqlash instituti, davlat hokimiyati instituti, parlament instituti, xususiy mulk instituti, din instituti — bu ro'yhatni yana davom ettirish mumkin. Shuning uchun odamlar ko'pincha sotsial institut deganda ijtimoiy urf-odatlar, xulqning muayyan odatlarining mujassamlashuvi, hayotda avloddan avlodga o'tib kelgan fikrlash va yashash tarzi, vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turadigan turmushga moslashish kabilarni tushingani uchun ham ularga nisbatan boshqacharoq nomlash — «institutsiya» (lotin tilidagi institutio iborasi yo'l-yo'riq, ko'rsatma, tartibot ma'nolarini beradi) iborasini qo'llay boshlagan edi. «Institut» deganda esa urf-odatlar va tartibotlarning qonun hamda muassasa ko'rinishida mustahkamlanishi, degan qarashlar paydo bo'ldi. «Sotsial institut» iborasi o'ziga «institutsiya» (urf-odatlar) iborasini singdira boshladi, «institut» (muassasalar, qonunlar) iborasi o'zida ham rasmiy, ham norasmiy tarzda «o'yinlar qoidalarini» o'zida

mujassamlashtirdi Sotsialinstitut - bu odamlar muttasil tarzda qayta-qayta yangidan takror yaratilib turadigan sotsial aloqalar va sotsial amaliyotni (masalan, nikoh instituti, oila instituti va boshq.) ta'minlab turadigan mexanizmdir. E.Dyurkgeymsotsial institutlarni «ijtimoiy aloqalarni takror ishlab chiqaradigan fabrikalar» deganida mutlaqo haq edi. Bu mexanizmlar ham kodifikatsiyalashgan qonunlar to'plami, ham mavzulashmagan qoidalar (ularni buzganda ko'rinish qoladigan norasmiy «yashirin» holdagi), sotsial me'yorlar, tarixan u yoki bu jamiyatga mansub bo'lgan qadriyatlar va ideallarga tayangan holda ishlaydi. Ular ba'zi darsliklarda qayd etilganidek, «hayotiy yashovchanlikning (sotsial tizimning) hal qiluvchilik darajasida oldindan belgilab beriladigan kuchli va qudratli arqonlardir».

Sotsial inqilob (revolyutsiya) - tarixan o'zini tugatgan davrdan zamonaviy ilg'or davrga o'tish yo'lidir; u jamiyatning barcha sotsial strukturasi yuz bergan tub sifatiy o'ntarishdir. Ijtimoiy rivojlanishda inqiloblarning o'rni masalasi o'tkir mafkuraviy kurash mavzusiga aylandi. «Inqilob sotsiologiyasi» vakillarining vajlariga binoan inqilob sotsial rivojlanishning shakli sifatida samarasiz va foydasiz bo'lib, u ulkan serxarajat hodisa bo'lishi bilan bir qatorda rivojlanishning evolyutsiyaviy shakliga har tomondan yon beradi. Marksizm asoschilari esa sotsial inqiloblarni «tarix lokomotivlari», deb ataydi, inqiloblar davrini ijtimoiy taraqqiyot bilan tenglashtiradi.

Sotsial inqiroz - jamiyatdagi ziddiyatlarning g'oyatda keskinlashuvi, sotsial aloqalar uzilishi, ijtimoiy tuzilmalarning o'z funksiyalarini bajarish qobiliyatini yo'qotishi, jamiyatning yaxlit tizim sifatidagi barqarorligini buzilishi kabilar ro'y berishini keltirib chiqaradigan birtalay tang ixtiloflarning keskin kuchayishidir.

Sotsiallashish - bu oqiz va nochor go'dakni asta-sekinlik bilan o'zini o'zi anglatadigan, o'zi tug'ilgan madaniy muhitni tushunadigan aql-idrokli mavjudotga aylanish jarayonidir. Yangi tug'ilgan go'dak o'z hayotining dastlabki lahzalaridayoq o'zidagi muhtojlik va ehtiyojlarni sezadi, o'z navbatida, u o'ziga g'amxo'rlik qiladigan odamlarning xulqiga ta'sir qiladi. Sotsiallashish turli avlodlarni bir-biriga bog'laydi. Go'dakning tug'ilishi uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan odamlar hayotiga o'zgarishlar kiritadi va ular shu tariqa yangi tajribalarni egallaydi. Odatda, ota-ona majburiyatlari ularning keyingi hayotini bir umrga bolalarga bog'lab qo'yadi. Qariyalar nabiralar ko'rgan paytga kelib ham ota-ona bo'lib qolaveradi, va bu aloqalar turli avlodlarni bir-birlariga o'zaro birlashishlariga imkoniyat yaratadi. Madaniy taraqqiyot jarayoni keyingi davrlarga nisbatan go'daklik va bolalik paytida juda ham tez kechishiga qaramasdan, o'rganish (ta'lim olish) va moslashish insonning hayotiy umrguzaronlik davriga xos bo'lgan o'zgarishlar jarayoni sifatida qolaveradi. Bolalarning sotsial me'yorlar va qadriyatlarini o'zlashtirishiga tegishli ravishda

sotsial jarayonlar kechadi, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadi. Sotsiallashtirish individning bolalik davri uchun juda ham muhim zarurat bo'lishiga qaramasdan, bu jarayon bolalikdan keyingi butun bir umr bo'yi kechadi.

Sotsial maqom - shaxs va sotsial guruhlarning o'z ichiga kasb, malaka va mansabi bajaradigan ishining tavsifi, moddiy ahvoli, siyosiy mansubligi, ishdagi aloqalari, yoshi, oilaviy holati kabilarni o'ziga qamrab olgan ijtimoiy ahvolini jamuljam holda ifoda etuvchi ko'rsatkichdir. Sotsiologiya fanida sotsial maqomlarni buyruq-farmoyishli va o'rttirilgan (erishgan) kabilarga bo'lib tasniflanadi. Buyruq-farmoyishli maqom — insonning shaxsiy xizmati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga sotsial muhit tomonidan yuklangan jamiyatdagi vaziyatidan iboratdir. Ko'pincha buyruq-farmoyishli maqom insonning tug'ma sifatlarini (irqi, jinsi, millati, yoshi kabilarni) ifodalaydi.

Sotsial menejment - u sotsial boshqaruvning ostki tizimi sifatida umumiy boshqaruvni ifodalamaydi, balki sotsial tizimni boshqaradi. Sotsial menejmentning asosiy vazifasi — bu ostki tizimlarni oqilonalik, samaradorlik va barqarorlikda amal qilishini ta'minlashni qo'llab-quvvatlash, sotsial-texnologik harakatlarni samarali boshqarish shakllari va usullarini topish demakdir. Sotsial menejmentning ostki tizimlari quyidagilardan iboratdir: 1) har bir individga alohida yondashish — bu boshqaruv ta'sirini mikrodarajasi hisblanadi; 2) jamiyat ichidagi turli sotsial guruhlarga yondashuv — bu boshqaruvning makrodarajasidir; 3) butun bir jamiyatga yondashuv — bu sotsial strukturalarni boshqarishning megadarajasidir.

Sotsial munosabatlar - bu kabi o'z mazmuniga ko'ra bir-biriga nisbatan o'zaro munosabatlar va tegishli xulq bilan tavsiflanuvchi, anglangan, hissiy qabul qilinadigan va takrorlanuvchan o'zaro ta'sirlar va aloqalarning yig'indisi sotsial munosabatlar deb ataladi. Sotsial munosabatlar sotsial aloqalardan farqli ravishda o'z ma'no va mazmuni bilan aniq va ravshan tarzda ajralib turadi. Masalan, boshqa begona guruhga tushib qolgan talaba ma'ruza, seminar va o'qishdan tashqari ro'y beradigan munosabatlarda boshqa talabalar bilan o'zaro aloqalar qilishga kirishadi. Vaqt o'tgani sari takrorlanib turuvchi o'zaro aloqalar o'z mazmuniga ko'ra turlicha - mehr, nafrat, sadoqat, beparvolik, dushmanlik, do'stlik, hurmatlash, foydali almashuv, majburiyatni bajarish, mensimaslik kabi turlicha sotsial munosabatlarni vujudga kelishiga olib keladi.

Sotsial nufuz - M. Veber odamlarning sotsial notengligida iqtisodiy omillarning muhimligini inkor etmagan holda sotsial mansublikni aniqlash uchun sotsial nufuz (sotsial maqom) va hokimiyatga daxldorlik (hokimiyat resurslaridan foydalanish imkoniyati va qobiliyati) kabi qo'shimcha mezonlarni kiritdi. M. Veberning fikricha, sotsial nufuz doimo ham boylik va hokimiyatga bog'liq emas. Masalan, olimlar, huquqshunoslar, ruhoniylar, jamoat arboblari nisbatan kam daromadga ega bo'lishi mumkin, lekin, shu bilan birga, ko'plab

boy tadbirkorlar yoki yuqori darajali mansabdorlardan yuqori nufuzga ega bo'lishi mumkin.

Sotsial rol - bu sotsial tizimda muayyan maqomni egallagan odam bajaradigan xatti-harakatlar yig'indisidir. Bunda har bir maqom bir emas, balki bir necha rollarni bajarishi mumkin. Bir maqom ko'rsatmasini bajarishdagi rollar yig'indisi rollar to'plami deyiladi. Ko'rinib turibdiki, odamning holati jamiyatda qancha yuqori, ya'ni uning sotsial maqomi qanchalik baland bo'lsa, u shunchalik ko'p rollarni bajaradi.

Sotsial stratifikatsiya - bu odamlarning qandaydir yig'indisini sotsial sinfga, ierarixik martaba (yuqori va quyi)qatlamiga differensiatsiyalashuvidir (tabaqalanishidir).

Sotsial struktura - bu keng ma'noda bir butun jamiyatning tuzilishi, uning barcha asosiy unsurlari o'zaro aloqalari tizimidir. Tor ma'noda, sotsial struktura — sotsial-sinfy struktura, birlikdagi va o'zaro ta'sirlardagi sinflar, sotsial qatlamlar, guruhlar yig'indisidir. Tarixiy jihatdan jamiyatning sotsial strukturasi keng ma'noda sotsial-sinfylikka nisbatan ancha oldin paydo bo'lgan. Jumladan, etnik birliklar sinflar paydo bo'lmasdan ilgari urug'chilik davridayoq shakllangan. Har qanday strukturaning, jumladan, sotsial strukturaning ham yana bir tavsiflaridan biri — bu ularning ierarixik jihatga ega bo'lishidir.

Sotsiologik tadqiqotlar metodi - bu ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil etish, ya'ni axborotlar olishning asosiy usullari va yo'l-yo'riqlaridir, yoki tadqiqotni kuzatish, hujjatlarni yoki so'rovlarni tahlil etish kabilar yordamida tadqiq qilish demakdir.

Sotsial taraqqiyot (progress) - XIX asrda aksariyat sotsiologik nazariyalar sotsial taraqqiyot konsepsiyasini rivojlantirishga urindi. Dunyodagi o'zgarishlar muayyan yo'nalishlarda ro'y berishiga doir tasavvurlar qadimgi davrdan boshlab shakllandi. Shu bilan birga, taraqqiyotga regress (orqaga ketish, inqiroz) qarama-qarshi qo'yildi: taraqqiyot harakatlari pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga, quyi takomillikdan ko'proq takomillashishga o'tishni anglatadi. Taraqqiyot asosida evolyutsiya qonunlari yotishini isbot qilish uchun urinishlar bo'ldi. Taniqli sotsiolog olim G.Spenser va boshqa sotsial darvinizm tarafdorlari sotsial evolyutsiyani biologik evolyutsiyaga o'xshashlik sifatlarini tadqiq etdi. Bunda evolyutsiya jamiyatning bir xildagi oddiy strukturalarining turli-tuman va bir-birlariga o'zaro bog'liq bo'lgan strukturalarga bir yo'nalish bo'ylab o'tishi sifatida talqin etildi.

Sotsial tarkib - ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi unsurlar to'plamidir. Shunday unsur sifatida individ va individlar birlashmalarini (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshq.) keltirish mumkin.

Sotsial tizim - bu asosiy unsuri odamlardan, ularning aloqalari, o'zaro ta'sirlari va munosabatlaridan iborat bo'lgan yaxlit tuzilmadir. Bu aloqalar,

o'zaro ta'sirlar va munosabatlar barqarorlik hosiyatiga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda avloddan avlodga o'tgan holda takroriy ravishda qaytadan hosil bo'lib turadi.

Sotsial o'zgarishlar - bu qandaydir sotsial obyektning oldingi va hozirgi holati o'rtasidagi sezilarli farqlanishlar hosil qiluvchi sotsial jarayonlar natijasidir. Sotsiologiya tarixida sotsial o'zgarishlarning umumiy sabablarini aniqlashga doir ko'plab urinishlar bo'lgan. Tarixiy rivojlanish texnologik rivojlanish, sotsial ixtiloflar, integratsiyalar, moslashuvlar, g'oyalar va ilohiy kuchlar ta'siri kabilar bilan bog'liq holda yuz beradi. Nazariyalarning har birida sotsial o'zgarishlarning qandaydir omili e'tiborga olinganligi uchun ham bu sohada natijalarga erishish qiyin kechdi. Chunki, sotsial o'zgarishlarni tizimli yondashuv vositasida tadqiq etish uchun aniqlangan barcha ilmiy natijalar yig'indisi va muayyan tegishli davrning lahzalari ichidan eng asosiylarini ajratib olish asosida o'rganish zarur edi. Zero, har qanday sotsial o'zgarishlar aniq tarixiy kenglik-vaqtning uzluksizligi asosida sodir bo'ladi.

Sotsial harakatchanlik - sotsiologiyada odamlarning bir sotsial guruh, sinf, qatlamga ko'chib o'tishi sotsial harakatchanlik (mobillik) deyiladi. «Sotsial harakatchanlik» iborasini sotsiologiyaga P.A.Sorokin kiritgan bo'lib, u sotsial harakatchanlik deganda sotsial holatning har qanday o'zgarishini nazarda tutadi. Zamonaviy sotsiologiyada sotsial harakatchanlik nazariyasi jamiyat sotsial strukturasi tadqiq etishda keng qo'llaniladi.

Sotsiental - [ingl. pattern, societal] - jamiyatga taalluqli, jamiyatni bir butun holda anglash; jamiyatning ko'plab o'z funksiyalarini bajarishda bir-birlari bilan chambarchas bog'langan holda tarmoqlanib va rivojlanib ketgan sotsial strukturalar, institutlar va uyushmalardan iborat murakkab va yirik tizimga jamlangan birlik sifatida ifodalaydigan sotsial tizimning eng yuqori darajasi.

Sotsiometrik eksperiment - odamlar o'zaro aloqalari, odamning u yoki bu guruhdagi holatlarini (ishlab chiqarish jamoasi, maktab sinfi, bolalar bog'chasi va hokazo) o'rganish uchun qo'llanadi (bu metodga doir qo'shimcha tafsilotlar sotsial guruhga doir mavzuda ham berilgan). Guruhni o'rganishda har bir guruh a'zosi o'zining ish, dam olish va boshqa mashg'ulotlardagi hamkoriga taalluqli bo'lgan savollarga javoblar beradi. Uning natijalari bo'yicha guruhdagi ommaviyroq bo'lgan yoki yetakchilik sifatlarini o'zida namoyon qila oladigan shaxslar aniqlanadi.

Sotsium - [lot. socium — umumiy, birgalikda] - kishilar hayot faoliyati shart-sharoitlarining umumiylikini tavsiflovchi ijtimoiy birlik.

Stereotip - [yunon. stereos qattiq + typos iz] — qolip, tarz, taxlit.

Stigma - [yunon. stigma tamg'a, belgi, dog'] — qadimgi davrda qullar yoki jinoyatchilarning tanasiga qizdirilgan temir bilan tamg'a yoki belgi qo'yish.

Strata - [lot. stratum — qatlam, qavat, facere — qilmoq] — o‘xshash sotsial ko‘rsatkichlar kasb etgan odamlarning sotsial qatlamidir. Stratifikatsiyaviy strukturalarning asosi - odamlarning tabiiy va sotsial notengligidir. Hozirgi davrda strata tushunchasi quyidagi xususiyatlari bo‘yicha farqlanadi: 1)daromadlar darajasi; 2)hayot tarzining asosiy sifatlari; 3)hokimiyat strukturalaridagi ishtiroki darajasi; 4)mulkehilik munosabatlari; 5)sotsial nufuzi; 6)o‘zining jamiyatdagi o‘rnini o‘zi baholashi.

Struktura - [lot. structura — tuzilish] — obyektning bir butunligini va uning o‘ziga o‘zi aynanligini, ya’ni turli ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta’minlovchi barqaror aloqalar yig‘indisidir. Struktura aksariyat holatlarda «nimanidir tarkibiy qismlarini o‘zaro joylashishi va o‘zaro aloqalari» yoki «ma’lum bir tuzilish va tuzilmaga ega bo‘lgan narsa» ma’nolarida ishlatiladi.

Sub... - [lot. sub ostida, tagida, yonida] — murakkab so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi: biron-bir narsaning ostida, yonida, atrofida turgan narsani anglatadi, masalan, subtropiklar, substratosfera;

Subordinatsiya — bu yaxlit tizimdagi unsurlarning o‘zaro baravar bo‘lmagan alohida o‘ziga xos joylaridan darak beradigan bo‘ysunish va hambo‘ysunishdir (hammani teng bo‘ysunishidir).

Substrat - substrat [lot. substratum so‘zma-so‘z: tub asos, to‘shama] — turli-tuman hodisalar asosi, bir xil hodisalarning birligi yoki o‘xshashligi asosi.

So‘rov - odamlarning subyektiv olami, qiziqishlari, faoliyatlari motivlari, fikrlari, qadriyatli mo‘ljallari to‘g‘risida axborotlar olishning hech bir tengi yo‘q turi hisoblanadi. So‘rov tadqiqotchi uchun zarur bo‘lgan har qanday vaziyatni modellashtira olishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Bu odamlarning xulqlari asosida yotadigan - ularning hayotiy umidlari, mehnat jamoasidagi munosabatlar strukturasi, oilaviy hayoti kabilarga ta’sir etadi, shuningdek ularning nimalarni afzal deb bilishi, motivlari va manfaatlarining barqarorligini aniqlash uchun zarurdir. So‘rov metodi yordamida nisbatan qisqa vaqt ichida ko‘plab respondentlarni so‘rovdan o‘tkazish, katta hajmdagi axborotlarni olish imkoniyatlariga ega bo‘lish mumkin.

So‘rov metodi - bu intervyu oluvchi (intervyuer) yoki anketa (so‘rovnoma) savollariga javoblar berish yo‘li bilan bevosita yoki bilvosita dastlabki axborotlarni yig‘ish metodidir. So‘rovlar turli asoslarga binoan tasniflashtiriladi. Dastavval anketa so‘rovlari va intervyu tushunchalarini bilishga ehtiyojlar paydo bo‘ladi.

Taymer - [ingl, timer < time vaqtni belgilash] — qandaydir texnologik jarayon yoki uning alohida bosqichlarini nazorat qilish yoki muvofiqlashtirish qurilmasi, yoki ma’lum vaqt birligi ichida biron-bir mashinani o‘chirib-yondirib turuvchi murvatli qurilma.

Tahlil kategoriyasi - tadqiqot konsepsiyasidagi tayanch nazariy tushunchalarni mantiqan qayta qurish natijasida matndagi axborotlarni empirik belgilarini anglatadigan mazmuniy birliklardir. Tahlil kategoriyasiga alohida talablar qo'yilgan: ular tadqiqotning nazariy tushunchalarini ifodalashi lozim, matnda belgilarning (ma'nolarga oid birliklari) mosligiga erishish lozim, bu kategoriyalarni tashkil etuvchi belgilarni bir xil ma'nolarda qayd etish imkoniyatiga ega bo'lish kerak. Tahlilning borishidagi axborot yig'ishning asosiy vazifasi — hujjatda ajratib ko'rsatilgan muammolar, g'oyalar, mavzularni (masalan, «boyliklarni adolatli tarzda taqsimlash» kabi) mavjud ekanligini ko'rsatib beruvchi indikatorlarni izlashdir.

Temperament - [lot. temperamentum tegishli ravishdagi (qismlarning) bir-birlariga o'zaro nisbati; muvofiq, mutanosib] — shaxsning ruhiy faoliyati o'zgarishini tavsiflovchi va oliy nerv faoliyatining fiziologik asosiga ega bo'lgan individual xususiyatlar yig'indisi. Temperament his-tuyg'ular ichida yoki sirtidagi qo'zg'alishlar ta'siri o'laroq paydo bo'ladi.

Texnika - sotsiologik tadqiqotlarda u yoki bu metoddan samarali foydalanish uchun maxsus yuqori malakalar orttirish natijasida paydo bo'ladigan yo'l-yo'riqlar yig'indisidir. Masalan, savollarni qanday berish texnikasi — qanday shaklda savollar berish lozim? (ochiq, yopiq, yarim ochiq, ko'rgazmali va boshqa shakllarda), javoblarni qanday qayd etish kerak? (qanday shkalalardan (ko'rsatkichlardan) foydalanish lozim: nominal (nomma-nom tarzda), tartibini ko'rsatgan holda, munosabatlar tarzida), anketani (so'rovnomani) tarqatishni qanday tashkil etish lozim? (respondentlar bilan ularning ish joylarida to'g'ridan-to'g'ri ravishda yoki boshqa biror joyda so'rovlar o'tkazish), kuzatish ko'rsatkichlarini qanday qilib to'g'ri va ishonchli tarzda tanlash mumkin?

Texnotronika - [ingl. technetronic] — elektronikadan foydalanib jamiyatga ta'sir etuvchi texnika vositalari.

Tertiar - [lot. tertius uchinchi].

Tizim - bu yaxlit birlikni hosil qiladigan, bir-birlari bilan o'zaro bog'langan muayyan tarzda tartibga solingan unsurlardan iboratdir. Har qanday yaxlit tizimning ichki tabiati va mazmunini, uni uyushtirishning moddiy asosini uning tarkibi va unsurlari yig'indisi belgilab beradi.

Topologiya - [yunon. topos joy, logos ta'limot] — joylarni o'rganishga doir ilmiy yo'nalish.

Tolerantlik - [lot. tolerantia — chidam] - begona fikrlar va dinlarga nisbatan chidamli bo'lish.

Totalitar - [lot. totalis— to'la, butunlay] - jamiyatning barcha sohalarini nazorat qilishga asoslangan, demokratik tashkilotlarni taqiqlash, inson konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tugatilgan, taraqqiyparvar kuchlarni quvg'in qiladigan, militaristik ijtimoiy tuzum, davlat, siyosiy rejim.

Tranzit - [lot. transitus — o'tkinchi, o'tish] — biron-bir davlatning yoki mamlakatning bir tuzumdan ikkinchisiga o'tishdagi oraliq davr yoki modernizatsiya jarayoni nazarda tutiladi.

Transaksiya - [lot. transactio — bitim tuzish] - turli shakllardagi buyurtmalarni elektron shaklda berish uchun kasbiy faoliyat yuritishga litsenziya olish va hujjatlar almashish uchun soliq deklaratsiyalari kabilardir (masalan, masofali ta'lim berish, elektron aloqa bilan sog'liqqa doir maslahatlar berish va hokazo).

Transformatsiya - [lot. transformatio — o'zgarish, boshqa narsaga aylanish, shakl o'zgarishi] - siyosatshunoslikda siyosiy o'zgarish yoki modernizatsiya jarayoni natijasida bir holatdan ikkinchisiga o'tish ma'nosida ishlatiladi.

Transsendent - [lot. transcendens-chegaradan chiqib ketgan] - tajribalar chegarasidan narida turgan, tajribalardan tashqarida bo'lgan, anglash mumkin bo'lmagan nargi olam.

Umumiy sotsiologiya - bu sotsiologik bilimlarning konseptual o'zagidir. Uning predmeti sifatida hodisalar o'zaro sotsial bog'langanligining universal shakllarini ko'rsatish mumkin. Umumiy sotsiologiya sotsial hodisalarni va har qanday sotsial jarayonlarni tavsiflash va tushuntirishga imkon beradigan konseptual apparatni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar yig'indisidir. Umumiy sotsiologiya predmetning mohiyati jamiyat, sotsial struktura, sotsial stratifikatsiya, sotsial harakat, sotsial institut, rollar va maqomlar, guruhlar, ixtiloflar, o'zgarishlar, sotsiallashtirish kabi sotsiologik kategoriyalarni o'zida ifodalaydi. Bu kategoriyalar odamlarning hayotiy faoliyatlarini jarayonlari — iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ta'lim, diniy, oilaviy aloqalar va turli hodisalarning umumiy xususiyatlari va xossalari qayd etadi, ilmiy tadqiqotlarga olib kiradi.

Urbanizatsiya - [lot. urbanus shaharga oid] — sanoat va aholining yirik shaharlarda to'planishi, jamiyatni rivojlanishida shaharlarning (qishloqqa nisbatan) rolini oshib ketishi.

Universal - [lot. universalis — umumiy] - har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajaradigan.

Universum - universal [lot. universalis umumiy, yalpi, barchaga baravar taalluqli] - 1) ko'p narsani o'z ichiga olgan yoki qamrab olgan, har tomonlama; 2) belgilangan turli va ko'plab maqsadlar uchun yaroqli bo'lgan, turli tuman funksiyalarni bajaruvchi.

Uklad - bu tushuncha ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo'jalik yuritish shakliga nisbatan ishlatiladi.

Utilitar - [lot. utilitas — naf] - foyda, amaliy foyda olishni nazarda tutish.

Uchinchi sektor - dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat

notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Feminizm - [lot. femina — ayol] - erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Fenomen - [yunon. phainomenon — noyob] - kamdan-kam uchraydigan va favqulodda yuz beradigan hodisa, noyob, g'aroyib.

Filantrop - [yunon. philanthropes] — filantropiya bilan shug'ullanuvchi, xayr-ehson qiluvchi shaxs.

Ekvivalent - [lot. aequus teng + valens (valentis) kuchiga, ahamiyatiga, bahosiga ega bo'lgan] - 1) nimanidir (masalan, predmet, miqdor) nimagadir teng bahoda yoki boshqa tegishli munosabatda (masalan, boshqa predmet yoki miqdorga) uning o'rini bosuvchi yoki uning ifodasi bo'lib xizmat qiluvchi; 2) boshqa tovarning qiymatini ifodalaydigan tovar ekvivalent tovar, deyiladi; barcha boshqa tovarlarning qiymatini o'zida ifodalaydigan tovar, umumiy ekvivalent (pul) deyiladi.

Ekspektatsiya - [ingl. expectation] — shaxsga nisbatan uning sotsial rollarni ijro etish me'yorlarini aniqlab beradigan kutishlar va talablar tizimi.

Eksperiment - [lot. experimentum — sinov, tajriba] — biron-bir hodisa (jarayon, vaziyat) ustidan muayyan aniq maqsadga qaratilgan kuzatuvni amalga oshirish chog'ida uning tavsiflarining bir qismi (yoki aksariyati) muayyan tartib va izchillik asosida o'zgartirilsa, unda mazkur hodisaning (jarayon, vaziyat) tavsiflari qanday namoyon bo'lishini tadqiq etish strategiyasidir.

Eksperimental vaziyat - bu eksperiment o'tadigan shart-sharoitlar yig'indisidir. Ular dala vaziyati va laboratoriya vaziyatlariga bo'linadi. Ilmiy eksperimentning betakrorligi bu jarayon natijasida olimlarning qandaydir muayyan vaziyatlarni «boy berishiga» olib kelsada, bu jarayon natijasi sotsial hodisalar to'g'risida juda qimmatli axborotlar olishida namoyon bo'ladi..

Eksperimental guruh - eksperimental omillarga (bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchanliklarga) ta'sir ko'rsatuvchi birlikdan iborat birlikdir. Obyektni tanlashning umumiy talablaridan tashqari — o'rganilayotgan obyektlar sinfidagi o'ziga xoslik — bu guruhlariga eksperiment davrida ular tarkibining nisbatan barqarorligi va doimiy ravishda nazorat qiladigan kuzatuv imkoniyatiga ega bo'lishi kabi talablar qo'yiladi; shuningdek, ko'pchilik holatlarda guruhning eksperimentda ishtirok etishga ixtiyoriy ravishda rozilik bildirishi talab etiladi.

Eksperiment obyekti - sotsial guruh, jamoa, shaxs (eksperiment ishtirokchilari) kabilardan iborat. Eksperimentda ikki xil obyekt (eksperiment birligi) mavjud: nazorat qilinadigan va eksperimental guruhlar. Ikki guruhni taqqoslash farqlanishlarni aniqlaydi va kutilgan o'zgarishlar yuz bergani yoki bermaganligi haqida tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Eksperimentda ishtirok etuvchilar odatda 10-15 kishidan ortmaydi.

Eks-post-faktum - eksperimenti faraziy sabablar ta'sirlarini hozirgi davrdan o'tgan zamonga qarab rekonstruksiya (qayta tiklashni) qilishni nazarda tutadi.

Eksternalizatsiya - [lot. extra boshqa, tashqari; ingl. external tashqi] - chegaradan tashqariga chiqarish; tashkilotning o'ziga tegishli jarayonlarni va resurslarini o'z chegaralaridan chiqarish.

Ekstraktiv - [lot. extraactus] — ko'chirilgan, olingan.

Elektoral - [lot. elector — saylovchi] - saylanadigan, tanlanadigan.

Elektorat - [lot. elector — saylovchi] - saylovchilar.

Emerdjent evolyutsiyasi - [ingl. emergence vujudga kelish, yangilikning paydo bo'lishi, paydo bo'lish] — sifatli yangilikning paydo bo'lishini bilib bo'lmaydi va u tabiiy qonuniyatga asoslanmagan qabilidagi qarashlarga ega ingliz-amerikan idealizmining zamonaviy falsafiy nazariyasi; materialistik dialektikaning ziddi.

Empirizm - [yunon. empeirila tajriba] — sotsiologiyada tajribaga asoslanganlik ma'nosini beradi.

O'zaro sotsial ta'sir - bu odamlarning bir-birlariga ta'sir qilishlarining o'z boshidan kechirishlariga oid xatti-harakatlaridir. O'zaro sotsial ta'sir mexanizmi u yoki bu xatti-harakatlarni amalga oshirayotgan, bu xatti-harakatlar tomonidan paydo bo'ladigan sotsial birlik yoki yaxlit jamiyatdagi o'zgarishlarning individlarga ta'sirlari, va nihoyat, bu ta'sirlarga nisbatan aks ta'sirlarni amalga oshiruvchi individlarni o'z ichiga oladi. O'zaro ta'sirlar yangi sotsial munosabatlarni paydo bo'lishiga olib keladi. Sotsial munosabatlar — bu individlar va sotsial guruhlar o'rtasidagi nisbatan barqaror va mustaqil o'zaro aloqalardir.

Hujjatlarni tahlil etish - har qanday hujjatda mavjud bo'lgan ma'lumot axborot manbasi sifatida xizmat qiladigan sotsiologik tadqiqot metodidir. Axbort manbalari quyidagilardan iboratdir: bayonnomalar, ma'ruzalar, qarorlar, rezolyutsiyalar, gazeta va jurnaldagi maqolalar, xatlar, badiiy asarlar, illyustratsiyalar va hokazo. Bu metod ro'y berib o'tib ketgan hodisalar, ishtirokchilarni so'rov qilish imkoniyati bo'lmagan bevosita kuzatuvlar haqida ma'lumotlar olishga imkon beradi. Ko'p yillar mobaynida bir hodisaning matnlar bo'yicha o'rganish uning o'zgarib va rivojlanib borish jarayoni xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN XORIJIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. American Economic Review (англ.) русск., Vol. 91, №5 (Dec., 2001), pp. 1369-1401.
2. Андреев Ю. П., Коржевская Н. М., Костина Н. Б. Социальные институты: содержание, функции, структура.-Свердловск:Изд-во Урал. ун-та, 1989.-С.19-27.
3. Acemoglu D., Robinson J. The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation/ The American Economic Review (англ.) русск., Vol. 91, №5 (Dec., 2001), pp. 1369-1401.
4. Apter D. Politics of Modernization. Chicago, 1965.-P. 67.
5. Аристотель. Соч.: В 4 т.-М.: Мысль 1984.-Т.4.-С.528.
6. Арутюнян Ю. В., Дробижева Л. М., Сусоколов А. А. Этносоциология: Учебное пособие для вузов.-М.:Аспект Пресс, 1998.-С.34, 222-223.
7. Асп Э. Введение в социологию. Перевод с финского языка.-СПб.: Издательство: «АЛТЕЙЯ», 1998.-С.22, 23, 58-59, 60-65.
8. Бабосов Е. М. Практикум по социологии: Учебное пособие для студентов вузов/Е. М. Бабосов.-Минск: «Тетра Системс», 2003.-С.62-63, 164-165, 170-171, 216, 306.
9. Белла Р. Социология религии//Американская социология.-М., 1972.-С.287.
10. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания.-М.: Медиум, 1995.
11. Бодрийяр Ж. Прозрачность зла.-М., 2006.-С.107
12. Большой толковый словарь (Collins). Том 2 (П-Я): Пер. с англ.-М.: Веча, АСТ, 1999.-С.300.
13. Бубер М. Я и Ты. Квинтэссенция: Филос. альманах, 1991.-М.: Политиздат, 1992.-С.303, 315, 327.
14. Бергер П. Приглашение в социологию: Гуманистическая перспектива.-М., 1996.-С.73-76, 78-80.
15. Болонский процесс и грядущие изменения//<http://www.student45.ru/2008/09/06/bologna-process-and-changes/>.
16. Буртовая Е. В. Конфликтология. Учебное пособие.-М.: 2002// http://sbiblio.com/biblio/archive/unknown_konflictions.
17. Bossuet. R. Politique tiree des propres paroles de l'Écriture Sainte// Oeuvres choisies de Bossuet.-Versailles, 1822. Т. XXI.-С.50-51.
18. Вебер М. Основные социологические понятия//Западно-европейская социология XIX-начала XX веков.-М., 1996.-С.476-477.
19. Веблен Т. Теория праздного класса.-М., 1984.-С.200-201.
20. Всемирный доклад по социальным наукам/пер. на русский В. С. Хелемендина.-М.: Издательство МАГИСТР-ПРЕСС, 2002.-С.20.
21. Габиани А. А. На краю пропасти: Наркомания и наркоманы.-М.: Мысль, 1990.-С.111-113.
22. Гегель Г. В. Ф. Философия права.-М., 1990.-С.223, 293-294.

23. Гидденс Э. Устройство общества. Очерк теории структуризации. - М.: Академический Прект, 2005. - С. 58-59.
24. Гидденс Э. Социология. - М.: Эдиториал УРСС, 1999. - С. 232-510.
25. Гоббс Т. О гражданине. Соч.: в 2 т. - М., 1989. Т. 1. - С. 285, 291, 292.
26. Gold R.L. Roles in Sociological Fieldwork/ R.L. Gold// Social Forces., 1958. - Vol. 36. - P. 217-223.
27. Гофман А. Б. Семь лекций по истории социологии: Учебное пособие для вузов. 5-е изд. - М.: Книжный дом «Университет», 2001. - С. 45-46.
28. Григорьев СИ., Растов Ю. Е. Основы современной социологии: Учеб. пос. // <http://irbis.asu.ru/mmc/grig/4.2.u.shtml>.
29. Грицанов; под общ. ред. А. Н. Елсукова и др. - 2-е изд., перераб. и доп. - Минск: Выш. школа, 1997. - С. 125, 80-181, 187, 199-201, 240-241, 245, 253.
30. Давыдов С. А. Конспект лекций по социологии. - М.: Издательство: Эксмо, 2008. - С. 70-72, 73-74, 75-79.
31. Daniel Lerner. The Passing of Traditional Society. - P. 438.
32. Данные из доклада ВОЗ о положении в области алкоголя. Употребление алкоголя // Информационный бюллетень №349, январь, 2015 г. // <http://who.int/mediacentre/factsheets/fs349/ru/>.
33. Девятко И. Методы социологического исследования. - М., 2006. - С. 46.
34. Декларация о кооперативной идентичности, принятая Международным кооперативным альянсом на XXXI конгрессе МКА 20 сентября 1995 г. - М., 1996. - С. 3.
35. Джери Дж., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь. Том 1. - М.: ВЕЧЕ. АСТ, 1999. - С. 159-163, 508, 510.
36. Дж. К. Гэлбрейт и эволюция американского институционализма. Теория «нового индустриального общества» // http://studme.org/1008062212245/politekonomiya/gelbreyt_evolyutsiya_amerikanskogo_institutsio_nalizma_teoriya_novogo_industrialnogo_obschestva.
37. Добренъков В. И., Кравченко А. И. Методы социологического исследования: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2006.
38. Донцов А. И. Проблема групповой сплоченности. - М.: Наука, 1986. - С. 16.
39. Durkheim E. Les formes elementaires de la vie religieuse. Les systemes de religion en Australie. - Paris, 1960. - P. 112.
40. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. - СПб., 1912. - С. 3.
41. Дюркгейм, Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. Пер. с фр. - М.: Наука, 1990. - С. 47, 346-347, 462-463.
42. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение/ Пер. с фр., сост., посл. А. Б. Гофмана. - М.: Канон, 1995. - С. 120, 168-170.
43. Европейская система перезачета кредитов (European Credit Transfer System). // <http://europa.eu.int/comm/education/socrates/ects.html#cl>.
44. Екадумова И. И., Мазаник, М. Н. Социология. Ответы на экзаменационные вопросы. - Минск: «ТетраСистемс», 2010. - С. 8, 45-46, 140-141.

45. Еникеев М.И. Основы общей и юридической психологии: Учебник для вузов.-М.:Юристъ,1996.-С.188.
46. Енисеев М. Узбекистан борется с алкоголизмом и курением// [http://inozpress.kg/news /view/ id/ 48177](http://inozpress.kg/news/view/id/48177). 19.01.16.
47. Елсуков А.Н. Социология. Краткий курс/А.Н. Елсуков.- Минск: ТетраСистемс,2009.-С.44-45.
48. Ерина С.И. Организация и методы прикладного социально-психологического исследования: метод. указания.-Ярославль,2004.-С.17.
49. Жаринов К.В. Терроризм и террористы: Ист. справочник.- Минск: Харвест,1999.-С.23-35.
50. Зарецкий А.Д. Менеджмент социальной работы. Изд.2-е, доп. и перераб.- Ростов н/Д: Феникс,2008.-С.17,23
51. Зборовский Г.Е. Общая социология: Учебник. 3-е изд., испр. и доп.- М.: Гардарики, 2004.-С.12-17.
52. Здравомыслов Н.И. и др. Пер. В.Г. Кузьминов; Под общ. ред. Н.И. Лапина.- М.: Высш. шк.,2006.-С.83-84.
53. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Концепция развития профессионального образования// Инновационные процессы в сфере высшего профессионального образования: Материалы Всеросс. научн.-практ. конференции.- Екатеринбург: УрГПУ,2007.-С.22-37.
54. Зеркало мнений: Результаты социологического опроса населения России.- М.,1993.
55. Зиммель Г. Проблемы социологии// Избранное. Т.2. Созерцание жизни.- М.: Юристъ,1996.-С.452,465-473.
56. Зиновьева Д.М. Психология отчуждения: монография.- Волгоград: ГОУ ВПО «ВАГС»,2005.-С.11-12.
57. Ибн Халдун. Ал-Мукаддима. Состав. и пер. с араб. А.В. Смирнова./ Историко-философский ежегодник 2007.- М.: Наука,2008.-С.192-193.
58. Иванов М.А. Беседа как метод исследования// Социологическое исследование,1989. № 4.
59. Ионин Л. Г. Георг Зиммель — социолог.- М.: Наука,1981.-С.95.
60. Исаев Б.А. Социология. Краткий курс/Б.А. Исаев.- Санкт-Петербург: Питер,2007.-С.26,34,40,50,51-55.
61. История НКО в США. Блог посольства США в Москве// [http://embassy-voices. livejournal. com/19048.html](http://embassy-voices.livejournal.com/19048.html).
62. Кармадонов О.А. Откровения и парадоксы символического интеракционизма // Социологические исследования, 2006.-№2.-С.4,197.
63. Информационный бюллетень о наркоситуации. Центрально азиатск регион = Information bulletin on drug related situation the Central Asian region. ОБСЕ.-Т.: Baktria press,2015.-С.47.
64. Каменская Е.Н. Социология: Учебное пособие.- М.: Дашков и К,2005.-С.31-32.
65. Кашанина Т.В., Кашанин А.В. Основы российского права: Учебник для вузов. 3-е изд., перераб. и доп.- М.: Издательство НОРМА,2003.-С.12.

66. Klages H. Wertorientierungen im Wandel. Rückblick, Gegenwartsanalyse, Prognose.-Fr/M., 1984.-P.38.
67. Ковалевская Е.В. Социология: учебное пособие, практикум по дисциплине.-М.: МЭСИ, 2004.-С.18-20,23, 31-32,37-39.
68. Clock Ch., Stark R. Religion and Society in Tension.-NY., 1965.-P.17.
69. Коос С. Объясняя этическое потребительское поведение в Европе (эмпирические данные по 19 странам)//Экономическая социология.Т. 10.-М., 2009, №2.-С.76.
70. Костина П.Б. Религиозная общность: проблемы социологических исследований. Екатеринбург, 2001.
71. Кожушко Е.П. Современный терроризм: Анализ основных направлений.-Минск: Харвест, 2000.-С.11.
72. Кон И.С. Социология личности.-М.: Политиздат, 1967.-С.52-53.
73. Кравченко А.И Социология: учебник.-М.: ТК Велби, Издательство Проспект, 2006.-С.95.
74. Кричевский Р. Л., Дубовская Е.М. Психология малой группы.-М.: Мысль, 1991.-С.19,66.
75. Кули Ч.Х. Общественная организация. изучение углубленного разума.//Тексты по истории социологии XIX-XX веков. Хрестоматия./ Сост. и отв. ред. Добренков В.И., Беленкова Л.П.-М.: Наука, 1994.-С.353-354.
76. Кутлалиев А. Умеете ли вы задавать вопросы?//Новые рынки. 2001. № 4.-С.3-4.
77. Лапин Н.И.. Эмпирическая социология в Западной Европе. Учебное пособие.-М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2004.-С.25-28.
78. Lasswell H., Kaplan A. Power and society: A framework for political inquiry.-N. Y., 1963.-P.154-215.
79. Леонова О.В. История классической социологии: учебно-методическое пособие.-Астрахань, 2012.-С.18-19.
80. Лапкин В.В. В поисках России политической.//Полис, 1998. № 6.-С.172.
81. Локшина С.М. Краткий словарь иностранных слов.-10-е изд., стер.-М.: Рус.яз., 1988.-С.488.
82. Луман Н. Л. Общество как социальная система. Пер. с нем/А. Антоновский.-М.: Логос. 2004.-С.84-86, 88-95.
83. Макконелл К.Р, Брю С.А. Экономические принципы, проблемы и политика.-М., 1992.-С.46-47.
84. Макс Вебер за 90 минут/Сост. Д. Митюрин.-М.: АСТ; СПб.: Сова, 2006.-С.48-49, 57, 73.
85. Марковская И.М. Основы социально-психологических знаний / <http://psyega.ru/3407/gruprovaya-splochen-nost>.
86. Масионис Дж. Социология. 9-изд. Пер. с англ.-Санкт-Петербург: ПИТЕР, 2004.-С.27, 260-261.

87. Методическое пособие социолога-практика (словарь-справочник) / Под ред. Д.А.Шевченко, А.И.Кравченко.-М., 2001.-С. 86.
88. Монтеские Ш. О духе законов//Монтеские Ш. Избр. произведения.-М., 1955.-С.166.
89. Мунтян М. Государство как политический институт//<http://muntjan.viperson.ru/wind.php?ID=521301&soch=1>.
90. Мунтян М.А. Политический плюрализм (теоретический очерк) / <http://ru.convdocs.org/docs/index-449716.html>.
91. Мухина В., Хвостов А. Отчуждение от других: отчуждение ленивых и равнодушных//Развитие личности, 2013, №1.-С.68-71.
92. Мягков А.Ю. Влияние метода сбора данных на вербальное поведение респондентов//Социологический журнал, 1999. № 1/2.-С.133-142.
93. Наркомания в крупнейших странах мира в 2014-2015 годах//<http://www.vrednye.ru/narkomaniya/narkoma-niya-v-sssr-i-v-sovremennom-mire.html>.
94. Ниворожкина Л. Сравнительный анализ бедности в России и Швеции//Бедность: взгляд ученых на проблему\Под ред. М.А. Можиной.-М., 1994.-С.77-78
95. Нурышев Г.Н., Бразевич Д.С. Социология: Учеб. пособие.-СПб.:СПбГУНиПТ, 2010.-С.11-12, 19-28, 95-96, 122-124, 128-129.
96. Общая социология: Учеб. пособие/Под общ. ред. проф. А.Г.Эфендиева.-М.: ИНФРА-М, 2007.-С.90, 338.
97. Овруцкий А.В.. Феноменология общества потребления//<http://cyberleninka.ru/article/n/fenomenologiya-obschestva-potrebleniya>.
98. Основы политической науки. Учеб. пособие для вузов. Под ред. В.П. Пугачева. Ч. I.-М., 1996.-С.87-89, 204.
99. Основы социологии: Курс лекций/[А.И. Антолов, В.Я. Нечаев, Л.В. Пиковский и др.]: Отв. ред. Г.Эфендиев.-М., 1993.-С.130.
100. Ольшанский Д.В. Политический PR.-СПб.: Питер, 2003.-С.41.
101. ООН: в Афганистане растет производство наркотиков// <http://www.aif.ru/society/safety/1380733>.
102. Парсонс Т. Понятие общества: компоненты и их взаимоотношения //file:///category/biblioteka/klassiki-sotsiologii/inostrannye-istochniki/talkott-parsons.
103. Парсонс Т. О структуре социального действия.-М.: Академический Проект, 2000.-С.154-155, 157-159.
104. Поппер К. Открытое общество и его враги.// Общая социология. Хрестоматия/Сост. А.Г.
105. Перенджиев А. США наносят вред Афганистану и потворствуют развитию наркотрафика. 08.07.2016//<http://www.lawinrussia.ru/node/435347>.
106. Преступность как девиантное поведение //<http://student.zoomru.ru/psih/prestupnost-kak-deviantnoe-pove-denie/186268.1524054.s2.html>.

107. Природопользование. Словарь-справочник./Под ред. Реймерс Н.Ф..-М.: Мысль, 1990.-С.17-18.
108. Профилактика (предупреждение) экстремизма и терроризма. Методическое пособие для пропагандистов. Под общей ред. Л.Н. Панковой, Ю.В. Таранухи -М.: Университетская книга, 2010.-С.312.
109. Радугин А.А., Радугин К.А. Социология: Курс лекций: Для студентов и преподавателей вузов.-М.: Владос, 1995.-С.38-40, 75-77, 124.
110. Растоу Д.А. Переходы к демократии: попытка динамической модели. //Полис. 1996. № 5.-С. 7.
111. Рейтинг стран мира по уровню потребления алкоголя. Гуманитарная энциклопедия // Центр гуманитарных технологий. (послед. ред.: 07.07.2014) // <http://gtmarket.ru/ratings/rating-countries-alcohol-consumption/info>.
112. Рейтинг стран мира по уровню преднамеренных убийств // <http://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/>.
113. Розов Н.С. Закон Ибн Халдуна. К чему может привести рост коррупции и силового принуждения в России // Политический класс. 2006, №16.-С.61.
114. Rostow W. Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto, Cambridge, 1960; Idem.: Politics and the Stages of Growth. Cambridge, 1971. -Р.61-66.
115. Руденко Л.Д. Современные методы социологических исследований: учебное пособие.-Ярославль: ЯрГУ, 2012.-С.61-65.
116. Руденский Е.В. Социальная психология: Курс лекций.-Новосибирск: НГАЭиУ, 1997. С.166-170.
117. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре // Руссо Ж.-Ж. Трактаты. -М., 1969.-С.160, 168, 170.
118. Руссо Ж.-Ж. О политической экономии // Руссо Ж.-Ж. Трактаты.-М., 1969.-С.113.
119. Религии мира // http://www.xliby.ru/nauchnaja_literatura_prochee/sociologija_konspekt/p8.php.
120. Sarapata A., Doktor K. Elementy socjologii przemyslu.-Warszawa, 1967.-S.7.
121. Сайт «Молодежь за Чистый Интернет» // <http://www.truenet.info/>
122. Самойлова Л. Наркотики как социальная проблема // <http://www.referats.pro/sociology/42002-narkotizm-kak-socialna-ja-problema.html>.
123. Санович С. Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий обзор). Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала "Socpolitika.ru" // http://www.socpolitika.ru/rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.
124. Сартр Ж.-П. Тошнота: Избр. произведения.-М.: Республика, 1994.-С.440.
125. Смелзер Н. Социология: пер. с англ.-М.: Феникс, 1998.-С.4, 265-267, 268-274, 428-430, 434, 816-817.

126. Современное состояние преступности в мире//<http://studopedia.org/5-50394.html>.
127. Scott R. Institutions and Organisations, -London: Sage, 2001. -P.29-31.
128. Сокращение спроса на наркотики. Аналитический обзор//<http://www.ncdc.uz/ru/sokrashchenie-sprosa-na-narkotiki/analiticheskie-obzory/>.
129. Спектор Р. Убийцы категорий. Революция в розничной торговле и ее влияние на культуру потребления / Пер. с англ.-М.:Добрая книга, 2005.-С.133.
130. Спекторский Е. Понятие общества в античном мире. Этюд по семантике обществоведения.-Варшава,1911.-С.11-16
131. Современные трактовки глобализации в социологии и ее влияние на развитие социологической теории//<http://mybiblioteka.su/1-120842.html>
132. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество.-М.,1992.-С.162-163,170-172.
133. Социальная борьба. Социальный прогресс и регресс//<http://ehu.by/content/sotsialnaya-borba-sotsialnyi-progress-i-regress? page=0,4>.
134. Социология: Учебник/Под. ред. проф. Ю.Г.Волкова.-Изд. 2-е, испр. и доп.-М.:Гардарики,2003.-С.44-46.
135. Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей.-Ульяновск:УлГТУ,2004. -С.6-9,45-46
136. Социология:учебник для студентов вузов/под. ред.В.К. Батурина.-4-е изд.,и доп.-М.:ЮНИТИ-ДАНА,2012.-С.56-57.
137. Социология: Учеб. пособ. для студентов высш. учеб. заведений// А.Н.Елсуков, Е.М.Бабосов, А.Н.Данилов и др.-Минск,1998.-С.119.
138. Социология. Основы общей теории: Учебник для вузов. Отв. ред. Г.В.Осипов, Л.Н.Москвичев.-М.:Норма,2003.-С.80,637-639.
139. Социология: Курс лекций для студентов всех направлений и специальностей.-Ульяновск:УлГТУ,2004.-С.192-194,195-198.
140. Социология: Словарь-справочник. Т.4. Социологическое исследование: Методы математики и статистика.-М.,1991.-С.21-22.
141. Социология: Словарь-справочник.-М.,1990. Т.1-3. Т.2.-С.71.
142. Социология: Энциклопедия/Сост. А.А.Грицанов, В.Л.Абушенко, Г.М.Евелькин, Г.Н. Соколова, О.В.Терешенко.-Минск: Книжный дом, 2003.-С.303,503,520,547, 626-627,1082, 1098,1175,.
143. Социологические исследования,2001, № 2.-С.117-120
144. Социальные различия и социальное неравенство//<http://www.grandars.ru/college/sociologiya/socialnaya-struktura.html>.
145. Социальные кризисы: сущность и типология//<http://moyniver.net/socialnye-krizisy-sushh-nost-i-tipologiya/>.
146. Статистика самоубийств // lossofsoul.com/DEATH/suicide/statistic.htm. 25.08.2016.
147. Статистика употребления алкоголя в мире//<http://yatrev.com/brosit/semya-i-obshhestvo/statistika-upotrebleniya.html>.

148. Суицид. Причины, классификация. 12 февраль 2014 г. // <http://gn24.net/publ/psychology-psychiatry/suitsid-prichiny-klassi-fikatsiya.html>.
149. Субхи А. М. Философия истории. - Александрия: Аль-Сакафа аль-Джамия. 1975. - С. 28.
150. Saint-Simon С. Н. La Physiologie sociale. Oeuvres choisies. - Р., 1965. - С. 57.
151. Transparency International: Индекс восприятия коррупции 2015 года. [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий. - 27.01.2016. URL // <http://gtmarket.ru/news/2016/01/27/7287>.
152. Управление — это наука искусство: А. Файоль, Г. Эмерсон, Ф. Тэйлор, Г. Форд. - М.: Республика, 1992. - С. 20-42, 237-271.
153. Управление персоналом. Словарь-справочник // <http://psyfactor.org/lybr31.htm>.
154. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. - М., 1991. - С. 365;
155. Фрейд З. Психоанализ. Религия, Культура. - М., 1992. - С. 266-267.
156. Фромм Э. Анагения человеческой деструктивности. - М., 2009. - С. 232-239, 342-346.
157. Фролов С. С. Социология: Учебник для высш. учеб. заведений. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательская корпорация «Логос», 1996. - С. 173-175.
158. Хантингтон С. Третья волна. Демократизация в конце XX века / Пер. с англ. - М., 2003. - С. 134-179.
159. Huntington Samuel P. The Ungovernability of Democracy? // The American Enterprise, November/December, 1993. - P. 13.
160. Хайек Ф. А. Дорога к рабству. - М., 1983. - С. 31.
161. Хейвуд Э. Политология: учебник для студентов вузов / Пер. с англ. под ред. Г. Г. Водолазова, В. Ю. Бельского. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - С. 119-120.
162. Хеллевик О. Социологический метод / О. Хеллевик. - М., 2002. - С. 56
168. Хоманс Дж. Социальное поведение как обмен // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. - М.: Ин-т социологии, 1984. - С. 45-47.
163. Хьюэлл Л., Зиглер Д. Теории личности: основные положения, исследования и применение. Перевод С. Меленевской и Д. Викторовой. Глава 10. - СПб.: Питер Пресс, 1997. - С. 5-7, 182-184.
164. Chester A. Barnard. The Functions of the Executive. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1938. - P. 163., p. 23.
165. Шкала нейротизма Г. Айзенка // Типологии личности // http://studme.org/1228112822064/menedzhment/tipologii_lichnosti.
166. Щепаньский Я. Элементарные понятия социологии, - М.: Прогресс, 1969. - С. 15, 33-37, 106.
167. Eisenstadt S. Modernization: Protest and Change. Englewood Cliffs, 1966. - P. 1.
168. Юм Д. Малые произведения. Эссе. Естественная история религии. Диалоги о естественной религии. - М., 1996. - С. 304.

O'quv adabiyoti

Muqimjon Qirg'izboyev

SOTSILOGIYA

(O'quv qo'llanma)

<i>Muharrir</i>	Z.M.Hayitmatov
<i>Musavvir</i>	Ch.U.Abdusalomov
<i>Sahifalovchi</i>	M.N.Zoyitova

*Hurmatli kitobxon, Sizni qiziqtirgan masalalar
bo'yicha muallifga qo'ng'iroq qilishingiz mumkun:
+99890 991-48-48.*

Nashriyot litsenziyasi AI № 170. 23.12.2009.
Bosishga ruxsat etildi 06. 07. 2017. Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$.
Times Uz harfida terildi. 28,5 nashr t. 29,0 shartli b.t.
Adadi 3000 (1-zavod 1000) nusxa. Buyurtma № 241.

«Navro'z» nashriyoti, Toshkent shahar,
Amir Temur ko'chasi, 19-uy.

«SAYDANA-PRINT» MChJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent sh. Qamarniso k., 3-uy. Tel.: +99891 162-08-43.